O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT ARXITEKTURA VA QURILISH INSTITUTI

N.A. ARIPOVA, L.A. XOLMAMATOVA, N.B. QURBONOVA

# KASBIY PSIXOLOGIYA

**DARSLIK**

5111000 – Kasb ta’limi yo‘nalishida ta’lim olayotgan bakalavrlar uchun

**Toshkent-2018**

**UDK: 371.132**
**Mualliflar:** N.A. Aripova, L.A. Xolmamatova, N.B. Qurbonova
"Kasbiy psixologiya" darslik.

Darslikda ta'lim va taraqqiyotning o'zaro bog'liqligi, ta'lim psixologiyasi kursining asosiy mazmuni bo'lgan talabalarning o'qish va uqish faoliyatini shakllantirish hamda tarbiya psixologiyasining ta'lim-tarbiya jarayonida talaba shaxsini shakllantirish kabi muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Mazkur darslik kirish qismi va 6 ta bobdan iborat bo'lib, uning birinchi bobida "Kasbiy psixologiyaning nazariy asoslari" haqida yoritilgan. Ikkinchi bobida esa, "Kasbiy o'qitishning psixologik asoslari" to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Uchinchi bobda "Kasbiy layoqat tashxisi", to'rtinchi bobda "Kasbiy faoliyat psixodiagnostikasi" haqida ma'lumotlar keltirilgan. Beshinchi bobda "Yosh davrlarining turli bosqichlarida kasbiy o'zlikni anglash ya'ni, ilk o'spirinlik davrining psixik xususiyatlari hamda talabalarning o'quv faoliyati to'g'risida gapirib o'tilga. Darslikning oltinchi bobi "Kasb va shaxs psixologiyasi ya'ni, ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarish" nazariyalariga bag'ishlangan.

**Taqrizchilar:** p.f.d. **F. Xalilov** – TDPU professori.
**M.Yu. Mahkamova** – TAQI dotsenti.

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil, 25-avgustdagi 744-sonli buyrug'ining 9-ilovasiga asosan darslik sifatida nashr etishga ruxsat berildi.*

**© *TAQI-2018***

# KIRISH

Kasbiy psixologiya fanini o‘rganish davomida mutaxassislar mehnat jamoalarida yuzaga keladigan shaxslararo munosabatlarga kirishishning psixologik mexanizmlarini anglash umuman olganda shaxslararo munosabatlarning muammolari, mehnat jamoalarida muomala, psixologiyaning umumiy qonuniyatlari va uslublarini ham keng o‘rganishga erishadilar.

Kasbiy psixologiya fani o‘quvchilarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantirish hamda amaliy ko‘nikma va malakalarni hosil qilishi lozim. Buning uchun kasblarga doir qo‘llanmalar, tarqatma materallar bilan ta'minlash lozim. Shundagina kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to‘siqlarni oldini olgan holda o‘quvchi-yoshlarni ongli ravishda kasbga yo‘llash imkoniga ega.

Ijtimoiy taraqqiyotni ro‘yobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni jahon standartlari darajasiga ko‘tarmoq lozim, fan va texnikaning bugungi kundagi taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o‘z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizga bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan, raqobatbardosh mahsulotlar yartuvchi kasb egalarini shakllantirish joiz. Toki ular davr talablariga og‘ishmay javob beradigan, qiziqishi keng, malakasi mustahkam, xotirasi barqaror, fikr yuritishi puxta, izlanuvchan, mehnatsevar, vatanparvar, iymon – e’tiqodli insonlar bo‘lib voyaga yetishsin.

Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soha mutaxassislariga muhtojligini nazarda tutish va shunga yarasha o‘quv yurti talabalari ularning mayli, intilishi, qiziqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatiga qarab hamda u yoki bu kasbga yaroqliligini aniqlab, so‘ngra kasbga yo‘llash kerak.

Talabalarni mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ularning kasb – hunarini o‘z qobiliyatlariga yarasha to‘g‘ri tanlashlariga erishish uchun maktab o‘qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, didaktik (shuningdek, akdemik, tashkilotchilik, perseptik va h.k.) qobiliyatlari yuksak bo‘lishi, fan asoslarini turmush bilan bog‘lab o‘rganilishi, to‘garak va qo‘shimcha yordamchi kurslar oqilona uyushtirilishi, maktablarda kasb – hunar

to‘g‘risida ma’ruzalar o‘qilishi, suhbatlar, munozaralar o‘tkazilishi, sayohatlar, uchrashuvlar, kasb – hunar fotoko‘rgazmalarini tashkil qilishlari zarur. Kasbiy psixologiya fani 1800-yillarda yaratilganidan buyon mustaqil fan sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishib kelmoqda. 2 - jahon urushidan buyon psixologiyaning talablarida olimlarning klinik amaliyotlari juda ham yaxshi natijalarga erishdi. 1961-yillarda Amerika Psixologlari Assotsiyasining so‘nggi prezidenti E.L.Kelly Professional psixologlar uchun 1-ruxsatnomani Amerika Qo‘shma shtatlarida qabul qilingan.[1]

[1] T. Melchert. Fondations of Professional psychology. 2011. 1-bet.

# I BOB. KASBIY PSIXOLOGIYANING NAZARIY ASOSLARI.
## 1.1 KASBIY PSIXOLOGIYA FANIGA KIRISH

### 1.1.1. Kasbiy psixologiyaning tarixi

Kasbiy psixologiyaning ta’limni yangi mazmunda joriy qilish yuzasidan so‘ngi yillarda qo‘lga kiritgan yutuqlari buning yaqqol dalili bo‘la oladi. Ma’lumki, keyingi o‘n yil mobaynida mamlakatimizdagi barcha ta’lim tizimlarida ta’lim ishlarining mazmuni tubdan o‘zgardi. Ta’limning eksperimental ravishda tekshirilgan yangi usullari (masalan muammoli interfaol ta’lim metodlari) keng joriy qilinmoqda:

Kasbiy psixologiya – psixologiya ilmining tarmog‘i sifatida, ta’lim va tarbiyaning shaxsga samarali ta’sir etuvchi omillari, qonuniyatlari va mexanizmlarini o‘rganuvchi fandir. Bolalar va yoshlarning maktabdagi hamda ta’lim – tarbiya muassasalaridagi faoliyat va xatti – harakatlarining psixologik qonuniyatlarini o‘rganuvchi pedagogik psixologiya ikki fanni, ya’ni psixologiya va pedagogika fanlarining tutashgan joyidan o‘rin egallagandir. Kasbiy psixologiyaning predmeti bilim, ko‘nikma va malakalarning egallash qonuniyatlarini, bu jarayonlarda sodir bo‘ladigan individual tafovutlarni, o‘quvchilarda faol, mustaqil va ijodiy tafakkurni tarkib toptirish qonuniyatlarini tadqiq etishdir. Shuningdek, Kasbiy psixologiya ta’lim – tarbiyaning ta’siri oqibatida o‘quvchilar psixikasida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar, o‘quv materiallari o‘quvchilarning yosh davrlariga mos kelishi, turli ta’lim metodlarining psixologik jihatdan samaradorligi, darsliklar, o‘quv qurollari, asbob – uskunalar va o‘quv ishlarining tartibiga nisbatan bo‘lgan psixologik talablar kabi muammolarni ham Kasbiy psixologiya o‘rganadi.

Hozirgi vaqtda Kasbiy psixologiya muhim vazifalaridan biri – maktabdagi ta’lim jarayonini yanada takomillashtirishning psixologik asoslarini ishlab chiqishdan iborat bo‘lib, bu hol yangi ta’lim dasturiga o‘tish munosabati bilan bog‘liqdir. Kasbiy psixologiya shu bilan birga talabalar shaxsining tarkib topish jarayonini turli tarbiyaviy tadbirlarning talabalarga ko‘rsatadigan ta’sirini o‘rganadi hamda talabalarning o‘z – o‘zini tarbiyalashning psixologik asoslarini tadqiq etadi. Shuningdek, “Kasbiy psixologiya” ta’lim va tarbiya jarayonining

tashkilotchisi bo‘lgan o‘qituvchi shaxsini, uning pedagogik faoliyat xususiyatlarini ham o‘rganadi. Bunda o‘qituvchining ta’lim – tarbiya ishlaridagi yutuqlarni ta’minlovchi sifatlariga urg‘u berish bilan birga, uning bilim, ko‘nikma, malaka va qobiliyatlarining tarkib topishi hamda taraqqiyotining psixologik jarayonlari aniqlanadi. Kasbiy psixologiya umumiy psixologik qonuniyatlarni yoritib beradigan, psixik jarayonlarni, holatlarni va shaxsning individual psixologik xususiyatlarini o‘rganadigan umumiy psixologiyaga asoslanadi. Shu bois pedagogik psixologiya fanini o‘rganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, u boshqa fanlar singari taraqqiyotning umumiy tamoyillariga: oliy nerv faoliyati va psixofiziologiya qonunlariga, bu sohada to‘plangan ilmiy ma’lumotlarga tayanib, inson psixikasining kechishi, rivojlanishi, o‘zgarishi yuzasidan bahs yuritadi.

Respublikamiz aholisining aksariyati agar xo‘jalik sohasi bilan shug‘ullanayotganligi tufayli uning tarmoqlariga oid mutaxassislarni tayyorlash uchun kasbning psixologik xususiyatlari, mehnat ko‘nikmalari va malakalari bilan bo‘lg‘usi ixtisos egalarini qurollantirish muhim ijtimoiy vazifalardan biridir. Bo‘lg‘usi agronom-pedagogni kasbiy tayyorlash, kasb-hunar oldiga qo‘yiladigan talablarga mutanosib insonlar qilib shakllantirish davlat ahamiyatiga molik muammo bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekistonning issiq iqlim sharoitining biologik-tibbiy jihatlari birmuncha o‘rganilganligiga qaramay, ularning mexanizmlari, akseleratsiya hodisasi, qishloq aholisining jismoniy rivojlanishi, mehnatkashlarning issiq sharoitga moslashishlari, mehnatni tashkil qilishning oqilona yo‘llari, mehnat unumdorligini oshirishning samarali usullari, ekologiyaning o‘zgarishiga o‘xshash muammolar qariyb o‘rganilmagan. Quyidagi mavzular yuqoridagi muammolarning aksariyatiga javob berishga xizmat qiladi.

Inson-tabiat munosabatini o‘zida aks ettiradi, shaxs omili va uni hozirgi davrda ishlab chiqarishda hisobga olish mehnat samaradorligini oshirish, kasb mahoratini takomillashtirish uchun negiz bo‘lib hisoblanadi. Kasb-hunar mohiyatini ochib beruvchi professiogramma, professiografiya, psixogramma asosida mutaxassislarni tayyorlash uchun texnik oliy ta’lim muassasalari intilmoqlari lozim.

### 1.1.2. Kasbiy psixologiyaning muhim va xarakterli muammolari

Inson psixologiyasi tabiatini tushuntirish va psixik jarayonlarini taqozo qiladi va olimlar fe'l atvor uchun xulq atvorni o'zgartirishda xavfli qiyinchiiklar bo'lishini isbotlagan. Ko'pgina psixologik jarayonlarni izohlash uchun qayta qidirishni ishonchni ta'minlaydi ammo inson psixologiyasining boshqa nazariyalari muammolarining yechimi o'ta murakkab bo'ladi va buni tushunish judayam e'tiborga molik. Bu ko'pgina murakkab jarayonlar uchun to'g'ri ya'ni tez tez psixoterapiyaning manbasi sifatida qayd etiladi. Ko'pgina asosiy psixologik fenomenlarning tafsilotlarini tavsiflash katta hajmda qabul qilingan, lekin bu yerda postdoktoral psixologiya assosatsiyasi hamda hamkorlik markaziga doir talab qilingan soha savollari bo'yicha qat'iy pozitsiyasida qoldi va psixologik markazga hujjat taqdim etish jarayonida ularning nazariy orientatsiyasi hamda qay darajada uning konsepsiyasi va amaliyotida ta'sirini so'raydi. Talabalarning bu judayam muhim tanlov haqida tajribalari yetarli emas. [1]

1) Ulardagi ichki jihatlar farqlanishiga qaramay, asosiy darsliklar butunlay muqovasigacha hayratlanarli ravishda bir xil edi. Fakt shuki, mana shu darsliklarning umumiy katta hajmini yakka talaba yoki talabalar guruhining o'ziga xos qiziqishlari va ehtiyojlaridagi biron-bir kitobga maxsuslashtirishni qiyin qilib qo'ydi. Judayam ko'pincha darslik sotib olish faqatgina ma'lum bir qismlarini chindan o'qishni xohlaydigan yakshanba kunidagi ulkan gazetani sotib olishga o'xshaydi. Shu kabi sotuvdagi ta'lim psixologiyasi darsliklari odatda siz shu sohada har qachongidan-da bilishni xohlaydigan yoki muhtoj bo'lgan ma'lumotlaringizdan ko'proq ma'lumot beradi. Kitob formatiga keladigan bo'lsak, darslik individualizatsiyaga yo'l qo'ymaydi.

2) Ta'lim psixologiyasi darsliklari doimo qimmat bo'lgan, ayniqsa kitoblar ko'p ishlab chiqariladigan Qo'shma shtatlarda ko'p yillar davomida ularning narxi inflyatsiyadan tez o'sgan. Hozirda ta'lim psixologiyasi haqidagi har bir asosiy matn $ 100 AQSh dollaridan ko'proqqa sotilmoqda. Bu narxning eng yaxshi holatlarida esa bu talabalar byudjetiga yuklama bo'ladi. Narxning eng yomon holatlarida, ta'lim psixologiyasi darsliklari ko'plab erishib

[1] T. Melchert. Fondations of Professional psychology. 2011. 1-bet

bo‘lmaydigan holatga keltirib qo‘yadi. Narx bilan bog‘liq muammo butun dunyo bo‘ylab tasavvur qilganda yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi; ba’zi davlatlarda bir dona darslikning narxi fuqarolarning o‘rtacha yillik daromadiga deyarli yaqin bo‘ladi.

3) Ta’lim psixologiyasi darsliklarini sotish raqobatida, muallif va noshirlar ta’limiy qiymatdagi ma’lumotlarsiz bosqichma-bosqich xususiyatlar qo‘shib kitoblarning narxini oshirishadilar. Ta’lim psixologiyasi noshirlari o‘ziga xos ravishda illyustratsiya va rasmlarning miqdorini oshiradilar, to‘liq-rangli nashrlarga e’tibor qaratadilar, o‘quv qo‘llanma va yordamchi tahrirlarning miqdori va qiyinligini oshiradilar hamda faqatgina o‘zlarining kitoblari xaridorlari uchun foydali xususiy vebsaytlar yaratadilar. Bu xususiyatlar ba’zida jalb etuvchan bo‘ladi. Mening o‘qitish tajribam shuni ko‘rsatadiki, talabalarni ta’lim psixologiyasi haqida asosiy g‘oyalarga o‘rgatishdan chalg‘itishga qaramay, ko‘pincha ular talabalarga o‘qishga yordam beradi.

Mana shu darslikni onlayn ko‘rinishdagi Global darslik loyihasi bilan birgalikda tahrir qilishda yuqoridagi muammolarni yechadigan chora-tadbirlarni qabul qildim. Muallimlar va talabalarning o‘zlari foydali deb topgan va kerak bo‘lgan joylariga istaganlaricha murojaat etishlari mumkin. Bunda ularning yumushlarining qiymati minimaldir. Pedagogik jihatlar amalda mavjud, lekin minimal miqdorda saqlangan va kitob formatga keltirilishi internetga kirgan har qanday insonning undan onson va bepul foydalanishiga imkoniyat tug‘diradi. Kelajakda kitobni to‘ldirish va o‘zgartirishni amalga oshirish nisbatan onson va tez bo‘ladi. Men ishonamanki, mana shular har kim uchun istalgan natija bo‘ladi![1]

Har qaysimiz kundalik hayotda odamlar bilan uchrashib, ular bilan gaplashamiz, gapga hayajon bilan yoki xotirjamlik bilan javob beramiz, bir odamlar bizga yoqimli bo‘ladi, boshqalar ....... uncha yoqimli bo‘lmaydi.

Odamning nomunosib hulq-atvorini ko‘rar ekanmiz, achchig‘lanamiz va g‘azablanamiz, uni tanqid qilamiz; fidokorona ish, ko‘rsatilgan mehribonlik bizni quvontiradi. Hilma-xil narsalarni ko‘rar ekanmiz ularni ko‘zdan kechiramiz bir xil narsani esda tutamiz va aksincha, bir xil narsaga diqqat

---

[1]Kelvin Seifert Educational Psychology 2009 7-bet.

qilmaymiz boshqa bir narsani payqamay qolamiz. Yaxshi kitob, yoqimli kuy, rassomlik san’atining go‘zal asari har qaysimizga rohat bag‘ishlaydi.

Bularning hammasi ko‘pdan-ko‘p boshqa narsalar psixik hayotimizning, ya’ni ruhiy dunyomiz (ruhiyatimizning) xilma xil namoyon bo‘lishidir.

Bizning turmushimizdagi har bir jaryon, faoliyat- bu psixologiyadir.

Kasbiy psixologiyada psixikani o‘rganishning muayyan ilmiy vazifalariga, o‘zining aniq tadqiqot mavzuiga egadir. Psixologiya ta’sir ko‘rsatuvchi ob’yektlari bo‘lgan sub’yektning ichki, psixik holatiga tashqi ta’sirlar natijasida ro‘y beradigan o‘zgarishlar jarayoni qanday kechishini o‘rganadi. Psixika faolligi bilan ajralib turadi. Uning zarur jihati mayllar, eng maqbul yechimni faol izlash, ehtimoli tutilgan xatti-harakatlar variantlarini hayoldan o‘tkazishdan iboratdir. Psixik in’ikos aynan o‘zini aks ettiradigan, sust narsa emas, balki u harakatlarning turli variantlarini izlash, tanlash, solishtirish bilan bog‘liq bo‘lgan shaxs faoliyatining zarur jihati hisoblanadi. Psixikaning mavjudligi izchil harakat dasturini tuzish, oldiniga ichki rejada ish bajarish (masalan, xulq-atvorning ehtimoliy variantlarini tanlash) va shundan keyingina harakat qilish imkonini beradi.

Biologik evolyutsiya jarayonida kishi psixikasi xulq-atvorni boshqarishning alohida apparati sifatida paydo bo‘lib, sifat jihatdan o‘zgarib ketadi. Odamlar ijtimoiy hayot qonunlarining ta’siri ostida shaxslar bo‘lib yetishadi, ularning har birida ularni voyaga yetkazgan tarixiy sharoitning izlari saqlanib qolgan bo‘ladi. Aslini olganda, kishining xulq-atvori, xatti-harakatlari ham shaxsiy xususiyat kasb etadi.

Ta’kidlanganlarning hammasi endilikda kasbiy psixologiya fanida yuqorida berilgan ta’rifni bir qadar aniqlashtirish imkonini beradi: psixologiya voqelikning miyadagi obrazi sifatida sodir bo‘luvchi psixik faktlar, qonuniyatlar va faoliyat mexanizmlari to‘g‘risidagi fandir. Psixikaning odamga xos bo‘lgan oliy darajasi ongni tashkil etadi. Ong psixikaning oliy darajasi, uni yaxlit bir holga keltiruvchi shakli bo‘lib, kishining mehnat faoliyatida, boshqalar bilan (til yordamida) doimiy muloqot qilish jarayonida shakllanishining ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlari natijasi hisoblanadi.

Ongning tuzilishi, uning muhim psixologik ta’rifi qanday? Ongning tuzilishiga berilgan birinchi ta’rif uning nomidan kelib chiqqan, ya’ni ong anglash deganidir. Ikkinchi ta’rif – «Men» va «Men emas» degan tushunchalarni anglash. Uchinchi ta’rifi: odamning maqsadni koʻzlovchi faoliyatini ta’minlashdir. Toʻrtinchi ta’rifi: uning tarkibiga muayyan munosabatning kirganligidir. Ongning yuqorida koʻrsatib oʻtilgan barcha oʻziga xos jihatlari shakllanishi va namoyon boʻlishining muqarrar sharti til hisoblanadi.

Psixikaning quyi darajasi ongsizlikdir. Ongsizlik kishining oʻzini tuta olmaydigan qilib qoʻyadigan ta’sirlar bilan bogʻliq psixik jarayonlar, harakatlar va holatlar yigʻindisidir. Ongsizlikda anglanishdan farqli oʻlaroq, kishi oʻzi bajarayotgan harakatlarni maqsadga muvofiq tarzda nazorat qila olmaydi, ularning natijasini baholay olishi ham amri mahol. Ongsizlikka quyidagi psixik hodisalarni kiritish mumkin: uyqu paytida yuz beradigan psixik hodisalar (tush koʻrish); sezilmaydigan, lekin haqiqatan ham ta’sir koʻrsatadigan qoʻzgʻatuvchilarga «subsensor» va «subretseptiv» javob reaksiyalari; oldinlari ongli harakat boʻlib, lekin takrorlanaverib avtomatlashib ketgan va shunga koʻra endilikda anglanilmaydigan boʻlib qolgan harakatlar; faoliyatga undovchi, ammo maqsad hissidan anglanilmaydigan ayrim mayllar va hokazo. Ongsizlik hodisalariga bemor kishining psixikasida roʻy beradigan ba’zi bir patologik hodisalarni – alahlash, yoʻq narsalarning koʻzga koʻrinishi va shu kabilarni ham kiritish mumkin. Shularga asoslanib, ongsizlikni ancha qarama-qarshi deb hisoblash, uni hayvonlar psixiksiga tenglashtirish notoʻgʻri boʻlar edi. Ongsizlik – kishining xuddi ong kabi oʻziga xos psixik koʻrinishi. U kishi miyasida borliqning yetarli darajada bir xil boʻlmagan, qisman aksi tarzida inson hayotining ijtimoiy shart-sharoitlari bilan bogʻliq holda paydo boʻlgan. [1]

Xulosa qilib aytganda, psixik aks ettirish qanday paydo boʻlgani, rivojlangani, evolyutsiya pillapoyasining turli bosqichlarida qanday oʻzgarib borgani, kishi ongi qanday paydo boʻlgani va shakllanganini tushunib olgandan keyingina psixikaning eng muhim qonuniyatlarini ochib berish va jiddiy psixik faktlarni aniqlash mumkin boʻladi.

---

2. T. Melchert. Fondations of Professional psychology. 2011. 1-bet.

Shunday qilib, kasbiy psixologiya fani psixikaning paydo bo‘lishi, psixik jarayonlarning taraqqiyot qonuniyatlari va inson bilan tashqi muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganadi. Odamning psixik hayoti murakkab va ko‘p qirralidir. U faqat tashqi muhitning ta’sirlarigagina bog‘liq bo‘lib qolmay, balki yuksak nerv faoliyatidagi miya ishining murakkab nerv-fiziologik qonuniyatlariga ham bo‘ysunadi. Psixik jarayonlar va shaxsning xususiyatlari o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lib, hamisha bir-biri bilan turlicha bog‘langan va bir-biriga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Muayyan bir vaqtda hech qachon faqat bittagina psixik jarayon ro‘y bermaydi yoki shaxsning faqat bittagina xususiyati namoyon bo‘lib qolmaydi. Masalan: idrok etish, sezgi, hayol, tafakkur va xotira jarayonlari bilan ham chambarchas bog‘langan bo‘ladi (o‘qishi qiyin bo‘lgan xat).

Psixologiya fani bundan 2500 yilcha ilgari Qadimgi Gretsiyada vujudga kelgan. Aristotel o‘zining “Jon” haqidagi kitobida “Insonning ruhi uning tanasini boshqarib turadi, ya’ni tana bizning ruhimizga bo‘ysunadi” degan g‘oyalari bilan psixologiya faning mavjudligini va fan sifatida falsafadan ajratib o‘rganish kerakligini asoslab bergan.

Ibn Sino o‘zining “Tib qonunlari” asarida kishilarning mijoziga qarab muomala qilishda, bemorga nisbatan ham uning individual tipologik xususiyatlarini bilgan holda kasalini qaysi ko‘rinishda ekanligini aytishda psixologik bilimlarning ahamiyati haqida gapirilgan.

Kasbiy psixologiyaning asosiy vazifasi mutaxassisning psixik faoliyati qonuniyatlarini o‘rganishdir.

Kasbiy psixologiya psixik hodisalarning odam hayoti va faoliyatining ob’yektiv shart-sharoitlariga bog‘liq ekanligini: masalan, hayot va tarbiya sharoitlarining ta’siri bilan o‘smir xarakterining qanday vujudga kelishini, unda mehnatsevarlik, o‘qishga vijdonan yondoshish va shu kabilarning qanday tarkib topishini o‘rganib boradi.

Hozirgi zamon psixologiyasi yetishib kelayotgan yosh avlodda keng dunyoqarashni va milliy qadriyatlarimizni tashkil topishini va ularni psixologik bilimlar bilan mustahkamlashni ta’minlaydi.

Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davrida inson psixikasi oʻzgarib, takomillashib boradi, buning natijasida u bilan bogʻliq qonun va qonuniyatlar ham zamon talabi, taqozosi tufayli oʻziga xos ma'no, mohiyat kasb etadi. Ijtimoiy munosabatlar koʻlamining kengayishi, shaxslararo muomala maromining yangi muloqot shakllari paydo boʻlishi, tabiat, jamiyatga nisbatan insoniyatning yaqinlashuvi darajasi kuchayishi yangicha qarashlarini vujudga keltiradi. Ijtimoiy ong darajasining yuksalishi, mukammallashuvi narsa va hodisalarga boʻlgan kishi munosabatining yangilanishiga olib keladi, qolaversa mezonlar, munosabatlar, ularning baholanishi asta-sekin sifat jihatdan, oʻzgarib boradi. Bu ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik jarayonga mafkura oʻz ta'sirini oʻtkazadi, buning oqibatida ichki (sub'yektiv) va tashqi (ob'yektiv) omillarning ijobiy yoki salbiy ta'siri ortadi. Shuning uchun muayyan davr oʻtishi bilan psixikaning oldingi qonun va qonuniyatlari oʻz ahamiyatini yoʻqota boradi. Ijtimoiy taraqqiyot bu asnoda yetakchi vazifani bajaradi, yangilanishlarning ustuvor negizini tashkil qiladi. XXI asrga kelib, psixikaning ob'yektiv qonuniyatlarining kompleks masalalarini yaxlit holda tadqiq etishni taqozo etadi va quyidagilarni talab qiladi: a) ularning metodologik, nazariy, eksperimental jihatdan oʻrganish; b) ularga oid nazariy-tadbiqiy jabhalarini amaliyotda sinab koʻrish; v) natijalarning ishonchliligi, validliligi va reprezentativligini tekshirish. Shuning uchun psixologiya fanining markaziy masalasi psixikaning ob'yektiv qonunlari mohiyatini chuqur va atroflicha ochish hamda tavsiflashdan iborat. Ushbu muammo bilan shugʻullangan B.F.Lomovning fikricha, qonun moddiy hodisalar, sifatlar, munosabatlar oʻrtasida barqaror aloqani (bogʻliqlikni) oʻzida gavdalantiradi. Qonunni bunday tushunish inson psixikasidagi, jamiyatdagi, tabiatdagi barcha ob'yektiv qonunlarga bevosita daxldordir. B.F.Lomovning ta'biricha, qonunni bilish hodisalar mohiyatini yaxshiroq tushunishga imkon yaratadi, uning mohiyatini tadqiq qilish esa qonun harakatini bilishga, uni toʻgʻriroq ochishga, tavsiflashga imkoniyat beradi. B.F.Lomovning bayon qilishicha, sistemali yondashuv qonun tabiatini ochishga, toʻlaroq tushunishga sharoit tugʻdiradi, undan foydalanish esa uning mohiyatini tushunishga imkonni vujudga keltiradi. Uning ta'biricha, qonun har qanday sistemaning ob'yektiv tavsifi sifatida mujassamlashadi. Qonunda boshqa sistemalar boshqariluvining

o‘zaro ta’siri va o‘zini o‘zi boshqariluvining imkoniyatlari aks ettiriladi. Qonun o‘z ehtiyojlariga muvofiq tarzda o‘zaro munosabat va o‘zaro ta’sirning boshqacha shakllarida namoyon bo‘ladi hamda o‘zaro harakatni amalga oshiradi. Agar ehtiyojlar qondirilmasa, unda qonun o‘z funksiyasi va nimaga yo‘naltirilganini bajarmagan bo‘ladi. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, odatda psixika o‘zida o‘ziga xos sistemani mujassamlashtiradi. Shuning uchun psixika tadqiq etishning o‘ta qiyin, murakkab, dinamik xususiyatga ega bo‘lgan sistemasi hisoblanadi. Psixikaning mustaqil hukm surishi boshqa sistemalarni mutlaqo alohida yashashini bildirmaydi, chunki u sistemalararo munosabatlar ichida mavjuddir. Psixologiya fanida metodolog psixologlarining aksariyati "qonun" va "qonuniyat" tushunchalarini farqlashga harakat qiladilar, bizningcha, bunday tabaqalanish ma’lum ma’noda shartli hisoblanadi. Umumlashma ta’kid va tavsiflarga ko‘ra, "qonun" sistemaning barqarorligi daqiqalarini aks ettiradi, "qonuniyat" atamasi esa sistemaning dinamikligini, uni rivojlanish davrini, uning qaytatan yangilanishi hamda o‘zgarishini o‘zida aks ettiradi. Holbuki shunday ekan, qonuniyatning vujudga kelishi, kechishi, rivojlanishi, barqarorlashuvi, takomillashuvi to‘g‘risida mulohaza yuritish mumkin. Qomusiy lug‘atlarda berilishicha, psixikaning fiziologik funksional holatlarga bog‘liqligi va o‘zaro aloqadorligi to‘g‘risidagi voqelikni o‘zida mujassamlashtiruvchi qonunlar bo‘lsa, uning boshqasi esa ijtimoiy-psixologik munosabatlarni aniqlashga xizmat qiluvchi qonunlar turkumini tashkil kiladi.

Psixologiyaning mukammal manbalarida mujassamlashgan psixikaning qonunlari quyidagi ko‘rinishga ega:

1. Harakat ta’siriga munosib psixik aks ettirishning adekvatligi.

2. Jamiyat va inson maqsadi, ehtiyojlari, tashqi va ichki sharoitlarga mutanosib tarzda faollikning amalga oshishi, yechimning optimalligi.

3. Sistema sifatida psixik aks ettirishning tanlovchanligi.

4. Psixik aks ettirish shaklining sub’yektivligi.

5. Psixik aks ettirishning betakrorligi va noyobligi.

6. Psixik hodisalar shakllanishi va rivojlanishining muayyan izchillikka ega ekanligi.

7. Alohida shaxslarning, ijtimoiy birlashmalar va guruhlar psixikasi rivojlanishining xilma-xilligi.

8. Psixikaning ontogenetik rivojlanishida davrlarga asoslanib aks ettirish.

9. Psixikaning rivojlanishida fenomenal psixik holatlarining sistema yaratuvchanlik roli.

10. Psixikaning ijtimoiylik va individuallik birligi.

11. Shaxs psixikasining shakllanishida ijtimoiy munosabatlarning ustuvorligi roli.

12. Inson faoliyati bilan psixikasi funksiyasiga ta’sir etuvchi qonunning uyg‘unligi.

Psixologiya fanida umumiy va xususiy qonunlar mavjud ekanligi ta’kidlab o‘tiladi, chunonchi:

1. Qonunning tarixiy shartlanganligi.

2. Ijtimoiy psixikaning rivojlanishida vorislik qonuni.

3. Ijtimoiy rivojlanishda psixika rolini ortib borish qonuni.

Psixikaning ayrim umumiy qonunlari to‘g‘risida tasavvur hosil qilish bilan birga, ba’zi eng muhim qonuniyatlar yuzasidan shaxsiy mulohazalarimizni bildiramiz, chunki ular psixikani bundan keyin tadqiq etishga negiz bo‘lib xizmat qiladi.

1. Optimal qaror qabul qilishda, axborotlarni ishlab chiqishda, ularni egallashda psixik jarayonlar, fiziologik organlar imkoniyatining kuchayishi.

2. Psixikaning ijtimoiylashuvi ortishi.

3. Yaxlit psixik faoliyatda konstruktorlik va ilmiy tadqiqot faoliyatlari vaznining ko‘payishi.

4. Bolalarda psixik rivojlanishning tezlashuvi va uning negizida ularda ijtimoiy etuklikning jadallashuvi.

5. Inson ontogenezida yakka shaxs psixikasida dinamik o‘zgarishlarning vazni, ko‘lami kengayishi.

6. Ijtimoiy turmush sharoiti madaniy va moddiy jihatlar yaxshilanishi natijasida aholining ruhiy umrboqiyligi va faoliyat faolligi ko‘tarilishi.

7. Ijtimoiy tizimda inson rivojlanishining sistema yaratuvchi omil sifatida jamoa rolining ortib borishi.

8. Alohida odamlar psixikasi rivojlanish yo‘nalishida ijtimoiy-psixologik mexa- nizm sifatida ijtimoiy fikr rolining kuchayishi.

9. Ongning ijtimoiy faolligini rag‘batlantirishda siyosiy va mafkuraviy qadriyatlar rolining ortishi.

10. Rahbarlik faoliyati samaradorligini orttirish maqsadida rahbarga jamoaning ijtimoiy-psixologik ta’sir o‘tkazish rolining mukammallashuvi.

11. Qadimgi an’analar, rasm-rusumlar rolining pasayishi tufayli yangilarining roli yuksalishi.

12. Odamlar xulq-atvorini boshqaruvning ijtimoiy-psixologik mexanizmi tarzida shaxsiy namuna (ibrat) va avtoritet (obro‘) rolining kuchayib borishi. Yuqoridagi psixikaning qonuniyatlari yaxlit sistema sifatida uning barcha qirralari va rang-barangligini tavsiflash imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun psixikaning qonun va qonuniyatlarini tadqiq etishda eng muhim muammo sifatida uni ta’sir o‘tkazish harakati mexanizmlarini o‘rganishni ta’kidlash maqsadga muvofiqdir.

Idealistlar, odamning psixik hayotini odam tanasi bilan qandaydir noma’lum yo‘l bilan qo‘shilib, odamda gavdalangan, jismi yo‘q moddiy bo‘lmagan alohida bir narsaning ya’ni ruh yoki jonning zohir bo‘lishi deb hisoblaydilar. (So‘zlashganimizda va adabiyotda ham «odamning joni» va «odamning ruhi» degan termin ishlatamiz. Ammo bu terminlarni biz moddiy bo‘lmagan alohida bir narsani ifodalash uchun emas, balki «psixika» so‘zini qay ma’noda ishlatsak, o‘sha ma’noda ishlatamiz). Idealistik psixologiya namoyondalari psixik jarayonlar bilan fiziologik jarayonlarning o‘zaro munosabati haqidagi masalani talqin qilishda yo psixofizik parallelizm yoki psixofizik o‘zaro ta’sir nuqtai nazarida turadilar. Psixofizik parallelizm tarafdorlari fiziologik va psixik hodisalar bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan holda yonma-yon (parallel ravishda) voqe’ bo‘ladi, deb hisoblaganlar. Bu qarashga ko‘ra, odamning hayot faoliyati qo‘shilib ketmaydigan ikki oqim – organik hayot bilan psixik hayotning harakatlanishidan iborat emish.

Psixofizik o‘zaro ta’sir tarafdorlari ta’limotiga ko‘ra, psixik hodisalar bilan fiziologik hodisalar o‘z tabiati e’tibori bilan har hil bo‘lsada, bir-biriga o‘zaro ta’sir etadi: fiziologik hodisalar psixik hodisalarni vujudga keltiradi,

psixik hodisalar esa fiziologik hodisalarga sabab bo‘la oladi. Bu qarashga ko‘ra, odamning hayot faoliyati go‘yo harakatdagi zanjir bo‘lib, unda fizik zveno bilan psixik zveno ketma-ket kelaveradi. Fanga xilof idealistik muhokamalarga qarama-qarshi o‘laroq, dalektik materializm psixik hayot qandaydir alohida, moddiy bo‘lmagan bir narsani zohir bo‘lishi emas, balki materiyaning yuksak darajasidagi mahsuli, ya’ni bosh miyaning hossasidir deb ko‘rsatadi. Demak, psixika yuksak darajada tashkil topgan materiyaning alohida hossasi bo‘lib, bu hossa ob’yektiv voqelikni alohida bir yo‘sinda aks ettirish qobiliyatidan iboratdir.

Psixik jarayonlar miyaning alohida hossasi bo‘lib, faqat miyaning faoliyatiga bog‘liq holda ro‘y beradi. Lekin psixikani materiyaning mahsuli deb bilish tushunchasini vulgar materializm namoyondalari targ‘ib qilgan soxta (u ham mexanistik) tushunchadan farq qilish kerak. Mexanist va vulgar materialistlar tabiatdagi barcha hodisalarni – kimyoviy, biologik, fiziologik hodisalarni, shuningdek, psixologik hodisalarni ham materiya zarrachalarining fazoda faqat mexanik suratda siljishdan iborat deb bilar edilar. Ular psixik jarayonlarni fiziologik jarayonlardan iborat bir narsa deb tushunar, psixik jarayonlar bilan fiziologik protsessning ikkovi bor narsa deb hisoblar edilar. Masalan: vulgar materializmning namoyondalari (Byuxner, Moleshott, Faxz ) jigardan o‘t chiqib turgani singari miyadan ham fikr chiqib turadi, deb bilar edilar. Mexanistlar nazarida, psixik hodisa fiziologik hodisaning o‘zi-yu, uni odam faqat ichki, sub’yektiv tomondan idrok etar emish. Dialektik materializm nuqtai nazaridan psixika, materiyaning mexanik harakati emas, balki harakatdagi materiyaning alohida hossasidir. Shuningdek, psixik protsess moddiy protsessga bog‘liq, degan so‘zdan psixika, ong-fiziologik jarayonlardan boshqa bir narsa emas, degan ma’no aslo chiqmaydi. Fikr, ong – voqelikning sifat jihatidan boshqacha, o‘ziga xos bir hodisasidir.

Psixik hodisalar haqida so‘zlashganimizda esa sifat jihatdan boshqacha, o‘ziga xos ravishda aks etishini nazarda tutmog‘imiz kerak. Bu aks ettirish sezgilarda, xotirada, tafakkurda va boshqa shu kabilarda o‘z ifodasini topadi. Insonning psixik aks ettirish jarayoni o‘z mohiyati va xarakteri jihatidan 2-bosqichdan iboratdir. 1) Hissiy (aks ettirish) bilish bo‘lib, u sezish, hissiy qabul

qilish, xotira va tasavvurlardan iboratdir. 2) Aqliy bilish bosqichi bo‘lib, u tafakkurdan iboratdir. Hissiy bilishning boshlang‘ich shakli - sezgidir. CHunki hissiy bilishning boshqa shakllari – hissiy qabul qilish sezgiga nisbatan ancha murakkab bo‘lib, u sezish asosida vujudga keladi. Hissiy qabul qilishning sezishdan farqi shundaki, unda predmetlarning ayrim hossalarni emas, balki predmet bir butun holda aks etadi. Hissiy bilishning yana bir shakli tasavvurdir. Tashqi ta’sir natijasida vujudga kelgan nerv va miya qobig‘ining ma’lum qismidagi qo‘zg‘alish – sezish, qabul qilish – ma’lum davrgacha o‘z izini qoldiradi, ya’ni tashqi ta’sir to‘xtagandan so‘ng qo‘zg‘alishning, sezishning izi saqlanib qoladi. O‘sha ta’sir etgan predmetga aloqador bo‘lgan, unga qandaydir munosabatda bo‘lgan hodisa ta’siri natijasida izlar yana qayta tiklanishi mumkin. Miya qobig‘ida saqlanib qolgan shu fiziologik izlarning tiklanishi, qaytadan qo‘zg‘alishi tasavvur, xotirani vujudga keltiradi. Insonning bilish jarayoni hissiy bilish bilangina cheklanmaydi. Hissiy bilish yoki jonli kuzatish inson bilishining pastki bosqichida vujudga keladi, bu bosqich asosida ijtimoiy mehnat jarayonida ikkinchi yuqori bosqich – aqliy bilish, tafakkur paydo bo‘ladi. Hissiy bilish orqali ob’yektiv reallikdan olingan «materiallar»ni qayta ishlash, ularni munosabatlari, ichki xususiyatlarini aniqlash, muhim va asosiy tomonlarini nomuhimlaridan ajratib olish, ularning qonuniyatlarini ochish aqliy bilish va tafakkurda amalga oshiriladi. Odam bilan uning tevarak-atrofidagi olam o‘rtasida doimo o‘zaro bir-biriga ta’sir qilish jarayoni bo‘lib turadi. Odam bu protsessda dunyoni o‘z psixikasi bilan aks ettiradi. Shu bilan birga, voqe’lik odam ongida ko‘zgudagi kabi passiv ravishda aks etmay, balki aktiv ravishda aks etadi: odam tevarak-atrofdagi olam bilan o‘zaro bir-biriga ta’sir ko‘rsatar ekan, shu jarayonda olamga ta’sir etadi, uni o‘zgartiradi va uni o‘z ehtiyojlariga moslashtiradi. Psixologiya fani psixikani o‘rganar ekan, uni yuksak darajada tashkil topgan materiyaning ob’yektiv voqe’likni aks ettirishdan iborat bo‘lgan alohida hossasi deb biladi. Materiyaning bu hossasi materiyaning boshqa hossalaridan sifat jihatdan farq qiladi va materiya taraqqiyotining faqat muayyan bosqichida vujudga keladi. Psixik hodisani, idealistlar ta’lim bergani singari, fiziologik hodisadan ajratib qo‘yish yaramaganidek, psixik hodisani, vulgar materialistlari ta’lim bergani singari, fizik hodisaga tenglashtirish ham

yaramaydi. Psixik hodisa bilan fiziologik hodisa bir butun bo‘lib bog‘langandir. Buning ma’nosi shuki, psixologik va fiziologik hodisa sifat jihatidan boshqa-boshqa hodisalardir, ammo fiziologik hodisa bo‘lmasa, ya’ni nerv sistemasi ishlamasa, psixologik hodisa bo‘lishi mumkin emas; shunday qilib, psixologik hodisa ikkilamchi hodisa hisoblanadi. Psixik hodisalar nechog‘lik murakkab bo‘lmasin, ularni moddiy nerv-fiziologik negizidan ayirib o‘rganish yaramaydi. Bunday ayirish idealizmga olib borishi mumkin, xolos. Shu sababli psixikani o‘rganishda psixik hayotdagi hodisa va faktlarni ilmiy asosda tushunib olish uchun psixikaning moddiy negizini, ya’ni bosh miya va uning faoliyatini, psixik jarayonlarning nerv-fiziologik mexanizmlarini bilib olish kerak. [1]

Odam tevarak-atrofdagi dunyoni qanday idrok etadi, u qanday esida qoldiradi, qanday esga tushiradi va fikr yuritadi, u qanday hislarni ko‘nglidan kechiradi, odam tevarak-atrofdagi dunyoni o‘z ehtiyojlariga moslashtirib, yangi moddiy va ma’naviy boyliklarni vujudga keltirib, qanday ish ko‘radi – kasbiy psixologiyani o‘rganish bilan shu masalalarni bilib olamiz.

Kasbiy psixologiyani o‘rganish odamni psixika haqidagi va psixik hayotning xilma-xil hodisalari haqidagi bilimlar bilan boyitibgina qolmay, shu bilan birga odam aqlini ham o‘stirishga yordam beradi. Odam aqlini o‘stirish, jumladan, yangi bilimlar va ko‘nikmalarni tezroq egallash, yangi nazariy va amaliy vazifalarni to‘g‘ri hal qilish qobiliyatini takomillashtirishda, o‘z fikrlarini nutqda to‘g‘ri ifodalay bilish va boshqalarning nutqini to‘g‘ri tushuna bilishda ham o‘z ifodasini topadi. Albatta, har bir fan bilan shug‘ullanish odamni kamolga yetkazadi. Ammo psixologiya bu sohada alohida o‘rin tutadi. Odam psixologiyani o‘rganar ekan, avvalo o‘z aql-idrokini, uning jarayonlarini bilib oladi, unga diqqat-e’tibor beradi, aqlning faoliyatini kuchaytiradigan shart-sharoitni bilib oladi va shu bilan o‘z aql-idrokining ko‘proq o‘sishiga yordam beradi.Psixik hayot hodisalari haqidagi ilmiy bilimlarni egallash shaxs dunyoqarashini shakllanishida katta ahamiyatga egadir. Tushunish kishilar ongidagi eskilik sarqitlariga qarshi kurashda, jumladan, har xil diniy taassub va xurofotlarga qarshi kurashda juda kuchli qurol bo‘lib xizmat qiladi.

---

1) T. Melchert. Fondations of Professional psychology. 2011. 2- bet.

Odam psixologiyani o‘rganar ekan, o‘zidagi psixik hayotni va boshqa kishilar psixikasini bila oladigan bo‘lib qoladi. Bu bilim esa boshqa kishilarni va o‘zini yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Psixologiyani bilish, ma’lumot olish uchun ahamiyati shulardan iboratdir. Shu bilan birga kasbiy psixologiya (jumladan, psixologiya metodlari) kishilar amaliy faoliyatining har xil turlarida - ta’lim-tarbiya, ishlab chiqarish, mehnat, meditsina, sud-huquqshunoslik, harbiy-mudofaa, san’at va boshqa sohalarda ham katta ahamiyatga egadir.

O‘quvchini bilib olish – shu o‘quvchining darslarni o‘zlashtirish darajasini bilish demakdir, shuningdek, o‘quvchining psixik xususiyatlarini bilish demakdir, uning qobiliyat va havaslari qanaqa ekanligini, uning diqqat – e’tibori, hislari, irodasi, xotirasi, tafakkuri qanday zohir bo‘lishini bilish demakdir.Ta’lim – tarbiya ishida pedagog bolalarni bilimdan bahramand qilish, ularga ko‘nikma va malaka berish bilangina kifoyalanib qolmay, shuningdek, o‘quvchilar shaxsining hamma tomonlarini, dunyoqarashi, xarakteri, irodasi, qobiliyati va havaslarini takomillashtirishi lozim. Buning uchun esa psixikaning ayrim tomonlari qanday sharoitda va qaysi pedagogik usullar yordami bilan o‘zlashtirishini va takomillashuvini bilmoq kerak.

Har bir pedagog – o‘qituvchi, tarbiyachi, maorif ishining rahbari – psixologiyani nima uchun bilishi kerakligi yuqorida aytilganlardan ravshan ko‘rinib turibdi. Hozirgi paytda ishlab chiqarish, ishlab chiqarish ta’limi va mehnatni tashkil etishning har xil turlarida psixologiyadan keng foydalanilmoqda. Ishning har bir turi, har bir kasb odamdan tegishli bilim va mahorat talab qilish bilan birga mahsus psixologik sifatlarni ham talab qiladi. SHu sababli, ixtisosga qarab murakkab va ma’suliyatli mehnat operatsiyalarini bajarishga to‘g‘ri keladigan kishilar mahsus psixologik tekshirishdan o‘tkaziladi. Masalan, dastlabki kosmonavtlarni tanlashda talabgorlar xotirasi juda yaxshi, fahmi o‘tkir, diqqatini bir narsadan ikkinchi narsaga tez ko‘chira oladigan, aniq uyg‘un harakatlarni tez bajara oladigan kishilarni ajratib olish maqsadida tekshirib ko‘rildi.[1] Kasb psixologiyasining predmetining ta’rifiga asoslanib, uning quyidagi vazifalarini ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq:

---

2) T. Melchert. Fondations of Professional psychology. 2011. 2- bet.

1. Shaxsning kasbiy shakllanishi asosiy tushunchalari va tadqiqot tamoyillarini, o‘zining faoliyatiga tegishli uslublarini asoslash;
2. Kasb psixologiyasi predmetiga mos bo‘lgan tadqiqot uslullarini ishlab chiqish va o‘ziga xos uslublarini tuzish;
3. Kasblarning tavsifiy tuzilmasini psixologik tahlil qilish, kasblarni proektlash uslublari va tamoyillarini ishlab chiqish;
4. Shaxsning kasbiy shakllanishi qonuniyatlari va psixologik mexanizmlarini tadqiq etish. Bu jarayon dinamikasini determinantlovchi omillarni aniqlash, kasbiy shakllanishdagi inqirozlarni tahlil etish;
5. Mutaxassislikning kasbiy desturuksiyalarini, ya’ni shaxsning deformatsiyasi, kasbiy faoliyatga bo‘lgan layoqatini pasayishi va boshqalar;
6. Shaxsning kasbiy rivojlanish monitoringni yuritish, bu borada psixodiagnostik vositalarni ishlab chiqish hamda mutaxassislarni attestatsiyadan o‘tkazish;
7. Shaxsning kasbiy shakllanishiga psixologik yordam hamda insonning kasbiy hayoti davomida yordam berish, qo‘llab-quvvatlash;
8. Kasbiy maslahat, kasbiy ma’lumotning shaxsiy rivojlantiruvchi psixologik jihatlari, attestatsiyadan o‘tkazish, kasbiy rivojlanish psixotexnikasi, kasbiy korreksiya va reabilitatsiya, kasbdan ketishga psixologik tayyorgarlik borasidagi bilimlar bilan qurollantirishdan iborat.

Kasb psixologiyasining metodologik asosi - bu shaxsning kasbiy shakllanish konsepsiyasidir. Mazkur konsepsiyaning asosiy mohiyati shundaki, kasb tanlash jarayonida shaxs miqdor va sifat jihatidan rivojlanib boradi, ya’ni ular o‘z yo‘nalishini boyitib boradi, shu orqali tajriba va salohiyat shakllanadi. Kasbiy shakllanish jarayonida inqirozlar, to‘qnashuvlar, destruktiv o‘zgarishlar bo‘lib o‘tishi mumkin. Bu jarayonning tezligi biologik va ijtimoiy omillarga, shuningdek tasodifiy holatlarga, hayotiy muhim kasbiy voqealarga bog‘liq bo‘ladi.

## 1.2. KASBIY PSIXOLOGIYANING NAZARIY VA KONSEPTUAL ASOSLARI

### 1.2.1. Kasbiy psixologiyaning tabiiy, ilmiy asoslari

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab, jamiyatimizning barcha sohalari qatori, ma’naviy-mafkuraviy hayotimizda ham ulkan o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Mustaqil taraqqiyot yillarida to‘plangan tajriba, dunyo jamoatchiligi «o‘zbek modeli» deya e’tirof etgan o‘zimizga mos va o‘ziga xos rivojlanish yo‘li, kelajagi buyuk davlat barpo etish borasida amalga oshirilayotgan barcha tarixiy o‘zgarish va yangilanishlar yurtdoshlarimiz qalbi va ongiga ulkan ta’sir ko‘rsatmoqda. Hozirgi davrda iqtisodiyot hamda madaniyatni tez va uyg‘un rivojlantirish, ijtimoiy munosabatlarni va siyosiy o‘zgarishlarni takomillashtirish, jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi va oliy boyligi bo‘lmish insonning o‘zini yanada kamol toptirish manfaatlari yosh avlodlarga ta’lim va tarbiya berishga yangicha, yanada keng ko‘lamda yondashishni talab qiladi. Psixologiya fani uchun eng murakkab muammolar qatoriga uning asosiy kategoriyalari bo‘lgan shaxs, motivatsiya, faoliyat, muomala, ongning tavsifi, ularning takomillashuv bosqichlari, xususiyatlari, aks ettirish imkoniyatlari, hukm surish qonuniyatlari va mexanizmlari bo‘yicha aniq, mezoniy, tatbiqiy fikrlarni bildirish masalalari va vazifalari kiradi. Shu munosabat bilan kasbiy psixologiya umumiy psixologiya faniga kirish vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan, tinglovchilarni, avvalo, shaxs psixologiyasi, uning faoliyati va jamoadagi munosabati haqida, uni tadqiq qilish metodlari to‘g‘risida, ong va psixika, asosiy psixik jarayonlarning qonuniyatlari haqida tegishli bilimlardan xabardor etgan holda, ularni professional ishga nazariy va amaliy jihatdan tayyorlashdan iborat aniq vazifani o‘z zimmasiga oladi.

U tez o‘suvchi va psixologiyaning yangi yosh tartibini yaratish, odam psixologiyasining turli nuqtayi nazarini xilma-xillikda boshqarishdir.

Kasbga doir muammolarni qayta ko‘rish ushbu vaqtda amalga oshiriladi. Haqiqatdan ham, bir sabab bo‘lishi kerak, ya’ni ushbu muammolarni tanqidiy rivojlanishida manzili va yechimi kerak. Odatiy asosga ega bo‘lmaslik

professional psixologik konseptual amaliyotga ega bo‘lganlarni ham shoshirib qo‘yish uchun va talabalar uchun unumsiz, akkredatsiya va tananing kafolati, professional birlashuv, universitetlar, hukumat a’zolari, sug‘urtalar, yaxshiroq ommaviy jamoa.

Katta hajmdagi sa’y- harakat ko‘rsatadiki psixologiyaning ilm- fan va amaliyoti taraqqiy qilgan. Ushbu ko‘rsatilgan sabab ya’ni psixologik tajribani tushunishning nazariy yechimi va o‘rni birlashgan mustahkamlikdan iboratdir.

Hali bor bo‘lmagan ekstensiv munozaralar ichida faoliyat bilan bog‘liq birlashmalar ya’ni ixtisoslashgan psixologlar va nazariy namoyondalar kasbiy psixologiyaning ilmiy va amaliy ustunini yarata olishgan. Natijada bu muammoni hal etishda odatiy amaliy tadbirlarni yaratishga erishildi. Qo‘shimcha qilsak bu yerdagi ikki asosiy savollarni ko‘rib chiqish kerak.

Aniqki ushbu faoliyat sohasiga doir savollar ahamiyatga ega. Tajribalarning qiyinchiliklari yuqorida ko‘rib chiqilgan ilmi kasbiy psixologiyaning talablari ya’ni faoliyatning ushbu aniqlikdagi anglolmaslikda tabiat, imkoniyat va maqsadi psixologiyaning professional tajribasidir. Bu yerda tez-tez kelishmovchilik deb hisoblanadi klinik konsepsiyaga muvofiq va turli munosabatlarni amalga oshirishdan iboratdir. Ushbu turdagi savollarga javoblar qiyin tarzda kechiladi. Misol uchun talabalar kiruvchi qatiy dasturlarni organishadi, ya’ni ma’lum bir teoritik orientatsiyada klinik konsepsiya holatiga mos keladi. Ammo ular boshqa kirish dasturlarini ham o‘rganishadi, ya’ni boshqa teoritik orientatsiyada ba’zi turdagi holatlarni o‘rnatishga mos keladi. Boshqa talabalar kirish dasturlarini o‘rgatishda umumiy bilim va ko‘nikmalarni yaratuvchanlik, mohirlik va biliming katta hajmda qabul qilish, biblioterafiyaning nanopsixoterapik qabul qilishni, yoqlangan guruhlarda qatnashish, tibbiy mashq qilish, fizik mashqlar va dinlarning birlashuvi, aqliy yoki madaniy tajribalarni o‘z chiga oladi. Natijada u rozilik deb hisoblanmaydi, ya’ni talabalar bitiruv malakalarni bajarishda yetarli ma’lumotga ega bo‘lishlari kerak. Faoliyatning aniqligi murosa qilishdan oldin ushbu savollar yaratilgan bo‘lishi shart.

Kasbiy psixologiyaning yashirin ilmiy asosi faoliyat sohasiga oid boshqa kritik savollarni beradi. Bir qarashda ushbu savollar bajarilishini ko‘rish shart

emas, bu muammoning sababi shak-shubhasiz kasbiy psixologiyaning ilmiy asosi va shak-shubhasiz kasb hunar amaliyotidir. Boshqalari, har qanday holatda shunga o‘xshash g‘ayri-tabiiy savollarni oshirib boradi. Haqiqatda bu yerda kichik sabab bo‘lishi kerak, ya’ni biz egalik qiladigan, faqat to‘liq bo‘lmagan javoblar bu nuqtada yaratilgan psixologiyaning ko‘pgina muhim nazariyalaridan biridir. Hozirda, ko‘pgina psixologiyaning sindromlari tushunarsiz va psixologik jarayonlarining faqatgina e’tiborga molik jarayonlari tushunarlidir.




Psixika miyaning xususiyati - maxsus tarzda tashkil topgan materiyaning oliy mahsulidir. Organik dunyoning amyobalardan to odamga qadar uzoq davom etgan evolyusiyasi davomida xulq-atvor va xatti-harakatning fiziologik mexanizmlari to‘xtovsiz murakkablashib, tabaqalanib va shular tufayli organizm muhit o‘zgarishlariga tez javob qila oladigan va moslashuvchan bo‘la bordi. Yuksak taraqqiy etgan hayvonlarda a’zolarining ixtisoslashuvi ozuqani farqlash, xavf-xatarni juda tez va aniq sezish imkoniyatini beradi. Ixtisoslashuvning yakkayu-yagona funksiyasi signallarni idrok etishdan iborat hujayralarning paydo bo‘lishida o‘z ifodasini topadi. Bu hujayralar ritseptorlar (tashqi muhitning ta’sirini qabul qiluvchi apparat) deb atalmish hujayralar guruhini tashkil etadi. Boshqa hujayralar mushak to‘qimalari ishini yoki turli bezlarning shira chiqarishini o‘z zimmasiga oladi. Bunday hujayralar effektorlar deyiladi. Organizmning asosiy «boshqaruv pulti» – markaziy asab tizimi hisoblanadi. Asab tizimi tuzilishining umumiy rejasi barcha umurtqalilarda bir xildir. Uning asosiy elementlari asab hujayralari yoki neyronlar bo‘lib, ularning vazifasi qo‘zg‘atishdan iborat. Neyron hujayra tana va tanachaning shoxlab ketgan o‘simtalari – qo‘zg‘alishni qabul qiluvchi dendritlardan va qo‘zg‘atishni boshqa neyronlarga o‘tkazadigan tolalar–aksonlardan tarkib topadi. Aksonning dendritlar bilan yoki boshqa neyronlarning hujayra tanasi bilan bog‘laydigan nuqta sinaps deb ataladi.

Markaziy asab tizimi ikki qismdan – bosh miya va orqa miyadan tashkil topgan. Bosh miyaning yuqori qismi olti qavat (10 milliardga yaqin) neyronlar bilan qoplangan hamda po‘stloq deb ataladigan katta yarim sharlarni hosil qiladi. Po‘stloq – psixik faoliyatning eng muhim (lekin yakkayu-yagona emas) organi. U yarim sharlardan pastroqda, ensa qismida miyada joylashgan bo‘lib, uning funksiyalari hali yetarlicha o‘rganilmagan. Po‘stloqning mushaklar harakatini uyg‘unlashtirishda muhim o‘rin tutishi ma’lum. Katta yarim sharlar miya naychasiga kelib taqaladi. Naychaning yuqori qismi – talamus orqa miyadan yarim sharlarga boradigan barcha asab yo‘llari uchun «oraliq stansiya» vazifasini bajaradi. Naychaning pastki qismi – gipotalamus suv almashuvi, ovqatlanish ehtiyojini va organizmning boshqa funksiyalarini boshqarib turadigan markazlardan tarkib topgan. Hozirgi zamon fanidagi mavjud tasavvurlarga qaraganda, orqa miya va miya naychasi reflektor faoliyatining asosan tug‘ma (shartsiz reflekslar) hisoblangan shakllarini amalga oshiradi, katta yarim sharlarning qobig‘i esa hayot kechirish jarayonida orttiriladigan va psixika tomonidan boshqariladigan xulq-atvor shakllari organi hisoblanadi. Tananing har bir sezuvchi a’zosi (teri, ko‘zning to‘r pardasi va shu kabilar) va har bir harakat a’zosi miyada o‘zining xususiy markazlariga egadir. Insondagi katta yarim sharlar qobig‘ining anchagina qismini qo‘l barmoqlari, ayniqsa bosh barmoq faoliyati bilan bog‘liq hujayralar, shuningdek nutq organlari va til mushaklari funksiyasi bilan bog‘liq hujayralar egallaydi. Shunday qilib, odamning katta yarim shari qobig‘ida mehnatda va muomalada asosiy funksiyani bajaradigan harakat a’zolari ancha ko‘p joylashgan.

Miya katta yarim sharlari ishining umumiy qonunlarini I. P. Pavlov aniqlab bergan. Psixikaning organi – bosh miya ham o‘zgardi. Uning hayvonlar miyasidan sifat jihatdan farqi yuksak bilish jarayonlari, avvalo, tafakkur mexanizmlarini o‘rganish paytida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu jarayonlar sezgi va idrok jarayonlari singari miyaning muayyan qismlari doirasida cheklanib qolmaydi. Agar odamda qobiqning ensa qismi shikastlangan bo‘lsa, u ko‘rish sezgilarini yo‘qotishi turgan gap. Odamning psixik hayotida katta yarim sharlar qobig‘i sirtining 30 % ni egallaydigan peshana qismlari alohida o‘rin tutadi. Peshana qismlarining (kasallik, yaralanish va shu kabilar oqibatida)

shikastlanishi xulq-atvorning oddiy ko‘rinishlariga emas, balki yuksak ko‘rinishlariga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, peshana qismlari shikastlangan bemorlar ko‘rish, nutq, yozish qobiliyatlarini saqlab qolib, arifmetika masalalarini echgan holda, uning shartlarini tahlil etishga urinmaydi. Masalani echish rejasini tuzganlarida oxirgi savolni tushirib qoldira dilar. Ular masalaning yechimini uning sharti bilan solishtirib chiqmaydilar, o‘z xatolarini sezmaydilar va hokazo. Ko‘pgina klinik faktlar shuni ko‘rsatadiki, miyaning peshana qismlari shikastlanishi aqliy qobiliyatni susaytirish bilan birga, kishining shaxsiyati, uning xarakterida ham qator buzilishlarga sababchi bo‘ladi. Oldin xushmuomalaligi, vazminligi bilan ajralib turgan bemorlar yengiltak, qiziqqon, qo‘rs bo‘lib qoladilar.

Psixik funksiyalar muayyan tarzda chap va o‘ng yarim sharlar o‘rtasida taqsimlangan bo‘lishi aniqlangan. Har ikkala yarim shar axborotni obrazlar tarzida ham, so‘zlar tarzida ham qabul qilish va qayta ishlash qobiliyatiga ega, ammo chap va o‘ng yarim sharlar u yoki bu funksiyalarning turlicha darajada ifodalanishi – bosh miyaning funksional assimetriyasi ham yuz beradi. Chap yarim sharning funksiyasi o‘qish va hisoblashdan ko‘ra ko‘proq belgilarga asoslangan axborot (so‘zlar, belgilar, raqamlar va shu kabilar)ga tayanishdan iborat. Chap yarim shar mantiqiy tuzilishlar imkoniyatini ta’minlaydi, busiz izchil analitik tafakkur bo‘lishi mumkin emas. Chap yarim shar faoliyatining izdan chiqishi, odatda nutqning buzilishiga (so‘zlash qobiliyatining yo‘qolishiga) olib keladi, normal muomala imkoniyatini yo‘qqa chiqaradi, asab to‘qimalari og‘irroq shikastlanganda, fikrlash faoliyatida jiddiyroq nuqsonlar sodir bo‘ladi. O‘ng yarim shar obrazi axborotni ishga solib, bo‘shliqda mo‘ljal olish, musiqani idrok etilayotgan va tushunilayotgan ob’yektlariga nisbatan his-hayajonli munosabatda bo‘lishga imkon beradi.

Bosh miya yuksak taraqqiy etgan hayvonlar va odam psixikasini belgilaydigan darajada faoliyat ko‘rsatadigan organ yoki, to‘g‘rirog‘i, organlarning murakkab tizimidir. Psixik va asab-fiziologik jarayonlarning o‘zaro munosabati ancha murakkab masalalardandir. O‘rganish jarayonida psixika ning o‘ziga xos jihatlari asab-fiziologik xususiyatlardan qaysi muhim belgilari bilan farq qilishini aniqlash mumkin. Psixik jarayonlar o‘zida ichki, fiziologik

jarayonlarning emas, balki tashqi ob'yektlarning tavsifini (narsalarning shaklini, katta-kichikligi, o'zaro munosabatlarini) mujassam lashtiradi.

Psixik jarayonlarning o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish psixikaning mazmuni va tuzilishida neyrofiziologik jarayonlar mavjud bo'lmagani yoki sezilmasligi sababli jiddiy qiyinchilik tug'diradi. Xulosa qilib aytish mumkinki, psixikani fiziologik hodisa bilan va psixologiyani fiziologiya bilan almashtirishga yo'l qo'ymasligimiz kerak.

### 1.2.2. Psixik taraqqiyotning nerv-fiziologik asoslari

Yuksak darajada tashkil topgan hayvonlarda psixik jarayonlarning va odamda ongli jarayonlarning bevosita moddiy asosi bosh miya po'stidir. Bosh miyaning pastroqdagi boshqa hamma qismlari, shuningdek, orqa miya – ongsiz reflektor harakatlarning markazlari bo'lib, xilma-xil fiziologik jarayonlarni idora etadi. Bu yerda yana shuni aytib o'tish kerak.



Bosh miyaning yuqorida aytilgan hamma qismlari va orqa miya markaziy nerv sistemani bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining bosqichlaridir. Bosh miyaning taraqqiyotidagi har bir qismi (pastdan yuqoriga qarab hisob qilganda) o'zidan avvalgi qismning ustiga qoplangan. Orqa miya, undan keyin esa uzunchoq miya markaziy nerv sistemasining eng qadimgi qismlaridir. Oldingi miya va po'st genetik jihatdan miyaning eng yosh qismlaridir. Markaziy nerv sistemasining yuqorigi qismlari taraqqiy qilgunicha pastdagi (qadimgi) qismlari murakkabroq psixik funksiyalarni ham bajargan deb o'ylash mumkin. Masalan, oldingi miyasi olib tashlangan baqa tamomila normal baqaga o'xshaydi. Bunday baqa odatdagicha o'tiradi; baqa turgan taxta ag'darila boshlasa, u ag'anab tushmaslikka harakat qiladi; agar baqa chalqancha ag'anab tushsa, o'nglanib oladi. Shunday qilib (baqa miya yarim sharlaridan mahrum bo'lsa ham harakat qilish va o'z harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyatini saqlab qoladi. Yarim sharlari olib tashlangan kaptar og'ziga solingan ovqatni yeydi, turtib yuborilsa

yuradi; bunday kaptar turtinmasdan ucha oladi. Ammo kaptar turtib yuborilmasa, odatda, qimirlamay turaveradi. Agar it miyasining ikkala yarim shari olib tashlansa, sun’iy suratda boqilib borilsagina bir necha yil yashay oladi. Bunday it og‘ziga solingan ovqatni eydi, yura oladi. It urilsa vangillaydi, qattiq, tovush eshitganda sapchib tushadi. Ammo bunday it o‘zicha ovqat qidirib topolmaydi va hatto yaqinidagi ovqatni ham topib eya olmaydi. Bu it uni boquvchi kishilarni tanimaydi. Avval hosil qilgan malakalari yo‘qoladi, shu bilan birga, yangi malakalar hosil qilish qobiliyati ham yo‘qoladi. Ba’zi fiziologlar maymunlarning yarim sharlarini olib tashlab tajribalar qilganlar. Maymunlar operatsiya qilingandan keyin psixik funksiyalari yo‘qolishi bilan birga, harakatlar, harakatni muvofiqlashtirish ham buzilgan. Ular to‘ppa-to‘g‘ri o‘tirib tura olgan, shuningdek, narsalarni changallay olgan, ammo, murakkabroq harakatlar, ayniqsa yurish qobiliyati buzilgan, shunday qilib, evolyusiyaning yuqori bosqichlarida murakkab harakatlar va ularni muvofiqlashtirish funksiyalari ham miya po‘stiga o‘tadi.

Odamda miyaning quyi qismlari yuksak psixik funksiyalarni bajarishga mutlaqo qobil emas. Odam miyasining po‘sti ostidagi qismlari po‘st funksiyasini loaqal qisman ham bajara olmasa kerak. Yarim sharlarsiz tug‘ilgan bolalar (anzitsefallar) ni kuzatish bu holni juda ravshan tasdiqlaydi. Odatda bunday bolalar uzoq, yashamaydi. Shunday bolalardan birining faqat uch yil-u to‘qqiz oy yashagani ma’lum. Bu bola doim yotgan, turishga biron marta ham harakat qilib ko‘rmagan. U narsalarni ushlashga hech urinmagan, hatto narsalarni qo‘lda ushlab turishni ham bilmagan. Faqat yuzida ba’zi bir harakatlar ko‘rilgan; u ba’zan ijirg‘angan; emganda va




qoshiqlab ovqat berilganda lablari va tili harakatga kelgan. Bola tagi xo‘l bo‘lganganda ham hech bir parvo qilmagan. Bu bola bilan gaplashish yoki unga

biron narsa o‘rgatish aslo mumkin bo‘lmagan. Unda hatto eng oddiy ko‘nikmalar ham hosil bo‘lmagan.

Yuqorida aytilganlardan, miyaning po‘st ostidagi qismlarining psixik hayotga hech qanday aloqasi yo‘q degan ma’no chiqmaydi. Yarim sharlar po‘sti o‘z tolalari bilan bosh miyaning hamma qismlariga va orqa miyaga bog‘langan. Shu bilan birga, yuqorida aytilganidek, orqa miyadagi nerv hujayralarining tolalari va po‘st ostidagi sohalarning tolalari yarim sharlar po‘stining qismlariga bog‘langandir. Shu sababli butun markaziy nerv sistemasi va uning faoliyati bo‘lmasa, psixik hayot ham bo‘lmas edi.Shu bilan birga, butun nerv sistemasining va butun organizmning faoliyatida bosh miya po‘sti asosiy rol o‘ynaydi. I.P.Pavlov ta’limotiga ko‘ra, yarim sharlar po‘sti organizmdagi hamma funksiyalarni idora etadi. I.P.Pavlov ta’limotiga ko‘ra, katta yarim sharlar po‘sti organizmning barcha funksiyalarini boshqaradi.

Periferiyadagi nerv sistemasi markaziy nerv sistemasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, undan ajralmasdir. Periferiyadagi nerv sistemasi nervlardan tuzilgan: bu nervlar markaziy nerv sistemasidan chiqib va butun organizmga tarmoqlanib, organizmning har bir qismini bosh miya va orqa miya bilan bog‘laydi. Bosh miyadan 12 juft nerv, orqa miyadan 31 juft nerv chiqadi (2-rasm). **I.P.Pavlov** Periferiyadagi nerv tolalari orqa miya bilan bosh miyaning ichki qismlariga kiradi. Ular bosh miyaning hamma qismlari bilan, jumladan, bosh miya po‘sti bilan bog‘lanadi.

Periferiyadagi nervlar bosh miya bilan orqa miyadan chiqqanda hiyla yo‘g‘on (ba’zilari juda ham yo‘g‘on) bo‘ladi. Lekin bu nervlar organizmga yoyilib ketganda, ko‘pgina juda ingichka ip va tolalarga bo‘linadi, chekka tarmoqlar deb shularni aytiladi.

I.P.Pavlov ta’limotiga ko‘ra, periferiyadagi nerv analizatorning bir qismini, ya’ni uning retseptor qismini (chekka tarmoqlarini) va o‘tkazuvchi yo‘lni tashkil etadi.

Periferiyadagi nervlar ikki xilga, ya’ni sezuvchi va harakatlantiruvchi nervlarga bo‘linadi.

**Sezuvchi nervlar** chekka tarmoqlarning qo‘zg‘atilishi natijasida hosil bo‘lgan qo‘zg‘alishni markazga, ya’ni orqa miya bilan bosh miyaga o‘tkazadi.

Tevarak-atrofimizdagi voqe’likni ana shu nervlar yordami bilan sezamiz va idrok qilamiz. Bu nervlar retseptor (sezuvchi), markazga intiluvchi yoki afferent nervlar deb ham ataladi.

**Harakatlantiruvchi** (yoki motor) nervlar markazdan muskul va bezlarga impuls o‘tkazadi. SHu nervlar yordami bilan muskullarimiz harakatga keladi, xilma-xil ish-harakatlar qilinadi, turli bezlar (masalan, so‘lak bezlari) ning faoliyati ham shu nervlar yordami bilan idora etiladi. Bu nervlar markazdan qochuvchi yoki efferent nervlar deb ham ataladi.

Periferiyadagi nervlardan ba’zilari qo‘zg‘alishi periferiyadan markazga ham, markazdan periferiyaga ham o‘tkazadi.




Sezuvchi va harakatlantiruvchi nervlardan qo‘zg‘alish bir xil tezlik bilan o‘tmaydi; sezuvchi nervlar qo‘zg‘alishni harakatlantiruvchi nervlarga nisbatan sekinroq o‘tkazadi.

Sezuvchi nervlar ayrim sezgi organlariga yoyilib, har bir organning asosiy negizini tashkil etadi. har bir sezuvchi nerv muayyan organga ko‘ruv, eshituv, hid bilish va shunga o‘xshash organlarning biriga xos bo‘lgan spetsifik qo‘zg‘alishlarni o‘tkazadi.

Harakatlantiruvchi nervlar ayrim organlarning va muskul ayrim qismlari harakatini idora etadi.

**Vegetativ nerv sistemasi**

Vegetativ nerv sistemasini nerv tugunlari va bu nerv tugunlarini orqa miyadagi hamda orqa miyadan tashqaridagi mahsus birikma va chatishmalari tashkil etadi. Vegetativ nerv sistemasidagi nerv hujayralarining va nerv tugunlarining ayrim birikmalari hazm organlarida, qon aylanish, nafas olish organlarida va shunga o‘xshash organlarda bo‘ladi.

Vegetativ nerv sistemasi markaziy nerv sistemasi bilan bog‘langan: vegetativ nerv sistemasining nerv tugunlari bosh miyaning gipotalamus (ko‘ruv dumboqlariniig pastki qismi), to‘rt tepalik va uzunchoq, miya sohasida,

shuningdek, orqa miyaning ko‘krak, yuqori bel va dumg‘aza bo‘limlarida joylashgan.

Katta yarim sharlar po‘stining peshona qismlarida periferik nerv sistemasining ham, vegetativ nerv sistemasining ham funksiyalarini birlashtiradigan yuksak markazlari bor. Bosh miya po‘stidan periferik nerv sistemasiga ham, vegetativ nerv sistemasiga ham impulslar kelib turadi. Binobarin, vegetativ nerv sistemasini, shuningdek, boshqa qism va markazlarni bosh miya po‘sti idora etadi.

Vegetativ nerv sistemasi umumiy nerv sistemasining bir qismi bo‘lib, ichki organlar hazm, nafas, qon aylanish organlarining ishlarini va ichki sekretsiya bezlarining faoliyatini idora qiladi. Vegetativ nerv sistemasi organizmning umuman hamma hayotiy jarayonlarini idora etadi. Organizm jarayonlarining shu tariqa vegetativ nerv sistemasi tomonidan idora etilishi organlar faoliyatining kuchayishi va susayishida, ortishi va kamayishida ko‘rinadi.

Vegetativ nerv sistemasi ichki organlar bilangina bog‘lanib qolmay, balki organizmning boshqa hamma qismlari bilan ham bog‘langandir. Vegetativ nerv sistemasining markazdan qochuvchi tolalari hamma sezgi organlarida va teri hujayralarida bor. Vegetativ nerv sistemasi o‘sha tolalar orqali sezgi organlariga ta’sir etib, ularning faoliyatini kuchaytiradi yoki susaytiradi. Jumladan, vegetativ nerv sistemasi sezgi organlarining adaptatsiyasiga (ya’ni moslanishiga) ancha yordam beradi. Vegetativ nerv sistemasi markaziy nerv sistemasining turli qismlariga, jumladan, bosh miya po‘stiga ham ta’sir etadi. SHuning uchun ham vegetativ nerv sistemasining ta’siri psixik jarayonlarda ham ko‘rinadi.

Vegetativ nerv sistemasi ikkita. Ular: simpatik nerv sistemasi va parasimpatik nerv sistemasidan iborat.

Simpatik nerv sistemasining markazlari gipotalamusda, orqa miyaning ko‘krak va yuqori bel bo‘limlaridadir. Simpatik nerv sistemasining tolalari tanadagi hamma organlarga yoyiladi.

Parasimpatik nerv sistemasining markazlari to‘rt tepalikda, o‘rta miyada (Varoliy ko‘prigi), uzunchoq, miyada va orqa miyaning dumg‘aza bo‘limidadir.

Simpatik va parasimpatik nerv sistemalari ichki organlar faoliyatini idora etishda «antagonistlar» rolini belgilaydi.

### 1.2.3. Psixika va ong rivojlanishining nazariy va konseptual asoslari

Kishi psixikasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi eng murakkab muammolardan biri bo‘lib, tabiat qonunlarining mohiyatini tushunib etishga harakat qiladigan tadqiqotchilarni bu muammo hamma vaqt qiziqtirib kelgan. Materialistik yo‘nalishdagi olimlar psixikaning paydo bo‘lishi uzoq davom etgan materiya rivojlanishining natijasi deb izohlaydilar. Ular materiyaning tabiatini tadqiq qilishar ekan, harakat materiyaning hayot kechirish usuli, uning tarkiban o‘ziga xos ajralmas xususiyati ekanligi uchun ham materiya harakatining turli shakllarini o‘rganadilar. Harakatsiz, mutlaqo harakatlanmaydigan materiya umuman bo‘lmaydi. Olamdagi butun materiya, jami noorganik va organik tabiat harakatlanish, o‘zgarish va rivojlanish holatida bo‘ladi. Jonsiz tabiatda harakat jism va moddalarning mexanik, fizikaviy va kimyoviy ta’siri tarzida yuz berishi mumkin. Jonli materiyaga in’ikosning biologik shakllari xos bo‘lib, jonli materiyaning ma’lum bir bosqichida in’ikosning yangi shakli sifatida psixika paydo bo‘ladi. Har qanday jonli organizm barcha tashqi qo‘zg‘atuvchilarga nisbatan tanlangan holda munosabatda bo‘ladi va bu bilan jonli materiyaning sifat jihatidan yangi xususiyatini – o‘zini o‘zi tartibga solish xususiyatini namoyon qiladi.

Uzoq vaqt davom etgan evolyusiya natijasida hozirgi organizmlarda in’ikosning qo‘zg‘aluvchanlikdan tortib, to uning ancha yuksak darajadagi shakllari bo‘lmish sezgilar, idrok, xotira, tafakkurga qadar turli shakllarini ko‘ramiz. Agar jonli mavjudotlarning hayot kechirish muhiti hamma joyda mutlaqo bir xil bo‘lganida, ehtimol, yer yuzi bir xil turdagi hayvonlar bilan to‘lib ketgan bo‘lardi. Haqiqatda esa muhit iqlim jihatidan ham, yashash sharoiti jihatidan ham g‘oyat rang- barang bo‘lib, bu organizmlarning tabaqalanishini taqozo etadi. Aks ettirish usullari yuksalgan sari hayvonlarning mazkur turi muhitning bevosita ta’siridan shunchalik ozod bo‘la boradi. Yashash sharoitlarining keskin o‘zgarishi hayvonlarning joyini o‘zgartirishga majbur etishi azaldan ma’lum. Ta’sirlanuvchanlik tirik organizmning biologik

ahamiyatiga ega bo‘lgan (biotik) ta’sirga javob berish qobiliyati demakdir. Oddiy ta’sirlanuvchanlik sodda, bir hujayrali tirik organizmdayoq seziladi. Ular muhitning ta’siriga harakatlanish bilan javob beradi. Muhit biotik ta’sir o‘tkazishi mumkin bo‘lib, buning natijasida jonli organizmda protoplazmaning xossasi o‘zgaradi. Qo‘zg‘atish ta’siriga uchraydigan o‘zini tartibga soluvchi tizim sifatida tirik hujayrada qidiruv harakatlari hosil bo‘ladi. Biotik omillarga nisbatan o‘ziga xos harakatlar bilan javob berish usullari **tropizmlar** yoki **taksislar** deb ataladi. Uning **fototropizm** – jonli organizmning yorug‘lik ta’siri ostida harakatlanish tendensiyasi; **termotropizm** – issiqlik ta’siri ostida harakatlanish tendensiyasi; **xemotropizm** – muayyan fizikaviy-kimyoviy muhitni tanlash tendensiyasi; **topotropizm** – mexanik usul bilan qo‘zg‘atuvchining ta’siri ostida harakatlanish tendensiyasi kabi turlari va boshqa bir qancha tropizmlar mavjuddir. O‘simliklarning biologik in’ikos etish shakli o‘zini tartibga solishga yordam beradigan tropizmlarning mavjudligi bilan mukammallik kasb etadi.



### 1.2.4. Psixika va ong rivojlanishidagi nazariyalarning tahlili

Insoniyat tarixida til tufayli aks ettirish imkoniyatlarining qayta qurilishi yuz berdi: borliq kishi miyasida yanada ravshan aks etadi. Hayvonlarning «tili» bilan odamlarning tili o‘rtasidagi farq tafakkurdagi tafovutni ham belgilaydi. Shunday qilib, hayvonlarning aniq, amaliy tafakkuri ularni muayyan vaziyatdan bevosita ta’sirga bo‘ysundiradi, odamning mavhumlashgan tarzda tafakkur yuritishiga bo‘lgan qobiliyati uning ushbu muayyan vaziyatga bevosita bog‘liqligini bartaraf etadi. Kishi, xususan, o‘zi anglagan zaruratga ko‘ra ongli xatti- harakat qilish qobiliyatiga ega. Bu inson psixikasining hayvon psixikasidan eng birinchi muhim farqidir. Odamning hayvondan ikkinchi farqi uning qurollarni yaratishga va saqlashga layoqatli ekanligidir. Odam hayvondan farqli o‘laroq, oldindan o‘ylangan rejaga binoan, qurol yaratadi, uni belgilangan

maqsadda foydalanadi va saqlaydi. Inson psixik faoliyatining ajralib turadigan uchinchi belgisi ijtimoiy tajribani biridan ikkinchisiga oʻtkazib turishidir.

Inson psixikasining hayvon psixikasidan eng muhim farqi ularning rivojlanish shart-sharoitlarida koʻrinadi. Agar hayvonot dunyosining rivojlanishi davomida psixikaning taraqqiyoti biologik evolyusiya qonunlariga binoan roʻy bergan boʻlsa, inson psixikasining, kishi ongining rivojlanishi ijtimoiy- tarixiy taraqqiyot qonunlariga boʻysunadi. Ongni bevosita hayvonlarning evolyusiyasidan keltirib chiqarish mumkin emas: inson ijtimoiy munosabatlar mahsulidir. Toʻdaning jamiyatga aylanishiga ta’sir koʻrsatgan omil mehnat faoliyati, ya’ni qurollarni birgalikda yaratish va qoʻllash jarayonida odamlar amalga oshiradigan faoliyat boʻldi. Shuni xulosa qilish mumkinki, faqat odamgina ijtimoiy tajribani oʻzlashtiradi. Kishi psixikasini u egallab oladigan ijtimoiy tajriba rivojlantiradi. Inson psixikasining hayvon psixikasidan eng muhim farqi ularning rivojlanish shart-sharoitlarida koʻrinadi.



Oliy asab faoliyati haqida tushuncha I.M.Sechenov «Bosh miya reflekslari» asarida ongli va ongsiz hayotning barcha harakatlari roʻy berish usuliga koʻra reflekslardan iboratdir degan xulosaga kelgan edi. Shunday qilib, ongning harakati (psixik hodisa) ruhning tanasiz mohiyat xususiyati emas, balki I. M. Sechenov ta’biri bilan aytganda, roʻy berish usuliga koʻra refleksga oʻxshash jarayondir. Ma’lumki, psixik jarayon oʻzicha emas, balki miyaning mohiyati, uning tegishli boʻlimlari funksiyasi sifatida tashqi olam haqidagi axborotning qayoqqa ketishi, qayerda saqlanishi va qayta ishlanishini koʻrsatuvchi javob faoliyatining boshqaruvchisidir. Shunday qilib, kishining bilimlari, tevarak atrof haqidagi tasavvurlari, ya’ni individual tajribaning butun boyliklari reflektor harakatga kiradi. Psixik hodisalar miyaning tashqi (tevarak atrofdagi muhit) va ichki (fiziologik tizimi sifatida organizmning holati) ta’sirlarga javobidir. Psixik hodisalar faoliyatning hozir ta’sir etayotgan

(sezgilar, idrok) yoki qachonlardir, ya’ni o‘tmish tajribada (xotira) yuz bergan qo‘zg‘atuvchiga javob tarzida ro‘y beradigan, ana shu ta’sirni umumlashtiradigan, ular pirovardida olib keladigan natijalarni (tafakkur, hayol) oldindan ko‘ra bilishga yordam beradigan, ba’zi bir ta’sirlar natijasida faoliyatni (his-tuyg‘u, iroda) kuchaytiradigan yoki susaytiradigan, umuman faollashtirib yuboradigan va boshqa xildagi ta’sirlar oqibatida uni tormozlashtiradigan, odamlar xulq-atvoridagi (temperament, xarakter va boshqalar) tafovutlarni aniqlaydigan doimiy boshqaruvchilardir.

I.M.Sechenov psixikaning reflektorligi va faoliyatning psixik jihatdan boshqarilishi g‘oyasini ilgari surdi. Bu muhim nazariy qoidalarni I.P.Pavlov tajriba yo‘li bilan tasdiqladi va aniqlashtirdi. U hayvonlarning, shuningdek odamning tashqi muhit bilan o‘zaro harakati, miya tomonidan boshqarilishi qonuniyatlarini kashf etgan edi. I.P.Pavlovning ushbu qonuniyatlarga nisbatan jami qarashlari odatda ikki xil signal tizimi haqidagi ta’limot deb ataladi. Narsaning timsoli (ko‘rinishi, eshitilishi, hid tarqatishi va shu kabilar) hayvonlar uchun biron-bir shartsiz qo‘zg‘atuvchi signal bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa ular xatti-harakatining shartli refleks tarzida o‘zgarishiga olib keladi. Hozirgi zamon fanida mavjud tasavvurlarga qaraganda, orqa miya va miya naychasi reflektor faoliyatining asosan tug‘ma (shartsiz refleksi) hisoblangan shakllarni amalga oshiradi, katta yarim sharlarning qobig‘i esa hayot kechirish jarayonida orttiriladigan va psixika tomonidan boshqariladigan xulq-atvor shakllari organi hisoblanadi.

Miya katta yarim sharlari ishining umumiy qonuniyatlarini I.P.Pavlov aniqlab bergan. Olim o‘tkazgan klassik tajribalarda itlarda oldinlari faqat tegishli shartsiz qo‘zg‘atuvchi (masalan, ovqat)ning bevosita ta’siri ostida yuz beradigan fiziologik reaksiyaga (masalan, so‘lak oqishiga) olib kela boshlaydigan juda ham xilma-xil signallar beradigan shartli reflekslar ho sil qilingan edi. Lekin uning ta’limotini shuning o‘zi bilangina cheklab qo‘y ish noto‘g‘ri bo‘ladi. Real tarzda (laboratoriya sharoitida emas) hayvonlar ozuqa qachon og‘ziga tushishini kutib turmaydi, balki uni izlashga urinadi, harakat qiladi, harakatining samaradorligini tekshiradi, xullas sharoitga faol muvofiqlashadi. Shunday qilib, bosh miya yuksak taraqqiy etgan hayvonlar va odam psixikasini belgilaydigan

darajada faoliyat ko‘rsatadigan organ yoki, to‘g‘rirog‘i, organlarning murakkab tizimidir. Psixikaning mazmuni tirik mavjudot o‘zaro munosabatda bo‘ladigan tashqi olam bilan belgilanadi. Tashqi olam kishi miyasi uchun shunchaki oddiy biologik muhit (hayvon miyasi uchun bo‘l gani kabi) emas, balki odamlar o‘zlarining ijtimoiy tarixi davomida yaratgan hodisalar va narsalar omilidir. Har bir alohida odam hayotining dastlabki qadamlaridan boshlangan psixik rivojlanishning ildizlari tarixan tarkib topadigan madaniyatning eng qadimiy, eng chuqur davriga borib taqaladi. Kasbiy psixologiya fani nazariy asoslarida I.M.Sechenov va I.P.Pavlovlarning ta’limotlari chuqur iz qoldirdi. Hozirgi davrda psixik taraqqiyotning nazariy asoslari muammosi aniq va ijtimoiy fanlarning umumiy tadqiqot ob’yektiga aylanib bormoqda va o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmagan, aksincha, yanada takomillashib bormoqda.

Odam ongining ayrim tomonlari va funksiyalarining tarixiy taraqqiyoti kishilarda faqat ularning o‘ziga xos bo‘lgan, ehtiyojlar vujudga keldi va taraqqiy etdi. Ehtiyoj odamning kun kechirishi, yashashi va kamolga etishi uchun zarur narsalarning hammasi demakdir. Odam yashash, hayot kechirish uchun o‘z ehtiyojlarini kondirishi lozim. Ehtiyoj hayvonlarda ham bor. Ammo hayvonlarda faqat biologik, tug‘ma ehtiyojlar bo‘ladi, ovqatlanish, o‘z-o‘zini himoya qilish, nasl qoldirish ehtiyojlari bor, xolos. Odamda bu biologik ehtiyojlardan tashqari, yana yuksak ehtiyojlar - bilish ehtiyojlari, ijtimoiy, ma’naviy, estetik va boshqa shu kabi ehtiyojlar bor. Bu ehtiyojlar tug‘ma ehtiyojlar emas ular tarixan taraqqiy etgan. Ijtimoiy zot bo‘lgan odamning biologik ehtiyojlari ham tarixiy taraqqiyot jarayonida sifat jihatidan tubdan o‘zgargan. Kishilarning ehtiyojlari ijtimoiy tuzum formalarining taraqqiyotiga qarab o‘zgaradi.

 

Bizning katta ongimiz ham bizga tili, ma’no yaratish uchun muntazam tarzda ramzlardan foydalanadigan aloqa tizimiga ega bo‘lish imkonini beradi. Til bizga gaplashib o‘qish va yozish bilan boshqalarga ongli muloqot qilish imkonini beradi. Stiven Pinker psixolog sifatida til (Pinker, 1994), "zakovat tojidagi marvarid" deb nom berdi

Psixologlar uzoq vaqt eng yaxshi tushuncha va ongni o‘lchash ustida (Sternberg, 2003) ko‘p muxokama qildilar. Bu savollar o‘z ichiga nechta ong turi bor, tabiatning ongdagi roli, ong qanday qilib miyada taqdim etiladi va idrokli guruhdagi farqlarni olgan.



**Alfred Binet**
**(1857-1911)**



**Teodor Simon**
**(1872-1961)**

Fransuz psixologi Alfred Binet (1857-1911) va uning hamkasbi Teodor Simon (1872-1961) yaxshi o‘quvchilar bo‘lishi kutilgan talabalarni sekin o‘quvchilardan farqlash bo‘yicha bir o‘lchovni rivojlantirish uchun fransuz hukumati nomidan ish boshladi. Maqsadi o‘qituvchilarga bu ikki guruhlardagi yaxshi talabalarni tarbiyalashga yordam berish edi. Binet va Simon ob’yektlarni nomlash qobiliyatini aniqlashga qaratilgan savollarni o‘z ichiga olgan turli topshiriqli birinchi ong sinovini o‘tkazdi. Binet va Simon (Binet, Simon & Tovn, 1915; Sigler, 1992) larning fikricha, savollar ular yuzasida turli xil bo‘lsa-da, ularni talabalar so‘ragan va barcha asosiy baholar qobiliyat, idrok sababi va hukm qilish uchun berilgan. Va bu xildagi turli o‘lchovlar orasida to‘g‘rilanishlar aslida ijobiy ekanligini aniqlab chiqdi; bir elementni to‘g‘ri

tanlagan talabalar savollarni o‘zlari juda farqlagan bo‘lsa-da, shuningdek, boshqa savollar juda turli tuman edi.

Binet va Simon testlarini joriy qilishdi va Stenford universitetida Amerikalik psixolog Levis Terman (1877-1956) Stanford-Binetning ong testi amerikacha versiyasini tanitdi. Stenford-Binetning testi o‘z ichiga – lug‘at, rasmlarni eslab qolish, tanish ob’yektlarni nomlash, gaplarni qaytarish va buyruqlarga itoat qilish kabi turli topshiriqlarni oldi.

Tadqiqotning ko‘rsatishicha, semantik bilim, so‘z, va tilda aks etidigan kattalar ko‘proq kristallashtirilgan ongga ega. Natijada, kattalar odatda tarixi, geografiyasi chora-tadbirlari to‘g‘risida yosh odamlardan o‘tadilar va hatto bu malumotlar foydalidir (Saltxous, 2004). Bu (yosh xabar suyuq ong afzalliklari ustidan keksa "xikmat" afzalligini beradi, ularning atrofida dunyo faoliyati yanada murakkab ong bilan birga, sekinlashadi va yanada to‘liq qayta ishlash uslubi bilan birga kuchayadi, bu ilm suyuq ongdan ustun kelib, donolik afzalligini beradi (Baltes, Stodinger, & Lindenberger, 1999; Sheybe, Kunzmann, & Baltes, 2009).

Kristallashtirilgan ongga qarshi suyuq ong sinovi, keksalar nega tajriba talab qilinadigan topshiriqlarda kamroq natijalar ko‘rsatmasliklarini tushunishga yordam beradi. Yosh shaxmatchi misol uchun, tezroq o‘ylashi mumkin, lekin yana bir tajribali shaxmatchimiz chizish uchun ko‘proq bilimga ega bo‘ladi.



Ko‘p onglilik g‘oyasining biri himoyachisi psixolog Robert Sternberg hisoblanadi. Sternberg odamlar ko‘proq yoki kamroq taxliliy ong, ijodiy ong va amaliy ongni ko‘rsatishi mumkin, deb taklif berib birinchi uch karrali (uch-qismli) nazariyasini taklif qildi. (1985, 2003) Sternberg ananaviy ong (idrok) testlardagi taxliliy ong, bir to‘g‘ri javob bilan muammolarga javob berish qobiliyatini baholash, lekin ular yaxshi ijodiy ong (yangi vaziyatlarga moslashish va yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati) yoki amaliy baholash emas, deb ta’kidlaydi (idrok) (masalan, qobiliyati yaxshi eslatma yozish yoki samarali masuliyat ishonib topshirgan).



Sternberg taklif sifatida, ilmiy-Tadqiqot ijodi yuqori odamlarning kam ijodiy tengdoshlariga (2000 Simonton) qaraganda ijodiy olimlar, sanatkorlar, matematiklar va muxandislardagi ong oliy ong emas, balki juda analitik ong (idrok) (Furnxam & Bachtiar, 2008) va u bilan bog‘liq emas, deb topdi ). Bundan tashqari u shunday deb o‘ylab konvergent fikrlash bilan bog‘liq miya joylari, berilgan muammoga to‘g‘ri javob topishga qaratilgan, tafovutli fikrlash, bir muammoga ko‘p turli g‘oyalar yoki yechimlar berish kabi g‘oyalarni olg‘a surdi (ishlab chiqarish qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lgan xar xil idrok turlari (Tarasova, Volf, & Razumnikova, 2010).

O‘zingizning tarqaladigan fikrlashingizni sinab ko‘ring. Qancha foydalanish qog‘oz tasma uchun o‘ylab mumkin?

Boshqa tomondan, ijodiy bo‘lish ko‘pincha malumotlarni eslash, va mavxum (Bink & Marsh, 2000) deb o‘ylangan tajribani o‘rganish uchun qobiliyat bo‘lishi mumkin, shu jumladan, "g", bilan o‘lchanadigan asosiy qobiliyat. Eriksson (1998), Veisberg (2006), Xennessi & Amabile (2010) va (1992) Simonton ijodiy odamni o‘rgandi va jadvalda ijod uchun muhim bo‘lishi mumkin bo‘lgan eng kamida besh komponentni aniqladi:

**Ijodkorlikning muhim komponentlari**

| Komponent | Tasnifi |
|---|---|
| Tajriba mavzusi | Ijodkor odamlar extiyotlik bilan o‘rganadilar |
| Tasavvuriy fikrlash | Ijodkor odamlar muammolarga oddiy ko‘z bilan qaraydilar |
| Risk olish | Ijodkor odamlar yangi va potensial riskli yondashuvlarni oladilar |
| O‘tu muhim qiziqish | Ijodkor odamlar loyixalarni pul uchun emas, qiziqish uchun bajaradilar |
| Ijodkorlik bilan ishlash | Ko‘plab Ijodkor odamlar bir xil loyixada ishlayotgan odamlar muxiti tomonidan qo‘llanadi, yordam beriladi va jalb qilinadi |







Uch qismli modelning so‘nggi jihati - amaliy ong, kitoblar yoki rasmiy ta’limdan olingan bo‘lishi mumkin emas degan ma’noni anglatadi. Amaliy ong (idrok) hayot tajribalaridan o‘rganiladi "ko‘cha donolari" yoki "umumiy manoda" bir turini anglatadi. Testlar bir qator amaliy ongni (idrok) (Sternberg, Vagner, & Okagaki 1993) o‘lchash uchun ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, tadqiqot amaliy ong (idrok) "g" dan yoki biron-bir maxsus vazifalar (Gottfredson, 2003) da muvaffaqiyatli bashoratning aloxida ekanini ko‘p dalillar bilan topilmaganligini ko‘rsatdi. Amaliy ong (idrok) kamida bir qismi, odamlarga yordam bersa, ba’zi xususiyatlariga xos ish o‘rinlarini yaxshilashni amalga oshiradi va bu qobiliyat xar doim yuqori umumiy ong (Sternberg, Vagner, &

Okagaki, 1993) bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin emas degan fikrni o‘z ichiga olishi mumkin[1].

**Xovard Gardnerning ko‘p onglilik nazariyasi. Fikr va fikrlash operatsiyalari**

Ongning muayyan turdagi g‘oyasi bo‘yicha yana bir chempion- psixolog Xovard Gardner (1983-1999) hisoblanadi. Gardner turli odamlar, turli istedod va mahoratga ega bo‘lishi uchun uni evolyusion funksional bo‘ladi, deb takidlaydi va bir-biridan farqlash mumkin bo‘lgan sakkiz ong (idrok) ni taklif qildi. Salohiyatli to‘qqizinchi ong (idrok); yani, ekzistensial hali empirik jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi kerak. Gardnerning sakkizta ongli ro‘yhati uchun jadval keltirilgan rasmga qarang. Gardnerning ko‘p ongli nazariyasi uchun ba’zi dalillarni otistik qobiliyatlaridan kelib chiqib takidlagan olimlar, umumiy ong testlarni kam natijali, lekin shunga qaramay, berilgan sport (Treffert & Vallatse, 2004) bo‘yicha statistika imkoniyatiga ega bo‘lish matematika, musiqa, sanat, deb berilgan favqulodda mahoratiga ega odamlarda bo‘lishi mumkin deydi.

**Gardnerning sakkizta maxsus ong (idrok) turlari**

| Ong turi | Tasnifi |
|---|---|
| Lingvistik | Yaxshi so‘zlab yaxshi yozish qobiliyati |
| Mantiqiy-matematik | Masalalarni yaxshi echib bilish va mantiqdan foydalanish qobiliyati |
| Fazoviy | Uch xajmda ob’yektlar xaqida o‘ylash va asoslash qobiliyati |
| Musiqiy | Musiqani chalish va yoqtirish qobiliyati |
| Kinestetik (tana) | Tanani sportda, raqsja va boshqa jismoniy faoliyatda qimirlatish qobiliyati |
| Shaxslararo | Boshqalar bilan kirishish va ularni tushunish qobiliyati |
| Shaxsaro | O‘z o‘ziga ichki nazar solish qobiliyati |
| Naturalistik | Xayvon, o‘simlik va boshqa tirik predmetlarni tanish, farqlash va tushunish qobiliyati |

[1]Charles Stangor. Introduktion to Psychology.2011. 187-p.



Garchi ong ko‘pincha umumiy tarzda tushunilsada, (omil sifatida) ma’lum bir topshiriqlar uchun foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan muayyan ko‘nikmalar bor. Ko‘p ongli g‘oyasi ta’lim sohasida nufuzli bo‘ldi va o‘qituvchilar turli talabalarga turli xil ta’limni sinash uchun bu fikrlardan foydalangan. Misol uchun, bir o‘qituvchi talabalarni ularning tanalari yoki qo‘llarini sonlarga qarab ko‘chirishga rag‘batlantirishi mumkin, ayniqsa, yaxshi kinestetik ongi bor talabalarga matematika muammolarni o‘rgatishda. Boshqa tomondan, bu "ong (idrok)" bazan ko‘proq "qobiliyat" yoki aksincha real ongga ko‘ra "istedod" kabi ko‘rinadi deb davo qiladilar. Mavjud barcha ong (idrok) xaqida xech qanday aniq xulosa yo‘q. Aloxida ong (idrok) hokazolar xam dramatik ko‘nikmalar, xazil, badiiy maxorati tuyg‘usiga ega. Bundan tashqari, yana bir ong asosiy kuchini namoyishning turli yo‘nalishlariga ong (idrok) aslida "g" (Brody, 2003), qisman bog‘liq deb shu tariqa ifodalaydi.

## 1.3. KASBIY PSIXOLOGIYANING ASOSIY METODLARI

### 1.3.1. Kasbiy psixologiyaning metodlari haqida tushuncha

Avvalo metodlar haqida ikki og‘iz so‘z. Metod so‘zi – yunoncha methodos bo‘lib tadqiqot, tekshirish degan ma’noni beradi. Nazarimizda yuqoridagilarga yana yo‘l, usul so‘zlarini ham kiritish mumkin. Metodlar tadqiqot ishlarida ham, bilim berishda ham qo‘llaniladi. Ushbu bobda bilim berish metodlari haqida emas, balki fan uchun, uning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni to‘plashdagi qo‘llaniladigan tadqiqot metodlari haqida so‘z boradi.Psixologiya fanining empirik (amaliy) metodlari turkumidan muhim o‘rin egallagan, diagnostik xususiyatli metodlardan biri – kuzatish metodidir. Mazkur metod fanimizing eng qadimgi zamonidan boshlab to hozirgi davrgacha ilmiy izlanuvchilarning asosiy tekshiruv qurollaridan biri bo‘lib, keng ko‘lamda foydalanib kelinmoqda. Lekin bugungi kunda uning ob’yekti, ko‘lami yanada kengaydi, murakkab psixologik jarayonlar, holatlar, hodisalar, kechinmalar, faoliyat va muomala xususiyatlarini o‘rganish imkoniyati tug‘ildi, sifat hamda mazmun jihatidan katta o‘zgarishlar yuzaga keldi

Hozirgi zamon kasbiy psixologiya fanining asosiy prinsiplari, kategoriyalari va ilmiy tadqiqot usullari 1923 yilda Psixonevrologlarning birinchi s’ezdida K.N. Kornilov (1879–1957) psixologiyani dialektika negizida tuzish masalasini ilgari surdi. Psixologlarning psixologiyani dialektik materializm negizida tuzish uchun olib borgan kurashining natijasi hisoblangan g‘oyaviy-nazariy kurash jarayonida psixologiya predmeti va uning metodlari haqidagi ilmiy tushunchalar tarkib topdi, psixologik tadqiqotlarning eng muhim prinsiplari va asosiy muammolari aniqlab olindi, bilimning turdosh sohalariga munosabat oydinlashdi. Psixologiya fanining taraqqiyotida buyuk o‘rin tutgan B.G. Ananev, P.P. Blonskiy, L.S. Vigotskiy, A.V. Zaporojets, K.N. Kornilov, G.S. Kostyuk, A.N. Leontev, A.R. Luriya, S.A. Rubinshteyn, A.A. Smirnov, B.M. Teplov, D.N. Uznadze va boshqa olimlar yetishib chiqdi. Psixologiya psixik jarayonlarni, shaxsning individual – tipologik xususiyatlarini o‘rganar ekan, tekshirishning muayyan metodlarini o‘rgatadi. Psixologiyada tekshirish metodlari ob’yektiv bo‘lmog‘i lozim. Insonning ish-harakatlari va xatti-

harakatlarini tekshirish asosidagina uning niyatlari, fikrlari va hissiyotlari haqida to‘g‘ri ma’lumot olish mumkin.

Kasbiy psixologiyaning metodlari psixik hodisalarni o‘rganishga ob’yektiv qarashni ta’minlabgina qolmay, balki shaxsning psixik jarayonlari va xususiyatlari nima uchun va qanday yuzaga keladi? Va qanday rivojlanadi va qanday o‘zgarib boradi? degan savollarga javob bermog‘i lozim.

Kasbiy psixologiyaning metodlari amaliyot bilan bog‘liq ravishda olib borilishi kerak. Kasbiy psixologiya metodlariga tarixiy jihatdan yondashmoq lozim. Shu jihatdan psixologiya metodlari uning predmeti kabi tarixan anchagina o‘zgarishlarga duch keldi. Psixologik tadqiqotlar predmetining alohida xususiyatga egaligi uning alohida tadqiqot metodlariga ega bo‘lishi zarurligi haqidagi fikrni ilgari surmasdan qo‘ymasdi. Idealistik psixologiya yagona bir metodni tavsiya eta olgan va shu metod yordamida kishi «ruhiga» kirib borishga uringan. O‘zini o‘zi kuzatish (introspeksiya, ya’ni ichkaridan ko‘rish) ana shunday metod edi. Kasbiy psixologiyada tadqiqotning sub’yektiv va ob’yektiv metodlari bir-birini inkor etadi. Haqiqiy ilmiy psixologiya psixikani o‘rganishning ob’yektiv metodlaridan foydalanish va fanda bundan boshqa metodlarning bo‘lishi mumkin emasligini tushuntirishi kerak.

Hozirgi zamon psixologiyasining ilmiy tadqiqotga yana bir muhim talabi psixik faktlarni genetik (tarixiy) jihatdan o‘rganish prinsipiga amal qilishni taqozo etadi. Bu metod yordamida psixik rivojlanish davrlarga bo‘lish yo‘li bilan (ya’ni rivojlanishning alohida yosh bosqichlarini ta’riflash va ularni o‘zaro bir- biriga taqqoslash) emas, balki bola shaxsini unga ta’lim berishning maxsus tashkil etilgan sharoitlarida qator yillar mobaynida uzoq vaqt o‘rganish natijasida aniqlanadi. Masalan, bolaning psixik taraqqiyoti o‘rganilar ekan, psixik taraqqiyotining asosiy qonuniyatlarini, xususiyatlarini aniqlash, uning shu tarzdagi psixik taraqqiy etish sabablarini bilib olish hamda sinchiklab o‘rganish asosida oilaviy tarbiya va ta’lim jarayonlarini takomillashtirish uchun muayyan usullarni belgilash lozim.

Tadqiqiy metodlarning 2 ta turi mavjud;

1. Longityud
2. Kesimli

Longityud metodi – ma‘lum kishilar guruhi yoki aniq kishilarning bir xil belgilariga ko‘ra psixik xususiyatlarini davomli va muntazam o‘rganishni nazarda tutadi.

Kesimli metod – ma‘lumotlarni tadqiqotda qatnashuvchilarning turli guruhlariga nisbatan taqqoslash xosdir. Bu metod orqali sinovdan o‘tayotgalarning ko‘p miqdorini qisqa vaqt ichida qamrab olishi mumkin. Kesimli tadqiqotlarni o‘tkazishda savol-javob usullari, testlar tajribalar keng qo‘llaniladi. Longityud metodi - kasbiy shakllanishda individual yo‘lni o‘rganishga yordam beradi. Mazkur metod yordamida shaxsning obro‘ orttirishi uning faoliyatidagi turli xildagi tanqidiy holatlarini aniqlaydi. Barcha tadqiqotlarda keng doirada metodlarni qo‘llash o‘ziga xos tadqiqiy metodlarni yaratilishiga olib keladi. Kasb psixologiyasi tadqiqot metodlarining tizimlanishi, ularning qo‘llanishi sohasini aniqlash shuningdek, sifat, xususiyatini ko‘rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Tadqiqotni tashkillashtirish va rejalashtirish metodlari, ya‘ni tashkiliy metodlar. 2. Dalillar to‘plash, ilmiy ma‘lumotlar olishga qaratilgan empirik metodlar(usullar). 3. Ma‘lumotlarni qayta ishlash usullari 4. Interpretatsion metodlar(usullar). Boshqa bir qator psixolog-olimlar psixologiyasining quyidagi usullarini ajratishadi: 1. Sub’yektiv metodlar (o‘zini o‘zi kuzatish); 2. Ob’yektiv metodlar (kuzatishning xar xil turlari; eksperimental, testlar, savol-javob, so‘rovnomalar). Afsuski, bu metodlar muallifi psixologiya metodlarining tasniflanishini (klassifikasiya) taqdim etmay, faqatgina psixologiya fanidagi mavjud metodlarini sanab o‘tish bilan chegaralanadilar. Bu esa o‘z navbatida aniq ilmiy tasniflanishning mavjud emasligi, psixologiyada metodlarning ko‘pligi hamda bir tizimga solinmaganligi bilan izohlanadi. [1]

Kasbiy psixologiyaning metodlarini tahlil etib, tadqiqiy metodlarni tasniflashning asosi sifatida muhim jihatlarini ajratib olish kerak. Bu masalalar 4 xil shaklga ega: tasvirlash, o‘lchash, tushuntirish va psixik hodisani shakllantirishdan iborat. Shunga muvofiq metodlarning 4 ta guruhi taklif etiladi: noeksperimental (klinik), diagnostik, eksperimental va shakllantiruvchi.

[1] T. Melchert. Fondations of Professional psychology. 2011. 10-bet.

Shunday qilib kasb psixologiyasi oldida quyidagi tadqiqiy masalalar turibdi: 1 guruhi - shaxsning kasbiy shakllanishi bu murakkab, ba‘zida esa dramatik jarayonning psixologik xususiyatlarini tasvirlashdan iborat. Bu jarayonni tadqiq etish uchun longityud, savol-javob, psixobiografiya, tanqidiy voqealar metodlarini qo‘llash to‘g‘ri bo‘ladi. Bu metodlar guruhini genetik metodlarga kiritishi mumkin. 2 guruhi - kasblarning psixologik tavsifi, kasbning psixologik mazmunini tadqiq etish, faoliyat mahsuldorligini o‘rganish, mehnat metodi, hujjatlarni o‘rganish, kuzatilayotganlarni savol-javob orqali o‘rganish metodi, shuningdek, professiografiya yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin. Bu uslublar guruhi praksimmetrik uslublarga tegishlidir. 3 guruhi - muhim kasbiy ko‘rsatkich faoliyat va shaxs belgilarini o‘lchash. Bu tadqiqiy masalani hal qilish uchun maxsus qobiliyat testlari, muvaffaqiyat va ta‘lim testlari qo‘llaniladi. Bu psixometrik usullar guruhidir. 4 guruhi - kasbiy shakllanishning xususiyatlarini, qonuniyat va mexanizmlarini tushuntirishdan iborat. Bu vazifani bajarish usullari eksperimental usullardir: ya‘ni labaratoriya, modellashtiruvchi va tabiiy eksperimentlardir. 5 guruh - usullari tadqiqiy ma‘lumotlarga miqdoriy ishlov berishga yo‘naltirilgan. Ularga matematik ishlov berish usullari kiradi: ya‘ni korrelyasion, faktorli tahlil va boshqalar.

Kasb psixologiyasining tadqiqot metodlari umumiy tarzda quyidagi jadvalda aks ettirilgan. Genetik usullar Genetik metodlar uzoq vaqt davomida shaxs kasbiy rivojlanishining o‘zgarishlarini tadqiq etish uchun mo‘ljallangan. Kasb psixologiyada longityud metod, psixobiografiya, individning kasbiy shaklanishini monografik tasvirlash usullaridan keng foydalaniladi. Longityud metod - bir xil yoshdagi sinaluvchilarning ularni rivojlanishi jarayonini ko‘p marotabali tizimli ravishda o‘rganishdan iborat. Longityud metodi insonlardagi turli xususiyat va sifatlarni o‘rganish maqsadida yillar davomida o‘tkaziladi. Longityud metodi psixologiyada XX asrning 20-yillarida shakllana boshladi va asosan psixik genezisi va bolalar, yoshlar psixik pragnozini ilmiy jihatdan asoslab berish uchun qo‘llanilgan. Keyingi yillarda (20-30 yil davomida o‘tkazilgan) davomli longityud tadqiqotlari jarayonida dearli qo‘llanilmagan. Longityud metod bir vaqtning o‘zida boshqa metodlarni qo‘llanilishini ham nazarda tutadi. Jumladan, kuzatish, savol-javoblar, test, psixografiya,

praksimmetriya va hokazo. Longityud metodi yordamida olingan natijalar shaxsning yoshiga, ish stajiga, tadqiqot o‘tkazilgandagi ijtimoiy iqtisodiy sharoitlariga hamda kasbiy faoliyat turiga bog‘liq bo‘ladi. Longityud metodini kasb psixologiyasida qo‘llash orqali shaxs kasbiy shakllanishining individual o‘zgarishlarini o‘rganish imkonini beradi shuningdek, kasbiy faoliyatda rivojlanish, obro‘-e‘tibor qozonishning yo‘l-yo‘riq va vositalarini aniqlash imkonini beradi. Longityudni qo‘llashdagi qiyinchiliklardan biri sinovda ishtirok etayotganlarni tanlash hamda ularning sonining ko‘pligi va kamligida bilinadi. Keyingi muammo o‘lchovlar o‘rtasidagi oraliq masofalar hisoblanadi. Bu metod orqali insonlarda tadqiqotlar gohida bir yil ayrim vaqtlarda esa undan ham uzoq vaqtlar oralig‘ida o‘tkazilgan. Shaxsning kasbiy shakllanishini o‘rganishda tadqiqot intervali sifatida kasbiy rivojlanish fazalari va bosqichlarini ajratib olish mumkin. Longityud metodidagi muammolardan biri uning davriyligini belgilash bo‘lib, bunda u 5-yildan 50 yilgacha davom etishi mumkin. Klassik longityud sifatida 1928 yildan bugungi kungacha davom etib kelayotgan Kaliforniya longityudini misol sifatida keltirish mumkin. Longityud metodning kamchiligi uning davriyligidadir. Shaxsiy va kasbiy o‘zgarishlar tasodifiy yoki drammatik voqealarga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Yillar davomida tekshiriluvchilar sonining qisqarishi, o‘rganilayotgan jarayonlarning mazmun mohiyati kengayib boradi. Longityud metodining qo‘llanilishini chegaralovchi omillardan biri shaxsni o‘rganish uchun ko‘p vaqtni ketishidir. Longityud metodining kamchiliklarini boshqa psixobiografik usullarni qo‘llash yordamida bartaraf etish mumkin.

Biografik usul - shaxs hayot yo‘lini o‘rganish va loyiqalashtirish usullari, hayotiy dasturlar, kasbiy rejalar, kasbiy shaxsiy shakllanishining ssenariylarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan. Biografik usullarga tarjimai hol, ma‘lumotlarni o‘rganish, kasbiy mehnatdan qoniqish va boshqalarni kiritish mumkin.[1]

Kavzometriya - Ye.I.Golovaxa va A.A.Kromiklar tomonidan taklif etilgan usul bo‘lib, u shaxsning psixologik vaqti va hayotiy sub’yektiv holatlarini tahlilini tadqiq etish metodi hisoblanadi. Bu intervyu quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi: biografik savol-javob, muhim voqealar ro‘yxatini tuzish, voqealarni

2. T. Melchert. Fondations of Professional psychology. 2011. 11-bet.

keltirib chiqargan sabablarini aniqlash va boshqalardir. Intervyu natijalari kavzometriya shaklida tasvirlanadi. Kavzometriya kasbiy muammo va inqirozlarni yechish uchun qo‘llaniladi. Psixobiografiya -shaxslarning hayot yo‘lini psixologik o‘rganish metodi hisoblanadi. Avval psixobiografiya siyosatchilarining obro‘-e‘tiborini, kishilarning individual kasbiy biografiyalarini o‘rganish maqsadida qo‘llanilgan. Kasb psixologiyada psixobiografiyani qo‘llash orqali shaxsning kasbiy maqsadlarining paydo bo‘lishi, kasbiy shakllanishdagi inqirozlar haqida qimmatli ma‘lumotlarni olish imkonini beradi.

Anamnez metod - bu insoning mehnat sub’yekti sifatida rivojlanish tarixi haqidagi ma‘lumotlarni yig‘adi. Bu usul Ye.A.Klimov tomonidan batafsil ko‘rib chiqilgan. Kasbiy anamnez mehnat motivlarini o‘rganish, tanqidiy voqealarni aniqlash, kasbiy faoliyatda obro‘-e‘tibor qozonishni oldindan tashxis qilishda qo‘llaniladi. Anamneztik tadqiqot o‘z ichiga suhbat tizimini olgani uchun, suhbat metodiga qo‘yiladigan talablar bu usulga ham tadbiq etiladi.

Kasbiy psixologiyaning asosiy metodlari: kuzatish va eksperiment metodidir. Xususiy metodlari: suhbat, so‘rov, faoliyat mahsuli va jarayonini tahlil qilish hamda test metodlari.

Psixologiyada tekshiriladigan psixik hayot hodisalari juda xilma-xil va murakkab hodisalardir. Bu hodisalar qanday metodlar bilan, ya’ni qaysi yo‘llar bilan, qanday usullar bilan tekshiriladi, degan savol tug‘iladi. Psixologiyada chinakkam ilmiy bilimga ega bo‘lmoq uchun psixikani tekshirish metodlarini bilish va shu metodlardan foydalana bilish kerak. Har bir pedagog kishilar psixikasini tekshirish uchun loaqal eng oddiy usullarni bilishi lozim. [1]

[1] T. Melchert. Fondations of Professional psychology. 2011. 12-bet.

### 1.3.2. Metodlarning klassifikatsiyasi

**Kuzatish metodi**

Psixologiyada kuzatish odamning psixik hayotini o‘rganish metodi sifatida keng suratda qo‘llaniladi.

Kuzatishning texnologiyasi takomillashdi, uning yangi shakllari, vositalari, usullari paydo bo‘ldi, xolisonalik (ob’yektivlik) darajasi ortdi, ishonchliligini ifodalovchi mezonlar, o‘lchovlar yaratildi. Buning natijasida kuzatish psixologiya fanining universal tadqiqot metodlari qatoriga kirib, uning barcha sohalarida qo‘llanilmoqda, ayniqsa tadbiqiyligi imkoniyatining yuksakligi, statistik hisoblashga beriluvchanligi xususiyati bilan boshqa metodlardan ajralib turadi. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda uning yoritilmay qolib ketgan jihatlari, tarkiblari, yordamchi jabhalari yuzasidan mulohaza yuritamiz.

Kuzatish metodining texnologiyasi quyidagilardan tashkil topadi:

- voqelik (atrof – muhit, inson shaxsi) ni kuzatish oqimini muayyan qismlarga, yo‘nalishlarga ajratish (nemischa – lotincha “kvantifikatsiyalash”, ya’ni eng zarur, birinchi darajali jihatlarini saralash);
- kuzatishning ko‘lami (xajmi), xususiyati va o‘ziga xosligini aniqlash, ya’ni uning nimalarga qaratilganligini belgilab olish;
- kuzatish jarayonida barcha holat, hodisa, alomat va tashqi qiyofa, ko‘rinishning o‘ziga xosligini qayd qilish (ularni yozma nutqda ifodalash, ya’ni fransuzcha – lotincha “fiksatsiyalash”);
- kuzatish davomida to‘plangan omillar, ma’lumotlar, natijalarni matematik statistik metodlar yordami bilan hisoblab chiqish va miqdoriy tahlil yakunlari bo‘yicha psixologik sifat talqinini amalga oshirish.

Psixologik kuzatish olib borishdan ko‘zlangan maqsad mana bulardan iborat:

- kuzatiluvchi vaziyat, holat va ob’yektni maqsadga muvofiq tanlash, uning oqilona ekanligiga ishonch hosil qilish;
- kuzatishning dasturini ishlab chiqish, uni amaliyotga tatbiq qilish, sxematik ifodalashni yaratish, yig‘ilgan natijalarni chizma asosida aks ettirish.

Kuzatishning ob’yekti va predmeti quyidagi tuzilishga ega:

- kuzatishning ob’yekti – inson, guruh, jamoa va shaxslararo munosabatlar, emotsional – hissiy kechinmalar, xayvonot olami, shaxsning faoliyati, ijodiyoti, muomalasi kabilarni oʻrganishdan iboratdir;

- kuzatishning predmeti – insonning xilma xil holati, jarayoni, harakatining kuchi, jadalligi, uzluksizligi, dinamikasi, oʻziga xosligi, uning hamkorlikdagi harakati, undagi onglilik, ongsizlik, ongosti holatlarining kechishi, faoliyat va muomala kabilarni eksteriorizatsiyalashdan tashkil topgandir;

- amaliy va gnostik holatlar; nutq aktlari: ma’nosi, mazmuni, mohiyati, yoʻnalishi, chastotasi, ritmikasi, tempi, amplitudasi, davomiyligi, intensivligi, ekspressivligi, uning leksikasi, grammatikasi, fonetikasi, lingvistik qurilishi va boshqalar;

- noverbal nutq ifodasi: mimika, pantomimika va vokal mimikasi (musiqa ma’nosini tana a’zolari orqpli ifodalash);

- vegetativ reaksiyalarning koʻrinishi: rangning qizarish, oqarishi, terlash, nafas olishning tezlashuvi, sekinlashuvi va qiyinlashuvi.

Kuzatishning bosqichma – bosqichliligi, tadrijiyligi (ierarxiyasi) tarkiblari quyidagilardan tashkil topadi:

- kuzatishning maqsadi, vazifalari, dasturi, qaydnomasi: bunda umumiy talablarga rioya qilish, kundalik, texnika vositalari (faktik holatlar), natijalarning tahlili, talqini va gʻoyalarni ilgari surish.

Kuzatishni ifodalash uslublari: tajribalarda toʻplangan ma’lumotlarni alomat, belgi va simvolika orqali aks ettirish (piktogramma, chizgi, jadval, anogramma) va turli shakl, xususiyatli bayonnomalar, qaydnomalar yuzaga keltirish.

Psixologiya fanida kuzatishning quyidagi turlaridan foydalaniladi: izchil, epizodli, dala sharoitli, laboratoriyaviy – sun’iy, tabiiy, xronologiyali, davriy, bir martali kabilar.

Insonning mehnat faoliyatini kuzatishda quyidagi vositalarni qoʻllash maqsadga muvofiq:

- F. Gilbertning “Ish kuni fotografiyasi” metodikasi (rasmlarda ifodalangan ishchining harakatini kuzatish, koʻzdan kechirish orqali ularni tahlil

qilish (sa'i – harakatlar bo'yicha tizim vujudga keltirish, ulardagi o'zgarishlarga binoan muayyan ketma – ketlikda joylashtirish);

- A.K. Gostevning xronokartasi (ikki yoki uch marta yarim soatdan smenada va smenadan keyin tekshiruv o'tkazish);

- Talabalarda dars boshida, o'rtasida va oxirida yoki boshqa vaziyatlarda: yordamchi yumush bilan shug'ullanish holati, dam olish, uyqu va shu kabilar.

Kuzatish metodining bir necha xil shakllari mavjud bo'lib, vazifalariga qarab ularning har biridan foydalanish mumkin: aralishib yashirin kuzatish, kuzatiluvchining psixologik portretini yaratish, aralashib oshkora kuzatish (o'smirlarda yuqori natijalar beradi), hulq – atvor portretini tahlil qilish va hokazo.

Kuzatilgan ob'yektni qayd qilishning turlari va vositalari mavjuddir: kundaliklar, foto, video, kinoapparatlarning mahsullari, voqelikning musavvir tomonidan faktik ifodalanishi, ta'kidlovchi, ta'birlovchi, umumlashtiruvchi xususiyatlar majmuasi.

Kuzatish natijalarini umumlashtirishda ma'lumotlar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilinadi, tajriba yakunlari bo'yicha g'oyalar, umumlashmalar, xossalar, qonuniyatlar mexanizmlar, holatlarining ilmiy psixologik talqini amalga oshiriladi.

Kuzatish yakunida to'plangan ma'lumotlar ilmiy hisobot sifatida muayyan qoidalarga asoslangan holda quyidagi tartibda joylashtiriladi: kirish, metodikalarning tasnifi, natijalarning bosqichma – bosqich tahlili, ularning muxokamasi, izlanishlarning xotimasi va xulosalari, amaliy xususiyatga ega bo'lgan tavsiyalar, ko'rsatmalar berilishi, foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhati va nihoyat ilovalar (har bir qism o'ziga xos yakunlangan, tugallangan ma'no anglatishi lozim). Kuzatish metodi yordami bilan xatto nizoli (konfliktli) vaziyatlarni kuzatish ham mumkin. Nizoli vaziyatlar turli – tuman bo'lishidan qat'i nazar kuzatish jarayonida ushbu holatlarga e'tibor berish zarur: nizoning mohiyatiga kirish, nizoning kuchayishi va uning tashqi va ichki omillari, nizoni pasaytirishga qaratilgan ta'siro'tkazuvchi vositalardan foydalanganlik, nizo

yechimining topilishi, nizoli vaziyat bartaraf qilingandan keyin sixologik holatning tasnifi.

Kuzatish jarayonida R. Beylzaning interaksiya metodikasini (bahs – munozara jarayonida o‘zaro ta’sir o‘tkazish imkoniyatini aniqlash uchun) qo‘llash ijobiy natijalar beradi:

- umumiy muammo mohiyatiga guruh a’zolarini yo‘naltirish;
- guruh a’zolari tomonidan muammoni echish yo‘llarini baholash;
- bahs (munozara, diskussiya) jarayonini nazorat qilish;
- umumiy fikrga kelish uchun guruhiy qaror qabul qilish;
- muammo yechimiga erishishdagi guruh a’zolarining birdamligi va hamjixatligi.

Kuzatish yakunlari bo‘yicha umumpsixologik xulosalar chiqarish, milliy, etnopsixologik, hududiy xususiyatlarni qat’iy ravishda sharxlash, yosh davrlari, jinsiy xususiyatlariga taalluqli mulohazalar bildirish – psixologik bilimlarning boyishiga olib keladi. Tajribalarda, kuzatishlarda to‘plangan materiallar qiymatini oshirish uchun vujudga kelgan barcha omillarni psixologik tahlil qilish, statistik metodlardan unumli foydalanish zarur, toki bu mezonlar ma’lumotlarning ilmiylik darajasini yuksaltirishga xizmat qilsin.

Kuzatish natijalarini miqdoriy tahlil qilishda statistik metodlarni quyidagi tartibda qo‘llash lozim:

- olingan natijalarni foizlar bo‘yicha hisoblash chiqish;
- to‘plangan ma’lumotlarning o‘rtacha arifmetik qiymatini topish;
- son qatoridagi o‘rtacha kvadrat og‘ishni hisoblash (sigma);
- son qatoridagi miqdorlar tarqoqligini aniqlash (dispersiya);
- omillar o‘rtasidagi muayyan munosabatlar mavjudligini (korrelyatsion) tahlil qilish;
- ma’lumotlar, metodikalar ishonchlilik darajasini aniqlash uchun Styudent mezonidan foydalanish lozim.

Kuzatish metodining o‘ziga xos xususiyati shuki, odamning tashqi ko‘rinishi (ish-harakatlari, qanday so‘zlashishi, kishilar bilan bo‘lgan munosabati, psixik holati va faoliyati) tabiiy hayot sharoitida o‘rganib boriladi.

Psixologik kuzatishning maqsadi bo‘lishi shart. Psixologik kuzatish muayyan reja yoki dastur asosida olib boriladi. Odatda psixologik kuzatuv uzoq vaqtni talab qiladi. Kuzatish qancha uzoq davom etsa, kuzatuvchi shuncha ko‘proq dalillar to‘plashi, uning psixologik xulosalari chuqur va ishonchliroq bo‘ladi.

Psixik hodisalar hayotda, ya’ni tabiiy sharoitda, odamning turli-tuman faoliyatida qanday ko‘rinishda voqe bo‘lsa, o‘sha ko‘rinishda kuzatish metodining yordami bilan o‘rganiladi.

**Tashqi kuzatish**

Psixik hayot hodisalarini o‘rganishda avvalo tashqi kuzatish metodi tadbiq etiladi.

Kuzatishning asosiy xususiyati shundaki, bu metod yordami bilan psixik hayotni sezgi organlarimiz bevosita seza oladigan, o‘zimiz bevosita idrok qila oladigan faktlari aniqlanadi va tasvirlanadi. Kishining psixik hayotida: mimika, imo-ishora, nutq, turli harakatlar va umuman kishining butun xatti-harakati va faoliyatini bevosita kuzatish bemalol mumkin.

Psixik jarayonlar bilan bevosita bog‘langan ba’zi bir fiziologik hodisalar turqning o‘zgarishi, nafas olish, qon aylanish va shu kabilarning o‘zgarishi ham tashqaridan kuzatilsa bo‘ladi. Kuzatish ma’lumotlarini so‘zlar bilan tasvir etish bilan kifoyalanib qolmay, balki ko‘rsatma vositalari, suratga olish, kinoga olish, tovushni yozib olish va shu kabi yo‘llar bilan ham qayd qilish mumkin. Masalan, bolalar nutqini o‘sib borishini kuzatish yo‘li bilan tekshira olamiz. Bunda bolaning so‘z boyligi qanday qilib sekin-asta orta borishini, nutqning fonetik tomonini, grammatik tuzilishini shu bola qanday bilib olayotganini qayd qilsa bo‘ladi. Odamning tevarak-atrofdagi voqelikni o‘zgartirish va yangidan ko‘rishida duch kelgan to‘sqinlikni va qiyinchilikni engish uchun uning qanday zo‘r iroda bilan sabot-matonat ko‘rsatishini ham kuzatish yo‘li bilan ko‘zdan kechirsak va tekshirsak bo‘ladi. Psixik hayot hodisalarini o‘rganayotganda psixologning o‘z-o‘zini kuzatish metodiga ham murojaat qilib turishiga ham to‘g‘ri keladi.

**O‘z-o‘zini kuzatish**

Nomidan ko‘rinib turibdiki, tadqiqotchi o‘z-o‘zini kuzatish bilan o‘zidagi psixik hodisalarni tekshiradi. Bu holda tadqiqotchi psixik jarayonlar va holatlarning ichki tomoni - odamning sub’yektiv kechinmalari qanday ro‘y bersa, ularni shu holida tasvir etish va aniqlab olishga intiladi. Psixolog o‘z tadqiqotlarida tekshirilgan kishilarning o‘z-o‘zini kuzatib olgan ma’lumotlariga ham asoslanadi.

Psixologiya vujudga kela boshlagan V asrdan tortib to bizning eramizgacha va XIX asrning deyarli oxirigacha o‘z-o‘zini kuzatish metodi yoki introspektiv metod ruhiy hayot hodisalarini bilishning birdan-bir metodi bo‘lib keldi desa bo‘ladi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘z-o‘zini kuzatish metodiga tanqidiy ko‘z bilan qaraladigan bo‘lib qoldi. Bu metodning bir qancha kamchiliklari borligi ma’lum bo‘ldi.

O‘z-o‘zini kuzatishda tadqiqotchi ham tekshiriladigan ob’yektga, u ham tekshiruvchi ob’yektga bo‘linib qolishi bu metodning eng muhim kamchiligi ekanligi ko‘rsatildi. Holbuki, normal kishilar shaxsining amalda bunday «bo‘linib ketishi» mumkin emas.

O‘z-o‘zini kuzatishda psixik hodisalarni (masalan, shodlik yoki qayg‘u hissini, tafakkur jarayonini) ham boshdan kechirish, ham shu hodisalarni o‘rganish juda qiyin ekanligi, ba’zan esa butunlay mumkin bo‘lmasligi ko‘rsatib o‘tildi.

O‘z-o‘zini kuzatish metodining cheklanganligini ham uning kamchiligi deb bilish kerak. Psixolog o‘z-o‘zini kuzatish yo‘li bilan faqat o‘z psixikasini o‘rganadi-da, axir. Shunday bo‘lgach, odam psixikasi haqidagi fan faqat psixologlarning o‘z psixologiyasiga aylanib ketadi. Bunday psixologiya madaniy taraqqiyot jihatidan yuksak darajada turgan, o‘z ixtisosiga ko‘ra o‘zini-o‘zi kuzata oladigan va o‘zini-o‘zi muhokama qila oladigan kishilar psixikasi haqidagina bilim beradi. Ammo madaniy taraqqiyotning pastroq bosqichida turgan kishilar psixikasi haqidagi ta’limot ham, bolalar psixikasi haqidagi ta’limot ham psixologiyaga qo‘shilishi kerak. Madaniy taraqqiyotning pastroq bosqichida turgan kishilar va bolalar esa fan nuqtai nazaridan o‘z-o‘zini kuzata

olmasligi tabiiy. Demak, o‘z-o‘zini kuzatish yo‘li bilan odam psixik taraqqiyotining turli bosqichlari haqida bilim olib bo‘lmaydi.

Nihoyat, o‘z-o‘zini kuzatish metodining yana bir katta kamchiligi shuki, bu yo‘l bilan olingan ma’lumotlar psixik hayot hodisalarini turli yo‘sinda bir tomonlama, sub’yektiv talqin qilishiga olib kelishi mumkin. Masalan, odamning xarakterini tekshirayotgan psixologning o‘zi egoist bo‘lsa, o‘z-o‘zini kuzatish natijalaridan, egoizm - har qanday xarakterning muhim belgisidir deb hulosa chiqarishi mumkin. Dunyoda sahiy, olijanob xarakterli kishilar borligini bunday psixolog faqat o‘z-o‘zini kuzatish yo‘li bilan bila olmaydi. Zohiran ko‘rinadigan narsa bu yerda xaqiqat bo‘lib tuyulishi, yakka hodisa umumiy hodisa bo‘lib tuyulishi mumkin. Holbuki, har qanday ilmiy bilim ob’yektiv va chin bilim bo‘lishi kerak.

I.P.Pavlov o‘z-o‘zini kuzatish yo‘li bilan aniqlab olishi mumkin bo‘lgan sub’yektiv psixik hodisalar haqida gapirar ekan, bunday deb yozgan edi: «Albatta, bu (sub’yektiv – P.I.) hikmatlar biz uchun birinchi darajali voqe’likdir, ular kundalik hayotimizni yo‘lga soladigan, inson jamiyatining taraqqiy etishiga sabab bo‘ladi. Ammo sub’yektiv holatlarga qarab yashash boshqa-yu, ularning mexanizmini chinakamiga ilmiy tahlil qilish boshqa».

O‘z-o‘zini kuzatish yo‘li bilan sub’yektiv ravishda ko‘ngildan kechadigan faktlarni aniqlash, tasvirlash mumkin, ammo ularni har tomonlama tushuntirish mumkin emas. Psixik hodisani tushuntirish – uning sababini, nerv-fiziologik asosini topish va odam yashaydigan ijtimoiy sharoit bilan bog‘langanligini aniqlash demakdir, bularning hammasi esa o‘z-o‘zini kuzatish doirasidan tashqaridadir. Fanning vazifasi faktlarni tasvir etishdangina iborat emas, balki asosan shu faktlarni tushuntirish, ularning qonuniyatlarini kashf etishdan iborat. Ob’yektiv metoddan foydalangandagina bunga erishish mumkin.

Tashqi va ichki kuzatishning birligi

Lekin odam psixikasini faqat o‘z-o‘zini kuzatish metodi bilan o‘rganib bo‘lmasa, faqat tashqi kuzatish yo‘li bilan, ya’ni o‘z-o‘zini kuzatish ma’lumotlari bilan bog‘lanmasligi ham mumkin emas. O‘z-o‘zini kuzatish metodining ahamiyatini tamomila inkor qilish – odamning yuksak darajadagi bilish qobiliyatiga, ijodiy qobiliyatiga, ongiga ishonmaslik demakdir. Boshqa

kishilarni kuzatishning xususiyati shundaki, tadqiqotchi shu kishilar xulq-atvorining tashqi ko‘rinishlarini idrok etar ekan, ko‘nglidan kechayotgan hislarini bir qadar biladi. Shu sababli psixolog tashqaridan kuzatish yo‘li bilan va o‘z-o‘zini kuzatish ma’lumotlariga tayanib, odamning turli xatti-harakatlarini tasvir etish bilangina kifoyalanib qolmay, balki umuman psixik hayot hodisalari haqida, ularning tashqi va ichki (sub’yektiv) ko‘rinishlari haqida xulosalar ham chiqarishi mumkin. Tadqiqotchi psixolog kishilar bilan muomala qilishda turmush tajribasiga va ilmiy tekshirish ishlarida yetarli amaliyotga ega bo‘lganida psixik hayotning tashqi ko‘rinishlarini kuzatar ekan, psixik jarayonlarning sub’yektiv suratda qanday kechishini ham ozmi-ko‘pmi ocha oladi. Masalan, tafakkurni kuzatish yo‘li bilan tekshirganimizda ko‘z, yuz muskullaridagi xilma-xil harakatlarni va turqining o‘zgarishini qayd qilibgina qolmay, balki, shu bilan birga, shu tafakkur jarayonlari qanday zabt va qanday tezlik bilan ro‘y berishini ham bir qadar bila olamiz. Modomiki tafakkur jarayonlari tashqi muhitda o‘z ifodasini topar ekan, tafakkurning mazmunini bila olamiz, tafakkur jarayoni qay shaklda ro‘y berayotganini, masala qanday kelib chiqayotgani, masalani echish jarayoni qanday borayotganini ham kuzata olamiz.

**Eksperimental metod va eksperimental psixologiya**

Tadqiqot maqsadi va vazifalarni belgilash: ijtimoiy psixologik tadqiqot buyurtmachi va bajaruvchilar o‘rtasidagi munosabat o‘zaro kelishib olinadi. Tadqiqot uchun sarf qilinadigan harajatlar: moliyaviy va mehnat resurslari hisoblab chiqiladi. Bunda maqsad va vazifa aniqlab olinadi. Maqsad - bu ongda oldindan payqalgan tadqiqot natijasidir. Muammoni o‘rganish darajasi, ijtimoiy buyurtma, tadqiqot manfaatlariga bog‘liq bo‘ladi. Empirik (eksperiment) tadqiqotning umumiy maqsadi: ob’yekt rivojlanish turlari, tuzilmasi, o‘zgaruvchanligi va tendensiyalaridir. Bu faktlar turli maqsadlarga qo‘llanishi mumkin: a) nazariy hulosalar olishda; b) o‘rganish metodining effektivligi, bilish imkoniyati orqali hulosalar olishda; v) amaliy maslahatlar olishda; g) kam o‘rganilgan soha bo‘yicha informatsiya to‘plaganda. Ijtimoiy psixologik tadqiqot maqsadi turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, muayyan ishlab chiqarish korxonasida mehnat unumdorligini ko‘tarish muammosini ijtimoiy psixologik

tadqiqot qilish zarur bo‘lsa, bunda asosiy maqsad mehnat unumdorligi pastligining asosiy sabablarini aniqlash, mavjud yashirin iqtisodiy imkoniyatlarni qidirib topish va mavjud shart-sharoiti o‘zgarishidan iborat bo‘ladi. Tadqiqotning asosiy vazifasi esa belgilab olingan maqsadning mazmunan, uslubiy va tashkiliy jihatdan yanada oydinlashtirib olishdan iborat bo‘ladi. Ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda maqsad-bu tadqiqotlarni nazariy yoki amaliy yo‘nalishlarda bo‘lishini ko‘rsatuvchi mo‘ljal vazifasini o‘taydi. Ayni vaqtda dastur o‘tkazilayotgan tadqiqot qanday muammoni hal etishi yoki qanday xarakterdagi natijalarga ega bo‘lishi xususida konkret savollarga javob berishi lozim.

Eksperimental psixologiyaning hozirgi davr holati.

Maqsadni amalga oshirish jaryonida bir yo‘la bir necha xil manzaralarga duch kelish mumkin. Zero, hamma narsa oldindan aniq belgilanishi qiyin. Hamma imkoniyat va yutug‘larni to‘la aniqlik bilan hisobga olishga urinish be’manilikdan va shallaqilikdan boshqa narsa emas. Shu bilan birga barcha tadqiqotchi kutilgan natijalardan tashqari yana qo‘shimcha natijalar paydo bo‘lishini nazardan qochirmaslik kerak. «Agar siz qandaydir yo‘llanmagan, kutilmagan hayolingizga keltirmagan narsani topishni o‘ylamaydigan bo‘lsangiz, siz bu narsani hech qachon topa olmaysiz» degan edi. Maqsadni amalga oshirishda ba’zan faqatgina asosiy vazifa emas, ikkinchi darajali vazifalarni ham bir yo‘la bajarishga to‘g‘ri keladi. Shunig uchun ham ishda asosiy qo‘shimcha u yoki masalalar bir yo‘la hal etiladi yoki hal etishning konkret yo‘llari belgilab beriladi.

Eksperimental psixologiya Maqsadni amalga oshirish jarayonida tadqiqotchi 3 an’anaviy vazifani bajarishni o‘z oldiga qo‘yadi:

1) o‘rganiluvchi mavzuni ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish;

2) ilmiy-nazariy mavzuning boshqa ilm va hayot bilan bog‘liqligi;

3) krizis holatlardan chiqishning aniq-ravshan yo‘llarini belgilab berish (dasturda metodologik tavsiyalarni yaratishni qayd etadi).

Ba’zan hal etilmagan noasosiy vazifalar alohida mustaqil tadqiq etilishi dasturda ko‘rsatilishi lozim. Demak, empirik ijtimoiy psixologik tadqiqot maqsadi nazariy, metodik, amaliy, informatsion bo‘lishi mumkin. Maqsad

tadqiqot jarayonini tashkil qiladi va e’tibor qaratishga yordam beradi. Maqsad ma’lum bir vazifalarni echish natijasida amalga oshadi va tadqiqot jarayonini tashkil qiladi, e’tibor qaratishga yordam beradi.

Maqsad ma’lum bir vazifalarni echish natijasida amalga oshadi. Agar maqsad tadqiqot nima uchun o‘tkaziladi degan savolga javob bersa, vazifa tadqiqotni qanday o‘tkazish, qo‘yilgan maqsadni qanday nazariy, metodik masalalarni echish zarur degan savolga javob beradi. Maqsad bir necha vazifalarga bo‘linadi: a) shu haqda tushuncha berish. b) nazariy tipologiyasini bayon etish va hokazo. Asosiy va asosiy bo‘lmagan vazifalarni ajratish kerak. Bu vaqtni to‘g‘ri taqsimlashga xizmat qiladi. Ilmiy -tadqiqot bosqichlari

Tadqiqot ob’yekti va predmetini aniqlash: Ko‘pincha mehnat jamoalari ob’yekt bo‘lib xizmat qiladi. Ob’yekt qanchalik aniq bo‘lsa, metod shunchalik to‘g‘ri tanlangan bo‘ladi. Emperik tadqiqot tipik ob’yektlari odamlar fikri, jamoadagi munosabatlar, siyosiy jarayonlar. Bu ob’yektga bir necha predmet to‘g‘ri kelishi mumkin. Predmet «ong tuzilmasi» va hokazo. Umuman ob’yekt (lat. predmet) - falsafada kishi ongidan tashqarida, unga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud bo‘lgan har qanday hodisa. Keng ma’noda - kishi bilishga intilgan predmet, hodisa (masalan, o‘rganish ob’yekti) va o‘z faoliyatini shunga yo‘naltirish (ko‘rish ob’yekti). Ob’yekt odatda mustaqil tushuncha sifatida tadqiqochi ixtiyoridan chetda turadi va maxsus o‘rganiladi. Predmet esa tadqiqotchi tomonidan muayyan shaklga solinadi va mahsus tadqiqot qo‘lami sifatida o‘rganiladi. Ob’yekt predmetidan ma’no doirasi jihatidan ancha keng, predmet ob’yektning hosilidir. Birgina ob’yektning o‘zida bir necha alohida tadqiqot predmetlarini ajratib olib o‘rganishi mumkin. Ijtimoiy voqealikni ob’yekt sifatida qayd etishi va unda predmetni ajratib chiqarish, hamisha yuzaga kelgan ijtimoiy ziddiyatli muammo va bu muammoni hal etish holatlari bilan chambarchas bog‘liq. Ba’zan tadqiqotchi oldin maxsus masala, ya’ni predmetni aniqlab oladi va shundan so‘ng shu masala atrofidagi muhit, masalaga qon - qarindosh tomonlarini, ya’ni ob’yektni belgilaydi. Bu yondashuvlar dialektik materializimning induktiv bilish usullariga muvofiq va har ikki yondashuv ham to‘g‘ri deb e’tirof etishi mumkin. Ob’yekt - bu haqiqiy mavjud bo‘lgan tuzilma

bo‘lib, predmet - abstrakt qo‘yilgan tadqiqot muammosidir. Muammoni nazariy tahlil qilish va asosiy tushunchalarni ishlab chiqish.[1]

a) defetsiyalashni (ta’riflash), ya’ni ilm-fanda ishlab chiqilgan nazariy va metodologik nuqtai nazaridan muammoning asosiy tushunchalarini aniqlash, nazariy asoslar bo‘lmaganda esa tadqiqotchi o‘z konsepsiyasini mustaqil yaratish kerak. b) tadqiqot tushunchalariga bog‘liq, ya’ni muammoning nazariy tahlili bevosita tushuncha bilan dialektik uzviylikda rivojlanadi. Bunda nazariy va empirik ko‘rsatkichlar o‘zaro aloqada bo‘ladi. Tadqiqot ob’yektining tahminiy, sistemali tahlili: O‘rganilayotgan ob’yekt sistemali tahlil qilinadi. Bu ob’yektni, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy bog‘liqlikda o‘rganishdir. Sistemali tahlil natijasida faqat ob’yektdagi mavjudlik mexanizimiga emas, balki institutsional, oilaviy-maishiy, shaxsiy tuzilmalar ham aniqlanadi. Ob’yektning sistemali tahlili asosida gipoteza shakllanadi. Tushunchalarni nazariy va empirik interpritatsiyasi: Dasturni tuzishdagi keyingi qadam, bu interpritatsiyadir. Intrepritatsiya - sharhlash, izohlash, tushuntirib berish, talqin qilish natijasida olingan tushunchalar elementidir. Dasturni tuzishda tushunchalar nazariy va empirik interpritatsiya talqin qilinadi: a) nazariy interpritatsiya (izohlash) - bu tushunchalar mazmuni muammoning nazariy aspekti nuqtai-nazardan tushuntirishi («e’tiqod» va «qadriyat» tipi belgilanadi). b) empirik (eksperiment) interpritatsiya tushunchalarni empirik faktlar bilan taqqoslash, o‘rganilayotgan soha bilan mosligini aniqlash, operatsional tushuncha to‘plash. Eksperimental psixologiya va praktikum fanida metod tushunchasi va uning mohiyati

Kuzatish metodi. Umumiy psixologiyada bu metodning ob’yektiv (tashqi) va sub’yektiv (o‘zini o‘zi) kuzatish turlari mavjud. Inson psixikasidagi o‘zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq: kuzatishning maqsadi va vazifasini qat’iy belgilash; kuzatish ob’yektini tanlash, ya’ni kimni va nimani kuzatish; kuzatiluvchining yoshi va jinsini aniqlash; tadqiqot o‘tkazish va rejasini tuzish; kuzatish qancha muddat davom etishini

[1] Davis S. F. Handbook of Research Methods in Experimental Psychology. – Blackwell Publishing Ltd, 2003.46-49-bet.

qat’iylashtirish; kuzatishni shaxsni qaysi faoliyatlarida (o‘yin, mehnat, o‘qish, sport) amalga oshirishini belgilash; kuzatish o‘tkazishning shaklini (yakka, guruhiy, jamoaviy) qayd etish; kuzatilganlarni qayd qilib borish vositalarini tanlash, saralash (kundalik, suhbat daftari, kuzatish varaqasi, video magnetofon, fotoapparat, video kamera va boshqalar). Suhbat uyushtirishdan avval tadqiqotchi beriladigan taxminiy savollarni tayyorlab qo‘yadi. Bunda sinaluvchilarning yoshi, jinsi, qiziqish doirasi, imkoniyati hisobga olinadi, shuningdek, ularni toliqtirib qo‘ymaslikning diqqat markazda turishi ijobiy natijalar berishi mumkin. Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi. Bu metod psixologiyada inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va hayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida keng qo‘llaniladi.Odam chizgan rasmlar, yasagan o‘yinchoqlar, modellar, to‘qigan narsalar, tikkan qo‘g‘irchoqlar, to‘qib, so‘zlab berilgan hikoyalar, texnik konstruksiyalar sxemasini tushunish kabilarni tahlil qilish orqali ularning mantiqiy xotirasi, tafakkuri, badiiy va abadiy qobiliyati, ijodiy hayoli, texnik ijodi yuzasidan materialllar to‘plash mumkin.Mazkur metodda ijod mahsulini yaratgan jismoniy shaxs bevosita ishtirok etmaydi.Tekshiriluvchi bilan tekshiruvchi(ob’yekt bilan sub’yekt) o‘rtasida muloqot o‘rnatish uchun shaxsning psixikasi to‘g‘risida sirtdan muayyan hukm va xulosa chiqaradi.Tekshiruvchi (o‘qituvchi, murabbiy, psixolog) ekspert) ekspert tariqasida shaxslar ijodiyotiga baho beradi, bunda mehnat mahsulining shakli, mazmuni, sifati, orginalligi, hajmi, xususiyati bilan bir keskin tafovut qilishi nazarda tutiladi.Ijodiy faoliyat mahsullarini tahlil qilish orqali har xil yoshdagi va kasbdagi odamlarning psixik xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plash mumkin. Lekin, ulardagi ruhiy o‘zgarishlar, kamol topish va bularning kechishini ifodalovchi materiallar yig‘ish uchun bu metod yetarli emas.

Test metodi.Test tushunchasi inglizcha sinash, tekshirish, demakdir. Shaxsning aqliy o‘sishini, qobiliyatini tekshirishda qo‘llaniladigan qisqa standart masala, topshiriq, misol, jumboqlar test deb ataladi.Test ayniqsa insonning qanday kasbni egallashi mumkinligini kasbga yaroqligi (moyilligi) yoki yaroqsizligini, iste’dodlilar yoki aqli zaiflarni aniqlashda, odamlarni muayyan o‘lchovlarga binoan saralashda keng qo‘llaniladi.Ushbu metodning qiymati tajribaning ilmiylik darajasiga, tekshiriluvchining mahoratiga va qiziqishiga,

yig‘ilgan psixologik ma’lumotlarning xolisligi va ularni ilmiy tahlil qila bilishga bog‘liqdir.[1]

**Test metodi.**

Ilmiy – psixologik manbalarda qayd qilinishiga ko‘ra, intellekt – lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, u odatda aql – idrok, anglash, tushunish, fahmlash degan ma’noni anglatadi. Bizningcha, intelekt shaxsning muayyan darajada mustahkam, barqaror aqliy qobiliyatlari majmuasi tuzilishidan iboratdir. O‘z davrida AQShlik psixolog F.Frimen intellekt oltita tarkibdan iborat bo‘ladi, degan g‘oyani ilgari suradi va ularni quyidagicha tartibda joylashuvini ko‘rsatib o‘tadi:

- sonli operatsiyalariga nisbatan qobiliyatlik;
- lug‘at boyligi ko‘lami;
- geometrik shakllar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqli tomonlarini ajratishga nisbatan uquvchanlik;
- shaxs nutqining tezligi yoki sur’ati;
- shaxsning fikrlashga, mulohaza yuritishga nisbatan qobiliyatliligi;
- xotiraning maxsuldorligi yoki noyob hislatliligi.

Yana bir salohiyatli psixolog L.Tyorstoun umumiy intellektning turli jabhalarini tadqiq qilib, ularni umumlashtirib “birlamchi aqliy potensiyalar” deb ataydi. Muallif etti xildagi potensiyalar o‘zaro farqlanishini ta’kidlab o‘tadi:

- insonning hisoblash qobiliyati ko‘rsatkichi;
- og‘zaki so‘zni ixcham ifodalanishining ko‘rsatkichi, nutq yordami bilan tez o‘qish hadisini egallanganligi;
- og‘zaki ma’lumotlarni to‘la idrok qilish yoki idrok qilingan so‘zlarni tushunish, anglash;
- fazoviy operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyati yoki shaxsning chamalash qobiliyati (uquvchanligi);
- xotiraning mustahkamligi yoki uning barqarorligi;
- fikrlashga, munozara yuritishga qobiliyatlilik;
- shaxs idrok qilishining tezligi yoki uning sur’ati.

[1] Davis S. F. Handbook of Research Methods in Experimental Psychology. – Blackwell Publishing Ltd, 2003. 49-bet.

Fransuz psixologi T.Ribo idrok ko‘lamining kengayishi, bilimlarning ko‘payishi, diqqatni bir vaqtning o‘zida bir necha ob’yektga qarata olish – intellekti taraqqiyotiga olib keladi va u uch bosqichdan iborat bo‘lishi mumkin ekanligini ta’kidlaydi:

- shaxs imitatsiyasi yoki uning tashqi taqlidi;
- inson identifikatsiyasi (o‘quvchining bilimlarini o‘ziga singdirish jarayoni, uning shaxsiy fazilatlari va xususiyatlarini o‘zlashtirib borish va boshqalar);
- refleksiya (inson o‘zini – o‘zi anglash hamda bo‘lg‘usi faoliyatni amalga oshirish, muayyan rejalar tuzish, ularni maqsadga muvofiq hayot va faoliyatga tatbiq etish imkoniyatlari tug‘ilishi kabilar).

Sh. Byuller intellektual taraqqiyot quyidagi bosqichlardan iborat bo‘lishi shart deb hisoblaydi:

- sinkretizm (tushunchalarni bir – biridan ajrata olmaslik holati);
- agglyutinizm (maktab yoshiga yaqin bolalarda fantaziyaning kuchayishi, vaqtni noadekvat, noto‘g‘ri idrok qilish, g‘ar bir obrazlarni muayyan bo‘laklariga binoan bir umumiyatga yaxlitlash, birlashtirish);
- hayolot (ijodiy hayol) yordamida inson o‘zi tug‘ilib o‘sgan Vataniga biror-bir jihatdan yordam berishi;
- realiya (realiz, ya’ni atrof muhitdagi narsa va hodisalarga nisbatan yaqqol tuzilmani yaratish, turmush tajribalariga mumkin qadar yaqinlashib kelishdan iborat fikrlashning ko‘rinishi singari).

Jahon psixologlari to‘plagan ilmiy materiallarni umumlashtirib intellekt muammosini tadqiq qilishda diqqat – e’tiborni quyidagi omillarga qaratish lozim deb hisoblaymiz:

- intellektning yosh davr xususiyatlariga bog‘liqligi;
- jins xususiyatiga va farzand dunyoga kelish tartibiga aloqadorligi;
- millat, etnos, elat va xalqqa taalluqliligi;
- oilaning ijtimoiy – iqtisodiy statusi bilan uyg‘unlashuvi;
- ota – onalarning ma’lumotliligi, ijtimoiy kelib chiqishi;
- biologik shartlangan shaxs fazilatlari, sifatlari, hislatlari qanchalik rol o‘ynashi va hokazolar.

Uzluksiz ravishda o‘tkazilgan izlanishlar natijasida psixologiya fanida bir qator ilmiy nazariyalar (konsepsiyalar) vujudga keldiki, ularning har qaysisi intellekt muammosini o‘ziga xos tarzda tushuntirishga va talqin qilishga olib keladi:

- muammo yechimi uslubi va strategiyasi;
- intellektual operatsiyalar tizimi yoki tuzilmasi;
- vaziyatlarga nisbatan alohida yondashishning samaradorligi yoki mahsuldorligi (ma’naviy, miqdoriy va mantiqiy jabhalar), uning funksional tomonlari, yo‘nalishlari;
- alohida, yakkahol yondashish, bilish jarayonining shaxsdan faollikni taqozo etish xususiyati, holati;
- kognitv uslub shakllanishi imkoniyati va boshqalar.

Shaxsiy kuzatishlarimizga qaraganda, intellekt taraqqiyoti mana bunday omillar bilan uzviy bog‘liq ekanligi ko‘zga yaqqol tashlanadi:

- bilish, o‘qish motivlarining anglashilgan hamda yuksak regulyativ darajalarining mavjudligi, barqarorligi, puxtaligi;
- yangilikni qidirish, muammo yechimini topish, muayyan vositalar tanlash hamda tadqiqiy ijodiy faollik namoyon bo‘lishi;
- mustaqil echishlarga erishish ehtimollik darajasining yuksakligi;
- ilgarilab ketib echig imkonining mavjudligi va “aytib berish”, luqma tashlash jarayonida erkinlik, qo‘rqinch hissining yo‘qligi;
- yuksak nafosat va ma’naviy did timsoli hamda namunasini yaratishga nisbatan qobiliyatlilik, ularni baholash va o‘lchash funksiyasining tug‘ilishi, uning boshqaruvchanligi.

Insoniyatning tarxiy rivojlanish jarayonida intellekt deb atalmish fenomenni o‘rganish borasida ko‘pgina ishlar qilingan. SHulardan biri intellektni o‘rganish testlaridir.

Ko‘pgina mumtoz testlar shaxsning intellekt darajasini aniqlashda muhim rol o‘ynab kelmoqda. Bular qatoriga Stenford – Bine shkalasini keltirib o‘tish mumkin. Stenford – Bine shkalasi qiziqarli topshiriq va masalalardan tuzilgan bo‘lib, ular tekshiriluvchilarning yoshiga qarab taqsimlangandir. Biz quyida ana

shu intellekt test so‘rovnomalardan namunalar keltiramiz va ularni sharhlab berishga xarakat qilamiz.

1) 4 yoshli bolalar uchun (har bir vazifani bajarish vaqti 2 oy):

- har xil uzunlikda kesilgan shakllar va narsalarni taqqoslash;
- turli tipdagi shakllar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash;
- 4 ta tanga pulni sanab chiqish;
- kvadrat chiz va uni izohlab, tushuntir;
- berilgan savollarga to‘g‘ri, aniq, va tushunarli qilib javob qaytarish talab etiladi, tashqaridan yordam berish man qilinadi;
- 4 ta raqamni to‘g‘ri va teskari sanash, takrorlash talab qilinadi.

2) 9 yoshli bolalar uchun (bajarish muddati 2 oy davomida):

- bugungi kun, hafta, oy, yil nomlarini aytib chiqish, tushuntirish;
- 5 ta jism yoki predmetni guruhlarga ajratish (belgisiga qarab);
- xariddan keyin qaytim berilishini izohlash;
- 4 ta raqamni teskarisiga takrorlash;
- berilgan 3 ta so‘zdan gap tuzish (bola, daryo, koptok);
- 3 ta har xil so‘zga qofiya tanlash;
- ma’lumki, har qanday psixologik testning diagnostik ahamiyati uning bir qancha umumiy talablarini qoniqtirishga bog‘liqdir, jumladan, standartlashtirish, ishonchlilik, validlik. Ana shu talablarga suyangan holda Stenford – Bine shkalasini ham tahlil qilib chiqamiz.

Ushbu shkala tadqiqotchilar uchun har tomonlama qulay, yaxshi va ixcham qilibtayyorlangan. U barcha uchun tushunarli bo‘lgan ko‘rsatmaga va miqdoriy jihatdan natijalarni ishlab chiqish, hisoblash ishlanmasiga ega. Testlarning har birida uni o‘tkazish yo‘llar, vaqtning taqsimlanishi, tekshiriluvchilarga beriladigan og‘zaki ko‘rsatma va tegishli ko‘rsatmalar, savollarni izohlash usullari batafsil aytib o‘tilgan. Stenford – Bine test kattalar hamda uncha yoshi yuqori bo‘lmagan sinaluvchilar uchun ishonchlidir. Lekin bolalik davridan tortib to o‘spirinlik yoshigacha o‘zgarib boradi. Masalan, 2,5yoshidan 5 yoshgacha ishonchlilik koeffitsientlari 0,33 (140-149 ball bo‘lganligi uchun)dan 0,91 (60-69 ball yiqqanlar uchun)gacha; 6 yoshdan 13 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘quvchilarda ishonchlilik koeffitsientlari 0,91

(140-149 ball to‘plaganligi uchun)dan 0,98 (60-69 ball olganligi uchun)gacha o‘zgarib turadi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, Stenford – Bine testiga kiritilgan har bir savol, topshiriq testning oldindan belgilangan maqsadni ochishga yo‘naltirilgan bo‘lib, pirovard natijada mazkur savollar oldindan ko‘zlangan maqsadni darhol aniqlab bera oladi.

Inson intellektual tarqqiyotidagi tezkorlik kutilmaganlik hodisalari nafaqat moddiy negiz xossalari bilan izohlanadi, balki idrok maydonining paydo bo‘lishi, “sun’iy” tizimning vujudga kelishi fazoviy aloqalar, biologik va psixologik imkoniyatlardan to‘laroq foydalanish evaziga moddiy asosning ikkilanuvchi “tabiiy” va “sun’iy” manbalar bosh omil ekanligini ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiq. Endi sinaluvchilarning intellektual taraqqiyotiga ta’sir qiluvchi ijobiy va salbiy omillar turkumi to‘g‘risida ma’lumot berib o‘tamiz:

- bilim maskanlarida zamonaviy texnika vositalarining mavjudligi;
- turli xildagi to‘garak, seksiya, bilim uylari faoliyat ko‘rsatishi va unda zarur sharoitlarning yaratilganligi;
- oila muhitida yaratilgan moddiy va ma’naviy shart – sharoitlar hamda shaxslarni ruhan rag‘batlantirish yo‘lga qo‘yilganligi;
- shaxslar bilan o‘zaro muloqot o‘rnatishning uzluksiz va oilada shaxslararo iliq psixologikmuhitning hukm surishi;
- turli televizion baxslar, zukkolik, ijodkorlik, tezkorlik bo‘yicha musobaqalar uyushtirilishi va ularda qatnashish imkoniyatiyaratilganligi;
- ortiqcha informatsiya va xabarlar ko‘lamini kamaytirish (masalan, avtomat o‘yinlar, videolar);
- zararli odatlar va qiliqlar bilan shug‘ullanmaslik muammosining qo‘yilishi, uning yechimi (ichish, chekish va boshqalar);
- bolalar va o‘quvchilarni ro‘zg‘or ishlari bilan band qilib qo‘yishlik va oila muhitida mehnatning shaxslararo oqilona taqsimlanganligi;
- hozirgi davrda ayrim kasblarning nufuzi kamayib ketayotganligi tufayli o‘quvchilar va talabalar o‘rtasida o‘quv motivlariga kuchli ta’sir o‘tkazayotganligi;
- kollej va oliy o‘quv yurtlarida ta’lim – tarbiya tizimini yangicha, yangi pedagogik texnologiya asosida tubdan qurish zaruriyati mavjudligi,

- o‘g‘il va qizlarda vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg‘ulari barqarorligini ta’minlash va ularni shakllantirishning eng qulay yo‘llarini izlab topish, loqaydlikning oldini olish,

- o‘quvchilar va talabalar o‘rtasida borliqqa, jamiyatga, shaxslararo munosabatlarga, isrofgarchilikka, fidoiylikka nisbatan qarashlarni keskin o‘zgartirish masalalari vujudga kelmoqda.

Bizningcha, yuqorida ba’zi bir qusurli holatlarning oldini olish uchun intellektual testlar mohiyatiga milliy va umubashariy fazilatlar to‘g‘risidagi g‘oyalarni singdirish yuqori natija beradi.

**Biografiya (tarjimai hol) metodi.**

Inson psixikasini – ruhiyatini tadqiq qilish uchun uning hayoti, faoliyati, ijodiyoti to‘g‘risidagi og‘zaki va yozma ma’lumotlar odamlarning tarjimai holi, kundaliklari, xatlari, esdaliklari muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga o‘zgalar tomonidan to‘plangan tarjimai holga aloqador materiallar: esdaliklar, xatlar, rasmlar, tavsiflar, magnitofon ovozlari, foto lavhalar, hujjatli filmlar, videokamera tasviri, taqrizlar, tanbehlar ham o‘rganilayotgan shaxsni to‘laroq tasavvur etishga xizmat qiladi. Hatto shifokorning kasallik tarixi hujjati ham bolaning tug‘ilganidan, ham to boshlang‘ich ma’lumot olgunicha davr oralig‘ida salomatlik darajasi qanday bo‘lganligi to‘g‘risidagi omillar bilan tanishish imkonini beradigan material hisoblanadi. Tarjimai hol metodi inson psixikasini suhbat va tajriba metodlari vositasida o‘rganib bo‘lmaydigan jihatlarini ochishda yordam bo‘radi. Mazkur metod orqali, masalan, ijodiy hayol bilan bog‘liq jarayonlar: sheriyat, musiqa, nafosat, tasviriy san’at, texnik ijodiyotning nozik turlari va shaxsning ma’naviyat, qadriyat, qobiliyat, iqtidor, iste’dod salohiyat kabi fazilatlari kuzatiladi. Inson ongining namoyon bo‘lishi, rivojlanishi, o‘ziga xos individual va ijtimoiy xususiyatlari atoqli shaxslar bildirgan mulohazalarida, asarlarida o‘z ifodasini topadi. Allomalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar zamondoshlari, izdoshlari, safdoshlarining ta’rifu – tavsiflari orqali avloddan – avlodga o‘tadi. Xuddi shu ijtimoiy uzluksiz natijasida ajdodlar bilan avlodlar o‘rtasida vorislik hodisasi ijtimoiy psixologik voqelik vujudga keladi va ijtimoiy tarixiy taraqqiyotning uyg‘unligini ta’minlaydi.

**Anketa metodi**

Umumiy psixologiyada keng qo‘llaniladigan metodlardan biri bo‘lib, unda odamlarning psixologik xususiyatlari narsa va hodisalarga nisbatan munosabatlari o‘rganiladi. Anketa odatda 3 xil bo‘lib, birinchi xilida anglashilgan motivlarni aniqlashga mo‘ljallangan savollardan iborat bo‘ladiki, ikkinchi xilida esa faqat bittagina javob tanlash sharti bilan har bir savolga bir nechtadan tayyor javoblar ham beriladi. Uchinchi xil anketada sinaluvchiga havola qilinganda kamida to‘rt besh to‘g‘ri javoblari ballar yordamida baholanadi. Anketa metodidan odamlarning layoqatlarini muayyan sohaga qiziqishlari, qobiliyatlari, o‘ziga, tengdoshlariga katta va kichiklariga munosabatlarini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Anketa orqali shaxslarning xarakter hislatlari, xulq atvorlarini tekshirish, sirtdan turib baholash mumkin.

Tarqatilgan anketalar yig‘ib olinib, elektron hisoblash mashinalari dasturiga muvofiqlashtirib atroflicha amaliy xulosalar chiqariladi. Anketa metodiinson psixikasining ayrim tomonlarini o‘rganish uchun boy material to‘plash imkonini beradi, lekin unda olinadigan ma’lumotlar doimo xolisona xususiyatga ega bo‘lavermaydi. Bunga yo‘l qo‘ymaaslik uchun anketa ichidagi nazorat vazifasini bajaruvchi to‘g‘ri va qarshi savollarni puxta ishlab chiqarish kerak.

Quyida anketa varaqasidan namuna keltirib o‘tamiz.

1. Kursingizda eng yuqori obro‘ga ega bo‘lgan talaba qaysi?
2. Sizningcha, kursdoshlaringiz ichidan kim mehr, his – tuyg‘usini uyg‘ota oladi?
3. O‘qish bilan bog‘liq muammolar yuzasidan siz kimga murojaat qilishni xohlar edingiz?
4. Shaxsiy kechinmalaringiz haqida siz kim bilan fikr almashishni xohlar edingiz?
5. O‘rtoqlaringiz ichidan kimni uyingizga mehmonga astoydil taklif qila olasiz?
6. Kursdoshlaringiz ichida kim bilan mashg‘ulotlarga birgalikda tayyotayyorlanishni yoqtirasiz?
7. Qaysi kursdoshingiz bilan suhbatlashishni aslo yoqtirmaysiz?

**Sotsiometriya metodi.**

Bu tadqiqot metodiga AQShlik Djon Moreno asos solgan bo‘lib, kichik (birlamchi) guruh a’zolari o‘rtasida emotsional, hissiy munosabatlarni bevosita o‘rganish va darajasini o‘lchashda qo‘llaniladi. Mazkur metod yordamida muayyan guruhdagi  har bir a’zoning o‘zaro munosabatlarini aniqlash uchun uning faoliyatida kim bilan ishtirok etishi so‘raladi. Olingan ma’lumotlar matritsa, grafik, sxema, jadval, diagramma shaklida ifodalanadi. Ulardagi miqdor ko‘rsatkichlari guruhdagi odamlarning shaxslararo munosabatlari mazmuni yuzasidan ma’lum bir xulosa qiladi. Biroq ma’lumotlar guruhiy munosabatlarning tashqi ko‘rinishini aks ettiradi xolos. Uni takomillashtirish maqsadida hozirgi vaqtda psixolog olimlar Ya.L.Kolominskiy va I.P.Volkov tomonidan sotsiometriyaning kichik guruhlar psixologiyasiga moslab o‘zgartirilgan variantlari, ko‘rinishlari ishlab chiqilganki, ular orqali shaxslarning bir – birini tanlashi motivlarini aniqlash mumkin. Ayniqsa, sotsiometriyaning Ya.L.Kolominskiy ishlab chiqqan o‘zgartirilgan varianti bolalar jamoasidagi shaxslararo munosabatlar to‘g‘risida to‘la axborot berishga yordam beradi. Odatda o‘quvchilardn quyidagicha savollarga javob berish talab qilinadi: “Sen sayohatga kim bilan borishni xohlaysan?”, “mashg‘ulotlarga kim bilan birga tayyorlanishni istaysan?”, “Kim bilan qo‘shni bo‘lib yashashni yashashni yoqtirasan?” sinaluvchi har uchta javobdan bittasini “eng ma’qul” deb tanlashi lozim. Unga “avval, hammadan ko‘ra ko‘proq kim bilan birga bo‘lishini xohlasang, o‘shaning familiyasini yoz”, “aytilgan shartlarga binoan uchinchi shaxsning familiyasini yoz” deb uqtirish maqsadga muvofiq. Guruhiy tabaqalanishni ko‘rsatish uchun sotsiogramma to‘rtta “maydon”ga ajratiladi. Qizlar doiracha bilan, o‘g‘il bolalar esa uchburchaklar bilan belgilanadi. Doiracha va uchburchaklar soni familiyalar soniga to‘g‘ri keladi. Guruh a’zolarining o‘zaro munosabatlari doiracha va uchburchaklar strelkalar bilan bog‘langanida o‘z ifodasini topadi. Eng ko‘p munosabatga ega bo‘lgan sinaluvchi doiraning markazidan o‘rin oladi. U guruh a’zolarining eng yoqimtoyi hisoblanadi. Shaxslar bilan aloqa o‘rnatmagan sinaluvchi doiraning eng chetidan joy oldai. Oraliqdagi “maydon”larga o‘rtacha va undan kamroq tanlangan tekshiriluvchilar joylashtiriladi. Shu yo‘l bilan birinchidan shaxslararo

munosabatlarning darajasi va ko‘lami aniqlanadi, ikkinchidan qizlar bilan o‘g‘il bolalar o‘rtasidagi ko‘rsatkichlar taqqoslanadi. Natijalarga qarab guruhdagi munosabatlar va ularning o‘ziga xosligi, psixologik birini taqozo etuvchanligi haqida xulosalar chiqariladi. Shu bilan birga nazariy va metodologik ahamiyatga molik g‘oyalar, qonuniyatlar ilgarisuriladi, amaliy ko‘rsatmalar beriladi, aniq tavsiyalar bildiriladi, mavzuning tadqiqot istiqboli to‘g‘risida muloxazalar yuritiladi.

**Faoliyat mahsulotini tahlil qilish metodi.**

Bu metod psixologiyada inson xotirsi tafakkuri, qobiliyati va hayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida keng qo‘llaniladi. Odam chizgan rasmlar, yasagan o‘yinchoqlar, modellar, to‘qigan narsalar, tikkan qo‘g‘irchoqlar, to‘qib, so‘zlab berilgan hikoyalar, texnik konstruksiyalar sxemasini tushunish kabilarni tahlil qilish orqaliularning mantiqiy xotirasi, tafakkuri, badiiy va adabiy qobiliyati, ijodiy hayoli, texnik ijodi yuzasidanmateriallar to‘plash mumkin. Mazkur metodda ijod mahsulining yaratgan jismoniy shaxs bevosita ishtirok etmaydi. Teshiriluvchi bilan tekshiruvchi o‘rtasida muloqot o‘rnatish uchun shaxsning psixikasi to‘g‘risida sirtdan muayyan hukm va xulosa chiqariladi. Tekshiruvchi (o‘qituvchi, murabbiy, psixolog) ekspert tariqasida shaxslar ijodiyotiga baho beradi, bunda mehnat mahsulining shakli, mazmuni, sifati, originalligi, hajmi, xususiyati bilankeskin tafovut qilishi nazarda tutiladi. Ijodiy faoliyat mahsullarini tahlil qilish orqali har xil yoshdagi va kasbdagi odamlarning psixik xususiyatlarito‘g‘risida ma’lumotlar to‘plash mumkin.

Faoliyat mahsulotlarini o‘rganish inson ruhiyatini o‘rganish metodlari ichida o‘ziga xos o‘rinni tashkil etadi. SHuni ta’kidlab o‘tish joizki, inson ruhiyatini o‘rganish yuqorida bayon qilingan metodlardan tashqari yana ayrim qo‘shimcha metodlardan ham foydalaniladi. E’tirof etish joizki, qo‘llanilayotgan har bir metodning o‘ziga xos ijobiy, afzal tomonlari bilan birgalikda qiyin va salbiy tomonlari ham mavjud. Shu bois konkret shaxs ruhiyatini o‘rganish vaqtida yakka metodlar natijalari bilankifoyalanib qolish mumkin emas. Ruhiyatni tekshirishda atroflilik, dinamiklik, ob’yektivlik, tekshiruvchining yosh xususiyatlarini inobatga olish va boshqa tamoillarga suyanish darkor.

## 1.4. KASBIY PSIXOLOGIYANING KLASSIFIKATSIYASI VA ULARNI TANLASH

### 1.4.1. Kasb tushunchasi – kasbiy psixologiyaning konseptual asosidir

Kasb tushunchasi - kasbshunoslikning asosiy konseptual bosh tushunchasi - bu kasb tushunchasidar. Kasbshunoslik adabiyotlarida kasb tushunchasining tavsifi juda ko‘p. Avvalambor bu maxsus tayyorgarlikni talab etuvchi, inson doim tajribadan o‘tkazuvchi va unga yashash uchun manba bo‘lib xizmat qiluvchi mashg‘ulotdir. Kasb bir xil faoliyat bilan shug‘ullanuvchi kishilarni birlashtiradi. Bu faoliyat ichida ma’lum aloqalar va axloq normalari o‘rnatiladi. Kasb jamiyatning mexnatga layoqatli a’zolarini ijtimoiy tashkillashtirishning aloxida shakli bo‘lib, bunda a’zolar faoliyatining umumiy turi va kasbiy ongi bilan birlashgan.

B.Shouning fikri buyicha “Kasb - ♦ mutaxassislarning chetdagi odamlarga qarshi fitnasidir”.



“Kasb - jamiyat uchun zarur va qadrli soha bo‘lib bunda asosiy jismoniy va ruhiy kuch talab etiladi” bu kuchlar unga sarflangan mehnat o‘rniga yashashi va rivojlanishi uchun muhim vositalar omili sifatida namoyon bo‘ladi. Bu ta’rifni yanada batafsil yoritib, E.A.Klimov kasbiy faoliyatning sifatli tarixiy rivojlanuvchi tizim va shaxsning o‘zini namoyon etish sohasi deb ta’riflaydi. Yana bir ta’rifda esa “Jamiyat nuqtai nazaricha kasb bu kasbiy masalalar, kasbiy faoliyat shakllari va turlari, shaxsiy kasbiy xususiyatlari tizimi bulib, ular ish uchun muhim bo‘lgan natija mas’uliyatlarni yetkazishni ta’minlab berishi kerak bo‘ladi”. Nisbatan to‘g‘ri ta’rifni esa V.G.Makushin keltiradi, “Kasb - bu shunday faoliyatki, uning yordamida shaxs jamiyat hayotida ishtirok etadi va uning yashashi uchun moddiy vositalar asosiy manbasi bo‘lib xizmat qiladi”. Mavjud ta’riflarni umumlashtirib, xulosa qilib. Kasb mexnat faoliyatining paydo bo‘lgan shakllari bo‘lib, ularni bajarish uchun

inson albatta ma’lum bilimlar va ko‘nikmalarga maxsus qobiliyatlar va rivojlangan muhim kasbiy sifatlarga ega bo‘lishlari kerak.

“Kasb” atamasi kasbiy faoliyatning faqatgina yuqori statusli turlariga nisbatan ishlatiladi. Boshqa faoliyat turlari mutaxassisliklarga yoki ish, mashg‘ulot turlariga tegishli bo‘ladi. Milliy kasbshunoslikda “kasb” va “mutaxassislik” tushunchalari farqlanadi.

Kasb mutaxassislikka ko‘ra kengroq tushuncha, kasbiy saloxiyatidan tashqari, uning muhim sifatlari - ijtimoiy - kasbiy saloxiyat, kasbiy avtonomiya, o‘zini nazorat qilish, guruxli mezonlar va qobiliyatlar hisoblanadi. Kasb odatda yaqin mutaxassisliklar guruxini birlashtiradi. Masalan, kasb shifokor, mutaxassisliklar - terapevt, pediatr, okulist, urolog, va hokazo kasb - muxandis, mutaxassisliklari - konstruktor, texnolog, metallurg va hokazolar. Mutaxassislik — kasbiy ta’lim, tayyorgarlik yo‘li bilan ish jarayonidagi maxsus bilimlar, ko‘nikma va malakalar kompleksi bo‘lib, ular u yoki bu kasb doirasida ma’lum faoliyat turini bajarish uchun zaruriy hisoblanadi. Shunday qilib, mutaxassislik - kasb ichidagi kasbiy faoliyat turi bo‘lib, u shaxsiy yutuqlarga yoki o‘ziga xos vaziyatlar orqali umumiy natijalarga erishishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Insoniyat rivojlanishida kasbiy faoliyat uning turlari eramizgacha Misrda qadimiy Gretsiya (Yunoniston), Rim imperiyasi va boshqa rivojlangan davlatlarda ko‘zda tutilgan. Bugungi kunda mexnatning paydo bo‘lishi sanoat inqilobi davrida boshlandi. Keyingi, ilmiy-texnik rivojlanish kasblar ro‘yxatini yangilashga va kengayishiga olib keladi AKD rasmiy ma’lumotlarida 1965 yilda alifbo tartibida 21741 ta kasbga va 400 mutaxassisliklarning ta’riflari keltirilgan. Xalqaro kasblarni tizimlash standarti bo‘yicha 1988 yilda 9333 kasb ro‘yxatga olingan. Yagona ta’rif malaka ma’lumotnomasi 7000 ga yakin kasb va mutaxassisliklarni birlashtiradi. Bu maxsus hujjatlar ularning tizimli paytidagi kasbiy vaziyati aks ettiriladi. Nashrdan chiqgan ma’lumotnomalar esa korrektirovkaga muhtoj bo‘ladi, chunki kasblar dunyosi doim o‘zgarib turadi. Yangi kasblar paydo bo‘ladi, kasblarning xarakteri mexnat mazmuni yangilanib turadi, past malakali mexnat kasblari yo‘qolib boradi. Kasb nomi ko‘pincha o‘tgan yillarda shakllangan mexnat xarakterini aks etadi.

O‘qituvchi sifatida siz shularni qila olishga asos qo‘yib, butun umr davomida o‘qishga tayyor bo‘lishingiz kerak. Siz hech qachon biron-bir talabani hamisha o‘qitmaysiz albatta, lekin siz ular bilan yetarli darajada tez-tez uzoq ishlashingiz, xal qiluvchi xabarni yetkazishingiz kerak: hayotda o‘rganiladigan narsalar ko‘p - undanda yuqori; aslida biron-bir o‘qituvchi yoki maktab butun hayoti davomida ta’minlay oladi. Har qanday siz o‘rgatayotgan bilim o‘lchovga ega bo‘lmaydi va samimiylik, junbushga keltiruvchi va hayron qoldiruvchi manba bo‘la oladi. Bu umuman hayot haqidagi va xususan talabalaringiz haqida gap ketganda bu optimistik sabab bo‘la oladi. O‘rganish kerakligicha tushunarli bo‘ladi agarda u hech qachon tugamasa, hattoki agar qisqa muddatga yo‘naltirilgan bo‘lsa ham tezda tegishli bo‘ladi.

Nimani o‘rgatishingizdan qat’iy nazar siz yangi g‘oya va qobiliyatlarni samarali bog‘lovchi murakkab faoliyatlarni loyihalash va instrumentlashdan qoniqish hosil qilishga tayyor bo‘lishingiz kerak. Musobaqalashishga bo‘lgan chaqiriqlar ko‘plab o‘qituvchilarni jalb qiladi, negaki ular bu yerda to‘g‘ri mushohada yurita olishlari va san’atkorliklarini eng sodda va odatiy yo‘llar bilan ko‘rsata oladilar. Sizning talabangiz rejalashtirish va boshqarish qobiliyatingizga bog‘liq bo‘ladi, ular shuni qanday qila olishlarini ba’zida o‘zlari tasavvur qilsalar ham. O‘qituvchilar g‘oyalarni qanday qilib tushunarli tushuntirishni, yangi materiallarni tog‘ri ketma-ketlikda va muvofiq tempda berishni, avval bilganlari va yangi o‘rganganlari orasidagi aloqalarni yo‘naltirishni bilishda sizga muhtojdirlar. Shunga qaramay, bu qobiliyatlar mutaxassisdan butun umrini talab etadi, ular hatto boshlang‘ich o‘qituvchilar tomonidan muvafaqqiyatli mashq qilinishi mumkin va ular o‘qitishning darsdan tashqari vaqtida davom ettirilib bir maromda rivojlantiriladi. Boshlanishidan keyin to‘g‘ri bo‘lishiga qaramay, o‘quv kursining aloqasi va loyihasidagi mahorat ishning asosiy “daromad”laridan biridir.

Maxsus maqsadli o‘qitishni o‘rgatishdan so‘ng, siz buni avvalgi o‘ylaganlarizga qaraganda farqli tushunganingizni bir necha marotaba tasavvur qildingiz. Ish har doim bir xil bo‘lib qolavermaydi u davomli ravishda rivojlanib boradi. O‘qitishda qanchalik uzoq qolsangiz, yangiliklar bilan bog‘liq kasbingiz bo‘ladi.

1979 yildan buyon Ekaterinburg shaxrida kasb bilim yurtlari uchun mutaxassislar tayyorlanadi - ya’ni muxandis - pedagoglar ammo rasmiy ma’lumotnomalarda bunday kasb yoki mutaxassislik mavjud emas. Bunday masalalarni ko‘p keltirish mumkin. Kasbiy faoliyatning samaradorligi shartlaridan biri mutaxassisning kasbiy tayyorligi hisoblanadi. Kasbiy tayyorgarlik deganda uning ruhiyati va jismoniy sog‘ligi hamda holati, undagi mavjud sifatlarning bajarayotgan faoliyati talablariga mosligi darajasi tushuniladi.

Mashxur rus psixologi K.K.Platonov mutaxassisning kasbiy tayyorligi bu o‘zining muayyan kasbiy faoliyatini bajarishga qodir va tayyorgarlik ko‘rgan deb hisoblovchi va uni bajarishga intiluvchi shaxsning sub’yektiv holatidir - deb hisoblangan.



Mutaxassisning kasbiy tayyorligi murakkab ko‘p darajali va ko‘rinishli tizimli psixik shaklga ega bo‘lib, birinchi navbatda odamning shaxsiy ko‘rinishi asosiy o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, kasbiy tayyorgarlik mutaxassisda kerakli darajada jismoniy sog‘likni kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan jismoniy sifatlar shakllanganligi va rivojlanganligini talab qiladi.Chunki har qanday kasbiy faoliyat insonning qandaydir kuch jismoniy energiya sarflashini ko‘zda tutadi.

Mutaxassisning kasbiy tayyorgarligida ikkita o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tomonlarni ko‘rsatish maqsadga muvofiq. Bu o‘zaro bog‘liqlik tomonlar psixologlar M.I.Dyachenko va A.M.Stolyarenkolar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib ular quyidagilardan iborat:

1. Shaxsning kasbiy faoliyatga salohiyatli tayyorligi quyidagilardan iborat bo‘ladi: kasbiy faoliyatning psixik asoslari, bilim, ko‘nikma, malakalar kasb uchun muhim hisoblanadi, shaxsning sifatlari va uning munosabati, mazmun va

qadriyatlari, afzalliklari hamda umuman shaxsning zarur bo‘lgan kasbiy imkoniyatlari darajasi;

2. Shaxsning kasbiy faoliyatga bevosita ayni vaqtdagi tayyorligi. Mutaxassisning kasbiy tayyorligining ushbu tomoni tezkorligi, o‘zgaruvchanligi, xar qanday holat va sharoitda aniq masalalarni echish, mutaxassisning ruhiy va jismoniy holati, jamoadagi ma’naviy psixologik muxitga bog‘liqligi bilan ifodalanadi.

Mutaxassisning bevosita psixologik tayyorgarligi dastlabki tayyorgarlikni faollashtirish natijasi sifatida ishtirok etadi. Mutaxassisning kasbiy faoliyatga dastlabki saloxiyatli tayyorligi bevosita ayni vaqtdagi tayyorligining asosi hisoblanadi. Shuning uchun mutaxassisni oliy o‘quv yurtida tayyorlash unda kasbiy faoliyat uchun yetarli bo‘lgan sifatlarni shakllantirish lozim. Ba’zi vaqtlarda xatto kasbiy masalalarni xal etishga yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan mutaxassis ham zarur paytda kerakli faoliyat uchun tayyor bo‘lmay qolishi mumkin, ya’ni kasbiy xulqi va faoliyatini ruhiy boshqarish yetarli darajada bo‘lmaydi.



Bunday holatda faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirib bo‘lmaydi, samarasiz bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki, mutaxassisning kasbiy tayyorligi unda kasbiy bilimdonlikni kerakli darajasini kasbiy maxoratini hamda uzini boshqarish, o‘zini kerakli faoliyatga yo‘naltirishga o‘zining kasbiy (ma’naviy shaxsiy va jismoniy) imkoniyatlarini xal etishga yo‘naltira bilish qobiliyati mavjudligini nazarda tutadi. Mutaxassisning kasbiy tayyorligining asosiy va eng murakkab tomoni (psixologik tomoni) - mutaxassis ruhiyatining kasbiy tayyorgarligi hisoblanadi. Bu mutaxassis psixikasi ruhiy kuchlarining kasbiy masalalarini xal etishga uzining vazifalarini bajarishga tayyorligi va yo‘nalganligi darajasidir.

**A.M.Stolyarenko**

Mutaxassis ruhiyatining kasbiy tayyorligining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: - yo‘naltiruvchi intellektual bilish. Bu tarkibiy qismi mutaxassis shaxsining bilish soxasini o‘z ichiga oladi: kasbiy idrokini, fikrlashi, tasavvur, xotirasi, diqqatini va ular birgalikda mutaxassis shaxsining kasbga intellektual tayyorligini tashkil etadi.

Mutaxassisning motivatsion tayyorligining asoslari o‘z kasbi mutaxassisligini tushuna olishi; o‘zida pozitiv munosabatni tarkib toptira olishi, o‘zini baholay olishi, bilish faoliyatiga qiziqishlari hisoblanadi. Oliy o‘quv yurti sharoitlarida mutaxassisni tayyorlashda kasbiy faoliyatga motivatsion tayyorligi talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga va ta’lim olish jarayonida o‘zini rivojlantirishga mavjud motivatsion doiraning yo‘naltirilganligida namoyon bo‘ladi. - ijrochilik. Bu tarkibiy qismi kasbiy maxoratni (bilim, malaka, ko‘nikmalar) kasbiy xulq odatlari kabi muhim kasbiy sifatlarning to‘plami, kasbiy qobiliyatlarni rivojlanganlik darajasi va mutaxassisning irodaviy tayyorligi uning xulqi va faoliyati davomida o‘zini boshqarishga qodirligi, operatsional funksiyali tayyorgarlikni o‘z ichiga oladi.

### 1.4.2. Mutaxassisning kasbiy tayyorligi

Mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi yadrosini shaxsning kasbiy yo‘nalganligi va kasbiy mahorati tashkil etadi. Hozirgi zamon mutaxassisining kasbiy tayyorgarligida uning kommunikativ tayyorligi alohida ahamiyatga ega. Bunday tayyorgarlik mutaxassisda odamlar bilan kasbiy muhit bilan konstruktiv va samarali o‘zaro yaqin aloqalar, xodimlar va rahbarlar bilan amaliy va shaxsiy o‘zaro munosabatlarga tayyorligi va bunday o‘zaro munosabatlarni o‘rnata olishga va rivojlantirishga qodirligini ko‘zda tutadi. Shaxsning kommunikativ tayyorligi faqatgina odamning nutqiy madaniyati yetarlicha darajada rivojlanganligida so‘z va tildan to‘g‘ri foydalanishni bilganidagina mavjud bo‘ladi. Shaxsning nutq madaniyati uning fikrlash madaniyati rivojlaganligining ko‘rsatkichi hisoblanadi. Shuning uchun mutaxassisning shaxsiy va kasbiy kamol topishini muhim shartlaridan biri uning kasbiy nutqiy madaniyatini rivojlantirish hisoblanadi. Mutaxassisning kommunikativ tayyorligi unda empatiyani, xushmuomalalikni, do‘stonalilikni, o‘rtoqlik hissini, jamoatchilikni

rivojlantirishni, kasbdoshlari bilan o‘zaro aloqalar munosabatlariga tayyorligi va qodirligini, o‘zaro munosabatlarda keraksiz keskinliklarni yuzaga keltirmaslikni, yuzaga kelgan qiyinchilikni to‘g‘ri xal eta bilishni, ishda, xodimlar, kasbdoshlari bilan munosabatlarda murosaga kelishni ko‘zda tutadi. Mutaxassis faoliyati muvaffakqiyatliligini yana bir muhim sharti uning kasbiy va shaxsiy jihatdan tayyorligi va qodirligi hisoblanadi. Bu yo‘nalishda uning faolligi darajasi ishtirok etadi. Kasbiy masalalarni xal etishda ham xodimlar kasbdoshlari bilan o‘zaro munosabatlarda xam o‘zini to‘la va xar tomonlama ko‘rsatishga intilishdan iborat bo‘ladi. Mutaxassisning bunday o‘zini tashkil etish ko‘p jixatdan uning muvaffaqiyatga erishish istagiga va intilishiga bog‘lik bo‘ladi. Zamonaviy psixologiyada muvaffaqiyat muammosiga bag‘ishlangan ko‘plab ishlar mavjud bulib, ularda mazkur muammo amaliy va nazariy jixatdan o‘rganilgan. Muvaffaqiyat deganda shaxsning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishi tushuniladi. Odamning bajarayotgan ishini muvaffaqiyatliligini xis etishi ikkita xal etuvchi vaziyatlarga bog‘lik bo‘ladi: xaqiqiy natija va ushbu vaziyatlarda uning qiziqishlari darajasidagi natija. Ular odam o‘z faoliyatida qo‘ygan maqsadlarini ifoda etish shakli sifatida ishtirok etadi. Shunga muvofiq muvaffaqiyatga erishishning vositalari, shart- sharoitlari ishlab chiqilgan bo‘lib u quyidagi formula asosida beriladi.

Kasbiy faoliyat jarayonida muvaffaqiyatga erishishda mutaxassisning shaxsiy xususiyatlari muhim rol o‘ynadi. Hayotiy muvaffakiyatga erishish uchun zarur bulgan ko‘plab shaxsiy sifatlar xaqida V.Kroford uzining “Suxbat va munozara” kitobida Konfutsiyning g‘oyasiga tayanib, do‘stonalik, donolik va botirlikni kursatadi. Muallif odamga ishida muvaffaqiyatga erishish uchun nima yetishmaslgini aniqlash uchun qiziqarli metodikani ishlab chiqdi. V.Kroford xozirgi zamon mutaxassisi muvaffaqiyatga erishish uchun kursatilgan 3 ta tushunchadan tashqari kasbiy maxorat xam kerakligini aytib o‘tdi. Xozirgi zamonaviy tadqiqotlar muvaffakiyatga erishish uchun kuyidagi asosiy shart-sharoitlarni kursatadi: - mutaxassis o‘ziga ishongan bo‘lishi kerak; - maqsadga erishishga kuchli intilish kerak; - nimaga erishish istagini aniq bilishi kerak; - ishga pozitiv yo‘nalganlik; - omad aloxida muvaffaqiyatlarni ko‘ra bilish va shu paytda quvonch va baxtni xis etish zarur. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra

odamning hayoti va kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liklik borligini ko‘rsatadi. Yuqorida ko‘rsatilgan kamchiliklarini kasblar konstruktori mutaxassisligini kiritish bilan bartaraf etish mumkin. Ular yangi kasblarni loyixalashtirish, mexnat mazmunini va maqsadini aniqlash, ma’lumot, malaka darajasi mexnat sharoiti masalalarini yangilanishlari mumkin edi.

**O‘qituvchilarning o‘sayotgan professionalizmi.**

Dastlabki uchta yo‘nalishga munosabatingiz qanday bo‘lishidan qat’i nazar, ular to‘rttinchi yo‘nalishning, ya’ni o‘qituvchilarning o‘sayotgan professionalizmi amalga oshishiga hissa qo‘shishgani muhimdir. Ko‘plab aniqliklar, sohalar (tibbiyot yoki huquqni o‘qitish misolida) kasblarning egalari agar o‘zlarining ishlari sifati uchun shaxsiy javobgar bo‘lsalar, uning sifati uchun boshqa har bir mas’uliyatni o‘z zimmalariga olsalar hamda uni amaliyot qilish uchun maxsus ko‘nikmani talab qilasalar tan olinadi.

Shu o‘rinda o‘qitish avvalgiga qaraganda, ancha professionallikka yo‘g‘irildi. Talabalar tomonidan erishilgan yutuqlarning oshib borayotgan ishonchi shuni bildiradiki, o‘qituvchilar nafaqat o‘zlarining talabalarini o‘quv yutuqlaridan,balki ularning o‘qituvchi sifatidagi o‘z rivojlanishlariga bo‘lgan ma’suliyat ham ortdi. Hozirda yangi o‘qituvchi bo‘lish avvalgiga qaraganda, ko‘proq maxsus bilimlarni talab qilmoqda, shuning uchun ko‘plab hudud va jamiyatlarda sertifikatlash va litsenziyalashga bo‘lgan talablar oshib bormoqda. O‘sayotgan talablarning asosiy qismi talabalarning o‘sgan xilma-xilliklariga va auditoriada qo‘llanilayotgan texnologiyalrning o‘sishiga yo‘naltirilgandir.

### 1.4.3. Kasblarni psixologik tizimlash

Yuksak professionalizm ta’lim beruvchilar tomonidan ularning ta’lim olishlari va o‘z amaliyotlarini yaxshilashlari bo‘yicha tashabbuslariga yo‘naltirilgan. Shunday qilish **tadqiqot harakatlari** (ba’zida **o‘qituvchi tadqiqoti** deb ataladi) o‘qituvchi va ularning talabalari yoki ularning o‘qitishlarida o‘qib-o‘rganish shakli bo‘lib qoladi. [1]

Fanning tadqiqotlari ustidagi harakatlar alohida o‘quv muhitida o‘qitish va o‘rganishni yaxshilovchi konkret yechimlarga olib keldi. Fanlar ko‘plab





shakllarni olaoladi, lekin bu yerda bir qancha qisqa misollar mavjud:Bolalar o‘qishni alohida o‘zlari qanchalik aniq o‘rgana oladilar? Tadqiqot hatti-xarkatlarini o‘rganishda, o‘qituvchi davomli vaqt mobaynida bir bolaning o‘qish progresslashishini ehtiyotkorlik bilan kuzatishi mumkin. Mana shu kuzatishlardan so‘ng, u masala yechimiga faqat birgina bolaning o‘qishini yaxshilashni emas, balki xonadagi boshqa bolalarning va xatto hamkasblarining xonalaridagi bolalarning o‘qishini yaxshilashda yo‘llarini topa oladi. Agar oliy maktab ijtimoiy fanlar o‘qituvchisi kamroq o‘rniga ko‘proq tugallanmagan savollarni qo‘llasa, ahamiyatga ega bo‘ladim? Fan tadqiqoti ustidagi xatti-harakatlar sifatida o‘qituvchi o‘zining darslarini videokasetaga yozadi va tizimli ravishda talabalarning yopiq savollarga bo‘lgan solishtirilgan (va yanada aniqroq) javoblarini o‘zining tugallanmagan savollariga nisbatan solishtiradi. Tahlil tugallanmagan savollarni aslida qachon va qancha miqdorda qo‘llash yaxshiligini taklif qila oladi.

1.1-jadval. Tadqiqot loyihasi hatti-harakatlariga misollar

| **Tadqiqot loyihasi hatti-harakatlaridagi qadamlar** | **1-namuna: talaba internetdan foydalanadi** | **2-namuna: O‘qituvchining ingliz tilini ikkinchi til sifatida o‘rgangan talabalarga yordami** |
|---|---|---|
| Tadqiqot masadi (tadqiqotni qilayotgan o‘qituvchi tomonidan izhor qilinadi) | “Vazifalarni bajarishda, mening talabalarim yuqori sifatli, tegishli ma’lumotlarni topishda nechog‘lik muvafaqqiyatli bo‘ladilar? | “Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o‘rgangan talabalarga Ingliz tilida so‘zlovchi talabalarga kabi to‘liq va foydali javob beryapmanmi, nega unday yoki nega unday emas?” |
| O‘rganishni kim amalga oshirmoqda? | Sinxona o‘qituvchisi (oddiy darajadagi) va maktabdagi kompyuter | Sinf o‘qituvchisi (katta yuqori daraja) – o‘zi o‘qiydi; Ehtimol, boshqa |

| | | |
|---|---|---|
| | mutaxassisligi o‘qituvchisi | o‘qituvchilar bilan yoki Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o‘rgangan mutaxassis bilan hamkorlik qiladi. |
| Axborot qanday to‘planadi va qayd etiladi? | Talabalarning topshiriqlarini baholash; Talabalar internetda qidirayotgan paytda ularni kuzatish. Talabalarning qidiruv tajribalari haqida intervyu olish. | Sinfdagi munozaralar davomida o‘zining o‘zaro ta’sirini videoga olish; Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o‘rganganlar va boshqa talabalar o‘rtasidagi tajribalarni o‘qituvchi tomonidan kundalik jurnalga qayd etilishi; O‘qituvchining ingliz tilini ikkinchi til sifatida o‘rgangan talabalaridan intervyular olish |
| Axborot qanday tahlil qilinadi? | To‘siqlarni qidirish va bir necha talabalar tomonidan izhor etilgan “maslahatlarni topish” | Turdagi farqlarni va Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o‘rgangan talabalar va boshqa talabalar o‘rtasidagi o‘zaro ko‘plab bog‘liqliklarni qidirish; Farqlardagi shakllarni qidirish; |

Tadqiqot hatti-harakatlarining boshqa ikki yanada to‘liq namunalari 1.1-jadvalda izohlab berilgan. Shunga qaramay, bu namunalar ko‘plab fan tdqiqoti hatti-harakatlariga o‘xshaydi, “yaxshi o‘qitishning asosiy amaliyoti”ga o‘xshaydi, ular odatdagiga qaraganda o‘ylab rejalashtirilgan, yanada tizimli ravishda ishlab chiqilgan va ro‘yhatdan o‘tkazilgan hamda ishchi personal o‘qituvchilar bilan yanada to‘liq va ochiq ulashilgan. Shu tariqa, ular o‘qituvchilarga huddi professionallar kabi maxsus afzalliklar keltirishganligiga qaramay, ular maxsus muddat va intilishni ham talab qilishgan. Hozirda, tadqiqot hatti-harakatlarini bir vaqtda o‘qituvchilarning o‘sib borayotgan professionalizmi bilan tasavvur qilish muhim jihatdir, lekin ayni paytda

o‘qituvchilar o‘rgatayotganlarida ular uchun yuqoriroq standartlarni yaratish ham huddi shunday muhimlikni kasb etadi.

Kasb tanlashga tayyorlikning psixologik jixatlari va kasbiy diagnostika muammolariga doir tadqiqot ishi K.B.Qodirov tomonidan olib borilgan. Bunda asosiy qoida kasbiy yo‘nalganlik umuman moyilliklarda, qiziqish va qadriyatlarda ifodalanib, kasbiy rivojlanishning mazmuniy tomoni sanaladi. Kasb tanlash chog‘ida psixologik tayyorgarlik yoki yetuklik kasbiy o‘zini o‘zi anglashning muhim omili bo‘lib, kasbni to‘g‘ri tanlashga yordamlashadi va kuch, barkarorlik, keskinlikda namoyon bo‘ladi, bu onglilik, mustaqillik bilan ta’minlanadi va kasbiy tanlovning formal-dinamik jixatiga kiradi. Shunday kilib, kasbiy tanlovning barcha mazmuniy va formal-dinamik jixatlari, umuman shaxsning kasbiy rivojlanishi ma’lum strategiyasi shakllanishiga ko‘maklashadi. Shu bilan birga K.B.Qodirov tadqiqotining emperik qismi ma’lumotlariga asoslanib xulosa qiladiki, intellektual qobiliyatlar, shaxs motivlari, yo‘nalganlik, moyillik tendensiya va boshqalar bilan uzviy bog‘liklikda bo‘lib, yoshlarning kasbiy tiklanish asosi sanaladi. Shaxs atrof-muxitga, qadriyatlarga, faoliyat turlari mazmuniga tanlab, shu jumladan, o‘z aqliy imkoniyatlariga muvofiq munosabatda bo‘ladi.

# II BOB. KASBGA O‘QITISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

## 2.1. O‘qitishning rivojlanish tarixi

Kasbiy psixologiya 1800-yillarda yaratilganidan buyon mustaqil fan sohasida ajoyib muvaffaqiyatlarga erishdi. 2-jahon urushidan buyon psixologiyaning talablarida olimlarning klinik amaliyotlari juda ham yaxshi muvaffaqiyatlarga erishdi. 1961-yillarda Amerika Psixologlari Assotsiyasining so‘nggi prezidenti E.L.Kelly Professional psixologlar uchun 1-ruxsatnomani Amerika Qo‘shma shtatlarida qabul qilingan.[1]

Hozirgi davrda kasbiy psixologiyaning muhim vazifalaridan biri - o‘quv maskanidagi ta’lim jarayonini yanada takomillashtirishning psixologik asoslarini ishlab chiqishdan iborat bo‘lib, bu xil yangi ta’lim dasturiga o‘tish munosabati bilan bog‘liqdir. Kasbiy ta’lim psixologiyasi shu bilan birga o‘quvchilar shaxsining tarkib topish jarayonini turli tarbiyaviy tadbirlarning o‘quvchilarga ko‘rsatadigan ta’sirini o‘rganadi hamda o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tarbiyalashning psixologik asoslarini tadqiq etadi. Spuningdek, kasbga o‘qitishning asosida o‘qituvchi shaxsini, uning pedagogik faoliyat xususiyatlari ham o‘rganiladi. Bunda o‘qituvchining ta’lim–tarbiya ishlaridagi yutuqlarni ta’minlovchi sifatlariga urgu berish bilan birga, uning bilim, ko‘nikma, malaka va qobiliyatlarining tarkib topishi hamda taraqqiyotining psixologik jarayonlari aniqlanadi. Kasbiy psixologiya fanini o‘rganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, u boshqa fanlar singari taraqqiyotning umumiy tamoyillariga: oliy nerv faoliyati va psixofiziologiya qonunlariga, bu sohada tuplangan ilmiy ma’lumotlarga tayanib, inson psixikasining kechishi, rivojlanishi, o‘zgarishi yuzasidan bahs yuritadi.

Ta’lim va tarbiya bilan bog‘liq dastlabki pedagogik-psixolgik mazmundagi asarlar XIX asrning boshlarida vujudga kelgan bo‘lishiga qaramay, uning mustaqil fan sifatida rivojlanishi va karor topish yuli ancha murakkab kechgandir. O‘tmishda ajdodlarimiz insonning psixologik qonuniyatlarini, muayyan ilmiy yo‘nalishda o‘rganmagan bo‘lsalar-da, biroq allomalarning qo‘lyozmalarida mazkur holatlarning namoyon bo‘lishi, inson kamoloti

---

[1] T. Melchert. Fondations of Professional psychology. 2011. 1-bet.

borasidagi qimmatli fikrlari hozirgacha yuksak ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Abu Nasr Forobiy pedagogik faoliyat masalalarini va ular bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik, fiziologik muammolarni ijobiy xal etishda insonni har tomonlama yaxlit va o‘zaro o‘zviy bog‘liq bo‘lgan qismlardan iborat, deb aytadi. Forobiy mavjudotni bilishda ilm–fanning rolini hal etuvchi omil deb biladi, uningcha inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug‘ilishda mavjud, lekin aqliy bilimi, ma’naviyligi, ruhi, intellektual va ahloqiy hislatlari, harakteri, dini, urf-odatlari, ma’lumoti tashki muhit, boshqa insonlar va shu kabilar bilan muloqotda vujudga keladi, inson o‘z faoliyati yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi. Uning aqli, fikri, ruhiy yuksalishning eng etuk maxsuli bo‘ladi, deb ta’kidlaydi. O‘qituvchi shaxsining psixologik xususiyatlari masalasida Abu Nasr Forobiy: ―O‘qituvchi aql-farosatga, chiroyli nutqga ega bo‘lishi va o‘quvchilarga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini to‘la va aniq ifodalay olishni bilmog‘i zarur‖, ―O‘qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o‘xshaydi, shu sababli o‘qituvchi eshitgan va ko‘rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroyli nutqga ega bo‘lishi, o‘quvchilarga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini to‘la va aniq ifodalab berishni bilmog‘i lozim. Shu bilan birga o‘z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo‘lishi lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo‘ladi va baxt cho‘qqisiga erishadi , deb ta’kidlaydi.

**O‘qitishning afzallik jihatlari.**

Nega o‘qituvchi bo‘lmoqchisiz? Javoblar qisqa va oson:

- yoshlardagi o‘sishning turli-tumanligi va o‘rganishdan ularning quvonchlariga guvoh bo‘lasiz
- o‘zingiz va boshqalar uchun butun hayot davomida o‘qib-o‘rganishni ta’minlash
- fikrlash va qiziqarli qilish , yoshlar uchun hayot faoliyatini yuzaga keltirish uchun bo‘lgan chaqiriqlarni o‘z tajribasiga ko‘ra bilish

Bu yerda albatta, o‘qitishning yuqorida aytib o‘tilgan qiymatlaridan tashqari boshqa ko‘proq jihatlar ham bordir. Masalan, tasavvur qiling, “yoshlar” yuqoridagilardan foydalanishlari mumkin. Ular bir sinfning o‘zida olti yosh boladek, boshqasida o‘n olti yosh yoki undanda katta boladek tutishlari mumkin. Ular boy yoki kambag‘al yoki qandaydir boshqacha iqtisodiy sharoitda

bo‘lishlari mumkin. Ular turli etnik qatlamlardan kelib chiqqan bo‘lishlari mumkin. Ularning birinchi tillari ingliz tili yoki boshqa til bo‘lishi mumkin. Bu yerda barcha turdagi ehtimolliklar mavjud. Lekin muayyan turdagi talabalar kim bo‘lishidan qat’i nazar ular inson bo‘lishda imkoniyatlari bor: iqtidorlar va shaxsiy xususiyatlar oxirigacha ehtimol amalga oshirilmagandir, rahbar va mutaxassislarning yoki boshqalarning tarafdorlarining jamiyatdagi ishtirokini oshirish. O‘qituvchining ishi – aslida O‘qituvching majburiyatlaridir, va unga o‘ziga xos bo‘lgan yoshlarning imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish kiradi. [1]

Abu Rayxon Beruniy ta’lim va tarbiyaning maqsadi, vazifalari va mavqei, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlari chin ma’noda insonparvarlik va insonshunoslik zamirida yaratilgan. Bilim va tarbiyaning tabiatga uygunlik tamoyillarini mutafakkirning barcha asarlarida kuzatish mumkin. U insonni tabiatning bir qismi deb ta’kidlaydi.

Beruniy ta’lim jarayonining mohiyatiga chuqur kirib borib, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish asosida qurilgan o‘qitish samarali bo‘lishini uqtiradi. Beruniy pedagog ijodida inson va uning baxt–saodati, ta’lim–tarbiyasi, kamoloti bosh masala bo‘lgan. O‘rta asrda yashab, ijod etgan donishmand, tabobat ilmining doxiysi Abu Ali ibn Sino inson ruhiyati, tana va kalbning birligi, inson organizmining tuzilishi, undagi nerv faoliyati va ularning tarmoklanishi, holatlari haqidagi qimmatli ma’lumotlari hozirga qadar tibbiyotning muhim negizini tashkil etadi. Abu Ali ibn Sinoning fikricha: ―...O‘qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo‘y va bolani tarbiyalash metodlarini, ahloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo‘lmog‘i lozim. O‘qituvchi o‘quvchining butun ichki va tashki dunyosini o‘rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog‘i lozim.

Yusuf Xos Xojib ijodining bosh masalalaridan biri - komil insonni tarbiyalashdir. U o‘z asarlarida eng komil, jamiyatning o‘sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday tasavvur qilgan bo‘lsa, shu asosda u o‘z tamoyillarini izchil bayon etadi. «Qutadg‘u bilig» («Saodatga

Kelvin Seifert Educational Psychology 2009, 8-bet.

yo‘llovchi bilim») asari ta’lim va tarbiya, ma’naviy kamolotning yo‘l–yo‘riqlarini, usullarini, chora-tadbirlarini o‘zida mujassamlashtirgan, ahloq va odobga doir ma’naviy manbadir. Abduraxmon Jomiyning «Bahoriston», «Xirandnomai Iskandari», «Tuhfat-ul-axror» va boshqa asarlarida ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya, kasb- xunar o‘rganish, inson ijobiy fazilatlari haqidagi fikrlari ifodalangan. Ta’lim va tarbiya jarayonida tarbiyachi va o‘qituvchi shaxsi eng muhim omil bo‘lganligi tufayli Nasriddin Tusiy ―O‘qituvchilarni tarbiyalash to‘g‘risida degan asarida shunday ifodalaydi: ―O‘qituvchi munozaralarni olib borishni, rad etib bo‘lmaydigan darajada isbot qilishni bilishi, o‘z fikrlarining to‘g‘riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumlalari mantiqiy ifodalanadigan bo‘lishi lozim... O‘qituvchi nutqi hech qachon va hech qayerda zaharxandali, qo‘pol yoki qattiq bo‘lishi mumkin emas. Dars paytida o‘qituvchi o‘zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin....

Alisher Navoiyning «Xazoyin-ul-maoniy», «Maxbub-ul-qulub» va boshqa shu singari asarlarida etuk, barkamol insonning ahloqi, ma’naviyati, o‘zgalarga munosabati, iste’dodi va qobiliyati to‘g‘risida qimmatli mulohaza lar yuritilgan. Ana shu psixologik mezonlar ijtimoiy adolatning karor topishi uchun muhim ahamiyatga ega ekani ta’kidlangan. SHu bilan birga o‘qituvchi mexnatini xolisona baholab: ―Agar shogird podsholikka erishsa ham, unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi‖, deydiki, bu orqali ta’lim va tarbiya jarayonidagi o‘qituvchi shaxsining markaziy shaxs sifatida ko‘radi. Shuningdek, Navoiy asarlarida yosh avlodni barkamol inson sifatida shakllanishida ota-onaning roli, ayollarning iffatliligi, kishilarning kamtarligi haqidagi fikr-mulohaza lari alohida o‘rin egallaydi. Navoiy «Hamsa»sining har bir dostonida bukilmas iroda, qat’iyatlilik, itoat, insonparvarlik tuyg‘ulari, ijodiy hayolot, insonning murakkab ichki kechinmalari mohirona yoritilgan. Shuningdek, bu borada Mahmud Qoshg‘ariy, Ulug‘bek, Naqshbandiy, Ogahiy singari buyuk Sharq mutafakkirlarining yoshlar tarbiyasiga, o‘qituvchi, tarbiyachining jamiyatdagi o‘rni, ahloq-odob, fe’l-atvor, oilaviy hayot, shaxslararo munosabatlarga doir qarashlari ularning asarlarida ravon va ixcham bayon etilganligini ta’kidlash mumkin.

Nimani o‘rgatishingizdan qat’i nazar siz yangi g‘oya va qobiliyatlarni samarali bog‘lovchi murakkab faoliyatlarni loyihalash va instrumentlashdan

qoniqish hosil qilishga tayyor bo‘lishingiz kerak. Musobaqalashishga bo‘lgan chaqiriqlar ko‘plab o‘qituvchilarni jalb qiladi, negaki ular bu yerda to‘g‘ri mushohada yurita olishlari va san’atkorliklarini eng sodda va odatiy yo‘llar bilan ko‘rsata oladilar. Sizning talabangiz sizning rejalashtirish va boshqarish qobiliyatingizga bog‘liq bo‘ladi, ular shuni qanday qila olishlarini ba’zida o‘zlariga tasavvur qilsalar ham. O‘qituvchilar g‘oyalarni qanday qilib tushunarli tushuntirishni, yangi materiallarni tog‘ri ketma-ketlikda va muvofiq tempda berishni, avval bilganlari va yangi o‘rganganlari orasidagi aloqalarni yo‘naltirishni bilishda sizga muhtojdirlar. Shunga qaramay, bu qobiliyatlar mutaxassisdan butun umrini talab etadi, ular hatto boshlang‘ich o‘qituvchilar tomonidan muvafaqqiyatli mashq qilinishi mumkin va ular o‘qitishning darsdan tashqari vaqtida davom ettirilib bir maromda rivojlantiriladi. Boshlanishidan keyin to‘g‘ri bo‘lishiga qaramay, o‘quv kursining aloqasi va loyihasidagi mahorat ishning asosiy “daromad”laridan biridir.

Auditoriya hayotining juda murakkabligi o‘qitishni hech qachon zerikarli bo‘lmasligini amalda kafolatlaydi. Siz hech bo‘lmaganda biron-bir yangi va havotirga soluvchi jihatlarni kutasiz ularning esa, bo‘lishi shartdir. Talaba siz ko‘rishingiz mumkin bo‘lmagan mohiyatni sizga ko‘rsatadi yoki siz shuni sizga ko‘rsata olishiga ishonchiz komil bo‘lganda muvafaqqiyatsizlikka uchraydi. Faoliyat kutilganidan yaxshiroq yoki yomonroq yoki faqatgina boshqacha bo‘lishi mumkin. Oldinlari nega muayyan turdagi talaba o‘zini o‘zi xohlaganidek tutishini va kelajakda talabaning o‘zini tutishini yanada foydali qanday foydali ta’sir qilishini o‘ylash boshlanganini tushundingiz. Maxsus maqsadli o‘qitishni o‘rgatishdan so‘ng, siz buni avvalgi o‘ylaganlarizga qaraganda farqli tushunganingizni va hokazolarni bir necha marotaba tasavvur qildingiz. Ish har doim bir xil bo‘lib qolavermaydi; u davomli ravishda rivojlanib boradi. O‘qitishda qanchalik uzoq qolsangiz, yangiliklar bilan bog‘liq kasbingiz bo‘ladi. [1]

O‘quv faoliyati bu shunday faoliyatki, unda shaxsning psixik jarayonlari shakllanadi va rivojlanadi, uning asosida yangi faoliyatlar yuzaga keladi.

---

[1] Kelvin Seifert Educational Psychology 2009 8-bet

O‘quv faoliyati insonning butun hayoti davomida namoyon buluvchi uzluksiz jarayondir. Rus psixologi A.N.Leontev inson faoliyatining psixik va amaliy shakllari mavjudligini, bola ongi aynan o‘quv faoliyatida o‘sishini ta’kidlaydi. D.B.Elkonin esa o‘quv faoliyatining xususiyatlarini ko‘rsatib, uni mohiyatiga, mazmuniga va o‘zini namoyon bo‘lish shakliga ko‘ra ijtimoiyligini ta’kidlaydi. O‘quv faoliyati bu shunday faoliyatki, uning natijasida avvalo o‘quvchida o‘zgarish yuz beradi. Uning mahsuli turli motivlar asosida, qurilgan bo‘lishi darkor. Bu motivlar bevosita o‘quvchi shaxsining o‘sishi va rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.

O‘quv faoliyati ta’lim, o‘qish va o‘rganish degan tushunchalar bilan bevosita bog‘liqdir. Ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligidagi o‘quv faoliyati, o‘qituvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘quvchilarga o‘rgatish jarayonidir. Ta’lim jarayoni bevosita muayyan axborotni, harakatlarni, xulq- atvorning shakllarini o‘zlashtirishga qaratilgandir. O‘qish va o‘rgatish tushunchalari o‘quv faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ular bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga, o‘rgatishga xizmat qiladi. O‘quv faoliyatining besh elementi mavjud: 1. O‘quv motivlari. 2. O‘quv topshiriklari. 3. O‘quv harakatlari. 4. O‘qituvchining nazorati. 5. O‘qituvchining baholashi.

D.B.Elkoninning ta’kidlashicha, o‘quv faoliyatining shakllantirilishi bu faoliyat ayrim kishilar bajarilishini asta -sekinlik bilan o‘quvchining o‘ziga o‘qituvchining ishtirokisiz mustaqil bajarish uchun o‘tkazilishidir. Ta’lim jarayoni alohida tashkil etiladigan hamda boshqariladigan faoliyat bo‘lib, u o‘quvchilarning o‘quv faoliyatlarini tashkil etadi va ularni boshqaradi. Ta’lim jarayoni besh elementdan iborat: 1. Ta’limning maqsadi - nima uchun o‘qitish kerak? 2. Ta’limning mazmuni - nimaga o‘qitish kerak? 3. Ta’limning metodlari, usullari va pedagogik muloqot yo‘llari. 4. Ta’lim beruvchi. 5. O‘quvchi.

Ta’lim jarayonini tashkil etish: ideal va amaliy faoliyatning u yoki bu turini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun zarur bo‘lgan tashqi olamning muhim ahamiyatli xossalari xususidagi axborotning o‘zlashtirilishi: - faoliyatning ana shu barcha turlari tarkib topgan usullari va jarayonlarining o‘zlashtirilishiga; - maqsadga muvofiq keladigan usullar va jarayonlarni to‘g‘ri tanlash va

foydalanishga bog‘liq. Ta’lim jarayonining muvaffaqiyati: 1. Motivatsiya. 2. Ma’lumot usullari. 3. Ma’lumotning tushunarliligi. 4. Xotira. 5. Ma’lumotni qo‘llash. Ta’lim va ta’lim jarayonida bolani rivojlanish muammosi psixologik markaziy masalalardan biridir.

O‘quv faoliyati motivlarining paydo bo‘lishi va ularni shakllantirishga doir qator nazariyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ulardan biri: 1. Aqliy hatti-harakatlar, bilimlar, malaka va ko‘nikmalarni bosqichma- bosqich rivojlantirish nazariyasi (P.Ya.Galperin). P.Ya.Galperin nazariyasi bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni olti bosqichni boshidan kechirib, ularga: 1. Motivatsiya. 2. Tushuntirish. 3. Moddiy formadagi hatti-harakatlarni bajarish. 4. Baland ovozda hatti-harakatlar va vazifalarni bajarish. 5. Bajariladigan hatti-harakatlarni ichki rejada ovoz chiqarmay bajarish. 6. Faoliyatni fikran bajarish kiradi. Ushbu nazariyada ta’limning uchta asosiy turlari ajratiladi: - birinchi turda - hatti-harakatlarni o‘zlashtirish xatolar bilan kechadi, berilayotgan material yetarli darajada anglanilmaydi, ta’lim oluvchi ta’limning asl mohiyatini tushunib etmaydi; - ikkinchi turda - materialni nisbatan dadil va to‘la tushunilishi va material bilan bog‘liq tushunchalarni ajratilishi bilan xarakterlanadi; - uchinchi tur - tez, samarador va bexato hatti-harakatlarni o‘zlashtirilishini ta’minlab beradi.

V.V.Davidov nazariyasi. Ushbu nazariya kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirilishini targ‘ib qiladi. Bunda o‘quvchilar tomonidan ta’lim jarayonida nazariy tushunchalar tizimini o‘zlashtirilishi lozim bo‘lib, bu o‘z o‘rnida xususiydan umumiy bilimlarga o‘tilishni ta’minlaydi. Qator nazariyalar muammoli ta’lim bilan bog‘liq bo‘lib, L.V.Zankov va A.M.Matyushkin tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ta’limda muammoli darslarni tashkil etishga qaratilgandir.

Ta’limning psixolik asoslari muammosi ko‘pgina masalalarni qamrab oladi. Ta’limning muvaffaqiyati bir qator psixologik omillarga bog‘liq bo‘ladi. Avvalo o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan munosabatiga to‘xtaylik. Bu munosabat diqqatda, his-tuyg‘ularda, qiziqishlar va irodada, shuningdek, shaxsning tutgan yo‘lida namoyon bo‘ladi. Ta’lim jarayoni avvalo o‘quvchilar diqqatini yo‘lga solishni talab etadi. Darslarda ko‘rgazmali qurollardan, texnik va EXM

vositalaridan foydalanish ta’lim oluvchida ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiradi. Ta’lim jarayonida ta’lim beruvchining vazifasi darsda ishlash holatini yuzaga keltirishgina emas, balki o‘quvchilarning darsda o‘tiladigan materialini idrok etishga tayyor turishlarini kuzatish hamdir. Dars jarayonida o‘quvchilarning diqqati o‘zgarib turadi. O‘qitish jarayonida bu qonuniyatlarni nazarda tutish va o‘quvchilar diqqatini materialning asosiy jihatlariga jalb etish hamda ularni takrorlash kerak. Ta’lim jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchi tomonidan beriladigan ko‘rsatmalarga ham bog‘liq. O‘qituvchining roli shundan iboratki, u o‘quvchilarga tegishli ustanovkani hosil qilishi, nimani vaqtincha, nimani umrbod esda olib qolishi kerakligini, nimani butunlay esda olib qolmasdan, faqat tushunib olish kifoya qilishini, nimani so‘zma-so‘z esda olib qolishni, nimaning ma’nosini o‘z so‘zlari bilan aytib berish uchun esda olib qolish zarurligini ko‘rsatib o‘tishi lozim. Kuzatishlar ko‘rsatadiki, bunday ko‘rsatmalar berilmaganda, o‘quvchilarda ko‘pincha noto‘g‘ri tasavvurlar vujudga keladi. O‘qitishning emotsionalligi ta’limning muvaffaqiyatliligini ta’minlovchi omillardan biridir. Ta’lim berish jarayoni emotsional jarayon. Agar o‘quvchilarga berilayotgan axborot ularda hech qanday his-tuyg‘u uyg‘otmasa, uni o‘quvchilar yaxshilab esda olib qolmaydilar. Gap o‘quvchilarning psixik holatlari, ya’ni ularning muayyan bir paytdagi kechinmalari haqida ham borishi kerak, albatta. Ulardagi quvonchli, optimistiq kayfiyat o‘quv faoliyatini juda samarali qiladi. O‘quvchilar emotsional ruhdagi materialni durustroq o‘zlashtirib oladilar.

O‘tkazilgan tajribalarda o‘quvchilar hech qanday his-tuyg‘u uyg‘otmaydigan materialga qaraganda, emotsional ruhdagi materialni yaxshiroq eslab qolishlarini ko‘rsatadi. O‘qituvchi o‘quv jarayonining emotsional tomoni haqida g‘amxo‘rlik qilishi kerak.

Bu o‘rinda o‘quvchi-o‘smirlarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini uyg‘otish maqsadga muvofiqdir. Hali hech qancha bo‘lgani yo‘q, Barbara Fuller ismli o‘qituvchi boshlang‘ich bosqichdagi o‘quvchilarga umumiy bilimni o‘rgatdi va uning  darslaridan biri o‘rgimchak va hashorotlar haqida edi. U darsining bir qismi sifatida o‘quvchilardan o‘zlarining uylaridan yoki xonalaridan hashorot va o‘rgimchaklarni qidirishini buyurgan. Ular tirik

mavjudotlarni maktabga olib kelishdi, o‘zlarining jurnallaridagi savollarga javob berishdi, so‘ng o‘zlarining topilmalari haqida auditoriyaga qisqacha og‘zaki ma’lumot berishdi. Baholash halol tarzda bo‘lgandek tuyuldi, lekin, Barbara o‘quvchilarning darsga turli xil yo‘llar bilan javob berganini aniqladi. Quyida Barbaraning talabalarni qanday javob berganini tasvirlagani keltirilgan:

“Esimda Joze boshlashni kutib turolmadi va baholashni tugashini ham kutib turolmadi. Har kuni u 25 xil turdagi o‘rgimchak va hashorotlarni olib keldi. Har kuni u hashorotlarning rasmlarini o‘zining jurnaliga chizdi va ular haqida izoh yozdi. Oxirida u 3-kurslar ichida eng yaxshi og‘zaki namoyish ko‘rsatdi. U buni “Ular bizlardan oshib ketdi” deb atadi. Qaniydi men uni ko‘rganimda, u juda bosiq va zavqqa to‘lgan edi.

Shundan so‘ng hatto uni qiziqtirmasa ham hamma narsada eng yaxshi bo‘lishni istaydigan qiz – Lindsey chiqdi. U ishni ozgina sekin – bir qancha hashorot va bittagina o‘rgimchak olib kelgan holda boshladi. Lekin u boshqalarning nimalar va qanchadan olib kelayotganiga ko‘z tashladi. U Jozening qancha hashorot olib kelayotganini ko‘rib, oyoqlarini qo‘liga olib, Jozening darajasiga etishishga kirishdi. U Joze olib kelganidek turli xil hashorot olib kelish o‘rniga, ko‘pdan-ko‘p bir xil hashorot – deyarli 20 ta o‘lgan uy pashshalarini olib keldi, huddi men eslaganimdek! Uning prezintatsiyasi yaxshi edi – unga yomon baho qo‘yolmasdim, lekin u Jozenikidek yaratuvchan yoki farosatli emas edi. O‘ylashimcha u uning materiallariga nisbatan ko‘proq baholandi.

U erda shuningdek umidsizlanayotgan Tobias bor edi. U ishini zo‘rg‘a bajargan. Men uni boshqalarning hashorotlar kolleksiyasini va jurnallarini ko‘rayotganini payqadim. U aldamayotgan edi, men ishonaman. Shunchaki u ishining darajasi qanday ekanligi va yutqazmaslik uchun nima qilish kerakligini aniqladi. U aksariyat o‘quvchilarga nisbatan kamroq hashorot olib kelgan edi. Shuningdek u jurnalidagi savollarga qisqacha javob bergan edi va eng qisqa og‘zaki ma’lumot berdi.

Nihoyat Zoey. U ancha shoshqaloq edi! Men uni ustidan na kulishni, na yig‘lashni bilmasdim. U topshiriqni bajarishga qarshilik qilmadi, lekin boshqa o‘quvchilar bilan muloqot qilishni xohladi. Shuningdek u osongina chalg‘itildi

va ishini namoyish qilayotgan vaqtda jurnalidagi ma'lumotlarni aytishni esidan chiqarib qo'ydi. Mana uni nima saqlab qoldi – mana uni yuqori ball olishiga sabab bo'ldi – shuki u ishini 2 ta qiz bilan o'zaro fikr almashib tugatdi. Qolgan 2 ta qiz topshiriqni juda ajoyib tayyorlagan – ajoyib hashorotlar to'plami, jurnaliga yaxshi ma'lumotlar yozilgan va og'zaki prezintatsiyasi ham qiziqarli edi. Shuning uchun Zoey ular bilan suhbat qurishga urinsa, suhbat qanday yo'l bilan bo'lsa ham tugallandi. U qizlarga uning fikrini qo'llab-quvvatlagani uchun rahmat aytdi. Zoey ularning yordamisiz nima qilardi, bilmadim".

Barbaraning xotirasi ma'lum qilishicha, o'quvchilar ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishda turli xil nazariya va urinishlarni ko'rsatishdi – shaxsiy fikrlar va urinishlar qaysiki energiyalarini turli xil yo'llar bilan yo'naltirilgan. [1]

## 2.1.2. O'quv faoliyatining psixologik mohiyati

**O'qitish(ta'lim)da muammolar mavjudmi?**

Ta'limot o'tmishdan farq qiladimi? Qanday? Bu muammo juda muhim ahamiyatga ega. Chunki, birinchidan, ta'limning mazmuni nihoyatda murakkablashib, xajmi esa g'oyat kattalashib ketgan. Uning muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga erishish uchun o'quvchilarning o'quv faoliyatini kuchaytirishi lozim. Ijobiy tuyg'ular o'quv mehnatining samaradorligiga kuchli ta'sir etadi. Hafsala bilan bajarilgan beg'araz munozara paydo bo'ladi, bahslashiladi, befarq qaragan yoki undan ham beshbattar, salbiy munosabatda bo'lishgan ishga esa hech qanday xafsala bo'lmaydi. Jamiyatimizdagi mehnat - ijod, quvonch manbai. O'quv maskani o'quvchilarida o'quv mehnatiga ijodiy munosabat uyg'otib, mehnatning xaqiqiy ijodga, quvonch manbaiga aylanishiga ko'maklashishi kerak.

Qadimda greklar juda ajoyib iborani qo'llaydilar: "Talaba -to'ldirilib turilishi kerak bo'lgan idish emas, balki yoqib turilishi lozim bo'lgan mash'aldir". Bu fikrning tagida chuqur ma'no bor. Zero, o'qituvchi biz yuqorida ta'kidlab o'tgan ta'lim metodlari muammoli ta'lim, qisman izlanish metodi va tadqiqot metodlaridan keng qo'llanishi kerak. Ta'lim jarayonini bugungi

[1] Kelvin Seifert Educational Psychology 2009. 12-bet.

kundagi asosiy talablaridan biri erkin fikrlovchi, mustaqil tafakkurga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirish bo‘lib, yuqorida aytib o‘tgan metodlardan foydalanish uchqunlardan katta mash’allar paydo bo‘lishini ta’minlab beradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilishga qiziqishlari g‘oyat katta rol o‘ynaydi. Ma’lumki, qiziqish o‘quvchilarning emotsional bezagi, biror buyumni, biror faoliyatni tanlash munosabati va yo‘nalishidir. Ma’lumki, psixologiyada qiziqishning ikki turi o‘quvchilarning ta’lim jarayonida aniqlanadi. Birinchisi, bevosita qiziqish, ikkinchisi bilvosita qiziqish. Har bir o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarida o‘z faniga nisbatan bilvosita qiziqishni tarkib toptirishga harakat qiladi. qiziqishlar orqali o‘quvchilarda ta’limga aktiv munosabat namoyon bo‘ladi. Psixologiyada qiziqish - bu shaxsning o‘zi uchun qimmatli yoki yoqimli bo‘lgan muayyan narsa yoki hodisalarga munosabatidir. Qizikishlar shaxsning muhim va individual xususiyatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Qiziqishlar o‘quvchilar hayotida katta rol o‘ynaydi. Ular o‘quv faoliyatini faollashtiruvchi asosiy turtkilar - motivlaridir. Qiziqishlar ta’lim maskanlari o‘quvchisiga fan asoslarini durustroq o‘zlashtirib olishlariga, aqliy qobiliyatlarning o‘sishiga, bilim doirasining kengayishiga imkon beradi. O‘qituvchilarning vazifasi o‘quvchini dastlab qiziqtirib qolgan ishning o‘zi bilan shug‘ullanishga majbur qilish emas, balki undagi qiziqishlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, ta’sirchan qilish, qiziqishlarining markaziga aylanib qolgan faoliyat bilan shug‘ullanish istagiga, mayliga aylantirishdir. O‘quvchilarning muayyan maqsadni ko‘zlab ish tutishida, qiyinchiliklarni enga olishida, ishdan chalg‘itadigan narsalar bilan shug‘ullanishdan o‘zini tiya olishida, unda o‘qishga ishtiyoq tarkib toptirishda namoyon bo‘ladigan iroda ta’lim jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Umumiy psixologiya kursidan ma’lumki, iroda bu shaxsning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadining aniqligi, uni amalga oshirish uchun intilishi, maqsad yo‘lida ma’lum bir qarorga kelish tezligi va uni o‘z vaqtida ijro etishi bilan belgilanadigan sifatidir.

Ta’lim jarayonida o‘quv materialiga bo‘lgan diqqatning barqaror bo‘lishida irodaviy zur berishning ahamiyati nihoyatda kattadir. Ta’limda iroda o‘quvchida o‘quv maskani va uyda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarga tayyor turishda namoyon bo‘ladi. O‘quv materialini o‘rganish - eslab qolish va

o‘quvchining irodaviy zo‘r berishganiga bog‘liq. Iroda o‘quvchilarning fikrlash faoliyatlarida - masalani echishga, qo‘yilgan savolga javob topishga va hokazolarga intilishida namoyon bo‘ladi. Ular o‘quvchilarda ko‘nikma va malakalarni hosil qilishda ham tarkib topadi. Psixologlar olib borgan tadqiqotlarda o‘quvchilar tomonidan berilgan materialning o‘zlashtirilishi ko‘p jihatdan irodaning tarbiyalanishiga bog‘liqdir. Irodaviy aktivlik ta’limning zarur shartidir. Ta’lim muassasasidagi ta’lim jarayonining o‘zi o‘quvchilardan irodaviy o‘stirish omillaridan biridir. Bunda o‘quvchilarning kundalik rejimi, o‘qish va okilona dam olishni bir-biri bilan to‘g‘ri almashtirib turish katta rol o‘ynaydi. Ta’lim jarayonida bilish jarayonlarini shakllantirishga alohida e’tibor berish lozim. Zero bilish jarayonlari juda murakkab faoliyat bo‘lib, unda jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga, abstrakt tafakkurdan amaliyotga o‘tiladi, ana shundan so‘ng ob’yektiv haqiqat bilib olinadi. Binobarin, biz birinchi navbatda ko‘rib chiqishimiz lozim bo‘lgan narsa o‘quv materalini idrok qilish jarayonidir. Umumiy psixologiya kursidan ma’lumki, idrok bu narsa va hodisalarni sezgi organlariga ta’sir etishi natijasida ularning kishi psixikasida yaxlit obrazini paydo bo‘lishi bo‘lib, idrok etish jarayoni ta’limda turli formalarda o‘qituvchining og‘zaki xikoya qilishida, suxbat o‘tkazishda, leksiya o‘qishida, ko‘rgazmali qurollar ko‘rsatish, ekskursiyalar o‘tkazish, axborot va pedagogik texnologiyalaridan foydalanish, o‘quvchining o‘ziga darsliklar hamda boshqa qo‘llanmalarni o‘qitish tarzida o‘tishi mumkin. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, idrokni tarkib toptirishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish nihoyatda muhimdir. Chunki, fazoni, vaqtni va harakatlarni idrok etishda ham yosh xususiyatlarda turli farqlar mavjud bo‘ladi.

Biz bu energiyalarini motivatsiya termini yoki bazida o‘rganish uchun motivatsiya deb ataymiz. Ko‘rib turganimizdek, motivatsiyadagi turli-tumanliklar sinfxonalardagi tafovutning muhim sababi avvalgi bilimlarni, qobiliyatni, o‘qishdagi rivojlanishni farqlashda taqqoslanuvchi ahamiyat kasb etadi. Maktabdagi o‘qish vaqti kelganida, aksariyat hollarda, o‘quvchilarning motivatsiyasi muhim rol o‘ynaydi, chunki o‘quvchilarning oddiy darsda ishtirok etishlarini o‘zlari xohlashlari kafolatlanmagan (albatta). Bu o‘quvchilarning

yosh odamlarni maktabga borishini talab qiluvchi jamiyatda yashashlarining belgisidir.

Zamonaviy ta'lim majburiy bo'lar ekan, o'qituvchilar o'quvchilarning o'qish uchun motivatsiya hosil qilishga ishontirish mas'uliyatini oladilar. Qanday qilib bo'lsa ham o'qituvchilar o'quvchilarning qilishi shart bo'lgan ishlarini xohlab bajarishga ko'ndirishlari shart. Tushunish va o'quvchilarning o'qish borasida motivatsiyalariga ta'sir ko'rsatish bu bobning eng asosiy maqsadidir. Baxtimizga, ko'rib turganimizdek, o'quvchilarning tanlovini, orzu-havasini va urinishlarini hurmat qilishni amalga oshirish uchun yo'llar bor. Motivatsiyaning o'ziga o'xshab uning nazariyalari ham turli-tumanlikka to'la. Farqlardagi tafovutlarni ajratish uchun, quyidagi asosiy motivlar nazariyasini ko'rib chiqamiz.

(1)-maqsadni belgilovchi motivlar;

(2)-qiziqish motivlari;

(3)- muvaffaqiyat eltuvchi yoki qochuvchi motivlari;

(4)- ishonch motivlari;

(5)- irodaviy motivlar deb ataymiz. [1]

**O'qitish uchun boshqa chaqiriqlar ham bormi?**

Bu yerda ham oddiy javob "ha". O'qitishning har bir quvonchi ehtimolli ko'ngilsizliklarga aloqadordir. Siz talabalar hayotida ijobiy farqlanishni yaratishni xohlarsiz, lekin yakka-yakka talabalarni yetarli pog'onaga tortishda tashvishlarga ham ega bo'lishingiz mumkin. Talabalar qanday bo'lishlaridan qat'i nazar, ko'p o'rganishni xohlamaydigan, motivlashtirilmagan yoki nodo'stona kayfiyatda bo'lib ko'rinishlari mumkin. O'qitishning ba'zi muammolari ko'rimsiz bo'lishi mumkin, bular: siz bilimlarning ajoyib cheksiz sohasiga diqqatingizni jalb qilganingizda, siz tasodifan chekingan talabani "yetarli" darajada hech qachon o'rgana olmaydigan talabadek nazarda tutishingiz mumkin. O'qitishni loyihalashtirish va bajarish qiyinchiligi ko'pincha, qoniqtirish o'rniga qilib bo'lmaydigan vazifa bo'lib ko'rinadi. Auditoriyadagi kutilmagan hodisalar jozibador yangilikdan ko'ra tartibsizlik

[1] Kelvin Seifert Educational Psychology 2009 13-bet.

bo‘lishi aniqrog‘dir. Shaxsiyatni rivojlantiruvchi kitob haqida gapirib berish, ba’zida “yaxshi o‘qituvchilar bilan yomon hodisalar ro‘y berishi”ga sabab bo‘ladi (Kushner, 1983). Lekin hayotning osuda damlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, o‘rgatishning yomon jihatlari uning yaxshi jihatlarini yo‘q qilib yubora olmaydi. Agar noxush hodisalar “yahshilik”ni yarata oladi deb hisoblasak, xush keluvchi hodisalar yanada ko‘proq qoniqtiruvchi bo‘ladi va o‘qitish ishini butunlay qadrini oshiradi. Ko‘rib turganingizdek bu kitobda yaxshi hislatlarni maksimallashtiruvchi qimmatli va qoniqarli resurslar mavjud. Siz bu resurslarni o‘zingiz bilan mashg‘ulotingizga va o‘sayotgan professional bilimlaringizga,umumiy ma’noda sog‘lom ulushlarda olishingiz mumkin. Shu munosabatda siz yaxshiroq o‘qitishni o‘rganishingizda yolg‘iz o‘zingiz harakat qilishingizning hojati yo‘q. Balki yolg‘iz o‘zingiz harakat qilishingiz mumkin ammo, ehtimol siz zo‘r o‘qituvchi bo‘lishingiz va shunday bo‘lib qolishingiz uchun shaxsiy javobgarlik bo‘lishi kerak va bu hodisani sodir etuvchi yagona shaxs bu sizning o‘zingizsiz. Bu hodisani amalga oshirish uchun ko‘plab resurslar shu kitobning keyingi boblarida tasvirlangan.

**Ta’limot o‘tmishdan farq qiladimi? Qanday?**

So‘ngi bir yoki ikki o‘n yillikda o‘qitish sezilarli darajada o‘zgardi, aslida hozirgi maktablar oramizdagi ayrimlarimiz bolaligimizni eslatadigan maktablarga umuman o‘xshamaydi. O‘qitishning qulay imkoniyatlari va qiyin masalalaridagi o‘zgarishlar xususiyatiga o‘rgatish faoliyatiga tayyorlanishda kerak bo‘ladigan munosabat, bilim va mahoratlarni muvafaqqiyatli shakllantirishga ta’sir qildi. O‘zgarishlar shu kitobning mundarijasiga ham ko‘p ta’sir qildi.

Biz nimani nazarda tutayotganimizni ko‘rish uchun, ta’limdagi to‘rtta yangi yo‘nalishga va ular o‘qituvchilar qilayotgan ishini qanday o‘zgartirganini qisqacha ko‘rib o‘ting hamda o‘rgatishga tayyorlanayotganlar nimaga muhtojligini bilasiz:

- **rivojlanayotgan xilma-xillik**: bu yerda, talabalar o‘rtasida avvaldan mavjud xilma-xillikdan ko‘ra ko‘proq farq mavjud. Xilma-xillik o‘qitishni nafaqat faoliyat sifatida to‘ldirdi, balki muayyan vaziyatlarda uni yanada o‘ziga jalb qildi.

- **rivojlanayotgan o‘quv texnologiyasi:** hozirda barcha ta’lim muassassalarida ishlatadigan kompyuterlar avvalgi davrga qaraganda, ko‘proq o‘tkazilgan tadqiqot ma’lumotlarni saqlash uchun ko‘proq foydalanilmoqda. Texnologiya talabalarni o‘qishi uchun yangi yo‘llarni yaratmoqda (masalan, mana shu darslik internet texnologiyasisiz yozilishining iloji yo‘q edi). U yana o‘qituvchilarning qanday yo‘llar bilan yanada samarali o‘qitishini o‘zgartirdi va hatto, “to‘g‘ri” o‘qitish va o‘rgatish to‘g‘risida tuzilgan tadqiqotlarni ham ko‘paytirib yubordi.
- **ta’limdagi katta mas’uliyat:** pedagoglar va jamoatchilikning ikkalovi ham o‘rganish va o‘qitishning yaxshi sifatini baholash yoki asoslarni ta’minlashga avvalgiga qaraganda ko‘proq o‘zlarining e’tiborlarini qaratmoqdalar. Omma uchun ta’limning muhimligiga bo‘lgan diqqat oshib bormoqda va ba’zi talabalar uchun ta’lim mukammallashtirilmoqda. Ammo, bu yondoshuv o‘qituvchilarning talabalarga bo‘lgan yangi bosimini vujudga kelishiga olib keldi.
- **o‘qituvchilarning o‘sayotgan professionalizmi:** Hozirda o‘qituvchilar o‘zlarining ishlari sifatini hamkasblari singari har qachongidan ko‘proq muvafaqqiyatli baholay olishlari va muhim holatlarda buni yaxshilash uchun qarorlar qabul qila olishlari mumkin. Professionalizm ta’lim sifatini oshiradi, ammo uning amaliyotini yangi standartlarini yaratilishi muayyan toifadagi o‘qituvchilarni “yetarli darajada yaxshi” bo‘lishi haqidagi masalalarni hal etishni belgilaydi.

Bu o‘zgarishlar auditoriyaning kundalik hayotida qanday aks etadi? Javoblar qayerda ta]lim berayotganligingizga; maktablar, shaharlar va hatto butun jamiyatdagi shart-sharoitlar o‘rtasidagi farqlanishga qisman bog‘liq bo‘ladi. Auditoriya hayotidagi yo‘nalishlarning ta’sirlari haqidagi masalalarni yechish uchun ba’zi kalitlar topilishiga qaramay, o‘ziga xos bir jihat kuzatilmoqda.

**Ta’limda texnologiyalarni qo‘llash.**

Ko‘p o‘qituvchilar uchun “texnologiya” kompyuterlarni internetda ishlatish, o‘qitish va bilim berish zaxirasi sifatida belgilanadi. Bu uskunalar axborotning sonini va diapazonini sezilarli ko‘paytirdi, talabalar uchun ochiq

agar OAVining o‘rni oshirib ko‘rsatilsa, ularning imtiyozlari kengayadi(Kuba 2001). Internet yordamida bu endi hohlagan mavzu bo‘yicha dolzarb axborotlarga osonroq va tezroq ega bo‘lish uchun, ularni amalda rasmlar orqali, video filmlar va audio kuzatish bilan bog‘liq bo‘lgan texnologiyalarni qo‘llash maktab hayotida an’anaviy ta’limni ko‘chirishda imkoniyatlarini amalga oshiradi. Har xil sabablarga ko‘ra, biroq bu texnologiyalar har doim o‘qituvchilar tomonidan amaliyotga puxta tadbiq etilmagan bo‘lishi mumkin (Vosita Haertel 2003). Bunga sabab ta’lim muassalaridagi kompyuterlarning kamligi(foydalana oluvchilar sonining ko‘pligi) va internetga kirishning chegaralangaligi(internetga ulanishni kutish,), bunda yoki umuman yo‘qligidadir.

Nisbatan an’anaviy usullar internetning to‘liq imkoniyatidan foydalana olmaydi; masalan matnli protsessor (yozma mashinkani fantaziyasi) yoki ma’lumotnoma ensiklopediyaga o‘xshash shunga qaramay kompyuter sinflar o‘qituvchilar uchun yangi imkoniyatni beradi.

Bitta kompyuterda kelajak topshiriqlar to‘g‘risida talabalar yoki kichik bo‘lgan guruhlarga qo‘shimcha topshiriqlar bo‘yicha taassurotga ega bo‘lish mumkin.

Shunday qilib ishlab turgan kompyuter yangi vazifalarni qo‘yishda talabalar egiluvchanligini yaratish imkoniyatini beradi. Yana bitta kompyuter ayrim talabalarni o‘qitishda maxsus qiziqishlarini va motivatsiyalarini boyitish mumkin. Va qo‘shimcha yordamga muhtoj bo‘lgan talabalarni sharhlarini boyitish va uni asoslashga xizmat qiladi. Bu o‘zgarishlar fojia emas, lekin ular o‘qituvchilarning ahamiyatini qat’iy ko‘rib chiqishga olib keladi. Ular o‘qituvchilardan uzoqlashadi, talabalarga ma’lumot yetkazib beradi, shu bilan birga talabalarni shaxsiy bilimini konstruksiya qilishga yordam beradi.

O‘qitish kompyuterlaridan faol foydalana bilish va uni oson ishlatish son jihatidan Internet texnologiyasini ko‘paytiradi. Agar talaba maktab kompyuterlarida kun davomida to‘liq internetga kirish imkoniyatiga ega bo‘lsa, talabalar o‘zining maxsus ta’lim olishini mustaqil olib boradi.

Kompyuterlar etishmagan holda o‘qituvchilar o‘quv rejalarni ishlab chiqishda va uni tayorlashda nisbatan yetarli texnologiyalarga muhtoj bo‘ladilar.[1]

## 2.2. O‘QITISH JARAYONIDA O‘QITUVCHINING IMKONIYATLARI

### 2.2.1. O‘qitish jarayonini amalga oshirish maqsadlari

O‘qitish jarayonini amalga oshirish maqsadlari quyidagilardan iborat: ta’lim olayotgan va tarbiyalanayotgan shaxslarga ta’sir etish mexanizmini ochib berish; ta’lim olayotganlar tomonidan ijtimoiy madaniy tajribalarni o‘zlashtirish; ta’lim olayotganlarda turli vaziyatlardan chiqib ketish yo‘llarini o‘rgatish; pedagogik faoliyatning o‘ziga xosligini o‘rganish, o‘qitishning qonuniyatlarini, mexanizmlarini o‘rgatish. Ta’lim-tarbiya jarayoni bir maqsadga qaratilgan ijtimoiy jarayon bo‘lib, quyidagi to‘rt qismga bo‘linadi. – **birinchisi,** tarbiyalash ta’lim jarayonida olib boriladi va uning barcha shakl va usullari, mazmunini yoritishga xarakat qiladi.



S.L.Rubinshteyning fikriga ko‘ra —”Biz o‘qitish orqali tarbiyalaymiz, tarbiyalash orqali o‘qitamiz”; – **ikkinchisi,** ta’lim ma’lum bir muassasa, tashkilotda olib boriladi; hamda tarbiyaning mazmuni va mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi; – **uchinchisi,** tarbiya ta’lim jarayonidan tashqarida – oila, mehnat jamoasi, guruh va jamoat muassasalarida amalga oshiriladi; – **to‘rtinchisi,**tarbiya jarayoni klublar, madaniyat uylari, har xil to‘garaklarda, ta’limning epizogik jihatlariga asoslangan holda olib boriladi.

**S.L. Rubinshteyn.**

[1] Kelvin Seifert Educational Psychology 2009 14-bet

Ta’lim jarayonini tashkillashtirishni o‘qituvchi amalga oshiradi. Respublikamiz hukumati ta’lim sohasida o‘rtaga qo‘yayotgan vazifalarni bajarish ko‘p jihatdan o‘qituvchiga bog‘liq. Yangi iqtisodiy siyosatga o‘tish sharoitida ta’lim-tarbiyadan ko‘zda tutilgan maqsadga erishish, o‘qituvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli e’tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o‘stirish o‘qituvchi zimmasiga yuklatilgan. O‘zining fidokorona mehnati bilan yosh avlodga ta’lim berish, tarbiyalash sifatini oshirishga hissa qo‘shayotgani ijodkor o‘qituvchilar soni yil sayin ortib bormoqda. Quyidagilar o‘qitishning asosiy didaktik vazifalari hisoblanadi: talabalarning o‘quv faoliyatini tashkillashtirish va boshqarish; ta’lim oluvchilarda ijobiy o‘qish motivlarini shakllantirish va ularning ijodiy imkoniyatlarini o‘stirish orqali o‘qishga qiziqish uyg‘otish; ta’lim oluvchilarga ishlarning turli xil usullari va o‘quv materiallarini tizimlashtirgan holda izohlab berish; o‘qituvchilarning metodik usullar va oqilona vositalardan keng ma’noda foydalanishi; ta’lim oluvchilarda mustaqil bilim olish, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda kasbiy mahoratlarini takomillashtirish; tinglovchi va kursantlarning tayyorgarlik darajasini tekshirish, ularning bilim, ko‘nikma, malaka va kasbiy sifatlarini baholash. **O‘qitishning asosiy didaktik maqsadi:** Ta’lim oluvchilarning o‘qish- bilim olish faoliyatini boshqarishdan iborat va maqsadga erishish uchun o‘qituvchi o‘zining faoliyatini bosqichma-bosqich amalga oshiradi.

**O‘qitish** – bu o‘qituvchining ko‘p qirrali, bosqichma-bosqich kasbiy pedagogik faoliyatidir. Unga o‘qituvchining konstruktiv, tashkilotchilik, tadqiqotchilik, kommunikativ va gnostik kabi turli-tuman faoliyati kiradi:

Asosiy psixologik yo‘nalishlardan boshqa biri – konstruktivizm – odamlar tajribasi bilan va faol o‘zaro faoliyati yo‘li orqali bilimlarini qurishi haqida yoritadi. Konstruktivizmning psixologik versiyasi o‘quvchilarni individual javoblari, ularning nimaga moyilligini tadqiq qilish, ularni o‘zlashtirish va moslashtirish yo‘llarini ta’kidlaydi. Konstruktivizmning ijtimoiy versiyasi ancha ekspert bo‘lib qolgan odamlar o‘quvchilar uchun yangi bilimlarni qurish imkoniyatlarini yaratish mumkinlini ta’kidlaydi. Ijtimoiy konstruktivizm o‘qituvchi roliga Blumning ta’lim maqsadlari sistematikasiga mos keladigan oldindan tayyorlangan ta’limiy rejalashtirishni kiritishi kerak, shu bilan birga o‘qituvchilar talabalarni o‘z shaxsiy ta’lim olishini nazorat qilishga undash uchun metabilishni rag‘batlantirishlari lozimligi haqida gapiradi.

## 2.3. O‘QITISHNING ASOSIY NAZARIYALARI VA MODELLARI

### 2.3.1. O‘quv faoliyatining psixologik mohiyati

1997 yilda qabul qilingan "Ta’lim to‘g‘risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida" shaxs kamoloti asosiy masala sifatida e’tirof etilgan. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov: "Iqtisodiy va siyosiy soxalardagi barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma’naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni



tarbiyalash, ta’lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg‘onish g‘oyasini ruyobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib qoladi", degan edilar. O‘quv maskani jamiyatning ijtimoiy institutlaridan biri. O‘quv maskani jamiyatning buguni emas, balki kelajakka yo‘naltirilgan rivojini belgilaydi. O‘quv maskanining maqsadi ta’lim va tarbiyadir.

O‘quv faoliyati bu shunday faoliyatki, unda shaxsning psixik jarayonlari shakllanadi va rivojlanadi, uning asosida yangi faoliyatlar yuzaga keladi. O‘quv faoliyati insonning butun hayoti davomida namoyon buluvchi uzluksiz jarayondir. Rus psixologi A.N.Leontev inson faoliyatining psixik va amaliy shakllari mavjudligini, bola ongi aynan o‘quv faoliyatida o‘sishini ta’kidlaydi. D.B.Elkonin esa o‘quv faoliyatining xususiyatlarini ko‘rsatib, uni mohiyatiga, mazmuniga va o‘zini namoyon bo‘lish shakliga ko‘ra ijtimoiyligini ta’kidlaydi. O‘quv faoliyati bu shunday faoliyatki, uning natijasida avvalo o‘quvchida o‘zgarish yuz beradi. Uning mahsuli turli motivlar asosida, qurilgan bo‘lishi darkor. Bu motivlar bevosita o‘quvchi shaxsining o‘sishi va rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. O‘quv faoliyati ta’lim, o‘qish va o‘rganish degan tushunchalar bilan bevosita bog‘liqdir. Ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligidagi o‘quv faoliyati, o‘qituvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘quvchilarga o‘rgatish jarayonidir. Ta’lim jarayoni bevosita muayyan axborotni, harakatlarni, xulq- atvorning shakllarini o‘zlashtirishga qaratilgandir. O‘qish va o‘rgatish tushunchalari o‘quv faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ular bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga, o‘rgatishga xizmat qiladi.

D.B.Elkoninning ta’kidlashicha, o‘quv faoliyatining shakllantirilishi bu faoliyat ayrim kishilar bajarilishini asta -sekinlik bilan o‘quvchining o‘ziga o‘qituvchining ishtirokisiz mustaqil bajarish uchun o‘tkazilishidir. Ta’lim jarayoni alohida tashkil etiladigan hamda boshqariladigan faoliyat bo‘lib, u o‘quvchilarning o‘quv faoliyatlarini tashkil etadi va ularni boshqaradi.

**Ta’lim jarayoni besh elementdan iborat:**

1. Ta’limning maqsadi - nima uchun o‘qitish kerak?

2. Ta’limning mazmuni - nimaga o‘qitish kerak?

3. Ta’limning metodlari, usullari va pedagogik muloqot yo‘llari.

4. Ta’lim beruvchi.

5. O‘quvchi.




Ta’lim jarayonini tashkil etish faoliyatning u yoki bu turini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun zarur bo‘lgan tashqi olamning muhim ahamiyatli xossalari xususidagi axborotning o‘zlashtirilishi: - faoliyatning ana shu barcha turlari tarkib topgan usullari va jarayonlarining o‘zlashtirilishiga; - maqsadga muvofiq keladigan usullar va jarayonlarni to‘g‘ri tanlash va foydalanishga bog‘liq.

### 2.3.2. Bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni va uning psixologik komponentlari

Zamonaviy ta’lim majburiy bo‘lar ekan, o‘qituvchilar o‘quvchilarning o‘qish uchun motivatsiya hosil qilishga ishontirish mas’uliyatini oladilar. Qanday qilib bo‘lsa ham o‘qituvchilar o‘quvchilarning qilishi shart bo‘lgan ishlarini xohlab bajarishga ko‘ndirishlari shart. Tushunish va o‘quvchilarning o‘qish borasidagi motivatsiyalariga ta’sir ko‘rsatish bu o‘qituvchining eng asosiy maqsadidir. Baxtimizga, ko‘rib turganimizdek, o‘quvchilarning tanlovini, orzu-havasini va urinishlarini hurmat qilishni amalga oshirish uchun yo‘llar bor. Motivatsiyaning o‘ziga o‘xshab uning nazariyalari ham turli-tumanlikka to‘la. Farqlardagi tafovutlarni ajratish uchun, biz bu bobni 6 ta asosiy nazariya yoki motivlar va ularning sabablariga ajratdik. Biz mavzularni xulq o‘zgarish motivlari (1), maqsad motivlari (2), qiziqish motivlari (3), muvaffaqiyat motivlari (4), ishonch motivlari (5), iroda motivlari (6) deb ataymiz. Biz yana bir mavzuni qolgan oltita nazariyadan kelib chiqqan umid – qadr nazariyasi deb ataymiz.

Botiniy va zohiriy his-tuyg‘ularni tenglashtirish haqiqiy his-tuyg‘uni sezishni buzishi mumkin. Qanday qilib o‘quvchi biror narsani his qilmasdan yoki biror hatti-harakat amalga oshirmasdan biror ish qilishi mumkin. Huddi biz tushuntirganimizdek, bu jiddiy savol o‘rganishning ahloq nazariyalaridan ko‘ra ilmiylikka asoslanadigan bir qancha motivatsiya modellariga ega. Biz keyinroq bu bobda bulardan bir qanchasini tushuntirib beramiz. Uni tushuntirishdan oldin, biz sizni harakterning motivatsiyadagi istiqbolining foydalarini o‘ylashingiz uchun ruhlantiramiz.

Ba’zida ichki motivatsiya va tashqi ahloqni farqlashni o‘rganish uchun o‘qituvchilarning moddiy ahvoli cheklangan. Albatta, o‘qituvchilar motivatsiyaning ba’zi turlaridagi bir qancha farqlarni farqiga borishadi. Lekin, ko‘plab o‘qitish talablari harakterning ma’nosini tushuntirib berishga ketadigan vaqtni cheklab qo‘yadi. Agar biror bir talaba muhokamalar davomida bir qancha savollar so‘rasa, misol uchun, qiz yoki o‘g‘ilni materialni o‘zi qiziqtiradimi, yoki o‘qituvchisi va sinfdoshlarining oldida o‘zini aqlli ko‘rsatishni xohlaydimi? Sinfdagi ko‘p o‘quvchilar va dars jadvali tufayli o‘qituvchilar uchun bu ehtimolliklarni muhokama qilishga vaqt bo‘lmasligi mumkin. Boshqa sabablardan, muammo o‘quvchi bilan bo‘ladigan muloqotning chegaralanganligida bo‘lmasligi mumkin. Faraz qilaylik o‘quvchi hali ham ingliz tilini o‘rganayotgan, yoki o‘qituvchi uchun notanish bo‘lgan tegishli bo‘lgan shaxs, yoki o‘qituvchi bilan bir umumiy tili bo‘lmagan kimsa bo‘lishi mumkin. Shu sababli o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini farqiga borish ko‘p vaqt va malaka talab qiladi.



Ta’lim va ta’lim jarayonida bolani rivojlanish muammosi psixologik markaziy masalalardan biridir. Ta’lim va rivojlanish muammosiga doir qator nazariyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ulardan biri: 1.Aqliy hatti-harakatlar, bilimlar, malaka va ko‘nikmalarni bosqichma- bosqich rivojlantirish nazariyasi (P.Ya.Galperin).

**P.Ya.Galperin nazariyasi bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni olti bosqichni boshidan kechirib**, ularga:

1. Motivatsiya.
2. Tushuntirish.
3. Moddiy formadagi hatti-harakatlarni bajarish.
4. Baland ovozda hatti-harakatlar va vazifalarni bajarish.
5. Bajariladigan hatti-harakatlarni ichki rejada ovoz chiqarmay bajarish.
6. Faoliyatni fikran bajarish kiradi.

Ushbu nazariyada ta’limning uchta asosiy turlari ajratiladi: - birinchi turda - hatti-harakatlarni o‘zlashtirish xatolar bilan kechadi, berilayotgan material yetarli darajada anglanilmaydi, ta’lim oluvchi ta’limning asl mohiyatini tushunib yetmaydi; - ikkinchi turda - materialni nisbatan dadil va to‘la tushunilishi va material bilan bog‘liq tushunchalarni ajratilishi bilan xarakterlanadi; - uchinchi tur - tez, samarador va bexato hatti-harakatlarni o‘zlashtirilishini ta’minlab beradi.

**V.V.Davidov nazariyasi**. Ushbu nazariya kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirilishini targ‘ib qiladi. Bunda



o‘quvchilar tomonidan ta’lim jarayonida nazariy tushunchalar tizimini o‘zlashtirilishi lozim bo‘lib, bu o‘z o‘rnida xususiydan umumiy bilimlarga o‘tilishni ta’minlaydi. Qator nazariyalar muammoli ta’lim bilan bog‘liq bo‘lib, L.V.Zankov va A.M.Matyushkin tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ta’limda muammoli darslarni tashkil etishga qaratilgandir. Ta’limning psixologik asoslari muammosi ko‘pgina masalalarni qamrab oladi. Ta’limning muvaffaqiyati bir qator psixologik omillarga bog‘liq bo‘ladi. Avvalo o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan munosabatiga to‘xtaylik. Bu munosabat diqqatda, his-tuyg‘ularda, qiziqishlar va irodada, shuningdek, shaxsning tutgan yo‘lida namoyon bo‘ladi.

## 2.3.4. Ta'lim berish jarayoni - emotsional jarayon

Ta'lim jarayoni avvalo o'quvchilar diqqatini yo'lga solishni talab etadi. Darslarda ko'rgazmali qurollardan, texnik va EXM vositalaridan foydalanish ta'lim oluvchida ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiradi. Ta'lim jarayonida ta'lim beruvchining vazifasi darsda ishlash holatini yuzaga keltirishgina emas, balki o'quvchilarning darsda o'tiladigan materialini idrok etishga tayyor turishlarini kuzatish hamdir. Dars jarayonida o'quvchilarning diqqati o'zgarib turadi. O'qitish jarayonida bu qonuniyatlarni nazarda tutish va o'quvchilar diqqatini materialning asosiy jihatlariga jalb etish hamda ularni takrorlash kerak. Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan beriladigan ko'rsatmalarga ham bog'liq. O'qituvchining roli shundan iboratki, u o'quvchilarga tegishli ustanovkani hosil qilishi, nimani vaqtincha, nimani umrbod esda olib qolishi kerakligini, nimani butunlay esda olib qolmasdan, faqat tushunib olish kifoya qilishini, nimani so'zma-so'z esda olib qolishni, nimaning ma'nosini o'z so'zlari bilan aytib berish uchun esda olib qolish zarurligini ko'rsatib o'tishi lozim. Kuzatishlar ko'rsatadiki, bunday ko'rsatmalar berilmaganda, o'quvchilarda ko'pincha noto'g'ri tasavvurlar vujudga keladi.

O'z foydalilik ko'rsatmasi nazariyasi shuki motivatsiya mazmunining bo'shlig'ida motivatsiya jarayonining to'liqligiga urg'u beradi. O'z foydalilik asosi modeli hulqqa qay holda ta'sir qiluvchi tegishli narsalar haqida aytishga to'g'ri keladi, ammo ko'pchilik aytadiki tegishli narsalar va vazifalarni o'quvchilarda eng zo'r boshqarish yoki ularda qoniqish ro'y beradi. Bu savolga javob topish juda ham muhim bo'lib o'qituvchilarga hozirgacha muammo bo'lib kelmoqda.

Bunga aloqador sabablarning yo'li so'ralganda ko'pchilik psixologlar inson o'z foydaliligidan qoniqmaydi ham rohatlanmaydi deb aytishadi. Balki bu motivatsiya ular uchun yetishmaslikni olib keladi deb xulosa qilishadi.

**Motivatsiya o'zini iroda qilish sifatida.** Oddiy sezgi shuni tasdiqlaydiki, insonlarning motivatsiyasi ichki muhtojlikning bir necha xilida paydo bo'ladi. Biz hammamiz o'zimizga kerakli turli xil muhtojliklar haqida o'ylaymiz, misol, ovqat, hamkorlik uchun ehtiyoj - bizni tanlovlarimiz va harakatlarimiz ta'sir etuvchilar. Motivatsiyaning bir necha bo'limlari aniq g'oya bo'lsa ham unutilish

yoki urg‘u berishga ehtiyoj hosil qiladi. Misol uchun 2 – bo‘limda uning ierarhiyasi insonlarning juda ko‘p ehtiyojlari o‘sishiga urg‘u beradi va undan insonlarni qoniqmaslik darajasini ham aniqlaydi. Maslouning nazariyasi boshqa konsepsiyalardan farqi shunda ediki, ehtiyoj so‘ngi talab yoki his qilishning yordamga yoki qoniqishga uzoq vaqt davomida harakatni ta’sirga odatlangan ko‘rinishini hosil qilish edi. Ba’zi ehtiyojlarga ochlikka o‘xshaganlari




qoniqishda kamayadi ammo boshqalarida bilimga qiziqish kamaymaydi.

Motivatsiyaning yaqinda yuzaga kelgan nazariyasining o‘zini iroda qilishga ehtiyoji asoslanadi. Buni Edvard Dechi va Richard Ryan kabi psixologlari asoslaydilar. Bu nazariyada shu narsa taklif qilinadiki **motivatsiyani tushunishni 3 bosqichga bo‘linishini talab qildi**:

- avtonomiya – hulqda tashqi majburlikning erkin his qilishning ehtiyoji;
- iste’dod – mahoratli yoki uddalay olishni his qilish ehtiyoji;
- qarindoshlik – boshqalar bilan bog‘langan yoki inkor qilingan hissiyotlarga ehtiyoj.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilishga qiziqishlari g'oyat katta rol o'ynaydi. Ma'lumki, qiziqish o'quvchilarning emotsional bezagi, biror buyumni, biror faoliyatni tanlash munosabati va yo'nalishidir. Ma'lumki, psixologiyada qiziqishning ikki turi o'quvchilarning ta'lim jarayonida aniqlanadi. Birinchisi, bevosita qiziqish, ikkinchisi bilvosita qiziqish. Har bir o'qituvchi o 'z o'quvchilarida o'z faniga nisbatan bilvosita qiziqishni tarkib toptirishga harakat qiladi. Qiziqishlar orqali o'quvchilarda ta'limga aktiv munosabat namoyon bo'ladi. Psixologiyada qiziqish - bu shaxsning o'zi uchun qimmatli yoki yoqimli bo'lgan muayyan narsa yoki hodisalarga munosabatidir. Qizikishlar shaxsning muhim va individual xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Qiziqishlar o'quvchilar hayotida katta rol o'ynaydi. Ular o'quv faoliyatini faollashtiruvchi asosiy turtkilar - motivlaridir. Qiziqishlar ta'lim maskanlari o'quvchisiga fan asoslarini durustroq o'zlashtirib olishlariga, aqliy qobiliyatlarning o'sishiga, bilim doirasining kengayishiga imkon beradi. O'qituvchilarning vazifasi o'quvchini dastlab qiziqtirib qolgan ishning o'zi bilan shug'ullanishga majbur qilish emas, balki undagi qiziqishlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, ta'sirchan qilish, qiziqishlarining markaziga aylanib qolgan faoliyat bilan shug'ullanish istagiga, mayliga aylantirishdir. O'quvchilarning muayyan maqsadni ko'zlab ish tutishida, qiyinchiliklarni yenga olishida, ishdan chalg'itadigan narsalar bilan shug'ullanishdan o'zini tiya olishida, unda o'qishga ishtiyoq tarkib toptirishda namoyon bo'ladigan iroda ta'lim jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Umumiy psixologiya kursidan ma'lumki, iroda bu shaxsning o'z oldiga qo'ygan maqsadining aniqligi, uni amalga oshirish uchun intilishi, maqsad yo'lida ma'lum bir qarorga kelish tezligi va uni o'z vaqtida ijro etishi bilan belgilanadigan sifatidir.

Ta'lim jarayonida o'quv materialiga bo'lgan diqqatning barqaror bo'lishida irodaviy zur berishning ahamiyati nihoyatda kattadir. Ta'limda iroda o'quvchida o'quv maskani va uyda o'tkaziladigan mashg'ulotlarga tayyor turishda namoyon bo'ladi. O'quv materialini o'rganish, eslab qolish va o'quvchining irodaviy zo'r berishganiga bog'liq. Iroda o'quvchilarning fikrlash faoliyatlarida - masalani yechishga, qo'yilgan savolga javob topishga va hokazolarga intilishida namoyon bo'ladi. Ular o'quvchilarda ko'nikma va

malakalarni hosil qilishda ham tarkib topadi. Psixologlar olib borgan tadqiqotlarda o‘quvchilar tomonidan berilgan materialning o‘zlashtirilishi ko‘p jihatdan irodaning tarbiyalanishiga bog‘liqdir.




Irodaviy aktivlik ta’limning  zarur shartidir. Ta’lim muassasasidagi ta’lim jarayonining o‘zi o‘quvchilardan irodaviy o‘stirish omillaridan biridir. Bunda o‘quvchilarning kundalik rejimi, o‘qish va oqilona dam olishni bir-biri bilan to‘g‘ri almashtirib turish katta rol o‘ynaydi. Ta’lim jarayonida bilish jarayonlarini shakllantirishga alohida e’tibor berish lozim. Zero, bilish jarayonlari juda murakkab faoliyat bo‘lib, unda jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga, abstrakt tafakkurdan amaliyotga o‘tiladi, ana shundan so‘ng ob’yektiv haqiqat bilib olinadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, idrokni tarkib toptirishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish nihoyatda muhimdir. Chunki, fazoni, vaqtni va harakatlarni idrok etishda ham yosh xususiyatlarda turli farqlar mavjud bo‘ladi.

Ta’lim olish jarayoni insondagi motivlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, uning mohiyati - inson xulq-atvorining ichki barqarorligi, harakatga undovchi tushunchada ifodalanadi. Motivatsiya esa xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni bo‘lib, unga tashabbus, yo‘nalganlik tashkilotchilik, qo‘llab- quvvatlash kiradi. Ta’lim jarayonida o‘qish motivlari "nima uchun?", "nimaga?", "qanday maqsad bilan?" kabi savollar asosida yuzaga keladi. Motivlar birinchidan, o‘quv faoliyatiga undasa, ikkinchidan,

maqsadga erishish uchun zarur yo‘l va usullar tanlashga yordam beradi. O‘quv faoliyatida o‘quv motivlar o‘quvchilar tomonidan tanlanib, ular o‘quvchining maqsadi, qiziqishi, kelajak rejalari bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda o‘quv motivlari turli yosh davrlarida turlicha bo‘ladi. O‘quv faoliyati motivatsiyasining manbalari mavjud bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi: 1. Ichki manbalar. Ular insoniy tug‘ma yoki orttirilgan ehtiyojlari bilan belgilanadi. Ulardan eng muhimi tug‘ma informatsiyaga bo‘lgan ehtiyojdir. Orttirilgan ehtiyojlar esa gnostik va ijtimoiy, ijobiy ehtiyojlar hisoblanadi. 2. Tashqi manbalar. Ular shaxsning ijtimoiy hayot shart-sharoitlari bilan belgilanadi. Imkoniyatlar - shaxs faoliyatini belgilovchi ob’yektiv shart-sharoitlardir. Masalan, bolaning undan boy kutubxona uni kitob o‘qishga undaydi. 3. SHaxsiy manbalar: bu shaxsning qadriyatlari sistemasi ustanovkalari g‘oyalaridir. Bu manbalar har bir shaxs faoliyatida u yoki bu darajada mavjud. Ularning barchasi faoliyatning ketishiga ta’sir etib ta’lim jarayonining motivatsiyasini tashkil etadi.



**V.A.Krutetskiy** o‘spirinlarda uchraydigan motivlarning quyidagilarni alohida ifodalaydi: a) Biror o‘quv faniga qiziqish; b) Vatanga foyda keltirish istagi; v) SHaxsiy qobiliyatini ro‘kach qilish; g) Oilaviy an’analarga rioya qilish; d) Do‘st-birodarlarga ergashish; e) Moddiy ta’minlash va hokazolar.

Bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni va uning psixologik komponentlari Ta’lim jarayonining natijasi o‘zlashtirish, ichki va tashqi faoliyatni maqsadga muvofiq ravishda o‘zgartirishdir. Ta’lim bir odamning boshqasiga bilim va ko‘nikmalar berishidir. Bilim, ko‘nikma va malakalar ta’lim jarayonining natijasidir. Bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni muammosi P.Ya.Galperin va N.F.Talizina tomonidan o‘rganilgan. Ular aqliy hatti- harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasini ishlab chiqqanlar. Mualliflar aqliy hatti-harakatlarni moddiy xolda tashqi nutq yordamida hamda aqliy shaklda, fikrda namoyon bo‘lishini izohlab berdilar. Aqliy hatti- harakatlarning birinchi bosqichi rasm,

sxema, diagramma va shartli belgilar tarzida uz ifodasini topadi. Aqliy hatti-harakatlarning ikkinchi bosqichi ko‘rgazmalardan olgan tasavvurlari to‘g‘risida o‘quvchilarning ovoz chiqarib, fikr yuritishidan iboratdir.

Uchinchi bosqich esa, sub’yekt ongida tasavvur, tushuncha, qonuniyat, xossa, xususiyat, operatsiya, usul tariqasida namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, o‘quvchilarga taqlif etiladigan axborotlar aql bovar qilmaydigan darajada tezlik bilan ko‘payib bormoqda. Shuningdek, ularning juda tez eskirib qolib, yangilashni taqozo etishi ham o‘z-o‘zidan ma’lum bo‘lmoqda. To‘rtinchi bosqichda bajarilgan hatti-harakatlar ichki rejada ovoz chiqarilmay bajariladi. Beshinchi bosqichda esa faoliyatni fikran bajarishga o‘tiladi. Bundan ravshan ko‘rinib turibdiki, materialni asosan yodlab olish va xotirada saqlab qolishga asoslanadigan ta’lim xozirgi talablarga qisman javob bermoqda. O‘quvchilarga hamisha yangilanib turadigan axborotni mustaqil ravishda o‘zlashtirib borishga va o‘qishni bitirib ketganidan keyin, kishiga jadal sur’atlar bilan o‘sib borayotgan fan-texnika taraqqiyotidan orqada qolib ketmaslik imkoniyatini beradigan qobiliyatlar taraqqiyotini beruvchi tafakkur sifatlarini tarkib toptirishi muammosi birinchi o‘ringa chiqib bormoqda.

### 2.3.5. O‘qish faoliyatini boshqarish

**Ta’lim jarayonida o‘zlashtirishning muvaffaqiyati quyidagilarga bog‘liq:** 1. Ta’lim mazmuniga. 2.O‘quv rejalari, dasturlari, dasrliklar va o‘quv qo‘llanmalarining mavjudligiga; 3. Ta’lim metodikalarini takomillashganligi; 4. O‘qituvchi mahoratiga; 5. O‘quvchining individual psixologik xususiyatlari. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, turli individual tipologik xususiyatlarga ega o‘quvchilar uchun ta’limning yagona, qulay, optimal sharoitlarini yaratish mumkin emas. Ammo o‘zlashtirishning samaradorligini oshirishda muammoli ta’lim, noan’anaviy ta’lim usullarini qo‘llash muhim ahamiyatga egadir. Ta’lim oluvchilarning ta’lim faoliyatiga ko‘ra ta’limning quyidagicha metodlari ajratiladi: 1. Tushuntiruv-ko‘rsatmalilik metodi - bu metod reproduktiv metod bo‘lib, unda faoliyat o‘qituvchi tomonidan olib boriladi. O‘quvchilar ta’lim jarayonida bilim oladilar, tanishadilar. Bu metod juda keng tarqalgan metodlardan biri bo‘lib, uni takomillashtirilgan usullari mavjud, bu -

programmalashtirilgan ta'limdir. 2. Reproduktiv metodda o'quvchi faoliyat ko'rsatib, unda o'quvchiga berilayotgan bilimni qayta xotirada tiklab, olingan bilimni nusxa sifatida qabul qiladi. 3. Muammoli ta'lim metodi - o'qituvchi tomonidan tashkil etilib, u produktiv xarakterga egadir. Ushbu metod orqali o'quvchi bilim va malakalarini shakllantiradi. Ushbu metodning takomillashtirish yo'llaridan biri ishchan o'yinlarni tashkil etishdan iboratdir. 4. Qisman izlanish metodi. O'qituvchi nazorati ostida tashkil etiladigan metod bo'lib, u produktiv xarakterga ega, bunda o'quvchi ijod qiladi. 5. Tadqiqot metodi. O'qituvchi ilm yordamisiz tashkil etiladigan ta'lim metodi bo'lib, u o'quvchining mustaqil izlanishi, fikrlashi va bilimlar transformatsiyasini talab etadi. O'qituvchi o'zining pedagogik vazifalarini bajarishda o'quv materiallar turlarini tizimlashtirish uchun maqsadli shakllar, samarli usullar, oqilona uslublar va ta'limning kengroq maqsadga yo'naltirilgan vositalaridan foydalanadi. Shunday qilib u ta'lim oluvchilarni o'quv materialini qabul qilishga tayyorlaydi, ularni to'liq mutaxassislik va o'quv fanlariga kasbiy qiziqishi va bilish faolligini rivojlantiradi. Bir vaqtning o'zida o'qituvchi tinglovchi va kursantlarning mustaqil ravishda bilimlarga erishishlarini, shuningdek, oldilarida turgan kasbiy faoliyatdagi ko'nikma va malakalarni egallashga o'rgatadi. U ta'lim oluvchilarning ishlarini tahlil qiladi, o'zining pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy baholaydi va dasturiy materiallarni o'zlashtirishni tekshirishni amalga oshiradi. Bu kompleks o'zaro bog'liq vazifalarni hal etishda o'qituvchi o'quv- tarbiyaviy jarayonda, tashkilotchi va tarbiyachi, pedagog sifatida namoyon bo'ladi.

Strategiyalardan birini o'qituvchilar ko'pincha foydali deb bilishadi, u o'qituvchilarga samarali o'quv tadbirlarini tanlash va ishlab chiqish, o'quv mazmunini tizimli tashkil etish imkonini beradi. Ta'lim jarayonini tashkil etishda keng qo'llaniladigan ramka(chegara)lardan biri, masalan pedagog Bendjamin Blum tomonidan taklif etilgan tasniflash sxemasidir. U ta'limiy maqsadlar taksonomiyasi degan ancha salmoqli nom bilan ataladi.

(Blum va boshq. 1956. Anderson&Krathwohl, 2001). **Blum taksonomiyasi**, buni odatda shunday atashadi, ta'lim maqsadlarining olti turini yoritadi, oddiy bilimlar taqrizidan boshlab, bilimlarni kompleks baholashgacha

o‘qituvchilar talabalardan nimani kutishi mumkinligi haqida ma’lumot beriladi. Blum taksonomiyasi talabalarga muhim bilimlar turlari o‘rtasida foydali farqlarini ishlab chiqadi, demak xaqiqatdan ham talabalarning “yaqin rivojlanish zonasi”ga yo‘naltirilgan faoliyatni tanlashga yordam beradi.

Biologiya bo‘limida bir qancha o‘rganilgan atamalarni biladigan talaba (Blumda bilim va suxbat darajalarini tushunish muammosi), masalan, turlar o‘rtasidagi foydali solishtirishlarni amalga oshirishdan oldin (Blum taxlili darajalari), avvalo shartlarni eslab qolish va ta’riflashda qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘ladi. Maqsadni aniqlash, ushbu maqsadga erishish uchun to‘g‘ri keladigan o‘quv tadbirlarini tanlash ekspert o‘qituvchilarning ishidir. Ijtimoiy konstruktiv atamalarni kiritib, o‘qituvchi yaqin rivojlanish zonasini tashkil qiladi, bu talabaga turlarni muvaffaqiyatli solishtirish imkonini beradi, lekin talaba yana u uchun solishtirishni qurishi yoki o‘zlashtirishi kerak.

2.1-jadval. Blum ta’limiy maqsadlar taksonomiyasi: Kognitiv soha.

| **Tafakkur kategoriyasi yoki tipi** | **Ta’rif** | **Misol (o‘zgarishlar bilan Zlatovlaska va uning do‘stlari!)** |
|---|---|---|
| Bilim | Faktlarni, ma’lumotni yoki bajariladigan ish tartibi (protsedura) eslash | Ro‘yxatda uch narsa Zlatovlaska uchta ayiqlar uyiga kirdi |
| tushunish | Faktlarni tushunish, ma’lumotni izoxlash, talqin qilish (interpretatsiya) | Nima uchun Zlatovlaskaga kichik ayiqning stuli yoqqanini tushuntiring, eng yaxshi. |
| Talabnoma | Tushunchalarni yangi vaziyatlarda qo‘llash, aniq masalalarni echish | Zlatovlaska foydalanishi mumkin bo‘lgan ba’zi narsalarni oldindan bashorat qiling, agar u o‘zining uyiga kirsa ... |
| Tahlil | Ma’lumot, Konsepsiya yoki bajariladigan ish tartibi (protsedura) qismlarini farqlang. | Voqeaning Zlatovlaskaga ancha qulay bo‘lib tuyilgan qismini tanlang |
| Sintez | Element yoki qismlarni yangi ob’yekt, g‘oya yoki bajariladigan ish tartibini (protsedura) birlashtiring. | Voqea boshqacha bo‘lganida nima bo‘lar edi, aytib bering, agar uchta baliq bo‘lganida |
| Baholash | Baholash, g‘oya, ob’yekt, yoki aniq vaziyatdagi materiallarni baholash | Zlatovlaska yomon qiz deb hisoblaysiz, pozitsiyangizni asoslang |

Ikkinchi strategiya birinchisi bilan birlashtirilishi mumkin. Qanday qilib talabalar talaba sifatida mexnat tajribasiga ega bo‘ladilar, ular qanday qilib o‘zlari yaxshiroq ta’lim olishlari mumkinligi haqida o‘ylash qobiliyatiga ega bo‘lib boradilar, ularga ta’lim berish maqsadlaridan biri sifatida bunday refleksiyaga siz (o‘qituvchi sifatida) turtki bo‘lasiz. Bu o‘zgarishlar talabalar ta’lim olishini tashkil etish bo‘yicha sizning ba’zi vazifalaringizni ularga yuklash imkonini beradi. Talabaning biologiyasi uchun, yuqorida eslatilgan, misol uchun, siz nafaqat solishtiruvchi turlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tadbirlarni rejalashtirish, balki talaba uchun bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan holda u yoki bu ma’lumotni egallash yo‘llarini ishlab chiqishingiz kerak. O‘z-o‘zini baholash va ta’lim olishni mustaqil yo‘naltirish natijasi ko‘pincha metabilish (metapoznanie) nomi ostida chiqadi. Metabilish – o‘z shaxsiy tafakkurini o‘ylash va boshqarish (nazorat qilish) qobiliyati demakdir (Izrail, 2005). Metabilish ba’zan talabalar uchun murakkab bo‘lishi mumkin, uni egallash, ammo bu ijtimoiy konstruktiv ta’lim uchun zarur maqsad, chunki u asta-sekin o‘quvchilarni tajribali o‘qituvchilarga bog‘liqlikdan xalos etadi, ularning ta’lim olishini yo‘naltirish uchun. O‘quvchilarning chiroqlari, aytish mumkinki ularning ekspertlari bo‘lib qoldi. Blum taksonomiyasi singari metabilish va mustaqil ta’lim olish ham o‘ta muhim hisoblanadi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchining mustaqil ta’lim olishini faollashtirish zarur. Mustaqil ta’lim masalani qo‘yilishi, yechish, o‘z-o‘zini nazorat va baholashning yo‘llarini o‘quvchi tomonidan tanlanishi va bajarilishi bilan harakterlanadi. O‘quvchilarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun fikrlash xususiyatlarini shakllantirish zarur. Fikrlash operatsiyalari asosida dars jarayoni faollashtiriladi. Bu o‘qituvchining: «Nima uchun?», «Qanday maqsadda?», «Sabablari qanday?», «Natija nima uchun shunday bo‘ldi?» singari savollarning muhokamasi orqali amalga oshirilishi mumkin. O‘qituvchilarni evristik, muammoli vaziyatlarga tortish, tanqid, gumon holatlarini muhokama qilish, ulardagi muammolarni mustaqil xolda topish va ularni yechish uchun o‘z loyixalarini tuzish va himoya qilish o‘quvchilar tafakkurining ma’nodor va unumdor bo‘lishiga xizmat qiladi. Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har

bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o‘rganmasa, berilgan ta’lim samarasi past bo‘lishi muqarrar.

Mustaqil fikrlash ham katta boylik. Hozirgi zamon o‘quv muassasalarining vazifasi yosh avlodni mustaqil fikrlashga o‘rgatishdir. Albatta, fikrlashda ham individual farqlar mavjud. Fikrlashni bilish - bu insonning aqlidir. Aqlning quyidagi sifatlarini ajratish mumkin: 1. Mazmundorlik (boyligi, chuqurligi, hukmga boyligi). 2. Fikrlashning kengligi (keng va tor) va chuqurligi, nazariya va amaliyotning uzviyligiga bog‘liqdir. Amaliyot, hukmning to‘g‘riligi mezonidir. 3. Fikrlashning mustaqilligi - umumiy tajribani qo‘llay olish, shaxsiy fikrga ega bo‘lishi, tajribaga munosabat bildirish. 4. Aqlning tashabbuskorligi. 5. Aqlning egiluvchanligi, vazifani standart yechishdan qochish. 6. Aqlning tanqidiyligi, uz ishini aniq baholay olish, uni o‘lchash. 7. Aqlning maxsuldorligi. 8. Fikrning ketma-ketligi. 9. Tafakkurning tezligi. Aql haqida ayrim olimlar va arboblarning fikrlari keltirilgan. "Ulug‘ aql egalari o‘z oldilariga maqsad qo‘yadilar, qolgan odamlar o‘z istaklari ortidan ergashadilar" (Vashington Irving). "Aql - bu yaxshi tashkil etilgan bilimlar tizimidir» (K.D.Ushinskiy). Yuqorida aytib o‘tilgan barcha sifatlar yosh o‘zgargan sari o‘zgarib boradi. Ijodiy ishda fikrlashning mustaqilligi va tanqidiyligi zarur bo‘lib, u aqliy faoliyatning produktivligini ta’minlaydi.

O‘qitishning emotsionalligi ta’limning muvaffaqiyatliligini ta’minlovchi omillardan biridir. Ta’lim berish jarayoni emotsional jarayon. Agar o‘quvchilarga berilayotgan axborot ularda hech qanday his-tuyg‘u uyg‘otmasa, uni o‘quvchilar yaxshilab esda olib qolmaydilar. Gap o‘quvchilarning psixik holatlari, ya’ni ularning muayyan bir paytdagi kechinmalari haqida ham borishi kerak, albatta. Ulardagi quvonchli, optimistiq kayfiyat o‘quv faoliyatini juda samarali qiladi. O‘quvchilar emotsional ruhdagi materialni durustroq o‘zlashtirib oladilar. O‘tkazilgan tajribalar o‘quvchilar hech qanday his-tuyg‘u uyg‘otmaydigan materialga qaraganda, emotsional ruhdagi materialni yaxshiroq eslab qolishlarini ko‘rsatadi. O‘qituvchi o‘quv jarayonining emotsional tomoni haqida g‘amxo‘rlik qilishi kerak. Bu muammo juda muhim ahamiyatga ega. Chunki, birinchidan, ta’limning mazmuni nihoyatda murakkablashib, hajmi esa g‘oyat kattalashib ketgan. Uning muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga erishish uchun

o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini kuchaytirishi lozim. Ijobiy tuyg‘ular o‘quv mehnatining samaradorligiga kuchli ta’sir etadi. Hafsala bilan bajarilgan beg‘araz munozara paydo bo‘ladi, bahslashiladi, befarq qaragan yoki undan ham beshbattar, salbiy munosabatda bo‘lishgan ishga esa hech qanday xafsala bo‘lmaydi. Jamiyatimizdagi mehnat - ijod, quvonch manbai. O‘quv maskani o‘quvchilarida o‘quv mehnatiga ijodiy munosabat uyg‘otib, mehnatning haqiqiy ijodga, quvonch manbaiga aylanishiga ko‘maklashishi kerak. Topshiriqning yuqori samaradorligi nafaqat shaxsni qaysarligini oshiradi, balki shuningdek qobiliyatlarini rivojlantirishda, stresli holatlardan chiqishda quyidagi omadsizlikdan qutulishda yordam beradi. Tasavvur qiling, sizda ikkita topshiriq bor: biri insho, ikkinchisi ilmiy laboratoriya hisoboti bir kunda va oxirgi sanaga yaqinlashganiz sari o‘sha vaziyat hayotingizni yanayam zarur band qiladi. Agar ikkala topshiriqni bajara olishingizga ishonsangiz siz o‘zingizdagi stresni yengishni uddasidan chiqqan bo‘lasiz. Siz shuningdek omadsizlikdan ham qutulgan bo‘lasiz.

Bu yaxshi yangilik. Yomon tomoni, eng kamida o‘qituvchingizni nuqtai nazaridan bir hil ruhiyat ba’zida ilmiy bo‘lmagan maqsadlarga ham xizmat qiladi. Qanday qilib? Maktab topshiriqlar o‘rniga bir kunda talabada faqatgina bitta maktab topshiriq berilgan, ammo shuningdek unda yarim stavkali kechqurungi ish ham bor mahalliy restorandagi xizmatchi sifatida. Uni ustiga o‘quvchida ikkala topshiriqqa bo‘lgan yuqori samaradorlik bor. U ishlashi davomida topshiriqni bajarishga qobiliyati borligiga ishonadi. Shunday ruhiyatda ishonchning natijasini kuchli e’tiborda ko‘rishimiz mumkin.

**Yordamga muhtojlikni va samaradorlikni o‘rganish.**

Agar shaxsni o‘ziga nisbatan samaradorligi ishonchi past bo‘lsa, unda yordamga muhtojlik kuchayib boradi. Bu ko‘proq depressiyaga yaqinroq. Psixolog Martin Seligman (1995-y.) yordamga muhtojlikni o‘rgangan. Tadqiqotlar davomida tushkunlik hayvonlarda ya’ni kalamush va kuchuklarda o‘tkazildi. Qafasda takroran ularga ruhiy zarba berildi. Jarayonning keyingi bosqichida holat bir muncha o‘zgardi. Hayvonlar qafasning bir joyidan boshqa joyga qochishdan o‘zlarini chetga oldi. Ammo birozdan keyin bunday qolishni to‘xtatishdi. Seligman bunday harakatni yordamga muhtojlik deb nomladi.

Odamlarda yordamga muhtojlik muammolar bilan shug‘ullanishda turli hil xarakter yo‘llariga olib boradi. Ular muammoni manbayini, sababini qidirishni boshlaydilar, hayotiy muammolarni umumlashtirib ularni vaqtinchalikmi yo davomiy ekanligini ko‘rishlari kerak. Optimist shaxslar ularga qarama-qarshi sifatida muammoni tashqaridan hal qilishga ishonishadi.

Idrok haqidagi farqlar haqida diqqatga sazovor so‘zlar shundan iboratki, ushbu idroklar qancha kelajak uchun umidli bo‘lishga yuqori darajada samarali bo‘lib o‘xshasa, shuncha yordamga muhtojlik undan farq qiladi yoki qarama qarshilikni ifodalaydi. Allaqachon yuqorida aytib o‘tilganidek, o‘ziga bo‘lgan samarali ishonch biror kishi tomonidan o‘ziga berilgan ishni muvaffaqiyatli bajarishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu mazmundan kelib chiqadiki, o‘ziga bo‘lgan ishonch diqqatni vaqtinchalik yoki chegaralangan vaqtga nisbatan qo‘llanadi, xattoki muvaffaqiyatga erishish biror kishi tomonidan ichki hisoblangan holda ham. Ustozlar talabalardagi yordamga muhtojlikni pasaytirishlari mumkin, buning uchun ular o‘ziga ishonchlilik hissini ruhlantirishlari kerak. Bu yerda biz keyin tushuntiradigan bir qancha ushbu ishni amalga oshirish yo‘llari mavjud.

**O‘z kuchiga ishonish samaradorligi**

O‘z kuchiga ishonish samaradorligini o‘rgangan psixologlar to‘rtta ushbu holatni keltirib chiqaruvchi manbalarni muhimligiga qarab asoslab beralar:

1) vazifalarni bajarishdagi muhim ko‘nikmalar;

2) boshqalarning vazifalarni bajarishini kuzatish;

3) boshqalardan xabar olish yoki ularni ko‘ndirish;

4) noqulaylikka bog‘liq bo‘lgan his-tuyg‘ular.

Asosiysi shundan iboratki, birinchi 3ta jarayon ustozlar tomonidan singdirilishi mumkin, xattoki 4- manbani ham ustozlar va boshqalardan sharhlar va maslahatlar olgan holda qo‘lga kiritish mumkin.

**Mohirlikning muhim ko‘nikmalari.**

Hammaga ayonki, oldingi muvaffaqiyatlar talabalarni kelajakda muvaffaqiyat qozonishlariga turtki bo‘ladi. Bu holatga urg‘u shundan iboratki, ustozlar talabalarning muvaffaqiyatlar tarixini qurishga yordam berishlari kerak. Bu muammolar matematika muammolari, o‘qishlarni baholash, jismoniy

faoliyat kabilar muvaffaqiyatsizlikdan ko‘ra omadli yakun topgani ma’qul. SHunga qaramay, muvaffaqiyat raqobatdoshlik va o‘ziga xoslik holatini mohirlik bilan namoyish etishlari kerak. Muhim bo‘lmagan yoki bog‘liq bo‘lmagan muvaffaqiyatlar o‘ziga xos samaradorlikni ta’minlab bermaydi, yoki talabalarga biror narsani yaxshilashda imkon bermaydi.



Amaliy muammolardan biri bo‘lib ajoyib muvaffaqiyat tarixini yaratishga talabalarni ustozlar tomonidan ishontirish hisoblanadi. Yosh talabalar (boshlang‘ich yoshdagi) maxsus holatlarda chegaralangan yoki qisman “O‘tmish amaliyoti”ga nima qo‘shilishini biladilar; ular o‘zlari biladigan bir qancha muvaffaqiyatga erishish yo‘llarinigina biladilar. Kattaroq talabalar( o‘rta maktab) o‘zlarinin shaxsiy “ o‘tmishlar”ini yaratishadi, bunga xotiradagi rivojlanishlar hamda shaxsiy tarixni haqiqiy uzoq vaqt saqlash orqali erishishadi. Istalgan yoshdagi talabalar ishlashning mohiyati shundan iboratki, talabalarni o‘zlariga samarali ishonishlarining faqatgina tanlangan yoki eng so‘nggi ko‘nikmalarini emas, balki barcha bog‘liq hodisalardan to‘g‘ri foydalanishlariga ishontirishdan iborat.

**Boshqalarning vazifalarni boshqarishini kuzatish.**

O‘ziga ishonish samaradorligining ikkinchi manbasi sifatida boshqalarning vazifalarni boshqarishini kuzatishdan yoki boshqalar muvaffaqiyatini kuzatishdan kelib chiqadi (Shunki, Zimmerman, 1997). Boshqacha aytganda, boshqalarning muvaffaqiyatga erishishini kuzatish sizni ham muvaffaqiyatga erishishingizni ta’minlashi mumkin. Ushbu kuzatishning natijasi kuzatuvchi tomonidan ko‘nikma yetishmasligi va o‘z qobiliyatiga ishonchsizlikda yana ham samaraliroq hisoblanadi. Agar kuzatuvchi tomonidan kuzatiluvchi holat uning ustoziga yoki do‘stiga tegishli bo‘lsa, unda ushbu omilning samarasi yanada ortadi. Xatto ushbu holatlarda ham ko‘nikmalarni kuzatish shaxsiy tajribachalik ta’sirchan emas. Sabablar esa tushunish uchun juda ham qiyin emas. Tasavvur qiling, sizning ustozingiz yoki hurmat qiladigan do‘stingiz biror kuyni o‘xshatib ijro etishni uddaladi, lekin siz o‘zingiz buni qila

olishingizga ishonmaysiz. Bu holatda siz o‘zingizning ichki kuchingizga ishonishingiz kerak, lekin biroz o‘z samaradorligingizga shubha bilan qarashingiz mumkin. Boshqa tomondan agar siz boshqalarning kuyni o‘xshatishiga guvoh bo‘lmasligingiz mumkin, lekin sizning o‘z shaxsiy kuylash tarixingiz bor, bu boshqa tarixda. Bu holatda siz boshqalarning ijro etishidan ko‘ra ko‘proq o‘zingizga ishonishga moyil bo‘lasiz.

Boshqaruv bu shunday yo‘naltiruvchi kuchki, u insonlardagi ijodiy potensial imkoniyatlarini oladigan sharoitlarni yuzaga chiqarishni maqsad qilib qo‘yadi. Shunday ekan, o‘qituvchining ta’lim-tarbiya jarayonini to‘g‘ri va oqilona boshqara olishi o‘quvchi shaxsi kamolotida nihoyatda kattadir. Faoliyatdan kutiladigan natija psixologiyada maqsad deyiladi. O‘quv jarayonining boshqarilishi ikkita asosiy maqsadni ko‘zda tutadi. Ulardan birinchisi, o‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil eta olish, ikkinchisi esa o‘quvchilarning shaxsiy qiziqish va ehtiyojlarini qondirishdir. Ana shu maqsadlar boshqarishning vazifalarini belgilab beradi. Demak, o‘quv jarayonini boshqarishning: - birinchi vazifasi tashkiliy bo‘lib, o‘quvchilarning ta’lim va tarbiyasi bo‘yicha ijtimoiy buyurtmalarni qondirish; - ikkinchi vazifasi - bevosita o‘quvchining qiziqish va talablarini qondirishga yo‘naltirilgan holatdagi ijtimoiy vazifadir. Shuningdek, bu vazifa o‘quvchilarning ko‘tarinkilik, yaxshi kayfiyat va o‘quv jarayonidagi ishchanlikni yuzaga keltirishni ham uz ichiga oladi. Afsuski, ko‘p yillar davomida boshqarishning ana shu ijtimoiy vazifasiga juda kam e’tibor berilgan. Boshqaruvning ikkinchi vazifasi bu ijtimoiy-psixologikdir. Bu vazifa o‘quvchilarda samarali faoliyat uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy-psixologik holat va xususiyatlarni rivojlantirishga qaratilgandir. Bu holat va xususiyatlar o‘quvchilarni o‘zaro jipslashtirish, nazorat, o‘z-o‘zini boshqarish, shuningdek, mustaqil ta’lim olishlarini rivojlantirishdan iboratdir.

O‘quv jarayonini boshqarish uchun quyidagi tarkibiy qismlarni egallashlari lozim: 1. Berilgan o‘quv topshirigini yechish uchun vositalar tanlash. 2. Topshiriqlarni yechish jarayonida o‘z-o‘zini nazorat qilish. 3. O‘zlashtirilgan bilimlar, malakalar, ko‘nikmalar sifatini baholash. 4. O‘quv topshiriklarini bajarilganligini tekshirish. 5. O‘z oldiga maqsad kuya olish. 6.

Turli belgilar bilan predmetning ichki munosabatlari muvofiqligini kura olish. O‘qitishning ikkita usuli mavjud. Biri an’anviy o‘qitish usuli - bunda o‘qituvchi muammoni belgilaydi, vazifalarni aniqlanaydi va muammoni yechib beradi. O‘quvchi esa masalani yechish yo‘llarini eslab qoladi va uni yechishni mashq qiladi. Bunda o‘quvchilarda reproduktiv tafakkur shakllanadi. Rivojlantiruvchi ta’lim o‘qitishning muammoli usulida o‘qituvchi o‘quvchilarning bilish jarayonlarini boshqaradi, uni tashkil etadi va nazorat qiladi. O‘quvchi esa muammoni tushunadi. Uni yechish yo‘llarini qidiradi va uni yechadi. Bunday xollarda o‘quvchi tafakkurining maxsuldorligi oshadi va uning mustaqilligi rivojlanadi. O‘quvchining o‘qishga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish uchun o‘qituvchi quyidagi qoidalarga tayanishi lozim: 1. O‘quv jarayonini shunday tashkil etish lozimki, bunda o‘quvchi faol harakat qilishi, mustaqil izlanishi, yangi bilimlarni o‘zi kashf etishi va muammoli xarakterdagi masalalarni yechish uchun sharoit izlashi kerak. 2. O‘quvchilarga bir xil o‘qitish usullari va bir turdagi ma’lumotlarni berishdan qochish kerak. 3. O‘rgatilayotgan fanga nisbatan qiziqishning namoyon bo‘lishi uchun ayni shu fan yoki bilim, o‘quvchining o‘zi uchun qanchalik ahamiyatli va muhim ekanligini bilishi kerak. 4. Yangi material qanchalar o‘quvchi tomonidan avval o‘zlashtirilgan bilimlar bilan bog‘liq bo‘lsa, u o‘quvchi uchun shunchalik qiziqarli bo‘ladi. 5. Xaddan ziyod qiyin material o‘quvchida qiziqish uyg‘otmaydi. Berilayotgan bilimlar o‘quvchining kuchi yetadigan darajada bo‘lishi lozim.

O‘qituvchi o‘rganilayotgan mavzu yoki bilimining ahamiyatini ko‘rsatish, o‘quvchining o‘quv faolligini oshirish uchun qiziqarli misollar, aqliy o‘yinlardan keng foydalanishi lozim. Lekin, ta’limdagi har bir beriladigan bilim yorqin, qiziqarli bo‘lavermaydi, shuning uchun o‘quvchilarda iroda, qat’iylik, mehnatsevarlik kabi hislatlarning kamol toptirilishi nihoyatda zarurdir. Ana shu hislatlar o‘quvchining kelgusida o‘z-o‘zini nazorat qilishga, o‘z-o‘zini baholashga va mustaqil ta’lim olishga asos bo‘lish kerak.

# III BOB. KASBIY LAYOQAT TASHXISI

## 3.1. “PROFESSIOGRAMMA”

### 3.1.1. Professiogramma haqida tushuncha

1920 yillarning ikkinchi yarmida rus psixotexniklari tez sur’atlarda kasbiy faoliyatning tamoyil va usullarini ishlab chiqdilar. Shu tadqiqotlarni umumlashtirishi natijasida psixotexnikada maxsus yondoshuv professiografiyani shakllanishiga olib keldi. Bu yondashuvning mohiyati – kasblar tasviri umuman olganda professiografiyani o‘rganish, kasbning psixologik tavsifi va loyihalashtirishini o‘z ichiga oladi. **Professiografiya** - deganda kasblar va ularning bir – biridan farqlanuvchi ixtisoslar tomonidan inson oldiga qo‘yiladigan talablarni bayon qilish majmuasi tushuniladi. Professigrafiya – bu biror bir soha egasining shaxsiy hislatlariga, psixologik qobiliyatlariga,psixologik va fiziologik imkoniyatlariga qo‘yilgan talablarni o‘rganish usullari.

Professiografiya natijalari professiogrammada aks etadi, u mehnat sharoitlari tasviri, ishchi huquq va majburiyatlari, muhim kasbiy sifatlari shuningdek, sog‘lig‘iga qarshi ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi. Professiogrammaning muhim tarkibiy qismi - psixogramma bo‘lib, u mutaxassisning motivatsion, iroda va emotsional sohasining tavsifi hisoblanadi. Psixogramma - kasbning psixologik portreti bo‘lib, u aniq kasbda dolzarb bo‘lgan psixologik funksiya guruhi bilan namoyon bo‘ladi. Professiografiyada ma’lum mehnat jarayonini tashkil etuvchi ob’yektlar belgilari, mehnat sub’yekti, mehnat predmeti vazifalari, vositalari va sharoitlari o‘rganiladi. Professiografiyaning asosiy tamoyillaridan biri kasbiy faoliyatni o‘rganishda differensial yondashuv tamoyili hisoblanadi.



Bu tamoyilning mohiyati professiografiyaning aniq amaliy masalalarini echishga bo‘ysunishidir. Masalan, kasbiy konsultatsiya va kasbiy tanlov uchun shunday kasbiy muhim belgilarni ajratish kerakki, ular sinovdagilarning kasbiy layoqatiga ko‘ra farqlanishi lozim.

### 3.1.2. Professiografiyaning psixologik asoslari

Malaka darajasini aniqlash uchun mehnat vazifalari, kasbiy bilim, malaka, ko‘nikma tavsifi muhim ahamiyatga ega. Kasbiy toliqishni o‘rganish uchun shunday belgilardan foydalanildiki, ular yordamida kasbiy toliqishning keltirib chiqaradigan omillarini aniqlaydi. Shunday qilib, profesiografiyaning



differensial tamoyili kasbning o‘rganish usullarini uning tavsifi, mazmuni, shuningdek, qo‘llanilish sohasi ya’ni professiografiya o‘tkazish xususiyatlari uning maqsadlari bilan belgilanadi. Maqsadlari quyidagi faoliyat sohalari bilan bog‘langan bo‘lishi mumkin: 1) Ishchilar attetsatsiyasi. 2) Yangi kasblar mutaxassisliklarni loyihalashtirish. 3) Optantlar profkonsultasiyasi va mutaxassislar tanlovi. 4) Kasbiy ta’lim malaka tayyorgarligi va malaka oshirishni takomillashtirish. 5) Shaxs kasbiy rivojlanishi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar. E.M.Ivanova professiografiyaning 4 ta guruhini taklif etadi: ma’lumotli, diagnostik, prognostik va metodik. Informatsion (ma’lumotli) professiografiya oktantlar, ya’ni, kasb tanlash zaruriyati oldida turgan shaxslar bilan kasbiy maslahat ishlari uchun mo‘ljallangan. Ular qatoriga o‘quvchilar, kasb bilim yurtlari bitiruvchilari, ishsizlar va kasblarni almashtirmoqchi bo‘lganlar kirishi mumkin. Informatsion professiografiya ishlari maxsus kasbiy adabiyotlarni tahliliy va hujjatlarni o‘rganish orqali amalga oshiriladi. Diagnostik professiografiyalash

mehnat samaradorligining pastligi mahsulot sifatining pastligi, avariya holati, travmatizm, kadrlar qo‘nimsizligi sabablarini aniqlash uchun o‘tkaziladi. Diagnostik professiografiyalash quyidagi masalalarni o‘z ichiga oladi. **1**. Faoliyat mazmuni: 1) Mehnat predmeti va masalalari. 2) Ish natijalari sifatiga qo‘yiladigan talablar. **2.** Mehnat qurollari: 1) Ish turi va tartibi. 2) Boshqarish organlari. 3) Ish joyini tashkil etish. **3.** Mehnat sub’yektining faoliyati: 1) Harakat turlari va ularning tavsifi. 2) Ishni rejalashtirish va bajarish xarakteri. 3) Kasb faoliyatiga xalaqit beruvchi omillar. 4) Mehnat jarayonida uchraydigan xatolar, brak, travmalar turi. **4.** Mehnat sub’yektining faoliyati: 1) Ishchilarning o‘zaro aloqalari tuzilmasi. 2) Ishni rejalashtirish va nazorat. **5.** Kasbning mehnat sub’yekti shaxsiy psixologik va psixofiziologik sifatlariga qo‘yiladigan talablar. **6.** Mehnat sub’yekti faoliyatining past samaradorligi sabablarini tashxisi. **7.** Kasbiy faoliyatni takomillashtirish bo‘yicha amaliy - eksperimental tekshiruv. Diagnostik professiografiyalash empirik ma’lumotlarni yig‘ish usullari orqali amalga oshiriladi. Prognostik professiografiyalash kasbiy faoliyatni takomillashtirish bo‘yicha asoslangan tavsiyalarni berish maqsadida qo‘llaniladi. **1.** Kasbning umumiy tavsifi: 1) Kasb rivojlanishi tarixi va istiqbollari. 2) Kasbiy faoliyatni bajarilishining ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlari. 3) Kasbiy muhit. **2.** Kasbiy dala va mazmuni va jihati: 1) Kasbiy dala tavsifi. 2) Kasbiy bilimni aniqlovchi omillar. 3) Kasbiy bilimni rivojlanishi prognozi. **3.** Kasbiy ta’lim malaka oshirish: 1) Kasbiy ta’lim darajasi. 2) Kasbiy tayyorgarlik. 3) Malaka oshirish. **4.** Ishchining kasbiy moyilligi: 1) Mutaxassislik sohasining kengligi. 2) Asosiy malakalar darajasi. 3) Mutaxassislik va kasbni o‘zgartirish imkoniyati. **5**. Kasb istiqbolini baholash: 1) Shaxsning kasbiy - psixologik potensiali. 2) Ishchining kasbiy faolligi. 3) Kasbiy o‘zini o‘zi takomillashtirish karera. Pragnostik professiografiyalash genetik usullarni, shuningdek modellashtiruvchi eksperimentlarni qo‘llaydi. Metodik professiografiyalash psixologga mehnat sub’yektining holati va muhim kasbiy sifatlarni o‘rganish usullarini ishlab chiqish imkonini beradi. Tadqiqot maqsadi va vazifalariga ko‘ra metodik professiografiyalash sxemasi ham o‘zgaradi. Masalan, kasbiy mehnat va hordiq tartibi, kasbiy toliqish, befarqlik, passivlikka bo‘lgan ta’sirini o‘rganishda shunday sxema qo‘llaniladi.

**1.** Mehnat sub'yekti faoliyatining mazmuni: 1) Haraktlar turi va ularning tavsifi. 2) Ishni rejalashtirish va bajarish xarakteri. 3) Emotsional koʻrinishlar. 4) Ish joyidagi noqulaylik turlari. 5) Faoliyat jarayonida paydo boʻladigan xatolar, brak travma turlari**. 2.** Mehnat sharoitlari: 1) Sanitariya - gigienik muhit (havo darajasi, chang, namgarlik va boshqa). 2) Jismoniy muhitning yoritilganligi, shovqin. 3) Ish tartibi. 4) Haq toʻlash va ragʻbat shakli. Mutaxassisning kasbiy mahoratini oʻrganishda professiografiyalashning quyidagi sxemasi qoʻllaniladi**. 1.** Faoliyat mazmuni: 1) Ishchilar malakasiga qoʻyiladigan talablar (kasbiy bilim, koʻnikma va malakalar, shuningdek, sifatlar va qobiliyatlar). 2) Ishchilarning huquq va majburiyatlari**. 2.** Mehnatni tashkillashtirish: 1) Malaka oshirish. 2) Kasbiy psixologik potensial. 3) Ijodiy qobiliyatlar**. 3.** Mehnat sub'yekti faoliyati: 1) Harakatlar turi va ularning tavsifi. 2) Ishni rejalashtirish va uni nazorat qilish. 3) Faoliyat individualligining xususiyatlari. Ta'limga yoʻnaltirilgan professiografiyalash - asosiga kasb sub'yektligi haqidagi gʻoya qoʻyiladi: kasb egasi, faoliyatning haqiqiy sub'yekti boʻlib, unga bir qator maxsus belgilar xos. Bu professiografiyalashning mualliflari uning mazmun - mohiyati va loyiqalashtirish texnologiyalarini oʻrganib chiqishdi. ― Kasb pasporti‖ bloki kasb va mutaxassisliklar nomining modifikasiyasi, kasbiy yoʻnalish, kasb maqsadi, ta'lim darajasi haqida qisqa ma'lumotlarni oʻz ichiga oladi. ―Kasbning asosiy ob'yekti‖ (sohasi) bloki kasb turi haqida ma'lumotlarni oʻz ichiga oladi. ―Inson – tabiat‖, ―inson – inson‖, ―inson – texnika‖, ―inson - belgilar tizimi‖, ―inson badiiy obraz‖ va boshqalar. Bu blok mazmuni boshqa professiografiyalash bloklarining asosi hisoblanadi. ― Kasbiy predmetli salohiyat bloki koʻp tizimli ta'lim sifatida kasbiy muhim tavsifini oʻz ichga oladi. Mutaxassis kasbi qaysi sohaga tegishli ekanini, qaysi asosiy ob'yektlarga yoʻnaltirilgan, bu ob'yektlar qanday ob'yektlar, bu sohada mehnat natijasi yoki mehnat mahsuli qanday ahamiyatga egaligi haqidagi ma'lumotga ega boʻlishi lozim. ―Ijtimoiy kasbiy salohiyat‖ blokida shaxs ob'yektining quyidagi yoʻnalishlari aks etadi. Fikrlash potensialining rivojlanishi. Shaxsni oʻzini nazorat eta olish va rivojlantirish imkoniyatlari. Shaxsning muvaffaqiyat strategiyasiga yoʻnaltirilganligi. Shaxsning bozor iqtisodiyoti sharoitida bardoshligi. Professiografiyada ekologik, huquqiy va iqtisodiy madaniyat

masalalari ham nazarda tutiladi. Maxsus psixofiziologik talablar bloki - ishchining kasbiy faoliyati jixatdan psixofiziologik xususiyatlariga qo'yiladigan talablarni aks ettiradi. Bunga tibbiy ko'rsatmalar, jinsiga, yoshga bo'lgan va sanitariya- gigienik talablar kiradi. Kasb-kor (hunar) oldiga qo'yiladigan talablarni asoslash va ularni bayon qilish o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, quyidagi umumiy hamda xususiy jabhalarni o'zida aks ettiradi**;** **1**. Kasb va uni ixtisosliklarining psixologik tavsifi; **2.** Kasb-korning (hunarning) mamlakat iqtisodiyoti uchun ahamiyati; **3.** Kasb va ixtisoslikning ijtimoiy tavsifi;



**4.** Kasbning ijtimoiy psixologik ahamiyati va tavsifi; yoshlarda uning ijtimoiy mavqei (nufuzi), jamoaning o'ziga xos xususiyatlari, vertikal va gorizontal bo'yicha shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari; **5.** Kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli egallash uchun zarur bilimlar va ko'nikmalar ko'lamining pedagogik tavsifi (maxsus mezonlar orqali kasbiy mahorat aniqlanadi); **6.** Pedagogik jarayonni takomillashtirish yuzasidan takliflar, tayyorgarlik muddatlari, tadbir – choralarning umumiy tavsifi; **7.** Mehnat sharoitining gigienik tavsifnomasi; **8.** Kasb bo'yicha mehnat qilishga tibbiy jihatdan ta'qiqlanuvchi omillar izchilligi**;** **9**. Kasbga psixologik nomutanosiblik, yoki kasbiy yaroqsizlik; **10.** O'zini o'zi faollashtirish va identifikatsiyalash. Kasbning inson oldiga qo'yadigan talablari majmuasi psixologik, ijtimoiy, iqtisodiy, texnikaviy va pedagogik jabhalarni qamrab oladi. Kasb va ixtisos asoslarini egallovchi yoshlar shu fanlarning barcha talabalariga moslashishi orqali mutaxassislik layoqatini rivojlantira boradi. Kasb tanlashga yo'naltirish davlatning tadbir – choralari tizimidan iborat bo'lib, inson tomonidan tanlanadi, o'z hayot yo'lining ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qiladi, u turmushda o'z o'rnini aniqlaydi va quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

a) maktabda kasbiy ma'lumotlar berish;

b) kasb – hunar maorifi bilan shug'ullanish:

v) radio, televidenie, kino, matbuotda tashviqot qilish;

g) kasb yuzasidan maslahatlar;

e) kasbga saralash (qobiliyatiga binoan);

f) kasbga moslashish (adaptatsiyalash).

Mazkur sohada psixologik izlanishlar olib borgan K.K.Platonov muayyan sxema ishlab chiqqan bo‘lib, u «Kasb tanlashga yo‘naltirish uchburchagi» deb nomlanib, o‘zining ixchamligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Xuddi shu bois kasb tanlashga yo‘llashda, reorientatsiyalashda undan unumli foydalanish mumkin. Kasb tanlashga yo‘naltirish uchburchagining muhim bir tomoni – bu har xil kasb – hunar egasiga nisbatan qo‘yiladigan talablar yuzasidan muayyan bilimning mavjudligidir. Uning ikkinchi bir xususiyatli tomoni shuki, u yoki bu mutaxassislikka nisbatan jamiyat (viloyat, shahar, tuman)ning mehnat imkoniyatiga ehtiyoji bo‘yicha bilimlar mujassamlashganligidir. Yana bir o‘ziga xos tomoni shundan iboratki, kasbga yo‘naltiruvchining qunti, qobiliyati, shaxsiy xususiyatlari bo‘yicha bilimlar umumlashtirilgan bo‘lib, kasb tanlashga oid barcha jihatlar majmua holiga keltirilgandir. Kasb tanlashga yo‘naltirilgan uchburchak shaxsning qiziqishi, mayli, xohishi, o‘zini o‘zi baholashi, nufuzi kabilarga oid materiallarni o‘zida mujassamlashtiradi. Bizningcha, yuqoridagi mulohazalardan tashqari professiogramma oldiga quyidagi talablarni qo‘yish maqsadga muvofiq:

**1.** Ishning qanday nomlanishi va uning nimalardan tuzilishi (ishning nomi, mutaxassislik, kasb – hunar, lavozim, ishchi o‘rni imkoniyati, mehnatning turdosh xususiyatlari va uning muhim tavsiflarining bayoni**)**; **2**. Ishning maqsadi, samaradorligi xususida ma’lumotlar**;** **3**. Mehnat quroli sifatida nimalar qo‘llanilishi; 4. Mehnat predmetining tarkiblari va ularning o‘ziga xos jabhalari**;** **5**. Mehnat faoliyati qaysi usullar yordami bilan bajarilishi**;** **6.** Nimalarning negizida ish (mehnat, faoliyat; amalga oshirilishi**)**; **7.** Mehnat mahsullarini baholash mezonlari; **8.** Ishning qanday ixtisoslik talab qilishi xususiyatlari**. 9.** Ish qanday vositalar yordami bilan bajarilish imkoniyati va uning motivirovkasi**.** **10**. Ishning bajarilish shart va sharoitlari; 11. Mehnatni (faoliyatni) tashkil qilish shakllari**;** **12**. Mehnatning kooperatsiyasi (Kim?, Nima?, Kim bilan hamkorlikda?); **13**. Mehnatning jadalligi (intensivligi) to‘g‘risida ma’lumotlar**;** **14**. Mehnat faoliyatida mas’uliyatning va xavf – xatarning qaysi daqiqalari (holatlari) uchrashi; **15.** Mehnat uning sub’yektiga qanday foyda, naf keltirishi

(ish haqi, mukofot, ma'naviy ozuqa, imtiyoz, ijtimoiy moyillik, altruizm hislati, maqtov, jamoatchilik bahosi va boshqalar); **16**.Ish yoki faoliyatning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra qanday talablarga va cheklanishlarga ega ekanligi.

### 3.1.3. Kasb-korning (hunarning) mamlakat iqtisodiyoti uchun ahamiyati

Har bir shaxs farovonlikda va yaxshi ta'minlangan sharoitda yashashni istaydi. Shu sababli ham insonlar farovon turmushni ta'minlashga xizmat qiluvchi mehnat faoliyati bilan shug'ullanishga intiladilar va moddiy boyliklarni o'zlashtirishga imkon yaratuvchi kasb-hunar sohalari va mutaxassisliklarni egallashga harakat qiladilar. Ba'zi holatlarda ma'lum bir kasbni tanlash va uni egallashda shaxsning imkoniyati yetarli bo'lmaydi. Insonning qiziqishlariga va psixologik imkoniyatlariga to'g'ri kelmaydigan kasbning tanlanishi, tabiiyki, uning shaxs sifatida kamol topishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan shaxsning ichki intilish va imkoniyatlariga u tanlagan kasbi bilan shaxsi orasidagi munosabati o'ta dolzarb masala hisoblanadi. Biz quyida shu masala bo'yicha psixolog olimlarning qarashlarini, o'tkazgan tadqiqotlarini tahlil qilamiz. Kasbiy motiv va motivatsiya muammosi xorij psixologlari tomonidan keng doirada tadqiq qilingan. Jumladan, kasbiy motivlar borasida E.A.Klimov, V.A.Kruteskiy, A.N.Vasilkova, e.Disi, V.Vrum, M.V.Dmitriy va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Shaxsning ish faoliyati bilan bog'liq motivatsiyalarni **3 guruhga** ajratish mumkin; **birinchisi** - mehnat faoliyati motivlari, **ikkinchisi** - kasb tanlash motivlari va **uchinchisi** - ish joyini tanlash motivlari. Aniq faoliyat esa barchasini jamlangan holda izohlanadi, ya'ni, bunda mehnat faoliyati motivlari, kasb tanlash motivlarining shakllanishi, shuningdek, qolgan ikkita motiv orqali esa ish joyini tanlash motivlari ham yuzaga keladi. Mehnat faoliyati motivlari xilma-xil bo'lib, ular o'ziga xos omillar bilan belgilanadi**. Birinchi guruh** omillariga jamoaviy xarakterning uyg'onishi bilan bog'liqlari kiritilib, bunda jamoaga foyda tegishini anglash, boshqa insonlarga yordam berish istagi, mehnat faoliyatida ijtimoiy ustanovkaning zarurligi va boshqalarga nisbatan tobelikni hohlamaslik kabi motivlar hisoblanadi. **Ikkinchi guruh** omillari o'zi va oilasi uchun moddiy mablag'ning orttirilishi, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishi uchun pul ishlab topish motivlaridir.

**Uchinchi guruhga** o‘zini o‘zi faollashtirish, rivojlantirish, o‘zini namoyon qilish ehtiyojlarining qondirilishi va boshqalar kiradi. Ma’lumki, insonlar tabiatdan biror-bir faoliyat bilan shug‘ullanmasdan turolmaydilar. Inson nafaqat iste’molchi balki yaratuvchi bo‘lib, yaratish jarayonida u ijoddan ilhom oladi. Bu guruhga mansub motiv jamiyat tomonidan ehtiyojlarning qondirilishi va boshqalarning hurmatini qozonish bilan bog‘liq. Maktab o‘quvchilarining mehnat tarbiyasi ham shu motiv bilan bog‘liq ravishda shakllantiriladi. Mehnat faoliyatining umumiy motivlari yuqorida aytib o‘tilganidek, aniq kasblar doirasida amalga oshadi. Kasb tanlash anchagina qiyin va motivasion jarayondir.

Axir shaxsning to‘g‘ri kasb tanlashi ko‘pincha insonning hayotdan qoniqishga ham sabab bo‘ladi. Insonning qaysi faoliyatini tanlashi ko‘proq tashqi omillar haqidagi qarorning qabul qilinishi jarayoni haqida to‘xtalishi muhimdir. Bu asosan tashqi holat baholariga, o‘zining imkoniyat va qobiliyatlariga, kasb tanlashdagi qiziqish va moyilliklariga bog‘liqdir. Tashqi holatini baholash, ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan omillar, o‘zida ishlab topiladigan pul miqdori, imtiyoz, taklif etilayotgan korxona, muassasaning yashash joyiga yaqin bo‘lishi, transpot aloqalarining qulayligi, ish joyi estetikasi va ishlab chiqarishning zararli tomonlari, jamoadagi psixologik iqlim, maqtov va tartibga chaqirish kabilarni qamrab oladi. O‘z imkoniyatlarini baholash sog‘lomligi, ishga yaroqliligi, kasbi bo‘yicha muhim sifatlarga egaligi, bilim darajasi, stresslarsiz ishga moyilligi, yuqori shovqinli ishda talab etilgan temp va xotirjam ritm bilan ishlay olish imkoniyati kabilarni o‘z ichiga oladi. Qiziqishlarga mos ravishda tanlangan ish joyini baholash, ayni vaqtda ishlayotgan muassasasi, korxonadagi imkoniyat to‘siqlari, ishni boshqarish, kasbiy o‘sish, tashabbusning paydo bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Ba’zan qiziqish bo‘yicha ish joyini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ish joyini va kasbni tanlash motivlari e.s. Chuchunay tomonidan klassifikasiya qilingan. U kasb motivlarini quyidagilarga ajratadi**:** **1)** Dominant (kasbga qiziqishning ustun turishi**)**. **2)** Vaziyat bilan bog‘liq (har doim insonni qiziqtirib kelgan shart sharoitlarni ro‘yobga chiqarish**)**. **3)** Komformist**.** **4)** Kasbiy motivasiyalar (o‘ziga yaqin ijtimoiy olamning ya’ni yaqinlarini, do‘st va tanishlarining maslahatlari bilan).

L.I.Bamburova musiqa ijrochilik kasbini tanlashga sabab bo‘luvchi omillar sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatadi: Ijod va musiqa ijro etishga bo‘lgan qiziqish. Musiqadan zavqlanishga bo‘lgan ehtiyoj. Musiqa asarlarini ijro etishda o‘zi tashabbus ko‘rsatishga intilish. Tinglovchilarning qadriyatini ko‘tarish, ularga rohat baxsh etish hohishi. Albatta yuqoridagilar musiqa ijrochilik faoliyatining to‘liq motivlari emas. Ular faqatgina musiqachilik faoliyatini boshlashga olib keladi. A.P.Vasilev tibbiyot xodimi kasbini tanlashning quyidagi asosiy motivlarini keltirib o‘tadi**: 1)** Insonlarni davolash istagi. **2)** Og‘ir kasalliklar, qariya, yosh bolalarni og‘riqlardan xalos etish istagi**. 3)** O‘z yaqinlarining sog‘lig‘i haqida qayg‘urish imkoniyati. **4)** Ilmiy tibbiyot muammolarini hal etish**. 5)** O‘z sog‘lig‘i haqida qayg‘urish. **6)** Moddiy qiziqishlar. Motivlarning mustahkamlanishi mehnat faoliyatida ishlovchilarning ko‘pgina omillarini qondirilishiga bog‘liq bo‘ladi. G‘arb psixologlaridan V.Vrum va E.Disi mehnat faoliyati motivasiyasini tarkibiy qismlarini ajratadilar. Unga ko‘ra insonlar qanchalik o‘z ishidan qoniqsa, shunchalik ular o‘z ishlarini bajarishga kuchliroq harakat qiladilar. Ularni faoliyat jarayonida rag‘batlantirib borilsa, shunchalik qattiqroq ishlaydilar. Bunday yondashuvda amalga oshiriladigan rag‘batlantirish ishchilar faoliyatining mahsuldorligiga bog‘liq. Bunda ular faoliyat ko‘rsatadigan firma, kompaniya va tashkilotlardan kuch oladilar. Bu turli qo‘shimcha imtiyozlar nafaqat ta’lim olish uchun intilish, dam olish, korxona tomonidan tashkillashtiriladi. So‘rovnoma natijalariga muvofiq ishdan bo‘shashning turi – ob’yektiv, ob’yektiv – sub’yektiv va sub’yektiv ko‘rinishlarga ajratiladi. Ob’yektiv sabablarga sog‘lig‘ning yomonligi va jismoniy holati, turar joyini o‘zgarishi, ta’lim olishni davom ettirish, tuqish va bolani parvarishlash kabilar kiradi. Ob’yektiv – sub’yektiv sabablarga mehnat shartnomasining shartlari, kasbiy o‘sish, yuksalish imkonining yo‘qligi va boshqalarni kiritishimiz mumkin. **Motivatsiyaning shakllanishi.** Sub’yektiv sabablarga jamoadagi psixologik iqlim, shaxslararo munosabatlar va boshqalar kiradi. Ishsizlarning ish qidirish motivasiyalari haligacha ham o‘rganilmayotgan muammo bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga ishsizlarning axloqi, yangi ish joyini topish bo‘yicha faoliyati ko‘p jihatdan uning motivasion jabhalariga, ularning tuzilishiga kam hollarda hayot mazmunining shart sharoitlariga bog‘liq.

M.V.Dmitriy ta’kidlaganidek, ishsizlarning motivasion jabhalarini o‘ziga xos xususiyatlari ish izlashdagi faoliyatlari motivasion tuzilishlarining hamma ko‘rsatkichlariga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Ular ijtimoiy o‘zgarishlardan mustaqil bo‘lish uchun qayta harakat qilishda o‘z imkoniyatlaridan foydalanishga turtki beradi. Passiv ishsizlarning motivasion imkoniyatlarini tuzilish xususiyati alohida motivlarning ham harakatlanuvchanligi bilan tavsiflanadi. Kasbiy faoliyat motivlari tuzilishining tavsifnomasi uchun B.N.Dadanov taklif qilgan usullarni qo‘llash mumkin. U istalgan faoliyatning sabablari sifatida quyidagi omillarni o‘zida aks ettiradi, deb ko‘rsatadi: **1**.Ayni faoliyat jarayonidan rohatlanish. **2.**Faoliyatning to‘g‘ri natijalari (yaratiladigan mahsulot o‘zlashtirilayotgan bilim va hokazo**). 3**.Faoliyatni rag‘batlatirish (maosh, mansabni oshirish, so‘z vositasida va hokazo). **4**.Bosh tortish hollarida yoki faoliyat yaxshi bajarilmaganda beriladigan jazodan o‘zini olib qochishga intilish. Bu sabablar salbiy — valentlikka‖ ham ega bo‘lishi mumkin. Masalan, faoliyatdan uzohlashib, qiziqishlarini so‘ndirishi mumkin. Salbiy valentlikni maxsus belgi bilan izohlab, ularni quyidagicha ifodalash mumkin: **T**-insonga ish jarayonining mashaqqatli, yoqimsiz bo‘lishi; **R**-erishishi kerak bo‘lgan natijaga intilishdan uzoqlashish; **V**-ishdan bosh tortish uchun rag‘batlantirish-taklif etish**; G-**ayni ish faoliyati uchun jazo belgilashi. Pedagogik oliy o‘quv yurtlariga kirish va pedagog kasbini tanlash motivlari (o‘qituvchi, boqcha tarbiyachisi va b.) turli xil bo‘lib, bunda ulardan bir qanchasi pedagogik faoliyat bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu jihat anchadan beri pedagogik, jamoatchilik va oliy o‘quv yurtlarini o‘ylantirib keladi. O‘tkazilgan ko‘pgina so‘rovlar bo‘yicha olingan natijalarda (pedagogik oliy o‘quv yurtiga kirganlarning) o‘qituvchi kasbiga ijobiy munosabat bildirgan. Taxminan 40 % u yoki bu narsa yoki predmetlarga qiziqq ani tufayli o‘qituvchilik faoliyatiga qiziqmagan holda 13 % dan 22 % talabalar esa na o‘qituvchilik faoliyatiga va na kasbiy fanga ijobiy munosabat bildiradi. Ularni oliy o‘quv yurtiga kirishidan maqsad ayni vaqtda harbiy xizmatdan qochish yoki oliy ta’lim nufuziga ega bo‘lish hisoblanadi. Ko‘pgina, talabalarning pedagogika o‘quv yurtiga kirish sabablari shu dargohning ularning turar joyiga yaqinligi bo‘ladi.

### 3.1.4. Kasb va ixtisoslikning ijtimoiy tavsifi

Kasbiy ta'limning muhim vazifalaridan biri kasbiy tayyorgarlik bo'lib, bunda tayyorgarlik ikki xil ko'rinishda amalga oshiriladi: mustaqil o'rganish (qo'shimcha ta'lim yoki mustaqil ta'lim) va maxsus kasbiy ta'lim muassasalarida ta'lim olish orqali. Kasbiy ta'limning muvaffaqiyatini belgilaydigan muhim psixologik jarayon —ma'lum bir kasbga tayyorgarlik holati hisoblanadi. Bu holat emotsional va motivatsion tayyorgarlikni ham nazarda tutadi. Kasb tanlash inson hayotidagi muhim bir bosqich hisoblanib, bunda inson hayoti uchun muhim qaror qabul qiladi va u jamiyatda o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi. Bu jarayon inson tomonidan o'z ichki imkoniyatlari tahlil qilish natijasida ma'lum kasbning talablariga uning imkoniyatlarining mos kelishiga qarab sodir bo'ladi. Kasb tanlash ma'lum bir kasbni tanlayotgan inson (tanlov sub'yekti) bilan tanlanayotgan kasb (tanlov ob'yekti) munosabatlarini o'zida aks ettiruvchi faoliyat hisoblanadi. Tanlov sub'yekti va tanlov ob'yekti o'rtasidagi munosabatlar xarakteristikasini o'rganish davrimizning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Ongli ravishda kasb tanlash insonning ijtimoiy mavqei bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Agar inson uchun asosiysi ijtimoiy nufuz hisoblansa, unda kasb hozirda mavjud bo'lgan qoidalar, shuningdek, jamiyatdagi nufuzli kasblardan kelib chiqib tanlanadi. Ko'pchilik kasb tanlayotganda bu kasb ularga qanchalik moddiy rag'bat keltirishiga tayanadi. Insonlar orasida qiziqishlari tufayli kasb tanlovchilar ham bo'ladi va bu qiziqish kamdan-kam hollarda romantik xarakter kasb etadi. Kasb mansabga intilish asosida, haqiqiy tashqi taassurotlar zamirida, ota-ona, do'stlarining maslahatlari orqali yoki omadga bog'liq holda tanlashi mumkin. Lekin kasbdagi romantika odatda tezda yo'qoladi va uning o'rnida inson hali na hissiy, na jismoniy va na psixik jihatdan tayyor bo'lmagan —og'ir ish kunlari  qoladi. Tanlagan kasbi o'zi uchun qiyin bo'lib, ko'p hollarda turli to'siqlarni yuzaga keltiradi va ayrim hollarda o'z kasbini o'zgartirishiga to'g'ri keladi. Bunday hollarda kasb tanlash ko'pgina sharoitlarga bog'liq bo'lib qoladi. Lekin hammasidan oldin kasb tanlashga e'tiborni tortish kerak. Ko'pgina, tanlangan faoliyatlar insonning qobiliyat va moyiligiga muvofiq bo'ladi. A.K.Baymetov pedagogik faoliyat motivlarini

o‘rganib, ulardan **3 ta** asosiylarini birlashtiradi: **a)** muqarrarlik motivi (burchli**);** **b)** o‘qitilayotgan predmetlarning qiziqarliligi va e’tiborni tortish**;** **v)** bolalar bilan muloqatga kirishish. Bu motivlarning ustunlik qilish xarakteriga ko‘ra mualliflar 4 guruhga mansub o‘qituvchilarni ajratadilar: Burch hissining ustunligi bilan (43 %); o‘qitilayotgan fanlarga qiziqishning ustunligi (39 %); bolalar bilan muloqotga kirishish ehtiyojining ustunligi (11 %); o‘zi hohishlarini ruyobga chiqarish motivi. O‘rganilgan manbalarga ko‘ra motivasiya tiplari o‘qituvchilarning o‘quvchilarga bo‘lgan pedagogik talablarining yo‘nalishi va xarakteriga ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchining turli tomonli motivasiyasi o‘quvchilarning axloqiga va ularning o‘quv materialini o‘zlashtirishga talabning uyg‘unligi bilan tavsiflanadi. O‘qituvchilardagi majburiyat motivlarining ustunligi o‘quvchilarga faqatgina katta talablar qo‘yib qolmasdan, balki, qat’iy intizomni ham talab qiladi. O‘quv faniga bo‘lgan qiziqish motivlari ustun turuvchi o‘qituvchilarda o‘quv materialini o‘zlashtirishga bo‘lgan talab ko‘zga tashlanadi, chunki bunda eng ko‘p talab o‘quvchi shaxsiga qaratilgan bo‘ladi. A.K.Baymetov ta’kidlab o‘tganidek, avtoritarlikka moyillik motivining ustunligi avtoritar o‘qituvchilarda muloqat motivining ustunligi liberal o‘qituvchilar u yoki bu motivlardan hech birining ustun bo‘lmasligi demokratik uslubli xos o‘qituvchilarga xos jihat hisoblanadi.[1]

Pedagog kasbini o‘zlashtirishda kasbiy bilimlarga bo‘lgan ehtiyoj oshadi. V.N.Nikitenko va B.Fidlerlarning ma’lumotiga ko‘ra 25-30 yoshli o‘qituvchilarda oliy o‘quv yurtida o‘qiyotgan chog‘ida unchalik ahamiyat bermagan pedagogik va psixologik bilimlarni egallashga bo‘lgan extiyoj uyg‘onar ekan N.V.Jurinim o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatidagi turli xil omillarga munosabatini o‘rgangan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning o‘z kasbi va ish joyidan qoniqishi ba’zilarda birinchi navbatda maktabning moddiy bazasiga bog‘liq bo‘ladi, boshqalarida esa pedagogik faoliyatda yaxshi natijalarga erishishga, uchinchi xilida ma’muriyat bilan o‘zaro aloqa o‘rnatishga, to‘rtinchi kishida oylik olish bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘quv faoliyati motivasiyasining xususiyatlarini o‘rganishda 2 jihatni farqlab olish lozim: Birinchi jihat - o‘quv faoliyatini tanlash motivasiyasi. Ikkinchisi nima

uchun olim aynan shu mavzuni o‘rganib chiqishga qo‘l urgani sababini aniqlash. Fan bilan shug‘ullanish bir necha sabablarga bog‘liqligi bilan belgilanadi. Ularga yangilikka intilish va ularni yaratish, aniq fanlarga qiziqish va qandaydir aniq masalalarga qiziqish,o‘z kashfiyotlari bilan insoniyatga foyda keltirish, istagan yoki qandaydir xalq xo‘jaligiga doir masalalarni hal etish yoki shunchaki o‘z ishi bilan o‘zidan tarixda nom-nishon qoldirish; aniq bir ijtimoiy statusga intilish (ilmiy darajalariga ega bo‘lish) mashhurlikka intilish kabilar bilan belgilanadi. Pedagogik faoliyatning muhim qismlari bo‘lib, uning motivatsiyasida ko‘rinadi. Pedagogik faoliyat o‘quv faoliyatidagi kabi motivasion orientasiyalarga ajratiladi. Ular tashqi motivlar bo‘lib, bunga o‘z faoliyati natijasi va jarayonini orientasiya qilishni misol qilish mumkin. Aniq ta’lim muassasasidagi ish nufuzining tashqi motivlari, mehnatga xaq to‘lashdagi adekvatlik motivlari, ko‘pincha kasbiy va shaxsning o‘sish motivlari bilan mos o‘zaro bog‘liq.G.A.Myurrey hokimiyatga intilishning asosiy motivlarini ularning faoliyati bilan bog‘lagan holda ajratadi. Ehtiyojning belgi yoki samaralari quyidagi istaklarda namoyon bo‘ladi; 1. O‘z ijtimoiy olamini boshqarish; 2. Boshqalar xulqiga ta’sir o‘tkazish va o‘z maslaqatlari bilan yo‘lga solish, buyurish, o‘z so‘ziga ishontirish; 3. O‘z e’tiqodiga yo‘naltirish. Motivatsiyaning barcha omillarini moddiy va nomoddiy stimullarga ajratish mumkin ―hayot faqat yeb ichishdan iborat emas. Boshqa so‘z bilan aytganda pul bilan xodimlarni jalb etishning o‘zi yetarli emas. Korxonada moddiy rag‘batlantirishdan tashqari xodimlar jalb qilinadiganlar motivasiyasining qo‘shimcha, nomoddiy tizimi ishlab chiqilgan bo‘lishi mumkin. Bu ularni psixologik tashqi iqtisodiy jihatlardan muhim ehtiyojlarni qondirishga mo‘ljallangan bo‘lishi kerak. Tamoyilni amalga oshishi, yuqori natijalarga erishgan ishchilarning rag‘batlantirilishiga qaratilgan ijobiy motivasiyalarning ishlab chiqilishi bilan belgilanadi. Motivlarning qaysi biri ustunlik qilishi ijobiymi yoki salbiymiq degan savolga javobni aniq bir korxonada ishlash va xodimlar bilan munosabatga kirishish jarayoniga bog‘liq holda hal qilish mumkin. Shunday ekan, motivasiya adekvat bo‘lishi, korxona xodimining ish natijalariga mos bo‘lishi kerak.. Agar rahbarning bahosi, rahbarlarning o‘z natijalarini baholashni shakllantirsa, bu yaxshi ko‘rsatkich hisoblanadi. Bunda

rahbarning tashqaridan beradigan bahosi va xodimlarning o‘z-o‘ziga beradigan bahosi muvofiq keladi. V.A.Krutetskiy o‘spirinlarda uchrash mumkin bo‘lgan motivlardan quyidagilarni alohida ta’kidlab o‘tadi: - biror o‘quv faniga nisbatan o‘spirinning qiziqishi; - Vatanga foyda keltirish istagi; - shaxsiy qobiliyatini ro‘kach qilib ko‘rsatish; - oilaviy an’analariga rioya qilishi; - do‘stlari va o‘rtoqlaridan o‘rnak olganligi; - ish joyining va o‘quv yurtining uyga yaqinligi; - moddiy ta’minlanganlik; - o‘quv yurti ko‘rinishining chiroyliligi yoki unga joylashishining osonligi singari motivlardir. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, ilk o‘spirinlik davrida kasbiy motivlarning shakllanishi bir qator tashqi va ichki omillarga bog‘liq. Shuningdek, kasb tanlashga bo‘lgan intilish ishtiyoqlar negizida kasbiy motiv va motivasiya shakllanadi. Aynan xorij psixologlari kasbiy motivlar tarkibini ishlab chiqishda kasb tanlashgacha bo‘lgan va kasb tanlab bo‘lgandan keyingi jihatlarini ko‘rsatib o‘tadilar.

### 3.1.5. Kasbning ijtimoiy psixologik ahamiyati va tavsifi

Kasb tanlash qisqa vaqtda hal etiladigan ish bo‘lmasdan, balki qator bosqichlardan iborat jarayondir. Bu bosqichlarning davoimiyligi tashqi omillarga va kasb tanlash sub’yektining individual xususiyatlariga bog‘liq holda kechadi. Kasbiy jihatdan o‘z o‘zini aniqlash katta maktab yoshiga kelib inson uchun dolzarb mazmun kasb etadi va bir qancha bosqichlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Biz quyida shu bosqichlarga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Bundan ko‘zlangan maqsad shundaki, biz ko‘rib chiqayotgan mavzuni, ya’ni shaxsning kasb tanlashi, kasbiy shakllanishi va kasbiy faoliyati muammolarini chuqurroq yoritish orqali shaxsni aynan kasbiy o‘z o‘zini aniqlash jarayonini bosqichma bosqich ko‘rib chiqishimiz zarur bo‘ladi. Shunday qilib, kasbiy o‘z o‘zini aniqlash beshta bosqichni o‘z ichiga qamrab oladi: 1. Kasbni ilk tanlash bosqichi. Bu bosqichda bola kasblar olami haqida yetarlicha tasavvurga ega bo‘ladi, o‘z ichki imkoniyatlari haqida kam biladi, uning kasbiy intilishi hali sust darajada bo‘ladi. Bu bosqich kichik maktab yoshiga taalluqli bo‘lib, unda kasbning mazmuni va ish sharoitlari haqida bolada savollar tug‘ilmaydi. 2.Kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini aniqlash bosqichi katta maktab yoshiga to‘g‘ri keladi (15-17 yoshlar). Bu bosqichda ilk professional intilishlar paydo bo‘ladi va

rivojlanadi hamda mehnatning turli xil sohalari ichidan o‘ziga ma’qulini tanlash jarayoni kuzatiladi. 3.Kasbiy ta’lim bosqichida tanlangan kasbni o‘zlashtirish jarayoni sodir bo‘ladi. 4.Kasbiy moslashish bosqichi kasbiy faoliyatning individual uslubining paydo bo‘lishi hamda kishining ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlar tizimiga bog‘lanishi bilan xarakterlanadi. 5.Mehnatda o‘zini ko‘rsatish bosqichi (qisman yoki butunlay) kasbiy mehnatga taalluqli bo‘lgan talablarning (kutilmalarning) bajarilishi yoki bajarilmasligi bilan bog‘liq holda kechadi. Shunday qilib, kasbiy jihatdan o‘z o‘zini aniqlash - shaxs kasbiy faoliyatining barcha davrlarini, ya’ni, kasbiy intilishning paydo bo‘lishidan tortib to mehnat faoliyatidan butunlay ozod bo‘lgungacha bo‘lgan davrlarni o‘zida mujassamlashtirgan jarayondir. Albatta, bu jarayonning eng muhim bosqichlaridan biri kasb tanlash amalga oshiriladigan bosqichdir. To‘g‘ri tanlangan kasb, bir tomondan, shaxsning ichki imkoniyatlariga mos tushadi va uning insoniy baxti hamda kamolotini belgilaydi, ikkinchi tomondan esa yaxshi kasb egasining samarali mehnati ta’sirida jamiyat rivoji jadallashadi. Bu asosan tashqi holat baholariga, o‘zining imkoniyat va qobiliyatlariga, kasb tanlashdagi qiziqish va moyilliklariga bog‘liqdir.

1.Ob’yektiv baholash xususiyatga ega, har qanday vaziyatda ham ma’lumotni to‘g‘ri eshitib, to‘liq qabul qilib, qiziqish bildirib shok holatiga tushmay sovuqqonlik bilan vaziyatni baholash.

2. Shaxsni, u kim bo‘lishidan qat’iy nazar hurmat qilish kerak, maqsad-bolada ma’suliyatni his qilishini uyg‘otib, mustaqqil fikrlashga undash.

3.Shaxsni tushunish, o‘zaro bitim tuzib birgalikda ongli ravishda tushunib qaror qabul qila olishga undash.

4.Psixologik bilimlarga, inson fe’l atvori, uning jismoniy, ijtimoiy psixologik determinantlarga ega bo‘lish. DJ. Shtrasser va X.Gruber o‘z tadqiqot xulosalarida psixologiya fanidan yaxshi o‘rganilmagan tuzilmalarga e’tiborini qaratgan. Bulardan bittasi kongnetiv aspektlarni fanga yo‘naltirilgan tahlillardir.

1.Ekspertlar tomonidan muammolarni mental tassavuri.

2.Narsalarga qaratilgan muammolarni yechimini topishda fikrlash jarayonlari.

## 3.2. PSIXOLOGIK TANLOV

### 3.2.1. Psixologik tanlov va kasb tanlash

Mutaxassisni tanlash (baholash) fikri bugungi kundagi kashfiyot emas. Zamonaviy tanlov tarixi asrlar davomida shakllanib kelgan. A.A.Bodalyov va V.V.Stolinning fikricha, u turli qobiliyatlar, bilim, ko‘nikma va malakalarni sinash bilan bog‘liq. Eramizgacha 3 ming yillik o‘rtalarida qadim Vavilondagi bitiruvchilarda sinovlar o‘tkazilgan. Qadim Misrda din peshvolarini bir qator sinovlardan o‘tkazishgan. Suhbat olib borish ko‘nikmalari, tashqi ko‘rinishi, mehnat qilish ko‘nikmalari, tinglash, olov, suv bilan sinashdan iborat bo‘lgan. Bu sinovlar o‘zida ishonchi bo‘lmagan, ta’limning uzoq muddatiga dosh bera olmaydiganlarni xatto o‘ldirish bilan qo‘rqitishardi. Shuning uchun xar bir nomzodga ibodatxonaga kirishdan avval yaxshilab o‘ylab ko‘rish tavsiya etilgan. Bu sinovlar tizimini buyuk olim Pifagor engib o‘tgan. Gretsiyaga (Yunonistonga) qaytib o‘zi engib o‘tgan qiyinchiliklarga o‘xshash sinovlardan o‘ta oladigan kishilarni o‘zi asos solgan maktabga qo‘ygan. Pifagor intellektual qobiliyatlilarga katta e’tibor bergan. Shuningdek, u yoshlarning kulishi va yurishiga e’tibor bergan.

Eramizgacha 2200 yil avval qadimgi Xitoyda xukumatning mansabdor lavozimini egallashni hohlovchi kishilar qobiliyatini tekshirish tizimi mavjud bo‘lgan. Musiqa, kamondan otish, otda yurish, yozish, hisoblash, marosimlarni o‘tkazish bo‘yicha har 3 yilda amaldorlar shaxsan imperatorlar sinovidan o‘tishgan. Davlat uchun imtixonlar tizimi eng qobiliyatli, iqtidorli kishilarni tanlash vositasi edi.

O‘rta asrlar davomida ham turli imtixonlar o‘tkazilgan. Vyetnam davlatida atigi ikki yil davomida (1370-1372) barcha xarbiy va fuqarolik amaldorlarining qayta attestatsiyasi o‘tkazildi. Bu butun mamlakat bo‘yicha davlat apparatlarini tekshirishdan o‘tkazish imkonini berdi. Natijada Vyetnam yanada kuchli feodal mamlakatga aylandi.

XV asrda sinovlar tartibga solindi. Ular bosqichlar va tur buyicha o‘tkazilardi. Imtihonda oliy darajalarga erishish  hurmatga sazovor bo‘lish hisoblanardi. Bugungi kunda tanlov davlat va nodavlat ta’lim muassasalarining

ishchilarini faoliyat ma’sulligini, professionalizmi, malaka darajasini belgilash uchun o‘tkaziladi. Birinchi navbatda tanlov mutaxassisning egallab turgan lavozimiga kasbiy muvofiqligini aniqlashga qaratilgan. Faoliyat muvaffaqiyatini prognozlash psixologik ko‘rsatkichlar asosida olib boriladi. U faoliyatda o‘rgatish jarayonini optimallashtirish uchun muhim o‘quv guruhlarini tuzishda, individual yondashishni tashkil etishda va boshqa hollarda qo‘llaniladi.

Ko‘pincha faoliyat muvaffaqiyatini prognozlash insonning u yoki bu faoliyatga to‘g‘ri kelishi psixologik tanlov o‘tkazish yo‘li orqali amalga oshiriladi. **Psixologik tanlov** professional tanlovning komponentlaridan biri bo‘lib, u o‘z ichiga tibbiy, ta’lim, bilim darajasi bo‘yicha tanlovlarni oladi. Aniq faoliyat turida inson qobilyatlarni son va sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholash eng oddiy, ammo unchalik mukammal bo‘lmagan usuldir.

Psixologik tanlov shundayki,bugungi qabul qilgan qarorlarimiz kelajakdagi tanlovlarimiz uchun asos bo‘lishi mumkin. Insonlar ko‘p hollarda allaqachon qilingan tanlovlarga amal qilishda davom etishadi. Siz studentlik paytingizdan boshlab sotib olgan tish pastaning savdo belgisi sizning butun hayotingiz mobaynida siz tanlaydigan brend bo‘lishi osonroq. Bu yerda siz haliyam o‘sha savdo belgisini tanlayotganinggizning bir nechta sababi bor. Birinchidan, siz o‘sha mahsulotni avval iste’mol qilib ko‘rgansiz, bu sizni o‘sha mahsulot uchun yana qo‘shimcha xarajat qilishga undaydi. Ikkinchidan, brendlarning foydalilik darajasi o‘rtasidagi farq judayam kam. Shu sababli, siz aynan nimani tanlayotganingizni ahamiyati yo‘q va iloji boricha avval sinovdan o‘tgan mahsulotni tanlash samaraliroq.

Yosh mutaxassislarni tanlovdan o‘tkazish 2-3 yildan keyin amalga oshiriladi. Bunda yosh mutaxassisning egallab turgan lavozimiga mosligi va uning kasbiy rivojlanishini istiqbolli rejalari nazarda tutiladi. Mutaxassisning egallab turgan lavozimiga mosligini aniklash zaruriyati shuningdek, ish stajiga ega bo‘lgan talab ishchining shaxsga nisbatan ham kelib chiqishi mumkin. Haq to‘lash shartlari mehnat xarakteri va mazmunining o‘zgarishi yangi texnikaning kirib kelishi, yangi texnologiyalarga o‘tish, egallab turgan lavozimiga muvofiqligini tasdiqlash uchun kerak bo‘ladi. Nixoyat, yoshdagi o‘zgarishlar va

kasbiy deformatsiyalar bilan bog‘liqlik ishchining kasbiy nomuvofiqligi bo‘lishi mumkin.

Tanlovning keyingi muhim aspekti mutaxassis faoliyatining samaradorligini aniqlaydi. Albatta, tanlov ob’yektiv xarakterga ega bo‘lishi lozim. Tanlovda ishchi kasbiy faoliyatining ma’naviy tomonini hisobga olish lozim. Har bir kasbda xulq etikasi va korporativ ahloq mezonlari mavjud. Ularga rioya etish tashkilot va muassasalarning rahbarlari uchun muhim ahamiyatga ega. Kasbiy ahloq qarorning ijtimoiy asoslanishiga, maxsulot sifatiga, rahbar kadrlar siyosatiga, jamoadagi ijtimoiy - psixologik muhitga ta’sir etadi. Nixoyat, tanlov  mutaxassisning o‘z ishiga va kasbiga bo‘lgan sub’yektiv munosabatini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, asosiy qobiliyat tarkibidan tashqari, tanlov istalmagan kasbiy sifatlar bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxs deformatsiyalari va albatta, ularning tashxis usullarini aniqlab berishlari lozim. Asosiy qobiliyatlar va istalmagan kasbiy sifatlar tashxisi natijalari mutaxassisning kasbiy rivojlanishini va malakasini oshishini aniqlab berishi kerak.

Tanlov maqsadlari - bu malaka professionalizmining o‘sishini tezlatish boshqaruvli mehnat sermaxsulligi, ijodiy tashabbuskorlikning rivojlanishi bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnatga haq to‘lashni differensiatsiya yo‘li bilan ishchilarni ijtimoiy himoyalash kabilardir. Mutaxassisning egallab turgan lavozimi va talab etayotgan malaka toifasiga mosligini o‘rganish, ishchini kelgusidagi kasbiy malakalari o‘sishiga imkon beradi. Shuningdek, tanlovning noxush masalaridan biri - shtatlarni qisqartirish, rahbarni ishi qoniqtirmaydigan ishchilardan qutilishi. Kasbiy tanlov tashkilotda ma’lum tanglikni yaratadi chunki, u sub’yektiv va xato bo‘lishi mumkin bo‘lgan baholash jarayonlari bilan bog‘liq. CHunki tanlov natijalariga ko‘ra shaxs uchun juda muhim bo‘lgan xulosalar chiqariladi. Shuning uchun kasbiy tanlovni o‘tkazish uchun ishchining professionalizm darajasini, mehnat samaradorligini va kasbiy potensialini to‘g‘ri baholay oladigan professionallar jalb etiladi.




Psixologik tanlovning yana shunday xususiyati borki, tanlanayotgan ob’yektlar orasida biri boshqalaridan nimasi bilandir ustunlik qilsa o‘sha ob’yektni tanlanish ehtimolligi ko‘proq bo‘ladi. Yaqinda, Chikago universiteti talabalari tomonidan psixologik tadqiqot o‘tkazilgan. Qatnashuvchilar ikki guruhga ajratilgan va guruhlardan ikkita dam olish joyidan birini tanlash so‘ralgan. Birinchi guruhga tanlash oson bo‘ldi. Chunki, ularga joylardan biri dengiz bo‘yida joylashganligi aytilgan edi. Ikkinchi guruh bu borada qiynaldi, sababi ularga hech narsa aytilmadi va tanlash imkoniyati teng edi.

Erik Erikson rivojlanishning 8 ta vaziyatini keltirgan. Vaziyatlarning har biri dilemma yoki psixologik tanlovni o‘z ichiga oladi. Ular foydali bo‘lishi ham mumkin yoki xavfli bo‘lishi ham mumkin va albatta bittasi boshqasiga qaraganda manfaatliroq bo‘ladi. Ular quyidagilar:

-ishonish va ishonmaslik;

-o‘zini harakatlarini erkin boshqarish va uyalish;

-o‘zini harakatlarini baholay olish va aybdorlikni his qilish;

-ishchanlik va ishda o‘zini ko‘rsata olmaslik;

-o‘zini anglash va boshqalar tomonidan tan olinmaslik;

-odamlar bilan aloqada bo‘lish va odamlardan ajralib qolish;

-o‘zidan nasl qoldirish va yolg‘iz o‘tish;

-o‘sishda davom etish va umidsizlikka tushish.[1]

**2.2-jadval. Eriksonga ko‘ra sakkizta psixologik inqiroz**

| **Psixoijtimoiy inqiroz** | **Taxminiy yosh** | **Izoshlash** |
|---|---|---|
| Ishnoch va ishonsizlik | Tug‘ilgandan 1 yoshgacha | G‘amxo‘rlik qiluvchi va bola o‘rtasida isonchning rivojlanishi |
| Avtonomiya va uyatchanlik | 1-3 yosh | Tana funksiyalari va harakatlari nazorati rivojlanishi |

[1] Kelvin Seifert Educational Psychology 2009 51-bet.

| | | |
|---|---|---|
| Tanishtirish va ayb | 3-6 yosh | Ma'qullash va maqsadsizlikning cheklovi tekshiruvi |
| Soha va past ko'rsatkich | 6-12 yosh | Hukmronlik va ishonch hislarining rivojlanishi |
| O'xshashlik va tartibsizlik roli | 12-19 yosh | O'xshashlik va boshqalar o'xshashligi bilimlarining rivojlanishi |
| Yaqinlik va yakkalik | 19-25 yosh+ | Qarindoshlar o'rtasidagi yaqinlik shakli |
| Ulg'ayish va turg'unlik | 25-50 yosh+ | Kelgusi ulg'ayish uchun ijodiylik va samaralilik rivojlanishi |
| Halollik va ma'yuslik | 50 yosh + | Shaxsiy hayot qabullari va o'ziga va boshqalarga tan berish |

Kasbiy tanlov natijasi - ishchiga malaka toifasini berishdir. Shaxs faoliyati va xulqiga kishi hayotining birinchi kunidanoq baho beriladi. Atrofdagilar uni anglagan yoki anglamagan, tizimli, tizimsiz baholashadi. Baholash bizning kundalik aloqalar odamlar bilan muloqatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu baholashdan farkli ravishda tanlov tashkilot a'zolarining (baholovchi) shu tashkilot a'zolarini (tanlovdan o'tuvchilar) standartlashgan baholash shaklidir. Bundagi farq baholash shaklidadir. Kadrlarni baholash masalalari bo'yicha adabiyotlar tahlili asosida barcha tanlov usullarini ikki guruxga bo'lish mumkin: erkin va parametrlari berilgan guruh tanlov jarayoni muhim ahamiyatga ega. Rahbar tanlovdan avval ishchilarni ularni tanlovdan o'tishi haqida ma'lum qilishi lozim: toifa talablari, baholash usullari, tanlovning o'tish muddati va x.k.

Tanlov natijalari bo'yicha suhbat o'tkazish ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun rahbarlarni tanlov yuzasidan suxbat olib borishga o'rgatish lozim. Tanlov shaxsning qaysi asosiy muhim kasbiy sifatlari hisobga olinadi? Buning uchun tanlov so'rovnomasidan namuna keltiramiz. Bu so'rovnomani rahbar to'ldiradi.

**Xizmat faoliyatiga munosabati va uning natijalari:**

A) Ishga qiziqqanligi, tashabbuskorligi, mustaqilligi. Mehnatkash – ishga tegishli bo'lgan masalalarni o'zi yechishga kirishib ketadi - ishga to'liq berilib ketgan - ijodiy yondashadi - o'z rejalarini tuzadi va fikrlar bildiradi - topshiriqlarni bajarishda mustaqil faol, yoki uning aksi – tashabbuskorlikni

namoyon qilmaydi - o‘z fikriga ega emas – tashqi ko‘rishidan kuzatish qiyin - befarq - passiv. B) Bardoshli va qatiyatli. Charchoqni bilmaydi - o‘ta kuchli zo‘riqishda ham ishga bo‘lgan layoqatini yo‘kotmaydi - qatiyatli hammasiga ulguradi - ishga noroziliklari yo‘q , ishdagi o‘zgarishlari - o‘rta darajada, ammo undan pasaymayapti – aniq emas; yoki tartibli emas parishon, ishni tez ammo sifatsiz bajaradi, ko‘p xatoga yo‘l qo‘yadi - umuman olganda faoliyatda past ko‘rsatkichni tashkil kiladi.

**Aqliy qobiliyatlar:**

A) tahliliy fikrlash qobiliyati, tez faxmlay olish, topqirlik. Ishni ko‘zini bilish, aqliy qaror qabul qilishda cheklangan moxiyatni tushunmay, ayrim detallarni anglash, fikrlashning bir xil emasligi, sekinlashgan fikrlash, tushunib olishdagi qiyinchiliklar. B) fikrlashda ishonch va aniqlik. Aniq - bosiq - ob’yektiv - muhimni muhimsizdan ajrata olish - o‘ylab ish ko‘rish - ishonchsizlik - noaniklik - o‘z fikrining yo‘qligi. B) o‘z fikrini bayon eta olish, og‘zaki chiqish, juda aniq va ishonchli - ko‘rgazmali - qisqa - chalkash - tutilib gapirish. Yozma ravishda: juda moxirona - to‘liq, tartibli - bog‘liqsiz - anikliqning mavjud emasligi, ifodalarning o‘xshovsizligi. G) saloxiyat kuchli - xar tomonlama - mos, cheklangan - bo‘shliklar mavjud: D) Tashkilotchilik qobiliyati. Tashkilotchilik qobiliyatining mavjudligi, rejalashtirishning aniqligi, rejani aniq amalga oshirish, tajribasizlik - uquvsizlik, umumiy tasavvurning yo‘qligi.

**Shaxsiy tavsifnoma:**

A) Xarakterning umumiy holatlari: samimiylik - o‘zini qo‘lga olishi - tolerantlik - kamtarlik - bosiqlik - xazilga moyilligi, o‘ziga tanqidiy baho berish - kirishimli emas - yashirincha ish tutish - yuzakilik - hisobli - egoizm, o‘zini ushlab tura olmasligi, manmanlik, erkalik. B) Mas’uliyat, burch tuygulari - mas’uliyat - majburiylik - ishonchlilik - befarqlik B) Irodaviy tavsiflari- ishni oxirigacha olib boradi - mustaqil qaror qabul qiladi - qaror qabul qilishda xato qiladi - o‘ziga nisbatan ishonchi yo‘k, faqat ko‘rsatma bilan ish tutadi. G) O‘zini tutishi-ishonch-odobli, majburiylik-erkin-korrektiv- tortinchoq, odobsiz-ishonchsizlik-manmanlik. D) xizmatdagi xulq-atvori raxbariyat bilan munosabatda samimiy konstruktiv va pozitiv xodimlarning tanqid va

maslahatlarga quloq soladi, ishbilarmon, raxbariyat xurmat bilan qaraydi, oson boshqariladi, tanqidga xafa boʻlmaydi, rahbariyatni chetlab oʻtishga xarakat qiladi, buyruq berishlarini yoqtirmaydi, samimiy emas, ishonch qozonishga harakat qiladi, oʻzini yomon tutadi. Kasbdoshlari bilan munosabatda boshqalar bilan chiqishadi, kasbdoshlar ishonchini qozongan, oʻrtoqlik tuygʻusi rivojlangan, jamoaga kirishib ketadi, muxabbat qozongan, yordamga kelishga tayyor, ziddiyatli vaziyatlar sababchisi boʻladi, bir oʻzi yuradi, jaxldor oʻrtoqlik hissi mavjud emas.

Mutaxassisning tanlovi uchun ahamiyatli boʻlgan boshqa sifatlarni ham koʻrib chiqamiz: A) chet — tillarini bilish darajasi? Qaysi tillarni biladi? Qanday darajada va qayerda oʻrgangan? Mamlakatda yoki chet elda? B) malaka oshirishi, malaka oshirish kurslarida yoki boshqarish akademiyasida oʻqigan.

Mutaxassisning umumiy bahosi tanlov mazmunidan kelib chiqishi lozim, u quyidagi baholardan iborat: Juda yaxshi, eng yaxshi umumiy baho boʻlib, u ishga shak - shubhasiz layoqatga, oʻta kuchli qobiliyatlar va xizmat majburiyatlarini a'lo bajarishga mos keladi. Bunday bahoga shunday mutaxassislar loyiqki, ish boʻyicha ham, shaxsiy fazilatlarga koʻra xam "Yaxshi"bahosini olgan ishchilardan ustun turishadi. "Juda yaxshi" bahosi kamdan- kam beriladi. **Yaxshi baho** olish uchun ishga layoqat bilan yondashadigan yuqori qobiliyat va kasbiy majburiyatlarni aniq bajarish bilan ajralib turadigan ishchilar tekshiriladi. Bu bahoni faqat chuqur bilimga ega boʻlgan oʻz ish-joyida qiyinchiliklarni enga oladigan, qobiliyatli va saloxiyatli mutaxassislar boʻlishi mumkin. **Qoniqarli baho**: bu baho oʻz shaxsiy sifatlari, qobiliyatlari va kasbiy faoliyatini "yaxshi" bahosini darajasiga yetarlicha javob bermaydigan shaxslarga beriladi. Qobiliyatlar va kasbiy majburiyatlarni bajarishda kamchiliklari mavjud ishchilarga qoʻyiladigan baho. Bu xodimlarning kamchiliklarini bartaraf etishga umidi mavjud. Ishchilarga attestatsiyada beriladigan eng yomon baho. Bu ishchilar kasbga nisbatan layoqat qobiliyatlari va mehnat majburiyatlarini bajarish borasida talabga javob bermaydilar, chunki elementar bilimlarida boʻshliqlar mavjudligi tufaylidir. Bu kamchiliklarni bartaraf etib boʻlmaydi, boʻlgandayam xodimdan shunday kuch talab etadiki, kutilmagan xolda qabul qilinadi. U oʻz lavozimiga loyiq emas hisoblanadi.

Tanlov xulosasi- bu mutaxassislarga ular kasbiy darajalariga muvofiq malaka toifalarini berish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilishdir. Toifa berish- fikrimizcha, tanlovning maqsadlaridan biri xolos. Yodda tutish kerakki, tanlov nafaqat mutaxassisning dolzarb malaka darajasini baholash kerak, balki uning kasbiy o‘sishini, uning malakasini oshirish yo‘llarini shuningdek, karera istiqbollarini aniqlab berish lozim. Tanlov bir marotabalik xodisa yoki navbatdagi kompaniya sifatida ko‘rilmasligi kerak. Agarda tanlov maqsadiga - ya’ni kasbiy o‘sishni tezlashtirish, mehnat sifati va maxsuldorligini oshirish, ijodiy tashabbuskorlikni oshirishga erishilsa - shunda mutaxassislar uchun attestatsiya muassasa va tashkilotlarda odatiy va doimiy istalgan holat bo‘lib qoladi. Shu qoidaga tayanib, biz mutaxassisni baholash uchun kerak bo‘ladigan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan mutaxassisning kasbiy toifa pasportini ishlab chiqdik. Pasport ikki qismdan iborat. Birinchisida biografik ma’lumotlar bo‘lib, kasbiy uzgarishlarda bu o‘zgarishsiz qoladi. Ikkinchi qismi xar qaysi attestatsiya jarayonida to‘ldiriladi. Shunday kasbiy toifa pasportiga ega bo‘lib, muassasa rahbari ob’yektiv ravishda xech qanday qiyinchiliklarsiz xodimini ishlatish mumkin, mutaxassisning o‘zi esa o‘z kasbiy o‘sishini nazorat kilishi, o‘z vaqtida kasbiy faoliyatga kerakli o‘zgartirishlar kiritishi mumkin.

Tanlovning asosiy tamoyillariga rioya etishni ta’minlash uchun- yana bir bor tanlov o‘tkazishning ayrim muammolarida to‘xtalib o‘tamiz. Eng asosiysi odamga yunaltirilganlik mutaxassisga uning toifasidan qatiy nazar unga qiziqish, xodimga yaxshi munosabatda bo‘lish, undan kutiladigan emas, balki uning kasbiy o‘sishini doim nazarda tutish kerak. Bu muammolarni xal etishda real imkoniyatlarni sanab o‘tamiz: Tanlovda o‘guvchini metodikasini barcha materiallari bilan tanishtirish. Mutaxassis faoliyatining tekshiruvini o‘tkazishda tanlovdan o‘tuvchi tayinlangan materiallar bilan tanishtirilishi lozim. Qaysidir nomzoddan norozilik xollarda u ekspertni chetlatishga xaqli. Imtixon komissiyasi taklif etgan variantlardan imtixon shaklini tanlash tanlovdan o‘tuvchilarga bog‘liq. Tanlovni o‘tkazishda attestatsiyadan o‘tuvchilarning individual, jins, yosh xususiyatlarini hisobga olishi lozim. Tanlovda yul qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatolarga to‘xtalib o‘tamiz. Tanlovda yosh, endi faoliyatini boshlagan xizmatchilar faoliyati tajribasizlik, mas’uliyatsizlik bilan

belgilanadi. Koʻp yillik stajga ega boʻlgan mutaxassislarga esa kasbiy ishonch, ammo shu bilan birga konservatizm va yangiliklarga oʻrgana olmaslik xos boʻladi. Tanlovning ob’yektivliligiga attestatsiya komissiyasi a’zolarining ishchilarga boʻlgan simpatiya va antipatnyalari ta’sir etadi. Shuning uchun kimlargadir baholar koʻtarilib qoʻyadi, kimgadir pasaytirib qoʻyiladi. Tanlov natijalariga rahbarlar tomonidan ekspertlarga berilgan xulosalar ta’sir etadi. Tanlov natijalari boʻyicha mutaxassislarga oshirilgan yoki aksincha pasaytirilgan ogʻzaki tavsiflar beriladi.

Kasb tanlash – kasb talablaridan kelib chiqib, bir qancha variantlar orasidan shaxsiy xususiyatlari va hislatlari ustuvorligiga koʻra munosibrogʻini tanlashni bildiradi. Kasb tanlash kasbiy yoʻnalganlikka nisbatan bir muncha murakkabrogʻ jarayon. Chunki shaxsda kasbga xos xususiyatlar – muayyan kasbni egallashga tayorgarlik (bilim, tajriba, dunyoqarash doirasining kengligini) darajasining mavjudligini aniqlash talab etiladi. Kasbiy shakllanish va kasbiy faoliyat muammolarini tadqiq etish dolzarb va keng qamrovli psixologik - pedagogik muammo sifatida baholash uchun barcha asoslar mavjud. Mazkur muammo ijtimoiy - iqtisodiy oʻzgarishlar sharoitida shaxs oldiga yanada kattaroq talablar qoʻyadi. XXI asrning boshidagi kasb-korlikka doir axborotlar koʻlamining ortganligi, inson ehtiyojjlarining oʻsib borayotganligi, yangi sohalarning paydo boʻlayotganligi, kasb yoʻnalishlarining oʻzgarib borishi va shaxsning hayotga munosabatining oʻzgarayotganligi sifatlari bilan xarakterlanadi.

Ma’lumki, har bir shaxs farovonlikda va yaxshi ta’minlangan sharoitda yashashni istaydi. Shu sababli ham insonlar farovon turmushni ta’minlashga xizmat qiluvchi mehnat faoliyati bilan shugʻullanishga intiladilar va moddiy boyliklarni oʻzlashtirishga imkon yaratuvchi kasb-hunar sohalari va mutaxassisliklarni egallashga harakat qiladilar. Ba’zi holatlarda ma’lum bir kasbni tanlash va uni egallashda shaxsning imkoniyati yetarli boʻlmaydi. Insonning qiziqishlariga va psixologik imkoniyatlariga toʻgʻri kelmaydigan kasbning tanlanishi, tabiiyki, uning shaxs sifatida kamol topishiga salbiy ta’sir koʻrsatadi. Shu nuqtai nazardan shaxsning ichki intilish va imkoniyatlariga u tanlagan kasbi bilan shaxsi orasidagi munosabati oʻta dolzarb masala

hisoblanadi. Biz quyida shu masala bo‘yicha psixolog olimlarning qarashlarini, o‘tkazgan tadqiqotlarini tahlil qilamiz. Ma’lumki, shaxsning kasbiy shakllanishi to‘rt asosiy bosqichdan iborat bo‘lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin: a) kasbiy intilishlarning shakllanishi; b) kasbiy ta’lim; v) kasbiy moslashish; g) shaxsning kasbiy faoliyatda qisman va to‘liq o‘zini-o‘zi bag‘ishlashi. Mazkur bosqichlarga mos holda kasbiy o‘zini o‘zi aniqlash jarayoni ham sodir bo‘ladi. Kasbiy o‘zini o‘zi aniqlash jarayoni psixologik adabiyotlarda yetarli darajada chuqur yoritilgan bo‘lib, ayniqsa, psixologlar kasbiy intilishning shakllanishi va kasb tanlash bosqichlariga alohida e’tibor qaratganlar. Respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy – iqtisodiy islohotlar aholidan yuksak madaniyatni, o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan kasbiy faoliyatning ikki xil jihati psixologik va pedagogik jihatlari farqlanadi. Kasbiy faoliyatning psixologik jihatlari xodimlarning kelajakda o‘z burch va majburiyatlarini samarali bajarishlari uchun ularga zarur bo‘lgan psixologik – pedagogik tamoyillar, kategoriyalar va tushunchalarni singdirish hamda kasb madaniyati va etikasi talablariga muvofiq hatti – harakatlarini izohlash, xizmat vazifalarini to‘g‘ri bajarishga o‘rgatish, o‘z kasbiga mehr – muhabbat, insonga hurmat bilan qarashni tarbiyalashda namoyon bo‘ladi. Kasbiy faoliyatning pedagogik jihatlari esa xodimlar xulqidagi mavjud ahloqiy – siyosiy xususiyatlarda aks etib, ahloqiy prinsiplar va me’yorlarning shaxs ongida qanday hosil bo‘lishi bilan belgilanadi. Axloqning shakllanishida atrofdagi turli xulq – atvordagi kishilar, shaxsiy tajriba, muayyan tiplar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, ommaviy axborot vositalarida yoritilayotgan faktlar katta ahamiyatga ega.

Kasbiy ta’limning muhim vazifalaridan biri kasbiy tayorgarlik bo‘lib, bunda tayorgarlik ikki xil ko‘rinishda amalga oshiriladi: mustaqil o‘rganish(qo‘shimcha ta’lim yoki mustaqil ta’lim) va maxsus kasbiy ta’lim muassasalarida ta’lim olish orqali. Kasbiy ta’limning muvaffaqiyatini belgilaydigan muhim psixologik jarayon ―ma’lum bir kasbga tayorgarlik‖ holati hisoblanadi. Bu holat emotsional va motivatsion tayorgarlikni ham nazarda tutadi. Kasb tanlash inson hayotidagi muhim bir bosqich hisoblanib, bunda inson hayoti uchun muhim qaror qabul qiladi va u jamiyatda o‘z

imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi. Bu jarayon inson tomonidan o'z ichki imkoniyatlari tahlil qilish natijasida ma'lum kasbning talablariga uning imkoniyatlarining mos kelishiga qarab sodir bo'ladi. Kasb tanlash ma'lum bir kasbni tanlayotgan inson (tanlov sub'yekti) bilan tanlanayotgan kasb (tanlov ob'yekti) munosabatlarini o'zida aks ettiruvchi faoliyat hisoblanadi. Tanlov sub'yekti va tanlov ob'yekti o'rtasidagi munosabatlar xarakteristikasini o'rganish davrimizning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Kasb tanlash qisqa vaqtda hal etiladigan ish bo'lmasdan, balki qator bosqichlardan iborat jarayondir. Bu bosqichlarning davoimiyligi tashqi omillarga va kasb tanlash sub'yektining individual xususiyatlariga bog'liq holda kechadi. Kasbiy jihatdan o'z o'zini aniqlash katta maktab yoshiga kelib inson uchun dolzarb mazmun kasb etadi va bir qancha bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi. Biz quyida shu bosqichlarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.[1]

### 3.2.2. Kasbiy tanlov xulosasi va uning ahamiyati

**Kasbiy faoliyatning pedagogik jihatlari .**Bundan ko'zlangan maqsad shundaki, biz ko'rib chiqayotgan mavzuni, ya'ni shaxsning kasb tanlashi, kasbiy shakllanishi va kasbiy faoliyati muammolarini chuqurroq yoritish orqali shaxsni aynan kasbiy o'z o'zini aniqlash jarayonini bosqichma bosqich ko'rib chiqishimiz zarur bo'ladi. Shunday qilib, kasbiy o'z o'zini aniqlash beshta bosqichni o'z ichiga qamrab oladi: 1. Kasbni ilk tanlash bosqichi. Bu bosqichda bola kasblar olami haqida yetarlicha tasavvurga ega bo'ladi, o'z ichki imkoniyatlari haqida kam biladi, uning kasbiy intilishi hali sust darajada bo'ladi. Bu bosqich kichik maktab yoshiga taalluqli bo'lib, unda kasbning mazmuni va ish sharoitlari haqida bolada savollar tug'ilmaydi. 2. Kasbiy jihatdan o'z-o'zini aniqlash bosqichi katta maktab yoshiga to'g'ri keladi (15-17 yoshlar). Bu bosqichda ilk professional intilishlar paydo bo'ladi va rivojlanadi hamda mehnatning turli xil sohalari ichidan o'ziga ma'qulini tanlash jarayoni kuzatiladi. 3. Kasbiy ta'lim bosqichida tanlangan kasbni o'zlashtirish jarayoni sodir bo'ladi. 4.Kasbiy moslashish bosqichi kasbiy faoliyatning individual uslubining paydo bo'lishi hamda kishining ishlab chiqarish va ijtimoiy

[1] Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. – 75-bet.

munosabatlar tizimiga bog‘lanishi bilan xarakterlanadi. 5. Mehnatda o‘zini ko‘rsatish bosqichi (qisman yoki butunlay) kasbiy mehnatga taalluqli bo‘lgan talablarning (kutilmalarning) bajarilishi yoki bajarilmasligi bilan bog‘liq holda kechadi. Shunday qilib, kasbiy jihatdan o‘z o‘zini aniqlash - shaxs kasbiy faoliyatining barcha davrlarini, ya’ni kasbiy intilishning paydo bo‘lishidan tortib to mehnat faoliyatidan butunlay ozod bo‘lgungacha bo‘lgan davrlarni o‘zida mujassamlashtirgan jarayondir. Aytish mumkinki, u insonning butun hayot yo‘lini qamrab oladi. Albatta, bu jarayonning eng muhim bosqichlaridan biri kasb tanlash amalga oshiriladigan bosqichdir. To‘g‘ri tanlangan kasb, bir tomondan, shaxsning ichki imkoniyatlariga mos tushadi va uning insoniy baxti hamda kamolotini belgilaydi, ikkinchi tomondan esa yaxshi kasb egasining samarali mehnati ta’sirida jamiyat rivoji jadallashadi.

### 3.2.3. Shaxsning kasbiy shakllanishi

Biz shaxsning kasbiy shakllanishida o‘zaro aloqadorlik masalasini tadqiq etar ekanmiz, izlanishlar bugungi kunda o‘zining keskin pallasiga kirganligini e’tirof etishimiz kerak. Chunki ko‘pgina tadqiqotlar mavjudki, ularda kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish, kasbiy kamolot, kasbiy faoliyatni boshqarish va kasbiy kamolotning boshqa masalalari tadqiq etiladi va h.z. Ilmiy manbalarning tahlili shundan dalolat beradiki, kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish, kasbiy o‘zlikni anglash va aniqlashga taalluqli umummetodologik va nazariy muammolar borasida qator izlanishlar olib borilgan, bular: L.A.Aza, G.M.Belokrilova, A.E.Golomshtok, V.I. Jukovskaya, E.A. Klimov, M.X. Titma, P.A.Shavir, M.G.Davletshin, N.Sh. Shodiyev, B.R. Qodirov, E. G‘.G‘oziyev va boshqalar. Qator tadqiqotlar kasb tanlash, kasbiy faoliyatga yaroqlilik va shaxsning kasbiy o‘zligini anglashi masalalari, kasbiy faoliyatning psixologik talablari va individ faoliyatining psixofiziologik asoslari, kasbiy qiziqishlarning shakllanishini o‘rganishga bag‘ishlangan. Bu yo‘nalishlarda M.X.Titma, E.A.Klimov, V.G.Maksimov, A.P.Chernyavchkaya, E.A.Golomshtok, K.M.Gurievich, N.D.Levitov va boshqalarning olib borgan tadqiqot ishlarini misol qilib keltirish mumkin. Kasbiy o‘zlikni aniqlash borasidagi izlanishlarning tahlilidan kasbiy faoliyatning har bir bosqichiga tizim sifatida qarash kerak,

degan xulosani chiqarish mumkin. T.M.Buyakas, N.D.Levitov, O.N.Rodinalar o‘z tadqiqotlarida kasbiy kamolotning bosqichlaridan biri hisoblangan kasbiy maslahatga alohida e’tibor qaratib, uni shaxsning ma’lum kasbiy faoliyatga moslashuvi jarayonida yo‘naltiruvchi sifatida baholaydilar hamda faoliyat samaradorligini shaxsning qobiliyatlariga bog‘lab tushuntiradilar. Biz o‘z izlanishimizda bugungi kunda talabalar shaxsining kasbiy shakllanishidagi tasavvurlari, kasb tanlashga sabab bo‘luvchi omillar va kasb tanlashga nimalar ta’sir ko‘rsatayotganligi, kasbiy faoliyat motivlarining darajalari, shaxsiy va kasbiy maqsad, qiziqishlari hamda kasbiy qarorlari nimadan iborat ekanligini aniqlashga e’tibor qaratdik. Shunday bo‘lsa ham hozirgacha ilmiy tadqiqotlarda kasb tanlashning turli xil sabablari mavjudligi aniqlangan. O‘spirinlarning kasbiy o‘zlikni anglashi borasidagi holatlari tahlil qilinganda, ularning kasblar to‘g‘risidagi tushunchalarida sayozlik mavjudligi ko‘zga tashlandi. Bundan tashqari, kasbiy o‘zligini anglash bilan ma’lum kasbni tanlash jarayoni o‘rtasida ta’lim-tarbiya muhiti va atrofdagilarning ta’siri omillarini nazardan chetda tutmasligimiz lozim bo‘ladi. Mazkur o‘zaro ta’sir jarayonlaridagi dialektik bog‘liqlikning o‘ziyoq ushbu masalaning naqadar murakkabligidan dalolat beradi. Masalan, birgina kasbiy maslahatni tashkil etishning o‘zining bir qator bosqichlari mavjud: a) kasbiy ma’lumot bosqichida shaxs o‘zi uchun mehnatni tashkil etish, ishga qabul qilish talablari, turli kasblarni egallashi, ularni tayyorlash bosqichlari va ta’lim olish muddati, mehnat haqi va kasbning istiqboli xususida ma’lumotlar oladi. b) diagnostik bosqichda shaxsning o‘z tanlagan kasbiga nisbatan qiziqishlari, layoqati, qobiliyati va maqsadlarining mosligi o‘rganiladi; v) shakllantiruvchi bosqichda kasb tanlagan o‘quvchi yoki shaxsga rahbarlik qilinadi, kasb tanlashdagi og‘ishlarning oldi olinadi va tuzatishlar kiritiladi; g) tibbiy jihatdan salomatligining kasbga mos kelishini aniqlash va psixologik bosqichda shaxs sifatlarining o‘z tanlagan kasbiga muvofiqligi masalalari muhokama qilinadi.

### 3.2.4. Kasbiy o‘z o‘zini aniqlash bosqichlari

**Kasbiy o‘z o‘zini aniqlash bosqichni** P.A.Shavirning mulohazalariga ko‘ra, shaxsning kasbiy o‘zligini aniqlashi qobiliyatning bo‘lg‘usi kasbiy talablarga mos kelishi, kasbga yaroqliligi bo‘yicha o‘zini to‘g‘ri baholashi, irodaviy sifatlar saviyasini o‘stirishi, mehnatga muhabbatli bo‘lishi va hayotiy tajriba singari shaxslilik asoslari talab etilar ekan. Kasb muammosini o‘rganish jabhalarining keng ko‘lamdagi o‘z tadqiqot predmetiga egaligi bugunga qadar amalga oshirilgan tadqiqot ishlarida kuzatiladi. Ushbu tadqiqotlarning bir necha yil davomida olib borilganligi va ulardan olingan natijalar ko‘lamining kengligi e’tiborga molikdir. Ularning bugungi kungi izlanishlar yakunlari bilan qiyoslanishi bu boradagi qo‘lga kiritilgan yutuqlarimizni boyitadi. Ammo talabalar kasbiy tasavvurlarining kasbiy shakllanishga va kasbiy faoliyatga muvofiqlashuviga ta’siri masalasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, qator tadqiqotlar mavjud bo‘lib, ularda shaxs kasbiy rivojlanishining psixologik jihatlariga asosiy e’tibor qaratilgan. Mazkur masalalarga biz quyida alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Ularning bugungi kungi izlanishlar yakunlari bilan qiyoslanishi bu boradagi qo‘lga kiritilgan yutuqlarimizni boyitadi. Ammo talabalar kasbiy tasavvurlarining kasbiy shakllanishga va kasbiy faoliyatga muvofiqlashuviga ta’siri masalasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, qator tadqiqotlar mavjud bo‘lib, ularda shaxs kasbiy rivojlanishining psixologik jihatlariga asosiy e’tibor qaratilgan.

**Kasbiy shakllanish.** Demak, kasbiy o‘z-o‘zini aniqlash kasb tanlash, kasbiy tayyorgarlik masalalaridan xabardorlik, kasbiy yo‘nalganlik, kasbiy yaroqlilik muhim komponentlarga bo‘linadi. Quyida ularga alohida-alohida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Kasbiy yo‘nalganlik inson shaxsi yo‘nalganligining bir ko‘rinishi hisoblanib, bu holat uning chuqur shaxs tuzulmalarigacha kirib boradi. Kasbiy yo‘nalganlik insonning individual-psixologik va individual-tipologik xususiyatlarigacha, uning qadriyatlar tizimiga, steriotiplariga, qobiliyatlari va qiziqishlariga borib taqaladi. Kasbiy yo‘nalganlik tizimining quyidagi funksiyalarini ajratib ko‘rsak bo‘ladi:

5) Ijtimoiy funksiyasi deganda jamiyatning to‘laqonli va teng huquqli a’zosi sifatida ijtimoiy kasbiy faoliyatni amalga oshirish imkoniyatini beradigan qadriyatlar, normalar va bilimlarning ma’lum tizimini o‘zlashtirish nazarda tutiladi.

6) Iqtisodiy funksiyasi deganda xodimlarning sifat tarkibini takomillashtirish, kasbiy faollikni yuksaltirish, ishlab chiqarish unumdorligini va malakasini oshirish tushuniladi.

7) Psixolog-pedagogik funksiyasi deganda ma’lum kasbni tanlagan kishining individual xususiyatlarini aniqlash, shakllantirish va inobatga olishni tushunish mumkin.

8) Tibbiy fiziologik funksiyasi deganda sog‘liqqa va alohida fiziologik xususiyatlarga nisbatan u yoki bu kasbiy faoliyatni amalga oshirishda zarur bo‘ladigan talablarni hisobga olish nazarda tutiladi.

Shunday qilib kasbiy o‘zini-o‘zi aniqlash jarayonininng muhim komponentlaridan biri hisoblangan - kasbiy yo‘nalganlikni hisobga olmaslik insonning noto‘g‘ri, o‘ziga mos bo‘lmagan kasbni tanlashga olib kelishi mumkin. Bundan shaxsning o‘zi ham, jamiyat ham manfaatdor emas. Kasbiy o‘zini-o‘zi aniqlashning muhim elementlaridan biri insonning kasbiy yaroqliligidir. Ma’lumki, inson, masalan uchuvchi bo‘lishga qiziqishi mumkin.Boringki, uning kasbiy yo‘nalganligi ham to‘g‘ri kelishi mumkin. Biroq u kasbiy jihatdan yaroqsiz bo‘lsa, tabiiyki bu kasbni tanlay olmaydi. Demak, kasbiy yaroqlilik ham insonning kasbiy o‘zini-o‘zi aniqlashida muhim o‘rin tutadi. Kasbiy yaroqlilikning ikki xil turi farqlanadi: mutloq kasbiy yaroqlilik (bunda insondan maxsus qobiliyat talab qilinadigan kasblar uchun yaroqlilik nazarda tutiladi)va nisbiy kasbiy yaroqlilik (bunda har qanday sog‘lom inson uchun imkon darajasida bo‘lgan kasblarga yaroqlilik nazarda tutiladi). Kasbiy yaroqlilikni aniqlash bo‘yicha ma’lum bir psixologik testlardan foydalanishda analitik, sintetik va kompleks yondoshuvlardan foydalanish mumkin. A.A. Stolyarov mazkur yondoshuvlarga quyidagicha ta’rif beradi: — Analitik yondoshuv alohida psixologik ko‘rsatkichlarni o‘rganish va baholoshni nazarda tutadi (masalan, diqqat, xotira, harakat kordinatsiyalari va h.). Bu ko‘rsatkichlar tanlangan kasb bo‘yicha ta’lim va faoliyat muvaffaqiyatlari uchun

zarur hisoblanadi. Sintetik yondashuv yaxlit faoliyatni yoki uning muhim elementlarini o'rganishni nazarda tutadi. Shuning uchun ham mazkur metod darajasida turli xil apparatlardan foydalaniladi. Bu apparatlar yordamida butun boshli kasbiy operatsiyalar modellashtiriladi. Kompleks yondashuv analitik va sintetik yondoshuvlarning qo'shiluvidan paydo bo'ladi‖. Endi qisqacha kasb tanlash bilan bog'liq bo'lgan yo'nalishlarga to'xtalib o'tamiz. Ulardan birinchisi kasbiy ma'rifat hisoblanadi. Kasbiy ma'rifat deb tanlanadigan kasb haqida, uning ijtimoiy-psixologik va boshqa jihatlari haqida bilimlarni uzatishga aytiladi. Shuning uchun ma'lum kasbni tanlash jarayonida shu kasb haqida, uning talablari va imkoniyatlari haqida qancha ko'p ma'lumotlarga ega bo'lishlik shu kasbni tanlashda to'g'ri qaror qabul qilishga yordam beradi. Darhaqiqat kasbni tanlash jarayonida kasblar olami haqidagi bilimlar, qanday qilib tanlash haqidagi bilimlari har qanday endigina hayot yo'lining boshida turgan o'spirin uchun juda foydali hisoblanadi. Keyingi yo'nalish – kasbiy maslahat hisoblanadi. Kasbiy maslahat quyidagi vazifalarni bajarishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi: A) Lug'aviy - ma'lumot berish vazifasini bajaradi. Bu ma'lumotlar ishga joylashish kanallari, ishga kirishga qo'yiladigan talablar, turli xil kasblarni egallash imkoniyatlari, kasbiy o'sishning kelajakdagi yo'nalishlari haqida ish axtaruvchiga xabar beradi.

B) Diagnostik vazifani bajaradi. Bunda kasb tanlash sub'yekti shaxsini uning ma'lum shaxs xususiyatlari tanlayotgan kasb talablariga mosligi nuqtai-nazardan o'rganish haqida gap ketadi. Biz o'z tadqiqotimizda ham mazkur masalaga e'tiborimizni qaratganmiz. V)Korreksion vazifani bajaradi. Kasb tanlash sub'yektining imkoniyatlariga uning qiziqishlarini mos keltirishga qarab o'zgartirish korreksiya deb ataladi. Shunday qilib, kasbiy o'zini-o'zi aniqlash o'zida quyidagi psixologik muammolarni mujassamlashtiradi: kasb tanlash, kasbiy yo'nalganlik, psixologik tayyorgarlik masalalaridan xabardorlik.

# IV BOB. KASBIY PSIXODIAGNOSTIKASI.

## 4.1. KASBIY FAOLIYAT PSIXODIAGNOSTIKASI

### 4.1.1. Psixodiagnostika haqida tushuncha

**Psixodiagnostika nima?**

Psixodiagnostika so'zini asl mohiyati "psixologik tashxis qo'yish" yoki kishining mavjud psixologik holati va xususiyati haqida qaror qabul qilishni anglatadi.

Psixodiagnostika – amaliy jihatdan deyarli psixologning barcha faoliyat doiralarida, ya'ni psixologik-pedagogik tadqiqotlarda muallif yoki ishtirokchi sifatida qatnashayotganda, psixologik maslahat hamda psixologik korreksion ishlarni amalga oshirayotgan jarayonda qo'llanadi. Ammo ko'pincha amaliy psixologning ishlarida psixodiagnostika – faoliyatning alohida mustaqil turi sifatida namoyon bo'ladi. Uning maqsadi psixologik tashxis qo'yish, ya'ni kishini mavjud psixologik holatini baholash orqali ifodalanadi.



**"Psixodiagnostika"** atamasi "**psixologik tashxis qo'yish"** degan ma'noni anglatib, shaxsning ruhiy holatida to'liq yoki biror bir alohida xususiyati haqida xulosa chiqarishdir, bunda "tashxic" shaxsning taraqqiyot ko'rsatkichi va tavsifnomalarni birgalikda tahlil qilish asosida sinaluvchining holat va xususiyatlari haqidagi xulosalardan iboratdir. «Psixodiagnostika» atamasi ilk bor **Rorshaxning «Psixodiagnostika»** asarining chop etilishidan so'ng psixiatriyada tarqalgan bo'lib, u tez orada tibbiyotdan tashqarida ham keng miqyosda ommalasha boshlandi. «Diagnoz», yani «tashxis» esa shaxs rivojlanishidagi har qanday og'ishlarni, hattoki uning holat va xususiyatlarini aniq taraqqiyot darajasini aniqlash, demakdir.

Psixodiagnostika — bu maxsus bilimlar sohasi bo'lib, individ yoki guruhni psixologik taraqqiyot ko'rsatkichlarini, holat va xususiyatlarini baholash uchun metodika va metodologiyalar nazariyasi ishlab chiqish bilan bog'liqdir.

Psixodiagnostika baholash ob'yekti, psixologiya fani o'rganayotgan har qanday jarayon bo'lishi mumkin. Masalan, o'zaro hamkorlik qilayotgan shaxslarning bir-biri bilan kechayotgan xatti-harakati va muloqotida yuzaga keladigan, alohida bir odam sezgisidan boshlab, murakkab ijtimoiy- psixologik jarayon bilan tugatish mumkin.

### 4.1.2. O'qituvchi tomonidan yaratilgan baholash strategiyalari

Oltinchi sinf talabalarini o'qitadigan maktab joylashgan jamiyatda yashovchi oilalarning ko'pchiligi kambag'allik darajasidan ham quyi yashashadi. Har yili uning maktabidagi talabalarning ko'p qismi shtat testlaridan yiqilishadi. Kym maktab o'quv qo'llanmalariga suyanadi va odatda Til San'ati va Ijtimoiy Saboqlar fanlarida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmalardan foydalanadi. Sinfdagi baholash tizimi o'zida shtat testlarinikini aks ettiradi, ana shunda talabalar baholash formati bilan tanishib olishadi. Kym motivatsiyaga bag'ishlangan yozgi bitiruv kursida bir maqolani o'qib qoladi, "Afro-Amerikalik talabalar ichki dunyosini sharaflovchi va undovchi o'qitish strategiyalari" (Teel, Debrin-Parecki, & Covington, 1998) va shu kuzda o'zining ko'rsatmalari va baholash tizimini to'rtta yo'l bilan o'zgartirishga qaror qiladi. Birinchidan, u intilishga e'tiborni qaratish qobiliyatiga kuchaytiruvchi urg'u beradi va talabalarga toki kriteriyaga kelmaguncha, o'z ishlarini qayta ko'rib chiqishlariga imkoniyat yaratib beradi. Ikkinchidan, u talabalarning chiqishga doir baholash kabi imkoniyatlar beradi (masalan, og'zaki prezentatsiya, san'at proyekti, kreativ qo'lyozma). Uchinchidan, u talabalardan video materiallarini tayyorlashda, qog'ozlarni tarqatishda va shu kabilarda yordam berishlarini so'rab, ularda mas'uliyatni rag'batlantiradi. To'rtinchidan, u talabalarning madaniy meroslarini hurmat qilgan holda, ularni o'z madaniyatlariga doir biografiyalar va tarixiy afsonalarni o'qishga undaydi. Kymning bayon qilishicha, talabalardagi intilish va o'zlarini tutishlaridagi o'zgarishlar keskin bo'ldi: talabalar endi ancha tashabbuskor, qattiq ishlashadi va yaxshi narsalar yaratishadi. Yil oxiriga kelib, shtat testlaridan o'tgan talabalar soni o'tgan yilgidan ikki martaga oshdi.

Keyinchalik, Kym hozir ham xuddi o‘sha maktabda oltinchi sinflarni o‘qitmoqda va yuqorida tasvirlangan strategiyalarni o‘zgartirishda davom etmoqda. U o‘qitgan talabalar sifati yaxshilanganiga qaramasdan, maktab yopilib ketdi, chunki nisbatan olib qaraganda, talabalar sifati yomon edi. Kym doktorlik unvonini oldi va hozirda xizmatdan oldingi va xizmat davomidagi o‘qituvchilarni peshingi darslarda Ta’limiy Psixologiya bo‘yicha o‘qitmoqda.

Kimning hikoyasi biz ushbu qismda va 12-qismdagi standardlashgan testda kashf etadigan baholashga doir bir qancha mavzularni aks ettiradi. Birinchidan, samarali baholash tizimini tanlash ko‘rsatmali amaliyotga, motivatsiyaga bo‘lgan ishonchga va shtat test tizimining mavjudligiga asoslanadi. Ikkinchidan, ba’zi o‘qituvchi tomonidan yaratilgan baholash tizimi talabaning o‘rganishini va ishtiyoqini oshiradi – ba’zilari esa unday emas. Uchinchidan, o‘qituvchilar o‘z o‘qitish qobiliyatlarini amaliy izlanish orqali oshirishlari mumkin. Bu o‘z ichiga muammoni aniqlash (masalan, kam undov va muvaffaqiyat), alternativ usullarni o‘rganish (masalan, adabiyot o‘qish), yangi usullar ijrosini ta’minlamoq, natijalarni kuzatish (masalan, talabalarning harakati va test natijalari) va kuzatishlarga asoslangan tarzda strategiyalarni o‘zgartirishda davom etishni oladi.

So‘nggi 20 yil ichida talabalar o‘rganishini baholashning eng yaxshi amallari keskin o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Rouzmeri 1970-yillarda matematika o‘qituvchisi bo‘lganida, u talabalar bilimini baholamasdi, u oldingi hafta davomida o‘rgatgan matematik bilimlari va mahoratlari bo‘yicha test olardi. Testlar formati bo‘yicha biroz farq qilardi va talabalar testni qog‘oz va qalam yordamida individual tarzda bajarishardi. Ko‘plab o‘qituvchilar, shu jumladan, matematika o‘qituvchilari ham, hozirda o‘z talabalari nimalarni o‘rganganliklarini aniqlash uchun turli-tuman metodflardan foydalanishadi va shu baholash ma’lumotlarini ularning ko‘rsatmalarini o‘zgartirishda ishlatishadi. Ushbu bo‘limda asosiy e’tibor talabalar bilimini oshirishda sinfxona baholash tizimlaridan foydalanishga qaratiladi va biz bir nechta asosiy konsepsiyalardan boshlaymiz.

**Munosib baholash texnikalarini tanlash I: yuqori sifatli baholash tizimlari.**

Baholash yuqori sifatli bo‘lishi uchun u yaxshi yaroqlilik va ishonchlik xususiyatlariga ega bo‘lishi, shuningdek, tarafkashlikdan yiroq bo‘lishi lozim.

**Yaroqlilik**

Yaroqlilik bu berilgan individuallar guruhi uchun “baholash natijalarining qo‘llanilishi va izohlari yetarliligi va munosibligi” tahlilidir (Linn & Miller, 2005, p. 68). Misol uchun, imigrantlarga berilgan matematik kasr bo‘yicha test natijalari ularning kasrni tushunganligini anglatadi deya xulosa qilish o‘rinlimi? O‘qituvchi o‘z kuzatuvlaridan kelib chiqqan holda, bog‘cha o‘quvchisi Jasmin, o‘qituvchining og‘zaki ko‘rsatmalariga tshunmasligi uchun, e’tibor tanqisligi kasalligiga chalingan deb xulosa qilishi o‘rinlimi? Har ikkala vaziyatda ham boshqacha mulohazala bo‘lishi mumkin, masalan, imigrantlar matematikaga qaraganda ingliz tilidan sustroq bo‘lishlari va Jasminning eshitish qobiliyati zaiflashgan bo‘lishi mumkin.

Shuni tushunish kerakki, yaroqlilik talqinga ham aloqador va u baholash protsedurasidan emas, balki, uning natijalaridan foydalanadi. Masalan, kasrga doir xuddi shunday test natijalari to‘g‘risida qaror chiqarish faqatgina talabalarning bari ingliz tilini yaxshi tushunsagina yaroqli bo‘lishi mumkin. O‘qituvchining talaba e’tibor tanqisligi kasalligiga chalingan deb hisoblashi faqatgina talaba eshitish apparatlari va boshqa kasalliklarga tekshirilganidagina to‘g‘ri kelishi mumkin (shunga qaramay, kasalliklar tasnifi faqat bitta o‘qituvchi tomidan qo‘yilmaydi). Yaroqlilik tahlillar va baholash natijalari tasdiqlanganligi darajasi haqida umumiy qaror chiqarishni o‘z ichiga oladi. Yaroqlilik bu daraja masalasidir (masalan, yuqori, o‘rta yoki past yaroqlilik), u keskin rad yoki qabul emas (masalan, butunlay yaroqli yoki yaroqsiz) (Linn & Miller, 2005).

Yaroqlilikni baholashda uchta dalil manbaalari hisobga olinadi – mazmun, konstruksiya va taxminiy. Mazmun yaroqlilik dalili quyidagi savol bilan bog‘liq: Baholash tizimi o‘z ichiga mazmun va vazifalarni qanchalik yaxshi qamraydi? Masalan, tasavvur qiling, sizning ta’limiy psixologiya instruktoringiz oraliq test o‘ylab topdi va sizga bu test o‘z ichiga qo‘llanmadagi birdan yettigacha bo‘lgan bo‘limlarni qamrashini aytdi. Aniqki, testdagi barcha mavzular sizning

metodlaringiz yoki madaniyat darsliklaringizdan emas, balki ta’limiy psixologiya mazmuniga asoslangan bo‘lishi kerak. Shuningdek, mavzular barcha yettita bo‘lim mazmunini qamrab olishi kerak, faqatgina uchdan yettigacha bo‘lganlarini emas – agar instruktoringiz shu bo‘limlar muhimroq ekanligini aytmasa.

O‘qituvchilar mazmun yaroqliligiga asoslangan dalil yig‘ishni boshlashdan avval, ular o‘z maqsadlari va vazifalarini aniqlashtirib olishlari kerak. Mazmun yaroqliligi baholash tizimi o‘qituvchi (yoki test tuzuvchi) tomonidan baholangan vazifalarga munosib ekanligi darajasini belgilaydi va ular o‘zlarining maqsad va vazifalarini tasvirlaydilar (Linn & Miller, 2005). O‘qituvchilar baholash vazifalarini yaratayotganda, mazmun yaroqliligi haqida ham o‘ylashlari muhimdir. Buni qilishning usullaridan biri esa tavsilotlar jadvalini yaratishdir. Pensilvania shtati 3-sinf geografiyasiga asoslangan namuna quyida keltirilgan. Chap tomondagi ustunda 20 mavzuli test uchun ko‘rsatmali mazmun keltirilgan va o‘qituvchi buni ikki xil ko‘rsatmali vazifa (tanishtirish va samara)lar yordamida barpo etmoqchi. Ikkinchi va uchinchi ustunlar har bir mazmun hududi va har bir ko‘rsatmaviy vazifalar uchun atalgan mavzular sonini belgilaydi. Agar kuzatsangiz, o‘qituvchi oltita mavzuni geografik tasvirlar sub-hududiga bag‘ishlagan – har qanday sub-hududdanda ko‘proq. Tafsilotlar jadvalini yaratish o‘qituvchilarga ba’zi mazmun yoki konsepsiyalar haddan tashqari ko‘p namunalashtirilganligini (masalan, haddan tashqari ko‘p mavzular) va ba’zilari haddan tashqari kamligini (masalan, haddan tashqari kam mavzular) ko‘rishda yordam beradi.

Konstruksiya yaroqlilik dalili mazmun yaroqlilik dalilidan ancha murakkabroq. Odatda biz talaba ishlari borasida kengroq qarorlar qabul qilishga qiziqamiz va kasr kabi aniq qobiliyatlari bizni unchalik qiziqtirmaydi. E’tibor asosan matematik mulohaza yoki o‘qish mashqlariga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Konstruksiya bu biz xulq-atvorni tushuntirib berish uchun yaratilgan deb hisoblovchi odam xarakteristikasidir. Misol uchun, biz havotirlanish testi konsepsiyasini ishlatamiz, va bunda nima uchun individuallar test paytida e’tiborlarini bir yerga jamlashda qiynalishlarini, terlash kabi fiziologik reaksiyalarga uchrashlarini va testni oddiy sinf vazifasiga qaraganda yomonroq

bajarishlarini tushuntirib beramiz. Shu tarzda, matematik mulohaza va o‘qish mashqlari konstruksiyalardir va biz ulardan baholashdagi ishlarni izohlashda foydalanamiz. Konstruksiya yaroqliligi bu baholashdagi ish izohlana oladigan va konstruksiyaga boshqa nomunosib faktorlar ta’sir etmagan o‘lchovni aniqlash jaronidir. Misol uchun, Yuqori keltirilgan imigrantlarning ingliz tilida matematik mulohaza testi haqidagi qarorlar ingliz tiliga bog‘liq bo‘lganda pastroq yarorlilikni tashkil etgan bo‘lardi, lekin bu narsaning matematikaga aloqasi yo‘q. Xuddi shunday tarzda, semestr so‘ngidagi imtihonlar ham oddiy vazifalarga qaraganda test paytida ko‘p havotirlanadigan talabalar uchun og‘ir kechadi. O‘qituvchilar talabalar mehnatiga ta’sir etuvchi ammo baholanayotgan konstruksiyaga nomunosib bo‘lgan faktorlarni kamaytirgan holda konstruksiya yaroqliligini oshirishga yordam berishlari mumkin. Bu faktorlar bezovtalik, ingliz tili qobiliyatlari va o‘qish tezligidan iborat (Linn & Miller 2005).

Yaroqlilik dalilining uchinchi shakli bu kriteriyaga asoslangan yaroqlilikdir. AQShdagi tanlov orqali oluvchi kollejlar ACT yoki SAT dasturlaridn foydalanishadi chunki ushbu standardlashtirilgan testlar birinchi kurs talabalarini topishda yordam beradi, masalan, ularda yuqori kriteriyaga asoslangan yaroqlilik mavjud. Ba’zi maktablar kuzgi semetrda talabalarga matematika yoki o‘qish bo‘yicha testlar berishadi, shu bilan ular qaysi talabalar bahor paytidagi shtat imtihoniga tayyor va qaysilari yordamga muhtojligini bilib olishadi. Agar kuzgi testlar talabalarning mehnatini aniq belgilay olmasa, keyinchalik kerak bo‘lmagan talabalarga kriteriyaga asoslangan yaroqlilik to‘g‘risida qo‘shimcha yordam berilishi mumkin.[1]

**Ishonchlilik**

Ishonchlilik o‘lchamning barqarorligini anglatadi (Linn & Miller 2005). Tasavvur qiling, janob Garsiya o‘zining o‘ninchi sinf talabalariga ozuqa kimyosi bo‘yicha dars o‘tmoqda va dars so‘ngida u o‘qituvchilar qo‘llanmasidan test mavzular bo‘yicha baholash o‘tkazadi. Ishonchlilik quyidagi savollarga asoslangan: Agar talabalar vazifani Juma yoki Dushanba kuni olganlarida ularning baholari qanchalik o‘xshash bo‘lardi? Agar janob Garsiya boshqa

turdagi testlarni tanlaganida yoki boshqa o‘qituvchi testni tekshirganida, baholar o‘zgargan bo‘larmidi? Baholash talabalarning bir paytdagi mehnatining aniq o‘lchamlaridan foydalangan holda ular haqda ma’lumot beradi.

Toki baholashdagi natijalar turli vaziyatlarda, turli baholovchilarda yoki turli vazifalarda (xuddi bir mazmunli sohada) barqarorligicha qolmasa, natijalardagi ishonch pasayadi va talabaning bilimini oshirishda u foydali bo‘la olmaydi.

Aniqki, biz mukammal barqarorlikni umid qilolmaymiz. Talabalarning xotirasi, diqqati, charchoqliklari, harakatlari va bezovtaliklari o‘zgarib turadi va bu ularning ishiga ham ta’sir etadi. Hatto malakali baholovchilar yozma ish, fan loyihasi yoki og‘zaki prezentatsiya kabi ishlarni baholashda farq etadilar. Shuningdek, so‘z tanlash va aniq mavzular dezayni ham talabalar mehnatiga ta’sir etadi. Biroq ba’zi baholash tizimlari boshqalariga qaraganda ishonchliroq va shuningdek o‘qituvchilar ishonchlilikni oshira oluvchi bir qancha strategiyalar ham mavjud.

Birinchidan, ko‘proq mavzu yoki vazifalardan iborat baholash tizimining ishonchlilik darajasi ko‘proq. Buni tushunish uchun, ikkita test olaylik: birida beshta mavzu bor, ikkinchisida 50 ta mavzu bor. Imkoniyat faktorlari uzunroq testga qaraganda, kichikroq testga ta’sir qiladi. Agar talaba birinchi testdagi mavzulardan birini tushunmasa, bu umumiy bahoga katta ta’sir o‘tkazadi (20 foizga kamayadi). Aksincha, 50 ta mavzuli testda bir mavzu tushunarsiz bo‘lsa, umumiy bahoga kamroq ta’sir bo‘ladi (faqatgina 2 foiz). Aniqki, bu testlar juda uzun bo‘lishi kerak degani emas, ammo o‘rtacha va imkoniyat farqini kamaytirishga yetadigan sonda mavzular qoplanishi kerak. Ikkinchidan, aniq yo‘llanmalar va mavzular ishonchlilikni oshirishga yordam beradi. Agar yo‘llanmalar va aniq mavzu va vazifalar so‘zlari noaniq bo‘lsa, u holda talabalarning o‘zlari natija aniqligiga ta’sir etgan holda tahmin qilishlariga to‘g‘ri keladi. Uchinchidan, aniq baholash kriteriyalari yuqori ishonchlilikni ta’minlashda muhim hisoblanadi (Linn & Miller, 2005). Ushbu bo‘lim so‘ngida biz baholash kriteriyalarini rivojlantirish uchun ishlatiladigan strategiyalarga izoh beramiz.

**Tarafkashlikning yo‘qligi**

Tarafkashlik baholashni amalga oshirayotganda talabaning shaxsiy xarakteristikasi (masalan, jinsi, irqi yoki ijtimoiy kelib chiqishi) tufayli uning mehnatini buzib ko‘rsatish orqali paydo bo‘ladi (Popham, 2005). Ikkita tarafkashlik baholash turi muhimdir: qo‘pollik va adolatsiz jazolash. Baholash tizimi qo‘pol bo‘lishiga sabab ko‘pincha testda salbiy stereotiplar borligidir. Misol uchun, sog‘lik darsining baholash tizimida barcha doktorlar erkak va barcha hamshiralar ayol deya tariflangan bo‘lishi mumkin. Yoki ijtimoiy bilimlar sinfida Latinolar va Osiyoliklar tug‘ma Amerikalik emas, balki imigrantlar deb aytilishi mumkin. Ushbu misollarda ba’zi ayollar, Latinolar va Osiyoliklar stereotiplardan tahqirlanishlari mumkin va testda yaxshi ishlay olmasliklari mumkin.

Adolatsiz jazolash mavzular bir guruhni haqorat qilganida emas, balki, turlicha tajriba tufayli bo‘lishi mumkin. Misol uchun, qaysidir sport bilimini baholovchi matematik mavzu guruhlarni o‘sha sport turidan behabar deya baholashi mumkin (masalan, imigrantlar uchun Amerika futboli). Yoki bir guruhga o‘z jamoalarining konsepsiyasiga simfonik orkestr yordamida modul yaratish buyurilsa, bu ish oldin orkestr ijrolariga qatnagan talabalar uchun osonroq kechishi mumkin – ehtimol, serob oilalardan chiqqan talabalarda. Adolatsiz jazolashlar faqatgina talabalar darsda yomon qatnashganida sodir bo‘lmaydi. Masalan, fizikaviy ta’lim darsida qaysidir sport haqida muhokama qilib, keyin u haqda savol berish adolatsiz jazolash hisoblanmaydi, chunki bu savol sinfda o‘rgatiladigan bilimdan tashqari narsani qamramaydi.

Ko‘p irqli sinfxonalarda ilk bora dars berayotgan o‘qituvchilar uchun murakkablik paydo bo‘lishi mumkin, chunki ular guruh a’zolarini noqulay holga solmaydigan baholash tizimlarini yaratishlari kerak. O‘qituvchilar talabalarning turli kelib chiqishlari kuchli ta;sir qilishini jiddiy o‘ylab ko‘rishlari kerak. Talabalar nima deyishini diqqat bilan tinglash va ularning kelib chiqish bilimlari haqida o‘rganish muhimdir.

## Munosib baholash texnikalarini tanlash II: o'qituvchi tomidan yaratiladigan baholash tizimlari

Ilk bor ish boshlagan o'qituvchilar uchun murakkabliklardan biri bu munosib baholash texnikalarini tanlab, ishlatishdir. Ushbu bo'limda biz o'qituvchilar foydalanadigan turli xil bahlash tizimlarini xulosa qilamiz. Oldiniga biz o'qituvchilar tezkor qarorlar talab qiladigan ko'rsatmalar paytida ishlatadiga norasmiy texnikalar haqida muhokama qilamiz. Keyinchalik o'qituvchilar ko'rsatmadan oldin ishlatadigan va tasviriy qarorlar yaratadigan rasmiy texnikalarni muhokama qilamiz.

**Eslatmalarni qayd etib borish.**

Kuzatuv jarayonlarini qayd etib boorish ishonchlilikni oshiradi va bir talaba, guruh, yoki butun sinfxona ta'sirini tushunishni oshiradi. Ba'zan bu narsa boshqa o'qituvchilar yordamini talab etishi mumkin. Masalan, endigina aniq fanlar bo'yicha o'qitishni boshlagan Aleksis o'ylash uchun beriladigan vaqt ko'proqligi talabalarning bilimini oshirishga yordam berishidan xabardor (Rowe, 2003), ammo o'z xulq-atvoridan ko'ngli hotirjam emas, shuning uchun hamkasbidan darsini kuzatishni va kutish vaqtlarini qayd etib borishni so'raydi. Aleksis kutish vaqti barcha talabalar uchun kamligini bilib oldi, shuning uchun har safar talabadan savol so'raganida, ichidan beshgacha sanashni mashq qila boshladi. O'qituvchilar hamrohlar yordamisiz talabalar haqida hazilatomus qaydlar yozib borishlari mumkin. Bu qaydlar talabalar xulqidagi hodisalarni tasvirlashi mumkin, voqea qayerda va qaysi payt sodir bo'lgani, voqea haqida mujmal sharh qoldiriladi. Misol uchun, voqeani tasvirlash Dushanba kuni ertalab matematika darsida uxlab qolgan ikkinchi sinf talabasi Josef haqida bo'lishi mumkin. Mujmal izoh u talabaning hafta oxirida to'yib uxlolmagani haqida bo'lsa, munosib izoh esa uning kasalligi va dori-darmonlar tufayli uyqisiragani bo'lishi mumkin. Ko'rinib turibdiki, qo'shimcha ma'lumotga ehtiyoj bor va o'qituvchi Josefdan nega uyqisirayotganini so'rashi mumkin, shuningdek, kelasi hafta davomida ham uning uyqisirashi yoki yo'qligini kuzatishi mumkin. Hazilatomus qaydlar odatda muhim ma'lumotlarni qamrab oladi va ular xotiraga tayangandan yaxshiroqdir, ammo ular saqlanib qolishi uchun vaqt kerak va o'qituvchilar xolisona bo'lishda qiynalishadi.

Masalan, Josefning uyqisiraganini ko‘rgach, o‘qituvchi uning uyqisiragani belgilarini qidira boshlashi mumkin – tetik bo‘lgan kunlarini esa u unutib yuboradi. Shuningdek, o‘qituvchilar uchun kuzatuvlari yuqori darajada ishonchli bo‘lishi uchun keng turdagi namunalar keltirish og‘ir kechadi.

O‘qituvchilar shuningdek, asosan IEP ga ega talabalar uchun rasmiy kuzatuvlar olib borishadi. Maktabdan oldingi dargohda norasmiy va rasmiy kuzatuvlar muhimligiga misol quyidagichadir:



*Katta shahar chetidagi mahallada maktabdan oldingi dargoh sinfi mavjud va ularda sakkizta kam ta’minlangan talabalar va til bo‘yicha va ijtimoiy qobiliyati bo‘yicha iqtidorli to‘rtta talaba bor.*

*Kam ta’minlangan talabalarning ba’zilari kechikib gapirishni o‘rganganlik bilan, ba’zilari xulq-atvor kasalliklari bilan, va ba’zilari esa autizm bilan tashxis qo‘yilgan. Talabalar o‘qituvchi bilan o‘tirishadi va o‘qituvchida turli hajmdagi uchta “ajoyib” narsa bor (masalan, o‘yinchoq pandalar), va talabalardan ularni kattaligi bo‘yicha tartibga keltirish so‘raladi. Qobiliyatli talabalardan ham ularning har biriga qo‘l cho‘zib ko‘rsatishni va “Mana bunisi kattasi”, “Mana bunisis o‘rtachasi”, va “Mana bunisi kichigi” deb aytish so‘raladi. Ba’zi talabalar uchun faqat ikkita tanlov berildi (kata va kichik), chunki ularning rivojlanish darajasi uchun shu ikkisi yetarli. O‘qituvchi norasmiy tarzda shuni kuzatadiki, bolalardan biri oyog‘ini qimirlatmasdan o‘tirishda qiynalayapti va u sekingina yordamchidan og‘irroq bir material berishni so‘raydi va uni oyog‘ini tekis tutishi uchun bolaning oyog‘iga qo‘yadi. Mashg‘ulot davom etadi va yordamchi talabalar xulqini ehtiyotkorlik bilan kuzatib, IEP rivojlanish kartochkalariga qaydlar yozib boradi: “Markdan ikkita rasm yoki narsani tanlash so‘ralganda, u 80 foiz holatda munosib buyumni ko‘rsatadi.” O‘qituvchi va uning yordamchilari kun yarmi davomida kam*

*ta'minlangan talabalarning munosib xulq-atvori haqida qaydlar yozib borishadi. Kunlik qaydlar har hafta xulosa qilinadi. Agar muayyan bir vazifa uchun yetarlicha kuzatuvlar yig'ilmasa, o'qituvchi va yordamchi ko'proq kuzatuvni o'sha bolaga qaratishadi va, agar lozim bo'lsa, vzaifaga taalluqli alohida vaziyatlar yaratishadi. Har hafta oxirida o'qituvchi kam ta'minlangan talabalar o'z vazifalariga mos ishlashayotganini hisoblab boradi.*[1]

**Tanlangan javob mavzulari.**

O'qituvchilar tanlaydigan baholash tizimining umumiy shakllari tanlovli testlar, ulash va to'g'ri/xato mavzulardir. Tanlangan javob mavzularida talabalar o'zidan yoki harakatlaridan javob chiqarmasdan, o'qituvchi yoki test tuzuvchi tomonidan taminlangan javoblardan birini tanlashi kerak. Tanlangan javob mavzulari talabadan ma'lumotlarni eslashni emas, balki to'g'ri javobni taniy olishni talab qiladi. Shunday mavzuli testlar xolisona deb ataladi, chunki ularga baholovchining ta'siri va mulohazalari bo'lmaydi, shuning uchun ham ko'pincha mashina tomonida baholanadi. Baholashda potensial xatolarni kamaytirish testlarning ishonchliligini oshiradi, ammo faqat xolisona baholashdan foydalanadigan o'qituvchilar o'z baholash tizimlarining yaroqliligini kamaytirish ehtimollari bor, chunki xolisona testlar barcha o'rganish maqsadlari uchun munosib emas (Linn & Miller, 2005). Bilim o'rganish uchu va shuningdek, bilim o'rganishning baholash tizimi shunday joylashishi kerakki, baholash texnikalari o'rganish maqsadlari va natijalariga munosib kelishi kerak.

Misol uchun, talabalar maqsadi eksperiment o'tkazish bo'lsa, demak ulardan eksperiment o'tkazish haqida emas, balki, o'sha eksperimentning o'zini so'rash kerak.

### 4.1.3. Topshiriqni bajarishni baholash

1. Motivatsiya va o‘ziga ishonchni oshiradigan baholash.

Odatda talabalar o‘qituvchilar jarayonni (masalan; tadqiqotdagi ma’lumotlar yig‘indisi), shuningdek natijani (misol uchun, tugallangan hisobot) kuzatayotgan paytda bir maxsus topshiriqni bajarib turishlari kerak. Talabalar bajaradigan topshiriqlar oddiy emas va tanlangan javoblarga zid ravishda quyidagilarni ham vazifaga qo‘shishlari kerak:

- musiqiy asbobni chalish;
- atletik qobiliyatlar;
- badiiy yaratuvchanlik;
- chet tilida suhbatlasha olish;
- siyosiy suhbatlarda qatnasha olish;
- ilmiy tadqiqot olib boorish;
- biror uskunani ta’mirlash;
- maqola yozish;
- birgalikda o‘ynash uchun interfaol metodlarni qo‘llash.

Bu misolarni hammasi mukammal qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi, lekin shu davr mobaynida bajarilgan ishni baholash turli usullarda ishlatiladi. Misol uchun, o‘qituvchi jarayonni to‘liq kuzatib bora olmasligi mumkin (u qoralama variantini ko‘rishi mumkin, lekin so‘nggi ish maktabdan tashqari soatlarda yoziladi) va insho testlari odatda ishni bajarishni baholash sifatida tasniflanadi. Yana, ba’zi bajarilgan baholash ishlarda aniq bir natija bo‘lmasligi mumkin. (bajarilgan ish guruh interfaollaridan foydalangan bo‘lishi mumkin).

Ikki bir-biriga bog‘langan atamalar, muqobil tahlil va haqqoniy tahlillar ba’zida ishni bajarishni tahlil qilishni o‘rniga ishlatilishi mumkin, lekin ularning ma’nolari har xil. Muqobil tahlil qog‘oz-qalamga bog‘liq bo‘lmagan topshiriqlarga tegishli (maqola yozish, insholar). Haqqoniy tahlillar talabalar “haqiqiy hayotda” bajaradigan vazifalarga o‘xshash vazifalarni ifodalaydi. Haqqoniylikning bosqichlari o‘zgarib turadi. Misol uchun, Chikago oliy ta’limida o‘qitiladigan yapon tili Tokioda gaplashish uchun judayam ishonchli, lekin u faqatgina Yaponiyada ta’lim uchun borishda yoki sayohat uchun ishlatilishi mumkin. Chikagoda yaponlar bilan suhbatlashish ham ishonchlilik,

haqqoniylikni oshiradi va yapon tili o‘qituvchisi bilan suhbatlashish o‘rtacha darajada haqqoniy. Bundan ham kam samarali usul bu ingliz va yapon tillarini solishtiruvchi testlar. Til darslarida direktorga rasmiy maktub yozish ham ular keng tarqalgan ish turlaridan bo‘lganligi uchun judayam haqqoniy. Lekin besh paragrafli maqola yozish samarali emas chunki ular oddiy hayota deyarli ishlatilmaydi. Biroq besh paragrafli maqola yozish qiyin ish va odatda ishni bajarilishini tahlil qilish sifatida tasniflanishi mumkin.

**Ustunli va nuqsonli taraflari.**

Ishni bajarishni tahlil qilishning bir nechta ustunlik jihatlari mavjud. Avvaliga boshqa metodlar bilan hal qilib bo‘lmaydigan mukammal o‘rganish natijalariga e’tibor qaratiladi. Ikkinchidan, ishni bajarishni tahlil qilish odatda jarayonni yoki bajariladigan ishni tartibini shuningdek natijani tahlil qiladi. Misol uchun, o‘qituvchi talabalar tehnikani tuzatish uchun mos asboblarni ishlatyaptimi yo‘qmi shuningdek te’mirlangandan keyin tehnikaning qismlari to‘g‘rimi kuzata oladi. Uchinchidan, yaxshi tashkil etilgan bajarishni tahlil qilish o‘quv maqsadlari va ahamiyatli o‘rganish talabalari aniqligini belgilab beradi. Masalan, beshinchi sinf tasviriy san’at darsligida mavzu bit maqsadli bo‘lsa ishni bajarishni baholash bir maqsadni o‘zida mujassamlashtiradigan shahar manzarasini chizish bo‘lardi. Bu tahlil foydali va o‘rganishning maqsadini aniq ochib beradi. Bu ishni baholash ta’limiy aktivity va uning yaxshi tarkibiy yaroqlilgi mavjud va yaxshi tashkillashtirilgan ishni baholash bilan o‘xshash. Ishni baholshning bir nuqsonli tarafi shundaki ular o‘qituvchilar va talabalaring vaqtini oladi. Bu degani kamroq tahlillar yig‘ilishi mumkin agarda ehtiyotkorona ishlanmagan bo‘lsa. Bunda tarkibning samaraligini kamaytiruvchi kamroq maqsadlar tahlil qilinadi. Ishni baholash materiallariga qo‘shish masalasida davlat dasturlari foydalidir. Misol uchun, Tennesidagi universitet raqs o‘tituvchisi Erik davlat standartlari raqs fakulteti talabalari tehnik usullarni bajarishda barqarorlik va aniq harakatlarni yuqori darajada namoyish etish kerakligini ko‘rsatishini o‘rganadi. Bunda:

- musiqaga mos turli usullarda va o‘chamda mukamal harakatlar kombinatsiyalarini namoyish etish;
- kombinatsiyalarni keng dinamik o‘zgarishlarda namoyish etish;

- o‘z-o‘zini rivojlantirish orqali harakatlarni sifatini yaxshilayotganligini ko‘rsatish;
- berilgan tamoyillarga mos jonli yoki yozilgan raqs harakatlarini tahlil qilish.

Erikso‘n birinchi zamonaviy raqs sinfi o‘quvchilariga quyidagi vazifani ijro etishlarini so‘raydi.

*Guruhda 4-6 tadan bo‘lib 5 minut davomida raqsga tushishlarini. Raqs hamma raqqoslar tehnik qobiliyatlarini, murakkab harakatlarni va doimiy o‘zgarishlrga moslashuvchanlikni ko‘rsata oladigan darajada ko‘p tomonlama bo‘lish (1-2-ish) Talabalar o‘zlarining repetitsiyalarini videoga olishadi va o‘z-o‘zini rivojlantirish orqali qanday qilib o‘sishga erishganliklarini yozishadi (3-ish). Har bir guruh boshqa guruhlar raqslarini ko‘rib chiqadi va tahlil qiladi (4-ish). Bajarilgan ishni baholashda Erikka doim ko‘pchilik bosqichlarni shakllantirib olish kerak bo‘ladi. Guruhlarga doim hamma raqqoslarga mos qobiliyatlarini namoyish etish uchun bir na’muna kerak bo‘ladi; o‘zlarining raqslarini to‘g‘ri tahlil qilishlari; jamoa sifatida samarali ishlashlari va raqsni rivojlantirish uchun tamoyil yaratishlari kerak.*

Ishni baholashning yana bir kamchiligi bu ularni noto‘g‘ri va nohaq baholashga olib keluvchi tahlildir. Shuning uchun har qanday javobni baholashda hisoblash rubrikasi judayam muhim.

3.1- jadvalda guruh faolligini jarayonini ko‘rsatuvchi rubrika na’muna sifatida berilgan.

**3.1-jadval.** guruh faolligidan misol

| hisob | Belgilangan vaqt | Qatnashish va rollarni ijro etish | Birgalikda bajarish |
|---|---|---|---|
| 1 | Guruh vazifaga e’tibor bermadi va shuning uchun vazifa bajarilmadi | Guruh birlashmadi yoki rollarni almashmadi | Bir odam vazifani bajardi |
| 2 | Guruhko‘pinchavazifavaqtinibee’tiborqoldirganlekinvazifato‘liqtugallangan | Guruh rollarni bo‘lib olishgan, lekin guruh a’zolari bu rollarni ishlatmadi | Guruh ba’zi a’zolarining g‘oyalarini va mulohazalarini inobatga olmadi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 3 | Guruh ko‘p vaqtlarda vazifa ustida ishladi | Guruh rollarni qabul qildi va ishlatdi, lekin hammasini ham emas | Guruh ba’zi g‘oyalarni qabul qildi, lekin boshqalarga e’tibor bermadi |
| 4 | Guruh faoliyat davomida vazifa ustida ishladi va vaqtni to‘g‘ri taqsimladi. | Guruh rollarni qabul qildi, ishlatdi va faol qatnashdi | Guruhlar hamma g‘oyalarga teng e’tibor berdi |
| 5 | Guruh aktivitini judayam samarali tashkil qilganligini o‘zlarining usulida tushuntirib berdi | Guruh rollarni aniqlashtiridi va ularga berilmaganlaridan ham foydalandi. Rollarning o‘zgarishlari har bir azoni bilim va tajribasini maksimallashtirdi | Guruh uyatchan azolarni ham qamrab olish uchun maxsus vazifalar yaratdi |

Bu rubrika o‘rta sinflar ilmiy fani uchun yaratilgan, lekin guruhda ishlash jarayonini baholashda boshqa fan sohalarida ham ishlatsa bo‘ladi.Ba’zi ijroni baholash ishlarida bir nechta hisoblash rubrikalarini ishlatish kerak. Masalan, raqsni ijro etishda Erik (yuqorida berilgan misoldan) ijro etish qobiliyati, o‘z-o‘zini rivojlantirish orqali o‘sishga erishishga, jamoaviy ishlarga, boshqa guruhlarni tanqid qilish uchun hisoblash rubrikasni ishlatishi kerak. Aniq qilib aytganda yaxshi ijroni baholash murakkab va Lin va Miller o‘qituvchilarga shuni tavsiya qiladiki:

- Talabadan mukammal tushunish qobiliyatini ishlatishni talab qiladigan ijroni baholash yo‘lini yaratish. Ba’zi o‘qituvchilar qiziqarli va talabalarga yoqadigan baholash yo‘lini topadilar, lekin sifatli o‘rganishga yetaklaydigan yuqori darajadagi tushunish qobiliyatini talab qilmaydilar. Yuqori darajali qobiliyatlar va o‘rganish natijasi ham qisman muhim chunki ijroni baholash jarayoni odatda vaqtni ko‘p oldi.
- Talabaga vazifa to‘liq tushunarli bo‘lganligiga ishonch hosil qil. Ijroni baholash odatda ko‘p chora tadbirlarni talab qiladi shuning uchun talabalarga fundamental qobiliyat va bilim, shuningdek aniq maqsad kerak bo‘ladi.
- Ijroni baholash ishlari muvaffaqiyatli chiqishi uchun ehtiyotkorona struktura yaratish juda muhim.

- O‘qitish davomida talabalani hisoblash rubrikasi bilan ta’minlagan holda ijroni baholashning kelajak umidlarini aniqlashtiring
- Bu faqatgina talabalarga ishdan nima kutilganini emas shuningdek o‘qituvchilarga ham ular nima kutishi kerakligini kafolatlaydi.

Ijroni baholashni rejalashtirayotgan paytda bu haqida o‘ylab ko‘rish o‘qituvchilar uchun qiyin bo‘lishi mumkin, lekin bu talabalarga berilgan yo‘nalishlar va haqqoniy bahoni qayta ko‘rib chiqish uchun muhim ahamiyatga ega.

- Vazifani bajarishda kerak bo‘lamagan qobiliyatlarni kamaytiring. Vazifani maqsadiga tegishli bo‘lgan qobiliyatlar kerakligi haqida o‘ylang. Misol uchun, ilmiy maqola uchun progarmmaviy ta’minot kerak deb o‘ylaysizmi? Agar baholashning maqsadi maqola yozishni o‘z ichiga olgan ilmiy metodni jarayonini ko‘rsatib berish bo‘lsa, keyin maqolaning formati ahamiyatli bo‘masligi mumkin. Lekin agar maqsad ikki bir biriga bog‘liq fanlarni, fan va tehnologiyani o‘z ichiga olsa, keyin nashr programmasini ishlatish muhim. Chunki ijroni baholash vaqt oladi va agar hamma o‘quv maqsadlari ahamiyatli bo‘sa ularni o‘ylab ko‘rmasdan ko‘p sonli usullarni qo‘shish foydali bo‘lishi mumkin.

### 4.1.4. Portfolio haqida tushuncha

**Portfoliolar.**

Portfolio bu talabaning yutuqlari yoki o‘qishida o‘sishni ko‘rsatuvchi talabaning foydali kolleksiyasi. Portfolio talaba yig‘adigan qog‘ozlar to‘plamigina emas, u samarali ish natijasini ko‘rsatuvchi dalil. Portfoliolar turli maqsadlarda ishlatiladi va agar o‘qituvchilar o‘z maqsadlarida sobit bo‘lishmasa portfolio tutish foydasiz va u stressga olib keladi. Turli maqsadlarni to‘rtta aspektda ko‘rsatilgan.

O‘rganish uchun baholash ←——→ olingan bilimning bahosi
Hozirgi yutuq ←——→ o‘sish
Eng yaxshi ish namoyishi ←——→ hujjatlashtirish
Tugallangan ←——→ ishlayotgan

Eng birinchi maqsad agar o‘rganish uchun baholash bo‘lsa, e’tibor talabaning o‘zini ko‘rsatishiga va o‘rganish uchun ma’suliyatiga qaratiladi.

Talabalar faqatgina o‘zlari xohlagan ishning misolinigina tanlamaydilar, lekin o‘zlarining ishlarini aks ettiradilar va izohlab beradilar. Bu ishlarni qamrab olgan portfoliolar talabalar ishlarini o‘qituvchilarga va ota onasiga ko‘rsatib va tushuntirib berishlari uchun ham foydali hisoblanadi. Olingan bilimning bahosiga e’tibor qaratish sinf bahosini, bitirishni, davlat talablarini tasdiqlab beradigan talabalarning ishlaridan namunalarni o‘z ichiga qo‘shib oladi. Odatda bu kabi baholash ishlariga barqarorlik zarur bo‘lganligi uchun bunday portfoliolardagi ishlarni tanlashga talabalarda imkoniyat bo‘lmaydi. Masalan, Kentukkidagi to‘rtinchi va yettinchi sinf o‘quvchilari to‘plashi talab qilinadigan yozma portfoliolar bayonotni va yozma ishlarning uch turidan bir misol (aks ettiruvchi, shaxsiy tajriba yoki badiiy bilim va muhokama) ni o‘z ichiga olishi kerak. Talabalar o‘z portfoliolarida bu uchta yozma ishdan qaysi birini kiritish tanlovi mavjud. Portfoliolar talabalarning o‘sishini yoki hozirgi yutuqlarini aks ettiradigan qilib loyihalashtiriladi. Masalan, ingliz tili o‘rganuvchilarining audio yozuvlari o‘rganishdagi o‘sishni ko‘rsatish uchun bir yil davomida yig‘iladi. Talaba rivojlantiruvchi portfoliolari bitta ishning turli versiyalarini o‘z ichiga olishi mumkin. Masalan, bir yozma ish loyihasi haqiqiy g‘oyani, umumiy jihatlarini, birinchi qoralamasini, o‘qituvchi yoki tengdoshlar tarafidan qoralamaga berilgan mulohazalarni va oxiri tugallangan ishni o‘z ichichiga olishi mumkin. Agar e’tibor faqat hozirgi yutuqlarga qaratilsa faqatgina shu kunlarda yig‘ilgan ishlarni o‘z ichiga olishi mumkin.Portfoliolar talabalarning aktivitilarini hujjatlashtirish yoki muhim yutuqlarni ko‘rsatishga e’tibor qaratadi.Portfoliolarni yig‘ish hamma ishlarni qamrab olisi uchun bitta maxsus kuchga, eng yaxshi ishga yoki o‘sishga qaratilganidan ko‘ra ahamiyatliroq. Qarama-qarshi olganda ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan portfolio eng yaxshi ishga e’tibor beradi. Eng yaxshi ish talabalar tarafidan aniqlanadi. Bunday portfoliolarning birdan-bir maqsadi talabalar nima bilishlarini va anima qila olishlarini ko‘rsatadigan natijani qanday qilib aniqlab olishni o‘rganishidir. Talabalardan ularning eng yaxshi ishlarini alohida tanlash talab qilinmaydi, lekin ulardan o‘zlarining o‘qituvchilaridan va o‘rtoqlaridan olingan fikr-mulohazalarini ishlatish so‘raladi.

Tugatilgan, balki ish arizasiga ishlatilgan va kunlik misollarni o‘z ichiga oluvchi ishlayotgan portfoliolarni o‘rtasida so‘nggi farq bo‘lishi mumkin. Ishlayotgan portfoliolar vaqt o‘tishi bilan rivojlantiriladi va o‘rganingning bahosi sifatida ishlatishga mo‘ljallanadi. Foydalanilayotgan portfolionda e’tibor rivojlantiruvchi g‘oyalar va qobiliyatlarga qaratiladi, shuning uchun talabalar hato qilishga, o‘z ishlariga merkin mulohaza bildirishga va o‘qituvchining mulohazasiga javob bera olishga ruhsat berilishi kerak. Tugatilgan portfoliolar ma’lum bir auditoriya uchun loyihalashtiriladi va natija ishlatilayotgan portfoliodan olingan bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘qituvchilar ta’limi dasturida ishlatilayotgan portfolio hamma kurslardan oligan ishlarning namunalarni o‘z ichiga olishi mumkin. Talaba bir tugatilgan portfolioni u o‘qituvchilar ta’limi dasturida talab qilingan qobiliyatlarni yaxshi o‘rganganligi uchun va ikkinchi portfolioni o‘zining ishga arizasiga ishlatishi mumkin.

**Ustunlik va kamchiliklari.**

Yaxshi ishlatilgan portfoliolarning bir nechta ustunlik taraflari bor. Ular hujjatlarni to‘plash va o‘sishni baholashning yo‘lini tanlangan savol-jvob testlaridan ko‘ra kichikroq hajmda ko‘rsatadi. Shuningdek portfoliolar o‘qitishga osonlik bilan joriy qilina oladi. Masalan, o‘rganish uchun baholash ishlatilishi mumkin. Portfoliolar shuningdek o‘z-o‘zini baholash va tahlil qilish, yana bilimga egalik uchun ham ruhlantiradi. Sinfda talabaning ruhini ko‘taish uchun baholashning ishlatilishi keyingi o‘ringa qo‘yiluvchi bilim uchun baholashning muhim bir tarkibi hisoblanadi.

Lekin portfoliolarning ishlatilishini ham ko‘p kamchiliklari mavjud. Birinchidan, bitta yaxshi portfolioni baholab chiqish o‘qituvchining ko‘p vaqtini va tashkiliy ishlarini talab qiladi. Portfolioning maqsadini, strukturasini tushunishga va yig‘ishga va o‘z-o‘zini tahlil qilishga qaror qilishi uchunyordam sifatida vaqt kerak bo‘ladi. Bu vaqtning ko‘p qismi birga bir yig‘ilishlar uchun sarflanishi kerak. Portfoliolarni sinfdan tashqarida ko‘rib chiqish va baholash juda ham ko‘p vaqt oladi. O‘qituvchilar portfolioning ishlatilishining foydasiga sarflangan vaqt bunga arziydimi buni chuqur o‘ylab ko‘rishlari kerak.

Ikkinchgidan, portfoliolarning ishonchliligini baholash va noto‘g‘ri tushunchalarni yo‘qotish tayyor javobni baholashdagiga qaraganda qiyinroq

bo‘ladi chunki natijalar turli bo‘ladi. Yozma ishda va matematikada Vermontdagi to‘rtinchi va sakkizinchi sinflarda portfoliolarni baholash uchun davlat miqyosida keng ko‘lamda ishlatilishi tajribasi juda ham jiddiy. O‘qituvchilar portfolioni baholayotgan paytda bir xil analitik hisoblash rubrikalarini ishlatishgan. Birinchi ikki yillikda maktablardan misollar yig‘ilgan va maktabdan tashqari o‘qituvchilar ha’yati tomonidan baholangan.

Birinchi yili baholovchilar orasida matematika va o‘qish uchun kelishuv juda yomon edi. Ikkinchi yili baholovchilar orasida kelishuv matematika uchun yaxshilangandi, lekin o‘qishga yomon edi. Lekin, yaxshilangan natija bilan ham matematikada portfolioni ishlatishga bo‘lgan ishonch o‘ta past edi. Ishonch past bo‘lganda, yaroqlilik ham kamaytirildi, chunki mukammalshmagan natija samarali hisoblanmaydi.

Agar o‘qituvchilar sinfda portfoliolarni ishlatsa, 3.2-javdaldagi buni amalga oshirish uchun bosqichlar seriyasi kerak bo‘ladi. Agar maktab yoki tumanda portfolio bor bo‘lsa bu bosqichlar aniqlashtirib olinishi kerak.

**3.2-jadval. sinf portfolio dasturini amalga oshirishdagi bosqichlar**

| | |
|---|---|
**Standart og‘ish.**

Shunday qilib, agar baho 130 va o‘rtacha qiymat (mean) 100 hamda standart og‘ish 15 bo‘lsa hisoblash quyidagicha bo‘ladi:

Z= 130−100 =2 15

15-Namunaga qarasangiz, bu to‘g‘ri ekanini ko‘rishingiz mumkin—130 baho o‘rtacha qiymatdan 2 standart og‘ish yuqori va shunin uchun z-baho 2 dir.





**T-baho:** o‘rtacha qiymati 50 va standart og‘ishi 10. Bu 70 T-baho o‘rtacha qiymatdan 2 standart og‘ish yuqoriroqdir va shunday qilib u 2 z-bahoga ekvivalentdir.

**Stanaynlar:** stanaynlar odatda o‘quvchilarning baholari hisobotini qilib borishda foydalaniladi va standart to‘qqiz balli shkalaga asoslanadi va o‘rtacha qiymat 5 va standart og‘ish 2dir. Ular faqat butun raqamlar sifatida qaraladi va 11-10 Namunalar ularning normal egri chiziqqa munosabatini ko‘rsatadi.

**Ekvivalent sinf baholari.**

Ekvivalent sinf bahosi o‘quvchilarning test natijalarini sinf bosqichi va o‘quv yili oylariga asoslangan holda ko‘rsatadi (Popham, 2005, p. 288). 3.7 ekvivalent sinf bahosi natija o‘quv yilining 7-oyida o‘qiyotgan 3-sinf o‘quvchisiniki ekani kutiladi. Sinf ekvivalentlari davomiy sinf bosqichlari bilan ta’minlaydi shuning uchun o‘sib boruvchi baholar deb atalsa bo‘ladi.

Sinf ekvivalentlari hammaga ma’lum bo‘lib tushunish osondek tuyuladi, biroq odatda noto‘g‘ri tushuniladi. Agar 4-sinf o‘quvchisi Jeyms, o‘qish qobiliyatidan test topshirib 6.0 ball olsa; bu Jeyms 6-sinf dasturidagi mashqlarni qila oladi degani emas. Bu Jeyms 4-sinf uchun testda 6-sinf o‘quvchisi ishlashi kutilganidek natija ko‘rsatganini bildiradi. Test oluvchi kompaniyalar sinf ekvivalentlarni bir testni bir nechta bosqich o‘quvchilariga berib hisoblashadi. Masalan, 4-sinf uchun mo‘ljallangan test 3- va 5-sinfdan ham olingan bo‘lardi. Xomaki baholar diagrammada belgilanadi va trend chizig‘i o‘rnatiladi, undan sinf ekvivalentlarini o‘rnatishda foydalaniladi. Xatolikka e’tibor bering: trend chizg‘i topilmagan asosli manba sinf bosqichlaridan oshadi, bunday amalga oshirilgan test 5.0 dan yuqori yoki 3.0dan past sinf ekvivalenti faqat kutilgan trend chizig‘iga asoslanadi.

Sinf ekvivalenti baholari shuningdek test qilinayotgan asosiy masalaga har bir bosqichda bir xil miqdorda urg‘u beriladi va mazmunni tushunib borish o‘zgarmas darajada yaxshilanib boradi (Popham, 2005). Ko‘pchilik test oluvchilarning ogohlantirishicha, sinf ekvivalentlari baholari ma’lum darajadagi ishonchsizlik bilan qabul qilinishi kerakligi haqida ogohlantirishadi va ota-onalar odatda ular haqida noto‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lishadi. Yuqori natijalarga erishuvchi o‘quvchilarning ota-onalari bolalari yutug‘ining darajasi haqidagi tuyg‘uni oshirishgan bo‘lishi mumkin.

**Standartlashtirilgan testlar bilan bog‘liq masalalar.**

Ko‘pchilik odamlar ta’limda standartlashtirilgan testlarning roli haqida kuchli qarashlarga egalar. Ba’zilar ular individning kognitiv qobiliyati hamda maktab yoki o‘sha hududning sifatini aniqlashda xolisona yordam berishiga ishonishadi. Boshqalar esa standartlashtirilgan test natijalari ancha turg‘un emasligi, o‘quvchilarning aslida nima bilishini ko‘rsatmaydigan va hisob-kitob

masalasida foydalanilganda ancha chalkash ekaniga deb oʻylashadi. Koʻpchilik psixologlar va test oluvchi ekspertlar qarashlarni farqlashgan va standartlashtirilgan testlar oʻquvchi natijalari haqida maʼlumot berishi va test natijalari qanday talqin qilinib foydalanishi orasida maʼlum tafovutlarni qoʻyishgan. Bu farqli qarashda standartlashtirilgan test bilan bogʻliq koʻpgina muammolar ularning ancha yuqori maqsadda masalan, bir test natijasini biror dasturga qabul qilinish, oʻqishni tugallash yoki litsenziya olish hamda butun bir maktabni yaxshi natijali yoki past natijali deb baholash uchun ishlatiladi.

**Standartlashtirilgan testlar xolismi?**

Koʻp millatli jamiyatda bir muhim savol quyidagicha: standartlashtirilgan testlar maʼlum ijtimoiy sinf, irqiy v etnik guruhlar uchun yon bosadimi? Bu savol tuyulganidan koʻra ancha murakkabroqdir, chunki yon bosish turli maʼnolarga ega.  Yon bosishning har kungi maʼnosi odatda ilgari kamroq ilmiy manbalarga ega boʻlgan nochor oʻquvchining olishi mumkin boʻlgan standartlashtirilgan testlar natijasining adolatliligidir. Masalan, koʻp mehnat qilgan ammo yashaydigan tumanidagi yomon maktablar va uyida bilim olish uchun manbalarning yetarli boʻlmagani sabab cheklangan taʼlim imkoniyatiga ega boʻlgan yuqori maktab oʻquvchisi Duayn birgina testdagi natijasi uchun maktabni bitira olmasligi kerakmi. Taʼlim olish uchun manbalarning yoʻqligi uning aybi emas edi va agar unga muhitni oʻzgartirish imkoni (masalan, kollejga borish) berilganda uning natijalari ancha yaxshilangan boʻlardi. Bu jihatdan test natijalari ijtimoiy tengsizlikni koʻrsatadi va uncha imtiyozga ega boʻlmagan oʻquvchilarni jazolashi ham mumkin, hamda meros qilib olingan qobiliyatning ifodasi sifatida notoʻgri talqin qilinadi. Tadqiqotchilar odatda yon bosishni ancha texnik tomondan oʻrganadilar va 3 ta muhim jihat muhokama qilinadi: predmetning mazmuni va formati, bashoratlarning toʻgʻriligi va stereotip tahdidi.

Predmetning mazmuni va formati: Test elementlari baʼzi guruhlar uchun boshqalaridan koʻra qiyinroq boʻlishi mumkin. Ijtimoiy sinfga yon bosish misolini tanlovli savolda talabalardan field soʻzining tarjimasi soʻralganda koʻrish mumkin. Talabalardan kursivda yozilgan bosh gaplarni oʻqish va field soʻziga mos javobni tanlash soʻralgandi (Popham 2004, p. 24):

Professionallarning bolalari field (soha ma’nosida) so‘zining bu ma’nosini shifokorlar, jurnalistlar va huquqshunoslarda “soha” bo‘ladi deb, hisobchi va oddiy ishchilarda esa “job” (ish) bo‘ladi deb qabul qilishadi, shuning uchun ularning bolalari field so‘zining bu ma’nosini bilishi ehtimoldan yiroq (to‘gri javob D).

Test qiluvchi kompaniyalar bu turdagi mazmun bilan bog‘liq muammolarni turli sohadagi test tuzuvchilarni ishga olish va ma’lum guruhlar ba’zi elementlarni qiyinroq yoki osonroq deb qabul qilishini statistik o‘rganish orqali kamaytirishga harakat qilishadi. Biroq muammolar hali ham mavjud va SAT verbal testlarining yaqindagi analizi ma’lum qilishicha oq tanlilar osonroq savollarda, Afrika-Amerikaliklar, Ispan-Amerikaliklar va Osiyo-Amerikaliklar esa qiyinroq savollarda yaxshiroq natijalarga erishar ekan (Freedle, 2002). Bu tafovutlar unchalik katta bo‘lmagani holda, ular test natijalariga ta’sir qilishi mumkin. Tadqiqotchilarning fikricha, kundalik muloqotda ishlatiladigan so‘zlarni ichiga olgan oson savollar turli madaniyatlarda turlicha ma’noga ega bo‘lishi mumkin, murakkab so‘zlar esa (masalan, vehemence, sycophant) kundalik muloqotda ishlatilmaydi va bunday ma’no farqlariga ega emas. Test formati ham test natijalariga ta’sir qilishi mumkin. Ayollar odatda oson savollarda yaxshi natija ko‘rsatadilar va SAT yaqinda insho komponentini qo‘shganda, ayollarning umumiy verbal SAT natijalari erkaklarnikidan ancha yaxshilangan.

**Bashoratning to‘g‘riligi**

Standartlashtirilgan testlar boshqa kriteriyalar orasida tanlangan kollejga kira oladimi yo‘qmi aniqlaydi. Bunday hollat qonuniylik jihaytdan o‘zini oqladi va ACT yoki SAT lar 1-kurs kollej talabalarini baholaydi. Joriy izlanish qora va lotin tanlilar uchun unchalik aniq bo‘lmagan natijalarni ko‘rsatsa, oq tanli talaba qizlarda bolalarga qaraganada kamroq aniqlik borligi aniqlandi. (Young, 2004). Lekin ajabalanadigan tomoni test natijalari past bo‘lgan qora va latin talabalari oz natijasidan ham pastroq darajaga bashorat qilingani ko‘rish mumkin.

Buning aksi sifatida, kollej qiz talabalari uchun test natijalarini bashorat omad ostida yotadi, masalan ular testidan ko‘ra yuqoriroq darjadagi natijani

ko‘rsatishlari mumkin. Olimlar SAT va ACT test kiruvchilarining bunaqa farqlari nega yuzaga kelishini aniqlasholmaydi.

**Stereotip xavf.**

Bazi hududlarda salbiy stereotip xavfi mavjud, misol uchun matematikada ayollarning o‘qishi (Aronson & Steele, 2005). Izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, stereotip guruhlarining testi (e.g. African Americans, Latinos, ayollar) pasayib ketadi, chunki bunday toifalar uchun qiyin darja beriladi, (a) aql va matemaika o‘lchovlari(b) ularning etnik kelib chiqishiga, holati va jinsiga qaraydi (e.g. testdan oldin ulardan bazi demografik sorovnamalar olishadi.). Hattoki shaxslar o‘zini kompitent deb bilishganda ham, stereotpi xavfi ularning ishchanlik qobiliyati va xotirasini pasaytradi, chunki salbiy stereotiplarlarni ular har zamon ushlab turishga majburlar. Stereotype xavfi ba’zi bir kuchli shaxslar uchun yaxshidir. Ba’zi shaxslarning standartlashtirilgan test baholari ularning stereotip guruhiga qarab hisoblanmasligi va ularga past daraja test berilishi mumkin.

**O‘qituvchilar o‘quvchilarni testlarga tayyorlashadimi?**

Shunday aniqlik borki, maktab va o‘qituvchilar o‘quv planini shaklantirib unga asosan talabalarni formal testga tayyorlashadi. Maktab o‘qituvchilarida izlanishlar olib borilib, bir qancha elementar aniqlandi: ko‘proq vaqt matematika va o‘qishga sarflanib, kamroq vaqt ijtimoiy fanlarga sarflangan. (Jerald, 2006). Kam sonli maktab boshliqlari 2003 yil 4 shtatda sanatga bo‘lgan vaqtni qisqartirihgan. Kognitive bilimlardagi joriy izlanishlar shuni taklif qiladi: fanni o‘qib tushunish, (ijtimoiy fanlarda) talabalar ko‘proq so‘z va keng qamrovli fan bilimiga ega bo‘lishi lozim. (Recht & Leslie, 1988). Agar talaba ko‘proq o‘qishga vaqt ajratsayu lekin ilmiy va ijtiomoiy fanlarga kamroq ajratsa, unda uning shu fanlarida qiyinchilik bo‘lgani aniqlangan.

Notanish shakldagi testlarni topshirish qiyin bo‘lishi mumkin, shuning uchun ustozlar maxsus shaklda talabalarni testlarga tayyorlashadi. Avvalroq bu bobda o‘rta maktab oqituvchilari, Erin, va Principal Dr Muccilar maktablarda test tayyorgaliklariga urgu berishdi. Hozirda tetslarga tayyorlanish maktablar uchun odatiy bo‘lib, unda oqitish emas balki mashq qilib testlarga tayyorlashadi. (Popham, 2004).

**O‘qituvchi va talabalar g‘irromlik qilishadimi?**

Keng tarmoqli g‘irromlikni aniqlash qiyin, lekin test topshirayotgan talabalar va administratorlar girromlik qilishadi (Cizek, 2003; Popham 2006).

G‘iromlikdan saqlash uchun ba’zi qadamlar tashlangan va testlar himoyalangan, bunda administratorlar vaziyatni talabalarga to‘g‘ri tushuntirib ularni xonaga hech narsa kiritmaslikka va boshqalardan javob soramaslikka sorashadi. Ba’zan shunday hollar uchraganki, hatto o‘qituvchilar va maktab boshliqlari test topshiradigan talabalarga testdan oldin ayni tetsni berishgan, yoki javoblarni berishgan yoki javoblarni to‘g‘irlashgan, bunday hollar mumin emas aslida (Popham, 2006).

## 4.2. KASBIY FAOLIYAT DARAJALARI VA ULARNI ANIQLASH YO‘LLARI

### 4.2.1. Kasbiy faoliyat jarayonida shaxs taraqqiyoti



Kasbiy faoliyatni turli darajada o‘zlashtirgan mutaxassislar haqidagi tasavvurlar, qolaversa, kasbiy shakllanish mezonlarining tavsifi keltirib o‘tilgan. Malakali kadrlar tayyorlash tizimini uzluksiz ravishda rivojlantirish extiyoji va turli ishlab chiqarish sohalarida ko‘p yillik ish staji bilan faoliyat yuritayotgan shaxsning o‘z imkoniyatlarini to‘liq amalga oshirmasligi shaxsni har tomonlama kasbiy faoliyatda o‘zini namoyon qilishi muammosini yuzaga keltirdi. Bu muammolarni xal qilmasdan turib kelgusi kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyatli sifatli ta’limni va rejalashtirishni amalga oshirish mumkin emas. Bu muammoning amaliy ahamiyati uni turli fan doiralar qatorida psixologiya doirasida ham o‘rganishni muhimligini ko‘rsatib berdi. Kasbiy shakllanish jarayonini o‘rganishdagi qiyinchiliklar qobiliyatlar va kasbiy qobiliyatlarning ishni bajarishning muayyan bir usuliga asoslangan normativ faoliyatga yo‘naltirilganligidadir. Shuning uchun xam kasbiy yetuklik darajasi ajratib

kursatilmaydi, balki faqatgina yosh xususiyati va mutaxassis sifatida yuritilayotgan vaqt inobatga olinadi.

Shaxsning kasbiy faoliyat darajalari masalasi ko‘pgina mualliflar tomonidan tadqiq qilingan. Bu inson taraqqiyotida tez-tez uchraydigan jarayondir. Ko‘pincha mutaxassis shaxsining to‘la tahlil qilish tushib koladi, shaxsning kasbiy shakllanish boskichi esa hayot yuli bosqichi bilan muvofiq tarzda ko‘rib chiqiladi. Shuning uchun vaqt doirasida qa’tiy chegaralanib qoladi. Ijtimoiy soxalarda faoliyat yurituvchi shaxsning kasbiy shakllanishini urganishda insonning imkoniyatlarini to‘liq ochib beruvchi sub’yekt va ijtimoiy muxit orasidagi turli ijtimoiy aloqalar tipiga axamiyat berish muhimdir. Har bir ijtimoiy aloqalarning yana odamovilik va muloqotchanlik kabi kichik tiplarga bo‘linishi biz uchun muhim ahamiyatga egadir. Birinchi tipda sub’yekt o‘zini “topgan”, o‘zida va faoliyatida o‘zini o‘zgartirishni xoxlamasligi bilan tavsiflanadi. Ikkinchi tip esa sub’yektning o‘zini o‘zi “qidirishi” bilan izohlanadi. Bu o‘tish, oraliq holat hisoblanadi.

Individ (yoki jamiyat) bir shaklni tark etib jamiyatning boshqa yuqori darajasiga erishadi. Garmonik aloqalar uchun sub’yekt yaxlit shaxs sifatida namoyon bo‘ladi, u sub’yekt-predmet tartibi - rolli niqob sharti bilan belgilanadi. Bu yerda inson “tarakkiyotning absolyut harakati holatida” bo‘ladi. Keyinchalik shaxsni kasbiy shakllanishi borasidagi qarashlarga S.L.Rubinshteyn ishlari asos bulib xizmat kildi. S.L.Rubinshteyn insonning hayotga munosabatini ifodalovchi ikki usulni ajratib kursatgan. Birinchi usul - bu insondagi barcha munosabatlar to‘liq emas, balki alohida xodisalariga munosabat doirasiga kiruvchi hayotdir. Bunday munosabatda inson hayot sub’yekti hisoblanmaydi, shu bilan birga undan alohida ham bulmaydi. Bu yerda hayotning o‘zi “tabiiy jarayon sifatida” namoyon bo‘ladi, inson hayot tarzi bilan uni to‘ldiradi. Bu usul insonning hayoti o‘zidan o‘zi kechadigan hayot-avtomat aloqalariga kiruvchi xususiyat sifatida tavsiflanadi. Ikkinchi usul, ichki refleksiyani namoyon bo‘lishi bilan bog‘lik bo‘lib, u “hayotning bu uzluksiz jarayonini to‘xtatib qo‘yishi, uzib qo‘yishi mumkin va insonning g‘oyalar dunyosidan chiqarib yuboradi. Inson g‘oyalar dunyosidan tashkaridagi pozitsiyani egallaydi...”. Bunday refleksiyaning namoyon bo‘lishi hayotiy kadriyatlar tizimini aniqlash bilan

bog‘likdir. S.L.Rubinshteyn aynan shu holat bilan voqelikning yangi usuliga o‘tish imkoniyatini bog‘laydi. Bevosita aloqalarni uzish va ularni yangi negizlar asosida tiklash ikkinchi usulga o‘tish bilan yakunlanadi. Shu vaqtdan boshlab “ruhiy bo‘shliqqa, axloqiy skeptizmga, axloqiy beqarorlikka yoki boshqa - yangi anglangan sharoitda axloqiy inson hayotini qurishga yo‘l ochila boshlaydi”. Sanab utilgan fenomenlar yangi usulning mavjudligini tavsiflamaydi, balki, shaxs ilgarigidek yashash imkoniyati yo‘q bo‘lgan vaziyatda qolganda o‘zining beqaror “Men” tizimini buzilishlardan saqlab qolaolmasligini anglatadi. Bu vaziyat ba’zida “o‘zini safarbar etish” holati deb nomlanadi. Biroq bu holatni o‘zining namoyon bulishiga ko‘ra o‘zini o‘zi safarbar etish deb nomlab bo‘lmaydi: tabiatdan, boshqalardan aloxida tarzda anglanmagan voqelikni yo‘qotish mumkin emas.

Tafovutning boshqa yana bir turi talabaning ona tili yoki meros tilini yo‘qotish evaziga ingliz tilini o‘rganishidir. Bilingvizmning bunday turi AQSh va boshqa muhojirlar aralashgan millatlar orasida keng tarqalgan.

Bu vaziyatni tasavvur qiling: muxojirlarning dastlabki avlodlari kelib, ingliz tilini faqat o‘z ishlarini bajarishga va kundalik ehtiyojlarini tushuntirish uchun o‘rganadilar, biroq uyda oilasi va do‘stlari orasida o‘zlarining tillarida so‘zlashadilar. Biroq, ularning farzandlari ingliz tilini o‘rganish va qo‘llashda kuchli bosimni his qiladilar va bu vaziyat ulardagi merosiy til mahoratini izdan chiqaradi.

Vaqt o‘tishi bilan  bolalar katta bo‘lishadi, balki u davrga kelib o‘z merosiy tilarga qaraganda ingliz tilida yaxshi gapirib yoza olishardir, yoki ona tillarida, balki o‘z bolalari bilan so‘zlashishni xoxlamasdirlar.

Bu vaziyat dastlab muammo bo‘lib ko‘rinmasligi mumkin, toki biz o‘qituvchilardek muxojirlarning bolalariga xuddi talabalardek ustivor bo‘lgan tilni o‘rganiyotganda o‘z masuliyatimizni xis qilmasak. Biroq  xaqiqatdan xam bu oson emas. Izlanishlar shuni ko‘rasatadiki, tilni yo‘qotish, talabalarning Ingliz tilini tez va oson o‘rganish qobiliyati maxratini cheklaydi. Masalan dastlabki tildagi lug‘atning mavjudligi 2 tildagi lug‘atni o‘rganishda vaqtni tejadi. Lekin talabalar zaxiradagi ma’lumotni tushinishlari mumkin, agar o‘zlarining dastlabki tillarni saqlanib qolgan bo‘lsa.

Dastlabki tilni saqlab qolish juda muhim, agar talabaning barcha tillardagi bilish darajasi susaygan bo‘lsa, shuning uchun so‘zlashuvchi til bo‘yicha muttaxasis yondashuviga muhtojlik sezadi. Bu vaziyatlarda izlanishlar shuni topadiki, dastlabki tilda xuddi Ingliz tilidagidek so‘zlashuvchi va qo‘llovchi mutaxassisning yordami ancha samarali bo‘ladi. Umuman, agar dastlabki tilni yo‘qotish minimallashtirilsa 2 tillik talabalar sonini ko‘payishiga olib keladi, shuning uchun tilni saqlab qolishlik talaba va ota ona o‘zaro aloqasini yaqinlashtiradi.

Shuni e’tiborga olish kerakki, ta’limning dastlabki yillarida (tilni yo‘qotish qaysidir darajasida kamaytirilgan bo‘lishi mumkin) yuqrida etilgandek 2 tillik dasturlar paralel qo‘llash va kiritish bilan.

Bir necha yillar mobaynida, ammo har doim ham emas, 2 tilni qo‘llovchi talabalar rag‘batlantirilgan.

Bundan tashqari, o‘rta maktablarda ba’zi chet tilini o‘rgatuvchi oddiy sinflarda , Ispan tilini endi o‘rganuvchilarga, bu tilni biluvchi yoniga biriktirilsa, bu ularga madad bo‘ladi.

Kasbiy faoliyat san’at darajasigacha ko‘tariladi va shaxsning zaruriy ishtiroki natijasiga ko‘ra predmetli yoki to‘liq predmetli ko‘rinishlarga ajratiladi. Shunga muvofik tarzda, hech qanday faoliyat motivga ega emas, chunki hech qanday motivning o‘zi yo‘q, faqatgina muayyan faoliyatga egalik qila olinsa bo‘ldi. Bu bosqichda ham boshqalar singari ikkita chiziqni ajratib ko‘rsatish mumkin, ulardan biri kasbiy faoliyatni endi o‘zlashtirayotgan insonlarga xosdir. Bu shunday holatki, bunda shaxs muayyan bir bosqichni bosib o‘tgan, lekin yuqoriroq darajaga erishmagan. Birinchi chiziq o‘zining natijasiga ko‘ra ikkita imkoniyatga ega. Ulardan biri - bu keyingi bosqichga (ijtimoiy intilishlar modusiga) o‘tish. Ikkinchisi - bu bosqichda izlanish va “to‘xtab qolish”dan bosh tortishdir. Shaxsning kasbiy shakllanishini boshqa vektori inson allaqachon o‘zini “topganligi”, uning o‘zini va o‘z faoliyatini o‘zgartirishni istamasligi bilan yakunlanadi. Shaxs faoliyatga nisbatan o‘z ehtiyojlarini qondiruvchi vosita sifatida qaraydi.

Shaxsning faoliyat xarakteri bilan boglik ravishda rivojlanish jarayoni kator shaxsiy va faoliyat omillarini uziga xosligidan kelib chiqadi. Bu taraqqiyot

shaxsning aniq, tipik hayotiy va kasbiy sharoitlarda adekvat hamda ishonchli harakatlarini ta’minlashga, faoliyatni jadallashtirish uchun zarur bulgan shaxs tuzilishi va barqaror sifatlarning shakllanishiga yo‘naltirilgan buladi. Ma’lumki, maqsadga yo‘naltirilgan xulk-atvor birinchi navbatda, kasbiy faoliyat uchun shaxs tarakkiyotini stimullashtiruvchi tashqi faoliyat va ijtimoiy omillar hamda shaxs xususiyatlarining o‘zaro ta’sirida namoyon buluvchi mexnat sub’yektining sifatlar tizimini yuzaga kelishi va shakllanishi, aniq xulk-atvor va faoliyat shakllari uchun xos bulgan shaxs xususiyatlarini shakllanish vaziyatlari bilan tavsiflanadi. Shu bilan bir vaqtda, shaxsni faoliyatga jalb qilinganligi, uning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga bo‘lgan ustanovkalari, sub’yektning mexnat jarayoniga shaxsning psixologik xususiyatlari orqali aniqlanuvchi yuqori imkoniyatlarni tadbiq qilish malakasi va mazmuniga moslashishi, kunikishiga intilishi bilan bogliqdir. Shaxs va faoliyatning o‘zaro aloqasi va o‘zapo ta’siri jarayoni dinamik xarakterga ega bo‘lib, bu jarayon psixologiyada mutaxassis shaxsini shakllanishi muammosi doirasida o‘rganilgan (Bodrov, 1991; Zeer, 2003; Klimov, 1986, 1996; Kondakov, Suxarev, 1989; Kudryavsev, 1981, 1985; Kudryavsev, Shegurov, 1983; Povarenkov, 1989; Rean, 2003; Safin, Nikov, 1984 va boshkalar). Bu muammoni o‘rganishning muhim nuqtasi “professional (mutaxassis) ”, “professionalizatsiya (kasbiy shakllanish) ”, “professionalizm”, “kompetentlik”, “malaka” va “kasbiy etuklik” tushunchalari hisoblanadi. Ma’lumki, oxirgi tushuncha (“kasbiy yetuklik”) mehnat sub’yektining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanib, u mutaxassisning shakllanish (professionalizatsiya) jarayoni va uning natijasi (“professionalizm”, “kompetentlik”, “malaka”) sifatida namoyon bo‘ladi. “Kasbiy yetuklik” tushunchasining moxiyati qator jahon psixologlarining (Derkach, 2002; Derkach, Zazыkin, 1998; Zeer, 2003; Noskova, 2000; Povarenkov, 1999; Rean, 2003; Tolochek, 2005) tadkikotlarida urganilgan, lekin mexnat sub’yektining bu xususiyatlarini shakllanish jarayoni, uning kasbiy faoliyatda namoyon bo‘lishini o‘ziga xos jihatlari va mutaxassis shaxsini shakllanishining boshqa komponentlar bilan o‘zaro aloqasining harakterli tomonlari hali yetarlicha o‘rganilmagan. “Shaxs yetukligi” tushunchasi yuqori darajada shaxsiy, psixologik, ijtimoiy va kasbiy rivojlanganlik bilan tavsiflanib, uning tashqi

voqelikka nisbatan adekvat munosabatida, ma’naviy-axloqiy, etnik, madaniy, kasbiy va boshqa me’yorlarni o‘zlashtirishi hamda jamiyatdagi xulk-atvor me’yorlari, muloqot va ong, pozitiv motivlarning namoyon bo‘lishida, qadriyatlar tizimi, mazmuni hamda organizm va psixikaning funksional resurslarida aks etadi. Bu tushuncha shaxsning individ, shaxs, mexnat sub’yekti sifatidagi taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlariga asoslangan aniq bir yosh davrini tavsifnomasi uchun keng qo‘llaniladi. Yetuklik - bu shaxs rivojlanishining shunday darajasiki, bunda shaxs o‘zining fuqarolik, oilaviy, kasbiy va boshqa majburiyatlarini to‘liq bajarishga qodir bo‘ladi, qolaversa, jamiyatning aniq soxalarida va mexnat faoliyatida samarali ishtirok etadi. “Taraqqiyotni taxlil qilish bu jarayonning o‘ta murakkab va ziddiyatli ekanini kursatmoqda: inson organizmining turli tizimlaridagi taraqqiyotning yuqori darajaga erishishi uchun turlicha vaqt sarflanganligi sababli uning psixikasi o‘ta sodda va juda murakkabdir hamda uning evolyusiyasini boshlanishidagi geteroxronlik va kechishidagi tezlikning noadekvatligi kuzatiladi”.

### 4.2.3. Shaxsning kasbiy kamoloti

Muayyan bir shaxsning yetuklik darajasi uning individual xususiyatlari va ularning ijtimoiy muxit talablari, taraqqiyot sharoitlari bilan muvofiqlik darajasiga bog‘likdir. Yetuk shaxs quyidagi xususiyatlarga ega buladi: axloqiy va ijtimoiy, mustaqillik, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati, xarakterning qat’iyligi, bag‘rikenglik, ishonchlilik, samimiylik, xaqqoniylik va boshqalar. O.G.Noskovaning ta’kidlashicha, amerikalik psixolog K.Arjiris yetuk shaxsni infantil, yetuk bo‘lmagan shaxsdan farqlashning 7 ta mezonlarini ajratib ko‘rsatgan.

Shaxs yetukligini anglatuvchi bazaviy mezonlar quyidagilar: passivlik - faollik; tobelik - mustaqillik; xulq-atvorni ixtiyoriy boshqarishning rivojlanganlik darajasi; qiziqishlarning keng va barqarorligi; hayotiy maqsadlarning qisqa fursatliligi yoki uzoqni ko‘zlaganligi; shaxsning atrofdagilar bilan hamkorligi, tobelik yoki qarama- qarshi munosabatlarni o‘rnatish qobiliyati; refleksiyani rivojlanganlik darajasi va boshqalar. Ularga yana qo‘shimcha tarzda o‘zini o‘zi baholash, o‘zini o‘zi anglash va o‘zini o‘zi

rivojlantirish, tanqidiylik, tashqi olamdagi voqeliklarni to‘g‘ri idrok qilish qobiliyati kabi xususiyatlarni kiritishimiz mumkin. Aytish mumkinki, yuqorida sanab o‘tilgan yetuk shaxsning xususiyatlari yetuk muttaxassis shaxsiga ham to‘la mos keladi, biroq mexnat sub’yektining kasbiy yetukligi mexnatga motivatsiyalashganlik, faoliyatning aniq bir turiga kasbiy yaroqlilik, uzoqni ko‘zlagan kasbiy maqsad, qadriyat, dastur, harakat strategiyalarining anglanganligi kabi qator xususiyatlar bilan yanada boyitiladi.

Shaxs rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari qator tadqiqotlarning predmetiga aylangan (L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, B.G.Ananev, A.V.Ansiferova, E.Erikson, A.Maslou, K.Rodjers va boshkalar). Kator tadkikotlarda shaxs rivojlanishi fenomeni uning yosh davrlari bilan bog‘lanadi. Mutaxassis shaxsining rivojlanishi nuqtai nazaridan yetuklik davrining psixologik xususiyatlari muhim axamiyat kasb etadi (20-40 yosh, 40-60 yosh, 60-75 yosh). Qiziqarlisi shuki, mutaxassis shaxsining shakllanishi yetuklik davrining ilk bosqichidan boshlanadi, lekin 40-60 yoshlarga kelib, o‘zining shaxs xususiyatlarini namoyon qila boshlaydi. A.A.Rean ham mualliflar bilan birga qator olimlarning va o‘zining izlanishlari natijalari asosida 40-60 yoshlarga kelib shaxsda psixofiziologik funksiyalarning susayishi kuzatiladi, lekin bu kognitiv soxasida aks etmaydi va ish qobiliyatini susaytirmaydi, degan xulosaga keladi. Ayrim qobiliyatlar, ayniqsa, faoliyatning turli shakllari bilan bog‘lik qobiliyatlar taraqqiy etishda davom etadi va intellektning rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Bu bosqichda shaxs donishmandga aylanadi - uning dunyoqarashi kengayadi, har qanday xodisalarni chuqur va har tomonlama o‘ylab ko‘radi, u yoki bu vaziyatning rivojlanishini bashorat qilishi, voqealarni kechishini nazorat qilishi va turli masalalarni ijodiy hal qilishi mumkin. Mualliflarning ta’kidlashicha, bu davrda shaxs intellektual taraqqiyotining xususiyatlari ko‘p hollarda uning shaxsiy harakteri, hayotiy ustanovkalari, rejalari va qadriyatlari tizimiga bog‘lik bo‘ladi. Yetuklik davridagi shaxsning emotsional soxasi serkirrapigi bilan ajralib turadi, ularda kayfiyatning tez uzgarishi kuzatiladi. Yoshlik davriga kelib ijobiy emotsiya va xissiyotlarni yuzaga keltiruvchi oilaviy hayotning barqarorlashuvi, ruhiy va jismoniy potensialning to‘liq namoyon bo‘lishi, Hayotiy va kasbiy rejalarning amalga

oshirish xodisasi sodir bula boshlaydi. Shu bilan bir vaqtda, ularning oʻz-oʻziga xaddan ortiq yuqori yoki past baho berishlari, depressiya, oʻzining ijtimoiy va mexnat mavqeidan qoniqmaslik xissi, stressga barqarorlikni pasayib ketishi bilan kuzatiladi.

Mualliflarning ta'kidlashlaricha, motivatsiya tuzilishida qisqa vaqt ichida va toʻliq shaklda rejalashtirilgan natijalarga erishish istagining kuchi negizida qoʻzgʻatuvchi extiyojlarni qondirishga yunalganlik yotadi. Harakatlarni faollashtiruvchi asosiy motivlar - ijodiy potensialni amalga oshirish ga intilish, oʻzining bilim, tajriba, faoliyat natijalarini kelgusi avlodlarga yetkazish, oʻzining va yaqinlarining xavfsizligini ta'minlash, oʻzining ijtimoiy va kasbiy mavqeini tartibga keltirish, hayotiy rejalarini amalga oshirishda yaqinlariga yordam berish, keksalik davrida tinch va farovon hayot kechirishga tayyorlanish va boshqalar hisoblanadi. Bu yosh davri uchun hayotga oʻzgacha nazar bilan qarash va chuqur mushohada qilish, shaxsiy, oilaviy va kasbiy soxalarda avval qabul qilingan qadriyatlar tizimini qayta koʻrib chiqish kabi xususiyatlar xosdir. Majburiy hayotiy va kasbiy oʻzgarishlar faqatgina stressni rivojlanishiga zamin xozirlabgina qolmasdan, balki avval qabul qilingan hayotiy rejalar va motivlarning oʻzgarishi, qolaversa ulardan voz kechishga olib kelishi mumkin. Yetuklik davrida "Men"-konsepsiyasi shaxsning oʻzi va atrof-muhit haqidagi yangi tasavvurlari bilan boyidi. "Men"-konsepsiyasi shaxsning konseptual negizini boyishi natijasida rivojlanadi. Uning asosida axlokiy normalar, xuquq va shaxsiy qadriyatlar negizida shaxsning oʻzini oʻzi faollashtirishi yotadi. SHaxsning oʻziga nisbatan realistik, ongli munosabati uning shaxsiy "Men"iga yunaltirilgan emotsiyalarni boshqarish imkonini beradi. Oʻz-oʻziga baho berish umumiy xarakterga ega boʻlib, ularning "proeksiyasi" turli vaziyatlarda namoyon buladi. "Men obrazi" ijtimoiy rollarni qabul qilish va shaxsiy mavqeni tiklash bilan bogʻlik ravishda boshqa shaxslarning (bolalar, oʻquvchilar va boshqalarning) taraqqiyotini ta'minlashga yunaltirilgan boʻladi. Yetuklik davrida yetakchi faoliyat mehnat hisoblanadi.

Kasbiy faoliyatda orttirilgan tajriba muhim ahamiyatga ega. Muloqot va shaxslararo munosabatlarning axamiyatini kuchaytiruvchi oraliq va boshqaruvchi funksiyalar bilan bogʻliq xolda kasbiy xulq-atvorning yangi

shakllari rivojlanadi va namoyon buladi. Faoliyat soxasining doirasi kengayadi, yangi xulq-atvor strategiyalari yuzaga keladi, shaxsiy mexnat jarayoni va uning natijalariga hamda boshqa mutaxassislarga nisbatan mas’uliyatlilik hissi ortadi. Oilaviy hayotdagi barqarorlik, maqsadga muvofiqlik bilan tavsiflanib, bolalarga va qariyalarga yordam berishga bo‘lgan extiyoj kuchayadi. Mexnat yuklamasining kattaligi, funksional zaxiralarning susayishi va unga nisbatan e’tibor hamda vaqtning ishchanlik qobiliyatini qayta tiklashga sarflanishi natijasida shaxsda dam olishni tashkil qilinishi biroz cheklanadi. Demak, yetuklik davrining o‘ziga xos tomonlari mexnat faoliyatining muhim ta’sir darajasi, hayotiy va mexnat motivlarining shakllanishi va amalga oshishi, adekvat “Men” - konsepsiyasining tarkib topishi, shaxsiy imkoniyatlarning shaxsiy maqsad va rejalar bilan muvofiqligi, ma’naviy-mazmuniy ustanovkalarning amalga oshishi bilan shartlangan shaxs tuzilishining turli komponentlarini progressiv rivojlanishida aks etadi. Qolaversa, bu davrda me’yoriy inqirozlar va shaxs deformatsiyasi kuzatiladi, bu esa shaxs taraqqiyotining pozitiv tendensiyasi buzilganligidan, xattoki, shaxs tuzilishidagi ayrim komponentlarning namoyon bulishi va holatiga hamda shaxs xulq-atvoriga salbiy ta’sir qilayotganidan dalolat berishi mumkin.

**Munosabatlarda va e’tiqotdagi madaniy tafovutlar**

Tildagi tafovutlar va metodlardagidan tashqari, tildagi madaniy guruhlar turli munosabatlarda va e’tiqodlarda bir biridan farqlidir.

Turli yosh davrlarida shaxs psixik tarakkiyoti shaxs tuzilishining u yoki bu komponentlarining o‘ziga xos sifatlari va bu jarayonning namoyon bo‘lishini ayrim qonuniyatlari bilan cheklanib qolmasdan, aynan:

❖ Turli psixik funksiyalar va xususiyatlarning taraqqiyotini nomuvofiqligi (ular o‘zlarining yuksalish chuqqisi, barqarorlik va inqiroz bosqichlariga ega), shu bilan birga taraqqiy etganlik qanchalik past bulsa, ikkilanish shunchapik kuchli buladi;

❖ Shaxs hayot-faoliyati va psixik faoliyat funksiyalari hamda ta’lim tizimini roli va tuzilishining o‘ziga xosligi orqali aniqlanuvchi shaxsning aloxida komponentlarini shakllanishining turli vaqtlarda sodir bo‘lishi- geteroxronlik fazasi;

❖ Psixik faollik tizimini barqarorligini ta'minlovchi, vaqtga bog'lik bulmagan xolda namoyon bo'luvchi rivojlanishning aloxida bosqichlarini beqarorligi;

❖ Senzitivlik, ma'lum vaqt davomida tashqi ta'sirlarga nisbatan psixik funksiyalarning ta'sirchanligini ortib ketishi;

❖ Taraqqiyotning divergentligi-konvergentligi - bunda psixik taraqqiyot jarayonining serqirraligini ortishi va saralashning ortishi bilan tavsiflanadi. Bu qonuniyatlar shaxs kasbiy shakllanishi va uning taraqqiyoti muammosi o'rganilib chiqilgandan so'ng yuqoridagidek tasniflandi.

Kasbiy yetuklikni mutaxassis shaxsining shakllanishi va mexnat sub'yektining kasbiy shakllanishi jarayoni sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayon mexnat faoliyatini boshqarish va amalga oshirish bilan bogliq, lekin u faqatgina operatsional soxa taraqqiyoti, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish bilan cheklanib qolmaydi, balki S.L.Rubinshteyn, B.G.Ananev, B.F.Lomov, A.N.Leontev va boshkalarning tadqiqotlarini guvohlik berishicha, shaxs ijtimoiy xulq-atvorini psixik boshqarishning funksional tizimini shakllanishi bilan bog'liq. Bu jarayonda shaxsning kasbiy kamolotini asosiy qonuniyatlari xaqidagi tasavvurlarning taraqqiyoti va turli omillar ta'sirida uning dinamikasini boshqarish muhim rol o'ynaydi, buning natijasida shaxs o'zini kasbiy faoliyat sub'yekti sifatida anglay boshlaydi va kasbining ijtimoiy axamiyatlilik darajasini tushunadi. Shaxsning kasbiy shakllanish jarayonida aniq faoliyatning mohiyatini ochish dinamikasidagi maqsadga yo'nalganlik, uning imkoniyatlarini bosqichma- bosqich kashf qilinishi va uning alohida komponentlari hamda tuzilishining o'zgarishini muhim manbasi bo'lib hisoblanadi. Mexnat sub'yektining kasbiy shakllanishi, shaxsning mutaxassisga aylanish jarayonida faoliyatning operatsional tomonini egallash qobiliyatini qidirish va yaratish, faoliyatning psixologik tizimi komponentlarini uzaro aloqasi va mazmunini o'zlashtirishini o'z ichiga oladi. Bu jarayonni boshqarishning asosiy mexanizmlaridan biri o'zi hakidagi tasavvurlarning ("Men-konsepsiyasi"), "Men-mutaxassis" obrazi va mutaxassis modeli namunasining shakllanishi, qolaversa, bu tasavvurlarning muvofiqligi, ular orasidagi qarama-qarshiliklarni aniqlash va taxlil qilish hisoblanadi. Ko'rsatib

o‘tilgan sub’yektiv modellarning roli qator tadqiqotlarda o‘z aksini topgan bo‘lib, ular: “stereotiplashgan kasbiy namunalar shaxs tajribasining to‘liq integratsiyasiga yo‘l qo‘ymaydi, bu vaziyatda kasbiy shakllanish shaxs taraqqiyoti uchun to‘siq bo‘lib xizmat qilishi ham mumkin”, degan goyani tasdiqlaydilar. Faqatgina individuallashtirilgan, qolaversa, shaxsning individual xususiyatlarini inobatga olgan xolda yaratilgan kasbiy namunagina shaxs taraqqiyoti uchun xizmat qilishi mumkin, chunki ular muayyan bir shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari bilan muvofiq bo‘ladi.

### 4.2.4. Mehnat sub’yektining kasbiy shakllanish omillari

Shaxsning hayotiy va kasbiy shakllanishini dinamik xarakterini, shaxsning o‘ziga xos filogenetik va ontogenetik xususiyatlarini, qolaversa, undagi mehnat faoliyatining rolini, sub’yektning kasbiy shakllanishini o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan xolda bu jarayonni “professiogenez” atamasi bilan atash mumkin.

Professiogenezning markaziy nuktasida mexnat sub’yektining kasbiy shakllanishi va uni bir necha aspektlarini keng kulamda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir: Birinchidan, shaxs taraqqiyoti sifatida - bu muayyan mexnat sub’yektining faollik darajasiga bog‘lik va yetakchi faoliyat xarakteriga asoslangan xolda aniq bir yosh davrida namoyon bo‘ladi. Psixik taraqqiyot eng avvalo, mexnat motivlarining shakllanishi, kasbiy muhim sifatlarning faollashishi va aniq bir faoliyatning talablariga muvofiq ravishda shaxs qobiliyatlarining tarkib topishi bilan yakunlanadi. Ikkinchidan, sub’yekt ijtimoiylashuvi sifatida - bu individ tomonidan ijtimoiy normalarning o‘zlashtirilishida, ijtimoiy tajribani shaxsiy kasbiy ustanovkalar tizimida qo‘llashda, qadriyatlar va faoliyat dasturida, ijtimoiy rollarni qabul qilish va ijtimoiy masalalarda namoyon bo‘ladi. Uchinchidan, sub’yektning kasbiy o‘zini o‘zi anglashi, o‘zini o‘zi namoyon qilishi sifatida - bu hayot faoliyati davomida kasbiy shakllanishiga zamin tayyorlaydigan o‘zini o‘zi anglash, uzini uzi boshqarish, o‘zini o‘zi nazorat qilish, hayotiy tajriba va hayot tarzi orqali namoyon bo‘ladi. Hayot davomida taraqqiy etish va kasbiy shakllanish yosh davrlarida, shaxs hayot-faoliyati bosqichlarida aks etib, jamiyat talablari va

shaxsning o‘zini o‘zi namoyon qilishga intilishi orasidagi qarama-qarshiliklarga bog‘lik bo‘ladi. To‘rtinchidan, kasbiy shakllanish shaxs faolligi shaklida namoyon bo‘ladi va tavsiflanadi - bunda shaxs shakllanishining dinamik sharoitlari va uni shaxsiy xarakatlarining faoliyat bilan muvofiqligi ko‘rib chiqiladi. Kasbiy shakllanish jarayonini professiogenetik yondashuv asosida o‘rganish borasida bir kator tadqiqotlar olib borilmoqda va bu muammoning turli jixatlari keng doirada ochib berilmoqda.

Oxirgi 15 yil ichida mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar shaxs xulq-atvori va kasbiy soxasida o‘z aksini topib kelmokda. Yetuklik davridagi shaxslarni kasbiy sayta yunaltirish keng tarqalgan voqelikka aylangan. O‘zini o‘zi anglash va shaxsning kasbiy shakllanishi muammosi bu jarayonda sub’yektlarning turli kasbiy tajribaga ega ekanliklari, barqaror qadriyatlar tizimi, shakllangan shaxs tuzilishi, hayotiy pozitsiyani amalga oshirishda ijtimoiy, kasbiy va iqtisodiy sharoitlarni aniqlash bilan aloqadorlikda yangi qirralarga ega bo‘ldi. Aytish mumkinki, shaxsning kasbiy shakllanishidagi individual farqlar mutaxassislarni kasbiy yetuklikka erishishlarining turli imkoniyatlarini belgilab beradi. Mexnat sub’yektining kasbiy shakllanishi taraqqiyot jarayoni sifatida mutaxassisning qator yakuniy natijalarga erishishi, ayniqsa, yukori darajadagi professionalizm, malakaga, kompetentlikka va yetuklikka, egaligida mujassamlashadi. Bu tavsiflarning xar biri kasbiy shakllanganlikning o‘ziga xos xususiyatlarini, shaxs taraqqiyoti darajasi va xususiyatlarini, eng asosiysi, bu jarayonning natijalarini muxokama qilishda muhim axamiyatga egadir. “Kasbiy shakllanganlik” tushunchasi mexnat sub’yektining kasbga egalik qilish darajasi va aniq mehnat faoliyatida kasbiy muhim xususiyatlar, bilim, ko‘nikma, tajriba va mahoratlarning shakllanishi va namoyon bo‘lishi asosida ishlab chiqarish samaradorligiga erishishi sifatida qo‘llaniladi. Mexnat sub’yektining aniq bir faoliyat soxasida yuqori darajadagi kasbiy malakalarga egaligi mehorat deb yuritiladi.

**A.K.Markovaning** ta’kidlashicha, “kasbiy shakllanganlik” tushunchasi turli ma’nolarda: kasbning shaxsga, uning kasbiy va psixologik sifatlariga bo‘lgan me’yoriy talablar sifatida va muayyan bir shaxsda mavjud bo‘lgan va uning kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatini ta’minlaydigan kasbiy yo‘naltirilgan

xususiyatlar majmuining me’yorlari sifatida qo‘llaniladi”. Insonlarning bir-biridan farq qiladigan hayot yo‘lini qonunlashtiradigan harakatlar, ishonchlar va hulq-atvorlarni yagona bir tizimidir. Muallif kasbiy shakllanganlikning kuyidagi kategoriyalarini ajratib kursatgan: “shaxsning uzini mutaxassis sifatida takomillashtirishi; ichki kasbiy lokus nazorati; mutaxassisning anglangan sifatlari, xajmi; shaxsning o‘zini mutaxassis sifatidagi to‘liq obrazi; kasb yordamida o‘zini o‘zi rivojlantirish va yetishmaydigan xususiyatlarning o‘rnini qoplash qobiliyati va h.k.”

Kasbiy shakllanganlik darajasini aniqlash uchun shaxsning sifat va miqdor jixatidan kasbiy tayyorgarlik darajasini, faoliyat samaradorligini, ish qobiliyatini, kasbiy yaroqliligini, o‘z ustida ishlashining muvafaqqiyatliligini aks ettiruvchi mutaxassisning “malakasi” tushunchasi qo‘llaniladi. Bu tavsifnomalar aniq kasbiy faoliyatning muayyan bir shaxs xususiyatlariga (kasbiy, psixologik, ijtimoiy va boshqa) qo‘yadigan normativ talablari bilan muttanosibdir. Yukori kasbiy malaka, mexnat sub’yekti yetukligini shakllanishining va namoyon bo‘lishining muhim sharti hisoblanadi, vaxolanki, ayrim vaziyatlarda kasbiy yetuklik yetarli darajada bo‘lmasa ham shaxs qator mexnat funksiyalarini malakali darajada bajarishi mumkin. Ko‘p qo‘llaniluvchi “komponentlik" tushunchasi kasbiy shakllanish va kasbiy yetuklikni baholovchi me’yor bulib, xali aniq ta’rifga ega emas. U mexnat sub’yektiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki aynan, sub’yektning aniq faoliyatning o‘ziga xos jixatlariga nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyat sifatida qo‘llaniladi. Umuman olganda, bu tushuncha shaxsning qandaydir hayotiy vaziyatlarda, ijtimoiy va kasbiy faoliyatda avtoritarligi, shu soxa bo‘yicha tushuncha hamda bilimlarga egaligi bilan tavsiflanadi. A.K.Markovaning fikricha, muayyan bir shaxsning kompetentligi uning kasbiy shakllanishiga qaraganda ko‘prok uchraydigan tavsifnomasidir. Bunga ko‘ra, kasbiy kompetentlikning xilma-xil turlarini ajratish mumkin: maxsus (mexnat jarayonini amalga oshirishda), ijtimoiy (hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirishda), shaxsiy (o‘zini o‘zi boshqarish va takomillashtirish malakalariga egalik) va boshqalar. Ayrim mualliflar kasbiy muloqotdagi, mutaxassis shaxsining rivojlanishidagi kompetentlikni xam ajratib ko‘rsatadilar.

Kompetentlikning yuqorida sanab o‘tilgan turlari albatta bir insonni to‘liq shaklda tavsiflashi shart emas, chunki, shaxs yaxshi mutaxassis bo‘lishi mumkin, lekin o‘zini o‘zi boshqarish yoki shaxslararo kasbiy muloqot malakalariga ega bo‘lmasligi mumkin, qolaversa, yuqori darajada kasbiy kompetentlikka ega bo‘la turib, shaxsiy va ijtimoiy kompetentligi past bo‘lishi mumkin. Aytish mumkinki, o‘z navbatida professionalizm darajasi sub’yektning professionalizatsiyani yo‘nalganligi, ko‘rsatgichi va mazmuni hamda mutaxassisning professionallashuv darajasiga ta’sir etuvchi ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy va boshqa keng doiradagi kompetentlik bilan shartlangandir.

**Dj. Raven** (2003) tadqiqotlari kompetentlikning tuzilishli - funksional konsepsiyani asoslashga imkon berdi va u quyidagilarda aks etadi:

1. Eng avvalo, shaxs qadriyatlari, ijtimoiy-siyosiy ishonchi va fikrini aniqlovchi shaxs motivatsion-qadriyatlar sohasini tizimli ravishda namoyon bo‘lishi va shakllanishining ahamiyati.

2. Shaxsiy qadriyatlarning mexnat jarayonini tashkil qilish va mazmuniga nisbatan bevosita qiziqish, liderlik, tashkilotchilik kabi xususiyatlarda aks etishi.

3. Kompetentlikning tabiati kognitiv, emotsional va irodaviy jarayonlarning, individning maqsadga erishishini ta’minlovchi masalalarni echishga, xal qilishga tayyorligini baholash mezoni va namoyon bo‘lishiga asoslangan bo‘ladi.

3. Kompetentlik faqatgina o‘zining faol komponentlari hisobiga emas, balki yangi hayotiy vaziyatlarda namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan passiv komponentlari hisobiga xam shakllanib boradi.

4. Kompetentlik o‘zining bir-biridan mutlako mustaqil, lekin bir- birini o‘rnini axamiyatli darajada samarali xulk-atvor omili sifatida egallab tura oladigan, ko‘p sonli komponentlari yordamida aniklanadi.

Kompetentlikning tarkibiy qismlari qatoriga kognitiv, emotsional, irodaviy sifatlardan tashqari o‘ziga ishonch (o‘zining kasbiy bilimlariga, liderlik qobiliyatiga va b); qaror qabul qilish va uning ijrosini boshqarish malakasiga ega bo‘lish; qiziqarli umumiy maqsadlarni qidirish, anglash va qaytarma aloqani qo‘llashdagi samarali faoliyat; o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi takomillashtirish qobiliyatlariga ega bo‘lish; o‘zini o‘zi nazorat qilish,

moslashganlik, murakkab muammolarni xal qilishga tayyorlik va tavakkalchilikka moyillik, qat’iyatlilik, kasbiy mas’uliyatlilik va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

**E.F.Zeerning** ta’kidlashicha, kasbiy kompetentlikning funksional taraqqiyotini tadqiq qilish kasbiy kamolotga erishish chog‘ida kompetentlikning turli ko‘rinishlari intefatsiyalashib borishini va ularning kasbiy muhim shaxs sifatlari bilan aloqasi kuchayib borishini ko‘rsatadi. Aytish joizki, kompetentlikning asosiy darajalari kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o‘zini o‘zi anglash, o‘z kuchiga ishonish, o‘zga insonlar tomonidan ko‘rsatilgan kamchiliklarni to‘g‘ri qabul qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi shaxs xususiyatlari kiradi. Taxmin qilish mumkinki, mexnat sub’yektining sanab o‘tilgan professionallashuv ko‘rsatkichlari, mutaxassis bo‘lish (malaka, kompetentlik) va sub’yektning kasbiy yetukligi orasida o‘zaro aloqa va o‘zaro ta’sir mavjud.

Professionallashuvi dinamik jarayon bo‘lib, xar bir bosqich o‘ziga yarasha rivojlanish darajasini bosib o‘tadi. Shaxsning faoliyatda o‘z kasbiy potensialini amalga oshirishi aynan shu vaziyatga shaxs psixologik tuzilishini moslashishidagi o‘zaro ta’sirini boshqarish negizida yuz beradi. “Shaxs taraqqiyotining xar bir yangi shaxsiy-psixologik bosqichida individning ijtimoiy muxitga faol munosabati natijasida shakllanuvchi barcha - predmetli faoliyat, mulokot, uyin, ukish, ijtimoiy-siyosiy faoliyat, mexnat va shaxsning tizimli shakllanishida tartibli ravishda mustaxkamlanib boradi. Ular shaxsning vertikal va gorizontal funksional tuzilishini anglatadi”.




Faoliyat sub’yektining professionallashuvi va uning shaxsini rivojlanishi kasbiy yetuklikning shakllanishi bilan muvofiq tarzda kechadi. Kasbiy yetuklik tushunchasiga yuqori darajada shaxsiy va kasbiy jixatdan rivojlangan va yuqori professionalizmni o‘zida

namoyon qiladigan, malakali, qolaversa, axloqiy-ma’naviy, etnik, madaniy, ijtimoiy va kasbiy muhim xususiyatlarni hamda shaxsiy sifatlarni o‘zida mujassamlashtirgan mexnat sub’yektining xususiyati deb izoxlansa maqsadga muvofik bo‘ladi.

Mutaxassisning shakllanishi faqatgina chuqur va keng doiradagi bilim, ko‘nikma va malakalarga, kasbiy tajriba va maxoratga ega bo‘lish bilan cheklanib qolmaydi, balki tarbiyalanganlik, yetuk shaxs taraqqiyoti ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbiy yetuklik shaxsiy ideallar, ustanovkalar, qadriyatlar, hayot va faoliyat mazmunini ijtimoiy, psixologik muxitning kasbiy talablari bilan muvofiqligida aks etadi.

Mutaxassis shaxsining kasbiy yetukligi quyidagi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin:

1. Kasb bilan bog‘lik ma’naviy qadriyat tizimini tushunish.

2. Tajriba orttirish va shaxsiy tajribani taxlil qilish.

3. Namunaviy mutaxassisning adekvat modelini qabul qilish va unga o‘xshash uchun o‘z ustida ishlashga intilish.

4. Oldinga qo‘yilgan maqsadga erishish uchun shaxsiy kuch va resurslarni maksimal darajada safarbar etish.

5. Mexnatdan qonikish xissining paydo bolishi.

6. O‘zini o‘zi rivojlantirishga intilish.

7. Shaxs xulqida buzilishlarning mavjud emasligi.

8. Shaxs organizmi va psixikasining funksional imkoniyatlari va ularning kasbiy talablarga muvofiqdik darajasi xaqidagi tasavvurlarga ega bo‘lish va boshqalar. Faoliyat sub’yektining malakasi kasbiy yetuklikning muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanib, u o‘zining funksional imkoniyatlari va extiyojlarini kasbiy talablar bilan muvofiqlashtiradi. Bu ko‘rsatkich kasbiy “Men-konsepsiyasi”ning uziga xosligini anglatadi. Yoshlik davrida, ayniqsa, kasbiy yetuklik bosqichida “Men-konsepsiyasi” xar tomonlama boyitiladi, bir tomondan-hayot va faoliyatning o‘zgaruvchan talablari, ikkinchi tomondan esa-o‘zini o‘zi baholashning shakllanishi ruy beradi.

**A.A.Reanning** ta’kidlashicha, etuklik davrida “Men-konsepsiyasi” kasbiy faoliyat ta’sirida, ko‘pgina maxsus konsepsiyalarning namoyon bo‘lishi hisobiga

shakllanadi. Ular reallashib, professional maxoratning o‘sishi bilan bog‘lik ravishda rivojlanib boradi. Shaxs asta-sekinlik bilan o‘z imkoniyatlarini namoyon qiluvchi maqsadlarni tanlashda o‘ta sinchkov va ishning natijasiga mas’uliyat bilan yondashadigan bo‘lib boradi. “Shaxsning axloqiy qoidalar va ayniqsa, muhim shaxsiy qadriyatlar doirasida o‘zini o‘zi faollashtirish” Men-konsepsiyasining tub moxiyatiga singib boradi. Kasbiy yetuk shaxslarda ularning o‘zlari xaqidagi ma’lumotlarga asoslangan xolda o‘zini o‘zi baholashning kognitiv komponentlari kuchayib boradi. O‘zini o‘zi baholashning emotsional komponenti esa biroz cheklanadi.

## 4.3. REORIENTATSIYA - PSIXOLOGIYANING ASOSIY MUAMMOSI SIFATIDA

### 4.3.1. Qayta kasbga yo‘llashning psixologik mohiyati

Psixologiya fanida kasb tanlashga yo‘llash (proforientatsiya) atamasi qadim zamondan qo‘llanib kelinadi. Lekin ijtimoiy hayotning keyingi davrlarida boshqa bir atama fanimizga kirib keldi, u reorientatsiya (qayta yo‘llash) deb atalib, insonni yangi bir moslashmaga (ko‘nikmaga) kasbga yo‘naltirishni bildirib keladi.

Ishlab chiqarishga avtomat qurilmalarning (elektron moslamalarning, robotlarning) kirib kelishi ish o‘rinlarining qisqarishiga olib keladi. Muassasa, tashkilot, korxona rentabelligining pasayishi ham xodimlarga nisbatan ehtiyojning kamayishini keltirib chiqaradi. Ma’lumki, bozor iqtisodiyoti raqobatga asoslanadi, shuning uchun testlarga bardosh beruvchi, yuqori malakali, mahoratli, bilimdon, komil insongina sinovlardan muvaffaqiyatli o‘ta oladi, xolos. O‘rtamiyona darajadagi mutaxassislar esa ish o‘rnini yo‘qotib, vaqtincha ishsizlar ro‘yhatiga kiradi.

**Reorientatsiya bu-** Qayta kasbga yo‘llash (reorientatsiya) o‘ta insonparvarlik (gumanistik) g‘oyasida o‘z kasbini o‘zgartiruvchi yoki ishsiz qolgan shaxs ruhiyatiga singdirishni anglatadigan jarayon.

Ishsizlik, ish o‘rnini yo‘qotish ayollarda o‘kinchili (ayanchli) his – tuyg‘ular qobig‘ida o‘ta murakkab kechadi, go‘yoki tragediya, halokat, judolik

vujudga kelganda ham ekstravertlik, ham introvertlik xususiyatlari uyg‘unlashganday yuz beradi.

Psixologiya fanida kasb tanlashga yo‘llash (proforientatsiya) atamasi qadim zamondan qo‘llanib kelinadi. Lekin ijtimoiy hayotning keyingi davrlarida boshqa bir atama fanimizga kirib keldi, u reorientatsiya (qayta yo‘llash) deb atalib, insonni yangi bir moslashmaga (ko‘nikmaga) kasbga yo‘naltirishni bildirib keladi. Qayta kasbga yo‘llash (reorientatsiya) o‘ta insonparvarlik (gumanistik) g‘oyani kasbini o‘zgartiruvchi yoki ishsiz qolgan shaxs ruhiyatiga singdirishni anglatadi. Ishlab chiqarishga avtomat qurilmalarning (elektron moslamalarning, robotlarning) kirib kelishi ish o‘rinlarining qisqarishiga olib keladi. Muassasa, tashkilot, korxona rentabelligining pasayishi ham xodimlarga nisbatan ehtiyojning kamayishini keltirib chiqaradi. Ma’lumki, bozor iqtisodiyoti raqobatga asoslanadi, shuning uchun testlarga bardosh beruvchi, yuqori malakali, mahoratli, bilimdon, komil insongina sinovlardan muvaffaqiyatli o‘ta oladi, xolos. O‘rta miyona darajadagi mutaxassislar esa ish o‘rnini yo‘qotib, vaqtincha ishsizlar ro‘yhatiga kiradi.



**Reorientatsion jarayon**

Ishsizlik, ish o‘rnini yo‘qotish ayollarda o‘kinchli (ayanchli) his-tuyg‘ular qobig‘iga o‘ta murakkab kechadi, go‘yoki tragediya, halokat, judolik vujudga kelganda ham ekstravertlik, ham introvertlik xususiyatlari uyg‘unlashganday yuz beradi. Erkaklar esa bunday vaziyatlarga matonat bilan, iloji boricha hissiyotlarga berilmasdan, aql-zakovat maromlariga tortilganlik to‘yg‘usi ustuvorligida namoyon bo‘ladi. Erkaklarda achinish, xafaxonlik kechinmalari tarzida hukm surishi, asta-sekin uning ta’sir kuchi pasayishi kuzatiladi. Bunda insonning ruhiy kechinmalari keskin o‘zgarishining asosiy omillari sifatida uning ish davri va yoshi ijtimoiy muammo maydoniga chiqadi. Yoshning ulg‘ayishi yangi muhit, o‘zgacha sharoit, notanish jamoa va uning nufuzi kabi masalalar yechimiga salbiy munosabatni keltirib chiqaradi. Mazkur ob’yektga uzoq davr mehnat faoliyatini bag‘ishlash ham frustratsiya holatini

harakatlantiruvchi safida asosiy rol o‘ynashi mumkin. Xullas, har ikkala omil ham frustratsiyaning manbai vazifasini o‘taydi (bajaradi), noxush muvaqqat kechinmalar vujudga kelishi, kechishi, rivojlanishi jarayonlarini uzluksiz ravishda bajarib turadi. Hozirgi zamon mehnat birjalarida reorientatsiya (qayta kasbga yo‘llash) ishlari olib borilishi markazlashtirilgan. maxsus xodimlar kompyuter xotirasiga joylashtirilgan shahar, tuman bo‘yicha ixtisoslar bo‘yicha yoki ixtisoslararo mutaxassislar ro‘yxati (zaruriyati, ehtiyoji, talabi) bilan ish izlab kelgan muhtoj shaxs tanishtiriladi. Aksariyat mehnat birjalarida psixologlar yetishmaganligi tufayli tasodifiy xodim ish bilan ta’minlash, bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirish bilan shug‘ullaniladi, xolos. Aslida esa bu xizmat qator omillarni tekshirish, o‘rganishni taqozo etadi, ilmiy psixologik qonuniyatlar asosida ish yuritishni talab qiladi, chunonchi:

1. Shaxsning fazilatlari, xarakterologik hislatlari.
2. Hissiy jabhalari va irodaviy sifatlari.
3. Insonning kognitiv va regulyativ imkoniyatlari.
4. Ehtiyoji, motivi, motivatsiyasi, motivirovkasi.
5. Kasbiy mayli, qiziqishi, layoqati.
6. Professiogramma talablariga mosligi, kasbiy yarog‘ligi.
7. Iqtidori (iste’dodi), qobiliyati, salohiyati.
8. Kasbiy bilimlari, ko‘nikmalari, malakalari, mahorati.
9. Umumiy saviyasi, dunyoqarashi, maslagi (e’tiqodi).
10. Salomatligi, jinsiy xususiyatlari, yoshi.
11. Izlanuvchanligi, ijodiy imkoniyatlari, innovatsiyaga nisbatan munosabati.
12. Ijtimoiy etukligi, tashkilotchilik qobiliyati.
13. Ekstravertligi va introvertligi.
14. Yuksak insoniy tuyg‘ularga (axloqiy, aqliy, nafosat, praksik) egaligi.
15. Fidoiylik, altruistik, vatanparvarlik fazilatlari ustuvorligi va boshqalar.

Yuqorida sanab o‘tilgan mezonlar bo‘yicha tekshirish ishlari bir necha metodlar, metodikalar orqali ko‘p seriyali tajribalar negizida amalga oshiriladi. Buning uchun testlardan qobiliyatga, shaxsga, ijodiyotga, xotiraga shaxslararo munosabatga (oid), maxsus ishlab chiqilgan materiallardan, maqsadli

vaziyatlardan, qiyinlashtirilgan topshiriqlardan, muammolardan, psixologik treninglardan, psixodramalardan va boshqalardan foydalaniladi.

Olingan natijalar sifat va miqdor jihatdan tahlil qilingandan keyin muayyan xulosalar chiqariladi. Xulosalar asosida reorientatsiya sub'yekti roziligida ishga muhtoj shaxs taklif qilingan kasbga yo'naltiriladi. Ish joyning masofasi, uning ekologiyasi, sangigienasi, maoshi, istiqboli, muammoli jihatlari yuzasidan mukammal fikr almashiniladi, toki shartnoma qonuniy hujjat ekanligi (qiymatiga) zarar keltirmasin (ba'zan kelishuvdan voz kechish holatlari ham yuz berib turadi). Psixologik kuzatishlarning kosatishiga qaraganda, reorientatsiya (kasb tanlashga yo'llash) kabi bosqichlardan tashkil topgan bo'lib, ular qisqa fursatda (muddatda) o'tishi bilan o'zaro muayyan darajada tafovutlanadi. Jumladan, kasbiy maorif, kasbga yolash, kasbga saralash, kasbiy moslashish tezkorlikda, mukammal, o'ziga xos xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, kasbiy moslashish davri oziga xos tarzda kechadi, bir bosqich ikkinchisi bilan silliq uzviy boglanib ketadi. Kasbning moddiy (iqtisodiy) tomoni, ijtimoiy faollik (nufuzga egalik), ma'naviy ta'minlanganlik (ruhiy kotarinkilik hissiyotining ustuvorligi) insonning qaytatdan ijtimoiy hayotdan o'z o'rnini topish imkonini yaratadi, uning umrini uzaytiradi, ruhiy imkoniyatlari, zaxiralari, potensiyasi, rezervi ishga tushishiga puxta negiz hozirlaydi. Reorientatsiya (qayta kasbga yo'llash) gumanistik psixologiya tamoyillarini turmushga tatbiq etishga zarur shart-sharoitlar yaratadi. Inson omilini qadrlashga, butun imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga, ezgu niyat, orzu havas, istak-xohish ushalishiga negiz vujudga keltiradi. Ko'p profilli kasb-hunar egalari safini kengaytirishga xizmat qiladi, komillikka intilish tuyg'usini jonlantiradi, zarur bilimlar, malakalar bilan qurollantirishga turtki beradi.

### 4.3.2. Shaxsning kasbiy shakllanishi jarayonidagi inqirozlari

Shaxsning kasbiy shakllanishi inqirozlari psixologlarining chuqur o'rganish predmeti mavjud emas. Psixik rivojlanish yosh va hayotiy inqirozlari esa psixologik tadqiqotlarda aks etgan. Kasbiy shakllanish inqirozlarini ko'rib chiqishdan oldin shaxsga doir turli inqirozlarini taqlil etamiz.Psixologiyada bolalik inqirozlari chuqur o'rganilgan. Odatda hayotning birinchi yilidagi

inqiroz 3 yoshdagi, 6-7 yoshdagi va 10-12 yoshdagi o‘smirlik inqirozlariga ajratiladi. Inqirozlar davomiyligi, shakli va ta’sir kuchi bolaning individual psixologik xususiyatlaridan ko‘ra ijtimoiy sharoitlari, oilada tarbiya va pedagogik tizim xususiyatlariga ko‘ra inqirozlar sezilarli darajada farqlanadi. Bolalik inqirozlari bolalarning yangi yosh pog‘onaga o‘tish davrida paydo bo‘ladi va atrofidagi odamlar bilan o‘zaro munosabatlar shakli shuningdek, jismoniy va psixologik imkoniyatlar bilan boqliq bo‘ladi.

Negativlik, qaysarlik, erkalik yuqori darajadagi ziddiyatlilik holati bolalarning inqiroz davridagi xulqiy reaksiyalaridir.

R.A.Axmerov shaxsni biografik inqirozlarini tahlil qilar ekan, ularning omili sifatida voqealar va ulardagi munosabatni ko‘rsatadi. U quyidagi inqirozlarni ajratadi: o‘zini namoyon eta olmaslik inqirozi - hayotiy dasturning sub’yektiv salbiy qis etish.

**Kasbiy shakllanish.** Bo‘m-bo‘shlik inqirozi- toliqish va halban va yutuqlarning yo‘qligidan siqilish. Istiqbolsizlik inqirozi - kasbiy o‘sish istiqbolining kelajak uchun real rejalarining yo‘qligi. Muallif bu inqirozlarni inson yoshi bilan bog‘lamaydi. Uning fikricha, ular sub’yektiv kechinmalar bilan belgilanadi. V.Ch.Svabodnikov yosh toifasini ishlab chiqishda davrlashni asosi sifatida inson jamoasi tushunchasini oladi.

**Jamoada shakllanish**



Bu jamoa ichida kishining turli qobiliyatlari shakllanadi va bu qobiliyatlar turli jamoalarga kirish va chiqish imkonini beradi. Har bir yosh pog‘onasiga o‘tish bu doim "tug‘ilish" ni bildiradi ya’ni hayotning yangi shakliga kirish demakdir. Shu tarzda inqirozlarni ikki guruhga bo‘ladi: "tug‘ilish" inqirozlari (bunday yashash mumkin emas) ikkinchisi, rivojlanish inqirozlari (sen kabi bo‘lmoqchiman) va o‘zini anglashning yangi

usullarini qidirish va boshqalar. Hayotiy inqirozlar chet el psixologlaridan Sh.Byuller, B.Livexut, E.Erikson kabilarning diqqat e'tiborida bo'ldi. Inson hayotning davrlariga, bosqichlarga bo'lgan holda, ular bir bosqichdan ikkinchisiga o'tish davridagi qiyinchiliklarga e'tibor berishadi. Bundan tashqari ayollar va erkaklarda uchraydigan inqirozli qodisalar xususiyatlari orqali inqirozni keltirib chiqaruvchi omillarni taqlil etadi.1980 yillarda AQShda Amerikalik jurnalist Geyil Ishnxiyning "kishilar hayotidagi bashorat qilish mumkin bo'lgan inqirozlar" nomli maqolasida Amerika o'rta sinflarining yuqori qatlamlaridagilarini hayotini umumlashtirish asosida 4 ta inqirozni ajratadi: "Tomirlarni sug'irish" ota onadan mustaqillikka chiqish (16 yosh). Maksimal yutuqlar (23 yosh) hayotiy rejalar korreksiyasi (30 yosh) hayotning o'rtasi (37 yosh) eng og'ir davr psixologiyada psixik rivojlanish inqirozlarini o'rganishga katta e'tibor berilgan. Bir psixologik hodisalarni o'rganishda turli atamalardan foydalanilgan. "Yoshlar inqirozlari" va "psixik inqirozlarning rivojlanishlari" tushunchalari sinonim sifatida ishlatiladi. Bu esa o'z navbatida noaniqlikni keltirib chiqaradi. Masalan, inqirozli hodisalarning rivojlanishi ma'lum qisqa vaqt ichida kuzatiladi. Ammo hech ham yosh nazarda tutilmaydi. Yosh - bu inqiroz ko'rinadigan fon xolos, asosiy o'zgarish, ijtimoiy vaziyat va bosh faoliyatning o'zgarishi va albatta, psixik rivojlanish inqirozlari bolalik davri bilan chegaralanmaydi. Rivojlanishning ijtimoiy vaziyati va asosiy faoliyati bolalik davridan tashqarida ham o'zgaraveradi. Shunday qilib, rivojlanishning psixik inqirozlari - bu rivojlanishning bir bosqichidan ikkinchisiga o'tish hisoblanadi. Bu o'tish ijtimoiy vaziyatning o'zgarishi, asosiy faoliyatni almashtirish va psixologik yaqinliklarning paydo bo'lishi bilan belgilanadi. 14-16 yoshdan asosiy faoliyat va ijtimoiy vaziyatning o'zgarishi psixik rivojlanish inqirozlarni keltirib chiqaradi. Katta kishining asosiy faoliyati o'quv - kasbiy va kasbiy faoliyatlar bo'lganligi sababli bu o'zgarishlarni shaxsning kasbiy rivojlanishi inqirozlari deyish to'g'ri bo'ladi. Bu inqirozlarning paydo bo'lishida asosiy faoliyatni almashtirish va o'zgartirish muqim ahamiyatga ega. Kasbiy inqirozlarning bu turi sifatida ijodiy inqirozlar hisoblanadi. Bu inqirozlar ijodiy natijasizlik, ahamiyatli yutuqlarining yo'qligi, kasbiy kuchsizlik bilan belgilanadi. Bu inqirozlar ijodiy kasb vakillari uchun, ya'ni yozuvchilar,

rejissyorlar, aktyorlar, arxitektorlar va boshqalar uchun og‘ir kechadi. **Yoshdagi inqirozlar.** Ular inqirozli hodisalarni keltirib chiqarishi mumkinmi? Yosh - bu birinchi navbatda etilish, o‘zgarish, inson organizmining qarishi bilan belgilanadigan biologik omil hisoblanadi.

Psixik qobiliyatlarning psixik o‘zgarishi yoshdagi o‘zgarishlar natijasi hisoblanadi. Demak, biologik rivojlanishni keltirib chiqaruvchi inson yoshidagi o‘zgarishlarni, yoshdagi inqirozlarga sabab bo‘ladigan mustaqil omil sifatida ko‘rish mumkin. Bu inqirozlar shaxs rivojlanishlarining ildamli qarakati uchun kerak bo‘ladigan normativ jarayonlar sirasiga kiradi. Inqirozlarning keyingi guruhini ichki shaxsiy o‘zgarishlar tashkil etadi. Ong o‘zgarishi, taassurotlar, instinktlar, irratsional tendensiyalar ularning barchasi ichki ziddiyat, psixologik butunlikning bo‘lishiga olib keladi. Bu nevrotik xarakterdagi inqirozlar deyiladi. Ular freydistlar, neofreydistlar va boshqa psixoanalitik maktablar tadqiqot predmeti hisoblanadi.Aytib o‘tilgan psixologik inqirozlar guruhi qatorida yana bir inqirozli hodisalarning katta qatlami bo‘lib, u hayot sharoitlarining o‘zgarishlari bilan belgilanadi. Bu hayotiy inqirozlar determinantlar deb o‘quv yurtini tugatish, ishga joylashish, nikohdan o‘tish, farzand tug‘ilishi, yashash joyining o‘zgarishi, nafaqaga chiqish kabi muhim voqealar hisoblanadi. Bu ijtimoiy - iqtisodiy, vaqt holatlari katta sub’yektiv qiyinchiliklar, psixik zo‘riqish va ong xulqining o‘zgarishi bilan kuzatiladi. Va nihoyat yana bir inqirozlar guruhini ajratish kerak. Bu inqiroz guruh hayotidagi kritik holatlar dramatik gohida esa tragedik voqealar bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu omillar inson uchun vayronkor gohida fojiaviy yakun topishi mumkin. Ongda chuqur o‘zgarishlar qadriyatli yo‘nalishlar va umuman hayot mazmunini qaytadan ko‘rib chiqiladi. Bu inqirozlar inson imkoniyatlari darajasida bo‘lib o‘tadi va emotsional kechinmalar bilan kuzatiladi. Bularni nonormativ voqealar, ya’ni mehnatga layoqatni yo‘qotish, nogironlik, ajrashishi, majburiy ishsizlik, migratsiya, kutilmagan vaziyatda kishining o‘limi erkinlikdan mahrum bo‘lishi va boshqalar. Bu guruhni kritik inqirozlar deb ataymiz. Psixologik inqirozlarning birinchi uchta guruhi xronologik xarakterga ega. Ular normativ hisoblanadi; ularni barcha odamlar boshidan o‘tkazishadi, ammo inqirozning ifodalanganlik darajasi har doim ham ziddiyat darajasiga etmaydi. Hayotiy inqirozlarning

ikkinchi, uchinchi guruhlari normativ xarakterga ega bo‘lib, boshlanish vaqti, hayotiy sharoitlar, senariylar, inqiroz ishtirokchilari, tasodifiy bu voqeaviy inqirozlar sharoitlar tutash kelganligi tufayli paydo bo‘ladi. Bunday inqirozlardan chiqish muammoli hisoblanadi. Gohida destruktiv bo‘lib, jamiyatda mutahamlar, ichuvchilar, o‘z joniga qasd qiluvchilar ko‘payadi. Shaxs kasbiy shakllanish konsepsiyasiga asoslangan holda inqirozlarni kasbiy rivojlanishdagi keskin o‘zgarishlar deb ta’riflash mumkin. Uzoq davom etmay, ular kasbiy shakllanishning bir borsqichidan ikkinchi bosqichiga o‘tish paytida yorqin namoyon bo‘lishadi. Inqirozlar odatda kasbiy xulqida o‘zgarishsiz bo‘lib o‘tadi. Ammo kasbiy ongda bo‘lib o‘tadigan o‘zgarishlar, ya’ni, maqsadlarga yo‘naltirilganlik, atrofdagilar bilan o‘zaro munosabatlarning o‘zgarishiga, gohida esa kasbni o‘zgartirishga ham olib keladi. Kasbiy rivojlanish inqirozlarini keltirib chiqaruvchi omillarni batafsil ko‘rib chiqamiz.

Determenant sifatida faoliyatni bajarish usullarining asta-sekin o‘zgarishlari bo‘lishi mumkin. Birlamchi professionalizatsiya davrida shaxs o‘ta normativ faollikni namoyon eta olishi yoki tiklanishi lozim. O‘ta normativ kasbiy faollik, yangi ta’limiy, malakaviy yoki faoliyatning ijodiy bosqichiga o‘tish davrida kuzatilishi lozim. Boshqa kasbiy shakllanish inqirozlarini keltirib chiqaruvchi omil sifatida shaxs o‘zini ijtimoiy va kasbiy ta’limiy statusidan qoniqmasligi tufayli rivojlangan ijtimoiy-kasbiy faolligi bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy-psixologik yo‘naltirilganlik kasbiy tashabbus intellektual emotsional zo‘riqish ko‘p hollarda kasbiy faoliyat bajrilishining yangi usullarini uni takomillashtirish yo‘llarini qidirishga imkon beradi. Kasbiy inqirozlarni keltirib chiqaruvchi omillar sifatida, inson hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bo‘lishi mumkin: korxonaning tugatilishi ish o‘rinlarining qisqartirilishi, qoniqtirmaydigan ish haqqi, yangi yaxshi joyga ko‘chib o‘tish va boshqalar. Kasbiy rivojlanish inqirozlarini keltirib chiqaruvchi omillar sifatida psixofiziologik o‘zgarishlar ya’ni sog‘liqning yomonlashuvi, ishga layoqatning pasayishi, kasbiy toliqish, intellektual kuchsizlik, "emotsional yonish" sindromi va h.k. Kasbiy inqirozlar ko‘p hollarda yangi lavozimga o‘tishda, vakant lavozimni egallashdagi tanlovlarda qatnashishda, attestatsiya va mutaxassislarni ta’rifikatsiyadan o‘tkazishda kuzatiladi. Kanadalik psixolog Barbara Killenjer

o‘zining kitobida ta’kidlaydiki, muvaffaqiyat va tanishish vositasi sifatida ishni tan olganlar, gohida kasbiy axloq normalarini buzadilar. Ziddiyatli bo‘lib qolishadi, o‘zaro munosabatlarda qo‘pol bo‘lib qolishadi. Kasbiy rivojlanish inqirozlari hayotdagi o‘zgarishlar oqibatidan kelib chiqadi. (yashash joyini o‘zgartirish, ishdagi tanaffus, ishdagi ishq va h.k). Shaxsning kasbiy shakllanish konsepsiyasiga ko‘ra bu jarayon quyidagi bosqichlarga ajratiladi: optatsiya kasbiy ta’lim va tayyorgarlik, kasbiy moslashuv, birlamchi va ikkilamchi professionalizatsiya va mahorat. Inqirozlar ta’rifi bo‘yicha bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tish normativ inqirozli hodisalarni keltirib chiqaradi. Ishning birinchi haftalari, oylari katta qiyinchiliklar bilan bog‘liq, ammo ular inqirozli hodisalarni keltirib chiqarmaydi. Asosiy sabab - psixologik sabab hisoblanadi, unga ko‘ra real kasbiy hayot shakllanib bo‘lgan tasavvurlar bilan to‘g‘ri kelmasligini aytish mumkin. Kasbiy faoliyatning tasavvurlarga nomuvofiqligi kasbiy ekspektatsiya inqirozini keltirib chiqaradi. 3) Keyingi kasbiy shakllanishning normativ inqirozlaridan biri birlamchi professionalizatsiya bosqichining oxirida 3-5 yil ishlagandan keyin bo‘lib o‘tadi. Bu paytgacha mutaxassis faoliyatni bajarib, o‘z o‘rnini aniqlagan bo‘ladi.

O‘tmish tajribasi kasbiy rivojlanish interpritatsiyasi, o‘zini namoyon etish ehtiyoji, kasbiy hayotdan qoniqmaslikni keltirib chiqaradi. Anglangan yoki anglanmagan holda shaxs kasbiy o‘sish istiqbollarining yo‘qligidan shaxs psixik jiqatdan qiynaladi, kasbni almashtirish to‘g‘risida fikrlar paydo bo‘la boshlaydi. Kasbiy o‘sish inqirozlari faoliyatning nokasbiy hordiq kabi turlari maishiy tashvishlar yoki kasbdan ketish yo‘llari bilan hal etilishi mumkin. Ammo bu yo‘llar sermahsul hisoblanmaydi. 4) Mutaxassisning keyingi kasbiy rivojlanishi uning ikkilamchi professionalizatsiyasiga olib keladi. Bu bosqichning xususiyati faoliyatni yuqori sifatli bajarishdadir. Mutaxassis o‘z kasbini ustasi ya’ni professional bo‘la boshlaydi. Kasbiy o‘sish kareriga extiyoj sezadi, istalgan karera (lavozimning o‘sishi) va uning real istiqbollari o‘rtasidagi ziddiyat kasbiy karera inqirozlarini keltirib chiqaradi. Bunda quyidagi krizisdan chiqish yo‘llari uchrashi mumkin: ishdan bo‘shash, unga kasb doirasida yangi mutaxassislikni egallash, yuqori lavozimga o‘tishdan iborat. Inqirozni engishning eng to‘g‘ri varianti mahorat bosqichiga o‘tish, ya’ni kasbiy shakllanishning yangi

bosqichiga o‘tish bilan belgilanadi. 5) Mahorat bosqichi kasbiy faoliyatni ijodiy va innavatsion darajada bajarish demakdir. SHaxsning keyingi kasbiy rivojlanishni ta’minlab beruvchi omil sifatida uning o‘zini namoyon eta olishida ko‘zga tashlanadi. 6) Keyingi kasbiy rivojlanishning normativ inqirozi kasbiy hayotdan ketish bilan bog‘liq. Ma’lum yoshga etgach, inson nafaqaga chiqadi. Nafaqa oldi davri ko‘p ishchilar uchun inqirozli xarakterga ega bo‘ladi. Bu yangi ijtimoiy rol va xulqni egallash zaruriyati bilan boqliq. Nafaqaga chiqish ijtimoiy kasbiy faoliyat va aloqalarning torayishini bildiradi. 7) Nafaqaga chiqishdan so‘ng ijtimoiy psixologik qarish davri boshlanadi. Bu bosqich intellektual jarayonlarning susayishi, emotsional kechinmalarning oshishi va pasayish bilan belgilanadi. Psixik faoliyat tempi pasayadi, yangiliklarga nisbatan ishonqiramaslik bilan qarash kuzatiladi. Shuningdek, yoshlar xulqini muhokama etish, o‘zini avlodini hozirgi kun avlodlarini vakillariga taqqoslash bilan belgilanadi. Omadsiz hayot, o‘limdan qo‘rqish salomatligiga imkoniyat qilish, yaqin qarindoshlaridan imkoniyat qilish kabi noxushliklarga olib keladi.

### 4.3.4. Reorientatorning izlanuvchanligi, ijodiy imkoniyatlari, innovatsiyaga nisbatan munosabati

Reorientatsiya (qayta kasbga yo‘llash) gumanistik psixologiya tamoyillarini turmushga tatbiq etishga zarur shart – sharoit yaratadi. inson omilini qadrlashga, butun imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga, ezgu niyat, orzu havas, istak – xohish ushalishga negiz vujudga keltiradi. Ko‘p profilli kasb – hunar egalari safini kengaytirishga xizmat qiladi, komillikka intilish tuyg‘usini jonlantiradi, zarur bilimlar, malakalar bilan qurollantirishga turtki beradi. Reorientatsiya inson imkoniyatini qaytatdan sinashning manbai hisoblanib, o‘zini o‘zi kashf qilishi, o‘zini – o‘zi boshqarishi, o‘zini o‘zi tashkillashtirish, o‘zini–o‘zi baholash, o‘zini–o‘zi refleksiyalash, o‘zini–o‘zi identifikatsiyalash kabi shaxs fazilatlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Maktab o‘quvchilarining mayllari, havaslari, intilishlari, xohishlari, motivlari, ezgu-niyatlari xususan kasb-korga bo‘lgan qiziqishlari, motivlari, ehtiyojlari tug‘ilishi psixologiya fanining shaxs muammosi bilan uzviy bog‘liqdir. Shaxs psixologiyasini o‘rganish o‘quvchilarni kasb tanlashga

yo‘llash demakdir. O‘quvchilarning idividual tipologik xususiyatlari, yoshi va jinsini hisobga olgan holda ularning har birini oqilona kasbga yo‘llash shaxs psixologiyasining muhim vazifalaridan biridir. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish to‘g‘risidagi hujjatlarda o‘quvchilarni (o‘z imkoniyatlarini o‘zi baholashorqali) mustaqil kasb tanlashga o‘rgatish juda muhim va zarur vazifa ekanligi ta’kidlanadi. Shunga ko‘ra psixolog olimlar, metodistlar, tashxis Markazi xodimlari keng jamoatchilik bilan birgalikda kasbga doir bilimlarni keng tashviqot qilishlari, kasb-kor tanlashga oid yo‘l-yo‘riqlar va metodlar ishlab chiqishlari, kasb tanlash maslahatlari rasmiy shaxobchalari kengaytirilishi, professiogramma, professiografiya, psixogrammalar ko‘lami orttirilishi lozim.

Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soha mutaxassislariga muhtojligini nazarda tutish va shunga yarasha maktab o‘quvchilarini ularning mayli, intilishi, qiziqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab, hamda u yoki bu kasbga yaroqliligini aniqlab, so‘ngra kasbga yo‘llash kerak.Bundan tashqari, malakali psixologlar va pedagoglar (shu jumladan mahalla tarbiyachisi), murabbiylar, muhandislar va texniklar har bir kasb-hunarning o‘ziga xos tomonlari haqida malakaviy maslahatlar tashkil qilishadi. Lekin, yoshlarning kasb-hunar tanlashi asosan o‘rta maktabdan boshlanadi, shunga ko‘ra o‘quvchilar kichik jamoasi bilan psixologlar oldida turli yoshdagi, jinsdagi maktab o‘quvchilarini kasbga qiziqtirish, mehnat qobiliyatlarini rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini ishga solish (o‘zini-o‘zi namoyon etish) kabi muhim vazifa turibdi. Psixologlar, bundan tashqari, o‘quvchilarning aql idroki, qobiliyatlarini hamda muayyan kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash metodlari, usullari, texnologiyasi, shakllari, mezonlari va tarkibiy qismlarini ishlab chiqishlari, shuningdek, bu sohada ilmiy - tadqiqot ishlari olib borishlari zarur.

Ilk o‘spirinlar va katta o‘smirlarning kasb tanlashi katta hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan ham shaxsiy, ham ijtimoiy muammo bo‘lganligidan bu jarayonda ota-onalar, jamoatchilik va turli kasb ustalari ham faol qatnashishlari kerak, chunki yoshlar ko‘p hollarda kattalarning maslahatlari va tavisyalarini hisobga olgan holda qat’iy bir fikrga, qarorga kelishlari mumkin. Shuni ham aytib o‘tish o‘rinliki,

maktab o‘quvchilari kasb tanlash borasidagi o‘z qarorlarini, ko‘pincha, har tomonlama dalillab bera olmaydilar, biroq ularning ko‘pchiligi bu masalaga ongli ravishda yondashishga intiladilar. Maktab kasb-hunarga yo‘naltiruvchi mutaxassisining asosiy vazifasi o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishni ta’minlovchi barcha ma’lumotlar bankini yaratishdan iborat. Bu maqsadda kasb-hunarga yo‘naltiruvchi mutaxassis tuman (shahar) tashxis Markazidan olgan kasbiy axborotlar, kasblar ro‘yxati, tasnifi, hududiy kasblar ro‘yxati, kasblarga bo‘lgan ehtiyoj va boshqa kasbiy tashxis metodikalari, tavsiya va yo‘riqnomalardan foydalaniladi. Maktab kasb-hunarga yo‘naltiruvchi mutaxassisi tomonidan o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish, kasblar haqidagi ma’lumotlarni to‘liqroq anglab etishi shuningdek, ularning kasb tanlashdagi reallikni vujudga keltirish maqsadida maktabda ilg‘or kasb egalari, kasb faxriylari, kasb sulolalari bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari, kechalar va ma’ruzalar tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu tadbirlar o‘quvchining shu kasbga bo‘lgan qiziqishini yanada qat’iylashishini vujudga keltiradi.

## 4.4. KASBIY VA INDIVIDUAL TANLOVDAGI IZLANISHLAR

### 4.4.1. Kasbiy va individual izlanishda o‘zlikni anglash

Shaxs kasbiy shakllanishining sermahsulligi va anglay olishining muhim omili uning kasbiy mehnatda ma’no topishidadir, o‘z kasbiy hayotini loyixalashtirish, ma’suliyat bilan kasb mutaxassislik va ish-joyini tanlash borasida qaror qabul qilishdadir. Albatta, bu muhim kasbiy muammolar shaxs oldida butun hayoti davomida paydo bo‘laveradi. Shaxs esa doimo o‘zgarib rivojlanib turadi. Demak, uning rivojlanishini turli bosqichlarida kasbiy anglash muammolari turlicha xal etiladi. Kasblar olamida o‘z o‘rnini to‘g‘ri tanlash, o‘z ijtimoiy kasbiy rolini kasbiy mexnatga jamoaga va o‘ziga bo‘lgan munosabatini anglay olishi inson hayotining muhim komponentlari bo‘lib koladi. Gohida kishida o‘z kasbiy holatidan qoniqmaslik hissi paydo bo‘ladi. Shuningdek, insonlarda gohida majburiy holatda kasb (mutaxassislik)ni va ish joyini almashtirish xollari uchrab turadi. Ta’kidlash mumkinki, shaxs oldida doimo undan kasbga bo‘lgan munosabatni aniqlash, gohida o‘z kasbiy yutuqlarini tahlil

etish, kasb tanlovi yoki uni almashtirish qarorini qabul qilish, karerani aniqlash,korreksiyalash boshqa kasbga xos bo‘lgan masalalarni xal etishni talab etadi. Kasbshunoslikda barcha, bu muammolar kompleksi kasbiy aniqlanish deb tushuniladi. Shaxsda kasbiy shakllanish konsepsiyasini tadqiqotchi psixologlar tomonidan turlicha tushuntirib berilgan. A.Maslou konsepsiyasi bo‘yicha, inson takomillashib borishiga, o‘zini namoyon etishiga bo‘lgan intilishi aks etadi. Uning konsepsiyasida “Aniqlanish” tushunchasi “O‘zini namoyon etish” tushunchasi yaqin atama sifatida e’tirof etiladi. P.G.Shedrovskiy “Aniqlanish” insonning o‘zini o‘zi individual tarixini yaratish qobiliyati sifatida, o‘zligini aniqlay olishida ko‘radi. E.A.Klimov kasbiy anglashni batafsil taxlil etib, uni “psixik rivojlanishining, nimadir foydali ishni qiluvchilar” professionallar xamjamiyatining to‘laqonli ishtirokchisi sifatida o‘zini shakllantirishning muhim ko‘rinishidir.



Kasbiy anglash bo‘yicha E.A.Klimovning fikricha, oson va qisqa muddatli hisoblangan kasb tanlovi aslida “lahzali kelishuv - butun kelgusi hayot” formulasi asosida amalga oshiriladi. Shaxsda rivojlanish yo‘llaridan avval turli mexnat sohalariga ma’lum munosabat, ko‘p kasblar haqida tasavvur va o‘z imkoniyatlarini baholash, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda to‘g‘ri yo‘l tutishi kasb tanlovining “zaxira variantlari” va navbatdagi kasbiy anglash ichki tayyorgarlikka xos bo‘lgan boshqa ko‘p narsalar xaqida tasavvur shakllangan bo‘ladi. E.A.Klimovning fikrini mantiqiy jixatdan umumlashtirib quyidagicha ta’kidlash mumkin. Kasbiy anglash kasbiy tanlovining bir lahzali akti bulib qolmaydi va tanlangan mutaxassislik buyicha kasbiy tayyorgarlik yakuni bilan tugatilmaydi, balki u butun kasbiy hayoti mobaynida davom etadi. Ushbu konsepsiyaning muhum jihati shundaki, bunda kasbiy anglash taxliliga tizimli yondoshuv qo‘llaniladi, ammo tadqiqot muammosining faktigina erta yoshlik yoshi bilan chegaralanishi konsepsiyasining evrestik imkoniyatlarini cheklaydi. Kasbiy va shaxsiy anglash N.S.Pryajnikovning tomonidan olib borilgan izlanishlarning predmeti hisoblanadi. Uning konseptual yondashuvi

quyidagilardan iborat. Adabiyotlar taxlili, amalga oshirilgan tajriba - eksperimental tadqiqot N.S.Pryajnikovga kasbiy shakllanishning nazariyasi va amaliyotini boyitish imkonini beradi. Kasbiy anglash shaxsning boshqa muhim sohalarida o‘zini namoyon eta olishi bilan uzilmas aloqasini doimo ta’kidlagan holda, u shunday yozadi: “Kasbiy anglashning mohiyati aniq madaniy-tarixiy vaziyatda bajariladigan ish va butun hayot mazmunini mustaqil va anglangan holda topishdadir”.

**N.S.Pryajnikovning shaxsning kasbiy anglashi bo‘yicha o‘tkazilgan tahlilini umumlashtirib, bu jarayonning asosiy nuqtalarini ajratishimiz mumkin:**

1. Kasbiy anglash - individning kasblar olamiga va tanlangan aniq kasblar olamiga nisbatan bo‘lgan tanlovli munosabati.

2. O‘z xususiyatlar va imkoniyatlarini, kasbiy faoliyat talablarini va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda kasbiy anglash yadrosi hisoblanadi.

3. Kasbiy anglash butun kasbiy hayoti davomida amalga oshiriladi, shaxs doim o‘zgaradi, o‘z kasbiy hayotini qayta anglaydi va kasbida o‘zini namoyon etadi.

4. Shaxs kasbiy anglashning dolzarblashuvi, turli voqealar, ya’ni umumta’lim maktabini, o‘quv yurtini tugatish malaka oshirish, yashash joyini almashtirish, attestatsiya, ishdan bo‘shash va hokazolar bilan anglanadi.

5. Kasbiy anglash shaxs muhim ijtimoiy - psixologik yetukligini tavsifi hisoblanadi.

### 4.4.2. Kasbiy anglanganlik belgilashda o‘qituvchining strategiyalari




O‘qituvchi tomonidan yaratilgan baholash strategiyalari. Kim degan shaxs oltinchi sinf talabalarini o‘qitadigan maktab joylashgan jamiyatda yashovchi oilalarning ko‘pchiligi kambag‘allik darajasidan ham quyi yashashadi. Har yili uning

maktabidagi talabalarning ko‘p qismi shtat testlaridan yiqilishadi. Kim maktab o‘quv qo‘llanmalariga suyanadi va odatda Til San’ati va Ijtimoiy Saboqlar fanlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatmalardan foydalanadi. Sinfdagi baholash tizimi o‘zida shtat testlarinikini aks ettiradi, ana shunda talabalar baholash formati bilan tanishib olishadi. Kym motivatsiyaga bag‘ishlangan yozgi bitiruv kursida bir maqolani o‘qib qoladi, “Afro-Amerikalik talabalar ichki dunyosini sharaflovchi va undovchi o‘qitish strategiyalari” (Teel, Debrin-Parecki, & Covington, 1998) va shu kuzda o‘zining ko‘rsatmalari va baholash tizimini to‘rtta yo‘l bilan o‘zgartirishga qaror qiladi. Birinchidan, u intilishga e’tiborni qaratish qobiliyatiga kuchaytiruvchi urg‘u beradi va talabalarga toki kriteriyaga kelmaguncha, o‘z ishlarini qayta ko‘rib chiqishlariga imkoniyat yaratib beradi. Ikkinchidan, u talabalarning chiqishga doir baholash kabi imkoniyatlar beradi (masalan, og‘zaki prezentatsiya, san’at proyekti, kreativ qo‘lyozma). Uchinchidan, u talabalardan video materiallarini tayyorlashda, qog‘ozlarni tarqatishda va shu kabilarda yordam berishlarini so‘rab, ularda mas’uliyatni rag‘batlantiradi. To‘rtinchidan, u talabalarning madaniy meroslarini hurmat qilgan holda, ularni o‘z madaniyatlariga doir biografiyalar va tarixiy afsonalarni o‘qishga undaydi. Kimning bayon qilishicha, talabalardagi intilish va o‘zlarini tutishlaridagi o‘zgarishlar keskin bo‘ldi: talabalar endi ancha tashabbuskor, qattiq ishlashadi va yaxshi narsalar yaratishadi. Yil oxiriga kelib, shtat testlaridan o‘tgan talabalar soni o‘tgan yilgidan ikki martaga oshdi.

Kimning hikoyasi qismida standardlashgan testda kashf etadigan baholashga doir bir qancha mavzularni aks ettiradi. Birinchidan, samarali baholash tizimini tanlash ko‘rsatmali amaliyotga, motivatsiyaga bo‘lgan ishonchga va shtat test tizimining mavjudligiga asoslanadi. Ikkinchidan, ba’zi o‘qituvchi tomonidan yaratilgan baholash tizimi talabaning o‘rganishini va ishtiyoqini oshiradi – ba’zilari esa unday emas. Uchinchidan, o‘qituvchilar o‘z o‘qitish qobiliyatlarini amaliy izlanish orqali oshirishlari mumkin. Bu o‘z ichiga muammoni aniqlash (masalan, kam undov va muvaffaqiyat), alternativ usullarni o‘rganish (masalan, adabiyot o‘qish), yangi usullar ijrosini ta’minlamoq, natijalarni kuzatish (masalan, talabalarning harakati va test natijalari) va kuzatishlarga asoslangan tarzda strategiyalarni o‘zgartirishda davom etishni

oladi. So‘nggi 20 yil ichida talabalar o‘rganishini baholashning eng yaxshi amallari keskin o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Rouzmeri 1970-yillarda matematika o‘qituvchisi bo‘lganida, u talabalar bilimini baholamasdi, u oldingi hafta davomida o‘rgatgan matematik bilimlari va mahoratlari bo‘yicha test olardi. Testlar formati bo‘yicha biroz farq qilardi va talabalar testni qog‘oz va qalam yordamida individual tarzda bajarishardi. Ko‘plab o‘qituvchilar, shu jumladan, matematika o‘qituvchilari ham, hozirda o‘z talabalari nimalarni o‘rganganliklarini aniqlash uchun turli-tuman metodlardan foydalanishadi va shu baholash ma’lumotlarini ularning ko‘rsatmalarini o‘zgartirishda ishlatishadi.

**Bilimni baholash: jarayon tahlili.**

Baholashdan talabalarning bilimini mukammallashtirish uchun foydalanish unga o‘qitishning barcha fazalarini birlashtirgan jarayon sifatida qarashni talab etadi, masalan, rejalashtirish, sinfxona interaksionlari va ko‘rsatmalari, ota-onalar bilan suhbat va o‘zi haqida mulohaza.

**Bilimni baholashdagi eng muhim qadamlar quyidagilardir:**

**1-qadam: Aniq ko‘rsatmali maqsadga ega bo‘lish va ular haqda talabalarni xabardor etish.**

Oldingi bo‘limda biz o‘qituvchilarning dars va bo‘lim maqsadlari haqida ehtiyotkorlik bilan o‘ylashlari muhimligini yozgandik. Bu endi ish boshlagan o‘qituvchilar uchun murakkab bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘rta maktabda ijtimoiy bilimlar o‘qituvchisi Vanessa quyidagicha deydi: “Talabalar Fuqarolar Urushi to‘g‘risida o‘rganishadi.” Bundanda aniqroq maqsad Vanessadan talabalari Qo‘shma Shtatlardagi Fuqarolar Urushi to‘g‘risida nima bilishlari lozimligini talab etadi, masalan, janglarning nomlari va sanalari, Qo‘shma Shtatlar Fuqarolar Urushi sabablari, Janubda va Shimolda yashovchilar nuqtai nazarlarining farq qilishi yoki urushda kurashgan askarlarning kunlik tajribalari. Vanessa o‘z maqsadlarini aniqlashtirmasa, u talabalarning Qo‘shma Shtatlardagi Fuqarolar Urushi haqidagi bilimlarini baholovchi munosib tizim yaratolmaydi.

Oʻqitish samarali boʻlishi uchun, Vanessa shuningdek maqsadlar va vazifalardan talabalarni xabardor etishi kerak, shunda ular nima oʻrganish muhimligini bilib olishadi. Oʻqituvchining rejasi qanchalik chuqur oʻylangan boʻlmasin, agar talabalar nimalarni oʻrganishlari kerakligi haqida bilmasalar, ular koʻp narsa oʻrgana olmaydilar.



**2-qadam: Munosib baholash texnikalarini tanlash.**

Koʻrsatma maqsadlariga va shuningdek talabalar darajasining rivojlanishiga munosib baholash texnikalarini tanlash va amalda qoʻllash bilimni baholashdagi eng muhim qism hisoblanadi. Oʻqituvchilar turli tuman sinfxona baholash texnikalari xarakteristikasidan va bu xarakteristikalar turli xil vaziyatda, qobiliyatda va talabalar xarakterida qanday ishlashidan xabardor boʻlishlari kerak. Ular shuningdek ishonchlilik, yaroqlilik va tarafkashlik yoʻqligining rolini tushunishlari kerak, u ham boʻlsa baholash texnikalarini tanlash va foydalanish. Bu boʻlimning koʻp qismi ushbu ma’lumotlarga e’tibor qaratadi.

**3-qadam: Baholashdan motivatsiyani va ishonchni oshirishda foydalanish.**

Talabalarning motivatsiyasi va oʻzlariga boʻlgan ishonchiga tanlangan baholash turi va shuningdek ushbu baholash natijalari haqida berilgan mulohaza ta’sir koʻrsatadi. Tasavvur qiling, kollej talabasi Samanta tarix darslariga qatnashadi, va professorning ma’ruzalari va qoʻllanmalari qiziqarli asosiy mavzularga qaratilgan. Biroq, baholash tizimining bari fakt soʻrovchi tanlovli testdan iborat boʻladi, va darslardan va oʻqishdan bahra olgan Samantaning endi jahli chiqadi, ishonchni yoʻqotadi. U yaxshi ishlay olmaydi va sinf materiallariga kamroq vaqt sarflaydigan boʻladi. Aksincha, ba’zi instruktorlarning kuzatishlaricha, koʻplab ta’limiy psixologiya sohasidagi talabalar mustaqil ish kabi baholash tizimida an’anaviy imtixon va yozma

ishlarga qaraganda ko‘proq ishlashadi. Talabalarga yetkaziladigan mulohaza turi ham juda muhimdir va bular haqda ushbu bo‘lim so‘ngida batafsil bayon etiladi.

**4-qadam: Ko‘rsatmani ma’lumotlarga tayangan holda o‘zgartirish.**

Bilimni baholashning eng muhim qismi bu o‘qituvchining baholashdan olingan ma’lumotlarni ko‘rsatmani o‘zgartirish uchun ishlatishidir. Bu kabi o‘zgartirishlar dars o‘rtasida o‘qituvchi talabalarning javoblaridan ularning yangi mavzuga tayyorligini sezganida, yoki talabalarning xulq-atvoridan ular vazifani yaxshi tushunmaganliklar va yana tushuntirib berishi kerakligini sezganida paydo bo‘ladi. O‘zgartirishlar shuningdek, o‘qituvchi darsni tugatgach va keyingi kun rejasini tuzayotgan paytda mulohaza yuritishi natijasida ham paydo bo‘ladi.

**5-qadam: Ota-ona va boquvchilar bilan suhbatlashish.**

Talabalarning bilimi va rivojlanishini oshirish uchun o‘qituvchi ota-onalar bilan bolalarining ishlari to‘g‘risida muntazam suhbat o‘tkazishi kerak. O‘qituvchi ota-onalar bilan turli yo‘llar orqali suhbat o‘tkazishi mumkin, jumladan, xatlar, telefon suhbatlari, elektron pochta, maktab vebsaytlari va ota-onalar majlislari. Suhbat samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchidan baholash maqsadi va xarakteristikasini, shuningdek, talabalar ishi mazmunini ham oydin tushuntirib berish talab etiladi. Bu o‘zida o‘qituvchi yaratgan va standardlashtirgan baholash tizimi to‘g‘risida chuqur bilimni shu jumladan, aniq suhbatlashuv qobiliyatlarini ham mujassam etadi.

Biz endi bilimni baholash jarayonidagi har bir qadamni batafsilroq yoritamiz. Munosib baholash texnikalarini tanlab amalda qo‘llay bilish uchun o‘qituvchi turli tuman texnikalardan, shuningdek, ushbu baholash texnikalari yuqori sifatda ekanligini qanday kaftorlar orqali bilish mumkinligidan bohabar bo‘lishi kerak. Yuqori sifatli baholash tizimlarini ko‘rib chiqishdan boshlaymiz.

**Munosib baholash texnikalarini tanlash - I: yuqori sifatli baholash tizimlari**

Baholash yuqori sifatli bo‘lishi uchun u yaxshi yaroqlilik va ishonchlik xususiyatlariga ega bo‘lishi, shuningdek, tarafkashlikdan yiroq bo‘lishi lozim.

**Yaroqlilik**

Yaroqlilik bu berilgan individuallar guruhi uchun "baholash natijalarining qo'llanilishi va izohlari yetarliligi va munosibligi" tahlilidir. Misol uchun, imigrantlarga berilgan matematik kasr bo'yicha test natijalari ularning kasrni tushunganligini anglatadi deya xulosa qilish o'rinlimi? O'qituvchi o'z kuzatuvlaridan kelib chiqqan holda, bog'cha o'quvchisi Jasmin, o'qituvchining og'zaki ko'rsatmalariga tushunmasligi uchun, e'tibor tanqisligi kasalligiga chalingan deb xulosa qilishi o'rinlimi? Har ikkala vaziyatda ham boshqacha mulohazala bo'lishi mumkin, masalan, imigrantlar matematikaga qaraganda ingliz tilidan sustroq bo'lishlari va Jasminning eshitish qobiliyati zaiflashgan bo'lishi mumkin.

Shuni tushunish kerakki, yaroqlilik talqinga ham aloqador va u baholash protsedurasidan emas, balki, uning natijalaridan foydalanadi. Masalan, kasrga doir xuddi shunday test natijalari to'g'risida qaror chiqarish faqatgina talabalarning bari ingliz tilini yaxshi tushunsagina yaroqli bo'lishi mumkin. O'qituvchining talaba e'tibor tanqisligi kasalligiga chalingan deb hisoblashi faqatgina talaba eshitish apparatlari va boshqa kasalliklarga tekshirilganidagina to'g'ri kelishi mumkin (shunga qaramay, kasalliklar tasnifi faqat bitta o'qituvchi tomonidan qo'yilmaydi). Yaroqlilik tahlillar va baholash natijalari tasdiqlanganligi darajasi haqida umumiy qaror chiqarishni o'z ichiga oladi. Yaroqlilik bu daraja masalasidir (masalan, yuqori, o'rta yoki past yaroqlilik), u keskin rad yoki qabul emas (masalan, butunlay yaroqli yoki yaroqsiz).

Yaroqlilikni baholashda uchta dalil manbaalari hisobga olinadi – mazmun, konstruksiya va taxminiy. Mazmun yaroqlilik dalili quyidagi savol bilan bog'liq: Baholash tizimi o'z ichiga mazmun va vazifalarni qanchalik yaxshi qamraydi? Masalan, tasavvur qiling, sizning ta'limiy psixologiya instruktoringiz oraliq test o'ylab topdi va sizga bu test o'z ichiga qo'llanmadagi birdan yettigacha bo'lgan bo'limlarni qamrashini aytdi. Aniqki, testdagi barcha mavzular sizning metodlaringiz yoki madaniyat darsliklaringizdan emas, balki ta'limiy psixologiya mazmuniga asoslangan bo'lishi kerak. Shuningdek, mavzular barcha yettita bo'lim mazmunini qamrab olishi kerak, faqatgina uchdan

yettigacha bo‘lganlarini emas – agar instruktoringiz shu bo‘limlar muhimroq ekanligini aytmasa.



O‘qituvchilar mazmun yaroqliligiga asoslangan dalil yig‘ishni boshlashdan avval, ular o‘z maqsadlari va vazifalarini aniqlashtirib olishlari kerak. Mazmun yaroqliligi baholash tizimi o‘qituvchi (yoki test tuzuvchi) tomonidan baholangan vazifalarga munosib ekanligi darajasini belgilaydi va ular o‘zlarining maqsad va vazifalarini tasvirlaydilar. O‘qituvchilar baholash vazifalarini yaratayotganda, mazmun yaroqliligi haqida ham o‘ylashlari muhimdir.

Konstruksiya yaroqlilik dalili mazmun yaroqlilik dalilidan ancha murakkabroq. Odatda biz talaba ishlari borasida kengroq qarorlar qabul qilishga qiziqamiz va kasr kabi aniq qobiliyatlari bizni unchalik qiziqtirmaydi. E’tibor asosan matematik mulohaza yoki o‘qish mashqlariga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Konstruksiya bu biz xulq-atvorni tushuntirib berish uchun yaratilgan deb hisoblovchi odam xarakteristikasidir. Misol uchun, biz havotirlanish testi konsepsiyasini ishlatamiz, va bunda nima uchun individuallar test paytida e’tiborlarini bir yerga jamlashda qiynalishlarini, terlash kabi fiziologik reaksiyalarga uchrashlarini va testni oddiy sinf vazifasiga qaraganda yomonroq bajarishlarini tushuntirib beramiz. Shu tarzda, matematik mulohaza va o‘qish mashqlari konstruksiyalardir va biz ulardan baholashdagi ishlarni izohlashda foydalanamiz. Konstruksiya yaroqliligi bu baholashdagi ish izohlana oladigan va konstruksiyaga boshqa nomunosib faktorlar ta’sir etmagan o‘lchovni aniqlash jarayonidir. Misol uchun, yuqorida keltirilgan imigrantlarning ingliz tilida matematik mulohaza testi haqidagi qarorlar ingliz tiliga bog‘liq bo‘lganda pastroq yarorlilikni tashkil etgan bo‘lardi, lekin bu narsaning matematikaga aloqasi yo‘q. Xuddi shunday tarzda, semestr so‘ngidagi imtihonlar ham oddiy

vazifalarga qaraganda test paytida ko‘p havotirlanadigan talabalar uchun og‘ir kechadi. O‘qituvchilar talabalar mehnatiga ta’sir etuvchi ammo baholanayotgan konstruksiyaga nomunosib bo‘lgan faktorlarni kamaytirgan holda konstruksiya yaroqliligini oshirishga yordam berishlari mumkin. Yaroqlilik dalilining uchinchi shakli bu kriteriyaga asoslangan yaroqlilikdir. AQShdagi tanlov orqali oluvchi kollejlar ACT yoki SAT dasturlaridan foydalanishadi chunki ushbu standardlashtirilgan testlar birinchi kurs talabalarini topishda yordam beradi, masalan, ularda yuqori kriteriyaga asoslangan yaroqlilik mavjud. Ba’zi maktablar kuzgi semestrda talabalarga matematika yoki o‘qish bo‘yicha testlar berishadi, shu bilan ular qaysi talabalar bahor paytidagi shtat imtihoniga tayyor va qaysilari yordamga muhtojligini bilib olishadi. Agar kuzgi testlar talabalarning mehnatini aniq belgilay olmasa, keyinchalik kerak bo‘lmagan talabalarga kriteriyaga asoslangan yaroqlilik to‘g‘risida qo‘shimcha yordam berilishi mumkin.

**Ishonchlilik.**

Ishonchlilik o‘lchamning barqarorligini anglatadi. Tasavvur qiling, janob Garsiya o‘zining o‘ninchi sinf talabalariga ozuqa kimyosi bo‘yicha dars o‘tmoqda va dars so‘ngida u o‘qituvchilar qo‘llanmasidan test mavzular bo‘yicha baholash o‘tkazadi. Ishonchlilik quyidagi savollarga asoslangan: Agar talabalar vazifani Juma yoki Dushanba kuni olganlarida ularning baholari qanchalik o‘xshash bo‘lardi? Agar janob Garsiya boshqa turdagi testlarni tanlaganida yoki boshqa o‘qituvchi testni tekshirganida, baholar o‘zgargan bo‘larmidi? Baholash talabalarning bir paytdagi mehnatining aniq o‘lchamlaridan foydalangan holda ular haqida ma’lumot beradi. Toki baholashdagi natijalar turli vaziyatlarda, turli baholovchilarda yoki turli vazifalarda (xuddi bir mazmunli sohada) barqarorligicha qolmasa, natijalardagi ishonch pasayadi va talabaning bilimini oshirishda u foydali bo‘la olmaydi.

Aniqki, biz mukammal barqarorlikni umid qilolmaymiz. Talabalarning xotirasi, diqqati, charchoqliklari, harakatlari va bezovtaliklari o‘zgarib turadi va bu ularning ishiga ham ta’sir etadi. Hatto malakali baholovchilar yozma ish, fan loyihasi yoki og‘zaki prezentatsiya kabi ishlarni baholashda farq etadilar. Shuningdek, so‘z tanlash va aniq mavzular dezayni ham talabalar mehnatiga

ta’sir etadi. Biroq ba’zi baholash tizimlari boshqalariga qaraganda ishonchliroq va shuningdek o‘qituvchilar ishonchlilikni oshira oluvchi bir qancha strategiyalar ham mavjud.

Birinchidan, ko‘proq mavzu yoki vazifalardan iborat baholash tizimining ishonchlilik darajasi ko‘proq. Buni tushunish uchun, ikkita test olaylik: birida beshta mavzu bor, ikkinchisida 50 ta mavzu bor. Imkoniyat faktorlari uzunroq testga qaraganda, kichikroq testga ta’sir qiladi. Agar talaba birinchi testdagi mavzulardan birini tushunmasa, bu umumiy bahoga katta ta’sir o‘tkazadi (20 foizga kamayadi). Aksincha, 50 ta mavzuli testda bir mavzu tushunarsiz bo‘lsa, umumiy bahoga kamroq ta’sir bo‘ladi (faqatgina 2 foiz). Aniqki, bu testlar juda uzun bo‘lishi kerak degani emas, ammo o‘rtacha va imkoniyat farqini kamaytirishga yetadigan sonda mavzular qoplanishi kerak. Ikkinchidan, aniq yo‘llanmalar va mavzular ishonchlilikni oshirishga yordam beradi. Agar yo‘llanmalar va aniq mavzu va vazifalar so‘zlari noaniq bo‘lsa, u holda talabalarning o‘zlari natija aniqligiga ta’sir etgan holda tahmin qilishlariga to‘g‘ri keladi. Uchinchidan, aniq baholash kriteriyalari yuqori ishonchlilikni ta’minlashda muhim hisoblanadi. Ushbu bo‘lim so‘ngida biz baholash kriteriyalarini rivojlantirish uchun ishlatiladigan strategiyalarga izoh beramiz.

**Tarafkashlikning yo‘qlig‘i.**

Tarafkashlik baholashni amalga oshirayotganda talabaning shaxsiy xarakteristikasi (masalan, jinsi, irqi yoki ijtimoiy kelib chiqishi) tufayli uning mehnatini buzib ko‘rsatish orqali paydo bo‘ladi. Ikkita tarafkashlik baholash turi muhimdir: qo‘pollik va adolatsiz jazolash. Baholash tizimi qo‘pol bo‘lishiga sabab ko‘pincha testda salbiy stereotiplar borligidir. Misol uchun, sog‘lik darsining baholash tizimida barcha doktorlar erkak va barcha hamshiralar ayol deya tariflangan bo‘lishi mumkin.



Adolatsiz jazolash mavzular bir guruhni haqorat qilganida emas, balki, turlicha tajriba tufayli bo‘lishi mumkin. Misol uchun, qaysidir sport bilimini baholovchi matematik mavzu guruhlarni o‘sha sport turidan behabar

deya baholashi mumkin (masalan, imigrantlar uchun Amerika futboli). Yoki bir guruhga o‘z jamoalarining konsepsiyasiga simfonik orkestr yordamida modul yaratish buyurilsa, bu ish oldin orkestr ijrolariga qatnagan talabalar uchun osonroq kechishi mumkin – ehtimol, serob oilalardan chiqqan talabalarda. Adolatsiz jazolashlar faqatgina talabalar darsda yomon qatnashganida sodir bo‘lmaydi. Masalan, fizikaviy ta’lim darsida qaysidir sport haqida muhokama qilib, keyin u haqda savol berish adolatsiz jazolash hisoblanmaydi, chunki bu savol sinfda o‘rgatiladigan bilimdan tashqari narsani qamramaydi. Ko‘p irqli sinfxonalarda ilk bora dars berayotgan o‘qituvchilar uchun murakkablik paydo bo‘lishi mumkin, chunki ular guruh a’zolarini noqulay holga solmaydigan baholash tizimlarini yaratishlari kerak. O‘qituvchilar talabalarning turli kelib chiqishlari kuchli ta’sir qilishini jiddiy o‘ylab ko‘rishlari kerak. Talabalar nima deyishini diqqat bilan tinglash va ularning kelib chiqish bilimlari haqida o‘rganish muhimdir.

**Munosib baholash texnikalarini tanlash - II: o‘qituvchi tomonidan yaratiladigan baholash tizimlari.**

Ilk bor ish boshlagan o‘qituvchilar uchun murakkabliklardan biri bu munosib baholash texnikalarini tanlab, ishlatishdir. Ushbu bo‘limda biz o‘qituvchilar foydalanadigan turli xil bahlash tizimlarini xulosa qilamiz. Oldiniga biz o‘qituvchilar tezkor qarorlar talab qiladigan ko‘rsatmalar paytida ishlatadiga norasmiy texnikalar haqida muhokama qilamiz. Keyinchalik o‘qituvchilar ko‘rsatmadan oldin ishlatadigan va tasviriy qarorlar yaratadigan rasmiy texnikalarni muhokama qilamiz.

**O‘qituvchilarning kuzatuvi, so‘rovlari va qaydlari.**

O‘qitish jarayonida, o‘qituvchilar faqatgina ma’lumotni tanishtirmasdan, shuningdek, davomiy tarzda talabalar bilimini va motivatsiyasini tekshirib turishi kerak, keyinchalik bu o‘zgartirishlar yasashda qo‘l keladi. Boshlovchi o‘qituvchilarga bu narsa tajribali o‘qituvchilarga qaraganda murakkablik qiladi, chunki bu tashkil etishga tayyor turish va talabalar ehtiyojiga javob bera olish, shu paytning o‘zida dars maqsadi va rejalarini ham unutmaslikni talab qiladi. Ko‘plab o‘qituvchilar ishlatuvchi norasmiy baholash strategiyasi bu kuzatish va savoldir.

**Kuzatish.**

Samarali o‘qituvchilar talabalarini sinfxonaga kirgan paytdanoq kuzatishni boshlashadi. Ba’zi o‘qituvchilar talabalarga eshik oldidan salom berib kelishadi va shu bilan ular talabalarning kayfiyati va motivatsiyasini kuzatishga urinishadi. Anna bilan Naomi haligacha bir-biri bilan gaplashishmayaptimi? Etanning kitoblari bormi? Shu tarzdagi savollar bilan ma’lumot to‘plash talabalar bilimini samarali oshirishda yordam beradi (masalan, Etanga hali qo‘ng‘iroq chalinguncha borib shkafidan materiallarini olib kelishni tavsiya etish yoki Anna bilan Naomini bir guruhga qo‘shib qo‘ymaslik).

Ko‘rsatma paytida o‘qituvchilar talabalarning mashg‘ulotga tayyorlik darajasi va qiziqishlarini aniqlash uchun kuzatish olib boradilar. Kuzatish o‘z ichiga tana harakatlarini kuzatish va shuningdek talabalar nima deyayotganiga quloq solishni qamrab oladi. Misol uchun, o‘qituvchi talabalarning fan loyihasiga qaramasdan, derazadan tashqariga qarab o‘tirganlarini kuzatishi mumkin, yoki o‘qituvchi talabalarning dars nima haqida ekanliklarini tushunmasdan bir-birlariga gapirayotganliklarini eshitishi mumkin. Kuzatuvlar o‘qituvchiga keyin qaysi talabani chaqirishni belgilashda, dars tezligini kamaytirish yoki kuchaytirishda, namuna keltirish kerak bo‘lgan paytda mashg‘ulotni tugatish kerakmi-yo‘qmi, talabalar jismoniy mashg‘ulotlarni qanchalik yaxshi bajarayotganliklarini, yoki potensial xulq-atvor muammolari mavjudligini ko‘rishda yordam beradi. Ko‘plab o‘qituvchilar xona bo‘ylab yurishni kuzatish uchun ancha samarali deb o‘ylashadi, chunki ular talabalarni turli xil tomondan kuzata oladilar. Biroq, darslarning juda tezkorligi va murakkabligi o‘qituvchilar uchun istaganlaricha ma’lumot to‘plashda qiyin kechadi.

**So‘rov.**

O‘qituvchilar turli ko‘rsatmaviy sabablarga ko‘ra savol berishadi, masalan, talabalarning diqqatini darsga jamlashda, muhim qismlariga e’tibor qaratishda, tanqidiy yondashishni targ‘ib etganda, talabalarning bir-birlarining javoblaridan o‘rganishlariga ko‘maklashganda, va talabalar bilimi to‘g‘risida ma’lumot berganda. Yaxshi



munosib savollar tayyorlay olish va talabalarning javoblaridan tezkor ko‘rsatmaviy qarorlar qabul qila olish juda murakkab. Savollarni rivojlantirishning ba’zi strategiyalari qaysi savollar so‘ralishini oldindan belgilab yozib olishdir, bunda talabalar o‘ylab olishlariga vaqt yaratish, ulardan kutgan javobni emas, ularning aytayotganlarini tinglash, so‘raladigan savollar turini o‘zgartirish, ba’zi savollar murakkabroqligi va bir-biriga uzviy bog‘liq savollar so‘rash e’tiborga olinadi.

Kuzatuv va savolga asoslangan norasmiy baholash o‘qitish uchun muhim bo‘lgan bir paytda, yaroqlilik, ishonchlilik va tarafkashlik bilan bog‘liq ajralmas muammolar ham mavjud. (Airasian, 2005; Stiggins 2005). Biz muammolarni kamaytirish uchun quyidagi jadvalda ushbu masalalarni va ba’zi bir usullarni xulosa qilamiz.

**Kuzatish va so‘rovning yaroqliligi va ishonchliligi.**

| Muammo | Muammoni yengillashtirish uchun strategiyalar |
|---|---|
| O‘qituvchida butun dars zaruriyati va tushunchasi borasida xolisonalikning yetishmasligi | Faqat istagan narsalaringizni ko‘rmayotganligingizga ishonch hosil qiling. O‘qituvchilar odatda o‘z ko‘rsatmalari haqida o‘zlarini yaxshi his qilgilari keladi, shuning uchun talabalarning ijobiy e’tiborini qidirish oson tuyuladi. Onda-sonda o‘qituvchilar qaysidir individual talaba yoki sinf haqida o‘z ishonchlarini tasdiqlab olish uchungina talabalarning salbiy e’tiborini ko‘rishni istashadi. |
| O‘rganishdan ko‘ra jarayonga e’tibor qaratishga moyillik | Faqatgina talabaning zaruriyatiga emas, balki bilimiga ham e’tibor qaratishni unutmang. Ko‘pchilik o‘qituvchilarning kuzatuvlari jarayonga qaratilgan bo‘ladi – talabaning diqqati, yuz ifodalari – o‘quvchining bilimiga emas.Talabalar faol va band bo‘lishlari mumkin, ammo yangi qobiliyatlarni rivojlantirishmaydi. |
| Cheklangan ma’lumot | Turli-tuman talabalarni kuzatayotganingizga ishonch hosil qiling – faqatgina juda yaxshilari va juda yomonlariga emas. |
| | Xona bo‘ylab yuring va talabalarni “yaqindan” kuzating, xonaga turli xil tomonlardan qarang.<br>Har bir talabadan so‘rang – faqatgina qo‘lini ko‘tarib turadiganlardan, yoki qaysidir fandan qobiliyatli bo‘lganlardan, yoki xonaning ayni bir qismida o‘tiradiganlardan emas.<br>Eslatmalar qayd etib boring. |
| Darslarning tezkorligi tasdiqlovchi dalilga to‘sqinlik qiladi | Agar muhim ma’lumotlarni ko‘zdan qochirayotganingizni tekshirishni istasangiz, ikkita odamdan xonaga kirib, talabalarning xulqini kuzatishni so‘rashingiz mumkin. Sinfxonalar murakkab va tezkor bo‘ladi va o‘qituvchilar |

| | |
|---|---|
| | o'qitish bilan ovora bo'lganlarida, hamma narsani kuzata olmaydilar. |
| Og'zaki va tana harakatlariga asoslangan xulq-atvorda madaniy va individual tafovutlar | Kuzatuvlaringiz va savollaringizdan yaratadigan xulosangizga ehtiyot bo'ling. Shuni unutmangki, alohida savol turlari, kutishlar, ijtimoiy tafovut va “kichik suhbat”ning mazmuni madaniyatlar bo'yicha farq qiladi (4-bo'lim). Ba'zi talabalar jim bo'lishadi, ammo bunga ularning shaxsiyati sabab bo'lishi mumkin; qiziqmasligi, darsdan qolib ketgani yoki depressiyaga tushib, charchaganligi emas. |



I.S.Konning aytishicha “O'smirlarda o'zini o'zi anglash va o'z “Men”iga qiziqish o'zining psixologiyasida faqat jinsiy yetilish bilan bog'lik emas. Bola o'sadi, o'zgaradi, kuch yig'adi va shunga qaramay bu unda interospeksiyaga tortishni keltirib chiqaradi. Bu o'spirinlik yoshida ro'y bersa, endi avvalo shundaki jismoniy yetilish ayni paytda ijtimoiy simptom ulg'ayishi alomati sanaladiki, unga e'tibor berishadi, uni boshqalar kattalar va tengdoshlari kuzatishadi. O'spirin holati ziddiyatliligi, uning ijtimoiy rollari, intilishlar darajasining o'zgarishi aynan ular birinchi galda “Men kimman?” degan savolni dolzarblashtiradi. Bu davrda tashqi boshqaruvdan o'zini- o'zi boshqarishga o'tiladi. Biroq, qanday boshqaruv ob'yekt hakida axborot mavjudligini ko'zda tutadi. Shundan o'z-o'zini  boshqarishda sub'yektning o'zi haqidagi axborot ya'ni o'z-o'zini  anglash bulishi shart. Kasbiy ong rivojlanishi ya'ni kasbiy tiklanishga nisbatan o'zini-o'zi belgilanishi ya'ni kasbiy tiklanishga nisbatan o'z-o'zini  belgilash o'z sub'yektligini anglash refleksiyasining aniqlangan roli bosh qobiliyat insonning professional sifatida o'zini-o'zi rivojlantirishning asl mexanizmi sanaladi. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, kasbiy o'zlikni anglash jarayonida shaxsning o'zini-o'zi anglash baholash shaxs xususiyatlari muhim aspekti sifatida ko'rsatib o'tiladi.

# V BOB. YOSH DAVRLARNING TURLI BOSQICHLARIDA KASBIY O‘ZLIKNI ANGLASH

## 5.1. Ilk o‘spirinlik davrining psixik xususiyatlari

Ilk o‘spirinlik davri “kamolot bo‘sag‘asi” deb ta’riflanadi. Bu kamolot bosqichi fiziologik, psixologik va ijtimoiy chegaralarni o‘z ichiga oladi. Psixologiya fani o‘spirinlik muammosini kompleks o‘rganishni da’vat etadi.

Bu juda qiyin masala, chunki psixofiziologik taraqqiyot sur’ati bilan uning bosqichlari ijtimoiy etilish muddati bilan hamma vaqt ham to‘g‘ri kelavermaydi. Akseleratsiya natijasida bugungi ilk o‘spirinlarning taraqqiyoti avvalgi avlodlarga nisbatan o‘rtacha ikki – uch yil avval etilmoqda. Fiziologlar bu jarayonni 2 – darajali jinsiy belgilarning paydo bo‘lishiga qarab, 3 ta bosqichga ajratadilar:

1- bosqich – prepubertat;

2- bosqich – pubertat;

3- bosqich – postpubertat.

Yosh psixologiyasi o‘spirinlikning yoshini 1 – 2 bosqichlar bilan bog‘lab kelar edi. Akseleratsiya munosabati bilan o‘spirinlik yoshining chegarasi endi 15-16dan 18 yoshgacha bo‘lmoqda. Demak, o‘spirinlik ham oldin boshlanadi. Lekin, bu taraqqiyot davrining konkret mazmuni birinchi navbatda ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi. Yoshlarning jamiyatda tutgan o‘rni, ularning mavqei, ular egallaydigan bilimlarning hajmi va bir qator boshqa faktorlar ijtimoiy sharoitlarga bog‘liqdir. Ilk o‘spirinlik yoshidagi bolalar bu 14-15 yoshdan 17-18 yoshgacha bo‘lgan akademik litsey va kasb – hunar kollejlari o‘quvchilaridir. Bo‘yning o‘sishi o‘spirin qizlarda 15-16 yoshgacha, o‘g‘il bolalarda 17-18 yoshgacha davom etadi. Bu yoshda muskullar kuchi tez o‘sadi. Masalan, 18 yoshli bola muskul kuchi 12 yoshli bolaga nisbatan 2 baravarko‘p bo‘ladi. Jismoniy taraqqiyo, asosan, to‘g‘ri ovqatlanish rejimiga va jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishga ko‘p jihatdan bog‘liq. Jinsiy taraqqiyot jihatdan bu yoshdagi ko‘pchilik yigit va qizlar postpubertat (tugallanuvchi) davrda bo‘ladilar. Bularning jismoniy rivojlanishi katta yoshdagi odamning jismoniy rivojlanishidan kam farq qiladi. Bo‘yning va organizmning notekis o‘sishi va

rivojlanish davri tugallanadi, hamda jismoniy rivojlanishning nisbatan birmuncha tekis davri boshlanadi. O‘spirinlik yoshida jismoniy sifatlar (bo‘y, og‘irlik) nisbatan barqaror darajaga etgan bo‘ladi. Shuningdek, muskul kuchi va ishchanlik qobiliyati sezilarli darajada ortadi. Ko‘krak qafasining hajmi kengayadi, skelet, naychasimon suyaklar qattiqlashadi, to‘qimalar va a’zolarning shakllanishi va fuksional taraqqiyoti tugallanadi. Odatda, bu yoshda yurak va qon tomirlarning rivojlanishida o‘smirlarga xos bo‘lgan notekislik endi tekislashadi, qon bosimi baravarlashadi, ichki sekretsiya bezlari bir me’yorda ishlay boshlaydi. Nerv sistemasining va xususan, miya rivojlanishidagi o‘zgarishlar ma’lum bo‘lib qoladi. Lekin, bu o‘zgarishlar miya massasining ortishi hisobiga emas, balki miyaning ichki hujayralari tuzilishining murakkablashuvi hisobiga ro‘y beradi. Bosh miya po‘stining qismlarida assotsiativ to‘qimalarning miqdori ko‘payadi. Natijada o‘qish va mehnat jarayonida katta (yarim sharlar) qatlamining analistik – sintetik faoliyati murakkablashadi.

Ilk o‘spirinlik davrini ikkinchi o‘tish davri deb hisoblash mumkin. Agar birinchi o‘tish davri ko‘proq bolalikka yaqin bo‘lsa, ikkinchi o‘tish davrida bo‘lgan o‘spirin ko‘proq yoshlik davriga yaqindir va shu jihatdan o‘rganiladi hamda tadqiq etiladi. Ilk o‘spirinlik davri, asosan, unda mustaqil hayotning boshlanishi (o‘rta maktabni tamomlab, litsey, kollejlarga kirishi) bilan xarakterlanadi. Hayotdagi bu o‘zgarishlar ilk o‘spirinning shaxsiga, o‘z – o‘zini anglashiga ta’sir ko‘rsatadi. O‘smirlardan farqli o‘laroq ilk o‘spirinlar katta hayotni tasavvur etmaydilar, balki unda ishtirok etadilar.

Ilk o‘spirinlarning mustaqilligi ortishi bilan kattalarning unga munosabatlari ham o‘zgaradi. Kattalar o‘smirga ko‘proq bola deb qarasalar, ilk o‘spirin yoshdagilarga katta odamdek munosabatda bo‘ladilar. Ilk o‘spirinlar hayotda o‘z o‘rnini topishga nisbatan intilishi anglangan holatda bo‘ladi. U o‘z hayotiy rejalarini amalga oshirish uchun harakat qila boshlaydi va ma’lum bir kasbni egallay boshlaydi yoki shu soha bo‘yicha akademik litseylarda o‘qishini davom ettiradi. O‘spirinlar tanlangan sohalari yoki kasblarida juda katta yangiliklar, kashfiyotlar qilgilari keladi, lekin asta – sekinlik bilan yangilik va

kashfiyotlar qilish uchun ularda bilim va tajriba yetishmayotganligini, buning uchun ko‘proq o‘qish va o‘rganishlari kerakligini anglay boshlaydilar.



Hayot faoliyati kengaygan sari, o‘spirinlarda ijtimoiy rollar kengligi faqat miqdor tomondangina kengayib qolmay, balki sifat tomonidan ham o‘zgarib boradi. Masalan: 16 yoshda pasport oladi; 18 yoshidan faol saylash huquqiga va oila qurish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘spirin jinoiy ishlar uchun javobgar bo‘ladi. Ba’zi o‘spirinlar bu yoshdan boshlab ishlay boshlaydilar. Kasb tanlash haqida o‘ylay boshlaydilar. Lekin, shunga qaramay o‘spirinlarda kattalarga qaramlik xususiyatlari saqlanib qoladi.

O‘spirinlar (16-18 yoshlar) o‘zlarining psixologik xususiyatlari bilan boshqa yosh davrdagi bolalardan keskin farq qiladilar. Jismoniy hamda aqliy jihatdan voyaga etgan, kamolotga erishgan, dunyoqarashi, o‘z – o‘zini boshqarish kabi etuk insoniy xususiyatlari tarkib topgan bo‘ladi. Ular vazmin, mulohazali bo‘ladilar, katta yoshdagilarga hurmat – ehtirom bilan qaraydilar. Ular uzoqni ko‘zlaydigan, kelajak uchun qayg‘uradigan, ota – onalarining yaqin yordamchisiga aylanadilar. O‘quv faoliyati o‘spirinning asosiy faoliyati bo‘lib qolaveradi, o‘qishga nisbatan o‘smirlik yoshiga qaraganda o‘spirinlikda bir muncha yuqoriroq bo‘ladi. Mustaqil hayotga tayyorgarligini o‘z – o‘zini anglashi bilan bog‘liq motivlar bu davrda yetakchi o‘rinni egallaydi.

Motivlar tizimida jamiyatning to‘laqonli a’zosi bo‘lishga intilish, insonlarga naf keltirish kabi ijtimoiy motivlar ustunlik qiladi. Bu davrda o‘spirinlarning kelgusi hayoti va tanlayotgan kasbiy rejalariga ko‘ra fanlarga nisbatan qiziqishlari o‘zgaradi. O‘spirinning fanlarga hamda shu fan o‘qituvchilariga nisbatan munosabati o‘zgaradi. O‘spirinlik davrida o‘zi ko‘zlagan maqsadlariga erishishga asoslangan motivlar birinchi o‘ringa ko‘tariladi. O‘smirlar o‘zlarining o‘qishga bo‘lgan munosabatlari va ularning o‘qish – o‘rganishga undovchi sabablarni yaxshi anglaydilar. O‘spirinlik yoshida boshdan kechiriladigan his – tuyg‘ularning boyligi, xilma – xilligi bilan, hayotning turli tomonlariga emotsional munosabatda bo‘lishi bilan ajralib turadi. Axloqiy va ijtimoiy, siyosiy hislarning rivojlanishi ayniqsa xarakterlidir. Ular odatda muayyan axloqiy talablar bilan o‘zaro to‘g‘ri munosabatda bo‘ladilar. Boshdan kechirgan his – tuyg‘ularni anglab etish mahorati ham rivojlanadi. O‘spirinlik yoshida o‘quvchilarda o‘rtoqlik hissining rivoj topishi xarakterlidir. Rossiya psixologlari I.V. Straxov bilan A.L. Shnirman tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, o‘spirinlik yoshidagi do‘stlik, o‘smirlik yoshidagi do‘stlikdan ba’zi bir xususiyatlari bilan farq qiladi.

O‘spirinlarda do‘stlik motivlari ancha chuqurroq bo‘ladi. Bularda oshkoralik, o‘zaro ishonch, talabchanlik, sadoqat, birgalikda doimiy yordam ko‘rsatish, kamchiliklarni tuzatish, do‘stiga yordam berish, o‘zaro hurmat, bir – birini tushunish va hokazo.

Do‘stlik hissi ancha sermazmun bo‘lib, qiziqishlar faoliyatning keng doirasini qamrab oladi.

Do‘stlik emotsional bo‘lib, do‘sti kechirayotgan hislarga javob bera olish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

O‘spirinlik yoshidagi do‘stlik ko‘pincha butun umr bo‘yi davom etadi. O‘rtoqlik munosabatlari jamoani jipslashtirishga yordam beradi, uning hayotiy faoliyatini oshiradi. Yoningda o‘rtog‘ing borligini his qilishning o‘ziyoq qiyinchiliklarni engishga yordam beradi. O‘spirinlar do‘stlik, samimiylik, emotsional sofdillik kabi hislatlarni birinchi o‘ringa qo‘yishadi. Do‘stlar bir – birlari bilan yuraklarini bo‘shatadilar. Do‘stlarga samimiy mehribonlik shaxsining reflektivlik darajasiga hamda uning emotsional hayot

xususiyatlariga bog‘liqdir. O‘spirin hamma vaqt rostgo‘y, samimiy bo‘lishni istaydi. O‘spirinlik yoshida alohida bir his – sevgi paydo bo‘ladi. Bu o‘spirinning emotsional hayotida yangi bir holat hisoblanadi. O‘spirinlik sevgisi sof, pokiza, beg‘ubor, xilma – xil kechinmalarga boy, yoqimli, hayolga berilish va samimiyat belgilariga ega bo‘ladi. Yigit va qizlarning sevgini boshdan kechirishida bir – birlarini hurmat qilish, do‘stlik, o‘zaro yordam, bir – birini tushunish kabi hislatlar xarakterli bo‘lib, ular bir – birlaridagi yuksak ma’naviy sifatlarni qadrlaydilar. Yigit va qiz bolalar o‘rtaisdagi munosabatlar o‘spirinlik yoshida faollashgan bo‘ladi. O‘rtoqlariga nisbatan munosabatlar doirasi kengayadi, ayniqsa qizlarda aralash do‘stlik extiyojlari kengayadi. Bolalarga xos 16 – 17 yoshlarda birinchi jinsiy moyillik va sevgi extiyojlari ko‘rina boshlaydi. Ikki jins o‘rtasidagi o‘zaro munosabat masalasi asosiy muammolaridan biri bo‘lib hisoblanadi. O‘spirinlarda sevgi hissi bir qancha holatlarga bog‘liq.

Birinchidan – jinsiy etilish; ikkinchidan – ishonadigan, suyanadigan va har qanday nozik masalalar bo‘yicha gaplashish mumkin bo‘lgan do‘stga extiyoj; uchinchidan – bu tabiiy insoniy extiyoj hisoblanib, inson ko‘pincha o‘zini yolg‘iz his qilganida kuchli emotsional bog‘liqlikka intiladi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha bunday tuyg‘u kuchaygan shaklda birinchi bor ilk o‘spirinlik davrida yuzaga keladi. Ilk o‘spirinlar yolg‘iz bo‘lishni istmaganlari uchun o‘zlari faol ravishda o‘zaro yaqin muloqot, bir – birlari bilan intim munosabatni izlaydilar. Ba’zan o‘spirinlar bu hislarga shunchalik berilib ketadilarki, boshqa narsalar mavjudligi haqida mutlaqo unutib qo‘yadilar. Bu davrda o‘spirinlarda sevish mumkin bo‘lgan qiz yoki yigit ideali paydo bo‘ladi va ko‘p yillar davrida bu ideal saqlanib turadi. O‘spirinlar tasavvuridagi ideal kimnidir yoqtirishiga, sevishiga turtki bo‘ladi. O‘spirinlarning ideal obrazlari ba’zan real bo‘lmaydi, ya’ni ular hech kimni “unga” o‘xshatmaydilar. Bu esa ularda ishonchsizlik hamda yolg‘izlik hissini ham yuzaga keltirishi mumkin. Ilk o‘spirinlarga shu mavzuda badiiy adabiyotlar o‘qish, kinofilmlar, teatrlar tomosha qilishni tavsiya etish hamda yoshi ulug‘ kishilar bila suhbatlar o‘tkazish, ularga o‘zlarini kelgusi hayotlarini o‘zlariga mos turmush o‘rtoqlar topish masalasiga jiddiyroq yondashishlariga yordam beradi.

### 5.1.1. Ilk o‘spirinlik davrida aqliy rivojlanish

Ilk o‘spirinlik yoshidagi o‘quvchilarning bilish jarayonlari turli nuqtai nazarlarni tahlil etishga va bu masala bo‘yicha har tomonlama fikr yuritishga yordam bera oladi. Bu yoshdagi o‘spirinlar atrofdagi turli voqea – hodisalardagi haqiqatni bilishga intiladi. Ularning tayyor yechimlar, ma’lumotlar emas, balki shu yechim va ma’lumotlarni o‘zlari mulohaza yurgizib, qidirish jarayonining o‘zi ko‘proq qiziqtiradi. Bu borada turli masalalar bo‘yicha bo‘yicha bahs va munozaralar yuritishga va o‘zlarining fikrlarini isbotlashga juda qiziqadilar. Bu davrida bilish jarayonlarining rivoji faol ravishda davom etadi. Bu rivojlanish o‘spirinning o‘ziga va uning atrofidagi kuzatuvchilarga kam seziladi. Bu davrga kelib, o‘spirinlar to‘la ravishda mantiqiy tafakkurga ega bo‘ladilar, nazariy fikr yuritib, o‘zlarini o‘zlari tahlil eta oladilar. Ular endi bemalol axloqiy, siyosiy va boshqa mavzularda bahslasha olib, o‘z munosabatlarini bildira oladilar. O‘spirinlik davrida bolalar juda ko‘p ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirib, ulardan turli masala va muammolarni engishda foydalana oladilar. O‘spirinning o‘z – o‘zini anglashi o‘quv, mehnat va muloqot motivatsiyalarini o‘zgarishida o‘z aksini topadi. Bu davrda, bolada yangi faoliyatlar yuzaga kelib, psixik rivojlanishida yangi bosqich boshlanadi



O‘spirinlik yoshi o‘qish, mehnat, muloqot singari yetakchi faoliyatlar asosida umumiy va maxsus layoqatlarning rivojlanayotganligi bilan xarakterlanadi. Lekin, bu rivojlanish o‘spirinning o‘ziga va uning atrofidagi

kuzatuvchilarga kam seziladi. O‘spirinlik davriga kelib, juda ko‘p bolalarda o‘z faoliyatlarini oldindan rejalashtirish layoqati yaxshi rivojlangan bo‘ladi. SHuningdek, o‘z – o‘zini boshqarish ham o‘spirinlik yoshidagi bolalarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

O‘spirinning o‘quv mashg‘ulotiga munosabati o‘z xususiyati va mazmuni jihatidan boshqa yoshdagi o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi munosabatidan tubdan farq qiladi. O‘quv rejasi va dasturning murakkablashuvi, yangi fan va mavzularning kiritilishi, o‘zlashtirilishi nazariy tafakkur yordamida amalga oshirishni taqozo etadi. Ana shundan kelib chiqqan holda, o‘quvchilarning o‘qishga munosabati ham o‘zgaradi, ular ayrim fanlarga munosabatlari quyidagi holatlarga bog‘liqdir:

1. Fanning dunyoqarashdagi roliga.
2. Fanning bilishdagi ahamiyatiga.
3. Fanning ijtimoiy ahamiyatiga.
4. Fanning amaliy ahamiyatiga.
5. Fanning o‘zlashtirish darajasiga.
6. Fanning o‘zlashtirish uslubiyotiga.

O‘spirinlik davrida bilishga oid qiziqish ko‘lami tobora amaliy xususiyat kasb eta boshlaydi. Jumladan, ijtimoiy – siyosiy masalalarga, texnika, tabiatga, osmon jismlariga, sport va hokazolarga qiziqishi kuchayadi. O‘spirinlarda sezgirlik, kuzatuvchanlik yanada takomillashib boradi, mantiqiy xotirasi, esda olib qolishning oqilona yo‘li sifatida ta’lim jarayonida yetakchi vazifani ado eta boshlaydi. Mazkur pallada o‘spirinlarning tafakkuri tobora faol, mustaqil va ijodiy xususiyat kasb eta boshlaydi. Tafakkur rivojlanishi bilan birgalikda o‘quvchilarning nutq madaniyati rivojlanadi. O‘spirin turli janrdagi adabiy asarlarini o‘qishi, tushunishi orqali mustaqil fikr yuritish, mulohaza qilish va munozaraga kirishishga o‘rganib boradi. O‘spirinlik tafakkurining sifatiga uning mazmundorligi, chuqurligi, kengligi, mustaqilligi, samaradorligi, tezligi kabilar kiradi. Tafakkurning chuqurligi deganda esa, moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning asosiy qonunlari, xossalari, sifatlari, ularning o‘zaro bog‘lanish va munosabatlari o‘spirinning fikrlash faoliyatiga to‘liq aks etganligi tushuniladi. Tafakkurning kengligi o‘zining mazmundorligi va chuqurligi

sifatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Tafakkurning mustaqilligi deganda o‘spirinning shaxsiy tashabbusi bilan o‘z oldiga yangi vazifalar qo‘ya bilishi, bu vazifalarni xech kimning yordamisiz, oqilona usullar bilan mustaqil hal qilish xususiyatini tushunish kerak. Tafakkurning tezligi qo‘yilgan savolga to‘liq javob olgan vaqt bilan belgilanadi. Ayrim qiz va yigitlar aqliy rivojlanishdan orqada bo‘lib, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga ulgurmaydilar yoki qiynaladilar, ular tevarak – atrofdagi voqelikni bilib olish maqsadida umumlashtiruvchi tushunchalardan foydalanishni bilmaydilar, chunki bu tushunchalar, xulosalar, fikrlar, hodisa va faktlarni yodlab oladilar. Bolalarni aqliy jihatdan rivojlantirish uchun o‘qish faoliyatlarida faollashtirish va ularning bilimlarini ongli ravishda o‘stirib borish kerak. Ta’limda onglilik o‘quvchining yuqori darajasidagi faolligi bilan ta’minlanadi. Bilimlarini faol faoliyat ko‘rsatib o‘zlashtirganda, o‘quvchilar bu bilimlarni yaxshi tushunibgina qolmay, ularni amaliy faoliyatda qo‘llashga ham o‘rganadilar. O‘quvchilarga ijtimoiy masalalar, iqtisodiy hamda ijtimoiy faktlar va hodisalarni mustaqil ravishda ilmiy tahlil qilish va ularga baho berish usullarini maxsus o‘rgatish muhim va zarurdir. Bo‘ o‘rinda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashlarini follashtirishga, to‘g‘ri rahbarlik qilgan holda rivojlantirish lozim. O‘spirinlarning aqliy jihatdan rivojlanishida nazariy tafakkurning roli kattadir. O‘spirin adabiy asarlarni o‘qish va tushuntirish orqali mustaqil fikrlash, mulohaza yuritish va munozaralarga kirishish o‘rgana boradi. Unda asta – sekin tabiat va jamiyat haqida o‘zining nuqtai nazari, e’tiqodi, qarashi shakllanadi. Malumki, shaxsning ana shu fazilatlari uning fikrlashi, mustaqil o‘ylashi, to‘g‘ri hukm va xulosalar chiqarishi, qat’iy qarorga kela olishi natijasidir.

O‘spirinlarning adabiy asarni baholashi, u haqda shaxsiy fikrlarni bildirishi, muammo yuzasidan bahslashuvi insoniy hislatlarning muayyan darajada ishtirok etishi tanqidiy tafakkurning aynan o‘zginasidir. Turmushda uchraydigan noo‘rin tanqidiylik esa o‘spirinning badiiy didi va hayotiy tajribasi zaifligidir. O‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchilar tafakkuridagi tanqidiylikni haqqoniylik darajasiga ko‘tarishdan, ularga voqelikka odilona, oqilona, tanqidiy nuqtai nazardan qarashni o‘rgatishdan iborat. O‘spirinlarda moddiy dunyo to‘g‘risida shaxsiy fikrlar, mulohazalar ilmiy dunyoqarash tarkib topganidan keyingina tafakkurning tanqidiylik xususiyati rivojlana boshlaydi.

Tanqidiy tafakkurning rivojlanishi o‘quv materiallarni puxta o‘zlashtirishga, ta’lim jarayonida tashabbuskorlikka, voqelikni isbotlash va asoslash ko‘nikmalari tarkib topishiga imkon yaratadi.

Hodisalar to‘g‘risida hukm va xulosa chiqarish, tasdiqlash yoki inkor qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O‘spirinning qobiliyati va iste’doi ta’lim jarayonida, mehnat faoliyatida rivojlanadi. Qobiliyatning o‘sishi bilimlar, ko‘nikmalar, malakalarning sifatiga bog‘liq bo‘lib, shaxsning kamol topish jarayoniga qo‘shilib ketadi. Demak, maktabda o‘tiladigan darslar, laboratoriya ishlari, amaliy mashg‘ulotlar, referat, konspekt yozish kabi faoliyat turlari o‘spirinlar o‘zlashtirilishi uchun zarur materiallarni mustaqil holda tushunishga olib keladi.

Bularning barchasi ilmiy – nazariy tafakkurning shakllanishiga, tevarak – atrofdagi voqelikning umumiy qonuniyatlarini o‘sishiga, aqliy imkoniyatlarining vujudga kelishiga, tabiat va jamiyat rivojlanishining qonunlarini anglashiga muhim shart – sharoit yaratadi. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, o‘smirlik yoshida o‘quvchilar aqliy faoliyatining omillari va usullari bilan qurollangan bo‘ladilar.



Shunga ko‘ra har kim qobiliyatiga yarasha kasb – hunar tanlasa, bu sohada muvaffaqiyatli mehnat qilsa, ijtimoiy turmush taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shgan bo‘ladi. O‘spirinlar u yoki bu kasbni o‘z ixtiyorlari bilan ongli ravishda tanlashlari uchun ular mustaqillik, dadillik, qat’iylik, o‘zini tuta bilish, chidamlilik, sabr – toqat kabi irodaviy hislatlarga ega bo‘lishlari kerak. Mehnat

qilishda muqaddas burchni bajarish istagi, maqsadning aniqligi, hunar o‘rganishga ishtiyoqmandlik mazkur fazilatlarning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘spirinlar aqliy rivojlanishda tasavvurning ahamiyati juda katta, chunki inson biron bir ishni qilishga kirishar ekan, albatta uning natijasini tasavvur eta olishi kerak. Tasavvursiz xech qanday ishni to‘g‘ri rejalashtirish mumkin emas. O‘spirinda tasavvur qila olish layoqati yaxshi rivojlangan bo‘lsagina, u o‘z hayotidagi idealni tasavvur  eta oladi, shunga ko‘ra uzoq va yaqin rejalarini tuzadi.

Hozirgi yigit va qizlarni 30 – 40 yil avvalgi tengqurlari bilan solishtirganda, ularning  umumiy saviyalari naqadar o‘sganligini ko‘rish mumkin. O‘spirinlarning intellektual qiziqishlari doirasi keng  va ko‘pqirralidir. O‘spirinlarning qiziqishlari aksariyat hollarda o‘zi tanlagan kasb va yo‘nalish shuningdek, hayotiy rejalariga asoslangandir. O‘spirinlik yoshiga kelib, yigit va qizlarning  dunyoqarashlari yuksak pog‘onaga ko‘tarila boshlaydi. Bu esa o‘spirinning tashqi olamni tushunishga, baholashiga bo‘lgan munosabatlarini aniqlashga yordam beradi. O‘spirinlarning dunyoqarashi endi ularning ilmiy, falsafiy, siyosiy va diniy qarashlari tizimidan iboratdir.

Ma’lum bir kasbda faoliyat ko‘rsatishni boshlayotgan o‘spirin unga intellektual, ijtimoiy – psixologik hamda axloqiy jihatdan tayyor bo‘lishi kerak. O‘smirlik davrining oxirlari va o‘spirinlik yoshiga kelib, ularda mehnat ko‘nikma va malakalari rivojlanadi. Bu ko‘nikma va malakalari ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatlari bilan  to‘g‘ridan – to‘g‘ri bog‘liq.

Har qanday kasbiy ko‘nikma va malakalarning o‘sishi avvalo, o‘spirin intellektining umumiy rivojlanganlik darajasiga bog‘liq. SHuning uchun ham bu davrdagi o‘spirinlar intellektining rivojlanishiga alohida e’tibor berish lozim.

Bu yoshdagi bolalar uchun muloqotga kirishish ehtiyojining mavjudligi ham  juda muhim, lekin u juda yetakchi emas, faqat tanlagan kasb va yo‘nalishlari bo‘yicha mashg‘ul bo‘lmagan o‘spirinlargina ko‘proq tengdoshlari bilan muloqotda bo‘lishga ehtiyoj sezadilar. Bu yoshdagi bolalar mehnat faoliyati bilan xuddi kattalardek shug‘ullana oladilar. Ilk o‘spirinlik davrini kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarning shakllanishi uchun sensitiv davr deb

hisoblash mumkin. O‘zining kasbiy taqdirini tasodifan yoki noto‘g‘ri hal etilishi murakkab ichki kechinmalarga , ikkilanishlarga, ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Bu esa yigit va qiz hayoti uchun ham, jamiyat uchun ham katta zarar keltiradi. Kasb tanlash vaqtida ilk o‘spirinlar o‘z moyilligi va qobiliyatlarini shaxsiy sifatlar, xususan, nerv sistemasining tipi, analizatorlar xususiyati emotsional – irodaviy sifatlarini ham hisobga olishlari zurur.

### 5.1.2. Ilk o‘spirinlik davrida yoshlarning shaxsiy xususiyatlari

O‘spirinlarni hali to‘la katta deb hisoblab bo‘lmaydi, chunki ularning shaxs xususiyatlarida hali bolalikni kuzatish mumkin. Bu ularning fikrlarida, berayotgan baholarida, hayotga va o‘z kelajaklariga munosabatlari ko‘zga tashlanadi. Ko‘pchilik o‘spirinlar maktabni tugatish vaqtiga kelib ham kasb tanlashga nisbatan mas’uliyatsiz yondashadilar. Bu davr o‘spirinning axloqan o‘z – o‘zini anglashi, shuningdek, axloqning yangi bosqichiga o‘tishi bilan xarakterlanadi. Intellekti yaxshi rivojlangan o‘spirinlar kattalarni tashvishga solayotgan masala muammolarini tushuna oladilar va ularni muhokama eta oladilar. O‘spirinlar juda ko‘p muammoli savollarga javob o‘ylaydilar. Ularning diqqatini ko‘proq axloqiy masalalar tortadi. Agar kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun axloqiy masalalarni echish manbai – o‘qituvchilar bo‘lsa, o‘smirlar bu savollarga javobni ko‘proq tengdoshlari davrasidan qidiradilar. O‘spirin yoshdagilar esa savollarga to‘g‘ri javobni topishda ko‘proq katta kishilar foydalanadigan manbalarga murojaat etadilar. Bunday manbalar asosan real, ko‘pqirrali, murakkab insoniy munosabatlar va ilmiy – ommabop, badiiy, publitsistik adabiyotlar, san’at asarlari, matbuot, radio, televidenie bo‘lib hisoblanadi. Bugungi o‘spirinlarga hayotga nisbatan xushyor, aqliy – amaliy qarash, erkinlik va mustaqillik xos. Ular haqqoniy bo‘lish tushunchasiga ham real tarzda yondashadilar. Litsey va kollejni tugallash vaqtiga kelib, juda ko‘p o‘smirlar axloqiy jihatdan shakllangan va ma’lum axloq normalari qat’iylashgan xususiyatlarga ega bo‘ladilar.

O‘spirinlarda axloqiy dunyoqarash bilan bir qatorda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy, diniy va boshqa sohalar bo‘yicha ma’lum bir qarashlar vujudga keladi. Juda ko‘p yillardan beri o‘spirinlarni yaxshilik va

yomonlik, haqiqat va noqonuniylik, axloqiylik va axloqsizlik masalalari tashvishlantirib keladi. Hozirgi davr o‘spirinlari har bir narsaga ishonuvchan yoki salbiy munosabatlarda bo‘lmay, balki hayotga real, aqliy, amaliy qaraydigan, ko‘proq erkin va mustaqil bo‘lishga intiluvchi yoshlardir.

O‘spirinlar ongli ravishda egallagan axloq normalari asosida o‘z xatti – harakatlarini yo‘lga solishga intiladilar. Bu esa avvalo o‘spirin o‘zini anglashining o‘sishida namoyon bo‘ladi. O‘zini anglash murakkab psixologik struktura bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- birinchidan, bolada tashqi olamdagi predmet ta’siridan paydo bo‘lgan sezgilarni o‘z tanasi bilan farq qila boshlaganda vujudga keladi;
- ikkinchidan, o‘zining shaxsiy “Men”ligini aktiva faoliyati asosida anglashi;
- uchinchidan, o‘zining psixik xususiyati va hislatlarini anglashi;
- to‘rtinchidan, ijtimoiy, axloqiy o‘z – o‘ziga baho berishning ma’lum sistemasini anglashi.

Mana shu elementlarning barchasi bir – biri bilan funksional va genetik bog‘langandir. Lekin, bularning hammasi sizga ma’lumki, bir vaqtning o‘zida shakllanmaydi. Bolaning “men”ligini anglashi taxminan 3 yoshda paydo bo‘ladi, bunda bola shaxsiy olmoshni ishlata boshlaydi. Masalan, men, meniki, menga, menda va hokazo.

O‘spirinlar har joyda o‘zini ko‘rsatish xususiyatiga ega bo‘lgan o‘smirlik vaqtidayoq, o‘zlarining shaxsiy xususiyatlarini kuzata boshlaydilar. Ya’ni o‘zlarining semizlik, yuzidagi husnbuzarlar yigit va qizlarni bezovtalantiradilar, ular iztirob chekadilar. Kech etiladigan o‘g‘il va qizlar yashirin kechinmalar kechiradilar. Kishining o‘z obrazi – bu o‘spirinlikning o‘zini anglashi ancha muhim komponent bo‘lib hisoblanadi. O‘zining psixik sifatlarini anglashi va o‘z – o‘ziga baho berish o‘spirinlik yoshida, borgan sari ko‘proq ahamiyat kasb eta boshlaydi.

O‘spirinlikda o‘z shaxsiy hislatlariga baho berish kuchayadi, o‘spirin ham o‘smir singari o‘z qadr – qimmatini, uning nimalarni qilishga arzishi va nimadlarga qodir ekanligini bilgisi keladi. O‘ziga baho berish ikki hil usulda bo‘ladi.

1. Kishi o‘zi qo‘lga kiritgan yutuqlari natijasi bilan baholaydi. Masalan: bola qiyin vaziyatda o‘zini yo‘qotmadi yoki yosh bolani yong‘indan qutqazdi – “Men qo‘rqoq emasman”. Ma’lum qiyin topshiriqni bajardi. “Men qobiliyatliman” – deydi. Axloqqa oid bunday xatti – harakatlar, o‘spirinning o‘z qat’iyligini sinashi hamdir.

2. Ijtimoiy taqqoslash, ya’ni o‘zi va xatti – harakatlarini boshqalarning ishlari, fikrlari bilan solishtirishdan iboratdir. Masalan: o‘quvchila tomonidan “mardlik” deb ma’qullangan xatti – harakatni o‘qituvchi “qalbaki o‘rtoqlik” deb aytdi. Bunda bolalar o‘z xatti – harakatlari to‘g‘risida o‘ylab, bosh qotira boshlaydilar.

Shaxsiy “men” obrazi, juda murakkabdir. Hatto kattalarning o‘zini anglashi ham qarama – qarshiliklardan xoli emas. Bu holat ayniqsa o‘spirinlarda yanada kuchliroq bo‘ladi. Ba’zi o‘spirinlar o‘zini kuzatish uchun kundalik daftarlar tutadi. Bu holat qizlarda ertaroq va ko‘proq uchraydi. Bu holat shaxsda mohiyat jihatdan tubdan o‘zgargan tarzda o‘z shaxsining ma’naviy – ruhiy fazilatlarini, ijtimoiy turmush – tarzi, maqsad va vazifalarini anglashi, ularni oqilona baholash zaruratini aks ettiradi. Undagi o‘z – o‘zini anglash, turmush, yashash, o‘qish, mehnat va sport faoliyatlari tarzida namoyon bo‘ladi. O‘quv muassasa, mikromuhitidagi odatlanmagan vaziyat, shaxslararo munosabatlar va muomala ko‘lamining kengayishi o‘spirinning o‘ziga xos tipologik aqliy , axloqiy, irodaviy, xissiy xususiyatlarini oqilona baholashi, qo‘yilayotgan talablarga javob berish, uning o‘z – o‘zini anglashini jadallashtiradi. O‘spirin o‘quvchilarining o‘z – o‘zini anglashga aloqador o‘ziga xos xususiyatlari mavjud, ular dastavval o‘zlarining kuchli va zaif jihatlarini, yutuq va kamchiliklarini aniqroq baholash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

O‘spirin o‘quvchining o‘smirlik davridagi boladan farqli yana bir xususiyati bu – murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch, vijdon hissini anglash, o‘z qadr – qimmatini e’zozlashiga ko‘proq moyilligidir. O‘spirin o‘quvchida o‘zini anglashi negizida o‘zini tarbiyalash istagi tug‘iladi. Natijada unda o‘z – o‘zini tarbiyalash vositalarini saralash, ularni kundalik turmushga tadbiq qilib ko‘rish ehtiyoji vujudga keladi. Lekin, o‘z – o‘zini tarbiyalash jarayoni o‘spirin ruhiyatidagi mavjud nuqsonlarga barham berish,

ijobiy hislatlarni shakllantirish bilan kifoyalanib qolmasdan, balki voyaga etgan kishilarga xos ko‘pqirrali, umumlashgan idealga mos ravishda tarkib toptirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. O‘quvchilar o‘zida shaxsning eng qimmatli fazilatlarini, o‘quv va mehnat malakalarini ongli, rejali, tartibli, izchil va muntazam ravishda egallab borishga, shaxsning muayyan bir fazilatlari va hislatlarini hosil qilishga harakat qiladilar; o‘z – o‘zini tarbiyalash muammolarini, yaxlit ma’naviy – ruhiy qiyofani shakllantirishga intiladilar.

O‘spirin o‘quvchilarning o‘z – o‘zini tarbiyalash jarayoni o‘quv muassasa, jamoat tashkilotlari, pedagoglar jamoasining tarbiyaviy ta’siri doirasida bo‘lmog‘i shart. Toki o‘z – o‘zini tarbiyalashning takomillashtirilishi jamoada munosib o‘rin egallashga, ijtimoiy burchni anglash, foydali mehnatga jalb etish ishiga xizmat qilsin. O‘z – o‘zini tarbiyalashni to‘g‘ri izga solib yuborish uchun uyg‘un birlikni tashkil etgan tarbiyaviy chora tadbirlar majmuas tarzida ta’sir o‘tkazish jamoa majburiyati, o‘zaro yordam va nazorat qilish, o‘zaro baholash va tanqid qilish kabilar maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy turmushda uchraydigan ba’zi bir salbiy yurish – turish ko‘rinishlariga, illatlariga, sarqitlariga qaqshatgich zarba berish, ularning ta’siridan yigit va qizlarni asrash, yot tashviqot mohiyatiga qarshi kurash olib borish pedagoglar jamoasining bosh vazifasidir. O‘spirinlarda balog‘atga etganlik tuyg‘usi takomillashib borib, o‘z – o‘zini qaror toptirish, o‘z ma’naviy qiyofasini ifodalash tuyg‘usi o‘sib boradi. Bu narsa ularning alohida shaxs ekanligini tan olishga intilishida o‘z ifodasini topadi. Buning uchun ayrim yoshlar turli modalarga mayl qo‘yish, taviriy san’atga, musiqaga, kasb – hunarga, tabiatga maftunkor qiziqishlarini namoyon qilishga harakat qiladilar. O‘quv va mehnat jamoalari ta’sirida matonat, jasurlik, sabr – toqat, kamtarlik, intizomlilik, halollik kabi insoniy fazilatlar takomillashadi. Xudbinlik, loqaydlik, munofiqlik, laganbardorlik, dangasalik, qo‘rqoqlik, g‘ayirlik singari illatlarning barham topishi tezlashadi.

O‘spirinlar shaxsining shakllanishi jarayonida jamoat tashkilotlarining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Ularda faollik, tashabbuskorlik, mustaqillik, qat’iyatlilik, mas’uliyatlilik, o‘z harakatlarini tanqidiy baholash singari fazilatlari barqaror xususiyat kasb etib boradi. O‘spirin yigit va qizlarning jamoatchilikda faol ishtirok etishi orqali muayyan tashkilotchilik qobiliyati

namoyon bo‘ladi. O‘zining kimligi, qandayligi, qobiliyatlari, o‘zini nimaga hurmat qilishi aniqlashga intiladilar. Do‘st va dushmanlarning kimligi, o‘z istaklari, o‘zini va tevarak atrofni, olamni yaxshi bilishi uchun uchun nima qilish kerakligini anglashga harakat qiladi. Ma’lumki, o‘spirinlarning hamma savollari anglangan bo‘lmaydi. Ba’zan o‘spirinlar o‘zlaridan hech qanoatlanmaydigan, o‘z oldilariga haddan tashqari ko‘p vazifalar qo‘yadigan, lekin uning uddasidan chiqa olmaydigan bo‘ladi. Mana bulardan ko‘rinib turibdiki, o‘spirinlar o‘z – o‘zini analiz qilish teranligi va yuksak talablarni bajarish kerakligini o‘zida aks ettira boradilar. Bu esa o‘spirinlarning kelgusi yutuqlari shartlaridan biridir.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, shaxsning erta o‘spirinlikdagi eng muhim hislatlaridan biri o‘z – o‘zini hurmatlash, o‘z – o‘ziga baho berish hamda o‘zini shaxs deb tan olish yoki olmaslik darajasidir. O‘spirinlar o‘zlarida shaxsning muayyan kompleks sifatlarini hosil qilishga intiladilar. Ularni o‘z – o‘zini tarbiyalash borasida bir butun ma’naviy psixologik qiyofani shakllantirish masalasi qiziqtiradi. Bunda shaxs ideali va namunaning mavjudligi katta ahamiyatga ega. Masalan: o‘g‘il bolalar – qahramonlik, yaxshi ota, tadbirkor, o‘qituvchi, vrach yoki badiiy asar hamda kinofilmdaagi obrazlarni o‘zlariga ideal deb bilsalar; qizlarimiz mehnatkash ayol, jozibali jamoat arbobi, nazokatli uy bekasi yoki ilmiy xodim va hokazo. O‘zaro munosabat va emotsional hayot o‘z mavqeini belgilashning murakkab muammolarini o‘spirinning o‘zi hal qila olmaydi. Bu masalani o‘spirinning ota – onasi, o‘z tengqurlari, o‘qituvchilar ishtirokida ularning qo‘llab – quvvatlashida hal qilishi mumkin. Demak, ilk o‘spirinlik davri katta mustaqil hayotga qadam qo‘yish bo‘sag‘asidir.

## 5.2. TALABALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA O‘QUV FAOLIYATI

Hozirgi eng dolzarb muammolardan biri oliy o‘quv yurtlaridagi ta’lim – tarbiya ishlari samaradorligini keskin oshirishdan iboratdir. Chunki respublikamizning rivoji, ravnaqi va istiqboli ko‘proq oliy maktab tayyorlayotgan mutaxassislarning mahoratiga bog‘liqdir. Shuning uchun

o‘qitishning yangi ilg‘or, faol usullarini qo‘llash, oqilona vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.Oliy o‘quv yurtlaridagi ta’lim – tarbiya jarayonini samarali amalga oshirish uchun talabalar bilan o‘qituvchilar o‘rtasida uzluksiz ta’sir o‘tkazish hukm surishi lozim.

O‘qituvchi bilan talabaning hamkorlikdagi faoliyati negizida o‘quv – tarbiya ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish muammosi yotadi. Bu muammo oliy maktab psixologiyasida juda kam tadqiq qilingani sababli xuddi ana shu muammo yuzasidan kengroq mulohaza yuritish maqsadga muvofiqdir.

### 5.2.1. Talabalarning psixologik xususiyatlari

Tadqiqotlarda talabalar deganda moddiy va ma’naviy ishlab chiqarishda ijtimoiy hayotga va mutaxassislikka oid rollarni muayyan qoida va maxsus dastur asosida bajarishga tayyorlanayotgan ijtimoiy guruh tushuniladi.

Oliy o‘quv yurtidagi ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari talabalarning boshqa ijtimoiy guruhlar bilan (ular xoh rasmiy, xoh norasmiy bo‘lishidan qat’i nazar) muloqotga kirishishi uchun muhim imkoniyat yaratadi. Talabalik davrining asosiy xususiyatlaridan biri ijtimoiy yetuklikning jadal sur’at bilan ro‘yobga chiqishidir. Ma’lumki, ijtimoiy yetuklik (kamolot) shaxsdan zarur aqliy qobiliyatni hamda ijtimoiy turmushda bajariladigan turli rollarni egallashda (oila qurishga), farzandlarni tarbiyalashga, foydali mehnatda qatnashishga (mas’ul vazifada ishlashga) tayyorlanishni talab qiladi. Mazkur jarayonning bosh mezonlari va ko‘rsatkichlari o‘rta ma’lumotlilik, jamoatchilik topshirig‘i, mehnatda faollik ko‘rsatish, qonunlar oldida javobgarlik, mutaxassis bo‘lish imkoniyati, unga intilish tuyg‘usi, irodaviy zo‘r berish, yosh otalik va onalik burchi, jamoat arbobi vazifasini o‘tash, ijtimoiy guruhga rahbarlik qilish, sport bilan shug‘ullanish, bo‘sh vaqtni tashkil eta olish, to‘garakda qatnashish va hokazolardan iboratdir.

Talabalik davri o‘spirinlikning ikkinchi bosqichidan iborat bo‘lib, 17 – 22 – 25 yoshni o‘z ichiga oladi va o‘zining qator betakror xususiyatlari va qarama – qarshiliklari bilan xarakterlanadi. Shu boisdan o‘spirinlik davri shaxsning ijtimoiy hamda kasbiy mavqeini anglashidan boshlanadi. Mazkur pallada o‘spirinlik o‘ziga xos ruhiy inqiroz yoki tanglikni boshidan kechiradi, jumladan

kattalarning har xil ko‘rinishdagi (unga yoqish yoki yoqmasligidan qat’i nazar) rollarini tez suratlar bilan bajarib ko‘rishga intiladi, turmush tarzining yangi jihatlariga ko‘nika boshlaydi. Katta odamlarning turmush tarziga o‘tish jarayoni shaxsning kamol topish xusustyatlariga bog‘liq ichki qarama – qarshiliklarni keltirib chiqaradi.

Pedagogik psixologiya fanida ma’lumki, o‘rta maktab o‘quvchilarni har (biologik, fiziologik, pedagogik, psixologik) jihatdan oliy maktab ta’limiga tayyorlaydi va ularda umumlashtirish, mavxumlashtirish, sistemelashtirish kabi qobiliyatlarda ko‘rinadigan fazilatlar namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga o‘spirinda aqliy, axloqiy, estetik va g‘oyaviy – siyosiy jihatdan muayyan darajada o‘sish ro‘y beradi. Shunga qaramay, ular oldida oliy o‘quv yurtida mutaxassislikni egallashga bog‘liq yangi vazifalar paydo bo‘ladi. Xozirgi fan – texnikaning rivoji bir tomondan axborotlarni, ma’lumotlarni ko‘paytirsa, ikkinchi tomondan talabalarda mutaxassislikka oid bilimlarga barqaror qiziqishning yo‘qolishiga olib keladi, chunki qat’iylik, ijodiy izlanish, irodaviy zo‘r berish o‘rnini loqaydlik, faoliyatsizlik egallaydi. Boshqacha aytganda, ular “tayyor axborotlarning quli” ga aylanadilar. Chunki komyuter, displey, EHM, kalkulyatorlar inson aqliy mehnatini yengillashtiradi, ularni aqliy zo‘r berishdan xalos qiladi. Ana shular sababli oliy o‘quv yurti ta’limi oldidagi muhim vazifa talabalarga dasturdagi bilimlar majmuasini berishdir.

Talabalarga mustaqil bilim olish, o‘z faoliyatini o‘zi tashkil qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, yangi g‘oyalarni ishlab chiqarish va hokazolarni o‘rgatiladi. Bu vazifalarni amalga oshirishning asosiy omili – monologik ma’ruzadan dialogik (talaba va o‘qituvchining muloqotiga asoslangan) leksiyaga o‘tishdir.

Psixologlardan B.G.Ananyev, N.V.Kuzmina, N.F.Talizina, V.Ya.Lyaudis, I.S.Kon, V.T.Lisovskiy, A.A.Bodalev, A.V.Petrovskiy, M.G.Davletshin, I.I.Ilyasov, A.V.Dmitrieva, Z.F.Yesareva, A.A.Verbiskiy, V.A.Tokareva va boshqalarning tadqiqotlariga ko‘ra, oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olish talabalar uchun juda og‘ir kechadi, chunki bu davrda shaxsning murakkab fazilatlari, hislatlari, sifatlari takomillashish bosqichi bo‘ladi. Mazkur yosh davrdagi ijtimoiy – psixologik o‘sishning xususiyatlaridan biri o‘qish faoliyatining ongli motivlarining kuchayishidir. Talabalarda axloqiy jarayonlarning o‘sishi sust

amalga oshsa–da, lekin xulqning eng muhim sifatlari – mustaqillik, tashabbuskorlik, topqirlik, farosatlilik va hokazolar takomillashib boradi. Shuningdek, ularda ijtimoiy holatlarga, voqelikka, axloqiy qoidalarga qiziqish, ularni amalga oshirishga intilish tobora kuchayadi.

Psixologlarimizning tadqiqotlari shaxs hayot tajribasini egallashda unda o‘zligini anglash vujudga kelishini ko‘rsatadi. Shaxsiy hayotning mazmunini anglash, aniq turmush rejalarini  tuzishi, kelajak hayot yo‘lini belgilash shular jumlasidandir. Talaba asta – sekin mikroguruhning notanish sharoitlariga ko‘nikib boradi, o‘zining haq – huquqlari va majburiyatlarini bila boshlaydi, shaxslararo munosabatlarning yangicha ko‘rinishini urnatadi, turmushdagi ijtimoiy rollarni amalda shaxsan sinab ko‘rishga intiladi. Ulardagi romantik his – tuyg‘ular voqelikka muayyan yondashishga birmuncha xalaqit beradi. Chunki ular turmushdagi  yutuqlar va muvaffaqiyatlarning ijtimoiy – psixologik ildizlari nimadan iborat ekanligi to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lmaydilar.

Yosh fiziologiyasi va psixologiyasi fanlarida to‘plangan materiallar tahlilidan ko‘rinadiki, talaba 17 – 19 yoshda ham o‘z hulqi va bilish qobiliyatini ongli boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi va shunga ko‘ra hulq motivlarini asoslanmagani, uzoqni ko‘ra olmaslik, ehtiyotsizlik kabi hollar ro‘y beradi. V.T.Lsovskiyning fikricha, 19 – 20 yoshlarda ayrim salbiy xatti – harakatlar ko‘zga tashlanadi. Mazkur yoshda xohish va intilishning rivojlanishi iroda va xarakterdan ancha ilgarilab ketadi. Bunda odamning hayotiy tajribasi alohida rol o‘ynaydi, chunki talaba shu tajriba yetishmasligi natijasida nazariya bilan amaliyotni, fantaziya bilan reallikni, romantika bilan ekzotikani, haqiqat bilan illyuziyani, orzu bilan xohishni, optimizm bilan qat’iylikni aralashtirib yuboradi.



Talabalik yillarida yoshlarning hayoti va faoliyatida o‘zini – o‘zi kamolotga yetkazish jarayoni muhim rol o‘ynaydi, lekin o‘zini boshqarishning tarkibiy qismlari (o‘zini – o‘zi tahlil qilish, nazorat etish, baholash, tekshirish va

boshqalar) ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ideal (yuksak, barqaror, barkamol) “Men”ni real (aniq voqea) “Men” bilan taqqoslash orqali o‘zini – o‘zi boshqarishning tarkibiy qismlari amaliy ifodaga ega bo‘ladi. Talabaning nuqtai nazaricha, ideal “Men” ham muayyan mezon asosida yetarli darajada tekshirib ko‘rilmagan, shuning uchun ular goho tasodifiy, g‘ayritabiiy his etilishi muqarrar, binobarin, real “Men” ham shaxsning haqiqiy bahosidan ancha yiroqdir, talaba shaxsining takomillashuvida bunday ob’yektiv qaramam – qarshiliklar o‘z shaxsiyatiga nisbatan ichki ishonchsizlikni, o‘qishga nisbatan salbiy munosabatni vujudga keltiradi. Jumladan. O‘quv yili boshida talabada ko‘tarinki kayfiyat, oliy o‘quv yurtiga kirganidan zavq – shavq tuyg‘usi kuzatilsa, ta’limning shart – sharoiti, mazmuni, mohiyatida keskin tushkunlikka ro‘y beradi. Yuqorida aytilgan ichki va tashqi vositalar, omillar ta’siri oqibatida uning ruhiy dunyosida umidsizlik, ruhiy parokandalik kayfiyati, ya’ni istiqbolga ishonchsizlik, ikkilanish, hadiksirash kabi salbiy his – tuyg‘ular namoyon bo‘ladi. Bizningcha, oliy maktabda tarbiya ishlarini rejalashtirishda, ta’lim jarayonida talabaga o‘ziga xos munosabatda bo‘lish mazkur davrning muhim sharoitlaridan biridir.

Yuqorida aytilganlardan qat’i nazar, yigit va qizlarni oliy o‘quv yurtiga qabul qilish ularda o‘z kuchlari, qobiliyatlari, aql – zakovatlari, ichki imkoniyatlari va irodalariga qat’iy ishonch bildiradi. Ana shu ishonch o‘z navbatida to‘laqonli hayot va faoliyatni uyushtirishga umid his – tuyg‘usini vujudga keltiradi.

O‘spirinlikning ikkinchi davri hulqqa, voqelikka baho berishda imkoniyatidan tashqari talab qo‘yish va qat’iylik xususiyati bilan farqlanadi. Shuning uchun talabalar har doim prinsipial bo‘la olmaydilar. Ba’zan qat’iyatlilik kattalarga salbiy munosabatga ham aylanadi. Talabalarning o‘qituvchi tavsiyalarini inkor qilishi ko‘pincha nizolarni keltirib chiqaradi.

B.G.Ananev raxbarligida o‘tkazilgan ilmiy – tadqiqot ishlarida ma’lum bo‘lishicha, talabalar kamol topishining jinsiy va neyrodinamik xususiyatlari ularnig aqliy imkoniyatlarini to‘la ishga solish va sermahsul o‘quv faoliyatini tashkil qlish uchun muhim imkoniyat, shart – sharoit yaratadi.

Yu.A.Samarinning ta’kidlashishicha, yoshlarning kamol topishida har xil ijtimoiy – psixologik xususiyatli o‘ziga xos qarama – qarshiliklar, ichki ziddiyatlar mavjud bo‘ladi. Ularning moddiy jihatdan ota – onaga, oliy o‘quv yurti ma’muriyatiga bog‘liqligi iqtisodiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Bu hol talabalarning xohishlari bilan mavjud imkoniyatning nomutanosibligi tufayli sodir bo‘ladi.



Odatda talabalar 2 va 3 kurslarda oliy o‘quv yurti va mutaxassislikni nima uchun tanlangani haqida yana jiddiy o‘ylaydilar.

Mazkur yosh davrida o‘zini boshqarishning tarkibiy qismlari, ijodiy tafakkur, muayyan hayotiy tajriba o‘zlashtirilgan bilimlarni tartibga solish asosida his – tuyg‘ular, qarashlar, axloqiy qarashlar, axloqiy qadriyatlar, o‘zligini anglash va barqaror e’tiqod shakllanadi. Talaba hukm va xulosa chiqargach, o‘z xatti – harakatida qat’iy turib ularni himoya qiladi, u hayotning turli sohalari bo‘yicha har xil darajadagi ko‘nikma va malakalarga nazariy bilimlar ijtimoiy – psixologik tushunchalarni amaliy faoliyatga tadbiq etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

B.G.Ananev rahbarligidagi tadqiqotchilar jamoasining fikricha, 18 – 20 yosh pallasida fiziologik imkoniyatlar yuksak darajada rivojlanadi. Organizmning tashqi ta’sirga javobi, qon bosimining optimal darajasi ortadi, qon kislorod bilan to‘yinadi va hokazo. Insonda uquvlilikning qulay imkoniyati vujudga keladi. Uquv insonning axborotlarni qabul qilish, eslab qolish va xotirada saqlash qobiliyatini bildiradi. Keyinchalik insonda psixik funksiyalarning dinamikasi, uquvlilik imkoniyatlari sira pasaymaydi. Odamlarning yetuklik davri quyidagi qonuniyatlar bilan farqlanadi: 1) turli funksiyalarning rivojlanishi bir tekis va bir vaqtda amalga oshmaydi (bir bosqichda xotira, boshqa bir bosqichda tafakkur); jadal sur’at bilan o‘sadi; 2) yoshga qarab turli funksiyalar o‘zaro bog‘liq muvofiqlashgan xususiyat kashf eta boshlaydi; 3) yetuk inson aqlining funksional o‘sish darajasi yosh evolyutsiyasining har xil bosqichida yetarli darajada yuqori bo‘ladi; 4) mazkur

funksiyalar dinamikasida hech qanday keskin pasayish bo‘lmaydi;  5) yetuklik davrida uquvlilik kamaymaydi.

### 5.2.2. Talabalarning tafakkurining xususiyatlari

Talabalik yillarida yoshlar biologik jihatdan barkamollik, ijtimoiy nuqtai nazardan yetuklik, jismoniy baquvvatlik bosqichiga ko‘tariladi. Ammo ilk o‘spirinlik (16 – 17 yoshli) ning ayrim bolalarga xos hulq – atvorning tashqi ifodalari, romantikasi ma’lum davrgacha o‘z ta’sirini o‘tkazib turadi. Oliy maktabdagi dastlabki sinov (birinchi sessiya) davridayoq talaba turmush faqat romantikadan iborat emasligiga, balki izlanish, irodaviy zo‘r berish, aqliy mehnat zahmati orqali ezgu niyatga yetishish mumkinligiga iqror bo‘ladi. Favquloddagi taasurotlardan, ijtimoiy sinovdan keyin o‘qishga, turmushga, insonlarga nisbatan munosabati jiddiy ravishda o‘zgaradi, narsa va hodisalarga, ijtimoiy holatlarga voyaga yetgan katta kishilardek muomala qilish, voqelikni to‘g‘ri, oqilona (adekvat) aks ettirishga, tushunib yetishga harakat qiladi.

Yuqori sinf o‘quvchisi davrida vujudga kela boshlagan tafakkurning mustaqillik, teranli, ixchamlik, tashabbuskorlik, tanqidiy sifatlari kun sayin takomillashib, yangi – yangi belgi va alomatlar bilan boyib boradi. Talabalarda o‘z – o‘zini nazorat qilish, o‘z – o‘zini baholash, o‘z – o‘zini anglash, o‘z – o‘zini boshqarish kabi aql – zakovatning muhim jihatlari taraqqiyotning yangi yuksak bosqichiga ko‘tariladi. Talabalarda tafakkurning rivojlanishida, ilmiy dunyoqarashning umumta’limiy va ijtimoiy fanlar, jumladan, tarix, falsafa, mantiq, iqtisodiy nazariya asoslari, madaniyatshunoslik, adabiyot, etika, estetika, psixologiya, pedagogika kabi o‘quv predmetlari muhim rol o‘ynaydi. Talabalar tafakkuri, asosan, o‘qish, amaliy mashg‘ulot va mustaqil bilim olish faoliyatlarida jadal va uzluksiz ravishda rivojlanadi. Goho ma’ruza jarayoni ulardan reproduktiv (o‘zlashtirilgan bilimlarga asoslanuvchi) tafakkurni taqozo etsa ham, lekin seminar mashg‘ulotlari, mustaqil topshiriqlar, laboratoriya praktikumi produktiv (ijodiy) fikr yuritish faoliyatini talab qiladi. Har ikkala ta’lim shakli ham talabalar aqliy mehnati, maqsadga yo‘naltirilgan va muvofiqlashtirilgan diqqati yordami bilan amalga oshadi.

Oliy maktabda mustaqil ishlarning barchasi: konspekt tuzish, referat, annotasiya, tezis, seminarga hozirlik, kurs va diplom ishlari talabadan mustaqillikni, ijodiy yondashishni, (kreativlikni) muammoli holatni, murakkab pedagogik holatni, murakkab pedagogik vaziyatni hal qilishni taqozo qiladi. Davlat o‘quv rejasida ko‘rsatilgan, dasturda ko‘zda tutilgan materiallar ilmiy ma’lumotlarni o‘zlashtirish bilim – saviyani kengaytirish bilan qanoat hosil qilmasdan, balki ularni tushunish, anglab yetishni talab qiladi, bu esa bevosita tafakkurning funksiyasidir. Xotira bisotidagi bilimlarni izchil ravishda tartibga keltirish, esga tushirish, ular ichidan eng muhim jihatlarni ajtatish, o‘zaro taqqoslash, turkumlarga kiritish, umumlashtirish bilish jarayonining aqliy yo‘li bilan, ya’ni tafakkur yordamida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy – falsafiy kurslarni o‘rganish davomida moddiy borliqdagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi murakkab ichki bog‘lanishlar, aloqalar va ijtimoiy turmush qonuniyatlari yuzasidan chuqur nazariy metodologik, ilmiy – uslubiy xususiyatdagi bilimlar o‘zlashtiriladi. Ayniqsa ushbu davrda diskursiv (ijodiyot va haqiqat mezoni uchun bahsda yuzaga keluvchi) tafakkur turi talaba uchun omilkor aql – zakovat quroli vazifasini bajaradi.

Ta’lim jarayonida fikr yuritish operasiyalaridan unumli foydalanish evaziga har qanday murakkab bilimlarni egallash imkoniyati vujudga keladi. Talabalar tafakkur shakllari (tushuncha, hukm, xulosa chiqarish) ning funksional va operatsional jihatlari bilan yaqindan tanishadilar, shuningdek ulardan mustaqil foydalanish uchun barcha intellektual rezervlarini ( aqliy zahiralarini) ishga solishga harakat qiladilar. Hukm chiqarishning barcha ( yakka, umumiy, ziddiyatli, faraziy, inkor) ko‘rinishlardan o‘quv va mustaqil bilim olish faoliyatlarda foydalanish shart – sharoitlari tug‘iladi. Xulosa chiqarishning induktiv (xususiydan umumiyga fikrning yo‘nalganligi) va deduktiv (umumiydan hususiy hollarga fikrning qaratilganligi) yo‘llaridan muayyan tarzda bilish faoliyatida qo‘llashga intiladilar. Tushunchalar (yakka, umumiy, xususiy, yaqqol, mavhum, to‘planma) mohiyatini anglagan holda ma’lumotlarni egallash bilimlarni barqarorligini ta’minlaydi. Bu narsalarning barchasi tafakkurni rivojlantirishga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Oliy ta'lim uzluksiz ravishda ijodiy tafakkurni talab qiladigan, muammoli xususiyatdagi topshiriq va masalalar tizimidan iboratdir. Har bir ma'ruza, seminar mashg'uloti, mustaqil topshiriqlar, hatto laboratoriya ishlari ham muammoli vaziyat, holatning tarkibiy qismlaridan tuzilgan bo'ladi. Ularni hal qilish (yechish, bajarish) ijodiy izlanishni vujudga keltiradi. Chunki, muammoli holatgacha davr, muammoli vaziyatdan keyingi aqliy jarayonlar ham talabadan ijodiy qidiruv, tadqiqot faoliyatini taqozo etadi. Topshiriqni mustaqil bajarish talabalardan tafakkur operatsiyalari (analiz, sintez, taqqoslash, solishtirish, yaqqollash, mavhumlashtirish, guruhlash, turkumlash, umumlashtirish, sistemalashtirish) va shakllaridan (tushuncha, xukm, xulosa chiqarishdan) foydalanishni talab qiladi.

Talabalarni o'quv faoliyati yoki ta'limiy usullar bilan tanishtirish tafakkur rivojida alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan tushunchalarga (holatlarga) turli nuqtai nazardan qarash usulini talabalarda tarkib toptirish va uni sharoitga (vaziyatga) ko'chirishga o'rgatish yuqori ko'rsatkichlar beradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, odatda usullarning ko'chishini "birdaniga", asta – sekin, "buzib – tuzatib", qayta qurish, tarkibini yangidan tuzish, ko'rgazmali materialdan matnli (mantiqiy) materialga o'tishi kabi ko'rinishlari mavjuddir. Talabalarda o'quv faoliyatning usulini tarkib toptirish quyidagicha amalga oshiriladi.

Xotira tushunchasini turli nuqtai nazardan qarash mumkin, chunonchi, u bilish jarayoni, produktiv yoki reproduktiv mnemik (lot. – xotira) faoliyat, amaliyotga zarur bilimlar majmuasi, xotira – bu ko'nikma, malaka va odatlar yig'indisi; umumlashgan obrazlar to'plami, grammatik termin, fenominal xotiralilik shaxs sifatida tariqasida va hokazo.

O'quv faoliyatining ushbu usulini mustaqil topshiriq bajarishga, ya'ni "Tafakkur" tushunchasiga ko'chirish imkoniyati quyidagi tarzda namoyon bo'ladi: tafakkur – bu bilish jarayoni, fikr yuritish faoliyati, prognoz qilish, anglashilgan bilimdar, muloqot negizi, grammatik termin, aql sifati, zehni o'tkirlik, shaxs sifati kabi tasavvur qilish mumkinligini ta'kidlab o'tiladi.

Yuqoridagi mulohazalarga qaramasdan, talabalar tafakkurida sub'yektiv – shaxsiy xususiyatga ega bo'lgan zaif jihatlar mavjuddir. Fikr yuritish faoliyatini

nazorat qilishda qator kamchiliklarga yo‘l qo‘yiladi, masalan, faoliyat natijasini tekshirish sifatidagina qo‘llaniladi. Ularning aqliy faoliyatida xatti – harakat yoki bilim sifatini baholash va o‘z – o‘zini baholashda ham voqelikni oqilona, to‘g‘ri aks ettirish jarayonida illatlar ko‘zga tashlanadi. Narsa va hodisalar xususiyati yoki qonuniyati ko‘pincha orttirib baholanadi, ba’zan pasaytirib baholash hollari ham namoyon bo‘ladi. Ahyon – ahyonda bo‘lsa – da, to‘g‘ri, oqil, haqiqatan aniq baholash o‘rtasidagi munosabat mutanosiblikka, o‘zaro uyg‘unlikka ega emas, shu tufayli imkoniyat (aqliy zahira) bilan havoiy orzular orasida ziddiyat vujudga keladi, natijada oqillik o‘rnini g‘ayirlik egallay boshlaydi. Bunday salbiy hissiy kechinmaning, shaxs illatining oldini olish va mutlaqo bartaraf qilish uchun maxsus treningdan (to‘g‘ri yetaklovchi mashq – namunalardan) foydalanish ijobiy natijalar beradi.

Ta’kidlab o‘tilgan nuqsonlar, qusurlarga qaramasdan, talabalar tafakkuri ilk o‘spirinlik yosh davridan ham sifat, ham mazmun, ham ko‘lam jihatidan keskin tafovutlanadi. Bu fikrlar psixologlar tomonidan to‘plangan miqdoriy ma’lumotlar bilan allaqachonlar tasdiqlangan. Shunday qilib, muayyan bir sohaning yosh mutaxassis kishisi – talaba yuksak aql – zakovat egasi, uquvli – teran fikrli inson, iymonli, diyonatli shaxs, aniq dunyoqarashga; mustahkam e’tiqodga ega bo‘lgan ziyoli, milliy mafkuraning jonkuyari, targ‘ibotchisi sifatida ijtimoiy katta hayotga yo‘llanma oladi.



Talaba – o‘spirinlik, ilk yoshlik davri o‘zining mahsuldorligi, refleksiv (anglashilganlik, ongli rejalashtira olishlik) xususiyati bilan boshqa yosh davrdagi odamlardan o‘ziga xos ravishda ajralib turadi. Talabalik yillari ijodiy izlanishlar, aql – zakovat zahiralarini ishga sola bilish, aqliy qobiliyatni safarbar qilish imkoniyatlariga ega bo‘lgan shaxsning yetuklik davri hisoblanadi. Xullas ushbu yosh davrda tafakkur sermahsul, sermazmun bosqichga ko‘tarilib, yaratish, ixtiro, ijod va kashfiyot qilish arafasida turadi.

Talabalar mutaxassislikka xos bo‘lgan o‘quv predmetlari, fan asoslarini egallash faoliyatida ijodiy mahsulot berish uchun tinimsiz harakat qiladilar. Ularning bilishga, bilim olishga undovchi mayllari turg‘un, mustahkam va barqaror qiziqishga aylana boradi, badiiy ijodiyot va ilmiy – tadqiqot bobida dastlabki ezgu – niyatlari, orzularini ushatishga intiladilar. Jumladan filolog yoki jurnalist talabalar badiiy ijod bilan, tabiiy – matematika fan sohasidagilar esa kuzatish va tajriba o‘tkazish bilan, tarixchi – arxeolog talabalar ijtimoiy turmush solnomalarini ochish bilan, psixologlar korxonalar va maktablarga amaliy yordam ko‘rsatish bilan shug‘ullana boshlaydilar. Hatto talabalar o‘zlarining aqliy mehnati mahsullari bilan olimpiada, ilmiy – amaliy anjumanlarda, ixtirochilar va rasionalizatorlar konkurs – tanlovlarida muvaffaqiyatli qatnasha oladilar. Bularning barchasi tafakkur yordami bilan chiqariladi, moddiy borliqni yanada aniqroq ifodalash, yaratish faoliyatlarida faol qatnashish uchun intilish, muammoli holat va vaziyatlarni hal qilish (yechish) jarayonlarining mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Hozirgi zamon talabalarining ijodiy tafakkur orqali vujudga keltirgan badiiy asarlari, ilmiy chiqishlari, ishlab chiqarishga taqdim qilingan rasionalizatorlik takliflari xalq xo‘jaligini yuksaltirish, mustaqil respublika fan va texnikasini rivojlangan mamlakatlar darajasiga ko‘tarish uchun xizmat qilmoqda. Eng yuksak saviyada tayyorlangan diplom ishlari va loyihalari talabalar ijodiy tafakkurini namunalari hisoblanadi, shu boisdan ularning ilmiylik darajasi yuqori bo‘lganlari nomzodlik dissertasiyasiga taqdim qilinmoqda.

Oliy maktabda o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni ishlab chiqarishga, amaliyotga, turmushga tadbiq etish, el o‘rtasida yoyish, targ‘ib qilish ham talabalik davriga xos xususiyatlaridan biridir. Nazariy va amaliy, ijodiy va diskursiv, fazoviy tafakkur bilan qurollangan talabalar omma o‘rtasida ilm – ma’rifatni yoyish ishida faol ishtirok qilmoqdalar.

Talabalar narsa va hodisalar, voqelikni to‘g‘ri, oqilona, omilkorlik bilan aks ettirish, ijtimoiy hayot talabi va ehtiyojlarini anglash, ongli ravishda fikr yuritish faoliyatini tashkil qilish va boshqarish imkoniyatiga egadirlar. Ularda ta’lim jarayonida tafakkurning diskursiv va refleksiv sifatlarini shakllantirish

ilmiy, ijodiy tafakkurni vujudga keltiradi. Buning uchun ularni mustaqil bilim olish faoliyatini to‘g‘ri uyushtirish va boshqarishga o‘rgatish yuksak samaraning kafolatidir.

### 5.2.3. Talaba shaxsining ijtimoiy – psixologik xususiyatlarini tekshirish

Hozir psixologiyada talaba shaxsini o‘rganishning qator usullari ishlab chiqilgan. Quyida ana shularning ayrimlariga to‘xtalamiz.

Psixologiya fanida keng qo‘llaniladigan usullardan bittasi quyidagichadir.

Hurmatli talabalar! Sizni ilmiy – tadqiqot faoliyatida ekspert sifatida ishtirok etishingizni so‘raymiz, bu ishning asosiy maqsadi talabalar shaxsining ob’yektiv ijtimoiy – psixologik xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir.

1. Buning uchun talaba shaxsining besh guruhdan iborat quyidagi fazilat, sifat va hislatlariga o‘z ahamiyati bo‘yicha tegishli tartib nomerlarini qo‘yishingizni so‘raymiz:

Shaxsning g‘oyaviy – siyosiy sifatlari.

Kasbiy – ixtisoslik fazilatlari.

Axloqiy – etik hislatlari.

Tarbiyaviy – pedagogik sifatlari.

Tashkiliy – ishchanlik fazilatlari.

2. Har bir guruhga kiritilgan sifatlarni o‘zingiz muhim bo‘lmagan deb hisoblasangiz, u holda uni o‘chirib tashlang va o‘rniga yoqtirganingizni qo‘shib qo‘ying (1 – 5 jadvallar).

3. Har bir guruhdagi alohida fazilatlarni ahamiyatligiga qarab, uni besh balli shkala bilan baholang:

“5” – talaba shaxsining tizimida mutlaqo zarur deb hisoblaganda qo‘yiladi;

“4” – talaba shaxsining tizimida bu sifat qatnashishi shart;

“3” – mazkur sifat ishtirok etsa ko‘ngildagidek ish bo‘lar edi;

“2” – ushbu sifatning mavjudligi zaruriyatdan tashqari;

“1” – uni e’tiborsiz qoldirsa.

*Kasbiy – ixtisoslik sifatlari:*

- Ilmiy ish bilan shug‘ullanish;

- Kasbiy yetuklik;
- O‘qishdagi ijodiy faollik;
- Mustaqillik;
- Bilimdonlik;
- Aqlning tanqidiyligi;
- Axborotlarni yig‘ish va tahlil qilish;
- O‘z fikrini ifodalay olish;
- Ilmiy – tadqiqot o‘tkazish ko‘nikmasi;
- So‘z – mantiq lug‘at boyligi.

*Axloqiy – etnik hislatlar:*

- O‘ziga talabchanlik;
- O‘zgalarni hurmatlash;
- Kamtarlik;
- O‘ziga ishonch;
- Ibolilik;
- Halollik;
- Adolatparvarlik;
- Samimiylik;
- Beg‘arazlik;
- Ichki madaniyatlilik;
- Hamdardlik;
- Vijdonlilik;
- Jamoatchilik mehnatini ortiqcha baholamaslik;
- Yumor hissi;
- Dilkashlik;
- O‘zini kamol toptirishga intilish;
- Gumanitar bilimlarga chanqoqlik;
- Zamonaviylik;
- O‘zini tutish;
- O‘zini nazorat qilish;
- O‘z manfaatini hamma narsadan yuqori qo‘ymaslik;

- Axloq qoidalariga rioya qilish.

*Tarbiyaviy pedagogik sifatlari:*

- Boshqalar bilan o‘z bilim va tajribasini o‘rtoqlashish;
- Orqada qolganlarga (o‘zlashtirmovchilarga) ko‘maklashish;
- Haqiqatni dalillash va uni tan olish uquvi; haqiqat oldida tiz cho‘kish odati;
- O‘zgalarni ishontirish qobiliyati;
- Hamkurslari (kursdoshlari) takliflaridan yaxshi jihatini topish (tanlay bilish uquvi).

**Talabalar bilimini nazorat qilish**

| **Nazorat metodlari** | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **Test** | | **Og‘zaki** | | **Yozma (amaliy)** | |
| **afzalligi** | **kamchiligi** | **afzalligi** | **kamchiligi** | **afzalligi** | **kamchiligi** |
| Tezkorligi Xamma uchun bir xilligi | Nutk rivojlanmaydi Anik bilim darajasini bilolmaydi tavakkalchilik | Nutk shakllanadi Bahs munozara orqali bilimlar yana ham mustahkamla-nadi. Fikr almashiniladi | Hayajoni kuchli tlabalar bor bilimini yetkaza olmaydi Vaqt kop talab qiladi | O‘z fikrini to;iq bayon eta oladi Kam vaqt ichida hammadan olish mmkin | Boshqa ma`lumotlardan foydalanishi mumkin |

## 5.2.4. Oliy ta’limdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish yo‘llari

Qiyinchiliklarning asosiy sabablari talabalar o‘quv faoliyatining to‘g‘ri usullarini bilmasligi, aqliy mehnatda kuch va imkoniyatlarni bir tekis taqsimlay olmasligidan iborat bo‘lib, bular aqliy zo‘riqishning negizi hisoblanadi. Talabalarda vujudga kelgan aqliy zo‘riqish tasodifiy psixologik hodisa emas, uning zamirida shaxsiy o‘quv faoliyatini oqilona boshqarish uquvining zaifligi yotadi. Shunga o‘ra oliy o‘quv yurti talabalari ko‘pincha o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda  bu faoliyatni tasodifiy boshqarishga harakat qiladilar. Bunda muayyan materiallar mantiqiy harakat bilan eslab qolinsa, qolganlari mutlaqo diqqatdan uzoqlashtiriladi. Natijada ular ma’ruzaning bir qismini tinglaydilar, uning mohiyatini ba’zo‘r anglaydilar, uni konspektlashtirishga ulgurmaydilar.

O‘quv yili mobaynida ana shu holning davom etishi imtixon sessiyalarini talaba uchun qattiq sinovga aylantiradi.

Shunga ko‘ra oliy o‘quv yurtining asosiy vazifalaridan biri talabani o‘quv materiallarining asosiy manbalari bilan ishlashga o‘rgatishdan, uning mustaqil bilish faoliyatini tashkil qilishdan, uni o‘zini boshqarish usullari bilan tanishtirishdan iboratdir. Ma’lumki oliy maktabda mustaqillik va mustaqil o‘quv faoliyatini uyushtirish talab qilinadi.

Oliy ma’lumot olish talabaning maqsadga muvofiq, muntazam, rejali, izchil o‘quv faoliyatini ta’limning barcha bosqichlarida amalga oshirishini taqozo etadi.

Oliy maktab psixologiyasi fanida talabalarning o‘quv faoliyati auditoriya va auditoriyadan tashqari qismlarga ajratiladi. Shu bilan birga talabalar oldida o‘quv faoliyatining tarkibiy qismlari bilan bog‘liq muayyan qoidalarga rioya qilib hal etiladigan masalalar ko‘riladi: 1) Qanday yo‘l bilan auditoriyada to‘g‘ri o‘qish va o‘qitish mumkin? 2) Qay yo‘sinda auditoriyadan tashqari vaqtlarda mustaqil faoliyatning umumlashgan usullaridan foydalansa bo‘ladi? 3) Ma’ruzada talabaning aqliy faoliyati uchun optimal shart – sharoitlar qanday yaratiladi? 4) Amaliy va seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik natijasini qanday aniqlash va ifodalash mumkin? 5) talabaning imtixon va sinovlarga tayyorgarlik saviyasini aniqlash imkoniyati bormi va hokazo. Mazkur fanda ma’ruzaning muhim beshta turi qonuniy ravishda tavsiflangan. Ular axborot beruvchi, yo‘naltiruvchi, rag‘batlantiruvchi, metodik, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi ma’ruzalar deb ataladi. Ana shu ma’ruzalarning sifatini baholashda quyidagilar hisobga olinadi.

1. Ma’ruzaning mazmuni (g‘oyaviy – siyosiy yo‘nalishi, ilmiyligi, ommabopligi, nazariya amaliyotning birligi,emperik materiallar ko‘lami, bayon qilish shakli va boshqalar).

2. Talabani o‘ylashga, bosh qotirishga yetaklovchi materiallarning muammoli bayon qilinishi (uning darajalari, jabhalari, jihatlari, davriyligi kabilar).

3. Ma’ruzaning asosliligi (yaqqol dalillar bilan mustahkamlanuvchi nazariy qoidalarning haqqoniyligi, lo‘ndaligi).

4. Ma’ruzaning mutaxassislar kasbiy tayyorgarligi darajasiga bog‘liqligi (qay darajada, qay shaklda, qay yo‘sinda).

5. Ma’ruzaning tizimi (rejaliligi, tartibliligi, yig‘inchoqligi, umumlashganligi).

6. Ma’ruza o‘qish usuli (ko‘rsatmalilik, jonli nutq, his – tuyg‘uga boyligi, material bayonining sur’ati, o‘rinli to‘xtalish, mantiqiy urg‘u).

7. O‘qituvchining talabaga munosabati (e’tiborligi, talabchanligi, samimiyligi, mehribonligi, odobliligi).

8. Auditoriya bilan aloqa qilish (bevosita, jonli, yakkama – yakka, guruhiy, jamoaviy, uzluksiz, ahyon - ahyonda).

9. Talabalarning leksiyadagi davomati (akademik guruhning to‘la qatnashuvi, bir oz kamchiligi, umuman kamchiligi).

10. Ma’ruzani konspektlashtirish (ko‘pchilik tomonidan, yarmisi, ayrimlari).

11. Lektorlik faoliyatini boshqarish (erkin, ishonch bilan, tezisga asoslanib bayon qilish, ma’ruza konspektidan uzoqlashmay bayon qilish).

12. Maqsadga erishish (ishlab chiqilgan yo‘llar, sinalgan vositalar, egallangan usullar, shaxsiy nuqtai nazarni bayon qilish, talabaning mustaqil holda ishlashi uchun imkoniyat yaratish va boshqalar).

Ma’lumki, oliy maktabdagi o‘quv tarbiya jarayonida ma’ruza bilan seminar mashg‘ulotlari bog‘lanish muhim ahamiyat kasb etadi. Seminar mashg‘ulotlari asosan talabalarda tafakkurning tanqidiyligi, mahsuldorligi kabi aqlning zarur tarkibiy qismlari shakllanishiga qaratilgan bo‘ladi. Seminar mashg‘ulotlarida o‘qituvchi o‘rganilayotgan muammo yuzasidan talabalarning bilimlarini tekshirish, ularda tafakkurning mustaqilligini, mahsuldorligi va teranligini oshirishi, atrof – muhitga munosabatni shakllantiritishi, ularga ilmiy nazariyalar, konsepsiyalar bo‘yicha shaxsiy fikrlarini bildirishga o‘rgatishi kerak.

Seminar mashg‘uloti talabaning o‘z o‘quv faoliyatini boshqarishida muhim rol o‘ynaydi. Masalan, ta’limning turli shakllarida (mustaqil ishlar, to‘garak mashg‘ulotlari, ilmiy – tadqiqot, leksiya va bahslarda olingan bilimlar yaqqollashadi, tartibga tushadi, yanada chuqurlashadi, mustaqil bilim olish

malakalari o‘sadi, aqliy mehnat usullari o‘zlashadi, og‘zaki va yozma nutq takomillashadi).

Oliy maktabda ko‘pincha seminar mashg‘ulotining ikki turidan foydalaniladi: a) seminar rejasiga kirgan masalalardan har birini alohida keng smuhokama qilish; b) har bir talabaning o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan ma’ruzasini tinglash. Bizningcha, seminarning ikkinchi turi keng ko‘lamda axborotlar almashishi imkoniyatiga ega. Chunki unda dolzarb muammolar, qonuniyatlar, xususiyatlar bo‘yicha mulohaza yuritiladi va tegishli qarorga kelinadi.

Tajribalarda talabalarning seminar mashg‘ulotidagi faoliyati quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1. Seminar mashg‘ulotiga chiqishning muayyan maqsadga yo‘nalgan (masalaning qo‘yilishi, bo‘lg‘usi mutaxassislikda nazariy bilimlarni amaliy bilimlarga bog‘lash).

2. Talaba ma’ruzasining rejasi: oqilona rejalashtirish, masalani birlamchi va ikkilamchi alomatlarga ajratish, bibliografiyani thg‘ri tuzish (nodir, yangi va kasbga oid manbalar tanlangani).

3. Talabaning xulqi: o‘rinli baxslashuvi, to‘g‘ri javobi, materialni chuqur tahlil qilishi, dalilni qayta bayon etishi, o‘z nuqtai nazari mavjudligi, ixcham va lo‘nda tahlil: ma’ruzaning zerikarliligi, bo‘shligi.

4. O‘zaro aloqa: talabaning kursdoshlarga tanqidiy, samimiy, e’tirozli munosabati; seminar qatnashchilari bilan tez muloqotga kirishish imkoniyati.

5. Talabaning mashg‘ulotini ishonch bilan, mutaxassislarcha yakunlashi, tengdoshlari bilimini boyitishi yoki aksincha; seminarda barcha holatlar va munosabatlarni yozib borishi, unga qarashlarini bildira olishi.

Ma’ruza va seminar mashg‘ulotlari samaradorligini oshirish uchun quyidagi psxologik holatlarga e’tibor berish lozim:

1. Matn va birlamchi manbalar bo‘yicha muhim va nomuhim belgi hamda alomatlarni ajratish yoki mavhumlashtirish.

2. O‘zlashtirilayotgan o‘quv materiallarni o‘z vaqtida tahlil qilib borish va umumlashtirish.

3. Talaba o‘quv materialini idrok qilishi uchun aqliy faoliyatning barcha jabhalari bo‘yicha yo‘l – yo‘riqlar berish.

4. O‘qituvchi nutqidan hayolan ilgarilab ketib, uning yakunlovchi fikrini oldindan fahmlay bilish va boshqalar.

Shunday qilib ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirish bilan oliy maktabdagi ta’lim va tarbiya jarayonida kamol toptiruvchi hamda tarbiyalovchi prinsiplarni amalga oshirish, talabalarga o‘zini o‘zi boshqarishni o‘rgatish mumkin.

***Leksiyaning metodik ishlamasi***

I. Leksiya mavzusi: uning tanlanganligini asoslash.

1) Umumiy kurs sistemasida mazkur mavzuning o‘rni va ahamiyatini aniqlash.

2) Mavzu bo‘yicha manbalar saralash (o‘qituvchi foydalangan adabiyotlar, talabalarga tavsiya qilinadigan manbalar).

3) Amaliy mashg‘ulot, tajriba materiallarini tanlash.

I I. Leksiyani tashkil qilish formasi.

1) Auditoriya va texnik vositalar (tinglovchilarning tayyorgarlik darajasi va xarakteri).

2) Leksiyaning maqsadi (predmet azmunini o‘z ichiga qamrab olgan leksiyaning asosiy g‘oyasi).

3) Bosh maqsadni amalga oshiruvchi leksiyaning vazifalari.

4) Leksiyaning vazifalarini ketma – ketligi.

5) Qo‘yilgan vazifaning xarakteri: informasion, analitik, sistemalashtiruvchi, muammoli va boshqalar.

6) Tavsiya qilingan vazifalarni bajarish uchun talabalarga zarur vositalar (kategoriyalar, tasavvur sistemasi, funksional, genetik, strukturali, ehtimollik, sababiy aloqalar va o‘zaro uzviy bog‘liqlik).

7) Qo‘yilgan vazifalarni hal qilishda, bajarishda tinglovchilarda o‘qituvchi tomonidan shakllantirilayotgan munosabat va emosional tuyg‘ular hamda pozisiyalar.

8) Leksiyaning tashkiliy formasi:

a) monologik mulohazalar;

b) audivizual vositalarga tayangan monologik mulohaza;

v) evristik  suhbat shaklidagi suhbat;

g) tom ma'nodagi evristik suhbat;

d) dialogik bahs, disskussiya – muhokama qilinadigan muammo yuzasidan qarama – qarshi nuqtai nazarlar.

III. Leksiya mazmuni:

1) ma'ruzaning mazmunining konspekti va rejasi;

2) yaxlitlik, sistemalilik, ko'rsatmalilik, izohlilik, soddalikni ta'minlovchi didaktik usullar  va o'quv vositalari (konspekt hoshiyasida) mavjudligi.

IV. Leksiya jarayonida o'qituvchining yaxlit obrazi (timsoli):

1) lekqiya mazmunini har qaysi qismiga taaluqli bo'lgan vazifalarni bajarishda talaba bilan o'qituvchi hamkorligida shakllari (birgalikda muammo yoki masalani yechish, berilgan namunaga taqlid qilish: raqobat, sheriklik, raqiblik kabilar);

2) fikr bildirishning til orqali (nutq faoliyatida) ifodalanishi (leksik, grammatik, stilistik, semantik xususiyatlarini hisobga olgan holda faoliyatni tashkil qilish);

3) o'qituvchining auditoriya bilan noverbal, emosional, ifodali muloqot vositalari (imo – ishora, mimika, pantomimika, intonasiya, temp, ritm, pauza, ovozni kuchaytirish yoki pasaytirish).

Seminar mashg'ulotining metodik ishlamasi.

I. Mashg'ulot mavzusi:

a) mavzu tanlashni asoslash;

b) kurs prgrammasida mavzu o'rnini aniqlash;

v) mashg'ulotning maqsadi, vazifasi, bilishga oid, tarbiyaviy uslubiy xususiyatlari;

g) adabiyot, tekst murakkabligi, hajmini hisobga olish va an shu negizda birlamchi manbalarni saralash.

II. Seminar mashg'ulot o'tkazish  formasi:

1) auditoriyaning tayyorgarligi xarakteriga bog'liq ravishda seminar mashg'uloti o'tkazish formasini tanlash:

a) savol – javob, b) plan asosida keng ko‘lamda suhbat o‘tkazish, v) o‘zaro taqriz qilingan ma’ruza sifatida fikr almashish, g) bahs elementi mavjud yozma referatlar muhokamasi, d) guruhiy bahs (disskussiya); erkin ravishda yoki maqsadga yo‘naltirilgan tarzda, ye) o‘quv – qurolli o‘yin tarzda;

2) adabiyotga, mashg‘ulot xarakteriga, operasiyaga, ob’yektga, muammolarga, masalalarga bu mavzuga oldindan talabalarni yo‘naltirish dasturi;

3) muhokama qatnashchilariga rollarni taqsimlash, dokladga, referatga, mavzu muhokamasiga, xarakteriga, formasiga qo‘yiladigan talablar.

III. Mashg‘ulotni o‘tkazish rejasi (plani) va konspekti:

1) mashg‘ulot mazmunining dasturi, mavzuning asosiy qismlari, har bir qismning asosiy vazifasi, tahlil qilinayotgan muammoni hal qilish jarayonida vujudga keladigan asosiy ziddiyatlar, qarama – qarshiliklarni qayd qilish (fiksatsiyalash);

2) dasturning asosiy qismlari mazmunining konspekti; qarama – qarshiliklarni ochishni ta’minlovchi didaktik usullarni ajratish, nuqtai nazarlarni ajratish; mashg‘ulotning har bir bosqichlarida guruhiy kommunikasiya vositalari va usullarini saralash;

3) seminar mashg‘ulotlarida mavzuni turlicha shakllarda muhokama qilish yo‘llari;

4) seminar mashg‘uloti o‘tkazilgandan so‘ng uni tahlil qilish va yakunlash.

### 5.2.5. Darsni psixologik tahlil qilish

Darsni psixologik tahlil qilishning asosiy maqsadi o‘qitishda psixik moment (ruhiy lahzalar) ni qo‘llashdagi muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarning sababini aniqlash, tasodifiy yutuqdan, shuningdek, o‘qituvchi tomonidan ko‘zlangan hamda tayyorlangan muvaffaqiyat garovini ajrata bilishdir.

Darsni psixologik tahlil qilayotib, praktikant quyidagi lahzalarga diqqatini qaratishi lozim.

***I. Darsning psixologik maqsadi:***

1. Mazkur predmet bo‘yicha darsning psixologik maqsadga yo‘nalganligi: o‘qituvchi psixologik muammoni hal qilishni istiqbol rejasiga ega ekanligi; talabalar tomonidan bilimlarni, uquvlar va malakalarni egallanishi, bilishga qiziqishlarni shakllantirish, faol, mustaqil, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, ularni aqliy faoliyat usullari bilan qurollantirish, yuksak ahloqiy his – tuyg‘ular, e’tiqod, dunyoqarash, nafosatni tarkib toptirish kabilar.

2. Darsda qo‘llaniladigan psixologik – pedagogik ta’sirning ayrim vositalari, metodlari, usullari ta’limning yaxlit uslubiga qo‘yilgan psixologik maqsadga qay darajada javob bera olishligi.

***II. Dars uslubi.***

1. Darsning tuzilishi va mazmuni qay yo‘sinda rivojlantiruvchi ta’lim prinsiplariga javob bera olishi:

a) talabalar tafakkuri va xotirasiga tushadigan bilimlar ko‘lamining o‘zaro nisbati;

b) talabalarda tiklovchi va ijodiy faoliyatning o‘zaro nisbati;

v) tayyor (o‘qituvchi ma’ruzasidan, o‘quv qo‘llanma va darslikdan egallangan) va mustaqil izlanishlar natijasida olingan bilimlarni o‘zlashtirishning o‘zaro nisbati;

g) muammoli o‘qitishning qaysi tarkibiy qismi o‘qituvchi tomonidan, qaysilari esa talabalar tomonidan (kim muammo qo‘yadi, kim uni hosil qiladi, kim uni yechadi) bajariladi;

d) talabalarni faoliyatga kirishga undash va yo‘naltirish, goho majbur qilishning o‘zaro nisbati (amalga oshirilgan ish yuzasidan ijobiy his – tuyg‘u qo‘zg‘atuvchi sharh, qiziqishni jadallashtiruvchi ustanovka (ko‘rsatma), qiyinchiliklarni yengish uchun irodaviy zo‘r berish, irodaviy aktni idora qilish va shu kabilar).

2. O‘qituvchining o‘z – o‘zini boshqarish (uyushtirish) xususiyati:

1) o‘qituvchining darsga tayyorgarlik darajasi (material mazmunining egallanganligi, darsning psixologik maqsadini anglash, uni amalga oshirishga nisbatan ichki tayyorgarlik);

2) ta'limda o'qituvchining ishchanlik kayfiyati (faoliyatni amalga oshirishga shayoligi, hafsalaligi, tirishqoqligi, qo'yilgan maqsadni amalga oshirishga intiluvchanligi, pedagogik topqirligi va hokazo);

3) o'qituvchining pedagogik nazokati (odobi) – pedagogik nazokatlilikning (takt) ko'rinish holatlari, odoblilik yoki nazokatdan chetlashish lahzalari;

4) auditoriya yoki guruhdagi psixologik muhit (o'qituvchi qanday qilib talabalarning o'zaro samimiy, quvnoq, hamdardlikka moyil muloqot holatini (muomala) hamda ishchanlikning muayyan darajasini ushlab olish qobiliyati).

***III. O'quvchilarning (talabalarning) faoliyatini tashkil etish:***

1. O'qituvchi tafakkur bilan hayolning sermahsul ishlashi uchun qanday shar – sharoitlar yaratishi:

a) o'qituvchi qay yo'sinda o'rganilayotgan materiallarni talabalar tomonidan idrok qilishda  tanlovchanlik, tushunganlik va yaxlitlik darajasiga erishganligi;

b) qanday dasturlar, qaysi shakldagi  ko'rsatmalar foydalanganligi (talabalarni undash, ularga ta'sir o'tkazish, ularni ishontirish va boshqalar);

v) o'qituvchi qanday qilib talabalar diqqatining barqarorligiga va uni muayyan ob'yektga to'planishiga erishganligi;

g) yangi bilimlarni egallash uchun, oddiy o'zlashtirilgan bilimlarni talabalar xotirasida faollashtirish maqsadida qanday ish formalari qo'llanilganligi (yakka holda so'rash, guruh bilan suxbatlashish, o'tgan mavzularni takrorlash bo'yicha mashqlar o'tkazish, muammoli vaziyatlarni yaratish va hokazo).

2. Yangi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida talabalarning hayolot (mnemik) va fikr yuritish (tafakkur) faoliyatini tashkil etish va uyushtirish:

a) talabalarning bilimlari qanday darajada shakllanganligi (yaqqol – hissiy tasavvurlar, tushunchalar, "kashfiyot" obrazlari umumlashmasi, simvolikalar, xossalar, formulalar chiqarish darajasida ekanligi va boshqalar);

b) o'qituvchi qaysi usul va uslub yordamida talabalar tafakkurining faolligigahamda mustaqilligiga erishganligi (savollar sistemasi, muammoli

vaziyatni yaratish, ortiqcha masalalar berish, standart va nostandart topshiriqlar tavsiya qilish, ta'limda qidiruv – tadqiqot ishlarini tashkil qilish);

v) o'qituvchi talabalarda tushunishning qanday darajasiga (tasviriy, izohli, umumlashtiruvchi baholash, muammoli vaziyat) erishganligi, shuning bilan birga qanday qilib ularda e'tiqod va ideallar shakllanishiga rahbarlik qilganligi;

g) ta'limda ijodiy ishlarning qaysi turlari qo'llanilganligi va o'qituvchi talabalar ijodiy hayoli hamda ijodiy tafakkurga yetakchilik qilganligi.

***IV. Ish (faoliyat) natijalarini mustahkamlash:***

1. Bilimlarni yangi sharoitga ko'chirishga o'rgatish.
2. Malakalarni mashq qilish orqali shakllantirish.
3. interferensiyadan talabalarni ogohlantirish va oldin o'zlashtirilgan malakalarni qaytadan jonlantirish.
4. Talabalarda aqliy faoliyat usullarini tarkib toptirish.

# VI BOB. KASB VA SHAXS PSIXOLOGIYASI. TA’LIM
## 6.1. PSIXOLOGIYASI
### 6.1.1. O‘quv faoliyatining psixologik mohiyati



O‘quv faoliyati bu shunday faoliyatki, unda shaxsning psixik jarayonlari shakllanadi va rivojlanadi, uning asosida yangi faoliyatlar yuzaga keladi. O‘quv faoliyati insonning butun hayoti davomida namoyon bo‘luvchi uzluksiz jarayondir.

Rus psixologi **A.N. Leontev** inson faoliyatining psixik va amaliy shakllari mavjudligini, bola ongi aynan o‘quv faoliyatida o‘sishini ta’kidlaydi.

O‘quv faoliyati bu shunday faoliyatki, uning natijasida avvalo o‘quvchida o‘zgarish yuz beradi. Uning mahsuli turli motivlar asosida qurilgan bo‘lishi darkor. Bu motivlar bevosita o‘quvchi shaxsining o‘sishi va rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. O‘quv faoliyatida ta’lim, o‘qish va o‘rganish degan tushunchalar bilan bevosita bog‘liqdir. Ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligidagi o‘quv faoliyati, o‘qituvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘quvchilarga o‘rgatish jarayonidir.

Ta’lim jarayoni bevosita muayyan axborotni, harakatlarni, xulq – atvorning shakllarini o‘zlashtirishga qaratilgandir. O‘qish va o‘rgatish tushunchalari o‘quv faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ular bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga, o‘rgatishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayoni bevosita muayyan axborotni, harakatlarni, xulq – atvorning shakllarini o‘zlashtirishga qaratilgandir. O‘qish va o‘rgatish tushunchalari o‘quv faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ular bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga, o‘rgatishga xizmat qiladi.

O‘quv faoliyatining besh elementi mavjud:

**1.** O‘quv motivlari.

**2.** O‘quv topshiriqlari.

**3.** O‘quv harakatlari.

**4.** O‘qituvchining nazorati.

**5.** O‘qituvchining baholashi.



**D.B.Elkoninning** ta’kidlashicha, o‘quv faoliyatining shakllantirilishi bu faoliyat ayrim kishilar bajarilishi asta – sekinlik bilan o‘quvchining o‘ziga o‘qituvchining ishtirokisiz mustaqil bajarish uchun o‘tkazilishidir.

Ta’lim jarayoni alohida tashkil etiladigan hamda boshqariladigan faoliyat bo‘lib, u o‘quvchilarning o‘quv faoliyatlarini tashkil etadi va ularni boshqaradi. Ta’lim jarayoni besh elementdan iborat:

**1.** Ta’limning maqsadi – nima uchun o‘qitish kerak?

**2.** Ta’limning mazmuni – nimaga o‘qitish kerak?

**3.** Ta’limning metodlari, usullari va pedagogik muloqot yo‘llari.

**4.** Ta’lim beruvchi.

**5.** O‘quvchi.

Ta’lim jarayonini tashkil etish: ideal va amaliy faoliyatning u yoki bu turini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun zarur bo‘lgan tashqi olamning muhim ahamiyatli xossalari xususidagi axborotning o‘zlashtirilishi:

- faoliyatning ana shu barcha turlari tarkib topgan usullari va jarayonlarining o‘zlashtirilishiga;
- maqsadga muvofiq keladigan usullar va jarayonlarni to‘g‘ri tanlash va foydalanishga bog‘liq.

Ta’lim jarayonining muvaffaqiyati:

**1.** Motivasiya.

**2.** Ma’lumot usullari.

**3.** Ma’lumotning tushunarliligi.

**4.** Xotira.

**5.** Ma’lumotni qo‘llash.

Ta'lim va ta'lim jarayonida bolaning rivojlanish muammosi yosh davrlari va pedagogik psixologiya fanining asosiy masalalaridan biridir. Ta'lim va rivojlanish muammosiga doir qator nazariyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ulardan biri:

1. Aqliy xatti – harakatlar, bilimlar, malaka va ko'nikmalarni bosqichma – bosqich rivojlantirish nazariyasi (P.Ya. Galperin).

P.Ya.Galperin nazariyasi bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish jarayoni olti bosqichni boshidan kechirib, ularga:

**1**. Motivasiya.

**2**. Tushuntirish.

**3**. Modiy formadagi xatti – harakatlarni bajarish.

**4**. Baland ovozda xatti – harakatlar va vazifalarni bajarish.

**5**. Bajariladigan xatti – harakatlarni ichki rejada ovoz chiqarmay bajarish.

**6**. Faoliyatni fikran bajarishga kiradi.

Ushbu nazariyada ta'limning uchta asosiy turlari ajratiladi:

- **birinchi** turda – tatti – harakatlarni o'zlashtirish xatolar bilan kechadi, berilayotgan material yetarli darajada anglanilmaydi, ta'lim oluvchi ta'limning asl mohiyatini tushunib yetmaydi;
- **ikkinchi** turda – materialni nisbatan dadil va to'la tushunilishi va material bilan bog'liq tushunchalarni ajratilishi bilan xarakterlanadi;
- **uchinchi** tur – tez, samarador va bexato xatti – harakatlarni o'zlashtirilishini ta'minlab beradi.



**V.V.Davidov** nazariyasi. Ushbu nazariya kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ilmiy tushunchalarni o'zlashtirilishini tashkil qiladi. Bunda o'quvchilar tomonidan ta'lim jarayonida nazariy tushunchalar tizimini o'zlashtirilishi lozim bo'lib, bu o'z o'rnida xususiydan umumiy bilimlarga o'tilishini ta'minlaydi.

Qator nazariyalar muammoli ta'lim bilan bog'liq bo'lib, L.V.Zankov va

A.M.Matyushkin tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ta’limda muammoli darslarni tashkil etishga qaratilgandir.

Ta’limning psixologik asoslari muammosi ko‘pgina masalalarni qamrab oladi. Ta’limning muvaffaqiyati bir qator psixologik omillarga bog‘liq bo‘ladi. Avvalo, o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan munosabatiga to‘xtaylik. Bu munosabat diqqatda, his – tuyg‘ularda, qiziqishlar va irodada, shuningdek, shaxsning tutgan yo‘lida namoyon bo‘ladi.

Ta’lim jarayoni avvalo o‘quvchilar diqqatini yo‘lga solishni talab etadi. Darslarda ko‘rgazmali qurollardan, axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish ta’lim oluvchida ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiradi. Ta’lim jarayonida ta’lim beruvchining vazifasi darsda ishlash holatini yuzaga keltirishdagina emas, balki o‘quvchilarning darsda o‘tiladigan materialini idrok etishga tayyor turishlarini kuzatish hamdir. Dars jarayonida o‘quvchilarning diqqati o‘zgarib turadi. O‘qitish jarayonida bu qonuniyatlarni nazarda tutish va o‘quvchilar diqqatini materialning asosiy jihatlariga jalb etish hamda ularni takrorlash kerak.

Ta’lim jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchi tomonidan beriladigan ko‘rsatmalarga ham bog‘liq. O‘qituvchining roli shundan iboratki, u o‘quvchilarga tegishli ustanovkani hosil qilishi, nimani vaqtincha, nimani umrbod esda olib qolishi kerakligini, nimani butunlay esda olib qolmasdan faqat tushunib olish kifoya qilishini, nimani so‘zma – so‘z esda olib qolishni, nimaning ma’nosini o‘z so‘zlari bilan aytib berish uchun esda olib qolish zarurligini ko‘rsatib o‘tish lozim. Kuzatishlar ko‘rsatadiki, bunday ko‘rsatmalar berilmaganda, o‘quvchilarda ko‘pincha noto‘g‘ri tasavvurlar vujudga keladi.



O‘qitishning emotsionalligi ta’limning muvaffaqiyatliligini ta’minlovchi omillardan biridir. Ta’lim berish jarayoni emotsional jarayon. Agar o‘quvchilarga berilayotgan axborot ularda hech qanday his – tuyg‘u uyg‘otmasa, uni

o‘quvchilar yaxshilab esda olib qolmaydilar. Gap o‘quvchilarning psixik holatlari, ya’ni ularning muayyan bir paytdagi kechinmalari haqida ham borishi kerak, albatta. Ulardagi quvonchli, optimistik kayfiyat o‘quv faoliyatini juda samarali qiladi. O‘quvchilar emotsional ruhdagi materialni durustroq o‘zlashtirib oladilar.

O‘tkazilgan tajribalar o‘quvchilar hech qanday his – tuyg‘u uyg‘otmaydigan materialga qaraganda, emotsional ruhdagi materialni yaxshiroq eslab qolishlarini ko‘rsatadi. O‘qituvchi o‘quv jarayonining emotsional tomoni haqida g‘amxo‘rlik qilishi kerak. Bu muammo juda muhim ahamiyatga ega. Chunki, ta’limning mazmuni nihoyatda murakkablashib, hajmi esa g‘oyatda kattalashib ketgan. Uning muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga erishish uchun o‘quvchilarning kuchaytirish lozim. Ijobiy tuyg‘ular o‘quv mehnatining samaradorligiga kuchli ta’sir etadi. Hafsala bilan bajarilgan beg‘araz munozara paydo bo‘ladi, bahslashiladi, befarq qaragan yoki undan ham salbiy munosabatda bo‘lgan ishga esa, hech qanday hafsala bo‘lmaydi.
Jamiyatimizdagi mehnat – haqiqiy ijod, quvonch manbai. Maktab o‘quvchilarida o‘quv mehnatiga ijobiy munosabat uyg‘otib, mehnatning haqiqiy ijodga, quvonch manbaiga aylanishiga ko‘maklashish kerak.

Qadimda greklar juda ajoyib iborani qo‘llaganlar: “Talaba – to‘ldirilib turilishi kerak bo‘lgan idish emas, balki yoqib turilishi lozim bo‘lgan mash’aldir”. Bu fikrning tagida juda chuqur ma’no bor. Zero, o‘qituvchi biz yuqorida ta’kidlab o‘tgan ta’lim metodlari: muammoli ta’lim, qisman izlanish metodi va tadqiqot metodlaridan keng qo‘llanilishi kerak. Ta’lim jarayonini bugungi kundagi asosiy talablaridan biri erkin fikrlovchi, mustaqil tafakkurga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirish bo‘lib, yuqorida aytib o‘tilgan metodlardan foydalanish uchqunlardan katta mash’allar paydo bo‘lishini ta’minlab beradi.
Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilishga qiziqishlari g‘oyat katta rol o‘ynaydi. Ma’lumki qiziqish o‘quvchilarning emotsional bezagi, biror buyumni, biror faoliyatni tanlash munosabati va yo‘nalishidir.

Ma’lumki, psixologiyada qiziqishning ikki turi o‘quvchilarning ta’lim jarayonida aniqlanadi. **Birinchisi,** bevosita qiziqish, **ikkinchisi** bilvosita qiziqish. Har bir o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarida o‘z faniga nisbatan bilvosita

qiziqishni tarkib toptirishga harakat qiladi. Qiziqishlar orqali o'quvchilarda ta'limga faol munosabat namoyon bo'ladi. Psixologiyada qiziqish – bu shaxsning o'zi uchun qimmatli yoki yoqimli bo'lgan muayyan narsa yoki hodisalarga munosabatidir. Qiziqishlar shaxsning muhim va individual xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Qiziqishlar o'quvchi hayotida katta rol o'ynaydi. Ular o'quv faoliyatini faollashtiruvchi asosiy turtkilar – motivlardir. Qiziqishlar maktab o'quvchisiga fan asoslarini durustroq o'zlashtirib olishlariga, aqliy qobiliyatlarning o'sishiga,bilim doirasining kengayishiga imkon beradi. O'qituvchilarning vazifasi o'quvchini dastlab qiziqtirib qolgan ishning o'zi bilan shug'ullanishga majbur qilish emas, balki undagi qiziqishlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, ta'sirchan qilish, qiziqishlarining markaziga aylanib qolgan faoliyat bilan shug'ullanish istagiga, mayliga aylantirishdir.

O'quvchilarning muayyan maqsadni ko'zlab ish tutishida, qiyinchiliklarni yenga olishida, ishdan chalg'itadigan narsalar bilan shug'ullanishdan o'zini tiya olishida, unda o'qishga ishtiyoq tarkib toptirishda namoyon bo'ladigan iroda, ta'lim jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

Umumiy psixologiya kursidan ma'lumki, iroda bu shaxsning o'z oldiga qo'ygan maqsadini aniqligi, uni amalga oshirish uchun intilishi, maqsad yo'lida ma'lum bir qarorga kelish tezligi va uni o'z vaqtida ijro etishi bilan belgilanadigan sifatidir. Ta'lim jarayonida o'quv materialiga bo'lgan diqqatning barqaror bo'lishida irodaviy zo'r berishning ahamiyati nihoyatda kattadir. Ta'limda iroda o'quvchida maktab va uyda o'tkaziladigan mashg'ulotlarga tayyor turishda namoyon bo'ladi. O'quv materialini o'rganish, eslab qolish va o'quvchining irodaviy zo'r berishiga bog'liq. Iroda o'quvchilarning fikrlash faoliyatlarida – masalani yechishga, qo'yilgan savolga javob topishga va intilishida namoyon bo'ladi. Ular o'quvchilarda ko'nikma va malakalarni hosil qilishda ham tarkib topadi.

Psixologlar olib borgan tadqiqotlarda o'quvchilar tomonidan berilgan materialning o'zlashtirilishi ko'p jihatdan irodaning tarbiyalanishiga bog'liqdir. Irodaviy aktivlik ta'limning zarur shartidir. Ta'lim muassasijdagi ta'lim jarayonining o'zi o'quvchilardan irodaviy o'stirish omillaridan biridir. Bunda

o‘quvchilarning kundalik rejimi, o‘qish va oqilona dam olishni bir – biri bilan to‘g‘ri almashtirib turishda katta rol o‘ynadi.

Ta’lim jarayonida bilish jarayonlarini shakllantirishda alohida e’tibor berish lozim. Zero bilish jarayonlari juda murakkab faoliyat bo‘lib, unda jonli mushohadadan mavhum tafakkurga, mavhum tafakkurdan esa amaliyotga o‘tiladi, ana shundan so‘ng ob’yektiv haqiqat bilib olinadi. Binobarin, biz birinchi navbatda ko‘rib chiqshimiz lozim bo‘lgan narsa o‘quv materialini idrok qilish jarayonidir. Umumiy psixologiya kursidan ma’lumki, idrok bu narsa va hodisalarni sezgi organlariga ta’sir etishi natijasida ularning kishi psixikasida yaxlit obrazini paydo bo‘lishi bo‘lib, idrok etish jarayoni ta’limda turli formalarda o‘qituvchining og‘zaki hikoya qilishida, suhbat o‘tkazishda, ma’ruza o‘qishida, kinodars, televizion parcha, sxemalar va ko‘rgazmali qurollar ko‘rsatish, ekskursiyalar o‘tkazish, o‘quvchining o‘ziga darsliklar hamda boshqa qo‘llanmalarni o‘qitish tarzida o‘tishi mumkin. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, idrokni tarkib toptirishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish nihoyatda muhimdir. Chunki, fazoni, vaqtni va harakatlarni idrok etishda ham yosh xususiyatlarda turli farqlar mavjud bo‘ladi.

### 6.1.2. O‘qish motivlari

**Motiv** – inson xulq-atvorining ichki barqarorligi, harakatga undovchi tushunchadir.

Motivasiya esa xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni bo‘lib, unga tashabbus, yo‘nalganlik tashkilotchilik, qo‘llab – quvvatlash kiradi. Ta’lim jarayonida o‘qish motivlari “nima uchun?”, “nimaga?”, “qanday maqsad bilan?” kabi savollar asosida yuzaga keladi. Motivlar birinchidan, o‘quv faoliyatiga undasa, ikkinchidan, maqsadga erishish uchun zarur yo‘l va usullar tanlashga yordam beradi. O‘quv faoliyatida o‘quv motivlari o‘quvchilar tomonidan tanlanib, ular o‘quvchining maqsadi, qiziqishi, kelajak rejalari bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘quv motivlari turli yosh davrlarida turlicha bo‘ladi.

O‘quv faoliyati motivasiyasining manbalari mavjud bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

Ichki manbalar. Ular insoniy tug‘ma yoki orttirilgan extiyojlari bilan belgilanadi. Ulardan eng muhimi tug‘ma axborotga bo‘lgan extiyojdir. Orttirilgan extiyojlar esa gnostik va ijtimoiy ijobiy extiyojlar hisoblanadi.

Tashqi manbalar. Ular shaxsning ijtimoiy hayot shart – sharoitlari bilan belgilanadi.

Talabalar ularning birinchisi bo‘lib, jamiyatning shaxsdan talab qiladigan doimiy xulq – atvorini bildiradi. Bog‘cha, maktab, oila boladan juda ko‘p ishlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Ijtimoiy kutish har birimizdan ma’lum bilimlar, ko‘nikmalar darajasini bo‘lishi, zarurligini jamiyat kutishini bildiradi. Masalan, bir yoshli bola yurishi kerak, 7 yoshdan u o‘qishi kerak, 15 yoshdan u kasb tanlashi kerak deb hisoblaymiz. Imkoniyatlar – shaxs faoliyatini belgilovchi ob’yektiv shart – sharoitlardir. Masalan, boy kutubxona bolani ko‘p kitobga o‘qishga undaydi.

### 6.1.3. Bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni va uning psixologik komponentlari

Ta’lim jarayonining natijasi o‘zlashtirish, ichki va tashqi faoliyatni maqsadga muvofiq ravishda o‘zgartirishdir. Ta’lim bir odamning boshqasiga bilim va ko‘nikmalar berishidir. Bilim, ko‘nikma va malakalar ta’lim jarayonining natijasidir. Bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni muammosi P.Ya.Galperin va N.F.Talizina tomonidan o‘rganilgan. Ular aqliy xatti – harakatlarni bosqichma – bosqich shakllantirish nazariyasini ishlab chiqqanlar. Mualliflar aqliy xatti – harakatlarni moddiy holda tashqi nutq yordamida hamda aqliy shaklda, fikrda namoyon bo‘lishini izohlab berdilar. Aqliy xatti – harakatlarning **birinchi** bosqichi rasm, sxema, diagramma va shartli belgilar tarzida o‘z ifodasini topadi. Aqliy xatti – harakatlarning **ikkinchi** bosqichi ko‘rgazmalardan olgan tasavvurlari to‘g‘risida o‘quvchilarning ovoz chiqarib, fikr yuritishdan iboratdir. **Uchinchi** bosqich esa, sub’yekt ongida tasavvur, tushuncha, qonuniyat, xossa, xususiyat, operasiya, usul tariqasida namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, o‘quvchilarga taklif etiladigan axborotlar aql bovar qilmaydigan darajada tezlik bilan ko‘payib bormoqda. Shuningdek, ularning juda tez eskirib qolib, yangilashni taqozo etishi ham o‘z – o‘zidan ma’lum bo‘lmoqda.

**To‘rtinchi** bosqichda bajarilgan xatti – harakatlar ichki rejada ovoz chiqarilmay bajariladi.

**Beshinchi** bosqichda esa faoliyatni fikran bajarishga o‘tiladi. Bundan ravshan ko‘rinib turibdiki, materialni asosan yodlab olish va xotirada saqlab qolishga asoslanadigan ta’lim hozirgi talabalarga qisman javob bermoqda. O‘quvchilarga hamisha yangilanib turadigan axborotni mustaqil ravishda o‘zlashtirib borishga va o‘qishni bitirib ketganidan keyin, kishiga jadal sur’atlar bilan o‘sib borayotgan fan – texnika taraqqiyotidan orqada qolib ketmaslik imkoniyatini beradigan qobiliyatlar taraqqiyotini beruvchi tafakkur sifatlarini tarkib toptirish muaamosi birinchi o‘rniga chiqib bormoqda. Ta’lim jarayonida o‘zlashtirishning muvaffaqiyati quyidagilarga bog‘liq:

**1.** Ta’lim mazmuniga.

**2.** O‘quv rejalari, dasturlari, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarining mavjudligiga;

**3.** Ta’lim metodikalarini takomillashganligiga;

**4.** O‘qituvchi mahoratiga;

**5.** O‘quvchining individual psixologik xususiyatlariga.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, turli individual tipologik xususiyatlarga ega o‘quvchilar uchun ta’limning yagona, qulay, optimal sharoitlarini yaratish mumkin emas. Ammo o‘zlashtirishning samaradorligini oshirishda muammoli ta’lim, noan’anaviy ta’lim usullarini qo‘llash muhim ahamiyatga egadir.

### 6.1.4. Ta’limning noan’anaviy usullari

***Mustaqil tafakkurni rivojlantirish***

Ta’lim oluvchilarning ta’lim faoliyatiga ko‘ra ta’limning quyidagicha metodlari ajratiladi:

**1.** Tushuntiruv – ko‘rsatmalilik metodi – bu metod reproduktiv metod bo‘lib, unda faoliyat o‘qituvchi tomonidan olib boriladi, o‘quvchilar ta’lim jarayonida bilim oladilar, tanishadilar.

Bu metod juda keng tarqalgan metodlardan biri bo‘lib, uni takomillashtirilgan usullari mavjud, bu – dasturlashtirilgan ta’limdir.

**2.** Reproduktiv metodda o‘quvchi faoliyat ko‘rsatib, unda o‘quvchiga berilayotgan bilimni qayta xotirada tiklab, olingan bilimni nusxa sifatida qabul qiladi.

**3.** Muammoli ta’lim metodi – o‘qituvchi tomonidan tashkil etilib, u produktiv xarakterga egadir. Ushbu metod orqali o‘quvchi bilim va malakalarini shakllantiradi. Ushbu metodni takomillashtirish yo‘llaridan biri, ishchan o‘yinlarni tashkil etishdan iboratdir.

**4**. Qisman izlanish metodi – o‘qituvchi nazorati ostida tashkil etiladigan metod bo‘lib, u produktiv xarakterga ega, bunda o‘quvchi ijod qiladi.

**5.** Tadqiqot metodi – o‘qituvchi ilm yordamisiz tashkil etiladigan ta’lim metodi bo‘lib, u o‘quvchining mustaqil izlanishi, fikrlashi va bilimlar transformasiyasini talab etadi.

Ta’lim jarayoni tashkil etishning o‘ziga xos metodlaridan biri ishchan o‘yinlardir. Ishchan o‘yinlar munosabatlar tizimini modellashtirish, faoliyat xarakteristikasini tashkil etishga yordam beradi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta’lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni kiritish ta’kidlanadi. Pedagogik texnologiya – bu ta’lim jarayoniga sistemali yondashuv bo‘lib, unda ta’lim jarayonini tashkil etishda texnika va inson imkoniyatlari hisobga olinadi va ularning o‘zaro munosabati ta’limning optimal formalari yaratilishiga zamin bo‘ladi.

Pedagogik texnologiyalarni quyidagi tarkibiy qismlarga bo‘lish mumkin:

- Ta’lim – tarbiya ishtirokchilari shaxsiga qo‘yiladigan ijtimoiy talablar;
- Hamkorlik faoliyati a’zolarining kasbiy tayyorgarligi;
- Ta’lim jarayonining maqsadi, mazmuni, mohiyati, amalga oshirish vositalari;
- Ta’lim jarayonini differensiyalashtirish;
- Ijodiylik.

O‘quvchini mustaqil ta’lim olishga o‘z – o‘zini rivojlantirishga tayyorlash bugungi kun maktabining asosiy vazifasidir.

Ta’lim jarayonida o‘quvchining mustaqil ta’lim olishini faollashtirish zarur. Mustaqil ta’lim masalaning qo‘yilishi, yechish, o‘z – o‘zini nazorat va

baholashning yo‘llarini o‘quvchi tomonidan tanlanishi va bajarilishi bilan xarakterlanadi.

O‘quvchilarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun fikrlash xususiyatlarini shakllantirish zarur. Fikrlash operasiyalari asosida dars jarayoni faollashtiriladi. Bu o‘qituvchining: “Nima uchun?”, “Qanday maqsadda?”, “Sabablari qanday?”, “Natija nima uchun shunday bo‘ldi?” – singari savollarning muhokamasi orqali amalga oshirilishi mumkin. O‘qituvchilarni evristik, muammoli vaziyatlarga tortish, tanqid, gumon holatlarini muhokama qilish, ulardagi muammolarni mustaqil holda topish va ularni yechish uchun o‘z loyihalarini tuzish va himoya qilish o‘quvchilar tafakkurining ma’nodor va unumdor bo‘lishiga xizmat qiladi.

**“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” (1997 yil) ta’lim muammolari oldiga mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish muammosini qo‘ygandir. Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidla ganlaridek:**
**- O‘qituvchining bosh vazifasi o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko‘pincha yaxshi tushunamiz, lekin afsuski, amalda, tajribamizda unga rioya qilmaymiz.**

Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o‘rganmasa, berilgan ta’lim samarasi past bo‘lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak, ammo bilim o‘z yo‘liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylik. Hozirgi zamon o‘quv muassasalarining vazifasi yosh avlodni mustaqil fikrlashga o‘rgatishdir. Albatta, fikrlashda ham individual farqlar mavjud. Fikrlashni bilish – bu insonning aqlidir.

Aqlning quyidagi sifatlarini ajratish mumkin:

Mazmundorlik (boyligi, chuqurligi, hukmga boyligi).

Fikrlashning kengligi (keng va tor) va chuqurligi, nazariya va amaliyotning uzviyligiga bog‘liqdir. Amaliyot, hukmning to‘g‘riligi mezonidir.

Fikrlashning mustaqilligi – umumiy tajribani qo‘llay olish, shaxsiy fikrga ega bo‘lish, tajribaga munosabat bildirish.

Aqlning tashabbuskorligi.

Aqlning egiluvchanligi, vazifani standart yechishdan qochish.

Aqlning tanqidiyligi, o‘z ishini aniq baholay olish, uni o‘lchash.

Aqlning mahsuldorligi.

Fikrning ketma – ketligi.

Tafakkurning tezligi.

Aql haqida ayrim olimlar va arboblarning fikrlari keltirilgan.

“Ulug‘ aql egalari o‘z oldilariga maqsad qo‘yadilar, qolgan odamlar o‘z istaklari ortidan ergashadilar” (Vashington Irving).

“Aql – bu yaxshi tashkil etilgan bilimlar tizimidir” (K.D.Ushinskiy).

Yuqorida aytib o‘tilgan barcha sifatlar yosh o‘zgargan sari o‘zgarib boradi. Ijodiy ishda fikrlashning mustaqilligi va tanqidiyligi zarur bo‘lib, u aqliy faoliyatning produktivligini ta’minlaydi.

## 6.2. TARBIYA PSIXOLOGIYASI

### 6.2.1. Xulq-atvor va odatni shakllantirish shaxsni tarbiyalashning asosiy yo‘nalishi sifatida

Tarbiya psixologiyasi maqsadga muvofiq ravishda tashkil etilgan pedagogik jarayon sharoitida inson shaxsi shakllanishining qonuniyatlarini o‘rganadi. Tarbiya har qanday jamiyatning muhim vazifasidir.

Tarbiya – bu shaxsning ijtimoiy, ma’naviy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma’naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta’sir ko‘rsatish jarayonidir.

Prezidentimiz I.A.Karimov: “Ta’limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi, o‘zining qadr – qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo‘lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga  ega bo‘lamiz” deb ta’kidlaganlaridek, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” bugungi kunda shaxs tarbiyasiga jiddiy e’tiborni qaratmoqda.

Tasavvur qiling: ilmli, katta ixtirolarga qurbi etadigan, qonunlarni yaxshi o‘zlashtirgan mutaxassis – ma’naviyatsiz, tarbiyasiz, axloqsiz bo‘lsa nima bo‘lishi mumkin? U o‘z manfaatini ko‘zlaydi. Vatan uchun biror narsa qurbon qila olmaydi, chunki u xudbin. Unda mehr-oqibat, fidoyilik, vatanparvarlik,

milliy g‘urur yo‘q. U muhtojlarga yordam bera olmaydi, chunki unda tarbiya shakllanmagan.

Hulq atvor va odatni shakllantirish – ma’lumki, odam ongining yuksak belgilaridan biri, uning o‘zini anglashidir. Odamning o‘zini anglashi o‘z navbatida shaxsning mim belgisi hisoblanadi.odam o‘z tevarak – atrofidagi olamga ta’sir etuvchi sub’yektdir. Odamning idrok etadiga, tasavvur qiladigan narsalari uning uchun ob’yektdir. Ana shu nuqtai – nazardan olganda, odamning o‘zini anglashi sub’yektiv ravishda o‘zini “men” deb his qilishida ifodalanadi.

Odam ijtimoiy zot bo‘lganligidan unga o‘zligini anglash qobiliyati xosdir. Faqat ijtimoiy hayotda, o‘zga kishilar bilan qiladigan har turli munosabatlarda odamning o‘zini anglashi, o‘zini “men” deb bilishi vujudga keladi va taraqqiy etadi.odam o‘zini alohida shaxs sifatida kim deb bilishi, o‘zining o‘tmishi va kelajagini anglashi, o‘z huquq va burchini anglai va nihoyat o‘zining fazilat hamda kamchiliklarini anglashi, o‘zini anglashiga kiradi.

Insonning tabiatini o‘zgartiradigan, uning shaxsini tarkib topishiga ta’sir qiladigan kuch ijtimoiy omillar yoki boshqacha qilib aytganda, jaiyat ishlab chiqarish kuchlari hamda ishlab chiqarish kuchlari hamda ishlab chiqarish kuchlari hamda ishlab chiqarish munosabatlarining o‘sishi va o‘zgarishidir. Bundan tashqari yana inson shaxsining tarkib topishiga ta’sir qiluvchi kuchli omil – inson orttirgan tajribalarning tarbiya vositasi orqali belgilarga berilishidir. Shunday qilib inson shaxsi juda murakkab psixologik kategoriya bo‘lib, u kishining individual hayoti davomida ma’lum konkret omillarning ta’siri ostida sekin asta tarkib topadi. Ulardan birinchisi, odam tug‘ilib o‘sadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta’siri bo‘lsa, ikkinchisi, odamga uzoq muddat davomida sistemali ravishda beriladigan ijtimoiy ta’lim – tarbiyaning ta’siridir va nihoyat, uchinchisi odamga nasliy yo‘l bilan beriladigan irsiy omillarning ta’siridir.

Insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi, ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal etuvchi ahamiyatga egadir. Lekin, inson shaxsining tarkib topishi, yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, faqat shu ikkita faktorga emas, balki uchinchi bir faktorga ham bog‘liqdir. Bu faktor nasliy yo‘l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlarning ta’siridir. Odamga nasliy yo‘l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlar beriladi.

Masalan: tanasining tuzilishi, sochi va ko‘zlarining rangi, ovozi, gapirish uslublari, ayrim harakatlari tug‘ma ravishda berilishi mumkin. Bunday imkoniyatlarning amalga oshirilishi, ya’ni ro‘yobga chiqarishi uchun albatta, ma’lum sharoit bo‘lishi kerak.

Hozirgi kunda xalqimiz orasidan yetishib chiqaan iste’dodli olimlar, muhandis-ixtirochilar, yozuvchi va shoirlar, davlat va jamoat arboblari, iste’dodli artistlar, rassomlar va boshqa kishilarimizga nasliy yo‘l bilan berilgan barcha imkoniyatlarning ro‘yobga chiqishi uchun har qanday sharoit maydonga kelganligini dalili bo‘la oladi.

Bolalar maktab yoshiga etgach, shaxs shakllanishining yangi mazmuni boshlanadi. Kichik maktab, o‘smirlik va katta maktab yoshi davrlarida shaxs shakllanishining yuqori bosqichi namoyon bo‘ladi.

Inson shaxsini o‘rganish masalasi bilan falsafa, psixologiya, pedagogika kabi fanlar shug‘ullanadi. Hozirgi davrda inson muammosi aniq va gumanitar fanlarning umumiy tadqiqot ob’yektiga aylanib bormoqda. SHunga qaramasdan, bir tomondan, inon taraqqiyotining sintetik tavsifi bo‘yicha integratsiya holati yirik tarzda tasavvur etish uchun, uni biosotsial va sotsiobiologik jihatdan o‘rganish maqsadga muvofiq. Ma’lumki, inson hayoti va faoliyatining operatsional (o‘quv, operatsiya, harakat, malaka) mexanizmi uning ontogenezida funksional mexanizmiga o‘sib boradi, binobarin, unda koillik belgisi shakllanadi, natijada u kamolot cho‘qqisining muayyan darajasiga erishadi.

Inson – jamiyat – taiat – turmush munosabatlarini tekshirgan rus olimlari S.L.Rubinshteyn, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, B.G.Ananev odamning ular bilan har xi turdagi va ko‘rinishdagi kauzal, strukturaviy, funksional, fazoviy va makoniy aloqalar tizimi mavjudligini ta’kidlab o‘tganlar.

Birinchidan, inson u yoki bu aloqalar tizimiga binoan biologik mahsuli “Homo Sapiens” sifatida o‘rganiladi.

Ikkinchidan, tarixiy jarayonning ham ob’yekti, ham sub’yekti tariqasida shaxs tadqiq etiladi.



Uchinchidan, individid muayyan ko‘lamda o‘zgaruvchan, taraqqi yotning genetik dasturiga asoslanuvchi alohida xususiyatli jonzot tarzida ilmiy jihatdan tekshiriladi.

Insonni jamiyat ishlab chiqarishining yetakchi tarkibi. Bilish, kommuniatsiya va boshqaruv sub’yekti, tarbiya predmeti sifatida tadqiq etilishi muhim ahamiyatga ega. Inson va uning borliq bilan ko‘p qirrali munosabatga hamda aloqaga kirishishi quyidagi tarzda namoyon bo‘lishi mumkin:

- Tabiatning biotik va abiotik omillari – inson;
- Jamiyat va uning tarixiy taraqqiyoti – inson;
- Inson – texnika;
- Inson – madaniyat;
- Inson va jamiyat – yer va fazo.

21 asrda ham odam individ. Shaxs, sub’yekt, komil inson sifatida talqin qilinishida davom ettiriladi, lekin, har bir tushuncha mohiyatida sifat o‘zgarishlari yuz berishi mumkin.

Odamga individ sifatida tavsif berishda uning yosh davri, jinsiy va individual – tipologik xususiyatlariga asoslaniladi. Yosh davr sifatlari ontogenetik evolyusiya bosqichlarida izchil ravishda namoyon bo‘ladi va takomillashuv jarayonida o‘z ifodasini topadi, jinsiy dimorfizm xususiyati esa ularga mos tushadi. Individning individual – tipologik xususiyatiga konstitutsion (tana tuzilishi, bioximik individuallik) holatlar, simmetriya va assimmetriya juft retseptorlari, effektorlari funksiyasi kiradi. Bu xususiyatlar va xossalar birlamchi hisoblanib, hujayra va molekulyar tuzilishining barcha darajalarida ishtirok etadi.

Yosh, jinsiy va individual tipologik xususiyatlar sensor, mnemik, verbal va mantiq psixofiziologik funksiyalari dinamikasi hamda organik extiyojlar tuzilishini aniqlaydi. Individning bu xususiyatlarini ikkilamchi deb atab,

ularning integratsiyasi temperamentida va tug‘ma mayllarda ifodalanishini ta’kidlab o‘tish joiz. Yuqoridagi sifatlar rivojining muhim shakli ontogenetik evolyusiyadan iborat bo‘lib, ular filiogenetik dasturga asoslanib xukm suradi. Yosh va individual o‘zgaruvchanlik insoniyatning ijtimoiy – tarixiy taraqqiyoti ta’siri ostida har xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Individning dinamik xususiyatlariga shaxsning ijtimoiy sifatlari ta’sir etib, uning individual o‘zgaruvchanligi omilini kuchaytiradi. Insonning shaxs sifatida tavsiflashning muhim lahzasi, uning dinamik xususiyatlari hisoblanib, jamiyatdagi statusi (iqtisodiy, siyosiy, xuquqiy, mafkuraviy, ya’ni uning jamiyatda egallagan o‘rni) orqali ifodalanadi. Status negizida doimiy o‘zaro aloqalar tizimi yotadi. Rolning ijtimoiy funksiyasi muayyan maqsadlarga va qadriyatlarga yo‘nalganlik shaxsni faollashtiradi. Status, rol, qadriyatga yo‘nalganlik shaxs xususiyatlarining birlamchilarini tashkil etadi va uning tuzilishida asos bo‘lib hizmat qiladi. Shaxsning ta’rifi xulq motivatsiyasi xususiyati va ijtimoiy fe’l – atvor tuzilishini belgilab, uning tarkibidan ikkilamchi sifatlarining o‘zaro ta’sirini birlashtiruvchi yuksak samara tarzida inson xarakteri va mayllari yuzaga kelad. Insonning shaxs hislatlarini rivojlantiruvchi asosiy shakl – uning jamiyatdagi hayot yo‘li va ijtimoiy tarjimai holi hisoblanadi.

Individ, shaxs va sub’yekt taraqqiyotining tadqiqotida quyidagi holatlarga e’tibor qilish lozim:

- Inson rivojining asosi hisoblangan omillar va shart – sharotlar (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, xuquqiy, mafkuraviy, pedagogik va yashash muhiti omillari);
- Insonning o‘ziga taalluqli, asosiy tavsiflar. Uning ichki qonuniyatlari, mexanizmlari, evolyusiya bosqichi, barqarorlashuvi va involyusiya;
- Inson yaxlit tuzilishning asosiy tarkiblari, ularning o‘zaro aloqalari, shaxsning tashqi ta’sirlarga javobi va munosabati, taraqqiyot jarayonida ularning takomillashuvi kabilar.

Uch xil xususiyatli tadqiqot dasturining tarkibiy qismlari insonning amaliy va nazariy faoliyatining mezonlari hisoblanadi. Chunki, faoliyatda yashash muhiti tarixiy tajribani egallash, interiorizatsiya va eksteriorizatsiya amalga oshadi.

Odamning maqsadga qaratilgan ijtimoiy foydali faoliyati protsessida hayotiy deb ataladigan mexanizmlari va ongli faoliyatning funksional sistemasi protsesslari yuzaga keladi. Ana shular tufayli odam bilimlarni, ko‘nikma va malakalarni, kishining ijtimoiy tajribalarini o‘zlashtiribgina qolmay, balki o‘zining idroki, tafakkuri, hayoli, hissiyotlari va irodasini bir so‘z bilan aytganda, voqelikka bo‘lgan ongli munosabatini hamda o‘z harakatlari va xulq – atvorining motivlarini tarkib toptiradi.

Shaxsning barcha xususiyatlari, munosabatlari va xatti - xarakatlari shaxsning hayoti faoliyatida ma’lum rolni bajaruvchi va har biri murakkab qurilmadan iborat bo‘lgan hamda shartli ravishda to‘rtta o‘zaro mustahkam bog‘langan funksional bosqichlarga birlashtiriladi:

Birinchisi – boshqaruv tizimi;

Ikkinchisi – stimullashtirish tizimi;

Uchinchisi – stabilizatsiyalash tizimi;

To‘rtinchisi – indikatsiyalash tizimi.

Shaxsning ana shu ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan barcha sifatlari ijtimoiy taraqqiyotning yuksak ongli faoliyatchisi sifatidagi shaxsning xulq – atvori va xatti – harakatlarini belgilaydi.

Birinchi tizimning hosil bo‘lishida analizatorlar o‘rtasidagi doimiy tabiiy aloqani aks ettiruvchi filogenetik mexanizmlar katta rol o‘ynaydi. Birq, bu analizatorlar o‘rtasidagi aloqa vaqtli aloqalar bilan organik jihatdan qo‘shilib keladilar. Bunda mazkur tizimning ichida perseptiv tizimiga o‘tib ketadigan yuksak darajaa integratsiyalangan ma’lum ichki sensor komlekslarni hosil qiladi. Bunday komplekslar qatoriga nutq, eshitish, ko‘rish hamda sensomotor komplekslarni kiritish mumkin. Mana shu komplekslarning hammasi odamning hayot – faoliyati jarayonida o‘zaro bir – biri bilan doimiy aloqaga kirishib, sensor –persptiv uyushishning yagona funksional dinamik tizimini yaratdi. Insonning sensor-perseptiv jihatlari doimo takomillashib boradi.

Ikkinchi tizmi barqaror psixik holatlarni o‘z ichiga oladi. Bu holatlar bolaning aniq maqsadin ko‘zlovchi va foydali faoliyatining ong sub’yekti sifatida bola boshlagan ilmlarining dastlabki yillaridanoq shakllana boshlaydi.

Temperament intellektual bilim va munosabat ana shunday xususiyatlar jumlasiga kiradi.

Uchinchi tizim – shaxsni arbob sifatida stabilizatsiya tizimidir. Yo‘naltirilganlik, qobiliyat. Mustaqillik va xarakter uning tarkibiy qismini tashkil etadi.

Yo‘naltirilganlik – shaxsning integral va generalizatsiya qilingan xususiyatlardir.

Yo‘naltirilganlik, bilim munosabatlarni hamda shaxsning xulq – atvori hamda xatti – xarakatlarida ijtimoiy ahamiyat yetakchilik qilgan. Motivlarning bir butun ekanligida o‘z ifodasini topadi. Bu xususiyat odamning dunyoqarashi, qiziqishlari va ma’navyi ehtiyojlarida namoyon bo‘ladi.

Yo‘naltirilganlik strukturasida g‘oyaviy e’tiqod katta rol o‘ynaydi. G‘oyaviy e’tiqod – bilimning, o‘sha shaxsga xos bo‘lgan intellektual, emotsional iroda sifatlarining sintezi g‘oyalari va xatti harakatlari bir butunligining negizidir. Tizim o‘z ichig ashunday xususiyatlar, munosabatlar va xatti – harakatlarni oladiki, ularda real shaxslarning ijtimoiy “o‘y – fikrlari va his – tuyg‘ulari” aks ettiriladi. Ular bu shaxslarning siyosiy jihatdan ongli, ijtimoiy taraqqiyotli, mas’ul arboblari sifatida xulq – atvorini belgilab beradi. Bunga gumanizm. Kolliktivizm, optimizm va mehnatsevarlik azilatlari kiradi.

### 6.2.2. Shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar, psixologik shart-sharoitlari

Shaxs shakllanishida u yashayotgan muhit, kishilar jamiyatning roli juda kattadir. Masalan, biror mahallada inson shaxsining tarkib tpishida faol ta’sir ko‘rsatuvchi besh yuzta o‘ziga xos ijtimoiy muhit bor, degan ma’noni bildiradi. Bu yerda shunday bir savol tug‘iladiki: “Tashqi muhit inson shaxsining tarkib topishiga qanday ta’sir qiladi?”.

Birinchidan, ijtimoiy muhitdagi turli hodisalar odamning ongiga bevosita ta’sir qilib, unda chuqur iz qoldiradi.

Ikkinchidan, tashqi ijtimoiy muhit ta’sirining chuqurroq, mustahkamroq bo‘lishiga odamning o‘zi yordam beradi.

Ma’lumki, bolalar o‘z tabiatiga ko‘ra, ilk yoshlik chog‘laridan boshlab, nihoyat darajada taqlidchan bo‘ladilar. Bolalar katta odamlarning barcha xatti – harakatlariga bevosita taqlid qilish orqali bu xatti – harakatlarni, yaxshi yomon fazilatlarni o‘zlariga singdirib boradilar. Bolalar oilada, ko‘cha – ko‘yda, katta odamlarning har bir harakatlarini, o‘zaro munosabatlarini zimdan kuzatib turadilar. Inson shaxsining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muitninsh roli haqida gap borar ekan, shuni ham ta’kidlab o‘tish zarurki, ayrim g‘ayritabiiy hodisalar inson shaxsining tarkib topishida tashqi muhit ta’sirining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini to‘la tasdiqlaydi. Biz ayrim tasodifiy hollarda odam bolalarining yovvoyi hayvonlar muhitiga tushib qolish hodisasini nazarda tatayapmiz. Hayotda bunday hodisalar juda siyrak bo‘lsa ham har holda uchrab turadi. Masalan, Hindistonlik doktor Sing Kalkutta yaqinidagi o‘rmonzorda bo‘ri bolalari bilan birga ikkita odam bolasining ham to‘rt oyoqlab yugurib yurganini ko‘rib qoladi. Keyin, ularni poylab, qarorgohlarini topib, bolalarni olib ketadi. Ulardanbiriga Amala, ikkinchisiga Kamala deb nom qo‘yadi. SHu narsa xarakterliki, bolalar yoshlikdan bo‘rilar muhitiga tushib qolganliklari tufayli, fe’l atvorlari, xatti – harakatlar jihatidan bo‘rilardan farq qilmas edilar. Nut yo‘q, demak tafakkur ham nihoyat darajada cheklangan edi. Juda katta qiyinchiliklar bilan qayta tarbiyalanayotgan bo‘ri bo‘ri muhitidagi bolalar shamollash natijasida o‘lib qoladilar. Bu hodisa odamning shaxs sifatida rivojlanishi uchun eng avval insoniy muhit, ya’ni ijtimoiy muhit bo‘lishi kerakligini to‘la tasdiqlaydi. Shaxs va uning psixologiyasiga ta’sir etuvchi ikkinchi omil ta’lim – tarbiyaning ta’siridir.

Ma’lumki, ta’lim – tarbiya inson ongini shakllantiradi, uning dunyoqarashi, e’tiqodi, hayotga bo‘lgan munosabatini tarkib toptiradi. Agar bolalarning ruhiy taraqiyotlari va shaxsiy xususiyatlarning tarkib topishi faqat ijtimoiy muhit bilan, ta’lim – tarbiyaning o‘zigagina bog‘ldiq bo‘lganda edi, unday paytda biz bir



xilda sun’iy va aynan bir xil ta’lim – tarbiya sistemasini tashkil qilib, har tomondan bab-baravar taraqqiy etgan va deyarli bir xil shaxsiy xususiyatlarga ega shaxslarni etishtirib chiqarar edik. Vaholanki, bunday bo‘lishi mumkin emas. Shuni aytib o‘tish kerakki, bola shaxsining tarkib topishiga ta’lim tarbiyaning ta’siri deganda, albatta, birinchi navbatda tarbiya muassasalarida, ya’ni bog‘cha, maktab, internat, litsey va kollejlarda beriladigan tarbiya tushuniladi. Biroq, bunday oilada bolaga beriladigan ta’lim tarbiya mutlaqo mustasno emas. Oiladagi umumiy ijtimoiy muhitdan tashqari oilada beriladigan ta’lim tarbiyaning ham roli kattadir. Bola tarbiyasi bilan sistemai shug‘ullanadigan va umuman shug‘ullanmaydigan oilalarga misol keltirish mumkin. Yuqorida aytib o‘tilgan ikkita odamdan tashqari uchinchi omil ham mavjudki, bu nasliy xususiyatlardir. Odamga nimalar nasliy beriladi? Odamga nasliy yo‘l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlari beriladi. Masalan, tana tuzilishi, sochi va ko‘zlarining rangi, ovozi, gapirish uslublari, ayrim harakatlari tug‘ma berilishi mumkin. Lekin, shuni xech qachon esdan chiqarmaslk kerakki, odamga xech vat uning psixik xususiyatlari, ya’ni uning aqliy tomonlari bilan bog‘liq bo‘lgan sifatlari nasliy yo‘l bilan, ya’ni tug‘ma ravishda nihoyatda nodir hollarda ayrim hollarda ayrim qobiliyatlar, masalan, musiqa, matematik qobiliyatlar nasliy yo‘l bilan berilishi mumkin.

Odamning ruhiy taraqqiyoti va shaxsiy xususiyatlarining tarkib topishi haqida gapirar ekanmiz, yana bir muhim narsa ustida to‘xtalib o‘tish kerak. Hozirgi kunda tez – tez akseleratsiya terminini ishlatyapmiz. Xo‘sh, akseleratsiya bu nima? Akseleratsiya – “tezlatish” degan ma’noni bildiradi. Hozirgi kunda bolalarni ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan juda jadallik bilan rivojlanayotganliklarining guvohi bo‘lib turibmiz. Xo‘sh, buning sababi nima bo‘lishi mumkin? Albatta, bunga turli fikrlar mavjud. Ayrim olimlar akseleratsiyaning sababini ilmiy texnika taraqqiyoti bilan bog‘lab tushuntirishga intimoqdalar. Texnikaning juda jadal temp bilan rivojlanishi bilan insoniyating oldiga mislsiz ko‘p axborotlarni idrok qilish va fikrda qayta ishlash talablarini qo‘yadi. Bu talab o‘z navbatida insonning har tomonlama, ya’ni ham jismoniy ham psixik jihatdan tez rivojlanishiga olib keldi. Yuqorida aytib o‘tilgan

olimlarning fikricha, akseleratsiya – bu 20 asrning ikinchi yarmiga xos bo‘lgan hodisadir.

### 6.2.3. Tarbiyasi "qiyin" bolalar psixologiyasi

"Tarbiyasi qiyin" bolalar pedagogik qarovsizliknatijasidir. L.S.Vigotskiy fikricha, "qiyin" o‘smir hayoti munosabatlar xarakterining natijasidir. Bular avvalo qaysar, injiq bolalar, ularni qiziqarli faoliyat turiga tortish, ularni tarbiyalashning asosiy usullaridan biridir. Ularning ma’lum bir qismi intizomsiz, qo‘pol bolalardir. Ularning faolligini o‘zgartirish, ularga ba’zi huquqlari berish yo‘li bilan ularga ta’sir o‘tkazish mumkin. Psixologiyada "tarbiyasi qiyin" bolalarning bir qancha klassifikatsiyalari mavjud.

Birinchi guruh – ijtimoiy salbiy, mustahkam qarashlarga ega bolalar;

Ikkinchi guruh – qonunbuzarlaga taqlid qiluvchi bolalar;

Uchinchi guruh - ijobiy va salbiy hulq – atvor stereotiplari o‘rtaisda ikkilanuvchi, o‘z xatolarini tushunuvchi bolalardir;

To‘rtinchi guruh – irodali bolalarga bo‘sunuvchilar;

Beshinchi guruh – qonunbuzarlik yo‘liga tasodifan kirib qolganlar;

Shuni aytish lozimki, tarbiyasi og‘ir bolalar uchun, ular yashayotgan muhit, oila, ular o‘qiyotgan jamoa, sinfning roli juda kattadir.



## 6.3. KASB VA SHAXS PSIXOLOGIYASI. TA’LIM JARAYONINI BOSHQARISH NAZARIYALARI

### 6.3.1. Kasb va shaxs

Jahon psixologiyasi fanida shaxsning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlari hamda ularning mexanizmlari muayyan yondashuvlar negizida tadqiq etilgan. Bu borada psixologlar tomonidan shaxsga nsibatan turlicha ta’rif berilagan va uning tuzilishini o‘ziga xos tarzda tasavvur qilishgan.

**Bizningcha (E.G‘), muayyan jamoa a’zosi, jismoniy, jinsiy, ijtimoiy kamolotga erishgan, biologik va ijtimoiy shartlangan hislatlar egasi, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqaruvchi, bilishga intiluvchi, faoliyat, xulq, muomala sub’yekti shaxs deyiladi.**

Quyida ayrim psixologlar talqiniga to‘xtalib o‘tamiz.

A.G.Kovalyovning fikricha, shaxs bu ijtimoiy munosabatlarning ham ob’yekti, ham sub’yektidir.

Yirik rus psixologi A.N.Leontev ushbu masalaga boshqacharoq yondashib, unga shunday ta’rif beradi: shaxs – bu faoliyat sub’yektidir. K.K.Platonovning talqiniga binoan, jamiyatda o‘z rolini anglovchi, ishga layoqatli, yaroqli a’zosi, shaxs deyiladi. Bu muammo mohiyatini chuqurroq ochishga harakat qilgan S.L.Rubinshteyn ta’rificha, shaxs – bu tashqi ta’sirlar yo‘nalishini o‘zgartiruvchi ichki shart – sharoitlar majmuasidir.

Psixologiya fanida bir – biriga yaqin, lekin aynan bir bo‘lmagan tushunchalar qo‘llanilib kelinadi, chunonchi: odam, shaxs, individuallik. Ularning mohiyatini aniqroq izohlab berish uchun har birining psixologik tabiatini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

1. Odam. Sut emizuvchilar sinfiga daxldorlik, biologik jonzot ekanligi odamning o‘ziga xos xususiyatidir. Tik yurishlik, qo‘llarining mehnat faoliyatiga moslashganligi, yuksak taraqqiy etgan miyaga egaligi, sut emizuvchilar tasnifiga kirishi uning o‘ziga xos tomonlarini aks ettiradi. Ijtimoiy jonzot sifatida odam ong bilan qurollanganligi tufayli borliqni ongli aks ettirish qobiliyatidan tashqari o‘z qiziqishlari va ehtiyojlariga mutanosib tarzda uni o‘zgartirish imkoniyatiga ham egadir.

2. Shaxs. Mehnat tufayli hayvonot olamidan ajralib chiqqan va jamiyatda rivojlanuvchi, til yordami bilan boshqa kishilar bilan muloqot (muomala)ga kirishuvchi odam shaxsga aylanadi. Ijtimoiy mohiyati shaxsning asosiy tavsifi hisoblanadi.

3. Individuallik. Har qaysi inson betakror o'ziga xos xususiyatlarga ega. SHaxsning o'ziga xos qirralarining mujassamlashuvi individuallikni vujudga keltiradi. Individual hislatlar shaxsning intellektual, emotsional va irodaviy sohalarida namoyon bo'ladi.

S.L.Rbubinshteyn nazariyasi bo'yicha shaxs quyidagi tuzilishga ega:

1. Yo'nalganlik – ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e'tiqodlar, faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarida ifodalanadi.

2. Bilimlar – hayot va faoliyatda ko'nikmalar, malakalar jarayonida egallanadi.

3. Individual – temperament, tipologik xususiyatlar, xarakter, qobiliyatlar aks etadi.

K.K.Platonov ta'limotiga ko'ra, shaxs tuzilishi quyidagi shaklga ega:

1) Yo'nalganlik ong osti tuzilishi – shaxsning axloqiy qiyofasi va munosabatlarini birlashtiradi. Undan harakatchanlik, barqarorlik, jadallik, ko'lam (hajm) darajalarini farqlash lozim.

2) Ijtimoiy tajriba ong osti tuzilishi – ta'lim vositasida, shaxsiy tajribada egallangan bilimlar, malakalar, ko'nikmalar va odatlarni qamrab oladi.

3) Psixologik aks ettirish shakllari ong osti tuzilishi – ijtimoiy turmush jarayonida shakllanuvchi bilish jarayonlarining individual xususiyatlari.

4) Biologik shartlangan ong osti tuzilishi – miya morfologik va fiziologik xususiyatlariga muayyan darajada bog'liq bo'lgan patologik o'zgarishlarni, shaxsning yosh, jins xususiyatlarini va uning tipologik xosiyatlarini birlashtiradi.

A.G.Kovalev talqiniga binoan, shaxs mana bunday tuzilishga ega:

1. Yo'nalganlik – voqelikka nisbatan inson munosabatini aniqlaydi, unga o'zaro ta'sir etuvchi har xil xususiyatli g'oyaviy va amaliy ustanovkalar, qiziqishlar, ehtiyojlar kiradi. Ustuvor yo'nalganlik shaxsning barcha psixik faoliyatini belgilaydi.

2. Imkoniyatlar – faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshishini ta'minlovchi tizim. O'zaro ta'sir etuvchi va o'zaro bog'liq bo'lgan turlicha qobiliyatlar.

3. Xarakter – ijtimoiy muhitda shaxsning xulq – atvor uslubini aniqlaydi. Odamning ruhiy hayoti shakli va mazmuni unda namoyon bo'ladi. Xarakter tizimidagi irodaviy va ma'naviy sifatlar.

4. Malakalar tizimi – hayot va faoliyat, sifatlar xulq – atvorini tuzatish (korreksiyalash), o'zini o'zi boshqarishni ta'minlaydi

### 6.3.2. Kasbiy etuklik va shaxs komilligi

Jahon psixologiyasi fanida shaxs to'g'risida o'nlab nazariyalar, qarashlar, yondashuvlar mavjud bo'lishiga qaramay, inson kamoloti yuzasidan hanuzgacha umumiy bir fikrga kelinganicha yo'q. Xuddi shu bois insonshunoslikda shaxsga oid bir qator terminlar, tushunchalar, atamalar qo'llanilishi an'ana tusiga kirgan, jumladan, shaxs, inson, odam, kishi, sub'yekt, individ, individuallik, komil inson, shuningdek, unga taalluqli tipiklik va tipologik xususiyatlar shular jumlasidandir. Psixologiya fanida munosabatlar nuqtai nazaridan "sub'yekt – ob'yekt – sub'yektlararo", "subekt – sub'yekt – ob'yektlararo" singari yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning barchasi tabiiy (biologik) va ijtimoiy (sotsial) shartlanganlik manbalaridan kelibchiqqan holda tahlil hamda talqig qilishga asoslangandir.

SHaxsga oid psixoanaliz, analitik psixologiya, individual psixologiya, neofreydizm, beganalashish nazariyasi, gumanistik psixologiya, epigenetik nazariya, fruchtratsiya nazariyasi, rollar nazariyasi, ekzistensial psixologiya, tushunuvchan psixologiya, fransuz sotsiologik maktabi.yu sobiq sovet psixologlarining har xil nazariyalari mavjuddir.

Lekin bu o'rinda shaxsning tuzilishi, uning tabbiiy va ijtimoiy shartlangan xususiyatlari munosabati, tipiklik va tipologik jabhalar, ijtimoiylik va tarixiylik, filogenetik va ontogenetik tomonlari bo'yicha konsepsiyalar mohiyatini tahlil qilish masalasi ilmiy izlanishlarimizning maqsadiga kirmaydi. Xuddi shu sababdan ularning mazmuni, tuzilishi to'g'risida mulohaza yuritish boshqa

sahifalarga mo‘ljallanganligi tufayli nomlarini ta’kidlab o‘tish bilan qanoat hosil qilamiz, xolos.

Uzoq va yaqin chet el psixologlarining qarashlarida kamolot ontogenetik nuqtai nazardan muayyan, qat’iy bosqichlarga ajratilgan holda juda kam tadqiqi qilingan. Shuning uchun biz shaxsan o‘zimiz taklif qilayotgan sxema bo‘yicha mulohaza yuritamiz va kamol topish bosqichlari hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlarining mohiyatini ochib berishga  harakat qilamiz. Ularni quyidagi davrlarga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq: murtaklik (embrional), odam (individ), inson, shaxs, sub’yekt, komil inson.

Shaxsning kamoloti murtaklik davrdan boshlanish to‘g‘risidagi asosli fikrlar A.Vallon, D.Bromley tadqiqotlarida, ayrim psixologlar va psixofiziologlarning maqolalarida uchraydi, xolos. Shu narsani ta’kidlab o‘tish joizki, murtaklik davrining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettirish imkoniyati muayyan darajada mavjud ekanligi nafaqat psixologlar, balki tabiatshunoslar, biologlar, fiziologlar tomonidan tavsiflab berilganligi, tibbiyot mutaxassislarining esa bu borada o‘zlarining qarashlari, yondashuvlari shakllanganligi nazariy mulohaza yuritish uchun asos bo‘lib hizmat qila oladi.

Murtaklik davrini kamolot bosqichiga kiritgan tadqiqotchilar A.Vallon va D.Bromley bo‘lib hisoblanadi. Jumladan, D.Bromley  mazur davrni quyidagi bosqichlarga ajratib tahlil qilishni tavsiya qiladi: zigota – embrional – homila – tug‘ilish oldi. A.Vallon esa ontogenezning tarkibiy qismi sifatida uni kamolot bosqichi qatoriga kiritadi. Mazkur psixologlar murtaklik davrini insonning umumiy kamoloti nuqtai nazaridan tahlil qilmaydilar, balki ular ontogenezning (tug‘ilgandan to umrning oxrigacha davr) tarkibiy qismi sifatida talqin etadilar, xolos. Ushbu davrning o‘ziga xos tomonlari va xususyaitlarini psixologik jihatdan yoritib berishga intiladilar va bu yo‘nalishda ma’lum bir yutuqqa erishishga muyassar bo‘ladilar.

Ularning ilmiy – amaliy mulohazalarini asosli dalil sifatida qabul qilgan holda bu boradagi o‘z shaxsiy mulohazalarimizni bildiramiz. Buning uchun murtaklik davrining muayyan tarkiblardan iborat ekanligini izohlash va tavsiflashning o‘zi kifoya. Jahon psixologlari va fiziologlarining fikriga qaraganda, mazkur kamolot davrining har bir bosqichi o‘ziga xos xususiyatlarga

ega bo‘lib, ma’lum bir ma’noda qulay (sezitiv) palla sifatida muayyan fuknsiya bajaradi.

**Murtaklik**ning zigota (urug‘lanish) bosqichi eng mas’uliyatli davrlaridan biri bo‘lib, u ham tabiiy (biologik), ham sub’yektiv (shaxsiy psixologik), ham ijtimoiy (sotsial) omillar ta’sirida vujudga keladi. Butun mas’uliyat onaning zimmasiga tushadi, binobarin, uning homilaga nisbatan munosabati, unga zarur shart – sharoitlar yaratishi, instiktiv xususiyatli himoya fiunksiyasining ishga tushishi, og‘riq sezgilarining kuchayishi va ulaga nisbatan chidam – bardosh, sabr sifatlari bilan qarama – qarshi tura olishlik zigota yashovchanligini ta’minlaydi.

Onaning xotirjamligi, ayrim qiyinchiliklarni engish hoxishining mavjudligi, tabiiy extiyojlarni qondirish darajasi, nozik ezgu niyatlar va shirin hissiy kechinmalar bilan band ekanligi zigotaning baquvvat o‘sishga zamin hozirlaydi. Attraksiya (mahliyo qiluvchi) tuyg‘ular olamiga onaning tortilganligi, stress (zo‘riqish, tanglik) va affekt (g‘azablanish) holatlariga berilmasligi, shijoat, hayajon, tashvishlanish hislaridan uzoqligi tabiiy go‘zallik vujudga kelishiga imkon yaratadi.

Organizmning sog‘lomligi, tabiiy ehtiyojlar qondirilishi jismoniy o‘sishning jadal borishi uchun puxta negiz yuzaga keltiradi, binobarin, komillikda dastlabki asos solinadi.

Homilalik bosqichi bo‘lg‘usi shaxs uchun muhim ahamiyat kasb etib, jismoniy barkamollikning,asab tizimi, bosh miya katta yarim sharlari, hissiy bilish tana a’zolari paydo bo‘lishining va o‘sishning manbai vazifasini bajaradi. Ushbu bosqichda quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq:

- homilaning jismoniy o‘sishini uzluksiz ravishda ta’minlash uchun oqsillar, vitaminlar va boshqa turdagi ozuqalarga nisbatan tabiiy ehtiyojini qondirib turish;
- unga salbiy ta’sir etuvchi qo‘zg‘atuvchilardan saqlanish, ijobiy his – tuyg‘ular uyg‘otuvchi hodisalar to‘g‘risida ko‘proq o‘ylash;
- qaltis jismoniy va somatik harakatlardan o‘zini tiyib turish, zo‘riqishning uzluksiz ravishda oldini olish;
- homilaga sensor ta’sir o‘tkazishni odatiy psixologik holatga aylantirish;

- kontakt va distant muomala vositalaridan foydalanish;
- shaxslararo munosabatda muloqot maromlariga rioya qilish;
- bioritmika va psixometriya qoidalaridan og‘ishmay foydalanish;
- ijtimoiy hodisalarga nisbatan loqaydroq munosabatda bo‘lish va hokazo.

Tabiiy ehtiyojlarni qondirish, zarur shart – sharoit yaratish, nafosat tuyg‘ulari bilan hamkorlik, kun tartibi asosida faoliyat va xulq harakatlarini amalga oshirish ham tabiiy, ham ma’naviy go‘zallikni shakllantiradi. Orzu, istak, tilak, xohish tuyg‘ulari yordami bilan obrazlarni yaratish tashqi ta’sirning eng kuchli mehanizmi funksiyasini o‘taydi. Hujayralar, neyronlar orqali kirib borayotgan axborotlar qanchalik nozik, nafis, go‘zal bo‘lsa, homilada go‘zallikning ham tabiiy shakli, ham xarakterologik jabhasi o‘z aksini topadi.

Murtaklikning tug‘ilish oldi bosqichi tashqi ta’sirga beriluvchanligi bilan boshqalaridan ajralib turadi, xuddi shu bois bunga alohida ahamiyat berish zarur. Homila o‘zining tuzilishi, tana a’zolarining takomilligi, ularning maqsadga muvofiq harakati bilan chaqaloqqa juda o‘xshab ketadi. Uning boladan farqli o‘laroq tomoni ona organizmi orqali oziqlanish va nafas olishidir. Bu voqelik ilmiy tilda platsentar hodisa deb atalib, jamiiki narsa bir markazdan boshqarilishi yoki ta’minlanishini bildiradi.

Homiladagi ideomotor (ixtiyorsiz) va motor (ichki yoki tashqi ta’sirga maqsadli javob reaksiyasi) harakatlari ortib borishi tug‘ilishi tayyorgarligidan dalolat beradi. Ushbu hatti – harakatlar jajji odamning  qarshilik ko‘rsatishini, ziddiyatli vaziyat vujudga kelayotganligini anglatadi. Onaning u bilan muloqotga kirishuvi tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishning real alomati sifatida namoyon bo‘ladi. Sezgir tibbiyot asboblari yordami bilan uni tekshirib turish dastlabki diagnostik va korreksion ishlarning debochasi hisoblanadi.

Insonda yuz  beradigan subsensor, subseptiv yuksak idrok shakllari tug‘ilish oldi bo‘sag‘asida yorqin namoyon bo‘la boshlaydi. Harakatning sur’ati, mazmuni, davomiyligi sifatlari bo‘yicha bo‘lg‘usi chaqaloqning temperament xususiyatlarini va uning asab tizimi tipini aniqlash imkoniyati mavjud.

Odam (individ)lik davri tug‘ilganidan to unda nutq paydo bo‘lgunga qadar vaqt birligini qamrab oladi. Uning muhim tomonlari mana bunday holatlarda ko‘zga yaqqol tashlanadi:

- embrional davridagi plansentar tizimi o‘rnini oral (mustaqil hazm qilish) egallaydi, ya’ni mustaqil nafas olish, qon aylanish va boshqalar tabiiy ravishda chaqaloqda yuz bera  boshlaydi;
- tabiiy holatlarga va muhitga moslashish (adaptatsiya) tevarak – atrofni bilish boshlanganligidan dalolat beradi;
- har xil turdagi harakatlarni amalga oshirish, jismlarga chang solish, ularga intilish narsalarni bilishga nisbatan harakatini bildiradi;
- ota – ona va qarindosh – urug‘larini tanish, sezgi, idrok, xotira jarayonlari o‘sishini anglatadi;
- jismlarga razm solish, uning tuzilishi va rangi bilan qiziqishi yaqqol tafakkurning ifodasidir;
- unda emotsiya va hissiyotning paydo bo‘lishi, muomalaga kirishi ehtiyojini namoyon etadi;
- emaklash, tik turishga intilish uquvining paydo bo‘layotganligi fazoviy tasavvurni aks ettiradi va boshqalar.

Mazkur davrda shaxslararo munosabatga kirishish, mikro va makro muhit xususiyatlari hamda holatlariga bolaning shaxsiy reaksiyasi, ulardagi o‘xshashlik va farqni ajrata bilish unin o‘sishini bildiradi. So‘z orqali narsalar va hodisalarni ifodalash hamda tushuntirish jarayoni yuzaga kelguniga qadar muomala, xulq, harakat orqali tabiat va jamiyatni sodda tarzda bilish amalga oshadi. Xuddi shu sababdan kamolotning dastlabki bosqichlaridan biri sifatida individuallik davri o‘zini o‘zi anglashga puxta negiz tayyorlaydi.

Inson davri o‘zini o‘zi anglashdan boshlanib, jismoniy, aqliy va ijtimoiy kamolotga erishuv jarayoni amalga oshishi bilan tugallanadi. Ushbu davr insoniy hislatlarni etnik guruh a’zosi sifatida mukammal egallashi bilan boshqa taraqqiyot pallalaridan ajralib turadi. Alohidalikka oid xususiyatlar quyidagilarga o‘z aksini topadi va u ikki bosqichdan iborat bo‘ladi:

1. Nutqning paydo bo‘lishidan to 6-7 yoshgacha:

- bolada fazoviy muvozanatning vujudga kelganligi;

- o‘zini o‘zi anglashdan iborat “Men” davrining mavjudligi;

- nutqda ona tili boyligidan unumli foydalanish imkoniyatining tug‘ilishi;

- milliy urf – odatlarga, xulq – atvor qoidalariga rioya qila olishi;

- muomala maromi, ijtimoiy qadriyatlarni egallashi;

- o‘yin hamda faoliyatning boshqa turlarini o‘zlashtirish negizida milliy va umumbashariy fazilatlarning shakllanganligi;

- individual – tipologik xususiyatlarning aniq namoyon bo‘lishi;

- barcha jihatlari bilan maktab ta’limiga tayyorgarligi;

- guruhiy hamkorlik uquvidan xabardorligi.

2. O‘smirlik davri xususyaitlarining aks etishi:

- jismoniy jihatdan mukammallikka intilishning mavjudligi;

- faoliyat, xulq va muomala jarayonlarida tipologik xususiyatlarga erishilganligi;

- aqliy, axloqiy, xarakterologik xususiyatlari shakllanganligi;

- turli shakldagi va tuzilishdagi (tengqurlari, katta yoshdagilar, rasmiy va norasmiy, real) guruhlarda o‘zini – o‘zi anglashning namoyon qilishi;

- ijtimoiy hayotda va faoliyatda o‘zini – o‘zi tasdiqlashga imkoni borligi;

- ijtimoiy turmushning har bir jabhasida faollik ko‘rsatishi;

- o‘quv fanlariga differensial munosabatning qaror topishi; muayyan e’tiqod, dunyoqarash, shaxsiy munosabatning mavjudligi;

- tashqi ta’sirlarga beriluvchanligi, xulq – atvorga qat’iyatlik etishmasligi;

- fantaziya va o‘ziga bino qo‘yishning ustuvorligi va boshqalar.

Maktab ta’limiga tayyorgarlik bosqichida to‘plangan bilimlar ko‘lami umrning qolgan yillarida kutilishi taxmin qilingan qismining yarmigatengdir. Bundan keyingi davrda o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lgan bilimlar shaklan emas, balki mazmunan, sifat jihatidan boyib, takomillashib boradi, xolos. O‘smirlik davrida insonga berilgan tabiiy imkoniyatlar ro‘yobga chiqadi, ijtimoiylashuv, jismoniy o‘sish jadallashadi, natijada etuklikka puxta shart – sharoitlar yaratadi. Tabiatga, jamiyatga va shaxslararo munosabatga nisbatan shaxsiy pozitsiya – munosabat vujudga keladi. Buning natijasida mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish, xulq - atvor va faoliyatni amalga oshirish imkoniyati tug‘iladi.

Bu holat kamolot ko‘rinishini namoyish etadi, insoniy fazilatlar, hislatlar, sifatlar va xususiyatlar tarkib topganligini bildiradi.

Inson kamolotining shaxs davri etuklikning muayyan bosqichi hisoblanib, ijtimoiy hayot alohida ahamiyat kasb etadi va o‘zining ko‘rsatkichi bilan muhim rol o‘ynaydi. Shaxs davri bir necha taraqqiyot bosqichlarini aks ettirib, unda ilk o‘spirinlik, o‘spirinlik va yoshlikni qamrab oladi.

Uning birinchi bosqichi **balog‘at** deb nomlanib, 15-16 yoshdagi o‘g‘il-qizlarni o‘zida jamlaydi. Bu bosqichda ushbu xususiyatlar ko‘zga bevosita tashlanadi:

- jismoniy barkamollikning ifodalanishi;
- ruhiy jihatdan muayyan ko‘rsatkichga erishganligi;
- ijtimoiy va ijtimoiy psixologik jihatdan muayyan etuklikka erishuv;
- xulq, faoliyat va muomala jarayonlarida individuallikning shakllanishi;
- e’tiqod, dunyoqarash va pozitsiyada barqarorlikning mavjudligi.

Shaxs tarkib topishining ikkinchi bosqichi **ixtisos egallash** deb atalib, 17-18 va 21-23 yoshdagi barkamol yigitlar va bokira qizlardan tashkil topadi, kasbiy faoliyatni egallashning o‘ziga xosligi bilan boshqa taraqqiyot pallalaridan ajralib turadi. Ushbu holatlar o‘ziga xosligi bilan namoyon bo‘ladi:

- bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar egallashdagi individuallik;
- faoliyatning individual uslubining paydo bo‘lishi;
- kasbiy motivatsiyaning ustuvorligi;
- ma’naviy ehtiyoj, barqaror qiziqish, qat’iyat yetakchiligi;
- mutaxassislikka murojaatning shaxsiy pozitsiyaga bo‘ysunganligi;
- kollej va oliy maktab muhitining o‘ziga xosligining ular shaxsiyatida ifodalanish;
- amaliyotga va muhitga moslashishnig sifat jihatdan tafovutlanishi.

Shaxs shakllanishining uchinchi bosqichi **yoshlik davri**dan iborat bo‘lib, ixtisosiy etuklikni o‘zida aks ettiradi. Ko‘pincha barkamollik alomatlari quyidagilarda ifodalanadi:

- kasbiy, ixtisosiy individuallik, betakrorlik, o‘ziga xoslik yuzaga kelishi;
- kasbiy, ixtisosiy mahorat darajasiga erishuv;
- o‘z sohasida tashabbuskorlik xususiyatini namoyish etish;

- ijtimoiy baholash ekspertizasi – tekshirish mezonlariga batamom mos tushishlik.

Shaxsning ma’lumot darajasiga qaramay, yuksak ko‘rsatkichlarga erishuvi uning kamolotidan darak beradi. O‘z sohasida kasbiy, ixtisosiy mahoratini namoyish etish etuklikning yuksak darajasini bildiradi va jamoatchilik fikrida iliq iz qoldiradi. Tashabbuskorlik takliflari, ixtirolari sohadagi muvaffaqiyatni ifodalab berib, betakror shaxs ekanligini isbotlashga xizmat qiladi. Noyob kasb egasi, fenomenal qobiliyatli, iste’dodli etuk shaxs shakllanganligi ijtimoiy – tarixiy voqelik sifatida yuksak baholanadi.

Inson kamolotining navbatdagi davri sub’yekt darajasiga o‘sib o‘tishi mumkin emas, lekin uning ayrim xususiyatlarini egallash imkoniyatiga egadir. **Sub’yekt o‘zining mana shu xususiyatlari bilan shaxsdan tafovutlanadi:**

- xulq – atvorda, faoliyatda, muomalada mustaqillikning ustuvorligi;
- ijtimoiy hayotning har bir jabhasida shaxsiy pozitsiyaga egalik;
- ilg‘or insonparvarlik g‘oyalarini ilgari surish va originalligi, nostandartligi, innovatsion ekanligi bilan ajralib turishlik;
- g‘oyalarni qaror toptirishda ob’yektiv va sub’yektiv to‘siqlarni engish.

*Sub’yektning eng muhim ko‘rsatkichi – bu professionalizmga erishuv va ijtimoiy – siysiy etuklikni namoyish qilishdir.* Nomdor mutaxassislar, fan va texnika, jamoat arboblari, ijodiy – tarixiy fikrlovchilar, siyosatchilar, davlat rahbarlari sub’yekt bosqichida faoliyat ko‘rsatishlari mumkin. Shuning uchun ushbu vaziyatda ommaviylikka erishishga intilish jamiyatning taraqqiyotini tezlashtirish sari etaklaydi, fidoiy, tooliqmas kishilar safini kengaytirishga xizmat qiladi.

Komil inson g‘oyasi insoniyatning asriy orzusi bo‘lib hisoblanadi va ushbu darajaga erishish borliqni, tabiatni, jamiyatni bilishning muhim manbai sanaladi. Komil inson to‘g‘risida tasavvuf, so‘fizim ilmiy maktablari muayyan ma’lumotlar to‘plashga muvaffaq bo‘lganlar, shuningdek, bu mavzuga oid qarashlar jahonning insonparvarlik g‘oyalari bilan qurollangan allomalarning izlanishlarida alohida o‘rin egallagan. Ularning nazariyalariga tanqidiy munosabatni bildirish mavridi bo‘lmaganligi sababli faqat ta’kidlab o‘tish bilan kifoyalanamiz, binobarin, tariqat, haqiqat, ma’rifat to‘g‘risida mulohaza

yuritmaymiz. Aksincha, bu borada oʻzimizning shaxsiy qaqrashlarimizni bayon qilamiz xolos. Bizningcha, hozirgi zamon nuqtai nazaridan mazkur muammoga yondashsak, komil insonlikni toʻrt bosqichga ajratib talqin qilish maqsadga muvofiq boʻladi.

1. Inson kamolotining bu bosqichiga kelib oʻzining sohasi boʻyicha piri ixtisos darajasiga erishadi. Buning natijasida etuk inson hayot va faoliyatda ijtimoiy – tarixiy psixologik namumna bosqichiga oʻsib oʻtadi, oʻzining salohiyati bilan sohani taraqqiy ettirish manbaiga aylanadi. Individuallik namunasi milliy va insoniy ahamiyat kasb etadi, taraqqiyotni harakatlantiruvchi mexanizm vaxifasini bajaradi. Bu bosqichdagi insonlarning asosiy xususiyatlari quyidagilarda oʻz aksini topadi:

- yuksak aql – zakovatga egalik, intellektual faoliyatda mahsuldorlik;
- antipatsiya kundalik faoliyat mahsuliga aylanganlik , ya'ni amalga oshirish rejalashtirilgan faoliyat natijasining oldindan modelini yaratish;
- xulq, faoliyat, muomala jarayolari oʻz imkoniyatini oqilona baholash va oʻzgalar tomonidan xuddi shunday darajaga erishish;
- sohaga oid talant va salohiyatning amaliy ifodalanishini ta'minlash.

2. Ixtisoslararo bilimdonlik komil inson kamolotining navbatdagi yuksak bosqichi boʻlib, hozirgi davrda bir necha sohalar boʻyicha mukammal bilimlarga, qarashlarga egaligi bilan tavsiflanadi. Sohalarning kengayishi tufayli bu darajaga erishish imkoniyati tobora cheklanib bormoqda, chunki fan va texnika jadal suratlar bilan oʻsishi, axborotlar salmogʻining soniya sayin ortishi vaqt taqchilligini keltirib chiqarmoqda. Fazoviy va vizual munosabatlar toʻgʻrisidagi miqdor hamda sifat oʻzgarishlari inson da'vosi bilan uning imkoniyati oʻrtasidagi ziddiyatli holatlarni vujudga keltirmoqda.

Ixtisoslararo bilimdonlik oʻziga xos ikki xususiyati bilan boshqa kamolot bosqichlaridan ajralib turadi:

- uzluksiz ravishda kashfiyotlarni amalga oshirishga qobillik;
- har bir ixtisos predmetiga oid qarashlarda mukammallikka, sermahsullikka va dinamizmga erishish.

3. Komil insonning navbatdagi kamolot bosqichi aqliy donishmandlik deb atalib, tabiatga va jamiyatga, biosfera va noosferaga nisbatan super onglilik

ko‘rsatkichiga erishish bilan tavsiflanadi. Aqliy donishmandlik axloqiy madaniyat, yuksak his – tuyg‘ular, muomala maromi, tabiat va jamiyat normalariga rioya qilishlik bilan uzviy uyg‘unlikda hukm suradi. Axloqiy etuklik siyosiy, xuquqiy, iqtisodiy ong ko‘rinishlariga oqilona yondashishni ta’minlaydi.

Aqliy donishmandlik axloqiy, intellektual, estetik va praksik (mehnat natijasidan lazzatlanish) yuksak his – tuyg‘ular manbasiga bevosita asoslansa, to‘kislik, mukammallik namunasini aks ettiradi. Ma’naviy barkamollik etuklikning tarkibiy qismlari bilan bir tekis qurollantiradi, xulq, faoliyat va muomala regulyatori funksiyasini o‘taydi.

4. Umumbashariy daholik jamiyat va taraqqiyot taqozosi bilan vujudga keluvchi imkoniyat yoki zaruriyatning mahsulidir. Fan, texnika, siyosat, din, davlat qurilishi sohasida keskin o‘zgarishni amalga oshiruvchi tarixiy shaxslar kamolotining oxirgi bosqichiga erishishi mumkin. Bunday darajaga erishganlar o‘zlarining valeligi, bashoratchanligi bilan davrdan, zamondan ancha ilgarilab ketish hollari bilan tavsiflanadi.

Komil insonlik to‘g‘risidagi mulohazalar ideal sharoitni aks ettirishga qaratilganligini ta’kidlab o‘tish joiz. Chunki reallikdan uzoqlashish unga erishish imkoniyati mavjud emasligini bildirmaydi, aksincha, inson o‘zini – o‘zi kashf qilish, o‘zini ro‘yobga chiqarish, qulay shart – sharoitlar yaratishorqali yuksak darajaga erishsa bo‘ladi. Lekin, komil insonlikka qo‘yiladigan talablar darajasiga nisbiy yondashish, mezonlarni ixchamlashtirish orqali komil insonni shakllantirish mumkin.

### 6.3.3. Shaxsiy fazilatlarning kasb tanlashdagi roli

O‘spirinlarning bilish jarayonlari va temperament xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbga yo‘llash maqsadga muvofiq.

Sezgilar deganda, moddiy dunyodagi narsalarning ayrim xossalari va hodisalar insonning sezgi organlariga ta’sir etib, muayyan tanlovdan (seleksiyadan) o‘tgandan keyin uning ongida aks ettirilishi tushuniladi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, sezgi insonlarning tashqi ta’sirini qabul qilish qobiliyati va shunday ta’sirdan olingan his – tuyg‘u, bilish jarayonining sodda

va boshlang‘ich shakli, bosqichi hisoblanadi. Sezgilar uch guruhga bo‘lib o‘rganiladi:

1) **ko‘rish, hid bilish, tam sezish, tuyush ekstroretseptiv sezgilar;**

2) **organik sezgilar, ya’ni ichki organlarning faoliyati to‘g‘risida xabar berib turuvchi – interoretseptiv sezgilar;**

3) **kinestetik (harakat), muvozanat, tebranish (vibratsiya) – propriotseptiv sezgilar.**

**Sezgirlik** deganda, sezish qobiliyatining yuksak darajada rivojlanganligi tushuniladi. Kasb tanlashda shaxsning sezgirlig muhim rol o‘ynaydi. Havo musaffo paytda ko‘zimiz 25 kilometr masofadagi shamning yorug‘ini ilg‘aydi. Buyumning og‘irligiga atigi 3-4 gramm qo‘shilishi bilan sezgi organlarimiz og‘irlik o‘zgarganligini seza oladi. Sezgi organlarining farq sezish chegarasi yorug‘lik uchun – qo‘zg‘alish (ta’sir)ning yuzdan bir, tovush uchun – o‘ndan bir, bosim uchun – uchdan bir birligiga teng. Insonning ko‘zi yarim millionga yaqin rang – tusni ajrata oladi. Bundan chiqadigan asosiy xulosa shundan iboratki, farqni sezish chegarasining past yoki yuqori bo‘lishi ko‘pchilik kasb – hunarlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Sezgi organlarining atrof – muhitdagi o‘zgarishlarga moslashuvchanlik qobiliyati nihoyatda kuchli. Masalan, ko‘zning yorug‘lik nurlariga nisbatan sezgirlik darajasi 200000 (ikki yuz ming) baravar orttirishi, binobarin, ko‘z qorachig‘i 17 baravar kattalashishi mumkin. Odatda har qaysi shaxsning sezish qobiliyati har xil darajada rivojlangan bo‘ladi.

Sezgirlik shaxsning muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, ma’lum faoliyat turi bilan shug‘ullanish sezgirlikni oshiradi. Buning uchun inson muntazam ravishda mashq qilishi va mashq jarayonida sezgirlikka nisbatan talabni oshira borishi, ishda sustlikka yo‘l qo‘ymaslik zarur. O‘spirinlarning rug‘iy tetikligini, jismoniy faolligini oshirish, mehnatga, kasb – hunarga qiziqtirish ularning sezgirligi, ziyrakligini oshirish garovidir.

Ayni paytda sezgi organlariga ta’sir etayotgan ob’yektni mavjudod, narsa va hodisalarning inson ongidagi in’ikosi idrok deb ataladi. Verbal va noverbal xususiyatlari bilan boshqa bilish jarayonlaridan farqlanadi. Idrok voqelikni aks

ettirishning sezgiga nisbatan yuksak shakli bo‘lib, hodisalar, narsalar va ob’yektlarning yaxlit obrazini yaratadi.

O‘spirinlarni o‘qishi, mehnat faoliyati, muomala jarayoni, kasb tanlashi uchun fazo va vaqtni idrok qilishning katta ahamiyati bor. Har qanday kasb – hunar, ixtisos va mutaxassislik uchun ish sur’ati, vaqt, ish qurollari, vositalarining fazoda qanday joylashganligini aniq bilish talab qilinadi. Shaxsan kasbga yo‘llashda uning olamni idrok qilish imkoniyatidan iborat fazilati va kuzatuvchanligi alohida rol o‘ynaydi. Ba’zi birovlar moddiy narsalarga nisbatan kuzatuvchan bo‘lsa, boshqalar psixologik jihatdan kuzatuvchandir. Shaxsning atrov muhitdagi narsa va hodisalar haqida chuqur fikr yurita bilishi uning idroklilik darajasiga bog‘liq bo‘lib, bu fazilat kasb tanlashda juda asqotadi.

Biror kimsa, narsa yoki hodisa haqidagi taassurotni esda saqlab, eslab qolish va keyinchalik esga tushirish, reproduktiv va produktiv holatni aks ettirish qobiliyati – **xotira** deb ataladi. Xotiraning hayot, faoliyat, muomala va xulq – atvor jarayonlarini aks ettirish qobiliyati muhim hislatdir.

*Xarakat xotirasi* (harakatni eslab qolish, esga tushirish, esda saqlash, tanish, eslash, takrorlash), *emotsional xotira* (his – tuyg‘ular bilan aloqador emotsional kechinmalarning voqelik bilan uyg‘unligi), *tasavvur xotirasi* (buyumlarning ko‘rinishi, shakli, qiyofasini eslab qolish va esga tushirish), *so‘z – mantiq xotirasi* (so‘zlar va nutq bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan fikrlarni eslab qolish hamda esga tushirish) va boshqalar farq qilinadi.

Bundan tashqari, xotira faoliyatning maqsadiga qarab ixtiyoriy va ixtiyorsiz eslab qolish va esda saqlash, muddatiga qarab – qisqa muddatli, uzoq muddatli, operativ va boshqa xotira degan turlarga ham ajratiladi. Xotira o‘z navbatida ko‘rgazmali, obrazli, so‘z – mantiq, abstrakt, harakatli va oraliq tiplarga ham ajratilib o‘rganiladi.

Yoshlarni kasbga yo‘llashda ularning xotirasidagi shaxsiy farqlarni hisobga olish maqsadga muvofiq. O‘quv materiallarining turli tumanligi xotirani o‘tkirlashtirish, rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Chunki, kasb – hunarning xilma – xilligi xotiraning o‘tkirligini talab qiladi.

Xotiraning hamma turlari, o‘ziga xos jihatlari kasb – hunar, ixtisos, mutaxassislik tanlashda, turli – tuman kasblar to‘g‘risidagi ma’lumot

axborotlarni o‘zlashtirish, eslab qolish va keyinchalik esga tushirishda juda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, ixtisosni egallash uchun xotiraning yuqorida ta’riflab berilgan turlaridan birortasi albatta kerak bo‘lib qoladi. Bu esa, o‘z navbatida ishning samarali bajarilishini ta’minlaydi.

Aqliy mehnat bilan shug‘ullanuvchilarning xotirasi ayniqsa o‘tkir bo‘lishi lozim. Tafakkur voqelikning miyada bevosita zuhur etilgan mavhum va umumlashtirilgan in’ikosi bo‘lib, insonning olam haqidagi bilimining asosiy manbai bo‘lgan sezgilari, idroki va tasavvurlari hamda amaliy faoliyati bilan bog‘liqdir. Tafakkur shaxsni bilimlar tizimi bilan qurollantiradi, qudratli tabiat kuchlarini o‘ziga bo‘ysundirish uchun imkon tug‘diradi. Barcha bilimlar fikr yuritish yo‘li bilan o‘zlashtiriladi. Bilimlarni anglash natijasida tushunchalar, mulohazalar va xulosalar kelib chiqadi. Inson fikrlash, mulohaza yuritish, ijodiy izlanish natijasida muammolar va muammoli vaziyatlar hal qilinadi, yangilik yaratadi, ijod (kreatsiya) qiladi.

Aqliy qobiliyat insonga xos yuksak fazilat bo‘lib, muayyan operatsiyalar, xatti – harakatlar yordami bilan ro‘yobga chiqadi. Inson mehnat faoliyatining barcha sohalarida o‘zining aqliy qobiliyatidan samarali foydalanmog‘i lozim.

O‘spirinlarning fikr yuritish qobiliyatini aniqlovchi muhim mezonlardan biri muammoli vaziyatdir. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni yoki talabalarni muammoli vaziyatni, topshiriqni echishga o‘rgatish ularning bu aqliy qobiliyatini rivojlantirishga katta yordam beradi. Buning uchun talabalarga muammoli, jumboqli topshiriqni yechish bosqichlarini ta’riflab berish joiz. Bunda qo‘yiladigan muammoning mohiyati tushuntiriladi, uni echish usullari, vositalari qidiriladi, tanlangan usul hamda vositalardan foydalanib muammo echiladi, uning to‘g‘ri echilganligi tekshiriladi va hokazo.

Ta’lim oldiga qo‘yilgan maqsadga erishish uchun bir element ortiqcha berilgan yoki biror sharti yetishmaydigan, yo bo‘lmasa o‘zaro mantiqan bog‘lanmagan topshiriq hamda masalalardan muammo sifatida foydalanilsa juda qimmatli natija olinadi. Qo‘yilgan muammoning kasb – hunarga aloqador bo‘lgani ma’qul. Muammoni hal qilishda tafakkurning mustaqilligi, ixchamligi, tezligi, mantiqiyligi, izchilligi, o‘tkirligi, teranligi, mahsuldorligi juda katta ahamiyatga ega.

Xullas, tafakkurning hozirgacha foydalanilayotgan imkoniyatlarini zudlik bilan ishga solish kasb tanlash samarasini oshirish ishiga xizmat qilishga ishonchimiz komil.

**Hayolot (fantaziya)** ob'yektiv voqelikni inson ongidagi o'ziga xos in'ikosi, real yoki noreal hodisalar haqidagi o'y, fikr, farazga asoslangan tasavvurlar majmuasidir. Bironta, xatto eng chalkash faraziy tasavvur ham shaxs aqlning faqat sub'yektiv mahsuli hisoblanmaydi, oqibat natijada bu tasavvurda ob'yektiv voqelik aks ettirilgan bo'ladi. Shunga ko'ra inson faoliyatining qanday turi uchun, shu jumladan olimning faraz yaratishi, voqelikni bashorat qilish, hodisalarning sabablarini taxmin etish uchun hayolot juda zarurdir. O'quvchi yoki talabaning faraziy tasavvuri yetarlicha rivojlanmagan bo'lsa, ta'lim jarayonida ko'zlangan maqsadga erisha olmaydi.

Yangilik yaratishga intilgan har qanday shaxsni ijodiy farazsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Yangilik yaratish yo'llari faraz qilish jarayonida vujudga keladi. Inson, orzu, ezgu niyat qilmasdan, hayol surmasdan, o'ylamasdan yashay olmaydi. Ijodiy izlanish shaxsning psixologik tavsifi uchun katta ahamiyatga ega. shaxsning hayol surish, faraz qilish, tasavvur etish qobiliyatiga qarab uning ma'naviy dunyosi to'g'risida muayyan darajada aniq fikrga kelish mumkin. Inson faraziy obrazlar, timsollar, tasvirlar tufayli tobora sezgir, mehribon, xushmuomala, saxiy bo'ladi.

Shunday qilib, faol bilish jarayoni inson faoliyatining hamma turlarida bir tekis ishtirok etadi va aks ettirishning mukammal bilish imkoniyatini kafolatlaydi. Bilish jarayonining xususiyatlari, mexanizmlari va qonuniyatlariga tayanib ish tutgan shaxs kamroq xato qiladi. Bu omillar uning xatolariga nisbatan ongli munosabatda bo'lishiga, yo'l qo'ygan kamchiliklarni o'z vaqtida tuzatishga imkon yaratadi.

Shaxsning xulq – atvori, temperamenti, salohiyati va boshqa hislatlari kasb tanlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Temperament shaxsning rug'iy xususiyatlaridan biri bo'lib, alohida olingan inson shaxsida ruhiy jarayon va faoliyatning vujudga kelishi, o'tishi, kechishi va dinamikasini belgilab beradi. Lekin psixik faoliyat temperamentga emas, balki shaxsiy sabablarga va shaxsning ruhiy holatiga bog'liqdir.

Xuddi shu boisdan inson, temperamentidan qat'i nazar, mas'uliyat hissini sezsa, o'z kasbida g'ayrat bilan ishlaydi, kasbini yoqtirmasa, aksincha, sustkashlik qiladi.

***Temperament inson psixik faoliyatining xususiyati bo'lib, fiziologik asosini, asab tizimining tiplari, oliy asab faoliyati qonuniyatlari tashkil etadi. Temperament to'rtta asosiy tipga ajratiladi: sangvinik (xushchaqchaq), fligmatik (bo'shang, og'ir), melanxolik (g'amgin), xolerik (qiziqqon).***

Temperament shaxsning bama'niligini; dunyoqarashi, nuqtai nazari, e'tiqodi, qiziqishlari va hokazolarni ko'rsatuvchi belgi emas.

Hozirgi davrda temperament tiplarining psixologik ta'rifi senzitivlik, reaktivlik, aktivlik, ta'sirlanish tezligi, labillik, dinamiklik, reaktivlik bilan aktivlik munosabatlarning muvozanati, harakatning ravonligi, rigidlik (qotib qolganlik), ekstrovertlik va introvertlik kabi xususiyatlariga asoslanib tuziladi. Psixologiya fanida temperamentning o'ttizdan ortiq (ba'zan qirqdan ko'proq) tipidan olingan. Amaliyotda esa asosan ekstrovert va introvert tiplari ko'proq qo'llaniladi. Shaxsni kasbga yo'llash jarayonida temperamentning psixologik ta'rifi berilishi shart.

**Sangvinik** – juda faol, har bir narsaga ham qattiq kulaveradi, yolg'on dalillarga jahli chiqadi. Ob'yektlar, ma'ruzalar diqqatini tez jalb etadi. Imo – ishorani ko'p ishlatadi, chehrasiga qarab kayfiyatini anglash olish qiyin emas. Juda sezgir bo'lishiga qaramay kuchsiz ta'sir (qo'zg'atuvchilar)ni seza olmaydi, serg'ayrat, ishchan, toliqmas. Faollik bilan reaktivlik munosabati muvozanatda, intizomli, o'zini tiya biladi, boshqara oladi. Xatti – harakati jo'shqin, nutq sur'ati tez, yangilikni tez payqaydi, aql – idroki tiyrak, topqir, qiziqishlari, kayfiyati, intilishlari o'zgaruvchan. Ko'nikma va malakalarni tez egallaydi. Ko'ngli ochiq, dilkash, muloqotga (muomalaga) tez kirishadi. Hayoloti (fantaziyasi) yuksak darajada rivojlangan, tashqi ta'sirlarga hozirjavob va hokazo.

**Xolerik** – sust senzitivlik xususiyatiga ega. juda faol va reaktiv. Ko'pincha reaktivligi faolligidan ustun keladi. Betoqat, serzarda, tinimsiz. Sangvinikka qaraganda silliqroq, ammo qotib qolgan.

Qiziqishlari, intilishlari barqaror, xatti – harakatida qat’iy lik mavjud. Biroq, diqqatini bir ob’yektga to‘plashga qiynaladi. Nutq sur’ati tez va hokazo.

**Flegmatik** – senzitivligi sust. His – tuyg‘usi ham o‘zgaruvchan, shunga ko‘ra bunday shaxsni kuldirish, jahlini chiqarish, kayfiyatini buzish qiyin. Ko‘ngilsiz hodisa, havf – xatar haqidagi xabarga xotirjamlik bilan munosabatda bo‘ladi. Vazmin, kamharakat. Imo – ishoralari, mimikasi ko‘zga yaqqol tashlanadi. Lekin, serg‘ayrat, ishchan, faol, chidamli, matonatli. Nutq va harakat sur’ati sust. Farosati qiyiqroq. Diqqatni to‘plashi sekin. Qotib qolgan (regid). Diqqatni ko‘chirish qiyin. Intravertlashgan. Ichdan top. YAngilikni qabul qilish qiyin. Tashqi taassurotlariga sustlik bilan javob beradi.

**Melanxolik** – senzitivligi yuksak. Sezgi chegarasi keng emas. Arazchan, xafaqon. Jimgina yig‘laydi, kam kuladi. Sustkash. Tortinchoq, g‘ayratsiz. Qat’iyligi va mustaqilligi kam. Tez toliqadi. Ortiqcha ishchan emas. Diqqati beqaror. His – tuyg‘usi sust o‘zgaradi. Qotib qolgan. Intravertlashgan.

Temperament tiplari xususiyatlarini faoliyat talablariga moslashtirish mumkin, buning uchun:

*1. Kasb – hunarning talabalar temperamentiga mos keladigan turini tanlash kerak. Shaxsning psixik xususiyatlariga mos tushadigan kasbni tanlash, kasbiy saralash deb yuritiladi;*

*2. Talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish loo‘im;*

*3. Temperamentga xos kamchiliklarini (illatlarini) bartaraf etish kerak. Demak, shaxsni qaytadan shakllantirish yo‘li bilan temperamentni faoliyat talablariga qisman moslash mumkin;*

*4. Individual uslubni shakllantirish zarur. Talabaning faoliyatga ongli, faol va ijodiy munosabatda bo‘lishi buning uchun eng zarur shartdir.*

Shaxsning xulq – atvor xususiyatlari uni faoliyatiga undovchi asosiy omil hisoblanadi.

Psixologiya fani shaxsning fe’l – atvori xususiyatlarini to‘rt guruhga ajratib o‘rganadi:

*1. Jamoa va alohida shaxsga nisbatan munosabatlarini ifodalovchi fazilatlar: yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik, faxrlanish va boshqalar;*

*2. Mehnatga nisbatan munosabatni bildiruvchi xususiyatlari: mehnatsevarlik, yalqovlik, vijdonlilik, mas'uliyatlilik va hokazo;*

*3. Narsalarga nisbatan munosabatni anglatuvchi sifatlar: ozodalik, sarishtalik, avaylash va shu kabilar;*

4. *O'z – o'ziga nisbatan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar: izzat nafslilik, kerilishlik, dimog'dorlik, kamtarinlik va hokazo*.

Xulq atvor xususiyatlarning shakllanishida o'qish va mehnat faoliyati yetakchi rol o'ynaydi, chunki o'qish va mehnat jarayonida qo'llaniladigan individual usullar xulq – atvorga ta'sir etib, uning ayrim xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Ko'pgina xususiyatlar o'zgaga taqlid qilish natijasida ham paydo bo'ladi. Xulq atvorga janjalli (nizoli) vaziyatlar ham ta'sir ko'rsatadi. Inson umrining oxirigacha o'z xatti – harakatlarini boshqarib, xulq atvorini o'zi baqarorlashtirgan bo'lsa, kasb – hunar tanlashga shunchalik oqilona va qat'iyatlilik bilan yondashiladi.

Talabalar va o'quvchilar qobiliyati, layoqati ta'lim jarayonida va mehnat faoliyatida tobora rivojlanadi. Qobiliyat taraqqiyotining yuksak bosqichiga talant, iste'dod deyiladi. Iste'dod murakkab ishni (faoliyat) muvaffaqiyatli, mustaqil va mohirona bajarishga (amalga oshirishga) imkon beradigan qobiliyatlar tizimidir (biologik shartlangan hislatlardan bittasidir).

O'spirinlarning qanchalik iste'dodli ekanligini aniqlash uchun ushbu xususiyatlarga e'tibor berish lozim:

*1. Shaxsning ziyrakligi, jiddiy sinovga shayligi, tayyorligi;*

*2. Shaxsning mehnatga moyilligi, unga extiyoj sezishi;*

*3. Mantiqiy fikr yuritish tezligi, izchanligi, samaradorligi, tashabbuskorligi va boshqalar.*

Shaxsiy xususiyatlar va qobiliyatlar tug'ma bo'lmaydi (tabiiy alomatlari, moyilligi mavjuddir), balki ijtimoiy, shaxsiy hayot va faoliyat jarayonida muayyan omillar, manbalar ta'siri ostida tarkib topadi. Lekin layoqatlilik qobiliyatining tabiiy zamini ekanligi shubhasizdir. U qobiliyat taraqqiyotining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo'ladi. Unda miya tuzilishi, sezgi a'zolari va harakatlarining morfologik hamda funksional xususiyatlari layoqatga nisbatan beriladi.

Yoshlarni kasbga yo‘llashda ularni his – tuyg‘ulari va irodalarini hisobga olishning ham ahamiyati qiymatli, chunki talabalarning (o‘quvchilarning) his – tuyg‘usi, kayfiyati, stress va ob’yektiv holatlari o‘rganilmasa va e’tiborga olinmasa, ko‘zlangan, “Karlar tayyorlashning milliy dasturi”dagi ulug‘vor maqsadga erishib bo‘lmaydi. Buning uchun iste’dodli yoshlarni tanlash, ularni individual o‘qitish, zarur shart – sharoitlar yaratish, reyting va modul tizimlari asosida ularga saboq berish ta’limning davlat standartlari talabiga javob beradigan, komil insonlikka intiluvchi shaxslarni kamol toptirish kafolatidir.

Shunday qilib, kasbga yo‘llash jarayonida shaxsning individual – tipologik xususiyatlari va his – tuyg‘ularini, layoqat, iste’dodni hisobga olish, shuningdek, yoshlarni fan asoslari va psixologik bilimlar bilan qurollantirish ularning kasb – hunar, ixtisoslik, mutaxassislik oldiga qo‘yiladigan psixografik, professiogrammali talablarga moslashishga imkon beradi.

### 6.3.4. Ta’lim jarayonini boshqarish nazariyalari

Boshqarish tushunchasi kibernetika faniga ilmiy – texnika revolyusiyasining natijasida xalq xo‘jaligining tarmoqlarini idora qilish sifatida (avtomat moslama, pult boshqarish, programmalashtirilgan elektron hisoblash mashinalari, kompyuterlar, displeylar, signalizatsiya, texnik qurilmalar) kirib keldi. Mazkur tushuncha asta – sekin yakka shaxs faoliyatiga tadbiq qilina boshlandi, pirovardida ta’lim va tarbiya tizimini boshqarishda ham qo‘llanilishga kirishildi.

Ta’limni optimal boshqarish maqsadida sobiq sovet psixologlari “o‘quv faoliyatini bosqichli shakllantirish” (P.Ya.Galperin, N.F.Talizina), “o‘qitish mazmunini tezlashtirish va murakkablashtirish” (L.V.Zankov), “nazariy umumlashtirish va refleksiya” (D.B.Elkonin, V.V.Davidov) g‘oyalarini ishlab chiqdilar. Shuningdek, ta’limni algoritmlashtirish, programmalashtirish, suggesteziya (G.Lazanov), muammoli vaziyatni tashkil qilish (T.V.Kudryavsev, A.M.Matyushkin va boshqalar) nazariyalarini olg‘a suradilar. Mazkur g‘oyalarning barchasi rivojlantiruvchi ta’lim samaradorligini oshirishni tadqiq qilishga qaratilgandir.

Psixologiya fanida ong va faoliyat birligi prinsipining vujudga kelishi psixologik holatlar, xususiyatlar, hislatlar faoliyatda namoyon bo‘ladi va unda shakllanadi, degan yangi tezisni maydonga tashladi. Yangicha bunday talqin psixologiya fanining rivojlanishi, sohalarning kengayishi uchun muhim imkoniyatlar ochib berdi. Mazkur prinsip I.M.Sechenovning psixik faoliyat zamirida boshmiya reflektor faoliyati yotdai, degan ta’limotidan kelib chiqadi. Keyinchalik bu g‘oya I.P.Pavlovning ta’limotida rivojlantirildi va qator qonuniyatlar kashf etildi.

Ong va faoliyat birligi prinsipi dastavval S.L.Rubinshteyn tomonidan dalillab berildi. Muallif tashqi sabablar, omillar ichki shart – sharoitlarning bevosita ta’siri orqali harakat qiladi, deb tushuntirdi. Mazkur muammoga sal boshqacharoq yondoshgan P.P.Blonskiy esa insonning barcha faoliyatlari ijtimoiy xususiyatga ega ekanligini, shaxsning xatti – harakati jamiyatdagi xatti – harakatlarining tarkibiy qismi bo‘lishligini ta’kidladi. M.Ya.Basov bo‘lsa faoliyatni o‘yin, professional mehnat shakllarini ta’riflab, inson shaxsining tarkib topishidagi ta’sirini ifodalab bergan. L.S.Vigotskiy talqiniga ko‘ra, inson sirtdan miya bilan aloqa o‘rnatadi, uning yordami orqali gavdasini idora qiladi. Odamlarning ijtimoiy aloqalari va xatti – harakatlari imo – ishora va nutqqa suyangan holda faoliyatni vujudga keltiradi. A.N.Leontev inson faoliyati psixik va amaliy shakllari mavjudligini tavsiflab, bola ongi aynan o‘qish, mehnat, o‘yin faoliyatlarini amalga oshirish jarayonida o‘sadi, degan g‘oyani olg‘a suradi.

Psixologik ilmiy adabiyotlarda o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini bavosita va bevosita boshqarish imkoniyatlari qayd qilib o‘tilgan. O‘quv faoliyatining boshqarishning eng muhim xususiyatlaridan biri – bu turli usullarni tatbiq etish, maxsus ravishda o‘qitishni joriy qilish, har xil xususiyatga molik didaktik metodlardan foydalanishdan iboratdir.

Yu.A.Samarin assotsiatsiyalarga asoslangan holda o‘quv faoliyatini boshqarish mumkinligi nazariyasini o‘rtaga tashladi. Assotsiatsiyalar – ongimizdagi avvalgi turmush tajribalari bilan belgilanadigan tasavvurlarning o‘xshashlik, yondoshlik, qarama – qarshilik belgilariga ko‘ra, shunga bog‘liq bo‘lgan boshqa tasavvurlarni hosil qilishdir. Yu.A.Samarin assotsiatsiyalarning alohida tomonlarga taalluqli bilimlarni sistemaga tushirish, ma’lum o‘quv

predmetlariga oid bilimlarni tartibga solish, turli fanlardan to‘plangan xilma – xil bilimlarni  tartibga solish, turli fanlardan to‘plangan xilma – xil bilimlarni sistemalashtirish kabi bosqichlarga bo‘lib o‘rganadi.

E.N.Kabanova – Meller har qanday faoliyat u yoki bu usullar yordamida amalga oshiriladi va ular o‘sha vositalar yordamida boshqarilishi mumkin, deydi. Muallif mazkur aqliy faoliyat usullari o‘z navbatida katta yoki kichik sistemaga birlashgan xatti – harakatlar tizimidan iborat deb tushuntiradi. Usullar ob’yektiv ravishda tavsiyalar, qoidalar, yo‘riqlar ko‘rinishida ifodalanadi. O‘zlashtirilgan o‘quv faoliyati usullari insonning ma’naviy boyligiga aylanib, istagan vaqtda yangi vaziyatlarga va sharoitlarga ko‘chirilishi mumkin.

D.B.Elkonin o‘quvchilarni o‘quv faoliyatini boshqarishga o‘rgatish uchun:

1) topshiriqni echish uchun vositalar tanlash;

2) psixologik topshiriqlarni echish uchun o‘z – o‘zini nazorat qilishni amalga oshirish;

3) bilimlarni o‘zlashtirish darajasini baholash;

4) o‘z – o‘zini tekshirish;

5) o‘z oldiga maqsad qo‘ya olish;

6) simvollar bilan predmetning ichki munosabatlari mavjudligini tushunish kabi jihatlariga e’tibor qilishni uqtirib o‘tadi.

Psixologlarning tadqiqotlari tahlilining ko‘rsatishicha, programmalashtirilgan ta’lim o‘qitishni bevosita boshqarish va nazorat qilish imkonini yaratadi. Programmalashtirish prinsipi bo‘yicha talaba o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirmay turib, yangisini  egallay olmaydi. Chunki, o‘quv materiali qat’iy mantiqiy izchillikda ma’lum bo‘laklarga taqsimlanib tinglovchining ongiga uzatiladi. Saboq  oluvchi bilimlarning qolgan ulushini qabul qilishi uchun u o‘tilgan mavzularni  egallagan bo‘lishi, topshiriqlarni mustaqil echa olishi va savollarga to‘g‘ri javob bera bilishi zarur. Bilimlar ta’limiy mashinalar, kompyuterlar, displeylar yordamida yordamida talabalar miyasiga uzatiladi. Teskari aloqa kanali orqali sub’yekt faoliyatining natijasi, mahsuli yuzasidan axborot, ma’lumot, xabar kelib tushishi nazarda tutiladi.

Bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini boshqarish muammosi P.Ya.Galperin va N.F.Talizina tomonidan o‘rganilgan.ular aqliy xatti – harakatlarni bosqichma bosqich shakllantirish nazariyasini ishlab chiqqanlar. Mualliflar aqliy xatti – haraktlarni moddiy holda tashqi nutq yordamida hamda aqliy shaklda, fikrda namoyon bo‘lishini izohlab berdilar. Aqliy xatti – xarakatlarning birinchi bosqichi rasm, sxema, diagramma va shartli belgilar tarzida o‘z ifodasini topadi. Aqliy xatti – harakatlarning ikkinchi bosqichi ko‘rgazmalardan olgan tasavvurlari to‘g‘risida o‘quvchilarning ovoz chiqarib fikr yuritishidan iboratdir. Uchinchi bosqich esa sub’yekt ongida tasavvur, tushuncha, qonuniyat, xossa, xususiyat, operatsiya, usul tariqasida namoyon bo‘ladi. Ana shu bosqichlarni talabalarga tushuntirish orqali ularni o‘z – o‘zini boshqarishga o‘rgatish mumkin. Biz quyida “o‘quv faoliyatini boshqarishning umumlashgan usullarini egallash” nazariyasiga asoslangan holda o‘quv faoliyatini boshqarishni amalga oshirish yo‘llarini izohlab berishga harakat qilamiz. O‘quv faoliyatining o‘uvchilar va talabalar tomonidan boshqarish muammosining dolzarbligi, birinchidan, rivojlantiruvchi ta’lim strukturasi va funksiyasining xususiyatlaridan, ikkinchidan, o‘quvchi va talaba shaxsini hamda aqliy rivojlanishini izchil ravishda o‘rganish ahamiyatidan kelib chiqadi. O‘quv faoliyatini boshqarishning umumlashgan pedmetlar aro usullariga uni planlashtirish, o‘z – o‘zini nazorat qilish, o‘zlashtirib olingan bilimlarni va ta’limiy usullarni yangi sharoitga ko‘chirish, yangisini mustaqil holda topish, o‘z oldiga maqsad qo‘ya olish, bilimga qiziqishni ongli ravishda idora qilish, mustaqil bilim olish yo‘llarini o‘zlashtirish, diqqatni faoliyatda shakllantirish va boshqalar kiradi.

O‘quv faoliyatini boshqarish deganda, maqsadga yo‘naltiilgan, planlashtiriladigan, nazorat qilinadigan, sistemalashtiriladigan, tashkil qilinadigan, mustaqil bilim olishga qodir bo‘lgan faoliyat tushuniladi va uni sistematik ravishda mana bunday shaklda aks ettirish mumkin.

***O‘quv faoliyatini boshqarish***

1. O‘quv faoliyatini planlashtirish.
2. O‘z – o‘zini nazorat qilish.
3. Keng ko‘lamdagi bilimla, ta’limiy usullarni sistemalashtirish.

4. O‘z faoliyatini o‘zi boshqarish usullarini egallash va yangisini topish.
5. Shaxsiy qiziqishni idoa qiluvchi usullarni egallash.
6. O‘z diqqatini o‘zi boshqarish usullarini egallash.

Faoliyatni psixik boshqarishning samarali bo‘lishi uchun psixika narsalarining o‘ziga xos ob’yektiv xususiyatlarini aks ettirishini va ana shular vositasi bilan inson oldia qo‘yilgan maqsadlarga erishish yo‘llarini aniqlashtirishimiz kerak. Inson aoliyatini bilish va idora qilish bilan bgog‘liqdir. Bu jarayonlar ishtirok qilmasa, inson faoliyati namoyon bo‘lishi mumkin emas. Har qanday faoliyat insonning psixik va jismoniy aktivligidan iborat bo‘lib, ongli maqsad bilan boshqariladi. Xatti – harakatlarni boshqarish odatda teskari aloqa prinsipi asosida amalga oshiriladi. Birinchi navbatda sezgi organlari bunday aloqaning kanali bo‘lib hizmat qiladi. Predmetlar va harakatlarning idrok qilayotgan element va belgilari esa informatsiya manbai vazifasini o‘taydi. Teskari aloqaning bunday turini P.K.Anoxin **teskari afferentatsiya** deb atagan edi. Inson faoliyatining **interiorizatsiya** va **eksterorizatsiya** xususiyati mavjud. Tashqi real ishdan ichki ideal ishga o‘tish jarayoni interiorizatsiya deyiladi. Narsalar bilan qilindigan tashqi faoliyatni ichki psixik faoliyatining eksteriorizatsiyasi deb qabul qilingan. Psixologiya fanida sub’yektni o‘rganishdan iborat bo‘lgan maxsus faoliyat ta’lim deb ataladi. Psixologiya fanida talabaning faoliyati, xulqi va xatti – harakatlarini insonning ijtimoiy tajribasini o‘zlashtirish tomon yo‘naltirilishdan iborat bo‘lgan faol jarayonni ta’lim deb yuritish ham uchrydi. Odatda, ta’lim faoliyati o‘z ichiga quyidagi holatlarni qamrab oladi.

1. Ma’lum bir ideal va amaliy faoliyat to‘g‘risidagi muhim xususiyatlar va qonuniyatlarni o‘zlashtirish;

2. Mavjud ma’lumotlar va informatsiyalarni o‘zlashtirib olishga yordam beradigan usul va operatsiyalarni egallash;

3. Ko‘zlangan maqsad va ma’no shartiga mos ravishda optimal uslub ratsional yo‘l – yo‘riq va operatsiyalar tanlash hamda nazorat qilish uchun nazarda tutilgan informatsion materiallardan foydalanish usullari bilan talabalarni qurollantirish va hokazo.

Bizningcha, oliy ta'limda o'quv faoliyatni talaba tomonidan boshqarish jarayoni dastlabki paytlarda o'qituvchining bevosita rahbarligida va ko'magida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Aks holda oliy ta'limning mazmuni, o'quv faoliyatning tarkibiy qismlari uning psixologik xususiyatlari va qonuniyatlari uni tarkib toptirish yo'llari, vositalarini o'zlashtirish, egallab olish usullari talabalarga anglashilmay qolishi mumkin. Oliy ta'limni takomillashtirish uchun talabalarni mustaqil bilim olishga o'rgatish va bunda hozirgi zamon talabalariga javob beruvchi faol uslublar bilan qurollantirish ayni muddaodir. O'quv faoliyatining boshqarishning psixologik masalalarini tadqiq qilish natijasida uning bosqichlari, fazlari, yo'llari hozirgi kundagi holati o'quv dasturlarida, darsliklarida va qo'llanmalarda bunday foydalanish ahvoli diagnostik metodikalarning ishonchlilik darasi aniqlandi. Shuning bilan birga maktab o'quvchilari va talabalarni o'quv faoliyatini boshqarishning yosh davrlari xususiyatlari o'ziga xos jihatlari, guruhiy faoliyat va ndividual uslubga oid qonunlar boshqarishning taribiy qismlarining turlari, ko'rinishlari, shakllari to'g'risida boy ma'lumotlar to'plandi. Yig'ilgan ma'lumotlar ham nazariy ham amaliy ahamiyat kasb etib oliy maktabda o'quv faoliyatini boshqarishda muhim rol o'ynaydi.

### 6.3.5. Bo'lg'usi o'qituvchining o'quv faoliyatini boshqarish

Oliy maktab psixologiyasida o'z – o'zini boshqarish " o'qituvchi – talaba" modeli tarzida namoyon bo'ladi. O'qituvchi bu o'rinda "axborotchi", talaba esa "qabul qiluvchi" rolida maydonga chiqadi. Keyinchalik talaba tashqi qabul qilishdan o'z faoliyatini mustaqil boshqarishga o'tadi. Unda boshqarish uquvi ma'lum tizimdagi usullarni egallagandan so'ng vujudga keladi.

Biz o'z tadqiqotimizda o'quv faoliyatining motivatsion,operatsional va nazorat tarkibiy qismlardan tuzilganligidan kelib chiqqan holda o'quv faoliyatining motivatsion, operatsional va nzorat tarkibiy qismlardan tuzilganligidan kelib chiqqan holda o'quv faoliyatini boshqarish tizimini ishlab chiqdik. Boshqarish tizimi o'z ichiga shaxsiy qiziqishni idora qilish o'quv faoliyati rejalashtirish, o'z o'zini nazorat qilish, o'z diqqatini rejalashtirish, o'z o'zini nazorat qilish, o'z diqqatini o'zi uyushtirish kabilarni qamrab oladi.

Shu boisdan o'quv faoliyatini boshqarish deganda, maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtiriladigan, nazorat qilinadigan, sistemalashtiriladigan, tashkil qilinadigan, mustaqil bilim olishga imkon yaratadigan faoliyat tushuniladi. O'quv faoliyatini rejalashtirish usullariga ish vaqtini, topshiriq hajmini, murakkabligini, o'ziga jalb etish darajasini va qiziqarliligini hisobga olgan holda oqilona taqsimlash, aqliy mehnatni kun tartibiga binoan oqilona taqsimlash, aqliy mehnatni kun tartibiga binoan oqilona tashkil qilish kiradi.

O'z – o'zini nazorat qilish bo'lg'usi o'qituvchida ko'nikma va malakalarning shakllanishida, unng o'z uquv faoliyatidagi xatolarni anglab olishda, bu xatolarni oqilona yo'l bilan tuzatish juda qo'l keladi.

Ko'p yillar davomida o'tkazilgan tajribalarda diqqatni boshqarishda ko'z yugurtirish, illyustratsiyani chuqur tahlil qilish, mantiqiy xatoni tekstdan topish, mantiqiy urg'uga e'tibor berish, tektdagi xatolarni aniqlash usullaridan foydalanildi. Mazkur usullarni egallab olish va amaliyotda foydalanish predmetlani o'zlashtirishni osonlashtiradi, diqqatni ongli ravishda boshqarish imkonini yaratadi. Nafaqat, bo'lg'usi o'qituvchi yoqtiradigan, u qiziqadign o'quv materiallarinigina emas, balki murakkab, hatto zerikarli bo'lgan ilmiy bilimlarni egallash uchun ham butun zehnini qaratish kerakligi unga oydinlashadi

Bo'lg'usi o'qituvchining ta'lim jarayonida faqat qiziqarli bo'lgan mashg'ulotlar bilangina emas, balki yetarli darajada qiziq bo'lmagan, murakkab va muammoli narsalar bilan shug'ullanish zaruriyatini sezish hissini shakllantirish maqsadga muvofiq. Toki talabada qiyinchiliklarni enga olish uquvi, o'z – o'zini qo'lga olish fazilati, o'z – o'ziga buyruq berish va o'z – o'zini uyushtirish sifati tarkib topsin.

O'quv faoliyatini boshqarish (uni rejalashtirish, nazorat qilish, diqqatni idora qilish, qiziqishni maqsadga muvofiq yo'naltirish, aqliy faoliyat usullarini yangi sharoitga ko'chirish) usullarini kompleks, ko'pqirrali tarzda ayni bir shaxsda, muayyan sharoitda, ma'lum bir davrda shakllantiish ob'yektiv ma'lumotlar va materiallar to'plashga keng ko'lamda imkoniyatlar ochib beradi. Mazkur holatda o'quv faoliyatining motivatsion – orientirlash, operatsional, nazorat qilish, baholash, tekshirish, tahlil qilish tarkibiy qismlarini bir davrning

o‘zida tadqiq qilish boshqarishning psixologik mexanizmlari doirasini yanada kengaytiradi, murakkab ichki holatlar to‘g‘risida yangi qonuniyatlar ochilishini ta’minlaydi.

Talabalarda o‘quv faoliyatini boshqarishning barqarorligi, mustahkamligi, puxtaligi bo‘lg‘usi mutaxassislarning irodaviy zo‘r berishi, ma’naviy extiyoji, shaxsiy e’tiqodi, dunyoqarashi, pozitsiyasi, anglashilgan o‘quv motivlariga, ularning aqliy va axloqiy kamolot darajasiga bevosita aloqadordir. Boshqarishning oliy ta’lim tizimida amalga oshirilish va samaradorligi bo‘lg‘usi o‘qituvchining maqsadiga, kun tartibiga, ish rejasiga, sanitariya – gigiena qoidalariga rioya qilishga bog‘liq. Shuning bilan birga bo‘lg‘usi o‘qituvchida individual ishlash uslubining namoyon bo‘lishi talabning yosh davrlari xususiyati bilan emas, balki uning individual – tipologik xususiyatlari bilan belgilanishi qayd qilinadi. O‘quv faoliyatini boshqarish muammosini tlabalarda tadqiqot qilish natijasida uning yo‘llari, hozirgi kundagi holati, o‘quv dasturida va darsliklarda undan foydalanishning ahvoli, diagnostik metodlarning ishonchlilik darajasi aniqlanadi. Shuning uchun psixologik ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, ijodiy faoliyat mahsulini miqdor va sifat jihatdan o‘rganish, talabalarni kuzatish, ular bilan suhbat qurish, anketa savollariga javob olish singari tadqiqot metodlari qo‘llanildi. Olingan natijalarning ilmiy ishonchlilik darajasi Styudent kriteriyasi yordamida ishlab chiqildi va bu narsalar keng ko‘lamda tatbiq qilishga joriy qilindi.

## GLOSSARIY

***Affekt*** (*latincha affectus* – ruhiy hayajonlanish, qiziqish) qisqa muddatda va shiddat bilan sodir bo‘ladigan hissiy, hayajonli jarayon: hulq-atvor, hatti-harakat ustidan nazoratning susayishi tufayli ro‘y beradigan kuchli his-tuyg‘u (g‘azablanish, qo‘rqish, nafratlanish, shodlanish). Mutaxassislar normal va patologik affektlar borligini, shuningdek, affektiv reaksiyalarga ozroq yoki ko‘proq moyil bo‘ladigan shaxslar ham bo‘lishini ta’kidlashadi. O‘zida affektiv reaksiyaga nisbatan hislarga erk bermaslik insondagi normal psixik holat hisoblanadi. Affektlar ta’siriga beriluvchi kishilar odatda olomon orasida sarosimalik uyg‘otishga moyil bo‘ladilar.

***Anglash*** – psixik mazmunni ongsizlikdan aktiv belgi shakliga ko‘chirishdan iboart psixik jarayoni bo‘lib, bu mazmunni boshqa kishilarga etkazib berish imkonini beradi. Anglamoq o‘ziga xabar bermoq, o‘z tajribasi hisiyoti, ehtiyoji, qiziqishi va b. to‘g‘risida o‘ziga tushuntirish demakdir. Anglash demak nimadir to‘g‘risida o‘z-o‘ziga hisob berishdir. Sub’ektiv holda u yoki bu vaziyat, kechinma va boshqalarni aniq-ravshan va nazorat qilinadigan in’ikosidir.

***Amaliy psixologiya*** – ijtimoiy amaliyotning turli sohalaridagi amaliy vazifalarni hal qilishda foydalaniladigan amaliy bilimlar va texnologiyalar majmuasidir. Amaliy psixologiyaning muhim xususiyati shundaki, u yoki bu vazifalar ularning manfaatlari uchun hal etilayotgan iste’molchi yoki buyurtmachini hamisha ko‘rsatish mumkin.

***Aql*** **–** insonning ma’naviy va ruhiy faoliyatida barcha oliy narsalar xodiaslarni qanday bo‘lsa, aynan shunday xolda bilish qobiliyati, mavxum fikrlash va tushunchalar yaratish xususiyati.

***Ahloq*** **-** ijtimoiy ong shakllaridan biridir. Kishilarning tarixan tarkib topgan hulq – atvori, yurish – turish, ijtimoiy va shaxsiy xayotga o‘zaro, shuningdek jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi barqarormuayyan norma va qoidalar yig‘indisi.

***Axloq tuzatish*** – ***mehnat pedagogikasi*** – huquqbuzarlik holatlariga yo‘l qo‘ygan, jazoni o‘tash muassasalaridagi shaxslarni qayta tarbiyalashning nazariy hamda amaliy asoslari to‘g‘risida ma’lumot beruvchi fan.

***Attraksiya*** **–** (lotincha so‘z – attrahere –yoqtirish, o‘ziga jalb etish) – bu bir insonning boshqa bir insonga ijobiy munosabati asosida yoqishi va yoqtirish, o‘zaro mobillikni tushuntiruvchi emotsional hisdir.

***Aloqa*** **–** makon yo vaqtda bir – biridan muayyan masofada uzoqlikda joylashgan ikki yoki bir necha hodisa yo ob’ektning o‘zaro bog‘lanish xodisasi.

***Anglash*** - psixik mazmunni ongsizlikdan aktiv belgi shakliga ko‘chirishdan iborat psixik jarayon bo‘lib, bu mazmunni boshqa kishilarga etkazib berish imkonini beradi. Anglamoq o‘zicha xabar bermoq, o‘z tajribasi xissiyoti, extiyoji, qiziqishi va boshqalar to‘g‘risida tushuntirish demakdir. Anglash demoq nimalar to‘g‘risida o‘z – o‘ziga xisob berishdir. Sub’ektiv xolda u yoki bk vaziyat, kechikma va boshqalarni ochiq – ravshan va nazorat qilinadigan inikosidir.

***Agleratsiya –*** olomon

***Bilish*** – olamning inson ongidagi in’ikos etish jarayoni . inson o‘zini qamrab olgan atrof – muxit to‘g‘risida bilish va tasavvurga ega bo‘lmay turib, faoliyatning biron bir turi bilan shug‘ullana olmaydi. Bilishning maxsuli natijasi bilim bo‘lib, xar qanday kasbni egallash faqat bilim orqali ro‘y beradi.

***Bilish, anglash*** - dunyo xakidagi yangi bplnmlar xisoblanadigan sub’ekt va ob’ektning o‘zaro ta’sirini, voqelikning ruxiyatda qayta tasvir etilishi hamda aks ettirish jarayonidir.

***Buzilgan xatti-harakatlar*** - jamiyat tomonidan qabul kilingan me’yorlarga qarama-qarshi bo‘lgan, ruxiy sog‘lom shaxsning xulq-atvori, qiliqlari sistemasidir.

***Vijdon –*** ijtimoiy xodisa bo‘lib, kishining xayotida sodir bo‘layotgan ijobiy va salbiy xodisalarga munosabatida ifodalanadi. Vijdon kishining ma’naviy etukligiga bog‘liq.

***Guruhlarning tuzilishi***– guruh qismlarining kichik guruhlarga nisbatan barqaror bo‘linishi, guruhga kiruvchi kishilar o‘rtasida guruh vazifalarining taqsim qilinishi.

***Gallyusinatsiyalar*** (*lat. hallucinatio* - alahsirash, ko‘zga ko‘rinish) insonda kasal paytidagi psixikasiga ta’sir etishi natijasida hosil bo‘ladigan mavjud bo‘lmagan, fantastik, xayoliy, uydirma obrazlar.

***Guruh dinamikasi*** (grekcha dynamis – kuch) – bu guruhning o‘z holatini o‘zgartiradigan, rivojlantiradigan yoki buzadigan kuchlarning hamkorlikdagi jarayonidir. U asosan ikki xil yo‘nalishdagi jarayonlarda ko‘zga tashlanadi: guruh a’zolarining birlashuvi va aksincha, keskinlashuvi.

***Guruh munosabatlari*** – guruh faoliyatining xarakter iva mazmuni; guruhning umuman strukturadagi o‘rni, qadriyatli birligi va b. xarakteristikasi; guruh a’zolarining sotsial individ sifatidagi o‘zaro shaxsiy munosabatlari; bu munosabatlarga jalb qilingan kishilarning individual pozitsiyalariga ko‘ra guruhda uning a’zolari o‘rtasida qaror topadigan munosabatlardir.

***Guruh roli*** (o‘rni) – guruh uchun bajaradigan vazifasiga ko‘ra insonning shu guruhdagi barqaror, mustahkam holati (o‘rni, pozitsiyasi).

***Guruh*** – umumiy bo‘lgan bir yoki bir necha belgilarga ko‘ra birlashgan kishilar yig‘indisidir.

***Guruhning birdamligi*** - fikrlar birligi, e’tiqodlar, anhanalar birligida, shaxslararo munosabatlar, kayfiyatlarning ijobiy xarakterida va guruh psixikasining boshqa belgilarida, shuningdek, hamkorlikdagi amaliy faoliyatning birligida namoyon bo‘ladigan guruh a’zolari birligining psixologik xarakteristikasidir.

***Gipoteza –*** o‘rganilayotgan zxodisaning sabablari va xususiyatlarini tushuntiradigan asosli tahmin tarzidagi bilim shakli.

***Guruhda kuchlarning munosabati***– bu guruhiy jarayonlarni hamda guruh a’zolarining hulq-atvorini nazorat qilish imkoniyatlarining guruh ob’ektlari o‘rtasida taqsimlanishidir. Liderlik tushunchasida, guruh dinamikasi va sh.k. larda namoyon bo‘ladi.

***Geniy –*** bu yangiliklarni yaratuvchi va kashf qiluvchi shaxs.

***Davolash pedagogikasi*** – jismoniy jihatdan nogiron bolalarni bevosita ijtimoiy faoliyatga tayyorlash asoslarini o‘rgatuvchi fan.

***Diqqat*** - faoliyat (xatti-xarakat) va ruhiy aks ettirishni ta’minlaydigan, belgilangan ob’ektga faoliyat yoki ongining jamlanish holatidir.

***Didaktika*** - (grekcha «didaktikos» so‘zidan olingan bo‘lib, o‘rnak, saboq bo‘lishlilik kabi mazmunlarni anglatadi.)- pedagogikaning ta’lim jarayonida tarbiyalash nazariyasini ishlab chiqadigan qismi hisoblanadi.

***Dunyo obrazi*** - insonga dunyoda harakatlana olish uchun mo‘ljal bo‘lib xizmat qiladigan olam to‘g‘risidagi, boshqa kishilar, o‘zi va o‘z faoliyati to‘g‘risidagi bir butun, yaxlit ko‘p darajali tasavvurlari tizimidir. Bu sub’ektiv kechinmalar tilida yaratilgan tashqi dunyoning ichki modelidir. Ta’kidlash lozimki, bu olamni idrok qilish natijasida hosil bo‘lgan, ichki rejaga noavtomatik tarzda ko‘chirilgan obrazlar emas, balki hayotiy faollikning har biri keyingi momentidagi hodisalarni bashorat qila oladigan, chuqur anglanmagan taxminlar asosida aktiv qurilgan tizimdir. O‘zini va tashqi olamni faol o‘zlashtirish davomidagi tekshirish usullari bilan (sinov va xatolar) yaratiladi.

***Diqqat*** – ongning muayyan ob’ektlar to‘plami, jarayonlarga (tashqi yoki psixikaga bog‘liq) tanlangan holda yo‘naltirilishidir. Ba’zan nazorat va o‘z-o‘zini nazoratni ham diqqatga kiritishadi.

***Dunyoqarash –*** tartibga solingan, aqliy ongli tizimga aylantirilgan bilim, taasvvurlar va g‘oyalar majmui bo‘lib, u shaxsni ma’lum bir qolipda, o‘z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda munosib o‘rin egallashga chorlaydi.

***Dil*** - jon,qalb,yurak,ko‘ngil markaziy osiyo falsafiy tafakkurida ushbu tushunchalar deyarli bir xil ma’noda ifodalanib borliqning nomoddiy asosida hamda insonning tub mohiyatini ifodalash uchun xizmat qilib kelgan.

***Deviant xulq – atvor –*** ijtimoiy deviantlikni kiritib chiqaruvchi xulq – atvor

***Dadillik –*** kishining xayot va omonligi uchun omon bo‘lgan kishilarni engishda ko‘rinadigan iroda kuchidir.

***Do‘stlik –*** o‘zaro bir- birini tushunuvchi 2 inson o‘rtasida yuzaga keluvchi emotsional ijobiy xisdirodatda bir jins vakillari orasida yuzaga keladi.

***Jamiyat –*** tabiatning bir qismi, borliqning aloxida shaklini ifodalaydigan falsafiy tushuncha odamlar uyushmasining maxsus shakli kishilar o‘rtasida amal qiladigan ko‘plab munosabatlar majmuasidir.

***Jamoa*** - insonparvarlik va javobgarlik mas’uliyatlariga bog‘liqligi bilan xarakterlanadigan munosabatlar hamda hamkorlikdagi ijtimoiy - ijobiy faoliyatga asoslangan, kishilarning tashkil etilgan umumiyligi, jamoasidir.

***Jo‘shqinlik, mijoz (temperament)*** - odamning xatti-xarakatlari va ruhiyatining dinamik o‘ziga xosligini xarakterlaydigan, shaxsning psixologik tarkibiy tuzilishlariga kiradigan bir butun, yaxlit ko‘rsatkichlar sistemasndir.

***Individ –*** odamzodning vakili, o‘ziga xos takrorlanmas xususiyatlar egasi hisoblanish odam.

***Idrok*** – sub’ekt tomonidan uning ongiga nisbatan tashqi dunyodan ajratib olinadigan ba’zi butunlik va yaxlitliklarning bilish jarayoni va harakatlari davomida ongda aks ettirilishidir (bunga boshqa kishilar va inson o‘z tanasini aks ettirish ham kiradi). Aytaylik, insonning o‘z tanasining sog‘ligi yoki nosog‘lomligi to‘g‘risidagi ichki a’zolardan kelayotgan signal natijasida shakllanadigan obrazni idrok etish ham, etmaslik ham mumkin. Ko‘pincha esa idrok deganda tabiiy va sotsial dunyodagi predmetlarni in’ikos ettirish tushuniladi. Ob’ekt bo‘lsa tashqi muhitda tayyor holda bo‘ladi-yu, u insonga ta’sir qiladi va natijada u inson tomonidan avtomatik tarzda aks ettiriladi, anglanadi, desak, unchalik to‘g‘ri emas. Aksincha, inson tartibsiz holdagi kechinma va tasavvurlar orasidan ba’zi ob’ektlarni ajratib oladi va bu bilan go‘yoki ushbu tartibsizliklarni tartibga keltiradi. Inson sezgi a’zolariga ta’sir qilish uchun biron narsa idrok etildi, anglandi deyishga hali erta. Predmet yoki predmet emas deb hisoblash insonning o‘ziga bog‘liq: kim uchundir tashqi muhitda musiqaviy ovoz va shovqinlar, ularda uyg‘unlashmaganlik (dissonans) va uyg‘unlik (konsonaj); kimgadir esa mashinaning ishlashidan darak beruvchi shovqin yoki hayvonlar tomonidan chiqarilayotgan ovozlar, kim uchundir suhbatdoshning nutqidagi mantiqiy urg‘u berishlar, kimgadir turar joylarni muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz rejalashtirish va boshqalar. Kimlar

uchundir esa, agar u bunday narsalarni bilmasa, ular go'yoki yo'qdek «zo'r berib eshitmaslik va ko'rmaslik» payida bo'ladi.

***Iroda*** – insonning o'z psixikasi va hatti-harakatlarini ongli ravishda boshqara olishida namoyon bo'ladigan xususiyati (holati) dir. Iroda ongli tarzda o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishi yo'lida ro'y beradigan to'siqlarni engib o'tish davomida namoyon bo'ladi. Uni o'z-o'zini zo'rlab qiynash bilan tenglashtirmaslik kerak. Iroda hamma vaqt ham o'z-o'zini majburlash bilan bog'liq emas. Bu baribir o'z maqsadiga erishishishi yo'lida ishonch, kelishish, ayyorlik, o'rgatish, o'z xususiyatlaridan mohirona foydalanish (odatlar, standart reaksiyalar, zaifliklardan) bo'lishi mumkin.

***Ijtimoiy norma*** – shaxs xaytida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolarixulq – atvoriga nasbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan xarakatlar talabi.

***Ijtimoiy sanksiya*** **–** normalarning shaxs xulqida nomoyon bo'lishni nazorat qiluvchi jazo va rag'batlantirish mexanizmi.

***Iste'dod nishonalari*** – qobiliyatni o'stirishning tabiiy zaminlari (ularning biologik asosi). Ular tug'ma yoki egallangan bo'lishi mumkin. Ularni ro'yobga chiqmagan qobiliyatlardan ham farqlash lozim. Farq shundaki, iste'dod nishonalari inson xususiyatlari va fazilatlaridagi shunday biologik jihatlarki, ular keyinchalik u yoki bu qobiliyatga uning komponenti bo'lib qo'shiladi. Bir xil biologik jihat bir qancha qobiliyatlar tarkibiga kirishi mumkin va shunday tarkibda iste'dod nishonalari rolini bajara oladi.

***Individuallik*** - insonning individ, faoliyat sub'ekti va shaxs sifatidagi betakror xususiyatlari tizimidir. Individuallikning mavjud bo'lishi insonning ta'lim, tarbiya, u bilan faol munosabatidagi individual yondashuvining asosi hisoblanadi. «Har bir kishigacha etib borish» - bunday yondashuvning idealidir. Individuallikni inkor etish (nodonlik, ishonch yoki kam anglangan harakat tufayli, masalan, texnik yoki umumilmiy g'oyalarning oddiy formulalariga sig'inish oqbatid zaruriy tarzda bir qator salbiy oqibatlarga olib keladi (shaxslararo va shaxslar ichidagi keskinlik, ixtirolar, ruhiy jarohatlar, nizolar ishtirok etganlarning asabiy holatlari va ta'lim, tarbiya, mehnatdagi past samaradorlik natijalari sifatid.

***Intellekt, aql*** – inson hayoti davomida bilish faolligiga tegishli bo'lgan barqaror o'ziga xos va rivojlanib boruvchi xususiyatlar va sifatlar tizimi, uning ichki va tashqi hayotiy holatlar, jumladan, ijtimoiy muhitda ham oqilona mo'ljal ola bilishdir. Odatda sub'ektning faoliyat sohasiga bog'liq holda sotsial intellekt, texnik intellekt, gumanitar intellekt, verbal, ya'ni og'zaki, noverbal intellektlarni farqlashadi.

***Ilmiy psixologiya*** – inson va hayvon psixikasi taraqqiyoti, paydo bo‘lish va mavjud bo‘lishi qonuniyatlarini aniqlashda foydalaniladigan texnologiya va murakkab tarmoqlangan belgilar tizimidir. Ilmiy psixologiyaning asosiy vazifasi – yangilikni aniqlash emas, balki bir tomondan ishonarli bilimlari egallash, boshqa tomondan esa, qaysi o‘rinda ular ishonarli, qay holda esa yolg‘on va noaniq ekanligini ayniqlashdan iboratdir.

***Ijtimoiy pedagogika*** – bolalar va o‘smirlarning maktabdan tashqari sharoitdagi ta’lim-tarbiyasiga oid masalalarni o‘rganadigan fan.

***Ijtimoiy ustanovka* -** shaxsning atrof muhitida sodir bo‘layotgan ijtimoiy xodisalarni, ob’ektlarni, idtimoiy guruxlarga ma’lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar o‘rnatishga ruxiy ichki hozirlik sifatida odamlardagi dunyoqarashni ham o‘zgartirishga aloqador kategoriya.

***Injenerlik pedagogikasi***, oliy o‘quv yurtlari pedagogikasi; boshqaruv pedagogikasi ham mavjud.

***Inson* –** tushunchasiga aniq tarif berish uchun olamda mavjud bo‘lgan boshqa biologik mavjudodlardag ajralib turuvchi eng muxim xususiyatlarni aniqlash zarur.

***Insonning rivojlanishi*** - tashqi va ichki, boshqariluvchi va boshqarilshiga berilmaydigai omillar tomonidan shaxsning shakllaiish jarayonidir. Ularning tarkibida albatta, maqsadga yo‘ialtirilgai tarbnya asosiy rol o‘ynaydi.

***Insonporvarlik* –** gumanizm odamlarga mehr – muxabbat bilan qarash, ularni xurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilardayuksak ma’naviy fazilatlarni rivojlantirishga g‘amxo‘rlik qilish g‘oyalari bilan sug‘orilgan dunyoqarash.

***Insof* –** insonning muayyan jamiyatda amal qilayotgan axloq me’yorini nazorat qilish va axloqiy baxolash.

***Ideal* –** orzu intilishning oliy maqsadi. Tor ma’noda: shaxs qobiliyatlarini ifodalovchi namuna.

***Idrok*** - mazkur mudatda sezgi organlarpga ullrning bevosita ta’sir etishi davomidagi bir butun xodisalar (o‘ziga xoslpklarining majmuaviy muvifiq ksllshligi) yoki narsalarnnng inson ongida aks etishidir.

***Illyuziya* –** tana azolarimizga bevosita ta’sir etib turgan narsa va hodisalarni noto‘g‘ri (noadekvat) idrok qilishdan iborat bilish jarayonining hodisasi.

***Insayt*** – oydinlashuv. Muammoning echimi, ba’zan birdan yorqin yulduzday yalt etib paydo bo‘ladi. Bunday psixologik holat psixologiyada insay – oydinlashuv deyiladi.

***Ijtimoiylashuv* –** inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va xayot faoliyat jarayonida uni faol tarzdao‘zashtirish jarayoni.

***Ijtimoiy - psixologik iqlim*** - jamoa va guruhlarning rivojlanish darajasini, ularning shaxsga ta'siri darajasini hamda hamkorlikdagi faoliyatlari samaradorligini belgilab beradigan shart-sharoitlar bilan ijtimriy-psixologik hodisalar (munosabatlar, jamoaviy fikr, kayfiyat va boshqalar)ning bir-birini boyitish, bir-biriga muvofiq kelishligidir.

***Image*** – obraz.

***Ichki muhit*** - yuqorp darajadagi o'ziga xos asabiy faoliyatlarning, xarakterlar o'ziga xoslngining, hayotiy tajribaning, irsiy tafakkur ko'nikmalari tizimining hamda bola uchun, odatdagi ruhii holatlarda o'zini namoyon etadigan ta'sirchanlik va xakiqatga munosabatlar majmuasining o'zaro bir-birnga muvofpq keinshi, bir-byrini to'ldirishi va boyitishidir.

***Irsiylik*** - bolaning shakliy o'ziga xosliklariii belgilab beradigan anatomik, fiziologik, psixologik tashkiliy jnhatlarni, qobiliyatlarinn va iqidorlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan, bolalarga ota-onalari tomonidan o'tkazilgan irsiy belgilardir.

***Konformizm*** (lat. conformis – o'hshash, mos keladigan) – inson tomonidan o'zining haqligiga ichidan shubhalanmaydigan fikridan nosamimiy ravishda qaytish tufayli boshqalarning fikrlarini (ehtimol, noto'g'ri bo'lsa ham) tanqidsiz qabul qilish.

***Kundalik ong*** - kishilarning bevosita kundalik tajribasiga asoslanadigan va ular mansub bo'lgan sotsial jamoalarda hukmronlik qiluvchi tasavvurlar, bilimlar, tushunchalar va harakatlarning yig'indisidir.

***Kayfiyat*** – insonning psixik hayotida namoyon bo'ladigan, o'rtamiyona yoki zaif samaradorlikning nisbatan davomiy, barqaror, emotsional holati bo'lib, u yoki bu hissiyotning ustunligi bilan xarakterlanadi.

***Kasb*** **-** (lot. Profesio – rasmiy ravishda ko'rsatilgan mashg'ulot, profileer – o'z ishim deb e'lon qilaman), qomusda aytilganidek, insonning maqsadga yo'naltirilgan tayyorgarligi, ish tajribasi natijasida egallagan maxsus nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarga ega kishining mehnat faoliyati turidir.

***Kasbiy ta'lim pedagogikasi*** – ta'lim-tarbiya oluvchilarga aniq yo'nalishdagi kasbiy ma'lumotlarni o'rgatuvchi fan.

***Kichik guruh*** – umumiy ishni bajaradigan va bir-birlari bilan bevosita shaxsiy aloqada bo'lgan, 3 tadan 20-30 tagacha kishidan tarkib topgan, unchalik katta bo'lmagan kishilar to'plamidir. U guruh a'zolarining hamdard bo'lishi, «biz» ekanligini his etishi bilan bog'liq xususiyatlarga ega.

***Liderlik*** – guruhdagi shaxslararo munosabatlar tizimida hukmronlik va bo'ysunuvchanlik, hokimlik va qaramlik munosabatlaridir.

***Maktabgacha tarbiya pedagogikasi*** - maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash muammolari bilan shug'ullanuvchi fan.

***Malaka*** – faoliyatning avtomatlashtirilgan ko'nikmasi, mustahkam mahoratidir. Boshda ongni nazorat qilinadigan va bir me'yordagi harakat bo'lgan narsa har bir kishiga turmush tajribasiga ko'ra avtomatlashtirishi mumkin. Ko'nikmalar faqat oson payqash mumkin bo'lgan harakatchan bo'lmaydi, balki fikrlovchi, sotsial-kirishuvchan, tashkilotchi va boshqacha ham bo'ladi. Avtomatizmdan iborat bo'lgani holda ko'nikmalar ayni paytda ishda ijodning zaruriy sharti hisoblanadi (bunga tushunarli misol quyidagicha: shu sozanda o'z asbobida musiqa chalishning zarur texnikasi, ko'nikmasini hosil qilgunga qadar u ijodkor bo'la olmaydi, chunki u hali «musiqiy» asboblar klavishalarini, pozitsiyalar va b. ni chalkashtirib qo'yishdan qo'rqadi).

***Mazmun*** – bevosita hissiy kechinmalar davomida yoki ongda aks etuvchi qandaydir ob'ekt o'rtasidagi munosabatni xira bo'lsada anglash va sub'ekt hohishlariga ko'ra paydo bo'ladigan psixik yaxlitlikdir. Bir narsa men uchun kerak, ehtiyoji bor, boshqasi esa – yuq, kerakmasligini e'tiborga olib, aytishadiki, «bu men uchun mazmunga ega» yoki «buning men uchun mazmuni yo'q» tashqaridan qaraganda bir narsa bo'lib tuyulgan yumush (o'ra qazish) yollangan er qazuvchi uchun daromad qilish mazmuniga ega, arxeolog uchun qandaydir buyuk tarixiy muammoni echish, tasodifiy yo'lovchi uchun esa piyodalar yo'lining buzilayotganligi unga qandaydir buzg'unchilik mazmuniga ega bo'lib tuyuladi.

***Ma'lumot*** - o'kitish jarayoni va uning natijasi xisoblanib, o'quvchida bilim, iqtidor va ko'nikmalarning o'zlashtprilganligini, bilish qobiliyati o'sganligi va ular asosida ilmiy dunyokarash, shaxsiy sifatlar shakl-langanligini, ularning ijobiy kuchlari va qobiliyatlarining qay darajada rivojlanganligini anglatadi.

***Maqsad*** - bo'lg'usi natijalar hakida har doim aqlan o'ylab ko'rilgan, rivojlantirilgan xayoliy tasavvurlar.

***Metodologiya*** (metod va logiya so'zlaridan) – faoliyatning tuzilishi, mantiqiy tashkil etilishi, uslublari va vositalari to'g'risida ta'minot (sovetskiy ensiklopedicheskiy slovar).

***Metodologiya***, nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish va qurish prinsiplari va usullari sistemasi, shuningdek bu sistema to'g'risidagi ta'minot (filasofskiy ensiklopedicheskiy slovar).

***Mehnat tarbiyasi*** - bolalarni umumiy mehnat bilimlari va ijtimoiy foydali mehnat malakalari bilan qurollantirish.

***Me'yor*** – ob'ektning sifat va miqdoriy jixatlari o'zaro bog'liqligini anglatadigan, mazmukn va shakl imkoniyat va voqeilik o'rtasidagi zaruriy uyg'unlik ta'minlanishini ifodalaydigan falsafiy tushuncha.

***Mexanizm*** – faoliyatning biror turining tartibini belgilovchi sistemalar, qurilma.

***Mohirlik*** - xayotiy tajriba va o'zlashtirilgan bilimlar asosida aniq va ongli ravishda amaliy va nazariy ishlar, xarakatlarni tsz bajarpshga tayyor ekanlikdir.

***Muloqot*** - o'zaro munosabatlar, o'zaro ta'sirlarni ta'minlashga, ma'lumotlarni almashtirishpi o'z ichiga olgan va munosabatlarni, ularning aloqalarini amalga oshiradigan, ma'lum yo'nalishga asosan olib boriladigan faoliyat hisoblanib, kishilarning birgalikdagi faoliyatining bir turidir.

***Muloqotdagi konstruktivlik***– hamkorlarning aloqasi davomida ularning ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan, birgalikda hal qilinayotgan masalalarning ijobiy echim topishiga yordam beradigan, ularning individual betakrorligini saqlab qoladigan muloqotdir. Muloqotdagi konstruktivlik (yaratuvchanlik) tushunchasi kishilarning muloqot davomida o'z salohiyatini o'stirish, shaxsiy o'sishi, sotsial etuklikning shakllanishi tomon harakatlanishi yo'nalishini ko'rsatadi.

***Munosabatning o'zgarishi (deformatsiya)*** – bu munosabatlardagi shunday o'zgarishlarki (buzilish, qiyinchiliklar, yanglishishlar), ular munosabatdagi samaradorlikning pasayishi yoki buzilishiga, hamkorliklarning sog'lig'iga, ularning obro'siga yoki ruhiy osoyishtaligiga, moddiy qadriyatlariga va boshqalarga putur etkazadi. O'zgarishlarni ularning turiga qarab turlicha tushunish mumkin: mas., mening ustimdan kulishayotgani uchun bizning begona ekanligimizni, bizning do'st emasligimiz, bir-birimizni tushuna olmasligimizni, meni masxara qilishayotganligi va ko'plab boshqa narsalarni anglay boshladim.

***Moslik***– kishilardan harakat qilish kelishuvini va yaxshi o'zaro bir-birini tushunishini talab qiladigan birgalikda ishlash, vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish qobiliyati.

***Motivatsiya*** – inson hulq – atvori, uning bog'lanishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi.

***Mentalitet*** – individ yoki ijtimoiy guruxning millatning o'ziga xos tafakkur tarzi, voqelikni ma'lum bir tarzda tushunishi va va birlikda xarakat qilishga tayyorligi va moyilligi.

***Motiv*** – shaxsdagi u yoki bu xulq – atvorga nisbatan turgan moyillik.

***Mardlik*** – o'zini puxta bilish dadillik, qatiatlik, chidam va toqat paytlarida namoyon bo'ladigan kuchli iroda.

***Nutq*** – ovoz berilgan til, u yoki bu til belgilarini anglatuvchi ovoz signallarining inson tomonidan qo‘llaniladigan tizimidir.

***Ong*** – hayvonlar psixikasidan farqli ravishda butun inson psixikasini ifodalashda foydalaniladigan termin. Inson psixikasi (on belgililik (ong «hujayrasi» belgilarning murakkab tizimini hosil qiladi), qurollilik (istagan ong birligi predmetlar dunyosini aks ettirish vositasi sifatida foydalaniladi), predmetlilik (tashqi dunyo elementlari bilan mutanosibligi va qat’iy uyushganlik (belgilar va qurollar tizimi ko‘plab o‘zaro mutanosib kategoriyalarni vujudga keltiradi) xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

***Ongsizlik anglab bo‘lmaydigan*** – aniq, ravshan anglash nazorati uchun predmet bo‘la olmaydigan ko‘plab psixik hodisalar to‘plami. Ongda har bir daqiqada bir vaqtning o‘zida cheklangan miqdordagi tasavvurlar bo‘lishi mumkin (o‘rtacha taxmin qilishlaricha 7±2). Bunda ushbu damdagi anglanmagan tasavvurlarni biz aniq ong zonasiga oson «chaqirishimiz» mumkin («hohlaganing uchun eslading»), lekin juda ko‘plab psixik boshqarib turuvchilar (regulyatorlar) shunday ishlaydiki, bunda inson na faqat o‘z-o‘ziga hisob bermasligi mumkin, balki buni u hattoki hohlagan taqdirda ham uni qila olmaydi. Masalan, soatning aylana shakldagi siferblatini idrok qilayotganda bizning ko‘z qobig‘imizda aylana emas, balki ellips (agar soatga yondan qarasak) hosil bo‘lishi mumkin, biroq soat qanday holda tursa ham biz siferblatni «aylana» sifatida idrok qilamiz. Na faqat sub’ekt idroki tomonidan anglana olmaydigan, balki psixologiyada yangi shug‘ullanayotgan kishi uchun ham tushunarsiz bo‘lgan bu geometrik ma’nodagi hol psixika mexanizmlari tufayli ro‘y beradi (qarang: doimiylik idrok xossasi sifatid hissiyotlarning ba’zi qismlari («yaxshi», «madaniyatlilik» bilan sig‘isha olmaydiganlarini) ongdan siqib chiqariladi, lekin Z.Freyd ta’limotiga ko‘ra, ular hatti-harakatni sezilarli holda boshqarishda davom etaveradi va hattoki ichki ziddiyatlarga va asab kasallariklarini ham keltirib chiqaradi. Psixoanalizning (bu termin freydizm tomonidan mustahkam o‘rnashib qolgan, shuning uchun har qanday psixika tahlilini (analizini) psixoanaliz deb atamaslik kerak) psixoterapevtik amaliyoti shunga asoslanganki, siqib chiqarilgan hissiyotlarni topib anglash predmetiga aylantirish lozim. Bu psixoanalitikdan juda katta va o‘tkir mahoratni talab qiladi (o‘zini shunday deb hisolaydiganning ko‘pchiligi, afsuski, nafaqa bu borada malakasiz, balki manfaatparast hamdir).

***Ong, atrof-muhitni anglash*** - inson ruhiyatining yuqori darajasi bo‘lib, dunyo haqidagi ob’ektiv bilimlarning, unga ob’ektiv munosabatlarning tahlili, kishilarning o‘zaro muloqotlari, o‘zaro ta’sirlarining, ijtimoiy munosabatlarining natijasidir.

***Orzular*** – insonning kelajak to'g'risidagi, xayoliga kelgan va u uchun muhimroq ehtiyojlar va qiziqishlarni ro'yobga chiqarish borasidagi rejalaridir.

***Optatsiya –*** (lotincha so'z – ortatio – xoxish, tanlo tanlov bosqichi. Odam tomonidan professional taraqqiyotning bosqichi tanlanishidir deb e'tirof etiladi. 11-12 yoshlar, 14-18 yosh davrlarni o'z ichiga oladi.

***Optimizm*** – kechayotgan voqea va xodisalar jarayoniga nisbatan bildirilgan ikki xil qarama – qarshi fikrlar yoki munosabatlarni yaxshilikka yo'yish.

***Panelog –*** gurux ichidagi munozaradir

***Psixodiagnostika*** (grekcha psyche – ruh va diagnostikos – bilishga qodir) – psixologik fan sohasi bo'lib, shaxsning individual – psixik xususiyatlarini o'lchash va aniqlash usullarini ishlab chiqadi.

***Psixoterapiya*** (grekcha therapeia – parvarish qilish, davolash) – ko'plab psixik, asabiy va psixosomatik xafagarchiliklarda inson hissiyoti, fikrlari, o'z-o'zini anglashiga kompleks davolovchi ta'sirdir (asosan nutq yordamida, biroq faqat uning yordamida emas). Shartli ravishda asosan mavjud alomatlarni yo'qotish yoki yumshatishga qaratilgan klinik maqsadli psixoterapiya va insonga uning sotsial muhiti va o'z shaxsiga nisbatan munosabatini o'zgartirishga yordam berishni vazifa qilib olgan shaxsiy maqsadli psixoterapiya mavjudligi e'tirof qilinadi.

***Psixo analiz –*** ruhiy xastalikni davolash usuli va psixologik ta'limot.

***Psixotexnika*** (grekcha techne – san'at, mahorat) – psixik jarayonlarni sodir bo'lish xarakteristikasini yaxshilash, mavjud psixik qobiliyatlarni o'stirish va yangilarini shakllantirishda qo'llaniladigan konkret metodik usullar yoki usullar tizimidir.

***Predikatlar mantig'i*** – muhokama yuritish jarayonlarining muloxazalarning ichki strukturasidan kelib chiqib tahlil qiladigan mantiqiy sistema. U muloxg'azalar mantig'ini o'z ichiga oladi. Predikatlar mantig'i tili muloxazalar mantig'i tiliga qo'shimcha simvollar kiritish yordamida hosil qilinadi.

***Reproduktiv –*** fikrlashni bir turi.

***Referent guruh*** (lot. referens – xabar beruvchi) – kishi uchun e'tiborli bo'lgan, qadriyatlari, fikrlash hulq-atvor, normalari va qoidalarini so'zsiz tan oluvchi va ularni o'zi uchun qabul qiluvchi kishilar guruhidir.

***Refleksiya –*** aynan o'ziga o'xshash odamlar obrazi orqali o'zi to'g'risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirish.

***Rol –*** shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning konkret hayotiy vaziyatidagi huquq va burchlaridan iborat.

***Ruhiyat*** - sub’ekt (shaxs) tomonidan ob’ektnv real hayotiy haqiqatnn aks ettirish, uning sub’ektiv qiyofasini, obrazini yaratish va o‘z xatti-harakatlari hamda faoliyatini uning asosida o‘z-o‘zidan boshqaruvini o‘zida namoyon etadigan, yuqori darajada tashkil etilgan materiyaning mahsuloti va o‘ziga xos shaklidir.

***Ruhiy jarayon*** - kiyofasi (obraz), holat, o‘ziga xoslik yoki boshka psixologik tuzplmalar . ko‘rinishpdagi maxsus o‘ziga xos natijalarshshg mavjudligi bilan xarakterlanadigan ruhiyatni ichki faoliyat sifatida faol, dinamik tashkil etilishidpr.

***Ruhiy holat*** - xatti-xarakatlar va faolnyatning samaradorligini, o‘ziga xosligini belgilaydigan ko‘p jihatlardan insonning ruhiy o‘zini tutishn, o‘znni his qilishiny xarakterlaydigan bir butun ruhiyatning tarkibiy kismlaridan biridir.

***Sabab*** - psixologik reallik o‘zining anikligini topadigan zarurat, extiyojiing predmetidir; ruxiyat va inson faoliyatini uyg‘otishga yo‘naltirilgai hayoliy tuzilmalarii amalga oshirish vositasidir.

***Sababiy reaksiyalar (ta’sirlar)*** - his-tuyg‘uning haddan tashqari oshib, sababning funksiyasiga ega bo‘ladigan darajada kuchayishi iatijasida faoliyatning izidan chiqishidir.

***Sezgi*** – qo‘zg‘atuvchilarning idrok a’zolari retseptorlaritga ta’siri tufayli vujudga keladigan, ob’ektiv dunyo xossalarining sub’ektiv in’ikosidir.

***Solishtirma qiyosiy pedagogika*** – jahon mamlakatlari ta’lim-tarbiya tizimlari asosini qiyosiy o‘rganadi.

***Sotsial individ*** – barcha kishilar uchun umumiy bo‘lgan, belgilar, qurollar bilan ishlashda bog‘liq bo‘lgan maxsus insoniy tavsiflarni aks ettirish, jamiyatda qabul qilingan norma va qoidalarni hisobga olish, sotsial vazifalarni bajarishdir. Gap shaxsiy yoki individual jihatlar to‘g‘risida ketayotgani yo‘q.

***Sotsial muhit –*** insonning aniq maqsadlar rejalar asosida faoliyat ko‘rsatadigan dunyosi.

***Sevgi –*** bu nafaqat xissiyot, balki boshqalarni seva olish qobiliyati va sevilish uning asosiy mezoni – “insoniy fazilatlar” hisoblanadi.

***Simpatiya –*** o‘zaro yoqtirib qolish, bu sevgining ilk bosqichi hisoblanadi. Bunda asosan sevgi ob’ektning tashqi jozibasi rol o‘ynaydi.

***Tafakkur*** - bilish, anglashning yukori shakli bo‘lib, o‘zida ob’ektiv dunyodagi xodisalar bilan narsalar o‘rtasidagi munosabatlar hamda aloqalarni aks ettirish qobiliyatinyng mavjudligini namoyon etishdir.

***Talant*** (grekcha talanron – dastlab o‘lchov, mezon, keyin esa ko‘chma ma’noda – qobiliyatlar darajasi) – inson qobiliyatlarining, eng avvalo u yoki bu

turdagi faoliyatda ulkan yutuqlarga erishishini ta'minlovchi maxsus yuksak rivojlanish darajasi.

***Tashabbuskorlik*** – xarakterning qimmatli xislati bo'lib, bu xislat ko'pchilik kishilarda ommaviy tus olgandir.

***Temperament*** (lot. temreramentum – qismlarning tegishli muvofiqligi, mutanosibligi) – inson hulq-atvori va psixik jarayonlarining dinamik xarakteristikasi bo'lib, ularning tezligi, o'zgaruvchanligi, samaradorligi, ishchanligi va boshqalarda namoyon bo'ladi.

***Tafakkur*** – turli masalalarni (nazariy va amaliy) echishga qaratilgan va bu yumushni ado etishni (javob topishni) ta'minlaydigan ko'plab psixik jarayonlar, harakatlar, holatlardir. Tafakkurni funksional tizim sifatida jalb qilish qisman ongli, qisman odatlar, malakalar va asab tizimi tomonidan yuzaga keltirilgan insonning ilgarigi taraqqiyoti, tarbiyasi, o'z-o'zini shakllantirishdan iborat beixtiyor harakatlari tufayli amalga oshiriladi.

***Til*** – inson aloqalari, tafakkuri uchun axborotni asrash va avloddan avlodga etkazib berish vositasi bo'lib xizmat qiladigan belgilar tizimidir.

***Unutish***– eslash va yod bo'lib qolgan yoki o'zlashtirilgan materialni qayta xotirlash imkoniyatining asta-sekin so'nib borishini aks ettiruvchi jarayondir.

***Faoliyat*** - harakatlar va operatsiyalar sistemasida amalga oshiriladigan ehtiyojlar hamda sabablarga javob beradigan, bironta maqsadga yo'naltirilgan faollikdir.

***Fanlarni o'qitish metodikasi*** – har bir fanning mazmunini aniqlab, ketma-ketligini belgilab, tanlangan materiallarni o'rganishning shakl va metodlarini hal etadi. Masalan, fizika, kimyo, biologiya va h.k.

***Fantaziya -*** hayolning borliqdan, haqtqatdan biroz uzoqlashuv jarayonidir.

***Fizionomika*** – odam yuz qirralari va ularning nisbati orqali odamning xususiyatlarini o'rganish.

***Faoliyat*** – insonning voqeilikni, o'zini o'zi ijodiy o'zgartirish, takomillashtirish, mukammallashtirishga yo'naltirilgan faolligi. Psixologik jihatdan ichki ehtiyojni qondirish deya talqin etiladi.

***Xarakter*** (grekcha charakter – bosish, zarb qilish) – insonning faoliyati va munosabati tufayli shakllanadigan va namoyon bo'ladigan barqaror individual xususiyatlari yig'indisi bo'lib, unga xos bo'lgan hulq-atvor va hayotiy holatlarga javob berish usullarini belgilaydi. Xarakterda inson uchun xos bo'lgan, standart vaziyatlarda qo'llaniladigan, hayotiy vazifalarni qo'yish va echish usullari o'z ifodasini topadi.

***His-tuyg'u*** – insonning nisbatan barqarorligi, umumiyligi, uning shaxs sifatidagi taraqqiyoti davomida shakllangan ehtiyojlari va (xususan)

qadriyatlariga mosligi bilan farq qiladigan yuksak o‘zaro madaniy bog‘langan hissiyotlaridir.

***Hissiyot*** - ob’ektiv dunyodagi hodisalar, ular mazkur muddatda sezgi organlariga bevosita ta’sir etishi jarayonida yoki narsalarning o‘ziga xos tarkibiy tuzilishini alohida aks ettirishdarn iborat bo‘lgan ruhiyatning oddiy shakli hisoblanadi.

***Hayajonlanish*** – (lot. emoveo – hayratga solmoq,hayajonga solamoq) – psixik hodisalarning alohida toifasi bo‘lib, sub’ekt tomonidan bu hodisalar, predmetlar va vaziyatlar insonning o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun bevosita qiziqqon kechinmalari ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

***Xayol*** – insonning sub’ekt sifatidagi ongidan butun holda idrok qilinmagan yoki sezgi a’zolari yordamida idrok etila olmaydigan ob’ektlarning in’ikosining (tasavvurlar, sxemalar va boshqa obraz-modellarnin yoki jo‘rttaga paydo bo‘lishiga yoxud ataylab qurilishiga olib keluvchi bilish faolligidir. (mas., kelajakni mo‘ljallagan tarix hodisalari idrok etila olmaydigan yoki umuman mavjud bo‘lmagan dunyoning voqealari – miflar va ertaklardagi hayri-tabiiy personajlar va b.)

***Hayotiy ma’nolar*** – bu inson uchun uning borliq bilan befarq bo‘lmagan shunday aloqalari majmuasiki, ularda insonning uni o‘rab olgan voqeilikdan ob’ektiv bog‘liqligi sifatida ham, uning ehtiyojlari va intilishlari ko‘rinishida ham o‘z aksini topadi. Biz kundalik hayotimiz davomida hattoki, ko‘p hollarda o‘zimizning turmush psixologi ekanligimizni ham unutgan holda ulardan juda ko‘p foydalanamiz. Bu o‘rinda «turmush» so‘zidan tashqari «kundalik psixologiya» yoki «odatiy psixologiya» deyish ham mumkin. Turmush (odatiy) psixologiyasi kundalik ong tarkibiga kiradi.

***Xotira*** – insonning o‘tmishi tajribasini eslab qolish, fikriy tashkil qilish, saqlash va qayta eslashga yo‘naltirilgan ko‘plab psixik jarayonlari, hatti-harakatlari, holatlaridir.

***Hatti-harakat*** – insonning axloqiy o‘z-o‘zini ko‘rsatish momenti bo‘lib, bunda u boshqa kishiga nisbatan munosabati, o‘z-o‘ziga, guruh yoki jamiyatga, umuman tabiatga nisbatan shaxs sifatida o‘zini namoyon qiladi. Hatti-harakat faoliyat yoki faoliyatsizlik; so‘zlarda bildirilgan pozitsiya; imo-ishora ko‘rinishida, qarash, nutq ohangi, matnning ma’nosi shaklidagi biron narsaga nisbatan munosabatda jismoniy to‘siqlarni engib o‘tish va haqiqatni izlash tomon yo‘naltirilgan harakatda kabilarda ifodalanadi. Hatti-harakat – sotsial hulq-atvorning asosiy birligidir, uning hamisha guvohlari bo‘ladi: o‘zining sotsial ifodasini topmagan ichki echimi hali hatti-harakat bo‘la olmaydi. SHuning uchun hatti-harakat orqaga qaytmas xarakterga ega, uni «qayta

o‘ynab» bo‘lmaydi – aynan shu erdan sodir etilgan hatti-harakat uchun shaxsiy javobgarlik vujudga keladi. Hatti-harakatda inson shaxs sifatidagina namoyon bo‘lib qolmasdan, balki ushbu sifatda shakllanadi ham.

***Qayta hosil qilish*** – kuzatish mumkin bo‘lgan u yoki bu belgilar shaklidagi faollashgan mazmunning qayta tiklanishi va qayta qurilishidan iborat bo‘lgan aqliy hodisadir.

***O‘ylar*** – insonning hayotidagi kelajak hayot manzaralarini aks ettiradigan shirin tasavvurlari, fantaziya va orzu-niyatlaridir.

***Shaxsiy kontakt*** – o‘zaro hamkorlarni yagona sotsial butunlikka (ikki, uch yoki ko‘proq kishilardan iborat) birlashuv darajasini anglatuvchi shaxsiy munosabat tavsifidir.

***Shaxs erkinligi –*** insonlarning o‘z xayoti va faoliyatini amalga oshirish, ozod shaxs sifatida mehnat qilish, bilim olish, o‘zi istagan kasb, hunarli, diniy e’tiqod va boshqalar ixtiyoriy tanlash.

***Shaxs*** - odamning jamiyat a’zosi sifatida, o‘z-o‘zini anglash va tafakkurni, faoliyatning ob’ektivligini, muloqot hamda biluvchanlikni tashuvchanligidir.

***Shaxs*** – inson aktivligiga xos psixik boshqaruvchilarning maxsus insoniy tizimi, psixikadagi shunday barqaror funksional tizimki, uning yordamida inson o‘zi istiqomat qiladigan muhitda tashabbuskor, maqsad sari intiluvchan bo‘libgina qolmasdan, balki yaxshilashga ham qodir bo‘ladi. Inson shaxs sifatidagi fazilatlarni egallaganligining asosiy belgisi uning turli hatti-harakatlarni sodir qila olish qobiliyati, ya’ni bir-birini inkor etuvchi imkoniyatlarni tanlash, o‘z hayoti hamda o‘zgalar hayoti bilan ham bog‘liq bo‘lgan ko‘plab muhim momentlarni sarhisob qila olishi, o‘z hatti-harakatlari uchun ma’suliyatni o‘z zimmasiga ola bilishi kabilardir.

***Shaxsning psixologik tarkibiy tuzilishi*** - insonning psixologik o‘ziga xosligini xarakgerlaydigan va bir butun tarkibiy tuzilishga umumlashtnrilgai shaxsnnng o‘ziga xoslgi, hamda fazilatlarning dinamik sisgemasidir.

***Shaxsning psixologik o‘ziga xosligi*** - ruxiy jarayonlar va uning ruxiyatininng turg‘un, mustaxkamligiga bog‘lnq ravishdagi kompleks holatlarnnnng birgalikda mavjud bo‘lishligidir.

***Shaxsning bus-butunligi*** - progressiv (ijobiy) nnsoniyatning ma’naviy merosi va amalda mavjud bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarining ijtimoiy sub’ekt tomonidan to‘liq o‘zlashtirish faoliyati, uyg‘un, har tomonlama rivojlangan shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega ideallarga yaqinlashuvining mezoni.

***Shaxsning har ishga mohirligi*** - shaxsning ijodiy imkoniyatlari, ehtiyojlari, qobiliyatlarini chegara bilmaydigan rivojlanishi sifatida qarab ko‘riladigan xususiyatidir.

***Shaxsning aqliy sifatlari (fazilatlari)*** - shaxsning aqliy jihatdan kamolotga etishuvi uning aqliy, zehniy sifatlari, fazilatlari orqali namoyon bo‘ladi. Bu darajaga olib boruvchi sifatlar: bilag‘onlik, ob’ektivlik, fikrlovchanlnk, sevishganlik hisoblanadi.

***Shaxsning yo‘nalganligi*** - odampnng dunyo bilan munosabatlarning bir butun sistemasini ta’minlab beradigan va extiyojlarning dinamikligini o‘zida namoyon etadigan ko‘rsatmalar, yo‘l-yo‘riklar, sabablar, manfa-atdorliklar, shaxsnpng mazmuniligi, shaxsning ma’nolari, odamning boshka intilishlari kabi munosabatlarining psixologik tuzilmasi.

***Shaxsning har tomonlama kamolotga etishi*** - ma’lum bir real tarixiy shart-sharoitlarda amalga oshirish mumkin bo‘lgan Qobiliyatlar va iqtidorlarning, uning mohiyatini tashkil etadigan hamma kuchlarining to‘liq, va batamom rivojlanishidir.

***Shaxsiy aloqadorlik*** – bu bog‘liqlikning dinamik jihati bo‘lib, hamkorlar o‘rtasidagi maqsadga erishishda qo‘llaniladigan vositalarni kelishi, ulardan har birining qo‘llaydigan strategiyasini koordinatsiya qilishni ta’minlaydi. Aloqadorlik bog‘liqlikni ishtirokchilar manfaatiga moslashtirishning tez moslashuvchan mexanizmidan iborat. U kelishuv *o‘zaro hamkorlik* yoki kurashga, har bir tomonning o‘z maqsadiga erishishi uchun undashi, muammo va vazifalarni o‘zicha tasavvur qilishi, ularni hal qilishning o‘z usul va vositalaridan iborat bo‘lishi mumkin.

***Shaxsiy munosabat*** – bu hamkorlikdagi faoliyatning ehtiyojlari tufayli yuzaga keladigan va *o‘zaro aloqadorlik*dagi strategiyalar kelishuvini *kontaktlar* o‘rnatilishi va rivojlantirilishining murakkab va serqirra jarayoni, ular o‘rtasidagi *munosabatlar*ning o‘rnatilishi va saqlab turilishidir. Kontakt, o‘zaro aloqadorlik, munosabatlar, kommunikatsiya va idrok shaxsiy munosabatning komponentlari hisoblanadi.

***Shaxsiy aloqalar*** – bu muayyan vaqt ichida ikki yoki undan ortiq kishilar o‘rtasida qaror topadigan barqaror munosabatlardir. Dastlab o‘zaro aloqadorlik ko‘rinishida paydo bo‘lib, keyin tez takrorlanishi tufayli u barqaror munosabatlarga aylanadi. Munosabatlarga misol: dushmanlik, musobaqa, muhabbat, do‘stlik, ishbilarmonlik munosabatlari. «Jabrdiyda-agressor», «xotinboz – farqiga etadigan xonim», «injiq boshliq – sustkash ijrochi» va boshqa shunga o‘hshash qaror topgan munosabatlar ishtirokchilar ularni o‘zgartirgunga qadar noaniq muddat davomida mavjud bo‘lib turadi.

***Ehtiyojlar*** – inson yoki hayvonning normal yashashi uchun zarur bo‘lgan etishmovchilikni aks ettiruvchi psixik yoki fiziologik keskinlik holatidir. Ehtiyojlar holat sifatida sub’ektning hayotiy faolligining shu ma’noda manbai

hisoblanadiki, yuz bergan keskinlikni yo‘qotishga qaartilgan sezilarli ta’sir kuchiga ega.

***Qobiliyatlar*** – u yoki bu sermahsul faoliyatni egallash mahorati bilan bog‘liq bo‘ladigan insonning individual – psixologik xususiyatlari bo‘lib, uning yordamida inson teng bo‘lgan boshqa sharoitlarda ushbu faoliyatni tez va puxta, oson va mustahkam ravishda tashkil qilish va amalga oshirish yo‘llarini o‘zlashtirib oladi.

***E’tiqod*** **–** shaxning shunday ongli yo‘nalishki, unga o‘y- qarashlari, prinslari va dunyoqarashga mos tarzda yashashga imkon beradi, e’tiqodning predmeti tarlicha bo‘ladi. Vatanga, dinga, fanga, kasbga, axloqiy normalarga, oilaga, go‘zallika va shunga o‘xshash.

***Home sapichs*** **–** aqlli zot.

***Ekologik tarbiya*** - o‘quvchilarni ekologik (atrofmuxit muxofazasi) bilimlari bilan qurollantirish, shuningdek tabiatga nisbatan axlokiy-estetik, okilona ekologik xatti-harakatlar ko‘nikmalarini, ekologik ta-fakkurini hamda ekologiya uchun faol kurashish qobiliyatlarini shakllantnrishdir.

***Erk*** - o‘z oldiga maqsadlarni qo‘yish va qabul qilish bnlan, shu bilan birga, ularni hal etish, amalga oshirish yo‘lida ichki va tashqi to‘sqinliklarni engib o‘tish bilan bog‘liq bo‘lgan tafakkuri va xatti-harakatlarini ongli ravishdagi o‘zo‘zini boshqaruvidir.

***Extiros*** **–** uzoq vaqt davom etadigan va barqaror bo‘lgan ematsional holat.

***O‘z-o‘zini anglash*** - kishining o‘ziga va o‘z faoliyatiga, shaxsiga anglangan munosabatda bo‘lishidir.

# FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI


1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: “O‘zbekiston” 2017 yil 102 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: “O‘zbekiston” 2016 yil 47 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O‘zbekiston” 2016 yil 486 b.
4. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. T. “O‘zbekiston”, 1997. 29 avgust. -7 bet.
5. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. T. 1997. 29 avgust. 9-10 bet.
6. Kelvin Seifert. Educational Psychology. 2009.
7. T.Melcherti "Foundations of Professional Psychology" 2011.
8. Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. Uchebnik.- M.: Aspekt Press, 1999.-376 s.
9. G‘oziyev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
10. G‘oziyev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2001
11. G‘oziyev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
12. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot.-T.: Universitet, 1999.- 96 b.
13. Karimova V.M. va boshk. Mustaqil fikrlash. - T.: Shark.-2000.- 112 b.
14. Karimova V.M., Sunnatova R. «Mustaqil fikrlash» o‘quv qo‘llanmasi bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etish uslubiyoti.-T.: Shark, 2000.- 16 b.
15. Майерс Д. Социальная психология перев. С англ.-СПб.: «Питер»,1999 - 688 с.
16. Методы эффективного обучения взрослых. Учебно-методическое пособие. (Авторский коллектив) - Москва - Берлин, 1998 - 124 с.
17. Прикладная социальная психология. / Под. ред. А. Сухова и А.Дергача.- М, 1998 - 688 с.
18. Сушков И.Р. Психология взаимоотношений. - М.: Академический Проект, 1999.- 448с.
19. Чалдини Р. Психология влияния. - СПб.: «Питер», 2000,-272 с.
20. Гамильтон. Я.С. “Что такое психология”. “Питер”, 2002.
21. Ананьев Б.Г. “Человек как предмет познания”. “Питер”, 2001.
22. Дружинина В. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.
23. Бурлачук Ф. Психодиагностика. “Питер”, 2002.
24. Айзенк М. Психология для начинающих. “Питер”, 2000.

25. Болотова А.К, Макарова И.В. Прикладная Психология: Учебник для вузов.- М.Аспект Пресс, 2006 – 382 с.

26. Веденская Л.В., Павлова Л.А. Деловая реторика: учебное пособие для вузов.- М.:ИКЦ "МарТ", 2004-512 с.

27. Ложкин Г.В. Повякель Н.И Практическая психология в системах "человек техника": Учеб.пособие.- К.: МАУП, 2003 – 296 с.

28. Немов Р.С. Практическая Психология Познание себя: Влияние на людей: Пособие для уч-ся-М:Гуманит. Изд.Центр ВЛАДОС, 2003.320 с.

29. Макарова И.В. Психология: пособие для сдачи экзаменов, 2-изд. Доп. М.: Юрайт. Издат, 2006. – 237 с.

30. Бороздина Г.В. Психология делового общения: Учебник. 2-е изд., М.: Инфра, 2006. – 295 с.

31. Тихомиров О.К. Психология: Учебник. М.: Высшее образование, 2006. – 538 с.

32. Немов Р.С. Психология: Учебник. –М.: Высшее образование, 2005.-639 с.

33. Психология: Учебник. Под ред. Б.А.Сосновского. – М.: Юрйт-Издат, 2005.-660 с.

34. Тертель А.Л. Психология в вопросах и ответах: учебное пособие.- М.: Велби, изд-во Проспект, 2005.-176 с.

35. Karimova V.M. Kasbiy psixologiya (O‘quv qo‘llanma). T.: "O‘qituvchi", 2001.

36. Karimova V.M. Kasbiy psixologiya (O'quv-uslubiy qo'llanma). T.: "TTYMI", 2013.

37. S.Jalilova, F. Xaydarov, N.Xalilova. Kasb psixologiyasi. – o‘quv qo‘llanma., T., 2010.

38. Z.Nishonova va boshqalar. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya.O‘quv qo‘llanma. "Tafakkur bo‘stoni". T:. 2011.

39. N. Boymurodov. Amaliy psixologiya.O‘quv qo‘llanma. – T., 2008

40. Рогов Е. И. Настольная книга практического психология. М.: "Владос", 2004 г.

41. G‘oziyev E.G‘. Kasb psixologiyasi T., Noshir, 2001.

42. G‘oziyev E.G‘. YOsh davrlar psixologiyasi T., 1994.

43. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. TDIU.- 2005.- 201 bet.

44. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. T., 1994, - 94 b.

45. Karimova V.M. Targ‘ibotning psixologik uslublari.- T.: Ma'naviyat, 2000 – 16 b.

46. Oila psixologiyasi. Prof. /. Shoumarov tahr. ostida.- T.: SHarq, 2001
47. Петровская Л.А. "Компетентность в общении". Социально-психологический тренинг. М., Университет, 1989.
48. Шейнов В. "Психология и этика делового контакта". М., Амалфея, 1997.
49. Вечер Л. Секреты делового общения. Минск, 1996.
50. Корнилова Т. Введение в психологический эксперимент. М., 1997.
51. Чалдини Р. Психология влияния. М., 2000.
52. Интернет сайтлари
53. www.inetlibrary.com. Интернет-кутубхона

## MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| | **Kirish** | 3 |
| **I BOB** | **Kasbiy psixologiyaning nazariy asoslari** | |
| **1.1.** | **Kasbiy psixologiyaga kirish** | 5 |
| 1.1.1. | Kasbiy psixologiyaning tarixi | 5 |
| 1.1.2. | Kasbiy psixologiyaning muhim va xarakterli muammolari. | 7 |
| **1.2.** | **Kasbiy psixologiyaning nazariy va konseptual asoslari** | 21 |
| 1.2.1. | Kasbiy psixologiyaning tabiiy, ilmiy asoslari | 21 |
| 1.2.2. | Psixik taraqqiyotning nerv-fiziologik asoslari | 26 |
| 1.2.3. | Psixika va ong rivojlanishining nazariy va konseptual asoslari. | 31 |
| 1.2.4. | Psixika va ong rivojlanishidagi nazariyalarning tahlili | 32 |
| **1.3.** | **Kasbiy psixologiyaning asosiy metodlari** | 42 |
| 1.3.1. | Kasbiy psixologiyaning metodlari haqida tushuncha | 42 |
| 1.3.2. | Metodlarning klassifikatsiyasi | 48 |
| **1.4.** | **Kasbiy psixologiyaning klassifikatsiyasi va ularni tanlash** | 69 |
| 1.4.1. | Kasb tushunchasi – kasbiy psixologiyaning konseptual asosidir | 69 |
| 1.4.2. | Mutaxassisning kasbiy tayyorligi | 74 |
| 1.4.3. | Kasblarni psixologik tizimlash | 76 |
| **II BOB** | **Kasbga o‘qitishning psixologik asoslari** | 80 |
| **2.1.** | **O‘qitishning psixologik asoslari** | 80 |
| 2.1.1. | Kasbga o‘qitishning rivojlanish tarixi. | 80 |
| 2.1.2. | O‘quv faoliyatining psixologik mohiyati. | 89 |
| **2.2.** | **O‘qitish jarayonida o‘qituvchining imkoniyatlari** | 96 |
| 2.2.1. | O‘qitish jarayonini amalga oshirish maqsadlari | 96 |
| 2.2.2. | Ta’lim jarayonini tashkillashtirishda o‘qituvchining imkoniyatlari | 99 |
| 2.2.3. | Ta’lim oluvchilarning diqqatiga psixologik tavsif. | 111 |
| **2.3.** | **O‘qitishning asosiy nazariyalari va modellari** | 120 |
| 2.3.1. | O‘quv faoliyatining psixologik mohiyati | 120 |
| 2.3.2. | Bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni va uning psixologik komponentlari | 122 |
| 2.3.4. | Ta’lim berish jarayoni - emotsional jarayon | 125 |
| 2.3.5. | O‘qish faoliyatini boshqarish | 130 |
| **III BOB** | **Kasbiy layoqat tashxisi** | |
| **3.1.** | **Professiogramma** | 140 |
| 3.1.1. | Professiogramma haqida tushuncha | 140 |
| 3.1.2. | Professiografiyaning psixologik asoslari | 141 |
| 3.1.3. | Kasb-korning (hunarning) mamlakat iqtisodiyoti uchun ahamiyati | 146 |

| | | |
|---|---|---|
| 3.1.4. | Kasb va ixtisoslikning ijtimoiy tavsifi | 150 |
| 3.1.5. | Kasbning ijtimoiy psixologik ahamiyati va tavsifi | 153 |
| **3.2.** | **Psixologik tanlov** | 155 |
| 3.2.1. | Psixologik tanlov va kasb tanlash | 155 |
| 3.2.2. | Kasbiy tanlov xulosasi va uning ahamiyati | 165 |
| 3.2.3. | Shaxsning kasbiy shakllanishi | 166 |
| 3.2.4. | Kasbiy o‘z o‘zini aniqlash bosqichlari | 168 |
| **IV BOB** | **Kasbiy psixodiagnostika** | |
| **4.1.** | **Kasbiy faoliyat psixodiagnostikasi** | 171 |
| 4.1.1. | Psixodiagnostika haqida tushuncha | 171 |
| 4.1.2. | O’qituvchi tomonidan yaratilgan baholash strategiyalari | 172 |
| 4.1.3. | Topshiriqni bajarishni baholash | 182 |
| 4.1.4. | Portfolio haqida tushuncha | 186 |
| 4.1.5. | Motivatsiya va o’ziga ishonchni oshiradigan baholash | 190 |
| 4.1.6. | Standartlashtirilgan test haqida tushuncha | 200 |
| 4.1.7. | Talabaning kuchli va zaif tomonlarini o’rganish | 203 |
| 4.1.8. | Muvaffaqiyat testlari | 205 |
| 4.1.9. | Diagnostik testlar | 207 |
| **4.2.** | **Kasbiy faoliyat darajalari va ularni aniqlash yo‘llari** | 218 |
| 4.2.1. | Kasbiy faoliyat jarayonida shaxs taraqqiyoti | 218 |
| 4.2.3. | Shaxsning kasbiy kamoloti | 223 |
| 4.2.4. | Mehnat sub’ektining kasbiy shakllanish omillari | 228 |
| **4.3.** | **Reorientatsiya - psixologiyaning asosiy muammosi sifatida** | 234 |
| 4.3.1. | Qayta kasbga yo‘llashning psixologik mohiyati | 234 |
| 4.3.2. | Shaxs kasbiy shakllanishi jarayonidagi inqirozlari | 237 |
| 4.3.4. | Reorientatorning izlanuvchanligi, ijodiy imkoniyatlari, innovatsiyaga nisbatan munosabati | 243 |
| **4.4.** | **Kasbiy va individual tanlovdagi izlanishlar** | 245 |
| 4.4.1. | Kasbiy va individual izlanishda o‘zlikni anglash | 245 |
| 4.4.2. | Kasbiy anglanganlik belgilashda o‘qituvchining strategiyalari | 247 |
| **V BOB** | **Yosh davrlarning turli bosqichlarida kasbiy o‘zlikni anglash** | |
| **5.1.** | **Ilk o‘spirinlik davrining psixik xususiyatlari** | 260 |
| 5.1.1. | Ilk o‘spirinlik davrida aqliy rivojlanish | 265 |
| 5.1.2. | Ilk o‘spirinlik davrida yoshlarning shaxsiy xususiyatlari | 270 |
| **5.2.** | **Talabalarning psixologik xususiyatlari va o`quv faoliyati** | 274 |
| 5.2.1. | Talabalarning psixologik xususiyatlari | 275 |
| 5.2.2. | Talabalar tafakkurining xususiyatlari | 280 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | 5.2.3. | Talaba shaxsining ijtimoiy – psixologik xususiyatlarini tekshirish | 285 |
| | 5.2.4. | Oliy ta'limdagi qiyinchiliklarni bartaraf qilish yo'llari | 287 |
| | 5.2.5. | Darsni psixologik tahlil qilish | 293 |
| **VI BOB** | **Kasb va shaxs psixologiyasi** | | |
| **6.1.** | **Ta'lim psixologiyasi** | | 297 |
| | 6.1.1. | O'quv faoliyatining psixologik mohiyati | 297 |
| | 6.1.2. | O'qish motivlari | 303 |
| | 6.1.3. | Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni va uning psixologik komponentlari | 304 |
| | 6.1.4. | Ta'limning noan'anaviy usullari | 305 |
| **6.2.** | **Tarbiya psixologiyasi** | | 308 |
| | 6.2.1. | Xulq-atvor va odatni shakllantirish shaxsni tarbiyalashning asosiy yo'nalishi sifatida. | 308 |
| | 6.2.2. | Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, psixologik shart-sharoitlari | 314 |
| | 6.2.3. | Tarbiyasi "qiyin" bolalar psixologiyasi | 317 |
| **6.3.** | **Kasb va shaxs psixologiyasi. Ta'lim jarayonini boshqarish nazariyalari** | | 318 |
| | 6.3.1. | Kasb va shaxs | 318 |
| | 6.3.2. | Kasbiy etuklik va shaxs komilligi | 320 |
| | 6.3.3. | Shaxsiy fazilatlarning kasb tanlashdagi roli | 329 |
| | 6.3.4. | Ta'lim jarayonini boshqarish nazariyalari | 337 |
| | 6.3.5. | Bo'lg'usi o'qituvchining o'quv faoliyatini boshqarish | 342 |
| | Glossariy | | 345 |
| | Adabiyotlar ro'yxati | | 362 |

Bosishga ruxsat etild «25» avgust 2018 y.
Qogʻoz oʻlchami 60x80, 1/16. Hajmi 23 b.t. 50 nusxa.
"Yoshlar matbuoti" bosmaxonasida chop etildi.

**Тошкент архитектура қурилиш институти 5111000 "Касб таълими" бакалавр йўналиши учун катта ўқитувчилар Н.А.Арипова, Л.А.Холмаматова ва Н.Б.Қурбоновалар томонидан**

**"Касбий психология" фанидан тайёрланган ўқув қўлланмага**

## ТАҚРИЗ

Ўзбекистонда Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури асосида юқори малакали кадрлар тайёрлаш суръатлари йил сайин такомиллашиб бормоқда.

Ушбу дастурга киритилган вазифанинг сифат босқичига ўтиш, олий ва ўрта махсус касб-ҳунар таълими тизимида таҳсил олаётган талабалар билим ва малакаларига шундай талаблар қўядики, улар ишлаб чиқаришнинг қайси соҳасида фаолият юритмасин, ватан тараққиёти, юрт равнақи ва халқ фаровонлигига астойдил хизмат қиладиган фидоий, профессионал касб эгалари бўлишлари лозим.

Ўқув қўлланмага киритилган ўқув материаллари каторига фаннинг мақсад ва вазифалари,талабаларнинг билимига, кўникма ва малакасига қўйиладиган талаблар, ўқитиш жараёнида ўқитувчининг имкониятлари, ўқитишнинг асосий назариялари ва моделлари, профессиограмма, психологик танлов, касбий фаолият психодиагностикаси, касбий фаолият даражалари ва уларни аниқлаш йўллари, реориентация психологиянинг асосий муаммоси сифатида, касбий ва индивидуал танловдаги изланишлар, касбий психологияга кириш, касбий психологиянинг назарий ва концептуал асослари, касбий психологиянинг асосий методлари, касбий психологиянинг классификацияси ва уларни танлаш, касбга ўқитишнинг психологик асослари, илк ўспиринлик ёшининг психологик хусусиятлари,талабалар психологияси ва ўқув фаолияти, талабаларнинг психологик хусусиятлари, таълим психологияси, касб ва шахс психологияси, таълим жараёнини бошқариш назариялари ёритиб берилган.

Тайёрланган ўқув қўлланма унинг мазмун ва шаклига қўйилган барча талабларга жавоб беради ва уни нашр этиш учун тавсия этиш мумкин.

**Тошкент архитектура қурилиш институти**
**«Қурилиш технологияси ва ташкилиёти»**
**кафедраси доценти:** **М.Ю.Маҳкамова.**

**Тошкент архитектура қурилиш институти 5111000 “Касб таълими” бакалавр йўналиши учун “Касбий психология” фани бўйича тайёрланган ўқув қўлланмага**

# Т А Қ Р И З

Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида»ги Қонуни ва «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” талабларига ҳамда 2017 йилнинг 6 апрелида Вазирлар Маҳкамасининг “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдқилаш тўғрисида”ги қарорига мувофиқ умумтаълим фанларини ўқитишнинг замонавий методологиясини яратиш, таълим жараёнига компетенлик нуқтаи назаридан ёндашган ҳолда умумий ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимнинг Давлат таълим стандартларини такомиллаштириш, узлуксизлигини таъминлаш, ўқув дастурлари ва адабиётларнинг янги авлодини яратиш ҳамда амалиётга изчил жорий этиш мақсад қилинган. Ушбу вазифлардан келиб чиқиб, бугунги кунда дарсликларини қайта кўриш ва янги авлодини яратиш имконини берди.

“Касбий психология” фани жаҳон миқёсида тан олинган энг илғор методлар ва йўналишлар билан бойиб бормоқда. Бугунги кунда ўзининг кенг тадбиқини кутиб ётган, фаннинг бошқа соҳалари билан боғлиқ равишда ишлаб чиқилган янги концепциялар ва назариялар ривожлантирилмоқда.

“Касбий психология” фанининг умумий назарий асосларини, яъни таълим ва тараққиётнинг ўзаро боғлиқлиги, таълимнинг тузилиши, таълим психологияси курсининг асосий мазмуни бўлган ўқувчиларнинг ўқиш ва билиш фаолиятини шакллантириш ҳамда тарбия психологиясининг таълим-тарбия жараёнида ўқувчи шахсини шакллантириш каби муҳим муаммоларни камрайди. Бунда ўқув-тарбия жараёнларининг ўзига хос хусусиятлари, замонавий таълим-тарбия назариясининг вазифалари ўрганилади.

Н.Арипова, Л.Халмаматова ва Н.Қурбоновалар томонидан «Касбий психология» фани бўйича тайёрланган ўқув қўлланма ушбу фаннинг фан дастурига мос ҳолда бўлиб, ушбу қўлланмадан 5111000 – Касб таълими йўналишида таҳсил олаётган талабалар, малака ошириш факультетларида малака оширувчи профессор-ўқитувчилари фойдаланишлари мумкин.

Тайёрланган ўқув қўлланма Кириш қисми ва жами 6 бобдан иборат бўлиб, унинг биринчи бобида Касбий психологиянинг назарий асослари ёритиб берилган. Иккинчи бобида эса Касбий ўқитишнинг психологик асослари ҳақида маълумотлар берилган. Учинчи бобида Касбий лаёқат ташхиси ҳақида, тўртинчи бобида Касбий фаолият психодиагностикаси ҳақида маълумотлар берилган. Бешинчи боби Ёш даврларнинг турли босқичларида касбий ўзликни англаш, яъни Илк ўспиринлик даврининг психик хусусиятлари ҳамда талабаларнинг психологик ва ўқув фаолияти ҳақида маълумотлар келтирилган. Олтинчи боби Касб ва шахс психологияси,

яъни Таълим ва тарбия психологияси ҳамда касб ва шахс психологияси, таълим жараёнини бошқариш назарияларига бағишланган.

Шунингдек, ўқув қўлланмани тайёрлашда Давлатимиз раҳбари муаллифлигидаги адабиётлар ҳамда чет элнинг соҳага оид замонавий адабиётлардан кенг фойдаланилган ва адабиётлар рўйхатида ҳам келтирилган.

5111000 -“Касб таълими” йўналиши талабалари учун тайёрланган ўқув қўлланма ушбу фаннинг фан дастурига мос ҳолда бўлиб, бакалаврлар тайёрлаш талабларини ҳисобга олган ҳолда яратилган.

Юқоридагиларни инобатга олиб, бакалавриат таълим йўналишлари бўйича тайёрланган ўқув қўлланма юқори малакали мутахассисларни тайёрлашни таъминлайди ҳамда замонавий адабиётларга қўйиладиган барча дидактик ва методик талабларга жавоб беради деб ҳисоблайман ва уни чоп этишга тавсия этаман.

**ТДПУ профессори, п.ф.д.** **Ф.Халилов**

XODIMLAR BO'LIMI

Ф. Халилов ning imzosini tasdiqlayman Nizomiy nomli TDPU ilmiy Kengashining kotibi
26.06.2018й